

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

ABDUMUTAL QAMBAROV, INOYATXON ARZIMATOVA

Falsafa

Toshkent – 2022

UDK:

Mas'ul muharrir:

Yuldasheva Dilafruz - filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Taqrizchilar:

Mamadjon Mamatov - falsafa fanlari doktori, professor

Baxtiyor Tolipov - falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Abdumutal Qambarov, Inoyatxon Arzimatova.

Falsafa. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: 2022 y. 356 bet.

Mazkur darslikda O'rta Osiyoning buyuk mutafakkirlari hamda mutasavvufklarining falsafiy qarashlari, falsafaning kelib chiqish takomil bosqichlari, ularning mazmun-mohiyati, funksional o'zgarib borish jarayonlari, shaxsning ijtimoiy-ma'naviy faoliyatiga ta'siri masalalari atroflicha yoritib berildi.

Shuningdek, mamlakatdagi demokratik islohotlarning rivojlanishi va diniy qadriyatlarning barkamol shaxsni tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati xususida so'z boradi. Shu bilan birga, mamlakatimizda korrupsiya, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning O'zbekiston tajribasi falsafiy jihatdan tahlil qilindi.

Farg'ona davlat universiteti kengashining 2022 yil ____ _____dagi yig'ilishi qarori bilan nashrga ruxsat etilgan. (____-sonli bayonnoma)

SO'ZBOSHI

Mustaqillikning taraqqiyot yo'li mamlakatimizda fan rivoji uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Fanning barcha sohalaridagi kabi falsafada tub o'zgarishlar sodir bo'ldi. Zero, eng qadimiy rivojlanish tarixiga ega bo'lgan falsafa o'zida turli davrlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlarini mujassamlashtirib, voqea va hodisalarning mohiyatini anglashni, nafaqat anglash, balki ularga munosabat bildirishni shakllantiradi. Modomiki, shunday ekan, bugungi kunda falsafani yanada rivojlantirish, yosh avlodni falsafiy dunyoqarash, zamonaviy fan yutuqlariga asoslangan falsafiy bilimlar bilan qurollantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev aytganidek, "ijtimoiy-gumanitar fanlar – tarix, falsafa, huquqshunoslik, arxeologiya, sharqshunoslik, O'zbekiston xalqlari madaniy merosi, tilshunoslik va adabiyotshunoslik, san'atshunoslik va boshqa sohalarda ham muhim natijalarga erishilmoqda"¹.

Jamiyatning ma'naviy yangilanishi jarayonida falsafani yoritishga yangicha munosabat vujudga keldi. Mutafakkir va mutasavvurlarning madaniy-ma'naviy va diniy-falsafiy merosini har tomonlama o'rganish uchun keng imkoniyatlar eshigi ochildi.

Falsafiy tafakkurning ijtimoiy-siyosiy asoslari har qanday jamiyat, xalqning ijtimoiy ongini o'zgartirishga, uning pirovard maqsadlariga xizmat qilishga qaratilgan. Bugungi kunda falsafiy tafakkurning yangilanishi nafaqat umumiy ma'naviy muhitning, balki har bir jamiyat a'zosining ijtimoiy qiyofasi, ruhiy dunyosi, maqsad va ehtiyojlarining o'zgarishi hamdir. Birinchi Prezident Islom Karimov ta'kidlaganidek: "Falsafa barcha fanlarning otasi. Falsafani bilmaydigan odam - meditsina yoki ta'lim, san'at yoki madaniyat sohasi vakili bo'ladimi, bundan qat'iy nazar – hayotning, o'z kasbining ma'no-mazmunini yaxshi tushunmaydi. Misol uchun, tarixni tahlil qilish uchun har bir voqea va jarayonga falsafiy qarash, ularni umumlashtirgan holda zarur xulosalar chiqara olish kerak.

¹Ш.Мирзиёев. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси.Т: Ўзбекистон , 2022. 236-б.

Shu bois, tarixchi bo‘lish uchun falsafiy tafakkur qobiliyatiga ega bo‘lish darkor”². Shundagina inson buyuk allomalar orzu qilgan fozil odamlarning komil fazilatlarini shakllantirish va takomillashtirishga munosib hissa qo‘sha oladi.

“Falsafa” fani barcha zamonlarda va mamlakatlarda hamma universitetlar va boshqa oliy o‘quv yurtlarida o‘rganish uchun majburiy sanalgan fundamental fanlardan biri bo‘lgan va shunday bo‘lib qolmoqda.

Mazkur fanni mohiyatini o‘rganishimiz jarayonida, uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlashimiz va falsafa inson o‘z-o‘zini va o‘zini qurshagan dunyoni anglab yetishida qanday rol o‘ynashini tushuna boshlaymiz. Zero, o‘zlikni anglash, milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy-ma’naviy bog‘liqlik til orqali namoyon bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, yoshlarimizni falsafiy tafakkur bilan qurollantirish - davr talabi. Nega deganda, bugungi zamonda har qanday raqib va muxolif bilan bahsga kirishish uchun uning qarashlari va g‘oyasi, falsafasini ko‘proq bilishimiz, kerak bo‘lsa, uning o‘zidan ham puxtaroq egallashimiz lozim.

Falsafa fani o‘quv rejadagi inson va jamiyat hayoti hamda faoliyatini o‘rganuvchi - tarix, psixologiya sotsiologiya, pedagogika kabi ijtimoiy-gumanitar fanlar, shuningdek, tabiiy jarayonlar dialektikasini o‘rganuvchi fizika, matematika, biologiya, astronomiya, kimyo kabi tabiiy ilmiy fanlar bilan aloqador. Umuman, falsafa tabiiy va ijtimoiy fan bilimlarini o‘zida mujassamlashtiruvchi olam va odam haqidagi eng umumiy bilimlar majmui.

²Каримов И.А. Ёшларга ишонч билдириш, уларнинг ташаббус ва салоҳиятини рўёбга чиқариш - бугунги куннинг устувор вазифасидир.//Инсон, унинг ҳуқуқ ва эркинликлари- олий кадрият - Т.: Ўзбекистон, 2006.- Б. 117.

BIRINCHI MODUL

1-mavzu: Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo‘lg‘usi pedagoglarda o‘qitishning nazariy va amaliy ahamiyati

Reja:

1. “Falsafa” atamasining lug‘aviy ma’nosi, falsafa fani predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o‘zgarib turishi.
2. Falsafa fanining bahs mavzulari. Borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson, jamiyat va uning istiqboli.
3. Dunyoqarash tushunchasi, uning mazmun-mohiyati. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari.
4. Falsafaning asosiy funksiyalari. Yosh avlodni ma’naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruhida tarbiyalashda falsafa fanining ahamiyati.

Tayanch iboralar: falsafa, dunyoqarash, jamiyat, borliq, mifologiya, diniy dunyoqarash, falsafiy dunyoqarash, falsafaning funksiyalari, ma’naviyat, komillik, Avesto, Zardo’sht, xratugina, xaratupat, ontologiya, gnoseologiya, monizm, dualizm, plyuralizm, vedalar.

Mavzuning maqsadi: Falsafaning ma’no va mohiyatini, uning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va vazifalarini ochish.

1. “Falsafa” atamasining lug‘aviy ma’nosi, falsafa fani predmetining jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o‘zgarib turishi.

“Falsafa” atamasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib, (“filosofiya”) donishmandlikni sevish degan ma’noni bildiradi. “Faylasuf” so‘zi birinchi marta qadimgi yunon olimi Pifagor (e.o. VI asr oxiri – V asr boshlari) tomonidan ishlatilgan.

Pifagorning fikricha, falsafaning ma’nosi – haqiqatni izlashdir. Bunday fikrni qadimgi yunon faylasufi Geraklit (e.av. 520-460) ham ilgari surgan. Aflotun (e.av. 428-347)ning aytishicha, falsafaning vazifasi abadiy va mutloq haqiqatga erishishdir. Arastu (e.av. 384-322) falsafaning vazifasi borliqdagi umumiylikni ochish, predmeti esa borliqning birlamchi asoslari va sabablaridan iboratdir, degan fikrni bildiradi.

E'tibor bering: Birinchilardan bo'lib **Aflotun va Arastu** falsafaning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rnini belgilab bergan mutafakkirlardan hisoblanadi.

Eradan oldingi VIII asrda Hindistonda yaratilgan siyosat haqidagi "Arxashstre" kitobida ishlatilgan "darshana" degan tushuncha falsafani ta'riflash ma'nosida ishlatilgan.

Markaziy Osiyoning qadimgi yodgorligi "Avesto"da ham "faylasuf" degan tushuncha o'rnida donishmandni ifodalaydigan **xratugina** (donishmandlikka boradigan) va **xaratupat** (donishmandlikka yetishgan) degan so'zlar ishlatilgan.

Buyuk mutafakkir Forobiy falsafa so'zini hikmatni qadrlash deb talqin etgan.

Xitoy falsafasida "chje-syue" (donishmandlik fani) degan atama XIX asrda shakllangan. Biroq bu qadimgi Hindistonda va Xitoyda falsafiy fikrlar bo'lmagan degan ma'noni bildirmaydi.

Muammo: Kishilar borliq va unga munosabatlarini o'rgana borib, turmush tajribalari asosida shakllangan tushunchalarini tafakkurlarida qayta ishlab dunyoqarashning rang-barang ko'rinishlarini hosil qiladi.

Bu narsa, ayniqsa, XIX asrning ikkinchi yarmida va XX asrda yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu davrda nihoyatda rang-barang falsafiy maktablar, yo'nalishlar yuzaga keldi, ularda borliq, bilish, inson va insoniyatning turli tomonlari falsafaning predmeti, bahs mavzui bo'lib xizmat qiladi. Biroq bular rang-barang falsafiy konsepsiyalar o'rtasida umumiy jihatlar yo'q, degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Falsafiy bilimlarga xos eng muhim jihatlar quyidagilarda ifodalanadi:

Birinchidan, borliqning eng umumiy masalalarini tadqiq etish. Bunda borliq muammosi universal ma'noda tushuniladi: borliq va yo'qlik; moddiylik va ideallik; tabiat, jamiyat va inson borlig'i. Borliq to'g'risidagi falsafiy ta'limot **ontologiya** (ontos – mavjudlik, logos – ta'limot) nomini oldi.

Ikkinchidan, bilishning eng umumiy masalalarini tahlil etish. Olamni bilish mumkinmi, mumkin emasmi; bilishning imkoniyatlari, usullari, metod va maqsadlari; bilishning mohiyati nimada, haqiqat nima; bilishning obykti va subykti qanday ma'noga ega va h.k. Bilish to'g'risidagi falsafiy ta'limot **gnoseologiya** (gnosez – bilim, logos – ta'limot) nomini oldi.

Uchinchidan, jamiyat mavjud bo'lishi va rivojlanishining eng umumiy masalalari hisoblanadi. Sirdan bu masala borliq to'g'risidagi ta'limotda o'z aksini topadi. Modomiki, jamiyat shaxs taraqqiyotiga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatar ekan, uning sotsial sifatlarini shakllantirar ekan, shu bois falsafada bu sohani alohida

ajratib ko'rsatish mantiqan to'g'ridir. Falsafada ijtimoiy hayotni tadqiq etadigan soha **ijtimoiy falsafa** (sotsial falsafa) deb ataladi.

To'rtinchidan, insonning eng umumiy va muhim masalalarini o'rganish. Binobarin, inson falsafiy donishmandlikning asosi va so'nggi nuqtasi bo'lganligidan uni maxsus o'rganish taqozo qilinadi. Hayotda mavhum ruh emas, balki konkret inson ijod qiladi, harakat qiladi. Inson falsafasi falsafiy antropologiya deb ataladi.

Demak, falsafa borliqning, bilishning hamda inson bilan olam o'rtasidagi munosabatlarning eng umumiy tamoyillari to'g'risidagi ta'limotdir. Shu bilan birga, falsafa fanining predmeti jamiyat, fan va texnika taraqqiyoti natijasida doimo o'zgarib turadi.

2. Falsafa fanining bahs mavzulari. Borliq, dunyoni falsafiy anglash, inson, jamiyat va uning istiqboli.

Har bir falsafiy tizim o'zining bosh muammosiga ega bo'lib, bu narsa uning asosiy mazmunini va mohiyatini ifodalagan. Chunonchi, antik zamon faylasuflari uchun olamning mavjudligi haqidagi masala ana shunday ma'noga ega bo'lgan. Sokrat buni "**o'z-o'zingni bil**" degan tamoyil bilan bog'laydi, yangi zamon faylasuflari uchun bu – bilish qanday amal qiladi, degan muammodir.

Biroq falsafiy tafakkurning xarakterini yoritishga xizmat qiladigan umumiy muammolar ham mavjud. Ular ichida quyidagilar: "Nima birlamchi: ruhmi yoki materiya, ideallikmi (ma'naviylik) yoki moddiylikmi?" – degan muammo asosiylardandir. Borliqni umumiy tushunish bu masalani hal etishga bog'liqdir. Boshqacha aytganda, borliqda moddiylik va ideallikdan tashqari hech narsa yo'q, uni turlicha hal etishdan materializm va idealizm, degan yirik falsafiy yo'nalishlar kelib chiqqan.

Materializm va idealizm haqidagi masalaga kengroq to'xtalib o'taylik. Materializm va idealizmga bo'linish falsafa taraqqiyotining qadimgi davrlaridan boshlangan. Nemis faylasufi G.V.Leybnis (1646-1716) Epikurni eng yirik materialist, Aflotunni esa eng ulkan idealist deb atagan edi. Nemis faylasufi F.Shlegel (1772-1829) shunday yozgan edi: "Materializm hamma narsani materiyadan kelib chiqib tushuntiradi, izohlaydi, uni butun narsalarning qandaydir ibtidosi, manbai sifatida idrok etadi... Idealizm esa hamma narsani ruhdan keltirib chiqaradi, materiyaning paydo bo'lishini ruhdan kelib chiqqan, deb hisoblaydi yoki materiyani unga bo'ysundiradi".

Materializmning quyidagi asosiy tarixiy shakllari mavjud:

Qadimgi Sharq va Qadimgi Yunon materializmi. Materializmning bu dastlabki shakli tashqi olamning narsa-hodisalarini ongdan tashqarida mavjud moddiy tuzilmalar va elementlarning holati tarzida qarab chiqadi (vakillari – Fales, Levkipp, Demokrit, Geraklit).

Yangi zamonning metafizik (mexanistik) materializmi (Yevropa).

U tabiat hodisalarini tushunishga asoslanadi. Olamning xossalarini harakatning asosan mexanik shakliga bog‘lab izohlaydi (G.Galiley, F.Bekon, J.Lokk, J.Lametri, K.Gelvesiy va b.).

Dialektik materializm: materializm va dialektika uzviy birlikda beriladi. (K.Marks, F.Engels).

Materializmning yana quyidagi turlarini ham qayd etish lozim:

Izchil materializm: materializm tamoyillari ham tabiatga, ham jamiyatga tatbiq etiladi (Marksizm);

Noizchil materializm: unda jamiyat va tarixni materialistik tushunishga e‘tibor berilmaydi (L.Feyerbax). Uning o‘ziga xos shakli **deizm** (teo lot. – xudo) bo‘lib, vakillari xudoni e‘tirof etsalar-da, biroq uning rolini pasaytirib yuboradilar: xudo materiyani yaratgan, harakatga dastlabki turtki bergan, xolos (F.Bekon, J.Toland, Franklin, M.Lomonosov).

Vulgar materializm: Vulgar materializm ideallikni moddiylik bilan, ongni materiya bilan aynan tenglashtiradi (Foxt, Moleshot, Byuxner).

Idealizm ong, ruh, tafakkur birlamchi, materiya, tabiat, borliq ikkilamchi deb talqin qiluvchi falsafiy qarashlar tizimi bo‘lib, birinchi galda obyektiv va subyektiv ko‘rinishlarga egadir.

Obyektiv idealizm dunyoning asosida inson ongidan tashqarida va unga bog‘liq bo‘lmagan ruhiy ibtido (g‘oya, olamiy aql) yotadi, deb hisoblaydi. (Aflotun, F.Akvinskiy, Shelling, Gegel). **Subyektiv idealizm** esainson ongidan tashqaridagi obyektiv reallikni inkor etib, faqat sub‘ektiv sezgilar mavjud, deb hisoblaydi (J.Berkli, D.Yum, G.Fixte).

Ruhiy ibtido qanday tushunilishiga qarab idealizmning turli ko‘rinishlari yuzaga kelgan: **panlogizm** (olamiy aql), **volyuntarizm** (olamiy iroda), **idealistik monizm** (yagona ruhiy mohiyat), **plyuralizm** (ko‘pdan-ko‘p birinchi unsur), **idealistik ratsionalizm** (mantiqiy anglab olinadigan ibtido), **idealistik empirizm**, **sensualizm va fenomenalizm** (sezgilarining hissiy xilma-xilligi), **irratsionalizm** (bilib bo‘lmaydigan, qonuniyatga bo‘ysunadigan, mantiqqa zid ibtido).

Birlamchi ibtido bilan monizm, dualizm, plyuralizm haqidagi masalalar o‘zaro bog‘langan. **Monizm** olamning asosida yagona, bitta ibtido, boshlang‘ich asos turishini e‘tirof etadigan falsafiy konsepsiya (yo moddiy asos, yo ma‘naviy asos)dir. Shu sababli **monizm** materialistik va idealistik shaklda bo‘lishi mumkin.

Dualizm ikki asosni teng deb e‘tirof etadigan falsafiy konsepsiya: olamning asosida teng holda ham materiya, ham ong yotadi. Masalan, R.Dekart borliqning negizida ikki teng substansiya (ruh va materiya) yotadi, deb hisoblaydi.

Plyuralizm bir nechta yoki ko‘plab ibtidoiy asoslar yotishini nazarda tutadi. Masalan, qadimgi mutafakkirlar butun borliq asosiga rang-barang ibtidolar (suv, yer, havo, olov, yog‘och, temir va h.k.)ni qo‘yganlar.

Borliqning boshlang‘ich ibtidosi bilan bog‘liq holda uni bilish mumkin-mumkin emasligi haqidagi masala bog‘lanib ketadi. Ayrim mutafakkirlar fikricha, bilishning haqiqiyliги haqidagi masalani hech qachon hal qilib bo‘lmaydi: olamni prinsip jihatdan bilish mumkin emas. Bundaylar agnostik (Protagor, Kant)lar, shunday falsafiy yo‘nalish **agnostitsizm** deb nom olgan. Uning ko‘rinishlardan bo‘lgan **skeptitsizm** bilimlarning haqiqiyliğiga shubha bilan qaraydi (qadimgi yunon faylasufi Pirron va b.). Boshqa mutafakkirlar aksincha, aql va bilishning qudratiga ishonadilar va insonning obyektiv olamni bilish qobiliyatini tan oladilar.

Esda saqlang! Har bir fan o‘z metodiga egadir. Biroq falsafa eng umumiy metodologiya ekan, uning metodi nafaqat voqelikni nazariy va amaliy o‘zlashtirishning, shu bilan birga, falsafiy bilimlarni vujudga keltirish va asoslashning usuli hamdir.

3. Dunyoqarash tushunchasi va uning mazmun-mohiyati. Dunyoqarashning tarixiy shakllari: mifologik, diniy, falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyatlari.

Har qanday falsafa dunyoqarashdir. (Falsafa olamga va odamga nisbatan eng umumiy qarashlarning yig‘indisi hisoblanadi). Lekin har qanday dunyoqarash falsafiy emasdir. “Dunyoqarash” tushunchasi “falsafa” tushunchasiga nisbatan kengroqdir. Dunyoqarash falsafadan tashqari yana afsonaviy, badiiy, diniy va boshqa qarashlarni ham o‘z ichiga oladi.

Dunyoqarash, shu jumladan falsafa olamni in‘ikos etishning mahsulidir. Biroq bu in‘ikosning chuqurlik darajasi, ko‘lami turlicha bo‘lishi mumkin. In‘ikosning eng elementar ko‘rinishi – **sezgi** darajasida sodir bo‘ladi. Bu dunyoqarashga tadbiiq etilganda dunyoni sezish va dunyoni mushohada etishni bildiradi. In‘ikosning navbatdagi ko‘rinishi – **idrok** va **tasavvurdir**. Bunday darajadagi dunyoqarash asosan hissiy tajriba bilan chegaralanadi, bu yerda hissiyot va idrok aql ustidan ustuvorlik qiladi. **Tushuncha** yordamida amalga oshirilgan in‘ikos tufayli dunyoqarash shakllanadi, chunki voqea va hodisa, jarayonlarning qonuniyatlari va mohiyatini ochishda tushuncha alohida o‘rin egallaydi. Tushuncha orqali in‘ikos abstrakt tafakkur va nazariy bilish bilan bog‘lanadi. Tushuncha olamni eng chuqur aks ettiradi.

Dunyoqarash olamga va unda insonning o‘rni, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga nisbatan qarashlari tizimi bo‘lib, unda bilimlar, e‘tiqodlar, kayfiyatlar, intilishlar, orzular, qadriyatlar, me‘yorlar, ideallar, maslaklar va h.k.lar

uyg'un tarzda ishtirok etadi. Dunyoqarashda jamiyatda shakllangan falsafiy, ilmiy, diniy, siyosiy, axloqiy, huquqiy, estetik bilimlar, qarashlar o'z aksini topadi.

Afsonaviy dunyoqarash. Afsonalarda olamning vujudga kelishi, tuzilishi, tabiat hodisalarining siri, dunyoviy uyg'unlik, odamning tabiat va kosmik hodisalar bilan aloqasi, o'simlik va hayvonlarning odamga xos sifatlari haqida hikoya qilinadi. Afsonalarda odamning paydo bo'lishi, hayoti bosqichlari, o'limi, hayot sinovlaridan o'tishi haqida fikr yuritilgan. Undan tashqari, olovni topish, hunar egallash, dehqonchilik, turli urf-odatlar, rasm-rusmlar haqida afsonalar to'qilgan.

Har qanday afsonaviy ong xayolda va xayol yordamida stixiyali kuchlarni yengadi, ammo tabiatdan o'zini ustun qo'ymaydi.

Dunyoqarashning bu shakli ta'sirida turli ishonch, e'tiqodlar paydo bo'lgan. Masalan, totem, fetish, sehrgarlik va ruhlarga ishonch - e'tiqodlar shular jumlasidandir. Bular yordamida odamlar birlashgan, hayot mashaqqatlarini hamkorlikda yenggan, tabiatdagi stixiyali kuchlarga ta'sir ko'rsatishgan.

Diniy dunyoqarash afsonaviy va sodda dunyoqarashning bevosita ta'sirida shakllangan. Qur'oni Karim, Injildan o'rin olgan odam haqidagi rivoyatlar Turon va Bobil afsonalariga yaqin bo'lgan. Masalan, Islomda ham olam zardushtiylik, Bobil va Injil kosmogoniyalaridagi kabi uch qismga – **osmon, yer va narigi dunyoga** bo'lingan.

Diniy dunyoqarashning afsonaviy dunyoqarashdan farqi shuki, unda dunyo ikkiga – bu dunyo va u dunyoga bo'linadi. Bu dunyoqarash go'yo g'ayritabiiy kuchlar borligiga, ularning insonlar taqdiriga hal qiluvchi ta'sir ko'rsatishiga qat'iy ishonchga asoslanadi. Avvalo ko'p xudolikka, keyingi 2,5 ming yilda yakka xudolikka ishonch paydo bo'lib, hozir yer yuzi aholisining dinga ishonuvchi qismi asosan yakka xudolikka sig'inadi. Odamlar diniy dunyoqarash orqali o'z orzu-umidlarini ifodalaganlar, o'zlari yaratgan tasvirlarga o'xshab yashashga intilganlar. Umuminsoniy qadriyatlar shu tarzda avaylab saqlangan va rivojlantirilgan.

Falsafiy dunyoqarash. Dastavval "filosofiya" tushunchasi keng ma'noda insoniyat tomonidan to'plangan nazariy bilimlarning yig'indisini bildirgan. Falsafa mifologiya va dindan nimani meros qilib oldi, degan savol tug'ilishi mumkin. Falsafa ularning dunyoqarash xarakterini, dunyoqarash sxemalarini, ya'ni umuman olamning paydo bo'lishi, uning tuzilishi, insonning yuzaga kelishi va uning borliqdagi o'rni haqidagi masalalarni meros qilib oldi. Biroq falsafada yuzaga kelgan dunyoqarash muammolari ulardan farq qilib, ratsional baho, aql nuqtai nazaridan hal etiladi. Shuning uchun falsafa nazariy shakllangan dunyoqarashdir. Falsafa – umuman olamga, unda insonning o'rni, insonning insonga munosabatini ifodalaydigan umumnazariy qarashlar tizimidir.

4. Falsafaning asosiy funksiyalari. Yosh avlodni ma'naviy komillik, mustaqillikka sodiqlik ruhida tarbiyalashda falsafa fanining ahamiyati.

Falsafaning bahs mavzulari va o'ziga xos xususiyatlarini uning funksiyalari haqidagi masalani hal qilmay turib to'la ochib bo'lmaydi. Eng avvalo, bu **dunyoqarash funksiyasidir**. Bu funksiya olamni mavhum-nazariya hamda tushunchalar orqali izohlashi bilan dunyoqarashning barcha turlari va darajalaridan ajralib turadi.

Metodologik funksiya. Uning ma'nosi shundaki, falsafa metod sifatida umumiy ta'limot va inson tomonidan voqelikni bilish hamda o'zlashtirishning eng umumiy metodlari yig'indisidir.

Prognostik funksiya. Bu funksiya materiya va ong, inson va olam, taraqqiyotning eng umumiy tendensiyalari haqidagi farazni anglatadi. Falsafa fanga asoslansa, ehtimollikning faraz darajasi shuncha yuqori bo'ladi.

Falsafa nazariy tafakkur va donishmandlik maktabi sifatida ham funksiya bajaradi. Bu narsa, ayniqsa, falsafa tarixini o'rganishga dahldordir.

Falsafaning tanqidiy funksiyasi. Bu funksiya nafaqat boshqa fanlarga, balki falsafaning o'ziga nisbatan ham qo'llaniladi. "Hamma narsaga shubha bilan qarash" degan prinsip antik zamondan boshlab qo'llanilib kelinadi.

Falsafaning tanqidiy funksiyasi bilan uning **aksiologik funksiyasi** uzviy bog'langan (grekcha aksios – qadrlı). Har qanday falsafiy tizim o'zi o'rganayotgan obyektıni muayyan qadriyatlar nuqtai nazaridan baholaydi: sotsial, axloqiy, estetik, mafkuraviy va h.k. Bu funksiya ijtimoiy taraqqiyotning o'tish davrlarida alohida rol o'ynaydi (mustaqillik va qadriyatlar). Chunki bu davrlarda eski qadriyatlardan qay birini davom ettirish masalasi kelib chiqadi.

Sotsial funksiya. Bu funksiya ko'p yoqlama xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy hayotning rang-barang jihatlarini qamrab oladi. Umuman olganda, falsafa ikki yoqlama vazifani bajaradi, birinchidan, sotsial borliqni tushuntirish, ikkinchidan, uning moddiy va ma'naviy o'zgarishlariga ta'sir etish.

Insonparvarlik funksiyasi. Buning ma'nosi shundaki, falsafa har bir individ hayotida gumanistik qadriyatlar va ideallarni shakllantirish, hayotning ijobiy ma'no-maqсадlarini tasdiqlashga xizmat qilishi kerak. Demak, u intellektual davolash rolini bajaradi, ayniqsa, jamiyatda beqarorlik yuz berganda, eski qadriyat va ideallar minbardan tushib, yangilari hali shakllanishga ulgurmagan yoki obro' qozona olmagan paytlarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbekistonning milliy mustaqillikka erishuvi natijasida barcha ijtimoiy fanlar sohasida bo'lganidek, falsafaning muammolariga bo'lgan munosabat ham tubdan o'zgardi. Sho'ro tuzumi sharoitida falsafa boshidan kechirgan bo'hronlar haqida alohida to'xtalib o'tish imkoniyatiga ega emasmiz. Shunday bo'lsa-da, quyidagilarni alohida ta'kidlashimiz lozim: asrlar davomida qaror topgan

qadriyatlar to'g'risida totalitar tuzum sharoitida falsafaning erkin fikr yuritishiga imkon berilmadi; marksizm g'oyalariga asoslangan falsafa insoniyat falsafiy tafakkurining oliy cho'qqisi hisoblandi; yakka mafkura, turg'un dunyoqarash hukmronlik qildi; sinfiy va partiyaviy prinsip asosiy mafkuraviy mezonga aylantirildi; totalitar siyosiy tuzum manfaatlariga xizmat qilgan marksistik falsafa taraqqiyot talablariga zid fikr yuritishni talab qildi, aqidaparastlik, avtoritar tuzum g'oyalarini targ'ib qilish falsafaning yagona maqsadi bo'lib qoldi. Falsafaning jamiyat taraqqiyoti, inson bilimlari ma'naviy yuksalishidagi o'rni, ahamiyati ongli ravishda toraytiriladi. Eng muhimi, milliy falsafa va uning boy merosini erkin o'rganish va o'zlashtirishga keskin qarshilik qilib kelindi.

Yangi falsafa o'z oldiga quyidagi vazifalarni maqsad qilib qo'ydi: birinchidan, barcha falsafiy ta'limotlarni o'rganish; ikkinchidan, turli xil dunyoqarashlar va fikrlar xilma-xilligiga, hurfikrlilikka asoslanish; uchinchidan, milliy zaminda umuminsoniy qadriyatlarga tayanish; to'rtinchidan, mustaqillik muammolari tahlilini bosh maqsad deb bilish, sinfiylik va partiyaviylik hamda aqidaparastlikni butunlay rad etish; beshinchidan, xalqimizni yuksak vatanparvarlik, sharqona axloq-odob me'yorlari ruhida tarbiyalash shular jumlasidandir.

Har qanday ijtimoiy tuzumda falsafa ijtimoiy-siyosiy omillar ta'sirida o'z tamoyillarini ishlab chiqadi. Shu jumladan, respublikamiz jahon hamjamiyatining teng huquqli a'zosiga aylangan ekan, ayni vaqtda mazmunan yangi siyosiy tizim va ijtimoiy tuzilmalarning hamkorlikdagi faoliyati tufayli u ijtimoiy-siyosiy reallik kasb etmoqda. Bu jarayon milliy qadriyatlarga asoslangan yangi falsafaning ijtimoiy-siyosiy tabiatini, tamoyil va tushunchalarini yaratishda asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan ma'naviy islohotlarning falsafaning yangilanishiga ta'siri beqiyosdir. Buning ma'nosi shuki, xalq ma'naviyati poklanmoqda, qadriyatlar tiklanmoqda, bu sohadagi faoliyat kengayib bormoqda, tarix falsafasi, xalq xotirasi, boy ma'naviy merosni o'rganish borasida ulkan ishlar qilinmoqda. Bu esa falsafa yangilanishida ma'naviy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Falsafa yangilanishning subyektiv omili – ongning o'zgarishi, tafakkur erkinligi, falsafiy plyuralizm bilan bog'liq masaladir. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin: falsafiy ong va dunyoqarash o'zgarayotgan va yangilanayotgan ijtimoiy munosabatlarning tarkibiy qismi sifatida yangilanmoqda; o'tish davri zaruriyati, tub ijtimoiy islohotlarning yo'nalishlaridan biri sifatida tarixiy zaruriyatni ifodalaydi; nafaqat umumiy ma'naviy muhit, balki jamiyat har bir a'zosining ruhiyati, maqsad va ehtiyojlari sohasidagi o'zgarish hamdir. Ma'naviy-falsafiy merosni egallash negizida falsafada yangi yo'nalishlar tarkib topmoqda.

Falsafiy dunyoqarashni yangilashning zaruriy jihatlarini quyidagi yo‘nalishlar bilan bog‘liq holda tushuntirish mumkin: a) kelajagi buyuk davlat barpo etilmoqda; b) fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat qurish haqidagi g‘oyalar tarkib topmoqda; v) siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma‘naviy hayotdagi o‘zgarishlarni xalqimiz ongiga singdirish zaruriyati kun tartibiga qo‘yilmoqda; g) har bir fuqaroda O‘zbekiston Konstitutsiyasi g‘oyalarini e‘tiqodga aylantirish jarayoni davom etmoqda; d) jamiyatda osoyishtalikni va xavfsizlikni ta‘minlashda ijtimoiy-falsafiy dunyoqarashning roli ortib bormoqda.

Shunday qilib, falsafiy dunyoqarash tizimini shakllantirish va rivojlantirishning obyektiv-subyektiv imkoniyatlari qaror topmoqda. Bular quyidagilarda aniq namoyon bo‘lmoqda: jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy barqarorlik ta‘minlangan; fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ma‘naviy haq-huquqlari qonuniy tarzda kafolatlangan; jamiyatning barcha sohalarini demokratlashtirish va erkinlashtirish davlat siyosati darajasida amalga oshirilmoqda; aholining ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyati yuksalmoqda.

Taraqqiyotning “O‘zbekona” andozasining asosiy mazmunini O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan belgilab berilgan besh tamoyil tashkil etadi: iqtisodiyotning siyosatdan ustuvorligi; davlatning bosh islohotchi ekanligi; qonunning ustuvorligi; kuchli ijtimoiy siyosat; bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tish. O‘zbekistonning yangicha falsafasi yo‘nalishiga sharqona demokratiya xususiyatlari, o‘tish davri ijtimoiy-iqtisodiy negizlari, ma‘naviyat muammolari, jahon hamjamiyatida integratsiya jarayonlari ham ta‘sir etuvchi omillar hisoblanadi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Falsafiy bilimlarning asosiy sohaları, xususiyatlari haqida so‘zlang.
2. Dunyoqarash deganda nimani tushunasiz? Uning asosiy turlarini sanab ko‘rsating.
3. Falsafiy dunyoqarashning o‘ziga xosligi nimalarda ko‘rinadi?
4. Falsafaning metodologik ahamiyatini tushuntirib bering.
5. Falsafa qanday funksiyalarni bajaradi?
6. O‘zbekistonda falsafiy tafakkur yangilanishining asosiy yo‘nalishlari va vazifalari nimalardan iborat?

2-mavzu: Falsafaning taraqqiyot bosqichlari

Reja:

1. Qadimgi Sharq – jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. (Misr, Hindiston, Xitoy). Antik dunyo falsafasi. Milet va Eley maktablari. Sofistlar falsafasi. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar.

2. Markaziy Osiyoda eng qadimgi falsafiy qarashlar va ularning keyingi taraqqiyoti (zardo‘shiylik, buddaviylik, moniylik, mazdakiylik). Markaziy Osiyo Uyg‘onish davri falsafasi.

3. XIV asr oxiri XX asr boshlarigacha O‘zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. XIX asr oxiri XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidchilik – milliy g‘oyalarni uchun kurash falsafasi.

Tayanch iboralar: Tavrot, Vedalar, si, Yan-In, ibtidoiy ong, mifologiya, sehrgarlik, falsafiy ta’limot, falsafiy maktab, falsafiy oqim, falsafiy yo‘nalish; vedalar, upanishad, braxman, prakrit, atman, chorvak, buddizm, lokayata, dao, konfutsiylik, zardo‘shiylik, moniylik, mazdakiylik, jadidchilik.

Mavzuning maqsadi: Falsafa tarixi tafakkur faoliyati va rivojlanishining o‘ziga xos murakkab tarixiy jarayon ekanligini asoslash hamda Qadimgi Sharq va Markaziy Osiyoda falsafiy qarashlarning shakllanishi va uning tafakkur taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatgan g‘oyalarni o‘rganish, shuningdek, antik dunyo falsafasi hamda Yevropada o‘rta asrlar, Uyg‘onish davri va yangi zamon falsafiy tafakkuri taraqqiyotining mohiyatini ochish.

1. Qadimgi Sharq – jahon sivilizatsiyasining markazlaridan biri. (Misr, Hindiston, Xitoy). Antik dunyo falsafasi. Milet va Eley maktablari. Sofistlar falsafasi. Qadimgi Rimda falsafiy fikrlar.

Falsafaning vujudga kelishi haqiqiy ma’nodan eradan oldingi VI asrga to‘g‘ri keladi. Mana shu davrda qadimgi Sharq mamlakatlari, eng avvalo Hindiston va Xitoy va qadimgi Yunonistonda mifologik tushunchalardan falsafiy fikrlashga o‘tish jarayoni yuz beradi.

Qadimgi hind falsafasi aniq ifodalangan diniy xarakterga ega bo‘lgan. Hindistonda falsafiy tafakkur shakllanishining ibtidosi braxmanlar(qohinlar) ta’limoti bilan uzviy bog‘langan. Braxmanizm o‘z aqidalarida vedalarga asoslangan. “Veda”lar e.av. II-I asrlarda yuzaga kelgan bo‘lib, qadimgi hind ma’budalariga, xudolarga bag‘ishlangan gimnlar majmuidan iborat (sankrit – “bilim”).

Vedalardan joy olgan matnlarning barchasi muqaddas kitoblar sanalgan, ularni braxmanlar (e.av. birinchi ming yillik o'rtalari) talqin va targ'ib etganlar. Eradan oldingi ikkinchi ming yillikdan to VI asrgacha bo'lgan muddat **veda adabiyotlari davri** deb ataladi. Eng qadimgi vedalarni to'rt to'plam (sanxit) tashkil etgan: 1. Regvida – gimnlar to'plami; 2. Yadjurveda – fidoyilik hikmatlari; 3. Samaveda – fidoyilik qo'shiqlari; 4. Atxarvaveda – iltijo qo'shiqlari.

“Veda”larning xulosa qismini Upanishadalar (ustoz oldida tiz cho'kib o'tirish degan ma'noni bildiradi) tashkil etgan. Ular falsafa uchun birinchi ahamiyatli bo'lgan matnlardan tashkil topgan. Upanishadalarda barcha narsalarning birligiga, kosmologik mavzularga, hodisalarning sabab-oqibatli bog'lanishlariga bag'ishlangan g'oyalar keng o'rin olgan: “Quyosh kechasi qayerda bo'ladi?”, “Yulduzlar kunduz kuni qayerga yo'qoladi?”, “Biz kimmiz?”, “Biz qayerdan kelib qoldik?”, “Biz qayerga borayapmiz?”. Upanishadalarda borliqning birinchi asosi sifatida braxman, ya'ni umumiy, shaxssiz “olamiy jon”, ibtido tilga olinadi, olamning boshqa barcha narsalari ana shundan kelib chiqqan, deb tushuntiriladi.

Upanishadada falsafaning asosiy belgilari quydagicha:

Birinchidan, tabiat hodisalari va insonning paydo bo'lishi, braxman (ma'naviy ibtido, u ko'proq xudo) bilan atman – (ruh, alohida jon) o'rtasidagi munosabat asosida tushuntiriladi. Braxman va atman butun hind falsafasining markaziy muammosi, markaziy tushunchasiga aylanadi.

Ikkinchidan, ma'naviy mohiyat insonda va tabiatda aynandir.

Uchinchidan, bilimlar ikki turga bo'linadi: sodda bilimlar va oliy bilimlar. Sodda bilimlar ko'proq va asosan kundalik amaliy hayot bilan bog'liq bo'ladi, oliy bilimlar ma'naviy mutloqlik haqidagi bilim bo'lib, borliqni yaxlit holda idrok etishni bildiradi.

Hind falsafasi taraqqiyotidagi epik davr deb ataladigan bosqich eradan oldingi VI asrdan boshlanadi. Bu davr falsafiy tafakkurining asosiy manbai o'n sakkizta kitobdan iborat bo'lgan “Maxabxarata” poemasi hisoblanadi. Shu asar janr xususiyatlaridan kelib chiqib, bu davr epik davr deb atalgan.

“Maxabxarata”da ancha rivojlangan falsafiy konsepsiyalar, dunyoqarash muammolari talqin etiladi. Ular orasida sankhya, u bilan bog'liq yoga haqidagi qarashlar, prakrit (materiya, tabiat) to'g'risidagi fikrlarga keng o'rin berilgan. Prakrit borliqdagi barcha narsalarning manbai bo'lib, ruhiy holat, ong shunga bog'liq holda talqin etiladi. Prakritdan tashqarida unga bog'liq bo'lmagan holda sof ruh – purusha(u Brahman deb ham, atman deb ham nomlanadi) mavjud. Shunday qilib, dunyoqarash dualistik tarzda, ikki ibtidoaga asoslangan tarzda bayon etiladi.

Vedalarga qarshi yangicha qarashlarning ko'plab tarafdorlari ichida **charvak**, **jayнизм**, **buddizm** oqimlarini alohida ko'rsatib o'tish lozim. Ular hind falsafasida

noortodoksal oqimlar hisoblanadi. (Ortodoksiya – yunoncha: ma’lum sohada qabul qilingan prinsip va talablarni so‘zsiz bajarish degan ma’noni bildiradi).

Charvak – qadimgi va o‘rta asr hind falsafasida materialistik yo‘nalishdagi oqim. Uning keyingi ko‘rinishi lokayata hisoblanadi.

Charvak bo‘yicha borliqning birlamchi asosini to‘rt element – yer, suv, havo, olov tashkil etadi. Hayot ham, ong ham mana shu birlamchi moddiy elementlarning birikuvidan kelib chiqqan. Materiya ham fikrlashi mumkin. O‘lim hamma narsaning tugashi, intihosidir.

Charvakning axloqiy konsepsiyasi asosida cheksiz rohatlanish – gedonizm (grekcha – zavqlanish) turadi. Shaxsning azoblanishi va rohatlanishi real hayotiy hodisadir, bu maktab insoniyat mavjudligi va yashab turishining maqsadi bo‘ylik to‘plash va rohatlanishdan iborat, deydi. “Bugungi hayotda yeyish kerak, ichish kerak va rohatlanish kerak, holbuki, biz hammamiz o‘limga mahkum etilganmiz. Hozirgacha yashayapmiz, nafas olayapmizmi, rohat qilib yashash kerak, zero, hech kim o‘limning qo‘lidan qutula olmaydi”. Barcha axloqiy me‘yorlar e‘tibor qilishga arzimaydigan insoniy shartlar, xolos. Hozirgi zamon hind falsafasining yirik namoyandasi S.Radxakrishnan yozganidek, “charvak falsafasi o‘ziga zamondosh bo‘lgan avlodni ular ustidan ta’sir etib turgan yukdan ozod qilishga yo‘naltirilgan fanatik intilish ifodasidir”.

Jaynizm maktabining asoschisi Maxavira Vardxamana (e.o. VI asr) hisoblanadi. U ayni vaqtda Jin – G‘olib degan taxallus olgan. Bu yo‘nalish shaxsning borlig‘i masalasiga katta e‘tibor beradi. Jaynizm nuqtai nazaridan shaxsning mohiyati dualistik – ma‘naviy(jiva) va moddiy (adjiva) ma‘noga ega.

Buddizm ham jaynizm singari eradan oldingi VI asrda yuzaga kelgan. Uning asoschisi shahzoda Siddhartha Gautamadir, keyinchalik Buddha (uyg‘ongan, ma‘rifatli degani) nomini olgan, uzoq muddat davomida zohidlik o‘tagan va askez tufayli uyg‘onib, cheklashlarni inkor etadigan hayotni to‘g‘ri tushunish yo‘liga o‘tadi.

Bu ta‘limotning negizida 4 ta oliyjanob haqiqat turadi: insonning tavalludidan to vafotigacha hayoti azob-uqubat bilan bog‘langandir; azob-uqubatning sababi bu – hayotga intilish, tashnalikdir; azob-uqubatdan qutulish, uning sabablarini yo‘qotish mumkin, buning uchun mazkur tashnalikdan xalos bo‘lish kerak; azob-uqubatdan qutulishga olib boradigan yo‘l bu – hayotni faqat hissiy zavqlanish tarzida ham, tarki dunyochilik va o‘z-o‘zini azoblash tarzida ham inkor etishdir. Azob-uqubatdan qutulish shaxs mavjudligi va borlig‘ining pirovard maqsadi, ya‘ni istaklarni yo‘q qilishdan iboratdir. Buddizmning bu prinsipi uning axloqiy sohadagi konsepsiyasi – chidamlilik va nisbiylik bilan bog‘langandir.

Xitoy falsafasi Shan (e.o. 18-12 asrlar) va Chjou (e.o. XI-III asrlar) dinastiyalari davrida shakllangan. Uning manbalarini mifologik dunyoqarashlar

tashkil etgan. Shan dinastiyasi davrida butun olamni yaratuvchi oliy ibtido – ilohiy shandi (Oliy imperator), Chjou davrida esa “Osmonning irodasi” bo‘lgan.

Shan dinastiyasi davridayoq zulmat va yorug‘lik to‘g‘risidagi tasavvurlar tarkib topadi, ularda zulmat va yorug‘lik predmetlarga xos ichki xususiyat deb qaraladi, ular o‘rtasidagi o‘zaro qarama-qarshilik narsa-hodisalardagi rivojlanish va o‘zgarishlarni ta‘minlaydi, degan fikr yuzaga keladi. Quyoshli kun – yorug‘lik, bulutli kun – qorong‘ulik, zulmat deb hisoblanadi. Davrlar o‘tishi bilan yorug‘lik bilan zulmat o‘zining konkretlik xususiyatini yo‘qota borib, abstrakt ma‘no kasb eta boshlaydi.

Xitoy falsafiy fikri keyinchalik besh unsur (birinchi ibtido) haqidagi ta‘limotda yanada rivoj topadi. Bu ta‘limot eradan oldingi birinchi ming yillikning boshida yozilgan “Tarix kitobi” (“Shu szin”)da bayon etilgan. Bu ta‘limotga ko‘ra, butun moddiy olam 5 unsur (suv, olov, metall, yog‘och, tuproq) birlamchi ibtidodan tashkil topgan.

Olamni materialistik tushuntirishni nazarda tutadigan bu ta‘limot keyinchalik ham rivoj topadi. Xususan, eramizdan oldingi III asrda yashagan szou Yan fikricha, besh unsur – boshlang‘ich ibtidolar o‘rtasidagi aloqa dialektik yo‘nalishga ega bo‘lib, yog‘och – olovni, olov – yer(kul)ni, yer – metallni, metall – suvni (metall – predmetlarda to‘planadigan namlik ko‘zda tutiladi), suv – yog‘ochni hosil qiladi. Shunday qilib, hayot o‘zaro bog‘langan zanjirdan iborat. Bunday doira nafaqat hayotga, balki o‘limga nisbatan ham shunday: yog‘och – yerni, yer – suvni, suv – olovni, olov – metallni, metall – yog‘ochni yengadi. Elementlarning bunday o‘zaro almashishiga muvofiq holda jamiyatda ham dinastiyalar o‘rin almashadi. Har bir dinastiya yuqoridagi elementlarning biron-bir belgisi ostida hukmronlik qiladi.

“Konfutsiylik”. Uning asoschisi eramizdan avvalgi 551-479 yillarda yashab ijod etgan Konfutsiydir. Adabiyotlarda ko‘pincha uni Kun-szi deb atashadi, bu – o‘qituvchi Kun degan ma‘noni bildiradi. Bunday deyilishi bejiz emas, chunki hali 20 yoshga yetmayoq Kun Xitoyda mashhur o‘qituvchi-ustoz nomiga ega bo‘ladi. Uning ta‘limotining bosh manbai - “Luno yuy” (“Suhbatlar va hukmlar”) kitobidir. Mazkur kitobda ustozning o‘z o‘quvchilari bilan qilgan suhbatlari o‘rin olgan.

Xulq-atvor va tarbiyaning barcha ijtimoiy va axloqiy me‘yorlari Konfutsiy ta‘limotida diniy tartib-qoida tusini oladi. Konfutsiy tartib-qoidada donishmandlik va falsafaning yangi tipini ko‘radi.

Maoizm. Bu maktab eramizdan oldingi 475-395 yillarda yashagan Mo-szi (Mo Di) nomi bilan ataladi, eradan avvalgi V-III asrlarda keng tarqaladi. Bu maktab qat‘iy harbiylashtirilgan tashkilotga o‘xshab ketadi, ya‘ni uning a‘zolari boshliqlarning buyruqlarini so‘zsiz bajarishlari zarur bo‘lgan.

“Ustoz Maoning traktatlari” (“Mo-szi”)da uning asosiy falsafiy tamoyillari to‘la aks etadi. Bular: “Donishmandlikning qadriga yetish”, “Birlikni qadrlash”, “Umumiy muhabbat”, “Xarajatlarda iqtisod qilish haqida”, “Musika va o‘yin-kulguni inkor qilish”, “Osmon irodasini inkor etish” va boshqalar.

Daosizm. (Xitoycha dao szya – daomaktabi). Konfutsiylik bilan bir qatorda eramizdan avvalgi birinchi ming yillikning II yarmida vujudga keladi. Uning asoschilari - Lao szi va Chjuan-szi hisoblanadi.

Bu falsafiy ta’limotning markazida dao (aynan – yo‘l degani) kategoriyasi turadi. Dao bu tabiat, jamiyat, inson xulqi va tafakkurining ko‘zga ko‘rinmaydigan eng umumiy tabiiy qonunidir. Dao moddiy olamdan tashqarida alohida yashamaydi, binobarin, u olamni boshqaradi.

Dao ta’limotida sodda dialektik fikrning elementlari ko‘zga tashlanadi: dao – bo‘shliq va ayni vaqtda bitmas-tuganmas narsa; u harakatsiz, ayni vaqtda hamma narsani amalga oshiradi; u sukunatda va ayni vaqtda harakatda bo‘ladi; u o‘z-o‘ziga asos, biroq unda na ibtido va intiho mavjud. Daoni bilish ayni vaqtda umumiylikni, tabiat va uning tuzilishini bilish bilan tengdir.

Daosizmda osmon ham boshqalar qatori dao irodasiga bo‘ysunadi: “inson yerga, yer-osmonga, osmon daoga, dao – o‘z-o‘ziga bog‘liq bo‘ladi”.

Ko‘rinadiki, qadimgi Xitoy falsafasi ko‘proq kundalik turmush donishmandligini hal etishga qaratiladi, narsa-hodisalarning tabiiy holatini belgilashga intiladi.

Antik falsafa davri eradan oldingi VII asrning oxiri VI asr boshlarida vujudga kelib, u eramizning V-VI asrlariga qadar, qariyb ming yildan ortiq davrni o‘z ichiga oladi. Bu – quldorchilikka asoslangan jamiyatning xususiyatlarini o‘zida gavdalantirgan falsafiy tafakkurning alohida tarixiy tipidir.

<p>Yodda tuting! Qadimgi yunon va rim falsafasining xilma-xil shakllarida keyingi falsafiy ta’limotlarning ildizlari kurtak yoza boshlagan edi.</p>
--

Yunon antik falsafasi taraqqiyotini shartli ravishda to‘rt bosqichga bo‘lish mumkin. Antik falsafa o‘z mazmuni, fikrlash uslubi jihatidan sharqiy falsafiy tizimlardan va olamni mifologik izohlash tamoyillaridan keskin farq qiladi. Ayni vaqtda yunon falsafasida uzoq vaqt mobaynida mifologik elementlar saqlanib qolganligini ham ta’kidlash kerak.

Birinchi bosqich eramizdan oldingi VII asrdan V asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Buodatda sokratgacha bo‘lgan davr deb ataladi (Sokrat: e.o. 469-399). Bu davrga Milet maktabi, Geraklit, Eley maktabi, Pifagor va pifagorchilar,

Empedokl va Anaksigor, qadimgi yunon atomist (Levkip va Demokrit) lari tegishlidir.

Ikkinchi bosqich taxminan e.o. V asr o'rtalari va IV asr oxirigacha bo'lgan muddatni ifodalaydi. U odatda klassik (mumtoz) davr deb ataladi. Buyuk yunon faylasuflari Sokrat, Aflotun va xususan Arastu ana shu davrda faoliyat ko'rsatadilar, yunon falsafasini yuqori cho'qqiga ko'taradilar.

Uchinchi bosqich ellinistik (yoki ellinik) atalib, e.o. IV-II asrlarni o'z ichiga oladi. Chuqur falsafiy mazmundor tizimlarning yuzaga kelishi bilan bog'langan klassik davrdan farqli o'laroq bu davrda bir qator falsafiy maktab (peripatetiklar, Aflotun akademiyasi, stoiklar va epikureylar maktabi, skeptitsizm)lar yuzaga keladi. Teofrast va Epikur bu davrning yirik namoyondalari bo'lgan. Bu maktablarning barchasi uchun umumiy xususiyat shundan iborat ediki, ular Aflotun va Arastuning ta'limotlarini izohlashdan etika muammolariga o'tadilar, skeptitsizm va stoitsizmning talqinchilariga aylanadilar.

Antik falsafa taraqqiyotidagi **to'rtinchi bosqich** (e.o. I asr – milodning V-VI asrlari) shunday davrga to'g'ri keldiki, endilikda antik zamonda Rim hal qiluvchi rol o'ynay boshlaydi, hatto, Yunoniston ham uning ta'siriga tushib qoladi. Rim falsafasi yunon, xususan, ellinizm davri falsafasi ta'sirida shakllanadi. Rim falsafasida uchta yo'nalishni alohida ko'rsatish mumkin: 1. Stotsizm (Seneka, Epiktet, Mark Avreliy), 2. Epikureizm (Tit Lukresiy Kar), 3. Skeptitsizm (Sekt Empirik).

III-V asrlarda Rim falsafasi yirik namoyondasi Aflotun tomonidan yangi yo'nalish - neoplatonizm yuzaga keladi va rivojlanadi. Neoplatonizm nafaqat ilk xristian falsafasiga, shu bilan birga, butun o'rta asr diniy falsafasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Endi antik falsafa taraqqiyoti bosqichlari shakllanishi va rivojlanishida faollik ko'rsatgan mutafakkirlarning ba'zi birlari bilan tanishib o'taylik.

Birinchi asos g'oyasi Milet maktabi namoyandalari Fales (e.o. 625-547), Anaksimandr (e.o.610-546), Anaksimn (e.o. 585-524) va Geraklit (e.o. 544-480) tomonidan ilgari suriladi.

Milet falsafiy maktabi faylasuflari birinchi ibtidoni tabiat bilan bog'liq yagona mohiyat sifatida tushunganlar. Boshqa narsa emas, tabiatning o'zi butun mavjudlikning sababchisidir, degan xulosani berganlar.

Birinchi ibtido mifologiyadan falsafiy dunyoqarash tizimiga o'tib, umumiylikni nazarda tutar edi. Dastlabki davrlarda bu ibtido eng umumiy tushuncha ko'rinishida emas, balki yaqqol shaklda tasavvur qilinadi: Fales bunday ibtidoni – suv, Anaksimn – havo, Geraklit – olov deb hisoblaydi. Suv, havo, olov umumiylikning ramzi sifatida e'tirof etiladi. Bular oddiy jismlar bo'lmay, shu bilan

birga ilohiylikni ham bildiradi. Geraklitning olovi shunchaki o't emas, balki yaratuvchi – olov – mangu va ilohiy kosmik olov edi.

Fales qadimgi dunyoning yetti donishmandidan biri va Milet maktabining asoschisi bo'lib, har tomonlama bilimli, geometrik teoremlarni isbot qilgan, Qutb Yulduzini kashf etgan, eramizdan oldingi 585 yili Quyoshning tutilishini bashorat qilgan; yilni 365 kun, har bir oyni 30 kundan iboratligini ko'rsatgan mutafakkir bo'lgan. U rang-barang butun borliqning asosiga Suvni qo'yadi: Suv – mavjudlikning ham ibtidosi, ham intihosi.

Uning quyidagi hikmatli so'zlari mashhur: “Butun borliqning eng qadimgisi – Xudodir, chunki u tug'ilmagan”; “Olam Xudo tomonidan yaratilganligi uchun hamma narsadan go'zaldir”; “Vaqt hamma narsadan donishmanddir, chunki u barcha narsaning nimaligini ko'rsatib beradi”.

Falesning shogirdi bo'lgan **Anaksimandr** butun borliqning birinchi asosini apeyron (aniqlab bo'lmaydigan, cheksiz abstrakt modda) tashkil etadi, deb hisoblaydi. Apeyron faol, hamisha harakatda bo'ladi; bir xil narsalarning o'lishi boshqalarning tug'ilishiga olib keladi. Yagona apeyron qarama-qarshilik (sovuq va issiq)larga ajraladi. Olam sovuq va issiq kurashi tufayli yuzaga keladi. Yunon mutafakkirlaridan birinchi bo'lib, Anaksimandr inson va hayvonlarning kelib chiqishi haqidagi masala bilan qiziqadi. U Yerning yumaloqligini, Oy aks ettirilgan yorug'lik tufayli nur sochishini hayol qiladi.

Anaksimn astronomik ta'limotlarni tabiiy yo'l bilan izohlaydi. Butun borliqning birinchi asosi Havodir. Havo yumshab – olovga, quyushib – shamolga, keyinchalik bulutga, so'ngra suvga, keyin tuproqqa, toshga va yana boshqa narsalarga aylanadi. Uning tasavvur qilishicha, yoritgichlar Yerning atrofida harakat qiladi, Quyosh va Oy Yerdan paydo bo'lgan.

Olamning birlamchi asosi, undan borliqning rang-barang hodisalarining yuzaga kelishi, va, aksincha, turli-tumanlikning Yagonalik (birlamchi negiz)ga qayta aylanishi muammosi falsafiy fikr taraqqiyotida turlicha yo'nalishlarni keltirib chiqaradi.

Birinchi yo'nalishga mantiqiy jihatdan Levkipp (e.o. 500-440) va Demokrit (e.o. 460-370) aloqadordir. Ularning har ikkalasi ham olamga atomistik qarashning asoschilaridir. Atom elementlarning mohiyati bo'lib, butun tabiat ulardan tashkil topgan. Atomlar – bo'linmasdir.

Har bir atom abadiy, o'zgarmasdir, shu sababdan borliq mangu, yo'qolmasdir. Levkipp va Demokritning bu tasavvurlaridan 2500 yil o'tib Nobel mukofoti sovrindorlari E.Rezerford (1871-1937) va D.D. Tompson (1856-1940)larning atom modeli yaratildi. 1966 yili yapon fizik olimi Nobel mukofoti sovrindori Sakata eng kichik zarrachalardan - neytronining yo'qolmasligi g'oyasini yaratdi.

Geraklit (e.o. 520-460) harakatning umumiyligiga va o'zgarishiga e'tiborni qaratadi. Qarama-qarshiliklarning kurashi, uningcha, harakatning manbaini tashkil etadi. Geraklit qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonunining dastlabki asoslarini berdi ("Urush hamma narsaning shohidir"). Biroq "olov"dan narsalarni shakllantiradigan mexanizmlarni ochib bera olmaydi.

Shu sababli Empedokl ikkinchi yo'lni tanladi: bitta (monobirlamchi asos)dan ko'p asosga o'tadi. Atomistlar birlamchi asoslar miqdorini cheksiz darajada ko'paytirdilar.

Pifagorchilar (Pifagor eramizdan oldingi 580-500) narsalar borlig'ining miqdoriy tomonlariga asosiy e'tibor berdilar. Pifagorchilar barcha narsalarni sonning majmui bilan izohlashga harakat qildilar: tana muayyan hajmni tashkil etadi; tashqi ko'rinishiga, og'irlikka va h.k.larga egadir. Hamma narsaning chegarasi – bir sonidir. Bir – o'ziga xos atom. U moddiylashgan, to'g'rirog'i, yarim moddiy, yarim ma'naviy (ideal)dir. Biroq bir sonini atom singari hissiy idrok etib bo'lmaydi.

Birlamchi asos g'oyasini amalga oshirishda Aflotun (eramizdan oldingi 427-347) va Arastu (eramizdan oldingi 384-322) uchinchi yo'nalishga zamin qo'yidilar.

Aflotun fikricha, narsalarning real olami g'oyalar olamining rangsiz in'ikosidir. G'oyalar olami – real olamdir. G'oyalar olami – abadiy, doimiy. Narsalar olami esa qo'nimsiz, o'zgaruvchan, u – noreal olam. Olam Aflotun tasavvurida go'yo so'nib boradi: birinchidan, narsalar o'z eydos (g'oya)lariga taqlid qiladi; ikkinchidan, inson ongidagi narsalar haqida tasavvurlar faqat eydoslarning soyasidir; uchinchidan, g'oya (eydos)lar olami narsalar olami singari obyektiv, kishilar ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjuddir. Shuningdek, g'oyalar olami – birlamchi asosdir. Biroq tashqi olam ham zarurdir. Ustunlik g'oyalarga – obrazlarga tegishlidir. G'oyalar narsalarning nomoddiy mohiyati bo'lib, olamdan alohida tashqarida turadi. Narsalar bilan g'oyalar o'rtasida yo'qlik mavjud.

Eradan oldingi IV asr qadimgi Yunoniston tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Bu davrda Aflotun va Arastuning falsafiy sistemalari vujudga keldi. Bu davrda falsafa koinotning tuzilishi muammosi bilan emas, balki jamiyat va insonni bilish muammosi bilan ham keng shug'ullanadi.

Inson va jamiyatga bunday yangicha qarash sofistlar nomini olgan Protagor (e.o. 480-410), Gorgiy (e.o. 483-375), Gippiy, Prodiklarning nomi bilan bog'langan.

Yunoncha "sofist" so'zi ("sofiste") bilimdonlarni, donishmandlarni, omilkor mutaxassislarni ifodalagan.

Sofistlar inson uchun ijtimoiy faoliyatda, birinchi galda, siyosiy sohada kerak bo'ladigan bilimlarga o'rgatishni bosh vazifa qilib oladilar. Inson nafaqat tabiat

to'g'risidagi, balki inson haqidagi bilimlarga ham ega bo'lishi zarur. Sofistlar tabiatni obyektiv ravishda bilib qolmasdan insonning o'zi va uning ongini ham o'rganish kerak, deb hisoblaydi. Bunda sofistlar inson qanday qilib o'z raqibiga fikrini o'tkaza olishi, tortishuvlarda g'olib chiqish, nima bo'lsa ham, nima sohada bo'lsa ham isbotlashga intilishni muhim deb fikrlaydilar.

Mashhur sofist nomini olgan Protagor aytgan ediki, "har qanday narsada ikki – bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan fikr" mavjud.

Protagor o'zining qoidasini himoya qilish uchun yangicha asoslarni topishga harakat qiladi. Modomiki, bir narsa haqidagi mulohaza bir-biriga zid bo'lmasligi kerak ekan, shu bilan birga har bir narsa haqida ikki qarama-qarshi, ayni vaqtda haqiqiy fikrlar bo'lar ekan, ular to'g'risida qaror qabul qilish uchun u yoki bu tomonning pozitsiyasida turish lozim.

Demak, fikr-mulohazalarning mezoni, insondir. Protagorning quyidagi hikmatli so'zi o'sha davrdan meros bo'lib qolgan: "Inson barcha narsalarning o'lchovidir".

2. Markaziy Osiyoda eng qadimgi falsafiy qarashlar va ularning keyingi taraqqiyoti (zardo'shtiylik, buddaviylik, moniylik, mazdakiylik). Markaziy Osiyo Uyg'onish davri falsafasi.

Markaziy Osiyo jahon sivilizatsiyasining eng qadimgi o'choqlaridan biridir. Eradan oldin birinchi ming yillikda hozirgi Markaziy Osiyo hududlarida yunon tarixchilari **skiflar**, eron manbalarida **saklar** deb ataluvchi xalqlar yashagan. Kaspiy orti vodiylarini massagetlar egallagan. Markaziy Osiyoning ana shu hududlarida sivilizatsiyaning ilk markazlari vujudga kelgan.

Eradan avvalgi VI asr oxiri va V asr boshlarida saklar fors davlati tarkibiga kirgan, eradan avvalgi IV asrda esa Markaziy Osiyoni Aleksandr Makedonskiy zabt etadi. Yunon istilosiga qaramasdan Markaziy Osiyo xalqlari o'zining madaniyatini saqlab qoladi.

Qadimgi Turon zaminda VIII asrgacha bo'lgan falsafiy, ijtimoiy, axloqiy qarashlarning umumbashariy ahamiyatga molik bo'lganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy yodgorliklardan ma'lumdir. Turk mifologiyasi, O'rxun-Enasoy yozuvlari, Kultagin yodgorligi, Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", Narshaxiyning "Buxoro tarixi" kabi manbalar o'sha davr ijtimoiy-falsafiy qarashlari to'g'risida muayyan tasavvur hosil qiladi. Tarixiy manbalarda yozilishicha, qadimgi Hindistonda va Xitoyda keng tarqalgan, biz yuqorida aytib o'tgan 4-5 elementning substansiyaviyligi haqidagi g'oyalar Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy fikrlariga o'ziga xos ta'sir etgan. O'sha zamonning donishmandlari borliq va undagi barcha narsa-hodisalarni suv, havo, tuproq va olovdan tashkil topgan deb o'ylaganlar, bu tasavvurlar keyinchalik ilohiylashtirilgan. Shu ma'noda havoni bulg'ash eng katta gunoh hisoblangan.

Olov mehr-muhabbat ramzi bo'lgan. Saklarning epik ertaklarida vatanparvarlik, sadoqat va jasurlik g'oyalari kuylangan. O'z qabilasi mustaqilligi uchun kurashning yorqin namunalari Shiroq, To'maris haqidagi afsonalarda aks etgan. Sak eposining ayrim belgilari o'zbek, qoraqalpoq, turkman va tojik xalqlari og'zaki ijodiyoti namunalarida saqlanib qolgan.

Milliy qadriyatlarimizning ko'p qirralarini o'zida mujassam qilgan eng muhim yozma yodgorliklardan biri "Avesto"dir. Zardo'shtiylik dinining muqaddas kitobi bo'lmish "Avesto"ning ilk sahifalari bundan uch ming yil ilgari Xorazmda yaratilgan. Eramizdan oldingi VII asrga kelib, uni Amudaryo sohilidagi tuya boquvchi qabilalar orasidan yetishib chiqqan Zardo'sht qayta ishlab chiqqan. Zardo'sht "Avesto"ning qadimgi qismi bo'lgan "Yashtlar"dagi ko'pxudolik aqidalariga zid o'laroq, uning "Gohlar" qismida yakkaxudolik g'oyalarini targ'ib etgan.

"Avesto"da Markaziy Osiyo xalqlarining olam, kosmos nur sochuvchi sfera va jannatdan iboratdir, degan tasavvurlari o'rin olgan: koinot Yer, okean, osmon bilan o'ralgan. Yer yetti qismdan iborat bo'lib, turlicha iqlim va yil fasllari bilan bog'langan. Osmon to'rt sferadan iborat: birinchisi yerga eng yaqin – yulduzlar (Katta Ayiq, Vega, Sirius, Kanopus). Ikkinchisi – Oy, uchinchisi – Quyosh sferasi, to'rtinchisi – yorug'lik maydoni yoki jannat sferasi. Oy sferasi olti fazaga bo'linadi, ularning har biri besh kundan iborat. Yulduzlar, Oy va Quyosh xudo Axura Mazdaning tanasini o'zlarida gavdalantiradi.

Zardo'shtiylik ta'limoti diniy shaklda berilgan, kimki Zardo'sht ta'limotiga amal qilsa, u yer, suv, yilqi uchun maydon, ayvonli uy, o'n besh yoshli kelinga muyassar bo'ladi; kimki o'z uyida xotini bilan tinch-osoyshta yashasa, ko'p farzand ko'rsa, oilasini mehnat qilib boqsa, u pokdomondir.

Zardo'shtiylikda axloqiy ta'limot uch asosga: "ezgu fikr" (gumata), "ezgu so'z" (gukta), "ezgu amal" (gvarishta)ga tayanadi. Ezgu fikr - xudo Axura Mazdaning timsoli, yomon fikr esa yovuzlik timsoli Axrimanning belgisi. Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal - inson butun umri davomida amal qiladigan tamoyillar bo'lib, shu uch xislatga ega bo'lgan halol mehnat sohibi inson oliy haqiqatga erishadi.

Zardo'shtiylikda huquqiy qarashlar ham o'z ifodasini topgan. Kishilarning jamiyatdagi munosabatlarini tartibga solib turuvchi urf-odatlar va axloqiy qoidalar Axura Mazda tarafidan ilohiy qonun darajasiga ko'tarilgan. Huquqiy sohalar jinoyat, fuqarolik, oila, yer-suv huquqi kabilarga ajratilgan. Suv jazosi o'ta shafqatsiz bo'lgan. Jazolashda o't, qizdirilgan temir, qamchidan keng foydalanilgan. Bosh hakam Axura Mazdaning o'zi bo'lgan.

Eramizning II-III asrlarida Markaziy Osiyo va unga qo'shni hududlarda iqtisodiy tanazzul va uning g'oyaviy ifodasi sifatida yangi mafkuraviy oqim

bo‘lgan moniylik ta‘limoti vujudga keladi. Bu ta‘limotning asoschisi 216 yilda Bobilda tug‘ilgan, 25 yoshida Hindistonga borib hamfikrlari bilan o‘z jamoasini tuzgan va keyinchalik Fors va Suzada yashagan **Moniydir**. U bir necha diniy-axloqiy risolalar muallifi bo‘lib, “moniylik yozuvi” nomi ostida yangi alifbo kashf etib, uni tavsiya etgan. Uning orzusi ko‘pchilikni savodxon qilish va hammaga ma‘qul tushadigan umumiy yagona dinni yaratish edi. U mayda hunarmandchilikni rivojlantirish bilan birgalikda kamtarona, faqirlikda yashashni targ‘ib qiladi. Moniy ta‘limotini targ‘ib etish Eron, Markaziy Osiyo, Xitoy, Turkiston bo‘ylab yoyilgan. Uning oshib borayotgan obro‘sidan hadiksiragan zardo‘shiy kohinlar Moniyni falsafiy bahsga chaqirganlar. Ammo bahs bilan chegaralanmay, uni zindonga solganlar va nihoyat, 276 yili qatl etganlar.

Moniyning falsafiy-ilohiy ta‘limotida ma‘naviy qadriyatlarga katta o‘rin berilgan. Uning fikricha, ikki dunyo – “zulmat va ziyo dunyosi” mavjud bo‘lib, birinchisida adolatsizlik, zulm, zo‘ravonlik hukm surgan, ikkinchisi abadiy, yemirilmaydigan, doimiy qadriyatlar dunyosi bo‘lgan. Moniy ta‘limotida qadimgi zamonning asosiy qadriyatlari jamlangan. Ularning umumiy tizimi asotir tafakkur (mifologiya), falsafa, koinot haqidagi ilmlar va boshqa ijtimoiy-tabiiy bilim sohalari bilan bog‘liqda bayon etilgan.

Moniy ta‘limotining ozod dehqonlarga qaratilganligi va ular manfaatining g‘oyaviy ifodasi bo‘lganligidan III va undan keyingi asrlarda ham Eron, Markaziy Osiyo, Suriya, Misr va Rum imperiyasining sharqiy viloyatlarida uning g‘oyaviy ta‘siri keng yoyilgan edi. Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab buddaviylik ta‘limotining tarqilishiga qadar Eronda quvg‘inga uchragan Moniyning maslakdoshlari Markaziy Osiyodan panohtopadilar.

Moniylik g‘oyalari Markaziy Osiyoning o‘troq, eng madaniy xalqlaridan bo‘lgan uyg‘urlar dunyoqarashiga katta ta‘sir o‘tkazgan. Moniylikning uyg‘ur tiliga qilingan tarjimasida tarzida saqlangan diniy yodgorligi “Xua stuanift” (“Moniylikning tavba namozi”) aniq, tushunarli tilda yozilgan va bu asar qadimgi turkiy xalqlar tilida yaratilgan ilk adabiy yodgorlik hisoblanadi. Moniylik VII asrda Uyg‘ur davlatining diniga aylangan.

Falsafiy qadriyatlar mavzusining izlari VI asrda yashagan **Mazdak** ta‘limotida ham ko‘zga tashlanib turadi. Mazdak aqidasi ko‘ra, dunyoda sodir bo‘ladigan jarayonlar ongli maqsadga yo‘naltirilgan ezgulik va uning manbai bo‘lgan yorug‘lik bilan ko‘r-ko‘rona va tasodifiy harakat qiluvchi qorong‘ilik (johillik) o‘rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bu kurash yaxshilikning yomonlik ustidan muqarrar g‘alabasi bilan yakunlanadi. Yaxshilikni barqaror qilish uchun ijtimoiy tengsizlikka barham berish lozim, asosiy yovuzlik – boylikka hirs qo‘yishdir. Bunday ta‘limotga asoslangan Mazdak boylarning mol-mulkini tortib olib, qambag‘allarga bo‘lib berishga

boshchilik qilgan. Feodallarning markaziy davlatdan ajrab chiqib, o'zlaricha mustaqil yashash tamoyillari kuchayganligi sababli, ularning kuchini ommaviy harakat orqali singdirishdan manfaatdor bo'lgan Eron shohi Qubod I (488-581) avval boshda Mazdakni qo'llab-quvvatlab, uni butun Eronga qozi qilib tayinlaydi. Mamlakat bo'ylab xususiy mol-mulkni ijtimoiy tenglik asosida qaytadan bo'lib chiqish maqsadida talon-taroj qilish boshlanadi. Mamlakatdagi katta yer egalari, amaldorlar va kohinlarning iqtisodiy hamda siyosiy hukmronligi barbod bo'lganidan so'ng, shoh Qubod I Mazdak bilan aloqani uzadi. 529 yili mazdakiylarning inqilobiy harakati bostirilgach, Mazdak qatl etiladi. Ammo uning ta'limotidagi adovat va hasadni yo'q qilishga qaratilgan tadbirlar, ijtimoiy adolatsizlikka qarshi kurashish muqaddas vazifa ekanligi haqidagi g'oyalar jozibakor mafkura sifatida uzoq vaqt yashab qoladi. Keyinchalik bu ta'limot g'oyalari Eron, Markaziy Osiyo va Ozarbayjondagi dehqon va shahar kambag'allarining feodallar zulmiga qarshi, keyinroq esa arab istilosiga qarshi ko'tarilgan Muqanna va Bobek qo'zg'olonlarida kurash g'oyasi bo'lib xizmat qilgan.

3. XIV asr oxiri XX asr boshlarigacha O'zbekistondagi ijtimoiy-falsafiy tafakkur. XIX asr oxiri XX asr boshlarida falsafiy fikrlar. Jadidchilik – milliy g'oyalar uchun kurash falsafasi.

O'zbek xalqi ma'naviy dunyosining shakllanishiga g'oyat kuchli va samarali xizmat ko'rsatgan ulug' zotlardan yana biri Alisher Navoiy (1441-1501)dir. Uning falsafiy va ma'naviy merosi hozirgi zamonimizning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlari bilan bevosita bog'liq bo'lgan falsafiy fikrlarni qamrab oladi. Shoirning XV asrdan bizgacha yetib kelgan olam va uning mohiyati, inson va inson hayoti, xalq va xalqparvarlik, komillik va komil inson, muhabbat va go'zallik to'g'risidagi o'zbekona falsafasi insoniyat ongi va tafakkurida doimo yashab kelmoqda.

Navoiy inson qalbining quvonchi va qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini teran ifoda etgan, bunday allomalar jahon tarixida kam topiladi. Navoiy xalqlar birdamligi va do'stligini kuylovchi va qadrllovchi mutafakkir. Uning barcha dostonlari va devonlarida turli xalqlarga mansub qahramonlarning obrazlari xalqaro do'stlik va tinchlikni ifodalaydi. Buyuk alloma xalqimizning ongi va tafakkuri, ilm-fan va madaniyati tarixida o'chmas iz qoldirgan shaxs, shuningdek, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyondasi, millatimizning g'ururi, sha'nu-sharafini dunyoga tarannum qilgan yetuk mutafakkirdir.

Buyuk o'zbek shoiri, adibi va tilshunos olimi "Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyat tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning g'ururi, sha'nu-sharafini dunyoga tarannum qilgan o'lmas so'z san'atkoridir. Ta'bir joiz bo'lsa, olamda turkiy va forsiy tilda so'zlovchi biron-bir inson yo'qki, u Navoiyni

bilmasa, Navoiyni sevmasa, Navoiyga sadoqat va e'tiqod bilan qaramasa. Agar bu zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak, mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak, shoirlarning sultonidir”.

Navoiy ilm-fanni sevishni, chuqur insoniylik, millatparvarlik, millatlararo do'stlik va ezgulikni yagona o'zbekona falsafiy tizimda kuylaydi-ki, bu uning ma'naviy merosining tarixiy o'lmasligini ta'minlaydi. “Nazmu-l-javohir”, “Munojot”, “Mahbub-ul-qulub”, “Farhod va Shirin”, “Saddi Iskandariy” singari asarlarida ulug' adib o'zigacha mavjud barcha ilohiy, ilmiy-adabiy ilmlarni chuqur o'rganib teran fikr, ozod ruh, mustahkam iymon, tuyg'ular nafosati va nihoyat, mukarram va ulug'vor o'zbek (turk) so'zining qudratini namoyon etgan.

Tarixchi Xondamirning ta'kidlashicha, Navoiy ilm ahllariga katta e'tibor berib, talabalarning tinch, bemalol ilm olishlari uchun ularga nafaqalar belgilab, madrasa va xonaqohlar bino qiladi. Bulardan: madrasai “Ixlosiya”, xonaqohi “Xalosiya”, madrasai “Shifoiya”, madrasai “Nizomiya”, madrasai “Xumroviya” kabilar Xondamirning “Makorim ul-axloq” asarida sanab o'tilgan. Ayniqsa, “Ixlosiya” madrasasi bilan “Xolosiya” xonaqohi bino qilingan zamonlardan to shu kunga qadar, - deb yozgan edi Xondamir, - yigirma ikki yil muddat ichida dunyoning har tarafidan va har burchagidan bu ikki joyga minglab talabalar kelib, oz fursatda turli ilm va fanlarni o'rganishga muvaffaq bo'lib, olqishlar va maqtashlar bilan o'z vatanlariga qaytganlar.

Alisher Navoiy ulug' ma'rifaparvar shoir bo'lib, u insonning aql-zakovatini yuksak baholaydi, uni ilm-fan jamiyat taraqqiyoti va xalqning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda, hayot illatlarini bartaraf etishga xizmat qiluvchi qudratli vosita deb hisoblaydi. Navoiy nafaqat buyuk shoir, ma'rifatparvar shaxs, ayni bir vaqtda u yirik davlat arbobiki, bugungi kunda ham uning olib borgan davlatni boshqarishdagi adolatli siyosati behad ahamiyatlidir. Navoiy inson hayotidagi barcha qiyin muammolarni ilm yo'li bilan hal etishga chaqiradi va bu chaqiriq uchun olimu donishlar pillapoyasining eng yuqori cho'qqisiga olib chiqdi. E'tibor berilsa, mutafakkir har bir asarida insonni ulug'lab, uni insoniylik fazilatlarini egallashga chaqiradi. Shuning uchun ham uning ma'naviy va falsafiy merosining asosini “Odami ersang, demagil odami, oniki yo'q xalq g'amidin g'ami” tashkil etadi. O'rta asrlarning XV asrlarida yangragan bu so'zlar hozir ham hayotiy pand-nasihat sifatida odamlar qalbidan joy olgan. Bularning barchasi o'zbek milliy falsafasining asosini tashkil qiladi.

Navoiyning milliy falsafasida adolatli bo'lish g'oyasi vatanparvarlik bilan uyg'unlashib ketgan. Buyuk mutafakkir Vatanni sevishga, uning tuprog'i, yeri, suvi, tabiati va boyliklarini avaylab-asrab, inson manfaatlari uchun foydalanish zarur degan qoidani targ'ib qiladi. Demak, falsafa kishilarni eng avvalo falsafani o'rgatuvchidan yuksak ma'naviy-ma'rifiy kamolot darajasiga ko'tarilishini talab

qiladi. Shuningdek, mutafakkirning ta'kidlashicha, falsafani egallashning eng asosiy vositasi nazariy aql orqali olinadigan ilmlar bo'lib, u ma'rifiy hayotning sarchashmasidir.

O'zbek falsafasining rivojlanishi va shakllanishiga o'zining munosib hissasini qo'shgan Boborahim Mashrabdan (1640-1711) juda katta boy ma'naviy meros qolgan. U Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining ko'p joylarida, xususan, Toshkent, Turkiston, Samarqand, Buxoro, Andijon, Xo'jand, Badaxshon va boshqa yerlarda bo'ladi va umrining so'ngi kunlarini Balxda o'tkazadi.

Mashrabning ko'plab g'azal va ruboiylari, muhammasu musaddaslari xalq orasida mashhur bo'lgan. Uning g'azal va ruboiylarida asosan ilohiy sevgi, ya'ni Ollohga bo'lgan muhabbat tasvirlanadi. Lekin ayni bir vaqtda, mavjud dunyoning ishlarini, g'am-tashvishlarini, insoniy fazilatlarni egallash, xalqning ahvolini yaxshilash kabi muammolarini ham unutmaydi. Mashrabning ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlarida hukmdorlarni insofqa, xalqqa yordam berishga da'vat etish yotadi.

Mashrab o'z davrida Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan tasavvufning qalandarlik oqimiga e'tiqod qilib, jamiyatda adolatsizlikka qarshi kurash olib boradi, shu bilan birga, xalqni ezgulikka, insof va diyonatga, to'g'rilikka chaqiradi. Garchi Mashrab tasavvufning qalandarlik tariqatini tanlagan bo'lsa-da, undan axloqiy poklikka erishish, hayotdagi salbiy illatlarga qarshi kurashish uchun foydalanadi. Uning fikricha, inson hayotida maqsad va murodga yetishish, fisqu fasod va yomonliklardan, sitamlarlardan qochish uchun qalandar bo'lishi kerak. U adolatsizlikka, jabr-zulmga, zo'ravonlik va o'zboshimchalikka, firibgarlik va munofiqlikka, xullas, razillik va yomonliklarga qarshi kurashish uchun qalandarlik yo'lini tanlaydi.

Mashrab yaxshi fazilatlar, insoniy xislatlarni Ollohdan qidiradi, demak, Xudoni sevgan kishi insonlarni ham sevishi, o'zida go'zal fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi lozim. Shuning uchun ham Mashrab o'z she'rlarida pok ilohiy muhabbatni kuylash, Xudo va u bilan birlashish haqida fikr yuritadi. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, inson va uning fazilatlari, yorga bo'lgan ishq-muhabbat, vafodorlik, do'stlik, xalq g'amida qayg'urish, takabburlik va yolg'on so'zlashdan saqlanish, nasl-nasabga ishonmaslik, imon-e'tiqodini sotmaslik, ota-onani hurmat qilish kabi g'oyalar Mashrab falsafasining asosini tashkil qiladi.

Mashrab borliqning asosi, hayotning mazmuni, insonni Xudoga bog'lovchi asosiy vosita deb ishqni tushunadi. Uningcha, Xudoning dunyoni yaratishiga asosiy sabab bo'lgan narsa muhabbatdir. Shu sababdan, inson hirsu ochko'zlik, hayvoniy sifatlar: manmanlik, xudbinlik kabi xislatlardan poklanish uchun, o'z asli

– ilohiy ishqqa yuz tutishi lozim. Aks holda, u insoniyligini yo‘qotib, tubanlashib ketishi muqarrar.

Mashrab murakkab, qarama-qarshiliklarga boy davrda yashadi. Bu hol uning dunyoqarashida ham bilinib turadi. U bir tarafdin, adolatli jamiyat, insonning go‘zal fazilatlarini haqida fikr yuritsa, ikkinchi tomondan, yaxshi jamiyatga erishib bo‘lmasligi haqida gapirib, umidsizlikka, tarkidunyochilikka beriladi. Bulardan qat‘i nazar, uning ajoyib she‘rlari va undagi g‘oyalar hozir ham o‘z qimmatini yo‘qotgani yo‘q.

Ma‘rifatparvarlik mafkurasining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri Ahmad Donish (1827-1897) bo‘lib, u falsafa, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, tarix sohasida asarlar yozgan.

U mamlakatni odilona boshqarish uchun islohot zarurligini uqtiradi. Davlat, olimning nuqtai nazaricha, xalqning manfaatini himoya qilishi, hukmdor esa bilimdon, aqlli bo‘lib, o‘z atrofidaqilar bilan kengashib davlatni idora qilishi lozim. Bunday fikrlar, ijtimoiy-siyosiy qarashlar olimning “Navodirul-vaqoe” va boshqa risolalarida o‘z ifodasini topgan. Ahmad Donish o‘z ijtimoiy-siyosiy qarashlarini real faktlar, o‘z davrining hukmdorlari faoliyatidan olingan tarixiy dalillar asosida bayon qilgan. “Risola dar ilmi kurra” (“Globus haqida risola”), “Manozir al-kavokib” (“Yulduzlarni kuzatish”) kabi asarlarida o‘zining astronomiya va geografiya fanlariga oid qarashlarini yoritib berishga harakat qilgan. “Tarixiy risola” asarida Buxoro amirligidagi inqirozning sabablarini tahlil qilib, jamiyat taraqqiyotining asosiy shartini tadrijiy, bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan islohotlarni hayotga joriy qilish ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berishga harakat qiladi. Donishmandning bu fikri hamon o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas.

Mazkur silsila XX asrning 30-yillariga kelib uziladi, chunki Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Avloniy, Botu, So‘fizoda, Usmon Nosir singari yuzlab ziyolilar milliy fikr, milliy o‘zlik, milliy tafakkurning istiqbolli vakillari bo‘lganliklari uchun ular xalq dushmani sifatida qatag‘on qilinadi. Shulardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiydir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875-1919) jadidchilik asoschilaridan biri bo‘lib, yangi maktablar qurish, yosh avlodni mustaqillik ruhida tarbiyalash, ularni ilmli qilish, ma‘rifat va taraqqiyot uchun kurashga katta hissa qo‘shgan mutafakkirdir.

Behbudiy yangi maktablar uchun “Risolayi asbobi savod”, “Risolayi jug‘rofiyai umroniy”, “Kitobat ul-atfol”, “Amaliyoti islom”, “Risolai jug‘rofiyai rusiy” va boshqa darsliklarni yozadi. Uning asosiy asari “Padarkush” dramasi. Bulardan tashqari, Behbudiy ko‘plab publitsistik maqolalar yozdi, matbuotda xizmat qildi, nashr ishlari bilan mashg‘ul bo‘ldi. Uning maqolalarida millat va Vatan taqdiri, mustaqillik g‘oyasi, axloq va ta‘lim-tarbiya kabi boshqa masalalar ham o‘rin olgan.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalaridan biri Abdulla Avloniyning (1878-1934) falsafiy merosiga nazar tashlaylik. Uning adabiy va ilmiy merosi nihoyatda boy bo‘lib, falsafa, axloqshunoslik, pedagogika va boshqa sohalarni qamrab oladi. U “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Tarixi anbiyo”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi asarlarida o‘zining ta’lim-tarbiya borasidagi fikrlarini bayon etadi.

Adibning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim” darsliklaridan keltirilgan ixcham hikoyalar, “Tarixi anbiyo”sidagi ma’lumotlar yosh avlod tarbiyasi uchun katta ahamiyatga ega. Abdulla Avloniyning “Birinchi muallim”, “Ikkinchi muallim”, “Tarixi anbiyo”, “Turkiy guliston yoxud axloq”, “Maktab gulistoni” singari darsliklari o‘z davrida bir necha bor bosilib chiqdi hamda bu darsliklar o‘sha davrda ochilgan Turkistonning ko‘plab maktablari uchun muhim qo‘llanma bo‘ldi.

Allomaning “Birinchi muallim” (1912) kitobi uning ko‘p yillik ijodiy ishlari va pedagogik faoliyati natijasida yaratilgan bo‘lib, kitobning kirish qismida “Muhtaram muallim afandilarimizdan rijo qilurmanki, bizning “Birinchi muallim”imizdan ham olub, tajriba qilub, o‘qub ko‘rsalar. Chunki har gulning bir isi, har bir mevaning bir ta‘m va mazasi bordur. Bu “bo‘y” va ta‘m esa tajriba sohiblarina kashf va ma’lum erur. Shoyad, millat bolalarina foidabaxsh o‘lur umidinda bir necha so‘ngidan bu risolai ojizonamni “Birinchi muallim” ismi-la maydoni intishora qo‘ydim - degan fikrlarni yozadi.

Avloniyning “Ikkinchi muallim” kitobi “Birinchi muallim” kitobning uzviy davomi bo‘lib uni o‘qish, xrestomatiya deb atash mumkin. Mazkur xrestomatiya sodda, tushunarli tilda yozilgan kichik-kichik hikoyalar, bandlar va she‘rlardan iborat. Muallifning o‘zi ham “Birinchi maktablarimizning shogirdlarina alifbodan so‘ng o‘qutmak uchun ochuq til va oson tarkib ila yozilub, axloqiy hikoyalar, adabiy she‘rlar ila ziynatlanmush o‘quv kitobidir – deydi.

Shuningdek, 1913 yilda bosmadan chiqqan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari maktablarning yuqori sinf o‘quvchilariga atab yozilgan bo‘lsa-da, u adabiyot va axloq masalalari bilan shug‘ullanuvchilar uchun ham zarur qo‘llanma sifatida xizmat qiladi. Mazkur asarda axloqning tub mohiyati insonlarni yaxshilikka chorlovchi, yomonlikni rad etuvchi ilm ekanligi haqidagi ma’lumotlar berilgan.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asarida aql va ilmni ma’naviy-axloqiy olamning adib tomonidan ehtiros bilan ulug‘lanishi uning ma’rifatchilik g‘oyalarining mazmunidan kelib chiqadi. Muallifning fikricha, aql insonlarning piri komili, murshidi yagonasidir. Ushbu risolada yozuvchi asosiy e’tiborni aql, ilm, ziyraklik, vijdon, vatan tuyg‘usi, til, haqiqat, hayo, iffat, muhabbat, munislik kabi ijobiy xislatlarni shakllantirishga, shuningdek, jaholat, g‘azab, dangasalik, yalqovlik, g‘iybat, hasad kabi illatlardan xalos bo‘lishga qaratadi.

Muallif bu fazilatlarni shunchaki ko'rsatib o'tmaydi, balki aniq hayotiy, amaliy ahamiyati ustida ham to'xtalib o'tadi. Uni insonni kamolotga yetkazishda asosiy omil sifatida e'tirof etadi, shuningdek, sanab o'tilgan illatlar esa insonni ijtimoiy taraqqiyotda izdan chiqishiga sabab bo'ladigan omil deb aniq fikr bildiradi.

Alloma o'z davrining dolzarb muammolarini inobatga olgan holda "Turkiy guliston yoxud axloq" asarida barkamol insonni tarbiyalashda "Badan tarbiyasi", "Fikr tarbiyasi", "Axloq tarbiyasi"ga jiddiy e'tibor qaratadi, barkamol inson egallashi lozim bo'lgan fazilatlarni tizimini yaratadi. Avloniyning ta'kidlashicha, "Ichkilik, ko'knor, nasha, afyun, taryok, chilim, nos, popirus kabi badanning salomatligiga zararli yegulik, ba'zisi harom, ba'zisi makruh, ba'zi isrof bo'lgan narsalardan qochmoq, saqlanmoq shariat, aql, hikmat yuzasidan lozumdir", shuningdek, olim "Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko'p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g'ayratlik bo'lishiga sabab bo'ladi" deydi. Shu bilan birga, axloqiy tarbiyaga ta'rif berganda asosiy e'tiborni inson fe'li va hayratlari, mayllari: baxt mayli, faoliyat mayli, izzat-nafs, alofa mayli, boshqalarga mehr-muhabbat mayli, ibrat olib e'tiborda bo'lish mayli, bilish mayli, go'zallik mayli, fazilatga muhabbat, iroda va ixtiyor kabilarga qaratadi.

Avloniyning Oktabr inqilobigacha bo'lgan poetik merosi, asosan "Adabiyot" nomli olti qismdan iborat she'riy to'plamlarida jamlangan. Ularning har biri 1909-1917 yillar oralig'ida alohida-alohida bir necha marotaba nashr qilingan. Shoirning bu davrda yozilgan barcha she'rlari milliy-ijtimoiy xarakterga ega ekanligining o'zi o'zbek milliy falsafasi asosini tashkil qiladi.

Abdulla Avloniy dramaturgiya sohasida ham bir qator asarlar yaratgan. "Finak" (1915), "Advokatlik osonmi?" (1916), "Ikki muhabbat" (1916) singari pyesalar shular jumlasidandir. Bu asarlarda muallif bilimsizlik, kishilarning jaholat va nodonlik botqog'iga boruvchi og'ir qismati talqin qilinadi. Shuni alohida ta'kilash kerakki, Avloniy yozgan pyesalari zamirida oila hayotini tasvirlash bilan inson qalbiga kirib borish, ularni ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy jihatdan tarbiyalash hamda jamiyat hayotida avj olib borayotgan milliy uyg'onish g'oyalarini tarannum etish bo'lgan.

Pedagog olim Abdulla Avloniy asarlarini o'rganishning falsafiy metodologik asosini u tomonidan qo'llanilgan tarbiyaning nazariy jihatlariga tayanib qolmasdan, balki uning har bir o'git va nasihatlarini dalillar, hayotiy misollar yordamida mustahkamlash orqali yosh avlod ongida ushbu fikrlarning uzoq saqlanishini ta'minlashdan iborat bo'ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, mutafakkir olim o'zining barcha asarlarida o'zbek falsafasining asosini tashkil etadigan ta'lim-tarbiya, ya'ni barkamol shaxs

tomonidan o'zlashtirishi zarur bo'lgan quyidagi: aqliy kamolot, axloqiy kamolot, jismoniy yetuklik va go'zallikni his etish kabi sifatlarni yoritadi.

Jadidchilik harakatining yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat (1884-1939) bo'lib, ilmning ko'p sohalarida ijod qilgan mutafakkirdir. Olim "Sayha" ("Bong"), "Hind sayyohining qissasi", "Uchqun" to'plami, "Chin sevish", "Hind istilochilari", "O'zbek tili grammatikasi", "Chig'atoy adabiyoti" va boshqa ko'plab asarlar yozdi.

Fitratning asarlarida xalqni jaholat va nodonlikdan qutqarish, ilm-ma'rifatga chorlash, milliy mustaqillikka erishish, xalqning o'zligini tanishi, ongining o'sishi, kuchli va rivojlangan davlat tuzish, xalqning bilimdon bo'lib, tijorat va tadbirkorlik bilan shug'ullanishi, Yevropaning fan va texnika yutuqlarini o'rganish kabi g'oyalar ilgari suriladi. "Chin sevish" asarida bir qator dolzarb ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko'tarib chiqdi. Bulardan tashqari, tasavvuf ta'limotining mohiyati, yassaviylik, naqshbandiylik, kubraviylik ta'limoti to'g'risida qator ilmiy maqolalar e'lon qiladi. Mumtoz qo'shiqchilik san'ati hamda "Shashmaqom"dek noyob durdonaning bizning davrimizgacha omon-eson yetib kelishida Fitratning hissasi beqiyos. Uning rahbarligida "Shashmaqom" musiqa tarixida ilk bora notaga tushirildi. Fitrat adabiyotshunoslikda ham ulkan xizmatlarni bajardi, navoiyshunoslikning birinchi namoyandalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Uning yuqoridagi millatparvarlik va vatanparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari hozir ham tadbirkorlik, ma'naviyat va ma'rifatni ravnaq toptirishda, milliy g'oya va mafkurani shakllantirishda, xalqning o'zligini anglashida muhim ahamiyatga ega.

XX asr boshlarida sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-siyosiy hodisalar Hamza hayotiga, uning ijodkor sifatida shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1905 yildagi inqilobiy harakatlar Russiyaning chekka o'lkalari xalqlarida ma'rifat, ozodlik, istiqloq sari intilishlariga turtki bo'ldi. Uning ijodiga, ayniqsa, Ismoilbek Gaspirinskiyning "Tarjimon", Fotih Karimiyning "Vaqt" gazetalari, Rizo Faxriddinning "Sho'ro" jurnali, shu bilan birga, o'zbek tilida Toshkentda chiqa boshlagan Ismoil Obidiyning "Taraqqiy", Munavvarqori Abdurashidxon o'g'lining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari kuchli ta'sir ko'rsatdi. Ular bilan aloqa o'rnatish orqali Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining dastlabki she'r va maqolalarini mazkur gazeta va jurnallarda chop ettira boshladi.

1914 yil 11 sentabrda jadidchilik harakatining buyuk rahnamosi Ismoilbek Gasprali vafoti munosabati bilan hamma jadid ijodkorlari singari Hamza ham o'z hamdardligini bildirib, "Yavmul-vafot" (Sadoyi Farg'ona, 1914 yil 24 sentabr) maqolasini va "Marsiya" (Sadoyi Farg'ona, 1914 yil 28 sentabr) she'rini e'lon qiladi.

Hamzaning tashabbusi bilan 1914 yilda dastlab Marg'ilonda, keyin esa Qo'qonda usuli jadid maktablari ochiladi. O'zi ochgan usuli jadid maktablari

uchun “Yengil adabiyot”, “O‘qish kitobi”, “Qiroat kitobi” kabi darsliklarni yaratadi. 1915 yilga kelib Hamza qo‘qonlik ma‘rifatchilar bilan hamkorlikda usuli jadid maktablari uchun darsliklar nashr qilish, o‘quvchilarni Toshkent va boshqa shaharlarda bosmadan chiqqan darsliklar bilan ta‘minlash maqsadida “G‘ayrat” kitobxonasini tashkil qiladi. Bu kitobxonada Saidrasul Saidazizovning “Ustozi avval”, Munavvarqorining “Adibi avval”, “Adibi soniy”, Mahmudxo‘ja Behbudiy va Abdulla Avloniylarning darsliklari ham ko‘p nusxalarda bo‘lgan. Hamza ham boshqa jadid namoyondalari singari o‘zining sahna asarlari bilan alohida ajralib turadi. 1915 yilda yozilgan “Zaharli hayot yoxud ishq qurbonlari”, 1917 yilda yozilgan “O‘ch”, “Muxtoriyat yoki avtonomiya”, 1918 yilda yozilgan “Kim to‘g‘ri?”, “Boy ila xizmatchi” dramalari shular jumlasidandir.

Hamza o‘zbek falsafasini musiqa, xalq kuylari vositasida, qo‘shiqlar shaklida xalq qalbiga tezroq va ta‘sirliroq kirib borishi mumkinligini yaxshi tushungan. Shoir o‘zining birinchi Jahon urushi arafasida yozgan “Yig‘la, Turkiston” she‘rida millatni jaholat, istibdod, ilmsizlik tufayli fojeaviy ahvolga tushgan Turkistonni yig‘lashga da‘vat etadi: sen shunday yig‘laginki, hatto “ruhsiz tanlar tebrasin”, seni shunday ahvolga solgan, o‘zi zillatga, xorlikka botgan millat uyg‘onsin! - deb quyidagi satrlarni bitadi:

Darig‘ tutmang ilm uchun ketsa molu jon,
O‘quv farzligi ming yo‘l Qur‘onda farmon,
Ma‘rifatsiz tonulmas ahkomu imon,
Ilmsizga aytulmas komil musulmon.
Yig‘la, yig‘la, Turkiston, yig‘la, Turkiston,
Ruhsiz tanlar tebransun, yig‘la, Turkiston.

Shoirni qiynayotgan, uning faryod chekishga sabab bo‘layotgan narsa millatning ilmsizligi, bu ilmsizlik oqibatida o‘ziga “O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgani”, deb quyidagi satrlarni yozadi:

Bo‘g‘zi sori to‘lguncha g‘aflat sharobin ichgan,
O‘lmasindan ilgari jismiga kafan bichgan,
Umid rishtasin kesub, oru nomusdan kechgan,
Bog‘lu qo‘ling, Turkiston, nobakorlarmu chechgan?

Ushbu she‘rdagi satrlardan ko‘rinib turibdiki, Hamza millatning shakllanishida, ozodlikka erishishida ilm-fan, ma‘rifat birlamchi ahamiyatga ega ekanligini, shuningdek, shu asosda millat tafakkurini uyg‘otish bilan o‘zbek falsafasini asoslarini ko‘rsatib beradi.

Hamzaning “Milliy ashulalar uchun milliy she‘rlar majmuasi”ga mansub “Safsar gul” to‘plamiga mardikorlikka olingan o‘zbekning yurtidan uzoqdagi xoru zorlikda kechgan hayotini tasvirlovchi she‘rlari kirgan. Ularda mardikorlarning ichki his-tuyg‘ulari, el-yurtiga bo‘lgan cheksiz muhabbati, sog‘inchi o‘z ifodasini

topgan. Shuningdek, u mardikor olish voqeasi mustabid tuzumning millatni tahqirlovchi, uni abadiy tutqunlikda saqlovchi tadbiri ekanligini “Farg‘ona fojialari” asarining “Istibdod qurbonlari” qismida rus mustamlakachilarini ayovsiz fosh etadi.

Shoir o‘zining “Iydi qurbon” (Sadoyi Turkiston), “E’tibor” (Sadoyi Farg‘ona) kabi maqolalarida millatni yaramas illatlardan, faqirlikdan, xurofotdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma‘rifatdir, shuningdek, o‘zining falsafasiga ega bo‘lish kerak, degan g‘oyani ilgari suradi va boy-u kambag‘al, ziyoli-yu din peshvolari – hammalarining qo‘lni-qo‘lga berib, yangi usuli jadid maktablariga ko‘mak berishlarini ta’kidlaydi. Hamza milliy ayirmalarga, sinfiy tabaqalanishlarga keskin qarshi chiqadi.

Jadidchilik harakatining yana bir yirik vakili bo‘lgan Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpondir. Uning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan hodisalardan biri uning Zaki Validiy bilan tanishuvi bo‘lgan. 1912 yilda Zaki Validiyning “Turk va tatar tarixi” nomli kitobi nashr etilib, qisqa muddatlarda unga katta shuhrat olib keladi. Shu vaqtlarda 15 yoshga to‘lgan Abdulhamid ham boshqalar qatori mazkur kitobni zo‘r ishtiyoq bilan o‘qib chiqadi. Kitobdan ta’sirlangan yosh shoir kitob muallifiga minnatdorchilik maktubini yozadi va uni Turkistonga taklif qiladi. Taqdirning taqozosi bilan Qozon universiteti Zaki Validiyi 1913 yilning oxirida Farg‘ona vodiysiga ilmiy safarga yuboradi. Olim Andijonda ekan, Nazir To‘raqul (mashhur Nazir To‘raqulov, davlat va jamoat arbobi) bilan birga Abdulhamidlar uyida bo‘ladi va ularning (Zaki Validiy va Cho‘lpon. A.Q.) do‘stona munosabatlari 1920 yillargacha davom etadi.

1914 yil Toshkentda Munavvar Qori Abdurashidxonov bilan tanishish Cho‘lponning milliy uyg‘onish harakati namoyandasi sifatida shakllanishida muhim omil bo‘ldi. Ayniqsa, Turkiston aholisining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy qoloqlik sharoitida yashayotganining asosiy sababini Rossiyaning mustamlakachilik siyosatida ko‘rgan Cho‘lpon boshqa ma‘rifatparvarlar qatori, o‘z asarlari bilan xalqning madaniy va ma‘rifiy saviyasini ko‘tarishga kirishgan.

Cho‘lponning adabiy ijodi 1913-1914 yillarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, Andijonning ijtimoiy va madaniy hayoti haqida xabarlar yozish bilan boshlanadi. Uning matbuotdagi dastlabki she‘r va maqolalari 1914 yildan ko‘rina boshlaydi. Jumladan, “Sadoi Turkiston” gazetasi 1914 yil 14 aprel sonida Munavvar Qori Abdurashidxonov 15 yashar Abdulhamidning “Turkistonli qardoshlarimizga” she‘rini mushtariylarga havola etar ekan, u o‘zining o‘quvchilarining yoshgina qalbi bilan yorug‘lik va ilm-ma‘rifatga, maorif yo‘liga boshlanganidan mamnunligini yashirmagan va uning kelajagiga katta umid bildirgan edi.

1917 yil Fevral inqilobining ro‘y berishi taraqqiyparvar ziyolilar dunyoqarashini o‘zgartirib yubordi. Shu jumladan, Cho‘lpon ham mustaqillik

uchun kurash endi targ'ibiy-tashviqiy davridan amaliy faoliyat bosqichiga o'tganini angladi. Cho'lpon Turkiston muxtoriyat hukumatining barpo etilishi va uning shakllanishida faol ishtirok etib, muxtoriyatni sharaflovchi "Ozod turk bayrami" she'rini yozdi va bu she'r o'zbek davlatchiligi tarixida ilk madhiya bo'ldi.

Tarixiy davr va tarixiy sharoit Cho'lpondan muhabbat va tabiat lirikasidan ko'ra shu davrdagi o'zbek xalqining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy ahvolini yaxshilashga qaratilgan asarlar yozishni taqozo etadi. Vatan va millat manfaati bilan yashagan shoir bolsheviklar olib borgan siyosatning mustamlakachilik mohiyatini fosh etishga, xalqni zulm va zo'rvonlikka qarshi hurriyat uchun kurashga da'vat etadigan she'rlar yozdi. Shuningdek, 1920-yillarda yozgan "Oydin kechalarda", "Qor qo'ynida lola", "Novvoy qiz" kabi hikoyalarda o'zbek xotin-qizlarining ayanchli taqdirini ochib bergan.

Cho'lpon she'riyatining sevimli mavzularidan biri xotin-qizlar ozodligi bo'lgan. U bu masalani istiqloq uchun kurashning tarkibiy qismi deb bildi. Shoir nazdida istibdodning eng og'ir yuki ular zimmasiga tushgan edi. Birgina mustamlakachilik emas, o'z ichimizdagi mutaassiblik, jaholat azobini ko'proq ular tortganligini ta'kidlaydi. Ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabatlarni ochib berishga harakat qiladi. Ular tilidan aytilgan quyidagi satrlarda ham juda katta haqiqat borligi fikrlarimizni tasdiqlaydi.

Kulgan boshqalardir, yig'lagan menman,
O'ynagan boshqalar, ingragan menman.
Erk ertaklarini eshitgan boshqa,
Qullik qo'shig'ini tinglagan menman...

Bir tomonda, erk, mustaqillik uchun ketayotgan shafqatsiz kurash, ikkinchi tomondan, ochlik-qahatchilik. Bir tomonda, millat ichida yaratilgan "sinfiy kurash", ikkinchi yoqda jaholat, mutaassiblik. Bunday holat shoirni larzaga soladi. Ayni paytda, bu kurashlarning har biri hayot-mamot kurashi bo'lib, biri ikkinchisi bilan bog'lanib ketgan edi. Lekin ahamiyatiga ko'ra eng muhimi istiqloq, erk uchun ketayotgan kurash bo'lgan. Shularni o'ylagan shoir o'zining "Ulug' yo'lda" nomli she'rida yuksak maqsadlarga erishish yo'llarini ko'rsatishga harakat qilgan. Shu tariqa, u vatandosh va millatdoshlarini yuksak vijdon bilan yashashga undaydi.

Jadidchilik harakatining faol ishtirokchilardan yana biri milliy uyg'onish davrining ijodkori, o'zining milliy falsafasiga ega bo'lgan ma'rifatparvar Is'hoqxon to'ra Ibratdir. Is'hoqxon Ibratning Qo'qon madrasalarida tahsil ko'rgan yillari (1878-1886) Farg'onada vodiysi madaniy hayotida, maorifida katta o'zgarishlar sodir bo'layotgan davriga to'g'ri keldi. U Qo'qon adabiy muhitining yirik namoyondalari Muqimiy, Furqat, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Haziniylar bilan ijodiy aloqada bo'lgan.

Turkiston jadidlari kabi Ibrat ham o‘z xalqini mutaqqiy millatlar bilan teng ko‘rishni istagan. Bunga maktab-madrasalarni tubdan isloh qilish orqali erishish mumkinligini anglab yetgan. Shuning uchun o‘zining bor kuch-g‘ayratini, bilimini jadid namoyondalari bilan birlashtirishga harakat qilgan. Jumladan, Is‘hoqxon to‘ra Ibrat Toshkent jadidlari rahbarlik qilgan “Sadoyi Turkiston”, Farg‘onadagi “Sadoyi Farg‘ona” kabi gazetalarida o‘z asarlari bilan ishtirok etgan.

Is‘hoqxon to‘ra Ibrat jahon ilmi va madaniyatida yaratilgan har bir ilg‘or yangilikdan o‘z xalqini bahramand etishga harakat qildi. 1809 yili tashkil qilingan “Fotografiyai Is‘hoqiya”, 1910 yili To‘raqo‘rg‘on aholisi uchun bunyod etilgan istirohat bog‘i buni tasdiqlaydi.

Is‘hoqxon to‘ra Ibrat ijodidagi yetakchi g‘oya ilm-ma‘rifat, madaniyat va texnika yangiliklarini targ‘ib qilish g‘oyasidir. U xalqning iqtisodiy-madaniy hayotiga xizmat qiluvchi, uning mushkullarini yengillashtiruvchi, uzog‘ini yaqin qiluvchi ilm-fanni, texnikani targ‘ib etdi. Is‘hoqxon to‘ra Ibrat mehnatkash xalq boshidagi og‘ir hayot, qashshoqlik, mamlakatdagi qoloqlikda, xalqning nodonlikda qolganining sabablarini aniqlashga, undan qutqarish yo‘llarini topishga harakat qildi. Bir necha taraqqiy etgan mamlakatlarda bo‘lgan Ibrat xalqni zulmatdan, mamlakatni qoloqlikdan qutqaruvchi birdan-bir yo‘l ilm-ma‘rifatni egallash deb tushunadi.

Muhammadsharif So‘fizoda XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi o‘zbek madaniyatining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan biri bo‘lib, ma‘rifatparvar, murabbiy sifatida ham maorif va madaniyatimiz tarixida salmoqli o‘ringa ega. U o‘ninchi yillardayoq yangi usul jadid maktablarini ochib, bolalarga dars bergan, ilm-ma‘rifatni keng xalq orasiga yoyishga jonbozlik ko‘rsatgan kishilardan biri sifatida Farg‘ona vodiysida shuhrat topdi. 1913 yilning oxirlariga kelib Chustda yangi usul jadid maktabini ochadi va uning peshtog‘iga “Men ul bo‘yoqchimanki, maktab xumuda rang berib, qora chappalarni o‘n ikki oyda oq qilaman”, deb yozib qo‘ygan. Muhammadsharif So‘fizoda birgina “usuli jadid” maktabi muallimi emas, u avvalo, o‘zining falsafasiga ega bo‘lgan tikso‘z, haqiqatparast shoir bo‘lgan. Xulosa qilib aytish mumkinki, jadidlarning xatti-harakatlari o‘zbek falsafasini yangidan shakllanishini boshlab berdi.

Bobokalonlarimizning o‘lmas dahosi, bizga qoldirgan faxru g‘ururimiz bo‘lgan buyuk ma‘naviy va falsafiy merosi bugungi avlodlarni hamkor va hamjihat bo‘lib yashashga, hayotimizni g‘oyat teran ma‘no-mazmun bilan to‘ldirishga, kerak bo‘lsa, boyitishga da‘vat etmoqda. Aynan ana shu meros bizni do‘stlik va qarindoshlik rishtalarini har tomonlama mustahkamlashga, xalqlarimizning erkin va farovon hayotini birgalikda barpo etishga undamoqda.

Xullas, bugungi kunda o‘zbek falsafasiga e‘tiborni qaratish shundan dalolat beradiki, u bizning davrimizgacha uzluksiz ravishda madaniyat, inson tafakkuri va

aql-zakovatining yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Lekin mustabid tuzum davrida ijtimoiy-falsafiy fikr tarixiga bir tomonlama, sinfiy nuqtai nazardan yondashildi, faqat kommunistik partiya mafkurasi talablariga to'g'ri keladigan g'oya va fikrlarga e'tibor berildi. 1917 yildagi Oktabr to'ntarishidan so'ng asta-sekin o'tmish ma'naviyati, falsafiy fikr o'rnini markscha-lenincha mafkura egallay boshladi. Oliy o'quv yurtlari, keng xalq ommasi orasida dialektik va tarixiy materializm va ilmiy ateizm targ'ib qilindi, ularga to'g'ri kelmaydigan ta'limotlar qattiq tanqid ostiga olindi. Eng achinarlisi shuki, o'z milliy madaniyati, urf-odati va an'analariga sodiq bo'lgan, ularni saqlab qolishga intilgan ziyolilar, shoir va yozuvchilar quvg'inga uchrab, qatag'on qilindi. Lekin yuqoridan bo'lgan taz'yiqlarga qaramay, madaniy-ma'naviy va ijtimoiy-falsafiy merosimizni o'rganish, tadqiq qilish tamoman to'xtab qolmadi. O'tgan asrning 60-70-yillarda I.M. Mo'minov, V. Zohidovlarning ijtimoiy-falsafiy fikr tarixi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ular Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Navoiy, Ali Qushchi, Mirzo Bedil va boshqalarning falsafiy dunyoqarashini tadqiq qildilar.

O'zbekistonda birinchi bo'lib, 1946 yilda Vohid Zohidov, ikkinchi bo'lib 1950 yilda Ibrohim Mo'minov falsafa fanlari doktori ilmiy darajasini olishgan bo'lsalar-da, falsafa fanining ilk qaldirg'ochlarining fikrlari ham cheklab qo'yilgan edi. Shuning uchun ular o'zbek falsafasi bormi yoki yo'qmi degan savolni ochiq qo'yish imkoniyatidan mahrum edilar.

Vohid Zohidov va Ibrohim Mo'minov shaxslaridan boshlangan falsafani mustabid tuzum o'ziga moslashtirgan va ko'p jihatdan o'z milliy ildizlaridan majburan uzilgan falsafa edi.

Milliy falsafa haqida masalaning bunday qo'yilishining hech qanday g'ayriilmiy yoki g'ayriijtimoiy tomoni yo'q. Chunki, O'rta Osiyo – insoniyatning Sharqdagi ilk madaniyat markazlaridan biri bo'lgan. Xitoy yoki Hindiston kabi qadimiy davrlardan o'zbekning o'z falsafiy maktablari, yo'nalishlari va ta'limotlari bo'lgan. Ularni izchillik va sabr-toqat bilan o'rganib, bir tizimga keltirish va shu asosda jahon falsafasiga "O'zbek milliy falsafasi" degan tushunchani kiritish maqsadga muvofiqdir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Falsafa yuzaga kelishining ijtimoiy-tarixiy, iqtisodiy-ma'naviy mezonlari haqida nimalarni bilasiz?
2. Fikrlar va yo'nalishlar rang-barangligi masalasi falsafa tarixida qanday hal etilgan?
3. Qadimgi Hind va Xitoy falsafasining asosiy ta'limotlarini tavsiflab bering.

4. Arablargacha Markaziy Osiyoda falsafiy tafakkurning o'ziga xos yo'nalishlari haqida nima bilasiz?

5. XX asr falsafasida davrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy jarayonlarining aks etishini tushuntirib bering.

3-mavzu: O'rta asrlar falsafasi va Ovroqadagi falsafiy fikrlar

Reja:

1. O'rta asrlar falsafasi va Ovroqadagi falsafiy fikrlar. Nominalizm va realizm g'oyalari.
2. Ovroq Uyg'onish davri falsafasi. Nemis klassik falsafasi. Rus falsafasi.
3. Hozirgi zamon jahon falsafasining asosiy oqimlari (stsiientizm, antistsientizm, pragmatizm, germenevtika, strukturalizm, irratsionalizm, "hayot falsafasi", intuitivizm, ruhiy tahlil, ekzistensializm, neotomizm, pozitivizm).

Kalit so'zlar: nominalizm va realizm g'oyalari, nemis klassik falsafasi, rus falsafasi, stsiientizm, antistsientizm, pragmatizm, germenevtika, strukturalizm, irratsionalizm, "hayot falsafasi", intuitivizm, ruhiy tahlil, ekzistensializm, neotomizm, pozitivizm.

Mavzuning maqsadi: O'rta asrlar falsafasi va Ovroq falsafiy fikrlar taraqqiyotining mazmun-mohiyatini talabalarga yetkazish.

1. O'rta asrlar falsafasi va Ovroqada falsafiy fikrlar. Nominalizm va realizm g'oyalari.

O'rta asr falsafasi birinchi galda ikki ulkan siymo – Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy nomlari bilan bog'langan. Ilk xristian falsafasi Avgustin, keyingi asrlar falsafasi Akvinskiy nomi bilan shuhrat qozongan. **Avreliy Avgustin** (354-430) o'rta asr falsafasining ko'zga ko'ringan nazariyotchisidir. Uning quyidagi asarlari mavjud: "Haqiqiy din to'g'risida", "Erkin iroda to'g'risida", "Tavba", "Ilohiylik saltanati to'g'risida". Uning dunyoqarashi quyidagi muammolarni o'z ichiga oladi:

Xudo to'g'risidagi ta'limot. Xudo – oliy borliq, unda abadiy va o'zgarmas g'oyalar jamlanganligi tufayli olamda tartib saqlanib turadi. Antik zamon xudolari tabiat bilan yaqin, qon-qarindosh edi, xristian xudosi esa tabiatdan ustun turadi, shu sababli u transsendent (narigi olam, g'ayritabiiy, g'ayrihissiy) xudoga aylanadi.

Muammo: O'rta asrning asosiy xususiyati shuki, bu davrda g'arbiy Yevropada xristian dini hukmron mafkuraga, dunyoqarashga aylanadi. Din bilimning barcha sohalarini, shuningdek falsafani ham o'ziga bo'ysundiradi.

Olamni reallik sifatida talqin etadigan ta'limot. Antik zamondagi dualizm (aql va materiya) Avgustindan boshlab o'z o'rnini monizmga, ya'ni mutloq ibtido – Xudo, qolgan hammasi ikkilamchi, olamni xudo yaratdi, degan prinsipga bo'shatib beradi. Ikkita reallik – Xudo va Xudo ijod qilgan olam mavjud. Xudo – haqiqiy borliq, u abadiy, hamma narsaning manbai. Qadimgi yunonlar tabiatga tegishli degan barcha belgilar endi xudoga tegishli deb e'lon qilinadi. Avgustin yozadi: “Agar xudo o'zining yaratuvchanlik kuchini narsalardan qaytarib olsa, ular mavjud bo'lmaydi, yaratgunga qadar ular yo'q edi-ku”.

Taqdir to'g'risidagi ta'limot. Bu ta'limotga ko'ra, inson subyektiv tarzda erkin harakat qilsa ham uni xudo bajo keltirgan bo'ladi. Xudo o'z amri bilan odamlarni himoya qiladi. Taqdir to'g'risidagi xristian ta'limotining mohiyati shunda. Ilohiy taqdir ikki qarama-qarshi, ya'ni ilohiy va dunyoviy olamning manbaidir. Dunyoviy taqdir urushlar va zo'rliklar bilan, ilohiy taqdir esa cherkov yordamida tarkib topadi.

Teologiya falsafa haqidagi ta'limot sifatida. Avgustin bu haqda yozadi: “Tabiiy deb hisoblangan teologiya haqida faylasuflar bilan suhbatlar qurish kerak. Agar donishmandlik haqida gap ketganda, uning asosini Xudo tashkil etishi nazarda tutilsa, butun borliq uning tomonidan yaratilganligini ta'kidlash lozim. Haqiqiy faylasuf xudoni yaxshi ko'rishi kerak”. Shu ma'noda Avgustin faylasuf deganda olamni asos qilib fikr yurituvchilarni emas, balki olamni yaratgan xudoga mos fikrlovchi shaxsni tushunadi.

O'rta asr G'arbiy Yevropa falsafasi. O'rta asr falsafasining bosh masalasi, sxolastikaning asosiy muammosi bilimning e'tiqodga munosabati ekanligi yuqorida ta'kidlandi. Bu e'tiqodning aqldan ustuvorligi muammosi edi. Falsafa sohasida bu muammo “universallar”, ya'ni umumiy tushunchalarning tabiati to'g'risida olib borilgan munozara shaklida namoyon bo'ladi. Bu yerda ikkita nuqtai nazar ko'zga tashlanadi:

1. Umumiy tushuncha inson fikri va nutqiga bog'liq bo'lmagan holda real mavjuddir; 2. Umumiy tushunchalar insonga bog'liq bo'lmagan holda mavjud emas.

Birinchi nuqtai nazar “realistlar”, “realizm”, ikkinchisi “nominalistlar” nomini oladi. “Nominalizm” inson ongidan tashqarida mavjud bo'lgan umumiy tushunchalar mavjudligini inkor etadi. (Ayni vaqtda “nomlar”, alohida narsalarning mavjudligini isbotlashga harakat qiladi. (Nominalizm - lot. - nomina degani – nom). O'rta asr realizmiga ko'ra universal (umumiylik)lar narsaga qadar mavjud bo'ladi, universallik ilohiy aqlga dahldordir.

Realizm yaxshilik, haqiqat va adolat tushunchalari real mavjud deb hisoblaydi. Shunga suyanib, Xudo borligini ontologik jihatdan isbotlashga harakat qiladi.

XII asr g'arb sxolastikasining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Per Abelyar (1079-1142) hisoblanadi. Abelyar fikricha, faqat alohida narsalar ("substansiyalar") mavjud, bu narsalar o'zaro aynan teng bo'lishi mumkin, universallik-umumiylik ana shu ayniyatga asoslanadi. Shu bilan birga umumiy tushunchalarning mavjud ekanligi aqlda Xudoning mavjudligini e'tirof etishni bildiradi.

E'tibor bering! O'rta asrlar falsafasida butun reallik sifatida tabiat emas, balki ilohiy mohiyat, xudo tasavvur etilgan.

G'arb sxolastikasining ko'zga ko'ringan va ta'sirchan vakillaridan biri **Foma Akvinskiydir**, u dominikan mazhabi monaxi, o'rta asr ilohiyotshunosi va tabiatshunosi Albert Velikiyning shogirdi. Foma Akvinskiy (1225-1274) keyinchalik rim-katolik cherkovi tomonidan tan olinadi. Uning eng katta asari "Teologiya majmuasi"dir. Fomaning ta'limoti XX asrga kelib neotomizm nomi bilan yana mashhur bo'lib ketadi.

Foma Akvinskiy falsafasining asosiy qoidalari bilan tanishib o'taylik.

Xristian ilohiyotshunosligi asosiy prinsiplarining ishlab chiqilishi. Oliy borliq - xudoning borlig'i. Xudo ilohiy haqiqatdir, inson aqli chegaralanganligi sababli, uni bila olmaydi, shuning uchun inson aqlni bila oladigan haqiqatni qabul qilishi kerak. E'tiqod bilan aql o'rtasidagi munosabatda e'tiqodga ustunlik berilishi zarur. Ikkinchi muhim xulosa: bosh haqiqatni teologiya o'rganar ekan, demak, u birinchi falsafadir, falsafa teologiya tarkibiga kiradi.

Xudo mavjudligini isbotlashga intilish.

Foma Xudo mavjudligini kosmologik asoslashga harakat qiladi. Bu masalani Xudo to'g'risidagi fikrdan kelib chiqib tekshiradi. Bir sababdan ikkinchi sababning kelib chiqishi hodisasidan butun real hodisalar va jarayonlarning bosh, oliy sababchisi Xudo mavjudligi kelib chiqadi.

Foma Akvinskiy "Ilohiyotshunoslik majmui" asarida shunday yozadi: "Borliq besh yo'l bilan isbotlanishi mumkin, birinchi va eng aniq yo'l harakat tushunchasidan kelib chiqadi... harakat qiladigan hamma narsa qandaydir o'z sabablariga egadir. Binobarin, birinchi harakatlanuvchi Xudodir. Ikkinchi yo'l - sabablarni keltirib chiqaruvchilar bilan bog'liq tushunchadir. Birlamchi sabablar Xudo nomi bilan yuritiladi.

Muammoli vaziyat: Xudo to'g'risidagi ta'limot. Xudo va taqdirning azaliyligiga ishonch. Ilohiy ta'limotlarning talqin etilishi.

Uchinchi yo‘l zaruriyat va tasodif tushunchasidan kelib chiqadi va quyidagichadir: paydo bo‘ladi va halok bo‘ladi. Bunday zaruriyat Xudo nomi bilan yuritiladi. To‘rtinchi yo‘l narsalarda amal qiladigan turli darajalardan kelib chiqadi. Narsalar bir qadar mukammal yoki nomukammal, haqiqiy yoki oliyjanob darajaga ega bo‘ladi. Demak, shunday mohiyatlar mavjuddirki, ular barcha mohiyatlar uchun ezgulik va mukammallik sababchisi bo‘ladi. Biz ularni xudo nomi bilan aytamiz. Beshinchi yo‘l tabiat tartibidan kelib chiqadi. Biz shunga aminmizki, tabiiy tanalari qanaqa bo‘lishidan qatoiy nazar, aqldan mahrum predmetlar maqsadga muvofiqlikka bo‘ysunadi. Binobarin, aqlli mohiyat mavjud bo‘lib, tabiatdagi barcha narsalar uchun u maqsad hisoblanadi. Uni biz Xudo nomi bilan aytamiz”

“Ilohiy ta’limot”ning birinchi darajali ahamiyatini asoslash.

“Ilohiyotshunoslik majmui” asarida shunday yoziladi: “Ilohiy ta’limotlar fan hisoblanadi, fanning tabiati ikkiyoqlama bo‘ladi. Ulardan biri bilish qobiliyati tomonidan bevosita izlab topilgan asoslarga tayanadi, arifmetika, geometriya va boshqalar huddi shunday. Boshqalari oliy darajada bevosita izlab topilgan asoslarga suyanadi... Muqaddas kitoblar ham fanlarga dahldor bo‘lib, ikkinchi - oliy turga tegishlidir. Bu oliy fan Xudo tomonidan gavdalangan bilimdir”.

Foma Akvinskiy katoliklar e’tiqodini nazariy jihatdan asoslab beradi, shuning uchun o‘limidan keyin “farishtalar doktori” unvoniga ega bo‘ladi.

Ijtimoiy muammolar. Davlat hokimiyati – xudodan, boshqarish shakli esa har bir sharoitda muhitga moslashmog‘i lozim. U monarxiyani ustun qo‘yadi. Fuqarolik jamiyatda cherkovga birinchi ahamiyat berilishi kerak.

Davlatdagi dunyoviy hayot – bu faqat kelajakdagi ma’naviy hayotga tayyorgarlik, xolos. Davlat boshqaruvi oliy diniy hokimiyatga bo‘ysinishi lozim. Koinotning boshida – Xristos, Yerning boshida rim papasi turishi zarur.

E’tibor bering! Uyg‘onish o‘zining fikri-zikrini insonga qaratadi, shu sababli bu davrning falsafiy tafakkuri antropotsentrik xarakterga ega bo‘ladi.

XV asrdan boshlab Yevropaning ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy hayotida qator o‘zgarishlar yuz beradi, natijada o‘rta asrlardan farq qiladigan yangi ma’naviy hayot tarkib topadi. Uning asosiy belgilaridan eng muhimi ikkita: birinchidan, cherkovning oldingi mavqei o‘z o‘rnini yo‘qotadi, ikkinchidan, fanning obro‘si o‘sa boshlaydi.

Yangi davr birinchi galda antik madaniyatning uyg‘onishi sifatida namoyon bo‘ldi, shundan “renesans” yoki “uyg‘onish” atamasi qo‘llanila boshlandi. Uyg‘onish davri dunyoqarashining eng muhim belgilaridan biri uning sanoatga katta e’tibor berishida ko‘zga tashlandi. Agar antik zamon markazida tabiat-

kosmos, o'rta asrlarda – xudo va inson munosabatlari turgan bo'lsa, Uyg'onish o'zining fikri-zikrini insonga qaratadi, shu sababli bu davrning falsafiy tafakkuri antropotsentristik xarakter kasb etadi. Tabiat panteistik talqin etiladi, (yunonchadan olingan “panteizm” pan – hamma, teo – xudo) bu - “ilohiylashtirish”, xudo bilan tabiatni aynanlashtirish ma'nosini bildiradi.

Ana shunday panteistik qarashlarning yorqin ifodasini Nikolay Kuzanskiy (1401-1464) va Jordano Bruno (1548-1600) qarashlarida ko'rishimiz mumkin.

Nikolay Kuzanskiy (Kuzanes - uning tug'ilgan joyi) xudoning tabiatda gavdalanishi, xudoni va tabiatni bilish haqidagi g'oyalarni ilgari suradi. U tabiat hodisalarining o'zaro aloqadorligi, ziddiyatlarning o'zaro bir-biriga dialektik mos kelishi, qarama-qarshilik, Koinotning cheksizligi va inson mikrokosmik hodisa ekanligi to'g'risidagi g'oyalarni ishlab chiqadi. U inson bilishining ulkan kuchini, inson o'zining aqliga xos ijodiy faoliyat orqali (“inson – bu uning ongi”) ilohiy kuchga egaligini ta'kidlaydi. Kuzanskiyning xudoda barcha ziddiyatlar (birligi)ning uyg'un bo'lishi to'g'risidagi fikrlari o'z mazmuni va shakli jihatidan dialektik yo'nalishni ifodalaydi. Kuzanskiy qarama-qarshilik qonunini matematika sohasida qo'llashning chegaralarini, shuningdek tabiatni tushunishda matematik tushunchalardan foydalanish mumkinligini ko'rsatadi.

Jordano Brunoning falsafiy qarashlarida ham Xudo olamning yaxlitligi bilan tenglashtiriladi. Brunoning fikricha, falsafaning maqsadi g'ayritabiiy Xudoni emas, “narsalarga aylangan Xudo”ni, ya'ni tabiatni o'rganishdan iboratdir. XVII asr falsafasi fanning obro'siga yanada qattiqroq suyanadi. Bu fikrlar shakllanishi tarixidagi eng murakkab davr edi. Birinchidan, fan favqulodda darajada intellektual vositalarga, din esa davlat va cherkovning katta organlariga suyanib ish ko'radi.

Ikkinchidan, fanning obro'sini ko'tarish qandaydir sof moddiy manfaatlarni nazarda tutmaydi. Insoniyat aqli mohiyat jihatidan fan tarafida bo'ladi. Uchinchidan, fanning obro'si yagona bir yaxlitlikdan iborat materialni nazarda tutmaydi, balki rang-barang xulosa va fikrlardan tashkil topadi. To'rtinchidan, din o'zining tamoyillarini mutlaqo to'g'ri va asrlar davomida o'zgarmaydigan, deb hisoblaydi. Fanning xulosalarini esa muhokama qilish, qayta ko'rib chiqish, lozim bo'lsa boyitish, o'zgartirish mumkin bo'ladi.

Fan-texnika taraqqiyotga keskin ta'sir etib, butunlay yangicha dunyoqarashni tasdiq etadi. Ilmiy-texnika ko'plab kishilarning o'zaro hamkorlikda yagona rahbarlik ostida faoliyat ko'rsatishlarini kun tartibiga qo'ydi, bu esa kuchli ijtimoiy strukturani taqozo etadi. XVII asrda ilmiy revolyutsiya asrining boshlanishi deb e'lon qilinadi.

Uyg'onish davri falsafasi tarixini qisqacha bayon etar ekanmiz, uning muhim xususiyatlarini ta'kidlashimiz zarur.

Birinchiidan, uygʻonish davri falsafasi xronologik jihatdan XIV-XVII asrlarni oʻz ichiga oladi. Bu davr sanoat, savdo, dengiz sayohatchiligi, harbiy ishlar sohasida, umuman moddiy ishlab chiqarishda, ayni vaqtda texnika, tabiatshunoslik, mexanika, matematika fanlari rivoji bilan xarakterlanadi. Bu narsa aqlni eski aqidaviy tamoyillardan, sxolastik tafakkur asoratlaridan xalos boʻlishni, olam va odamni ilmiy-tabiiy tushunishni taqozo etadi.

Bu davr ijtimoiy jihatdan kapitalizmning tarkib topishi bilan bogʻlangan boʻlib, yuqorida biz tilga olgan murakkab va keng koʻlamdagi oʻzgarishlar oʻz navbatida buyuk kishilarni yetishtirib chiqaradi. Bu davrning yirik siymolari – F.Petrarka (1304-1374), Bokachcho (1313-1375), Leonardo da Vinchi (1452-1519), N.Makiavelli (1489-1577), Shekspir (1564-1616), N.Kopernik (1473-1543), Galiley (1564-1642), M.Monten (1533-1592), Mirandola (1463-1484), Kuzanskiy (1401-1464), J.Bruno (1548-1600) va boshqalar.

Ikkinchiidan, bu davr falsafa taraqqiyotining yangi bosqichi hisoblanadi. U oʻzining koʻpgina muammolarini antik falsafaga, madaniyatga, shuningdek, oʻrta asrning muhim qoidalariga asoslanib rivojlantirdi.

Uchinchiidan, uygʻonish davri tor doiradagi yevropaviy emas, balki jahon ahamiyatiga ega boʻlgan hodisadir. Uygʻonish davri faylasuflari uchun quyidagi belgilar xos edi: insoniylikni keng, umumiy va erkin his etish; inson aqlini uning rivojlanishiga monelik koʻrsatadigan eski aqidalardan halos etish. Shu yerda taʼkidlash joizki, Markaziy Osiyoda Uygʻonishning roʻy berishi Yevropadan salkam 500 yil oldin amalga oshadi.

Markaziy Osiyo Uygʻonishi Yevropa madaniyati taraqqiyotiga kuchli taʼsir koʻrsatgan. Yevropalik olimlar va sanoatkorlarning asarlarida Ibn Sino, Ahmad Fargʻoniy, Al-Xorazmiy, Forobiy obrazlarining oʻrin olishi fikrimizning dalilidir.

1600 yilda Jordono Brunoning qatl etilishi bilan Uygʻonish davri yakun topadi. Lekin uygʻonish Yangi zamon sharoitida falsafiy yutuqlarning yanada rivojlanishi uchun maʼnaviy zamin hozirladi. Falsafa sohasida gnoseologiya masalalari birinchi oʻringa chiqadi.

Uygʻonish davri falsafasi asosan oʻrta asr sxolastikasini tanqid qilishga qaratiladi. XVII asrga kelib ilmiy dunyoqarashning rivojlanishi tufayli bu tanqid keskin tus oladi. Unda nominalizm bilan realizm oʻrtasida oʻrta asrlarda boshlangan munozara yangicha shaklda davom etadi. Yangi zamon (XVII asrdan boshlanadi) sharoitida bu kurash empirizm va ratsionalizm shaklida namoyon boʻladi.

Empirizm bilan ratsionalizmning asosiy mazmuni, koʻlami va tamoyillari ingliz faylasufi Franses Bekon (1561-1626) va fransuz mutafakkiri Rene Dekart (1596-1650) asarlarida aks etadi.

Franses Bekonning falsafiy qarashlariga xos muhim jihatlar, birinchidan, falsafaning praktik ahamiyati ilmiy bilimlar, kashfiyotlar vositasida tabiat kuchlarini insoniyatga bo'ysundirishda namoyon bo'ladi.

Bekon falsafani teologiyaga qarama-qarshi qo'yadi. Bekon aytadiki, aql ko'p narsani bilishi, hatto ilohiylikning mavjudligini ham isbot etishi mumkin. Shunday ekan, falsafa faqat aqlga suyanish kerak, biroq inson ko'pincha e'tiqodlar(aql zaiflik qilganda)ga berilishi ham mumkin. Shunday qilib Bekon aql haqiqati va e'tiqod (vahiylik) haqiqati, ya'ni "ikkiyoqlama haqiqat" nazariyasi tarafdori bo'lgan.

Bekon, ikkinchidan, bilishning induktiv usulini ishlab chiqadi. Bekon fikricha, induktiv metod deduksiyaga nisbatan afzalliklarga ega. U ayrim faktlarni qabul qilishdan iborat bo'lib, asta-sekin ko'tarilib, qadamba-qadam umumiy qonunlarga yaqinlashib boradi.

Uchinchidan, Bekon faktlarni tasnif etishidagi roliga qarab tadqiqot metodiga baho beradi. Uning yozishicha, odamlar o'zi-o'zi uchun to'r to'qiydigan o'rgamchakka o'xshamasliklari, chumoliga o'xshab don yig'ishning o'zi bilan cheklanmasliklari lozim. Odamlar asalariga o'xshab harakat qilishi, ayni vaqtda yiqqanlarini tartibga solishlari ham lozim.

To'rtinchidan, "to'siq (idol)larni tanqid". Bekon ratsionalizmni tanqid qilar ekan, odamlarni "idol" ("aqlning yaramas odatlari")lardan xalos etishga intiladi. Ular asosan 4 ta:

- "Zotlik to'siqlari". Bu inson tabiatni o'rganganda uni kishilarning hayotiga o'xshash qilib tushunishdan kelib chiqadigan xato: "insonning aqli qiyshiq ko'zguga o'xshaydi. U narsalarning tabiati bilan o'z tabiatini aralashtirib yuborib narsalarni qiyshiq, buzuq ko'rsatadi";

- "G'or to'siqlari". Bu ayrim odamning o'ziga xos tarbiyasi, diniy e'tiqodi, urf-odatlarini natijasida yanglishishining kelib chiqishidir, bu insonning tor doirali fikrlashi bilan hamma narsani o'lchashi oqibatidir;

- "Maydon to'siqlari". Bu ma'lum bo'lgan tasavvurlarga suyanish odati, noto'g'ri yoki noaniq iboralarga tanqidiy yondoshmaslik oqibatida vujudga keladi.

- "Teatr to'siqlari". Bu fanda nufuzli shaxslar fikriga ko'r-ko'rona ergashishdir. Bekon fikricha, yangi zamon fani bunday tamoyillarga mexanik ravishda tayanmasligi kerak, chunki narsalarning haqiqiy holati ularning tabiiy sababi bilan namoyon bo'ladi;

Fransuz matematigi va faylasufi Rene Dekart (1595-1650) birinchi o'ringa aqlni qo'yadi. Uning ta'limoti bo'yicha, aql (nazariy bilim) bilishning yuqori bosqichi bo'lib qolmasdan, balki bilishning mustaqil, o'ziga xos manbaidir. U intellekt bergan ma'lumotlarni oddiy amaliy yo'l bilan tekshirishdan o'tkazishni

tajriba deb hisoblaydi. U ratsionalizm (lot. “aql”) nazariyasidan kelib chiqib, hamma fanlar uchun deduktiv usulni qo‘llashni taklif qiladi.

Dekartning tabiatga qarashlari asosan mexanistik xarakterdadir: Koinot juda ulkan mexanizm bo‘lib, o‘zgaruvchandir va o‘zining tarixiga egadir. Olam mavjudligi va taraqqiyotiga birinchi turtkini Xudo beradi, biroq olamning rivojlanishi keyinchalik mustaqil ijodiy kuch sifatida o‘z-o‘zini boshqara boshlaydi.

Dekart substansiya haqida gapirar ekan, u mohiyat jihatidan uni Xudo ma’nosida tushunadi, qolgan hamma narsalar uning tomonidan yaratilgan. Bu masalaning bir tomoni. Ikkinchisi shundaki, Dekart Xudo tarafidan yaratilgan olamni ikki substansiyaga – ma’naviy va moddiyga bo‘ladi. Moddiy substansiya cheksizlikka ega, ma’naviy substansiya bo‘linmasdir.

Ishonchli bilimlarning mumkinligi haqidagi fikr Dekart falsafasining birinchi masalasi hisoblanadi, metod muammosi shundan kelib chiqadi. Bilishning tabiati shundaki, har bir bilimga nisbatan bo‘lgan shubhalanish ishonchli bilimlarning paydo bo‘lishiga olib keladi. Meni, - deydi Dekart, yomon odam yoki shayton, yoki biror jonli zot aldayotganligini, aldashi mumkinligini bilib olsam, shubha qila boshlashim mumkin. Bunda ham mening o‘zim shubha qilayotganimga shubhalanmasligim, mening shubham, fikrim mavjudligini yodda tutishim lozim. Shundan Dekartning mashhur iborasi kelib chiqqan: “Men fikrlaymanmi, demak, mavjudman”.

Shunday qilib, Yevropa Yangi zamon falsafasida empirizm va ratsionalizm o‘rtasidagi o‘ziga xoslik, muhim jihatlar F.Bekon bilan R.Dekart falsafasida namoyon bo‘ladi. Bunday qarashlarni ko‘plab faylasuflar yanada rivojlantirganlar. Shu sababli ma’ruzamizning bu qismida empirizm va ratsionalizm to‘g‘risida umumiy qarashlarni bayon etishni maqsadga muvofiq deb o‘ylaymiz.

Empirizm (yunoncha-tajriba) hissiy tajribani bilimlarning birdan-bir manbai, butun bilim tajribada va tajriba orqali asoslanadi, deb tasdiqlaydi. Materialistik ruhdagi empirizm (F.Bekon, Gobbs, Lokk, XVIII asr fransuz materialistlari) hissiy tajribaning manbai obyektiv tashqi olamdir, deb hisoblaydi.

Idealistik yo‘nalishdagi faylasuflar esa (Berkli, Yum, Max, Avenarius, hozirgi zamon logik pozitivizmi va b.) tajribani sezgilar yoki tasavvurlar yig‘indisi bilan cheklab, tajribaning asosini obyektiv olam tashkil etishini inkor etadilar.

Ratsionalizm (lot. oqilona) ishonchli bilimning mantiqiy belgilarini – tajribadan va uning umumlashmalaridan chiqarib bo‘lmaydi, ularni faqat aqlning o‘zidan (Dekartning tug‘ma ideyalar nazariyasi), yoki faqat aqlning nishonalari, mayllari bo‘lgan tushunchalardan yig‘ib olish mumkin, deydi. Ratsionalizm matematik haqiqatlar va matematik tabiatshunoslikning mantiqiy xususiyatlarini

izohlashga urinish sifatida paydo bo'ldi. Uning XVII asrdagi vakillari – Dekart, Spinoza, Leybnis, XVIII asrdagisi – Kant, Fixte, Shelling, Gegel hisoblanadi.

Yangi davr falsafasida XVIII asr mutafakkirlarining alohida o'rni bor. Golbax (1723-1789), Didro (1713-1784), Gelvesiy (1715-1771) Lametri (1709-1751)lar hamma narsalar materiyadir, degan fikrni ilgari surgan: materiya mayda molekula va atomlardan tashkil topadi; harakat materiyaning ajralmas belgisidir. Biroq harakat mexanistik talqin etiladi. Harakat fazoda narsalarning oddiy o'rin almashinishidir. Ular olamni bilish mumkinligini ijobiy hal etadilar, bilish sezgidan boshlanadi. J.Lokk sensualistik nazariya (sezgi – bilimlarimiz manbai)ga asos soladi.

2. Ovropa Uyg'onish davri falsafasi. Nemis klassik falsafasi. Rus falsafasi.

Immanuil Kant (1724-1804) insoniyat falsafiy tafakkurining yorqin siymolaridan biri bo'lib, eng yangi zamon falsafasi uning nomi bilan bog'langandir. Kant nafaqat falsafada, balki konkret fanlar sohasida ham o'tkir aql egasi bo'lgan. Uning Quyosh sistemasi eng ulkan gaz tumanlaridan paydo bo'lganligi haqidagi gipotezasi astronomiyaning fundamental g'oyalardan hisoblanadi. Bundan tashqari, uning hayvonlarning kelib chiqishi, inson irqining tabiiy ravishda paydo bo'lishi haqidagi fikrlari ham xarakterlidir.

Kant ta'limoti asosan uch qismga bo'linadi: nazariy aqlni tanqid; amaliy aqlni tanqid (yoki ma'naviyat haqidagi ta'limot); estetik mulohazaning tanqidi (yoki metafizikani inkor etuvchi metafizika, etika va estetika). Ilohiyot Kant ta'limotida alohida mustaqil qism sifatida emas, balki axloqqa asoslanadi.

Kantning falsafiy faoliyati haqida so'z ketganda uni “Tanqidgacha davr” va “Tanqidiy davr” ga bo'ladilar. “Tanqidgacha davr” Kant ijodiy faoliyatining Kenigsberg universitetini tugatgandan boshlab 1770 yilgacha bo'lgan voqealarni o'z ichiga oladi. U talabalik yillarida yozgan “Jonli kuchlarni haqiqiy baholash haqida fikrlar” asarida shunday savollar qo'ygan edi: “Buyuk olimlarni, buyuk faylasuflarni tanqid qilish mumkinmi? Agar tanqid uchun asos bo'lsa, shunday qilish mumkin”, deb hisoblaydi u.

“Tanqidiy davr” 1770 yildan boshlanadi. Bu davrda uning bilish haqida “Sof aqlni tanqid”(1781), etikaga bag'ishlangan “Praktik aqlni tanqid”(1788), estetikaga oid “Muhokama qobiliyatini tanqid”(1790) asarlari yaratildi.

Kant fikricha, inson ongiga bog'liq bo'lmagan narsalar olami mavjud, ular sezgi organlariga ta'sir etib sezgilar hosil qiladi. Bunday yondashuv uning materializmga moyilligini bildiradi. Biroq u inson bilimlarining chegaralari va imkoniyatlari, uning shakllari masalasiga o'tishi bilanoq mohiyatlar olami – bu “narsa o'zida” olamidir, olamni aql yordamida bilib bo'lmaydi, u e'tiqod (Xudo, ruh)ning predmeti, degan fikrni bildiradi.

Kant falsafasi markazida inson turadi. Kant borliq (ontologiya) haqidagi masalani emas, balki insonning bilish faoliyati (gnoseologiya)ni tahlil etishga asosiy e'tiborni qaratadi. Kant fikricha, har qanday umumiy va zaruriy bilim o'z prinsipiga ko'ra tajribagachadir va tajribadan tashqaridadir, ya'ni apriordir.

Nemis klassik falsafasining oliy yutug'i Georg Vilgelm Fridrix **Gegel** (1770-1831) falsafasi hisoblanadi.

Gegelning falsafiy qarashlari taraqqiyot g'oyasi bilan sug'orilgan. Uningcha, hodisani uning butun yo'lini anglamasdan turib bilish mumkin emas, chunki bu yo'lda u taraqqiyotni boshidan kechiradi, taraqqiyot esa berk doirada emas, balki quyi shakldan yuqori shaklga o'tish tarzida yuz beradi, oqibat natijada miqdor o'zgarishlaridan sifatga o'tiladi, uning manbai esa ziddiyatlardir; qarama-qarshilik har qanday harakat va hayotning ildizidir, har qanday o'z-o'zicha rivojlanishning prinsipidir.

Gegel fikricha, tarix avtomatik jarayon emas; insoniyat tarixi alohida-alohida kishilarning harakatlaridan hosil bo'ladi, bu kishilarning har biri o'zining muayyan maqsad va manfaatlarini amalga oshirishga intiladi.

Gegelning quyidagi asarlari mashhur: "Ruh fenomenologiyasi" (1807), "Falsafiy fanlar qomusi" (1817), "Mantiq fani" (1812-16), "Huquq falsafasi", "Falsafa tarixiga doir ma'ruzalar", "Tarix falsafasiga doir ma'ruzalar" va h.k. Gegelning buyuk xizmati shundaki, u dialektikaning taraqqiyot qonunlarini birinchi bo'lib kashf etdi, lekin uni faqat tafakkurga xos deb hisobladi.

Lyudvig Feyerbax (1804-1872) nemis klassik falsafasida materialistik yo'nalishni targ'ib qilgan mutafakkir. Feyerbaxni "real his qiluvchi inson" to'g'risidagi g'oya o'ziga jalb etadi. Feyerbax insonning barcha tuyg'ularidan axloqiy muhabbatni ko'proq ta'kidlab ko'rsatadi. U dinning axloqiy muammolariga katta e'tibor qaratadi, bu narsa uning "Xristianlikning mohiyati" asarida o'z aksini topadi.

Feyerbax qarashlaridagi eng asosiy nuqta shunda ediki, u o'z g'oyasini konseptual aforizm yo'li bilan izohlaydi: "Xudo insonni yaratgan emas, balki inson xudoni yaratgan". Feyerbax fikricha, din – bu inson jaholatining shunchaki mahsuli emas, din bir qator fazilatlariga ham ega bo'lib, unda insonning insonga nisbatan oliyjanob munosabati, birinchi galda o'zaro muhabbatining ulug'vor tuyg'usi gavdalanadi.

Feyerbax inson, uning do'stlik va muhabbat tuyg'ulari, xususan oilaviy munosabatlariga diqqatini jalb etar ekan, ayni mana shu axloqiy-ruhiy omillar asosida muhabbat va adolat hukmronlik qiladigan jamiyat barpo etishni orzu qiladi.

UODDA TUTING! Uyg'onish Yevropa fani va yangi zamon falsafasi tarixida eng buyuk ko'tarilish davrlaridan biri bo'lib qoldi.

3. Hozirgi zamon jahon falsafasining asosiy oqimlari (stsientizm, antistsientizm, pragmatizm, germenevtika, strukturalizm, irratsionalizm, “hayot falsafasi”, intuitivizm, ruhiy tahlil, ekzistensializm, neotomizm, pozitivizm).

Hozirgi zamon falsafasi taraqqiyotida rang-barang maktablarning yutuqlaridan foydalanish odatdagi hodisaga aylandi. Chunonchi, Frankfurt maktabining vakillaridan biri Yu.Xabermasning ilmiy ishlarida ruhiy tahlil (psixanalizm), germenevtika, marksizm, hozirgi zamon pozitivizmining ko'plab qoidalaridan foydalanish ko'zga tashlanadi. Hozirgi zamon lingvistik falsafasi esa fenomenologiyaning g'oyalaridan ijodiy foydalanmoqda. Shunday qilib, XX asrda turlicha falsafiy maktablarning ochiqlik xarakteri va o'zaro bir-birlarini boyitishi kuzatilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash joizki, yuqoridagi o'zaro ta'sir va hamkorlik tufayli falsafadagi borliq, ong, bilish, tarix falsafasi kabi an'anaviy masalalarga o'zgartirishlar kiritildi, ularni yangicha tahlil qilish kuzatildi. Shuningdek, klassik falsafaga nisbatan munosabat bildirildi, eng muhimi, uning yangi davr muammolarini hal etishdagi ojizligi ko'zga tashlanib qolishi ko'rsatib o'tildi.

XX asr falsafasida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ssientizm va aksilssientizm yo'nalishi alohida o'rin tutadi. Ssientizm (lot. fan) asosan o'z taraqqiyotida tabiatshunoslikka suyanadi va XIX asrdagi pozitivizmning o'ziga xos taraqqiyotida namoyon bo'ladi. Ilmiylikning namunasi sifatida hozirgi zamon fizikasi ko'zda tutiladi. Biroq uning yangi kashfiyotlari nisbiylik nazariyasi, kvantlar nazariyasining yangicha variantlarini yaratishga olib keldi, fizik obyektlarning qarama-qarshiliklarini hisobga oladigan ratsionallikning yangi turini yaratdi. Shu ma'noda ssientizm va aksilssientizm o'rtasidagi ziddiyat nisbiy ma'no kasb etadi. Ratsionalizm bilan empirizm, ratsionalizm bilan irratsionalizm o'rtasidagi keskin qarama-qarshilik ham olib tashlanadi. Irratsionalizm, “hayot falsafasi” konsepsiyasining vakillari – A.Shopungauer, F.Nisshe, A.Bergson, S.K'erkegor va boshqalar hisoblanadi. Irratsionalizm gumanistik bilimlarning o'ziga xosligini va inson hamda jamiyat, uning madaniyatini tadqiq etishning tugamasligini ko'rsatishga intiladi.

XX asr falsafasi yana ko'p predmetligi bilan ham ajralib turadi. Bu narsa uning maktab va oqimlari ko'pligi bilan belgilanadi. Bu o'z navbatida hozirgi zamon fani va madaniyatining ko'p qatlamli ekanligini ham bildiradi.

E'TIBOR BERING! XX asr ijtimoiy-siyosiy hayotida ham misli ko'rilmagan tarixiy voqealar sodir bo'ldi.

XX asr falsafasi oqimlari va maktablarini tasnif qilish masalasi hozircha izchil va atroflicha ishlab chiqilgan emas. Hozircha hozirgi zamon falsafasini o'zaro farqlaydigan uch guruh (ular o'zaro bir-birlariga o'tib turadilar ham)ni tavsiya etish mumkin: analitik-pozitivistik maktablar; ekzistensial-fenomenologik maktablar; diniy-falsafiy maktablar.

Endi hozirgi zamon G'arb falsafasining ayrim ko'rinishlari bilan qisqacha tanishib o'taylik.

Hozirgi zamon pozitivizmi. Bu maktab neopozitivizm, mantiqiy pozitivizm, hozirgi zamon empirizmi nomlari bilan yuritiladi.

Bu o'rinda pozitivizm to'g'risida fikr yuritaylik. Pozitivizm shunday falsafiy oqimki, u haqiqiy "ijobiy" (pozitiv) bilimlar alohida konkret (empirik) fanlar, ularning sintetik umumlashishlaridan iborat deb hisoblaydi, falsafa esa alohida fan sifatida reallikni mustaqil o'rganish sohasiga ega emas. Bu oqimning asoschisi fransuz faylasufi Ogyust Kont (1798-1857) hisoblanadi.

Kont falsafasi bo'yicha, fan hodisalarning tashqi qiyofasini ko'rsatish bilan chegaralanadi. Shunga asoslanib aytadiki, hodisalarning mohiyati haqidagi ta'limot ("metafizika") bartaraf etilmog'i lozim. Kont keng tabiiy-ilmiy materialni sintezlashtirishga urinadi, biroq u subyektiv idealizm va agnostitsizmga suyangani uchun fanni soxtalashtiradi.

Kont tabiatni bilish tarixini uch pallaga bo'ladi: bu pallalardan har biri dunyoqarashning muayyan tipi (teologik, metafizik va pozitiv)ga muvofiq keladi. Birinchi – **teologik** pallada inson aqli hodisalarni g'ayritabiiy kuchlar, xudoning ta'siri bilan izohlaydi. Ikkinchi – **metafizik** pallada barcha hodisalarning asosini metafizik mohiyatlar tashkil etadi. Metafizik dunyoqarash teologik dunyoqarashning o'zgargan shaklidir. Yuqoridagi ikki (teologik va metafizik) dunyoqarash o'rniga uchinchi - "**pozitiv metod**" keladi va bu metod "absolyut bilimlardan" (materializm va obyektizmdan) voz kechishni taqozo qiladi. Yuqoridagi uch hadli formula fan va falsafaning haqiqiy tarixini buzib ko'rsatadi.

Kontning fikricha, insoniyatning umumiy aqliy taraqqiyotiga qarashning mahsuli bo'lgan pozitivizm asosiy tarixiy qonun mavjud deb hisoblaydi. Bu qonunga ko'ra har bir asosiy tushuncha, bilimlarining har bir sohasi izchil ravishda yuqoridagi uch pallani boshidan kechiradi: inson aqli o'z mohiyatiga ko'ra dastavval teologik metodni, keyin metafizik metodni, va nihoyat, ijobiy (pozitiv) metodni boshidan o'tkazadi. Shundan falsafaning uch turi, yoki umumiy sistemaning uch turi kelib chiqadi: birinchi sistema insoniyat aqlining tayanch

nuqtasi; ikkinchisi o'tish davriniki, uchinchisi uning mustahkam va so'nggi holatidir. Pozitivizm uchun tashqi olamni o'rganadigan tabiatshunoslikdan boshqa hech qanaqa fan yo'q.

Pozitivizmning zaif tomoni shundaki, u falsafiy metodni predmetni konkret-ilmiy metod bilan almashtiradi. Bu yo'nalishni ular ijobiy – pozitiv deb hisoblaydi. Shunday qilib, pozitivizm falsafiy kategoriyalarni ilm bilan izohlab bo'lmaydi, falsafa fan emas, haqiqiy bilim fanning o'zidir, degan xulosaga keladi. Falsafaning vazifasi fan tilini yaratish, til muammosi bilan shug'ullanishdan iborat, xolos. Falsafa subyektning o'zini-o'zi tadqiq etishi, deydi.

Neopozitivizm falsafiy oqim sifatida asosan ingliz tilida so'zlashadigan mamlakatlarida keng tarqalgandir. Neopozitivizm o'zining asosini ingliz faylasuflari Lokk, Yum, Berklidan oladi, ularning merosxo'ridir. Hozirgi zamon pozitivizmiga 1932 yilda tashkil topgan Vena to'garagi asos soladi, unga falsafa, mantiq, fizika sohasida ish olib boradigan M.Shlik, O.Neyrat, G.Feygel va boshqa professorlar a'zo bo'ladilar. 1926 yili Pragadan Rudolf Karnap taklif etiladi. To'garakning ish faoliyatiga ingliz faylasufi Bertran Rassel va avstrist Lyudvig Vitgenshteyn (1869-1951) asarlarining ta'siri kuchli bo'ladi. To'garak 1929 yili "Olamni ilmiy bilish" degan manifestni e'lon qiladi.

Neopozitivizm nomi ostidajuda rang-barang nazariyalar birlashadi. Mantiqiy pozitivizm, mantiqiy empirizm, mantiqiy atomizm, lingvistik tahlil falsafasi, tanqidiy ratsionalizm va boshqalar shular jumlasidandir.

Mantiqiy pozitivizm o'z oldiga metafizikaga qarshi kurashni maqsad qilib qo'yadi, metafizika deganda esa falsafani nazarda tutadi. Uning nazariy asosini fizika, mantiq, matematika, tilshunoslik, empirik sotsiologiyaning tamoyillari tashkil etadi.

<p>MUAMMOLI VAZIYAT: Hozirgi zamon falsafasining eng asosiy tamoyillari umuminsoniylikning ustuvorligi, uning milliylik bilan uyg'unligi, demokratik erkinliklar, inson qadrini ifodalaydi, biror-bir falsafiy ta'limotni mutlaqlashtirmaydi.</p>
--

Mantiqiy pozitivizmcha bilishning har qanday manbaini subyekt ongi doirasidagi voqealar va farazlar, ya'ni "hissiy ma'lumotlar" tashkil etadi. Bu oqim obyekt bilan obyekt haqidagi nazariyani prinsipial jihatdan aynan deb e'lon qiladi. Mantiqiy pozitivizmga fan hukmlari yo haqiqiy, yo yolg'on, yohud ma'nisiz bo'lishi mumkin. R.Karnapning fikriga qaraganda ma'nisiz mulohaza - takliflar tom ma'nodagi gaplar emas, ularni faqat shaklan eslatib turadi, xolos. Barcha

falsafiy gaplar ham ma'nisiz mulohazalardir, ular empirik yo'l bilan tekshirilishi mumkin emas.

Mantiqiy pozitivizm semiotik (semiotika – lot. belgi) muammolarga murojaat qilar ekan, munosabatning uch sohasini ajratib ko'rsatadi: pragmatika (tilning – undan foydalayotganlarga munosabati); semantika (til va ma'no munosabatlari); sintaksis (til ifodalari o'rtasidagi munosabat). Bularning hammasi semiotika nomini oladi. Tahlilning predmeti so'z va belgilarning ahamiyati, muhim mantiqiy, lingvistik va psixologik ahamiyatga ega bo'lgan (mas. hisoblash mashinalarini, mashina tillarini yaratish kabi) muammolar bo'lib qoladi.

Falsafada neopozitivizm metodologiyasi o'rniga yangi oqim – postpozitivizm keladi. Postpozitivizmning shakllanishini ingliz olimi Karl Poppening “Ilmiy kashfiyot mantig'i” va amerikalik olim Tomas Kunning “Ilmiy revolyusiyalar strukturasi” (1962) asarlarining chop etilishi bilan bog'lash mumkin. Bosh muammo – fan taraqqiyotini tushuntirish, mantiqni tadqiq etish va ilmiy bilimlar o'sishini analiz qilishdan iborat bo'ladi.

Postpozitivizmni eng avvalo quyidagi masalalar qiziqtiradi: yangi nazariya qanday paydo bo'ladi, u qanday qilib yangi hamjamiyatda o'z tasdig'ini topadi, ilmiy nazariyalar raqobatidagi meyorni qanday belgilash mumkin.

Postpozitivizm ichidatanqidiy ratsionalizm oqimialohida ta'kidlash lozim. Bu oqim vakillari birinchi galda ratsionallik (fan) sohasi bilan soxta fan (metafizika va mafkura) o'rtasiga chegara qo'yishga harakat qiladilar.

Poppening sotsial-falsafiy konsepsiyalari ham o'ziga xos. Uning 1945 yilda nashr etilgan “Ochiq jamiyat va uning dushmanlari” asarida bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan jamiyat tipi: ochiq jamiyat va yopiq jamiyat tavsiflanadi, ochiq jamiyat deganda demokratik jamiyatni tushunadi, unda iqtisod, siyosat, madaniyat sohasida plyuralizm, sotsial struktura, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat rivoj topgan bo'ladi. Ochiq jamiyatda demokratik prinsiplar barcha sohalarda amal qiladi.

Postpozitivizm nazariyasini rivojlantirishga amerikalik faylasuf Tomas Kun katta hissa qo'shadi, u fan falsafasi sohasida tarixiy-evolyutsion oqimning vakillaridn biridir. U o'zining 1962 yilda chop etilgan “Ilmiy revolyutsiyalar strukturasi” asarida ilmiy bilimlarning tarixiy dinamikasi konsepsiyasini ishlab chiqadi.

Ekzistensializm. Ekzistensializm (mavjudlik, yashash degani) XX asr falsafasida muhim rol o'ynadi va o'ynab kelmoqda. U inson, hozirgi zamonda uning yashashi muammolari bilan bog'langan. Shu ma'noda u XX asr ma'naviy hayotining ehtiyojlariga javob tariqasida paydo bo'ldi. Binobarin, asrimizda yuzaga kelgan tushkunliklar ham, parokandaliklar ham, yuksalish va texnologik rivojlanish natijalari ham bu falsafiy oqimda har tomonlama aks etadi.

“Mavjudlik” falsafasi deb nom olgan ekzistensializm yagona, yaxlit bir butun ta’limot emas. O’zlarining bu oqimning bosh vakillari deb hisoblaydigan har bir mutafakkir faqat o’ziga tegishli ta’limot yaratishga urinadi. Bu oqim vakillari orasida mashhur yozuvchi va mutafakkirlar J.P.Sartr, A.Kamyu, G.Marsel va boshqalar ham uchraydi. Ekzistensializm falsafasida, bir tomondan, Aristotel, K’erkegor, Paskal qarashlarining ba’zi jihatlari, ikkinchi tomondan, Gegel, Nishe, Dostoyevskiy ta’limotlaridan ayrim elementlar uchraydi. Ekzistensializmning ichida ateistik (Sartr, Kamyu, Xaydegger) va diniy (Marsel, Yaspers, Berdyaev) tomonlar mavjudligini ham ta’kidlash lozim. Albatta, ekzistensializmni ateistik va diniy qarashlarga bo’lish nisbiy va shartli bo’lib, ularning barchasi insonning olamdagi borlig’i, umuman odamni emas, alohida, konkret odamning hayoti to’g’risida fikr yuritadi.

Ekzistensializm falsafiy oqim sifatida daniyalik mutafakkir S.K’erkegor(1813-1855) tomonidan asoslab beriladi. Ma’lumki, S.K’erkegor nemis faylasufi Gegel ilgari surgan aql “sistemi”ga e’tirozini bildiradi. Gap shundaki, Gegel hamma narsa tushunchada ifodalanadi, inson borlig’i ham shunday, degan fikrni ilgari surgan edi. Syoren K’erkegor o’zi ishlab chiqqan “ekzistensiya”ni tushuncha bilan ifodalab bo’lmaydi, undan sirg’alib chiqib ketadi, degan fikrni beradi. Uningcha, insonning ichki dunyosini, o’z-o’zligini bilishga ilmiy metodni qo’llab bo’lmaydi. “Ekzistensiya”(yashash) ichki bo’lib, u insonning mavjudligini ko’rsatmaydi. Inson hissiy-mushohada jarayonida tashqi muhit hodisasiga aylanadi. Bu uning o’z-o’ziga o’tishialohida betakrorlikka aylanishidir.

YODDA TUTING! Bag’rikenglik va tolerantlik hozirgi falsafiy ta’limotlar rang-barangligini ta’minlaydi.

S.K’erkegor mavjudlik sari borishning uchta asosiy shaklini quyidagicha ko’rsatadi:

1. Estetik ekzistensiya. Bu bosqich asosida yashashga va huzur-halovatga qiziqish, inson ehtiyojini (tashqi dunyodan) qondirish yotadi. Bunda yashash yo’lini tanlab olish eng oddiy shaklda bo’ladi, chunki inson his-tuyg’ularini qondirish asosida tanlanadi.

2. Axloqiy ekzistensiya. Bu bosqichda insonning burchi paydo bo’ladi, bunda inson (subyekt) o’zini o’zi aniqlaydi. Biroq insonda aql nuqtai nazardan axloqiy qoidalarga munosabat shakllanadi, xolos.

3. Diniy ekzistensiya. Bu bosqichda axloqning mavhum qoidalari amalga oshadi, haqiqiy hayotga aylanadi. Bunda inson o’z irodasi kuchi bilan ilgari

yashash odatlaridan voz kechadi. Inson azob chekish evaziga yashayotganligini biladi.

Ekzistensializmning mohiyatini chuqurroq bilish uchun u muhokama qilayotgan muammolar bilan tanishish zarur. Masalan, borliq haqida soʻz yuritganda ekzistensialistlar borliq subyektning oʻz mavjudligini his etishi, deb hisoblaydilar. Shuning uchun bu falsafa erkinlik falsafasi deb ham nom olgan. Haqiqiy erkinlik, deydi ular, tahlikada, tashvishda, yolgʻizlikda namoyon boʻladi. Xullas, kishi oʻz “ekzistensiya”si (mavjudligi)ni chuqur maʼnaviy ziddiyat, ruhiy tushkunlik holatida anglab yetishi mumkin. Mavjudlikning bu xususiyatini zamonga bogʻlab, unga cheklanganlik xos deb xulosa chiqaradi, “oʻlim”ni esa mavjudlikning soʻnggi nuqtasi yoki chegarasi, deb eʼlon qiladi.

“Hayot falsafasi”. XX asr falsafasining muhim oqimlaridan biri hisoblangan “hayot falsafasi” XIX asr oxirida Germaniya va Fransiyada yuzaga keldi. Bu falsafa anʼanaviy falsafadagi materiya va ruh, borliq va aql tushunchalari oʻrniga “hayot” tushunchasini qoʻllay boshlaydi. Bu falsafaning asoschisi sifatida nemis faylasufi Fridrix Nisshe (1844-1900) tilga olinadi.

“Hayot falsafasi”ning muhim gʻoyaviy negizlari Nisshe falsafasida aks etgan. Nisshening fikricha, iroda inson tiklanishini harakatga keltiradigan mohiyat, iroda “Men”ni kengaytiradi. Nisshe ingliz tabiatshunosi Darvining hayvonot olamiga tegishli deb hisoblagan yashash uchun kurash gʻoyasini insoniyat olamiga koʻchiradi. Shu sababli Nisshe falsafasining bosh tushunchasi hayot gʻoyasi hisoblanadi. U insonda biologik asosni alohida taʼkidlaydi. Intellekt esa organizmni, birinchi galdainstinktlarni saqlab qolishning yuqori qatlamidir. Nisshe aytadiki, intellekt(aql) olamni bilmaydi, balki amaliy ehtiyoj uchun uni sxemaga soladi. Har bir odam oʻzining individual hususiyatlaridan kelib chiqib olamni qayta quradi: toʻda mavjudligi sharoitida har bir odamning kallasida oʻziga xos individual mifologiya boʻladi.

Nisshe demokratiya va tarixiy jarayon prinsiplarini inkor etib, uning oʻrniga taqdirni sevishni qoʻyadi, ayni vaqtda tenglik va adolat gʻoyalariga ham qarshi chiqadi, uni “inson tabiati yaxlitligini buzadigan” narsa deb tushunadi. U sotsial ierarxiya tarafdori sifatida “yuqori kasta”ning mutloq hukmronligi haqidagi elitar konsepsiyani rivojlantiradi, bu elita baxt, goʻzallik va ezgulikni oʻzida gavdalandiradi, “xom” aholi ustidan hukmronligini oʻrnatadi.

Nisshening “gʻayriinson” obrazi axloqni tanqid qilishga qaratilgan. Uning fikricha, axloq buzuvchilik rolini oʻynaydi, odamlarni chidashga, vijdonli, yuvosh boʻlishga oʻrgatadi, deydi. Bu narsa esa inson irodasini zaiflashtiradi va susaytiradi. Shu asosda Nisshe hokimiyatni egallashga boʻlgan irodani yuqori qoʻyadi. “Gʻayriinsoniy” obraz – bu “kuchli inson” madhiyasi, hokimiyatni qoʻlga kiritish yoʻlida yonib yashayotgan mansabparastning ifodasi. Axloqning barcha

me'yorlari sof xarakterga ega, inson xulqining barcha shakllari esa "hokimiyatga erishish"ni xaspo'stlashdan iborat. Zaif kishilarda axloq "erkinlik"ka erk sifatida, kuchli insonlarda esa katta hokimiyat uchun intilish, eng kuchlilarda esa insoniyatga muhabbat tarzida namoyon bo'ladi, va nihoyat, olamning tartibsizligi, unda qonuniy rivojlanishning amal qilmasligi axloqda ham bema'nilikka olib keladi.

"Hayot" falsafasining yana bir vakili fransuz mutafakkiri Anri Bergson (1859-1941) hisoblanadi. Uning qarashlarini materialistik-mexanistik va pozitivistik falsafiy oqimlarga qarshi ulkan e'tiroz deb atasa bo'ladi. Uning ta'limotida sezgilarning intensivligi, vaqt, iroda erkinligi, xotira va uning zamon bilan nisbati, ijodiy evolyutsiya va intuitsiyaning roli kabi muammolar markaziy o'rinda turadi. Bergsonning tabiat evolyutsiyasi va inson taraqqiyotini birgalikda olib tushuntirish kerakligi haqidagi fikrlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bergsonning fikricha, hayot mohiyatini intuitsiya yordamida egallash mumkin. Intuitsiya hayotning o'zini anglab yetish, ya'ni o'zini o'zi bilishdir. Shu sababli Bergson obyektни subyektga qarama-qarshi qilib qo'ymaydi.

Bergsonning falsafiy qarashlarida ong masalasi ham muhim o'rin tutadi. Uning ko'rsatishicha, psixik hayotning nozik qatlamlari uzluksizlik, davomiylik bo'lib, holatlarning uzluksiz o'zgarishidir. Davomiylik g'oyasi – Bergsonning eng sevimli kategoriyasidir. Davomiylik - vaqtning belgisi, atributi, u "jonli" vaqt. Bergsonning gnoseologik mulohazalarida intellekt intuitsiyaga qarama-qarshi qo'yiladi. Chunki intellekt moddiy, fazoviy obyektlarni o'rganish quroli, intuitsiya esa insonga narsa-hodisalarning "jonli yaxlitligi"ni bilish mohiyatini ifodalaydi.

Ruhiy tahlil falsafasi. XX asr falsafasining muhim oqimlardan biri-neofreydizm bo'lib, uning asosida avstriyalik vrach va psixiatr Zigmund Freyd (1856-1939)ning qarashlari yotadi. Freyd yaratgan ta'limotning mohiyati shundaki, u psixikani moddiy sharoitlardan ajratib qo'yadi. Psixika qandaydir mustaqil, moddiy jarayonlarga parallel mavjud va ong doirasidan tashqarida (ongsizlik)gi alohida, bilib bo'lmaydigan, abadiy psixik kuchlar boshqaradigan narsadir. Shu ma'noda, Freyd ongsizlikni onglilikka qaraganda keng va chuqur deb ta'kidlaydi, jinsiy mayllik esa inson ruhiyatiga buzilish sifatida ta'sir qilmay, ayni vaqtda madaniyatning oliy shakli(badiiy adabiyot)ga, inson ijtimoiy qadriyati va ruhiyatiga ham ta'sir ko'rsatadi, deydi.

Freyd ruhiy dunyo inson borlig'ining muhim jihati ekanligidan kelib chiqib, uning o'ziga xos modeli (andozasi)ni beradi. Freyd bu modelni uch qismdan iborat deb hisoblaydi: uning negizida "u" (ongsizlik), so'ng "men" (ong), uchinchi qism "mendani yuqori" (ijtimoiy ong). Freyd har uchchala qismning ham inson hayotida tutadigan o'rni va rolini ko'rsatishga harakat qiladi. Binobarin, yuqorida qayd etilgan "uchlik" inson ruhiyatini, psixikasini tashkil etadi.

Freyd insonning barcha ruhiy holatlarini, hamma ishlarini, soʻngra esa barcha tarixiy hodisalarni ham, ijtimoiy hodisalarni ham psixoanaliz- ruhiy tahlildan oʻtkazadi, bularning barchasini ongsizlik va birinchi galda shahvoniy intilishlar deb baholaydi. Ideallik- psixikaviylik (ongsizlik) insoniyat tarixi, axloq, sanʼat, fan, din, davlat, huquq, urushlar kabilarning sababchisidir.

Pragmatizm. Pragmatizm – yunoncha pragmatos soʻzidan olingan boʻlib, oʻzbekcha “xatti-harakat”, “ish” degan maʼnolarni anglatadi. Bu oqimning yirik vakillari – Charlz Pirs(1839-1914) amerikalik faylasuf, mantiqshunos, matematik va tabiatshunos hisoblanadi, amerikalik Uilyam Jems (faylasuf va psixolog), Jon Lyui (1859-1952)lar hisoblanadi.

Pragmatizmning xususiyati shundaki, u yoki bu obyektlar haqidagi tushunchalarning maʼnosi va ahamiyatini ular keltirib chiqargan amaliy natijalar bilan belgilaydi.

Pragmatizmning asosiy gʻoyalari Ch.Pirsning “Qanday qilib bizning ideyalarimizni aniq qilish mumkin?”, “Eʼtiqodning taʼrifi” asarlarida bayon etilgan. Pirsning falsafiy qarashlari oʻzida ikki qarama-qarshi tendensiya – pozitivistik (empirik) va obyektiv-idealistik gʻoyalarni uygʻunlashtiradi. U tugʻma gʻoyalar va intuitiv bilishni inkor etadi.

Pirs, Jems, Dyui va boshqalar pragmatistik qarashlarni ilgari surar ekanlar, amaliy foydalilik deganda obyektiv haqiqatning praktika mezoni bilan tasdiqlanishini emas, balki individning subyektiv qiziqish va manfaatlarini tushunadi. Shunday qilib, pragmatizmda “foйда” tushunchasi “tajriba” yoki “amaliyot” tushunchasi bilan tenglashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti nuqtai nazaridan qaraydigan boʻlsak, pragmatizm maʼlum maʼnoda erkin bozor talablarini ifoda etganday boʻladi. U biznes, shu jumladan har qanday “foйда” beradigan faoliyatni tashkil etishning gʻoyaviy quroli hamdir. Shu sababli pragmatizm asosan amerikalik ishbilarmonlar, menedjerlar, siyosatdonlar orasida keng yoyilgan.

Neotomizm. Din bilan uzviy bogʻlangan falsafiy qarashlar kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada muhim mavqei egallab kelgan. Avgustin, Akvinskiy, Gʻazzoliy, Naqshband singari faylasuf olimlarni bu oʻrinda misol tariqasida keltirish mumkin.

XX asr falsafasi tizimida neotomizm falsafasi nufuzli oʻrin egallaydi. U XX asr ikkinchi yarmida 1- Vatikan sobori taʼsirida vujudga kelganligi maʼlum. 1879 yili Rim papasi Lev 13 oʻrta asr falsafasining asoschilaridan biri F.Akvinskiyning qarashlarini yagona taʼlimot deb eʼlon qiladi. Shunday qilib, neotomizm Rim katolik cherkovining rasmiy mafkurasiga aylanadi.

Neotomizmning vakillari J.Mariten, Jilson (Fransiya), de Rey meyke (Belgiya), Lots (Germaniya), Vetter (Avstriya), I.Boxenskiy (Polsha) hisoblanadi.

Neotomistik ta'limotning asosini "falsafa ilohiyotning xizmatkoridir" degan sxolastik prinsip tashkil etadi. Uning asosiy g'oyalari va tamoyillari tomizm falsafasining ma'naviy asoslariga suyanadi.

XX asr falsafasi haqida so'z borganda shubhasiz rus falsafasi to'g'risida ham qisqacha to'xtab o'tish zarur bo'ladi.

1922 yilda mafkuraviy jihatdan yangi tuzumga mos kelmaydiganlar chet ellarga chiqarib yuborildi. N.Berdyayev, S.Bulgakov, I.Ilin, I.Lapshin, S Frank kabi yuzlab faylasuflarning taqdiri ana shunday kechdi.

Majburiy emigratsiyada bo'lishlariga qaramay ko'plab olimlar falsafiy muammolar bilan shug'ullanishni tark etmadilar. Mashhur rus faylasufi N.A.Berdyayev (1874-1948) o'zining qarashlarini falsafiy publistik janrda bayon etadi. Uning quyidagi asarlari mashhur: "Insonning vazifasi haqida", "Ijodning ma'nisi haqida", "Insonning qulligi va ozodligi to'g'risida".

P.A.Florenskiy (1882-1937) diniy faylasuf, ensiklopedist olim MGUning matematika bo'limini tugatib, Moskva ruhoniyl akademiyasiga o'qishga kiradi, falsafadan ma'ruzalar o'qiydi. Haqiqatning tasdig'iga bag'ishlangan dissertatsiya yozadi. Florenskiy g'arb falsafasini chuqur bilsa-da, pravovaslav ongidan o'ziga tayanch izlaydi va o'z falsafiy qarashlarini diniy ong doirasida ifodalaydi. Kosmosning jonli birligini tushuntirar ekan, uni tabiiy borliqning siri deb ta'riflaydi. Tabiatni reallik, jonli reallik deb e'tirof etadi.

S.Bulgakov (1871-1944) ilohiyotshunos faylasuf sof falsafaning o'zi bilan shug'ullanish bilan chegaralanmaydi. Uningcha, falsafa hamma vaqt ilohiyotshunoslik bilan bog'langan bo'ladi, shu ma'noda "sof falsafa" mavjud emas. Bunday ma'naviy o'zgarishlarni I.Ilin, L.Shestov, shuningdek, A.F.Losov qarashlarida ham uchratish mumkin.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. O'rta asrlar falsafasini nima sababdan sxolastika deb ataladi?
2. Avgustinning falsafiy qarashlarida qanday muammolar haqida so'z boradi?
3. O'rta asr falsafasida "realizm" va "nominalizm" o'rtasidagi kurash qaysi sohalarida boradi?
4. Tomizm falsafasining asosiy qoidalarini sanab ko'rsating.
5. Yevropa Uyg'onish davri falsafasi va uning shakllanishi shart-sharoitlari haqida so'zlang.
6. Falsafada empirizm va ratsionalizm yo'nalishi qaysi sohalarida o'zaro kurash olib bordi?
7. Nemis klassik falsafasining namoyandalarini sanab ko'rsating va ularning jahon falsafasi tarixida tutgan o'rnini izohlang.
8. Neopozitivizm va uning asosiy ko'rinishlari haqida nima deya olasiz?

4-mavzu: Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi

Reja:

1. Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya – borliq falsafasi. Borliqning asosiy turlari. Inson borlig'i. Insonning tabiati va mohiyati. Antropologiya – inson to'g'risidagi fan.

2. Bilish – voqelikning in'ikosi. Bilishning obykti va subykti. Bilishning asosiy bosqichlari. Ilmiy bilish va uning mohiyati.

3. Ong – yuksak darajada shakllangan materiya ko'rinishi – odamzod miyasining mahsuli. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari.

Tayanch iboralar: individual olam, ijtimoiy olam, real olam, virtual olam, borliq, inson borlig'i, narsalar borlig'i, ma'naviy borliq, ijtimoiy borliq, borliq va yo'qlik, tabiat borlig'i, inson yaratgan buyumlar borlig'i, individual borliq, mavjudlik, reallik, materiya, fazo, vaqt, harakat, narsa, xossa, bog'lanish, ong, ijtimoiy ong, antropologiya, ontologiya, bilish, ilmiy bilish, bilishning obykti va subykti, hukm, xulosa.

Mavzuning maqsadi: Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi, Ontologiya – borliq falsafasi ekanligi, borliqning asosiy turlari, inson borlig'i, insonning tabiati va mohiyati, Antropologiyaning inson to'g'risidagi fan sifatidagi mohiyatini ochish, ongning mohiyati, tabiatini anglash masalasi haqida fikr yuritish.

1. Borliq tushunchasining mohiyati va ma'nosi. Ontologiya – borliq falsafasi. Borliqning asosiy turlari. Inson borlig'i. Insonning tabiati va mohiyati. Antropologiya – inson to'g'risidagi fan.

Borliq nima degan masala hamisha falsafiy tafakkurning asosi bo'lib kelgan. Kishilarning olam to'g'risidagi ilmiy-falsafiy dunyoqarashini tarkib toptirishda ularning borliq haqidagi qarashlari alohida o'rin tutgan.

Hozirgi zamon falsafiy adabiyotlarida “borliq” tushunchasini tor va keng ma'noda qo'llash hollariga duch kelamiz. **Tor ma'noda** “borliq” onga bog'liq bo'lmagan obyektiv olam, **keng ma'noda** – bu barcha mavjud narsalardir.

Borliq to'g'risidagi dastlabki tasavvurlar qadimgi dostonlarda, ertaklarda, diniy madhiyalarda uchraydi. Bu masalada qadimgi Hind, Xitoy, Yunon yodgorliklari katta material berishi mumkin.

MUAMMO: Har qanday falsafiy fikr borliq to'g'risidagi tushunchadan boshlanadi. Borliq to'g'risidagi falsafiy muammolarni echimini topish maqsadga muvofiqdir.

Qo'hna Hindistonda yaratilgan qadimgi diniy madhiyalarda, xususan "Mahabharata", "Rigveda", "Ramayana", "Upanishad"larda odamning yaratilishi xususida gap borganda, "yo'qlik" va "borliq" haqida ma'lumotlar beriladi. "Rigveda"da aytilishicha, olamning paydo bo'lishida "Asat" deb ataluvchi ibtido bosh rolni o'ynagan. "Asat" imkoniy borliq, ya'ni "yo'qlik" demakdir. "Asat" asta-sekin "sat"("mavjudlik")ka aylangan.

Qadimgi Xitoyda keng tarqalgan daosizmning asoschisi Lao-szining fikricha, "borliq" asosida "dao" yotadi. U "si" elementi bilan birgalikda hayot negizini tashkil etadi. Qadimgi yunon falsafasida, ayniqsa Geraklit qarashlarida bu masala muhim o'rin tutgan. Uning fikricha, ayni bir jism ayni vaqtda ham "mavjud", ham "mavjud emas". Demokrit aytadiki, "borliq" "yo'qlik" bo'lishini talab etadi. Borliq "qattqlik" yoki moddiylikdir. "Yo'qlik" esa "bo'shliq"dan iborat, ammo har ikkalasi ham mavjuddir.

Aflotun borliq deganda moddiy jismlarni tushungan. Narsalar borlig'ini g'oyalar dunyosi borlig'idan farqlagan. Aflotun borliqni "chin" va "chin bo'lmagan"ga ajratadi. G'oyalar dunyosi "chin", narsalar dunyosi esa "chin bo'lmagan"ga kiradi. Aflotun olamni narsalar borlig'iga bo'lib yuborish bilan birga, ayni vaqtda "g'oyalar" dunyosi mavjudligini narsalar borlig'i bilan qo'shishga urinadi.

Yaqin va O'rta Sharq falsafasida Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Ibn Rushd kabilar borliqni ikkiga: vujudi mumkin va vujudi vojibga bo'ladilar. Ularning falsafasida borliqning bosh sababchisi Alloh (vujudi vojib)dir. Demak, Alloh va u yaratgan narsalar bir-birlari bilan o'zaro bog'langan birlikni tashkil etadi. Chunonchi, **Jomiy** shunday yozadi: "Tangrini olamdan ajralgan deb hisoblama, zeroki, barcha olam tangridadir, Tangri esa olamda".

Borliq muammosining hayotiy ildizlari va falsafiy ma'nosini tushunib yetish muhimdir. Borliq va yo'qlik to'g'risidagi tasavvurlar qanday paydo bo'lgan? Insoniyat qadimdan boshlab olam borlig'i, o'z borlig'i, o'zgarlar borlig'i ustida bosh qotirgan. Olam azaldan bormi? Yoki yaratilganmi? Odamlar-chi? Odam tug'iladi, yashaydi, voyaga yetadi, bir kun kelib olamdan ko'z yumadi, u bor edi, bo'lgan edi, endi yo'q, lomakon bag'riga singib ketadi, yo'qlik sari yo'l oladi. Tug'ilish bor ekan, o'lim haq. Bu – hayot qonuni. Samad Vurg'un to'g'ri ta'kidlaganidek, "to'rt faslni o'tkazmoqlik tabiatga bir qonun, tug'ilmoqlik va o'lmoqlik bu hayotga bir qonun".

Inson hayotidagi fojialar ichida eng dahshatlisi o‘limdir. O‘lish vahimasi odamlar irodasini o‘ziga rom qilgan. O‘lim nima? U borliqmi yoki yo‘qlikmi? Odamlar uni bilishga qiziqqanlar, javob izlaganlar. Chunonchi, V. Shekspir Gamlet tilidan quyidagilarni bayon qilgan edi: “Yashash kerakmi, o‘lish kerakmi? Nadir afzal? Mana masala. O‘lish unutilish, u qandayin diyorki, unga borgan yo‘lovchi ko‘p, ammo undan qaytgan biror bir yo‘lchi yo‘q”.

E’TIBOR BERING! Kishilarning olam to‘g‘risidagi ilmiy-falsafiy dunyoqarashi shakllanishida ularning borliq haqidagi tasavvurlari alohida o‘rin tutgan.

Demak, borliq keng ma’noda mavjudlik to‘g‘risidagi eng umumiy tushunchadir. Borliq va reallik g‘oyat keng tushunchalar – sinonimlardir. Borliq mavjud barcha ko‘rinadigan va ko‘rinmaydigan narsalar. Bular – moddiy narsalar, jarayonlar (fizik, kimyoviy, biologik, ijtimoiy, ruhiy, ma’naviy va x.k.), bu – ularning xossalari, aloqalari va munosabatlaridir.

Borliqning teskarisi “Yo‘qlik” hisoblanadi. Borliq va Yo‘qlik biri-birisiz mavjud emas, agar ularning bir-biriga o‘tishi bartaraf qilinsa, hamma narsa o‘z ahamiyatini yo‘qotishi mumkin. Nega? Chunki harakat to‘xtashi mumkin, bunda mavjudlik o‘zining muhim, asosiy va ajralmas belgilaridan mahrum bo‘ladi. Eng qattiq kristallar, yulduzlarning to‘dalanib to‘planishi, u yoki bu o‘simliklar, hayvonlar, insonlar go‘yo Yo‘qlikdan kelib chiqqandek bo‘ladi, (ular xuddi shunday tarzda hech qachon bo‘lmagan), borliqqa aylanadi. Narsalarning borlig‘i qanchalik uzoq vaqt davom etmasin, nihoyasiga yetadi va konkret sifat tarzi (deylik, shaxsan shu inson)da Yo‘qlikka ketadi.

MUAMMOLI VAZIYAT! “Borliq”, “yo‘qlik” tushunchasi bilan mavjudlik va reallik tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni aniqlash.

Borliq va Yo‘qlik muammosi shu qadar hayotiyki, u hozirgi kunda ham dolzarb bo‘lib turibdi. Insoniyatning yashab qolishini ta’minlash, borlig‘ini ta’minlash, termo-yadro urushining Yo‘qlik sari dahshatli qadam qo‘yishining oldini olish hamma vaqt muhim masaladir.

Yaxlit olam borlig‘i bilan odam borlig‘ini qiyoslasak, inson hayoti bu jarayonda kapalak umriga qiyos etgulik. Hayot shu qadar tez o‘tadiki, konkret odamning hayoti juda qisqa ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Falsafiy adabiyotlarda borliqning quyidagi shakllari mavjudligi e’tirof etiladi:

Narsalar, tabiiy jarayonlar borlig'i. Tabiiy borliqning birinchi ko'rinishi insonga qadar, inson va uning ongidan tashqarida, unga bog'liq bo'lmagan moddiy borliq hisoblanadi. Moddiy borliq – bu narsalar, ularning xossalari, munosabatlari, jarayonlari borlig'idir.

“**Narsa**” tushunchasi o'z xossasiga ega va boshqalar bilan munosabatda bo'ladigan predmetni, obyektini bildiradi.

“**Xossa**” – predmetdagi boshqa predmetlar bilan o'xshash yoki o'xshamaydigan tomonlardir.

“**Bog'lanish**” – olamning abadiy taraqqiyotidagi alohida momentni bildiradi. Shu ma'noda barcha narsa-hodisalar o'zaro ta'sirda va o'zaro bog'langan bo'ladi. Obyektlarning bir-biriga ta'siri va shu asosda ularning o'zgarishiga olib keladigan hodisa “**o'zaro ta'sir**” deyiladi.

Inson borlig'i. Alohida odam borlig'i hamda insoniyat borlig'i o'ziga xos hodisadir. Shuningdek, ularning har ikkalasiga xos bo'lgan umumiylik ham bor. Inson tanasi tabiatniki, shu ma'noda u jismlar ichidagi jismdir. Uning tabiatga tegishli bo'lgan jismi o'tkinchi. Odam umrini nechog'lik darajada uzaytirishga urinmaylik, birinchi galda u tabiat jismi bo'lib qolaveradi. Ayni vaqtda odamning insoniy mohiyatga egaligi, ijtimoiy munosabatlarni o'zida gavdalantirganligini hisobga oladigan bo'lsak, uni “narsa” yoki “obyekt” tushunchalari bilan belgilash unchalik to'g'ri emas.

Inson borlig'ining o'ziga xos xususiyatlari uch muhim o'lchov-me'yorga ega. **Birinchi**, alohida odam – fikrlovchi va his etuvchi jism. **Ikkinchi o'lchov** inson – aqlli mohiyat. **Uchinchi**, inson – ijtimoiy-tarixiy mavjudot. Demak, inson tabiiylik, ma'naviylik, individuallik, shaxsiylik va ijtimoiylikning yig'indisidan iborat.

Ma'naviy borliq. Ma'naviy hayot – inson borlig'ining tarkibiy bo'laki. Ma'naviyat inson bilimlari, axloqiy, huquqiy qarashlari tizimi, badiiy ijodiyotning meyor va mezonlari majmuidan iborat.

Ma'naviy borliq – ong va ongsizlik jarayonlari, tabiiy va sun'iy tillarning moddiylashgan shakllarida gavdalangan bilimlardan iborat. Ma'naviy borliqni uning mavjudlik shakllariga qarab turib ikki turga bo'lib o'rganish mumkin. Birinchisini – individ ongi va ruhiyati bilan bog'langan individuallashtirilgan ma'naviy borliq, ikkinchisini individ ongidan tashqarida turuvchi obyektivlashgan ma'naviy borliq deyish mumkin.

Ijtimoiy borliq. Ijtimoiy borliq individual, yakka shaxs va jamiyat borlig'ining birligini bildiradi. “Ijtimoiy borliq deyilganda, individual yakka shaxs va jamiyat hayotining hamma tomonlari emas, balki faqat ularning moddiy hayoti tushuniladi”. Gap shundaki, kishilarning moddiy hayoti ularning xohish-irodalariga bog'liq bo'lmagan holda ishlab chiqarish munosabatlaridan (uni o'zida

jamlovchi iqtisodiy hayot)dan iboratdir. Shu ma'noda ijtimoiy borliq jamiyatning yaxlit moddiy hayotini, moddiy ne'matlar yaratish va ishlab chiqarish jarayonida kishilar amalga oshiradigan munosabatlarni nazarda tutadi.

2. Bilish – voqelikning in'ikosi. Bilishning obykti va subykti. Bilishning asosiy bosqichlari. Ilmiy bilish va uning mohiyati.

Bilishning mohiyati, shakllanish va rivojlanish qonuniyatlari, xususiyatlarini o'rganish falsafa tarixida muhim o'rin egallab kelmoqda. Inson bilishi nihoyatda ko'p qirrali, murakkab va ziddiyatli jarayondir. Gnoseologiya asosan bilishniig falsafiy muammolarini hal etish bilan shug'ullanadi. Har bir tarixiy davr jamiyatning rivojlanish ehtiyojlaridan kelib chiqib, gnoseologiya oldiga yangi vazifalar qo'yadi. Xususan, XVII asr o'rtalarida yevropalik faylasuflar ilmiy bilishning ahamiyati, haqiqiy ilmiy bilimlar hosil qilishning usullarini o'rganish, ilmiy haqiqat mezonini aniqlash bilan shug'ullandilar. Tajribaga asoslangan bilimgina haqiqiy bilimdir, degan g'oyani olg'a surdilar.

XVIII asr mutafakkirlari ilmiy bilishda inson aqli imkoniyatlariga, ratsional bilishning hissiy bilishga nisbatan ustunligiga alohida urg'u berdilar. Ilmiy bilish doimo borliqni aniq aks ettirish shakli, o'z tuzilishi, darajalari, shakllari, metodlari va muayyan tarixiy tabiatiga ega bo'lgan bilimlarni o'zlashtirish jarayoni deb hisoblangan. Bilish borliqning ilgari ma'lum bo'lmagan yangi faktlari, hodisalari va qonuniyatlarini inson yoki jamiyat tomonidan anglab yetish jarayoni sifatida tushunilgan. Bilish jarayonining tabiati, asoslari va mezonlarini o'rganuvchi ancha qadimgi fan – an'anaviy gnoseologiyada bilish strukturasi bilish subykti, obykti va vositalarining mavjudligini nazarda tutadi. Bilish subykti deganda onga va mo'ljalga ega bo'lgan faol harakat qiluvchi individ yoki individlar guruhi (jamiyat) tushuniladi.

Agnostiklar dunyoni bilish mumkinligini rad etganlar. Agnostiklardan farqli o'laroq, skeptiklar dunyoni bilish mumkinligiga faqat shubha bildirganlar. Dunyoni oqilona bilish mumkinligiga aksariyat olimlar va faylasuflarning ishonchi komil.

Buyuk nemis faylasufi I. Kant bilish natijalarining haqiqiyliigi xususida emas, balki insonning bilish qobiliyatlari haqida ko'proq bahs yuritdi. Gnoseologiya oldiga inson olamni bila oladimi, degan masala keskin qo'yildi. Insonning bilish imkoniyatlariga shubha bilan qaraydigan faylasuflar agnostiklar deb ataldilar.

Bilish nima? Bilish insonning tabiat, jamiyat va o'zi tug'risida bilimlar hosil qilishga qaratilgan aqliy, ma'naviy faoliyat turidir. Inson o'zini qurshab turgan atrof-muhit to'g'risida bilim va tasavvurga ega bo'lmay turib, faoliyatning biron-bir turi bilan muvaffaqiyatli shug'ullana olmaydi. Bilishning mahsuli, natijasi ilm bo'lib, har qanday kasb-korni egallash faqat ilm orqali ro'y beradi. Shuningdek, bilish insongagina xos bo'lgan ma'naviy ehtiyoj, hayotiy zaruriyatdir.

MUAMMOLI VAZIYAT! Insoniyat ko'p asrlar davomida orttirgan bilimlarini umumlashtirib va keyingi avlodlarga berib kelganligi tufayli ham o'zi uchun qator qulayliklar yaratgan. Inson faoliyatining har qanday turi muayyan ilmga tayanadi va faoliyat jarayonida yangi bilimlar hosil qilinadi.

Kundalik faoliyat jarayonida tajribalar orqali bilimlar hosil qilish butun insoniyatga xos bo'lgan bilish usulidir. Bilimlar bevosita hayotiy ehtiyojdan, farovon hayot kechirish zaruratidan vujudga kelgan va rivojlangan. Insoniyatning ancha keyingi taraqqiyoti davomida ilmiy faoliyat bilan bevosita shug'ullanadigan va ilmiy nazariyalar yaratuvchi alohida sotsial guruh vujudga keldi. Bular – ilm-fan kishilari bo'lib, ilmiy nazariyalar yaratish bilan shug'ullanadilar.

Bilishning ikki shakli: **kundalik (empirik) bilish va nazariy (ilmiy) bilish** bir-biridan farqlanadi. Kundalik bilish usullari nihoyatda xilma-xil va o'ziga xos bo'lib, bunday bilimlarni sistemalashtirish va umumlashgan holda keyingi avlodlarga berish ancha mushkuldir. Hozirgi zamon g'arb sotsiologiyasida xalqlarning kundalik bilim hosil qilish usullarini o'rganuvchi maxsus soha – etnometodologiya fani vujudga keldi. Gnoseologiya asosan nazariy bilish va uning rivojlanish xususiyatlarini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Bilish obyekti. Tadqiqotchi – olim, faylasuf, san'atkor va boshqalarning, umuman insonning bilimlar hosil qilish uchun ilmiy faoliyati qaratilgan narsa, hodisa, jarayon, munosabatlar bilish obyektlari hisoblanadi. Bilish obyektlari moddiy, ma'naviy, konkret, mavhum, tabiiy va ijtimoiy bo'lishi mumkin. Bilish obyektlari eng kichik zarralardan tortib ulkan galaktikagacha bo'lgan borliqni qamrab oladi. Bilish obyektlariga asoslanib, bilim sohalari tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlarga ajratiladi.

Bilish subyekti. Bilish bilan shug'ullanuvchi kishilar va butun insoniyat bilish subyekti hisoblanadi. Ayrim olingan tadqiqotchi – olimlar, ilmiy jamoalar, ilmiy tadqiqot institutlari ham alohida bilish subyektlaridir. Ilmiy faoliyat tabiat va jamiyat mohiyatini bilishgagina emas, balki insonning o'ziga ham qaratilishi mumkin. Inson va butuninsoniyat ayni bir vaqtda ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi.

Bilishning maqsadi ilmiy bilimlar hosil qilishdangina iborat emas, balki bilish jarayonida hosil qilingan bilimlar vositasida insonning barkamolligiga intilish, tabiat va jamiyatni insoniylashtirish, tabiiy va ijtimoiy garmoniyaga erishishdir. Inson ilmiy bilimlar vositasida ma'naviy barkamollikka erisha borgani sari ilm-fan qadriyat sifatida e'zozlana boshlanadi. Fanning har tomonlama

rivojlanishi bilan turli ilm sohalariniig hamkorligi kuchayadi, butun ilmiy jamoalar bilish subyekti, yangi ilmiy kashfiyotlar ijodkoriga aylanadilar.

Bilish predmeti subyekting bilish faoliyati qamrab olgan bilish obektining ayrim sohaları va tomonlaridir. Fanning o'rganish sohasi tobora konkretlashib boradi. Tabiatshunoslik fanlarini bilish predmetiga qarab botanika, zoologiya, geografiya, ixtiologiya va boshqa sohaları vujudga kelgandır. Tadqiqot predmeti fanlarni bir-biridan farqlashga imkon beradigan muhim belgidir.

Bilish darajalarini shartli ravishda: quyi, yuqori va oliy darajaga ajratish mumkin. Bilishning quyi darajasi barcha tirik mavjudotlarga xos bo'lib, hissiy bilish deyiladi. Hissiy bilish sezgilar vositasida bilishdir.

Insonning sezgi a'zolari (ko'rish, eshitish, hid bilish, taom bilish, teri sezgisi) boshqa mavjudotlarda bo'lgani singari uning narsalarga xos xususiyat, belgilarini farqlash, tabiiy muhitga moslashish va himoyalanishi uchun yordam beradi. Bilishning quyi bosqichida sezgi, idrok, tasavvur, diqqat, xayol tashqi olam to'g'risida muayyan bilimlar hosil qilishga yordam beradi.

Bilishning yuqori bosqichi faqat insonlargagina xos bo'lib, aqliy bilish (ratsional bilish) deyiladi. Agar inson o'z sezgilari yordamida narsa va hodisalarning faqat tashqi xossa va xususiyatlarini bilsa, tafakkur vositasida narsa va hodisalarning ichki mohiyatini bilib oladi.

Tushuncha. Aqliy bilish yoki tafakkur vositasida bilish hissiy bilishni inkor etmaydi, balki sezgilar vositasida olingan bilimlarni umumlashtirish, tahlil qilish, sintezlash, mavhumlashtirish orqali yangi hosil qilingan bilimlardan tushunchalar yaratiladi.

Tushunchada insonning hissiy bilish jarayonida orttirgan barcha bilimlarni mujassamlashtiradi. Tushuncha aqliy faoliyat mahsuli sifatida vujudga keladi. Narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib borishda tushuncha muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Aqliy bilish hissiy bilishga nisbatan ancha murakkabvaziddiyatli jarayondir. Aqliy bilishda narsa va hodisalarning tub mohiyatini bilish uchun ulardan fikran uzoqlashish talab etiladi. Masalan, insonning mohiyati uning sezgi aozolarimiz qayd etadigan kelishgan qaddi-qomati, chiroyli qoshu ko'zi, ijodkor qo'li, oyoqlari bilan belgilanmaydi. Insonning mohiyati avvalo, uning aql va tafakkurga, yaratish qudratiga, mehr-shafqat hissiga, mehnat qilish, so'zlash qobiliyatiga ega ekanligida namoyon bo'ladi.

Hukm. Aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi. Tafakkurga xos bo'lgan ana shu tasdiqlash yoki inkor etish qobiliyatiga hukm deyiladi. Hukmlar tushunchalar vositasida shakllanadi. Hukmlar yangi bilimlar hosil qilishga imkoniyat yaratadi, ular vositasida narsa va hodisalar mohiyatiga chuqurroq kirib boriladi. Shunday

qilib, hukm narsa va hodisalarning tub mohiyatini ifodalovchi eng muhim belgi va xususiyatlar mavjudligini yo tasdiqlaydi yoki inkor etadi.

Xulosa– aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo‘lishi, ya’ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo‘lishi ham mumkin. Binobarin, tushuncha, hukm va xulosalar chiqarish ilmiy bilishning muhim vositalaridir. Bunday bilish insondan alohida qobiliyat, kuchli irodani tarbiyalashni, narsa va hodisalardan fikran uzoqlashishni, diqqatni bir joyga to‘plashni, ijodiy xayolni talab etadi.

Bilishning oliy darajasi intuitiv bilish, qalban bilish, g‘oyibona bilishdir. O‘zining butun borlig‘ini fan, din, siyosat va san‘at sohasiga bag‘ishlagan buyuk kishilar ana shunday bilish qobiliyatiga ega bo‘ladilar. Intuitiv bilish hissiy va aqliy bilishga tayanadi. Buyuk shaxslarning g‘oyibona bilishi ularning doimiy ravishda fikrini band etgan, yechimini kutayotgan umumbashariy muammolar bilan bog‘liqdir. Ilmiy bilishning eng samarali usullarini aniqlash gnoseologiyada muhim o‘rin egallab keldi. Har bir fan o‘ziga xos bilish usullaridan foydalanadi.

Ilmiy bilish fakt va dalillarga, ularni qayta ishlash, umumlashtirishga asoslanadi. Ilmiy fakt va dalillar to‘plashning o‘ziga xos usullari mavjud bo‘lib, ularni ilmiy bilish metodlari deyiladi.

Ilmiy bilish metodlarini o‘rganadigan maxsus soha –metodologiya deb ataladi. Ilmiy bilish metodlari o‘z xarakteriga ko‘ra: 1) eng umumiy ilmiy metodlar; 2) umumiy ilmiy metodlar; 3) xususiy ilmiy metodlarga bo‘linadi.

Eng umumiy ilmiy bilish metodlari barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlardir. Bunga analiz va sintez, umumlashtirish va mavhumlashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash va modellashtirish kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, tabiatshunoslik fanlarida kuzatish, eksperiment, taqqoslash umumilmiy metodlar bo‘lsa, ijtimoiy fanlarda tarixiylik va mantiqiylik umumilmiy metodlar hisoblanadi. Xususiy ilmiy metodlar har bir fanning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi. Masalan, suhbatlashish, anketa so‘rovi, hujjatlarni o‘rganish sotsiologiya faniga xos bo‘lgan xususiy ilmiy metodlardir.

Ilmiy bilishda to‘g‘ri metodni tanlash bilishda muvaffaqiyat garovi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, ilmiy tadqiqotda nimani o‘rganish kerak, degan masala fan predmetini aniqlashga imkon bersa, qanday o‘rganish kerak, degan masala esa ilmiy bilish metodini to‘g‘ri belgilashga yordam beradi.

Ilmiy bilish metodlari va ilmiy nazariya bir-biri bilan uzviy bog‘liqdir. Ilg‘or ilmiy nazariya fanning butun taraqqiyoti davomida erishilgan muhim yutuq bo‘lib, u ilgari ilmiy qarashlarni ijodiy rivojlantirish, o‘sha yutuqlarga tanqidiy nuqtai nazardan qarash orqali vujudga keladi. Fan mohiyatan o‘zi erishgan yutuqlarga shubha bilan qarashni taqozo qiladi.

Ilg'or ilmiy nazariyalar ma'lum bir davrda ilmiy va falsafiy qarashlar yo'nalishini o'zgartirishi, ilmiylikning o'ziga xos mezoni bo'lishi ham mumkin. Masalan, Charlz Darvinning evolyutsion nazariyasi, A.Eynshteyining nisbiylik nazariyasi falsafiy va ilmiy dunyoqarashlarda muhim o'zgarishlarni vujudga keltirdi.

Gnoseologiyada **Haqiqat** tushunchasi muhim o'rin tutadi. Haqiqat inson bilimlarining voqelikka muvofiq kelishidir. Haqiqatni ochish yoki ilmiy haqiqatga erishish har qanday ilmiy bilishning asosiy vazifasi hisoblanadi. Haqiqat o'zining mazmuniga ko'ra mutloq va nisbiy bo'lishi mumkin. Fan haqiqati hamisha nisbiy xarakterga ega bo'lib, ularning majmuasidan mutloq haqiqat vujudga keladi.

Haqiqat o'z mazmuniga ko'ra hamisha obyektivdir. Ya'ni uning mavjudligi ayrim kishilarning hohish-irodasiga bog'liq emasdir.

YODDA TUTING! Ijtimoiy fanlar hamisha mavjud siyosiy tuzum, davrning talab va ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq ravishda rivojlanadi. Ijtimoiy bilishda jamiyat ham bilish obyekti, ham bilish subyekti sifatida namoyon bo'ladi: insoniyat o'z tarixini yaratuvchi va o'z-o'zini biluvchidir.

Gnoseologiyaning maqsad va vazifalari, bilishning mohiyati va mazmuni to'g'risida zarur bilimlarga ega bo'lishni mamlakatimizda bilimdon, har jihatdan yetuk barkamol inson shaxsini shakllantirishda alohida o'rin tutadi. Bilish nazariyasi bo'lajak mutaxassis-kadrlarda muayyan ilmiy layoqat va qobiliyatlarni shakllantirishda ko'maklashadi.

Milliy mustaqillik yillarida gnoseologiya oldiga qo'yilayotgan eng muhim vazifalardan biri ilmiy bilimlarning jamiyatimiz taraqqiyoti, tinchligi va farovonligi uchun xizmat qilishini ta'minlaydigan omil va mexanizmlarni o'rganish, ulug' ajdodlarimizning ilmiy bilimlarni rivojlantirish borasida orttirgan tajribalarini keng ommalashtirishdir.

3. Ong – yuksak darajada shakllangan materiya ko'rinishi – odamzod miyasining mahsuli. Ijtimoiy ong, uning darajalari va asosiy shakllari.

Ong muammosi bilan fiziologiya, kibernetika, informatika, psixologiya, tilshunoslik, pedagogika, sotsiologiya kabi ko'pgina fanlar shug'ullanadi.

Ong falsafaning azaliy masalasi hisoblanadi. Ma'lumki, inson doimo ma'naviy-ruhiy tasalliga muhtoj bo'lib yashaydi. Ong esa bevosita ma'naviyat bilan bog'liq. Ong ma'naviyatning tarkibiy qismi. Ong insonning o'z-o'zini anglashi, o'z xatti-harakatlarini boshqarishi orqali ma'naviyatga ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkazib turadi.

Ong eng avvalo insonni o‘z-o‘zini anglashi, tevarak atrofdan o‘zini ajratish qobiliyati demakdir. Ma’naviyat ham insonni o‘z-o‘zini anglashidir. U holda ong bilan ma’naviyatning farqi nimada?

MUAMMO! Ongning mohiyatini, uning koinot evolyusiyasining tabiiy natijasi ekanligini tushunish, u bilan bog‘liq jarayonlarni ilmiy talqin etish.

Ong anglash, voqelikni bilishdir. Ma’naviyat shu bilim, ong asosida olamga munosabat bildirish, baho berish va shu asosda amaliy faoliyat ko‘rsatishdir. Ma’naviyat odamlarning odamlarga bo‘lgan ongli munosabatida, tilida, dilida, harakatida namoyon bo‘ladi. Kishilar qancha ongli bo‘lsa, ma’naviyati shuncha yuksak bo‘ladi.

E‘TIBOR BERING! Falsafada ong masalasi eng murakkab va azaliy muammolardan hisoblanadi.

Ong nima? Ong keng ma’noda insonning o‘z-o‘zini, borliqni anglashi, voqelikni adekvat in’ikos etishi, bilimi va shu asosda tabiat, jamiyat va kishilarga bo‘lgan ruhiy-ma’naviy munosabatidir.

Ongning kelib chiqishi va mohiyatini tushunishda uch omilga e’tibor berish odat bo‘lgan.

Birinchidan, ong inson miyasining tashqi olamni aks ettirish layoqatidir. Sog‘lom miyagina shu vazifani bajara oladi. Meditsina, fiziologiya fanlari bu xulosaning to‘g‘riligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, ong – voqelikning in’ikosidir, lekin oddiy emas, in’ikosning oliy shaklidir. In’ikosning istagan bir shakli ong bo‘la olmaydi. In’ikosning eng oliy shakligina ong bo‘la oladi.

Uchinchidan, ong jamiyat taraqqiyotining mahsuli. Inson biologik mohiyat sifatida tabiat bag‘rida dunyoga kelgan bo‘lsa, ijtimoiy mohiyat sifatida jamiyat bag‘rida shakllangan va rivojlangan. Uning ongi ham tarixiy taraqqiyotning mahsulidir.

Odam bolasi sog‘lom miyaga ega bo‘lsa ham, bari bir u insoniy muhitdan ajralib qolsa, uning ongi rivojlanmaydi. Fan tarixida bunday misollar ko‘plab uchraydi. Aytishlaricha, Hindiston shohi Akbar qiziq bir tajriba o‘tkazadi. Uning topshirig‘iga binoan turli millat bolalarini boshqa odamlarga ko‘rsatmay, faqat soqov enagalar tarbiyalaydi. Natija nima bilan tugashi sizga ayon.

Hindistonlik professor Sinh Amola va Kamola ismli qizaloqlarni bo‘rilar galasi ichidan topib oladi. Albatta, ijtimoiy muhitdan ajrab qolgan bu bolalarning

ongi, tili, tasavvurlari, qolaversa, ularning hayoti insoniy mazmun va mohiyatdan mahrumdir.

Demak, yuqorida qayd etganimiz uch omilni hisobga olsak, ong yuksak darajada tashkil topgan materiya – miyaning xususiyati, voqelik in'ikosining oliy shakli va kishilik tarixiy taraqqiyotining mahsuli ekanligiga ishonch hosil qilamiz. Shunday qilib, ong inson miyasining layoqati, obyektiv olamning subyektiv obrazi, voqelikning umumlashgan va maqsadga muvofiq in'ikosi, tarixiy taraqqiyot mahsuli, inson xulq-atvori va harakatini oqilona boshqarib va nazorat qilib turadigan hissiy va aqliy faoliyat birligidir.

Ong o'zining strukturasi ega bo'lgan yaxlit tizim. Uning tarkibiga quyidagi elementlar kiradi: sezgi, idrok, tasavvur, emotsiyalar, o'z-o'zini his etish, kayfiyatlar, tafakkur, tushuncha, hukm, xulosa, g'oyalar, iroda, xotira, diqqat, kechinmalar. Bularning ichida sezgi, iroda, tasavvur, tafakkur, tushuncha ongning yadrosini tashkil etadi.

Falsafiy nuqtai nazardan qarasak, ong, ongli degan tushunchalarning teskarisi ongsizlikdir. Mutaxassislar fikricha, ongsizlik nomigagina mavjud emas, balki individ ruhiy faoliyatining muhim tomonidir. Ongsizlikning bir qancha darajalari bor. Birinchi darajasi – inson o'z jismining ehtiyojlari ustidan o'rnatilgan, ammo anglab yetilmagan ruhiy nazorat. Bu nazorat avtomatik, ya'ni ongsiz ravishda amalga oshadi, ba'zi istaklar, mayllar, tush ko'rishlar, ruhiy holatlar ana shunday xususiyatga egadir.

Ongsizlikning ikkinchi darajasi ong bilan birga yonma-yon sodir bo'ladi ("fikir pishdi", "men shunday deb o'ylayman" yoki fikr tug'iladi-yu, keyinroq anglab olinadi).

Uning uchinchi darajasi badiiy, ilmiy, falsafiy kabi holatlarni ifodalab, murakkabroq (intuitsiya) tarzda namoyon bo'ladi.

MUAMMOLI VAZIYAT! Ongning shakllanishida ijtimoiy omillar muhim o'rin tutadi. Tub ma'noda, inson ongi–ijtimoiy munosabatlar mahsulidir.

Ongning mohiyati nima? Yuqorida aytilganidek, ongning mohiyati uning voqelik in'ikosi ekanligidir. Ong borliqning o'zi emas, balki uning miyadagi nusxasi, obrazi. Boshqacha aytganda, ongning mohiyati uning ma'naviy hodisasi ekanligidadir.

Demak, ong voqelik in'ikosi sifatidareal hodisadir. Bu o'rinda, tabiiyki, in'ikos tushunchasi ma'nosini bilib olish taqozo qilinadi.

In'ikos ikki narsa – subyekt bilan obyekt, ta'sir etuvchi bilan ta'sirlanuvchi orasida vujudga keladigan jarayondir. Buning oqibatida ular o'zaro bir-biriga ta'sir etadi, bir-birida o'zgarish hosil qiladi, bir-birida o'z izini qoldiradi.

In'ikos narsa va hodisalarning o'zaro ta'siri natijasida ularda hosil bo'lgan o'zaro o'zgarishlardir. Masalan: qum ustida yurilganda odam oyog'ining izi hosil bo'ladi, piyolaga chertilsa jaranglaydi, tog'li joyda ovoz aks-sado beradi, mimoza o'simligiga qo'l tegizilsa, o'zini tortib oladi, ikki predmet bir-biriga ishqalab ezilsa, bir-birida ularning zarralari qoladi, tuproqqa kislota tomizilsa, uni o'yib tashlaydi va hokazo. Keltirilgan misollar notirik tabiatdagi in'ikos shakllarini ifodalaydi.

Ongning ijodiy faolligi inson va jamiyat hayotining hamma sohalarida ko'rinadi. Inson o'zini tabiatdan ajrata boshlagan chog'idayoq ongning bu xususiyati namoyon bo'lgan edi. Ong faolligining yuqori bosqichi insonning o'z-o'zini anglashidan boshlangan Inson o'z aqli bilan tabiatda yo'q narsalarni yaratadi.

Ongning faolligi haqidagi masala insonning ijodiyoti bilan uzviy bog'langandir. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun ijodiyot xudoning insonga bergan qobiliyati degan edi. Ijodiyot, I.Kant fikricha, buyuk iste'dod egalariga xos qobiliyatdir. Zigmund Freyd ijodiyotni ongsizlik sohasiga xos faoliyat, ijodiyot aqliy bilish bilan sig'ishmaydi, degan g'oyani olg'a suradi.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Borliqning falsafiy tushuncha ekanligini tushuntirib bering.
2. Borliqning asosiy shakllarini tavsiflang.
3. Borliq va harakat, fazo va vaqt munosabatlarini qanday izohlaysiz?
4. Borliqni falsafiy o'rganishning qanday ilmiy-metodologik ahamiyati bor?
5. Gnoseologiya nimani o'rganadi? Bilish nima? Hissiy va ratsional bilishning o'ziga xosligi nimada?
6. Bilish obykti, subykti, predmeti tushunchalarini izohlang. Ilmiy bilishning asosiy usul (metod) larini ko'rsating.
7. Bilishning yoshlarni tarbiyalash va kamol toptirishdagi ahamiyati nimada?
8. Ong deganda nimani tushunasiz? Ongning kelib chiqishi va mohiyatini tushunishda qanday omillarga suyanish lozim?
9. Ongsizlik nima? In'ikos va ong munosabatini izohlang?
10. Ijtimoiy ong, uning mazmuni, mohiyati va shakllarini tavsiflang.

5-Mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari

Reja:

1. Metod va metodologiya tushunchasi. Xususiy fan metodlari hamda falsafiy metodlarning o'xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlarning tasnifi.

2. Falsafiy qonun tushunchasi va uning mohiyati. Falsafiy qonunlar va ularning o'ziga xos xususiyati. Dialektikaning asosiy qonunlari: Miqdor va sifat o'zgarishlarning o'zaro o'tish qonuni. Qarama-qarshilik va kurash qonuni. Inkorni inkor qonuni va uning mohiyati.

3. Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Olamdagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat.

4. Narsa va hodisalar o'rtasidagi sababli bog'lanish (determinizm)ni anglashda imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

Tayanch iboralar: harakat, o'zaro aloqadorlik, taraqqiyot, dialektika, determinizm, indeterminizm, sinergetika, qonun, bog'lanish, kategoriya, sifat, miqdor, me'yor, inkor, vorislik, ziddiyat, sinergetika, tadrijiy rivojlanish, metod va metodologiya, fan, qonun, ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat, sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

MAVZUNING MAQSADI: Olamdagi narsa va hodisalarning harakati, o'zgarishi, rivojlanishi, ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'siri mohiyatini ochish.

1. Metod va metodologiya tushunchasi. Xususiy fan metodlari hamda falsafiy metodlarning o'xshash va farq qiladigan jihatlari. Ilmiy metodlarning klassifikatsiyasi.

Mazkur mavzuni yoritishda o'zgarish, harakat, taraqqiyot, bog'lanish tushunchalari mazmunini bilib olish lozim. Shuni alohida ta'kidlash joizki, olamdagi narsa-hodisalar eng kichik zarrachalardan tortib, to osmon jismlarigacha, oddiy organizmlardan tortib, to inson jamiyatiga qadar doimo o'zgarish, harakat va rivojlanish jarayonlarini boshidan kechirib turadi, ular o'rtasida abadiy o'zaro aloqadorlik, o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik amal qiladi. Tevarak-atrofimizda hech qachon biror-bir hodisa o'zgarishsiz, harakatsiz voqe bo'lmaydi. Shunday ekan, o'zgarish harakat, o'zaro bog'lanish, taraqqiyot chegaralarining qisqacha falsafiy ma'nosini tushunib olishimiz kerak.

“Harakat” tushunchasi kundalik muloqotda olamda yuz beradigan har qanday o‘zgarish ma’nosini bildiradi. Bu – jismning makonda o‘rin almashinishi deganidir. Falsafiy tilda esa mexanik harakat atalib, uning eng oddiy shaklidir. Oldingi ma’ruzalarimizda qayd etilganidek, harakatning bir qadar murakkab shakllari(fizik, ximik, biologik, ijtimoiy va b.) ham mavjud. Harakatning barcha shakllari o‘zaro bog‘langandir. Chunonchi, oddiy mexanik harakatni olib ko‘raylik. U oddiy qismlarning bir-biriga o‘tishi, elektromagnit va gravitatsion maydonlarning o‘zaro ta’siri, mikroolamdagi kuchli va kuchsiz o‘zaro ta’sirlarning keng miqyosdagi jarayonlari bilan belgilanadi. Harakat shakllari bir-biriga o‘tib turadi, harakat hech qachon mutloq sukunat holatida bo‘lmaydi, binobarin, sukunatning o‘zi ham harakatdir, shunday harakatki, bunda narsa-hodisalarning sifat ko‘rinishi o‘zini saqlab turadi, ularning shakli va makondagi o‘rni esa buzilmaydi, biroq muayyan o‘zgarishlarni boshidan kechiradi.

Ko‘rinadiki, harakat, bir tomondan, moddiy jismlar, shuningdek, ularni tashkil etadigan elementlar o‘rtasidagi aloqadorlikning natijasi, ikkinchi tomondan, ulardagi o‘zgarishlar tarzidir. O‘zgarishlar makondagi oddiy siljishdan tortib, murakkab ijtimoiy rivojlanishlargacha takomillashib boradi.

MUAMMO! Olamda o‘z-o‘zidan, tasodifiy rivishda hech qanday harakat ham, o‘zgarish ham yuz bermaydi. Ular ma’lum qonunlar asosida amalga oshadimi?

Yuqoridagi fikrlarga chuqurroq e’tibor berilsa, o‘zgarish, harakat jarayonlari narsa-hodisalar o‘rtasida yuz beradigan o‘zaro aloqadorlik, o‘zaro bog‘lanishsiz amal qila olmasligiga ishonch hosil qilamiz. Aytish mumkinki, narsa-hodisalarning o‘zgarishi, harakati va rivojlanishiga ular o‘rtasidagi bog‘lanish va aloqadorlik, ta’sir va aks ta’sir sabab bo‘ladi. Biroq har qanday bog‘lanish ham rivojlanishga olib kela bermaydi.

Taraqqiyot – borliq, undagi narsa va hodisalar miqdor o‘zgarishlarining sifat o‘zgarishlariga o‘zaro o‘tish, qarama-qarshiliklar birligi va kurashi, inkorni inkor jarayonidir. Taraqqiyot oddiy miqdor o‘zgarishlari emas, balki sifat o‘zgarishlaridir.

Falsafada shu asosda rivojlanish va taraqqiyot qonunlari tadqiq etiladi. Qonunlar borliqdagi narsa va hodisalarning aloqa va bog‘lanishlari ifodasidir.

Eng qadimgi zamonlardan buyon odamlar borliqdagi hodisa va buyumlar orasida o‘zaro bog‘lanish, o‘zaro ta’sir va munosabatlar borligini payqaganlar. Bu – olamga taraqqiyot nuqtai nazardan yondashuv natijasi edi.

“**Dialektika**” so‘zi asli qadimgi yunon tiliga mansub bo‘lib, uni Sharq mamlakatlari ilmida, xususan arab tilida ilk bor Abu Nasr Forobiy “jidl”, “jadli”, “jadal” tarzida qo‘llagan. “Jadal” so‘zi harakat, tezlik, tezlanish, rivojlanish, o‘zgarish, intilish kabi ma‘nolarni anglatadi. Tabiat va jamiyatdagi barcha hodisalar neder bir narsaning ta‘siri, turtkisi, agar u tarkibli tizimi bo‘lsa, qismlarning o‘zaro ta‘siri sababli ro‘y beradi. Bunday yondashuvning dastlabki namunalari zardo‘shiylikning muqaddas kitobi – “Avesto”da, keyinroq Sharq mutafakkirlari asarlarida, va nihoyat, yunon faylasuflari ijodida uchraydi.

“Avesto” va “Metafizika” (Arastu) kitoblarida bayon etilgan dialektika Forobiy, Ibn Sino va boshqalar asarlarida rivojlantirilib, hozirgi zamongacha yetib keldi va hanuz jahon falsafasida asosiy tamoyillardan muhimi sifatida xizmat qilib kelmoqda.

Taraqqiyot va o‘zaro aloqadorlikning falsafiy g‘oyalari dastlab stixiyali shaklda ifoda etilgan edi. So‘ngra uzoq tarixiy taraqqiyot natijasida olamni bilish nazariyasi va metodologiyasi sifatida tarkib topadi va rivojlanadi. Taraqqiyotning qonunlari va kategoriyalari falsafa ilmining buyuk donishmandlari tomonidan kashf etilgan.

2. Falsafiy qonun tushunchasi va uning mohiyati. Falsafiy qonunlar va ularning o‘ziga xos xususiyati. Dialektikaning asosiy qonunlari: Miqdor va sifat o‘zgarishlarning o‘zaro o‘tish qonuni. Qarama-qarshilik va kurash qonuni. Inkorni inkor qonuni va uning mohiyati.

Qonun deb, voqelikdagi buyum va hodisalar o‘rtasidagi muhim, ichki, zaruriy, takrorlanadigan, obyektiv bog‘lanishlarga aytiladi.

Fan uchun qonuniyatli bog‘lanishlarni o‘rganish muhimdir. Fanning vazifasi qonuniyatni aniqlash va qonunni ochishdir. Qonunlar xilma-xil bo‘ladi: tabiat qonunlari, jamiyat qonunlari, mantiq qonunlari, fan qonunlari va falsafiy-dialektik qonunlar.

Ta‘sir doirasiga ko‘ra qonunlar xususiy, umumiy va eng umumiy bo‘ladi. Taraqqiyot qonunlari eng umumiy qonunlar sirasiga kiradi. Nemis faylasufi Gegel ana shunday qonunlardan uchtasini ochgan. Ular quyidagilar:

1. Miqdor va sifat o‘zgarishlarining o‘zaro bir-biriga o‘tish qonuni.
2. Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni.
3. Inkorni inkor qonuni.

Qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Hozirgi davrda murosa falsafasini olg‘a surayotgan ayrim tadqiqotchilar qarama-qarshiliklar birligi va kurash qonuniga qandaydir e‘tiborsizlik bilan qaramoqdalar. Bu qonunda ayb yo‘q. Ayb hamma vaqt o‘zimizda, undan qanday foydalana bilishimizda.

Taraqqiyotning bu qonuni mazmunini to‘g‘ri tushunmaslik tabiatda qarama-qarshiliklarni, jamiyatdagi obyektiv ziddiyatlarni inkor qilishga, hayotni rangsiz,

bo‘yoqsiz tasvirlashga, nihoyat subyektivizmga olib kelishi mumkin. Bunda bir xatardan qochaman deb ikkinchisiga giriftor bo‘lishi ehtimoli yo‘q emas. Bu qonun qarama-qarshiliklar, ziddiyatlar, tafovut va ayniyat tushunchalari orqali ifodalanadi.

Inson har bir qadamda qarama-qarshiliklarga duch keladi. Har bir narsa, har bir hodisa qarama-qarshiliklarning birligidan iborat. Koinotda odamlarga osmon va Yer biri uzoq, ikkinchisi yaqin, tabiatda qish-yoz, sovuq-issiq, kecha-kunduz, qorong‘u va yorug‘ borligini o‘z tajribalaridan biladilar.

Hayotda vijdonli-vijdotsiz, odobli-odobsiz, bilimli-bilimsiz, madaniyatli-madaniyatsiz, ishbilarmon-boqimanda, uquvli-uquvsiz, puldor-pulsiz, dono-nodon va h.k. kabi tushunchalar uchrab turadi.

Tafakkurda ham ilmiy-g‘ayriilmiy, mantiqli-mantiqsiz, asosli-asossiz, izchil-noizchil, aniq-mavhum, haqiqat-yolg‘on kabi tushunchalar, fanlarda – musbat va manfiy, differensial va integral, ta‘sir va aksta‘sir tushunchalari mavjud. Jamiyat hayoti ham undan holi emas.

Yashashdan maqsad ana shu qarama-qarshiliklarni topish, amal qilish qonuniyatlarini bilish, insonga xizmat qildirish, ularni hal qilish yo‘llarini izlab topishdan, inson hayotini mazmunli qilishdan iboratdir. Sho‘ro dialektik materialistik falsafasida qarama-qarshiliklar kurashi taraqqiyot manbai deb hisoblangan. Zero, tarixni mojarolar va adovat emas, balki xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik vaishonch olg‘a harakatlantiradi. Endi taraqqiyotning yana bir qonuni mohiyat-mazmuni bilan tanishib o‘taylik.

Qarama-qarshilik nima? Qarama-qarshilik deb, bir butun yaxlit narsa, hodisada ayni bir vaqtda o‘zaro birga bo‘lishini talab qiladigan va ayni vaqtda bir-birini inkor qiladigan tomonlarga aytiladi.

Elektrning musbat va manfiy zaryadlari, tirik hayotning assimilyatsiya va dissimilyatsiya jarayoni, jamiyatda ozodlik va qaramlik, hurlik va qullik, erkinlik va zaruriyat va h.k. Qarama-qarshiliklar uzviy birlikda mavjud bo‘ladi. Buni mijoziy ma’noda “kurash” deb yuritadilar. Qarama-qarshiliklar birligi va uyg‘unligi narsa rivojida, borliq taraqqiyotida muhim, hal qiluvchi rolni o‘ynaydi.

Ziddiyat nima? Ziddiyat deb qarama-qarshi tomonlar o‘rtasidagi munosabatga aytiladi.

Bu munosabatlar o‘z xarakteriga ko‘ra turli daraja va mazmunga ega. Qarama-qarshiliklar teng bo‘lganda bu munosabat tomonlarning birligiva hatto birxilligini bildiradi. Bu holda ziddiyat bo‘lmaydi. Vaqt o‘tishi bilan tomonlar ayniyligi, birligida tafovut va farqlar kelib chiqadi. Shuning uchun tafovut va ayniyat ham qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi turli darajadagi munosabat turlaridir.

Tafovut nima?

Tafovut deb, narsalarning nisbiy o'zgaruvchanligiga aytiladi. Tafovut narsalarning o'z-o'ziga ayni emasligi, o'z-o'zidan va o'zga buyumlardan farq qilishini ifodalaydi. Tafovut ayniyatning bag'rida paydo bo'ladi. Ayniyat tafovutlidir, tafovut ayniyatlidir.

Ziddiyat haqidagi ta'limotlarga ko'ra u bir qancha shakllarda uchraydi:

- antogonistik va noantogonistik ziddiyat;
- asosiy va asosiy bo'lmagan ziddiyat;
- muhim va muhim bo'lmagan ziddiyat;
- ustuvor, bosh ziddiyat; ichki va tashqi ziddiyatlar.

Ularning kelib chiqish sabablarini bilish, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish muhim metodologik ahamiyatga ega. Chunonchi, O'zbekistonda o'tgan asrning 80-yillari oxirida millatlararo munosabatlarda keskin vaziyat va qarama-qarshiliklar yuzaga kelgan edi.

Milliy mustaqillikning qo'lga kiritilishi va oqilona siyosat olib borilishi natijasida millatlararo munosabatlardagi keskinlikning oldi olindi, respublikada yashovchi barcha-millat va elatlarning qonuniy huquqlari va manfaatlari O'zbekiston Konstitutsiyasida o'z aksini topdi, milliy tistiqol mafkurasida millatlararo hamjihatlik asosiy g'oya sifatida o'rin egalladi. Bu g'oyalar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Zero, millatlararo munosabatlar sohasida muayyan, noantogonistik ziddiyatlarning mavjudligi yangi mustaqil davlatlarning qaror topish davri uchun real hodisadir.

Hozirgi paytda O'zbekistonda milliy munosabatlarga katta e'tibor berilmoqda. Respublikamizda hozir 1 milliondan ortiq qozoqlar, 300 ming koreys, 700 mingdan ortiq tojik va boshqa yuzlab millatlar istiqomat qiladi. Ularning xilma-xil ehtiyojlarini to'la qondirishga harakat qilinmoqda. Milliy tilda maktablar ochildi, kitoblar chop etildi, tele-radio ko'rsatuvlar va eshittirishlar, milliy madaniyat markazlari tashkil topdi, davlatni boshqarish ishlariga keng jalb etilmoqda.

Ijtimoiy hayotda ziddiyatlar bo'lmaydi deb aytish qiyin. Ular qaerda namoyon bo'lmoqda?

Ijtimoiy ziddiyatlar sotsial guruhlar, sinflar, millatlar, davlatlar ijtimoiy-siyosiy kuchlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy rivojlanish sohasida namoyon bo'ladi. Chunonchi, o'tish davrida eskicha va yangicha fikrlash o'rtasidagi, o'tmish va hozirgi zamonning qadriyatlar tizimi o'rtasidagi ziddiyatlar yanada keskinlashadi. Bu o'tmish va hozirgi zamon, ya'ni vaqt oralig'idagi qarama-qarshiliklardir.

Ijtimoiy ziddiyatlarning kelib chiqish sabablarini ilmiy tahlil etish ularni hal etishning muhim kalitidir. Antogonistik ziddiyatlar sinfiy, etnik, milliy, irqiy, diniy

va boshqa sohalarda ham namoyon bo'lishi mumkin. Bunday ziddiyatlar jamiyat va alohida shaxslar o'rtasida, turli davlatlar, ijtimoiy-siyosiy tuzumlar o'rtasida ham paydo bo'lishi mumkin.

Inkorni inkor qonuni. Bu qonun inkor, inkorni inkor, taraqqiyot bilan bog'liq inkor kabi tushunchalar orqali ifodalanadi. Bu qonunning asosiy xususiyatlari quyidagilar:

- inkorni inkor qonuni – tabiat, jamiyat va tafakkur taraqqiyotining umumiy, obyektiv xarakterga ega bo'lgan qonunidir;
- metafizik inkordan tubdan farq qiladi;
- dialektik inkorning mohiyatini ifodalaydi;
- yangi sifat bilan eski sifat o'rtasidagi aloqadorlikni aks ettiradi;
- yangi sifat eski sifatning qonuniy merosxo'ri ekanligini ifodalaydi;
- inkorni inkor taraqqiyotning aylanma yo'llar bilan quyidan yuqoriga ko'tarilib borishini, yangilik g'alabasini aks ettiradi;
- inkorni inkor yangining yengilmasligi, uning ruhi bilan yashashni o'rgatadi;
- inkorni inkor olamni bilishda muhim metodologik ahamiyatga ega.

Qonunlar tizimini taraqqiyotning ifodasi bo'lgan kategoriyalar mazmunan to'ldiradi, turli tomondan ularga aniqlik kiritadi. Kategoriyalarni o'rganishda ularni uch toifaga bo'lish mumkin:

- umumfalsafiy kategoriyalar;
- taraqqiyot va o'zaro aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar;
- ijtimoiy falsafa kategoriyalari.

Umumfalsafiy kategoriyalar o'zining umumiyligi bilan xarakterlanadi, masalan, materiya, borliq, harakat, miqdor, sifat, ziddiyat, inkor, qarama-qarshilik, qonun, qonuniyat va h.k. Bu haqda yuqorida aytib o'tildi. Ijtimoiy falsafa kategoriyalari esa jamiyat taraqqiyoti bilan aloqador narsa-hodsalarning eng umumiy xususiyatlarini ifodalovchi tushunchalardir: ijtimoiy borliq, ishlab chiqarish, shaxs, qadriyat va x.k.

Taraqqiyotning falsafiy g'oyasi bilan bog'liq kategoriyalar ichida juft kategoriyalarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Ularning ba'zi birlarini qarab chiqamiz.

3. Falsafiy kategoriyalar mohiyati va xususiyati. Olamdagi umumiy aloqadorlikni ifodalovchi kategoriyalar: ayrimlik, xususiylik va umumiylik, mohiyat va hodisa, qonuniyat.

Taraqqiyot va o'zaro bog'lanishlarning asosiy bo'lmagan qonunlari ham bor. Ularni odatda **kategoriyalar** deb yuritiladi. Ular **juft kategoriyalardir**. Kategoriyalarning o'zaro qonuniy bog'lanishlarini ham Hegel ochgan.

Har bir fanning kategoriyasi bo'lganidek, falsafa fanining ham kategoriyalari mavjud. Kategoriya deb buyum va hodisalarning eng muhim va eng umumiy xossalari, tomonlari va munosabatlarini aks ettiruvchi tushunchalarga aytiladi.

Kategoriyalar toq, juft yoki hamnisbat bo'lishi mumkin. Toqkategoriyalar: borliq, substansiya, materiya, ong, harakat va boshqalar. **Hamnisbat kategoriyalar:** ayrimlik, xususiylik va umumiylik, sistema, struktura va element.

Juft kategoriyalar: ayrimlik va umumiylik; sabab va oqibat; mazmun va shakl; zaruriyat va tasodif; mohiyat va hodisa; qism va butun; imkoniyat va voqelik.

Gegel "Mantiq fani" asarida asosiy qonun va kategoriyalarni ta'riflagan. Uningcha, dialektika (taraqqiyot to'g'risidagi ta'limot), mantiq va bilish nazariyasi bir-biriga mos tushunchalardir.

Taraqqiyotning falsafiy mazmunini, mohiyatini ochishda unga zid bo'lgan bir qator tushunchalar ma'nosini bilib olish lozim. Metafizika, eklektika, dogmatizm, indeterminizm, sofistika, regress ana shunday tushunchalardan hisoblanadi.

Dogmatizm – aqidaparastlik demakdir. U bir xil andozada qotib qolgan qoidalarga suyanadi, yangilanishni, ijodiylikni inkor etadi. Haqiqat sharoit, o'rin va vaqtga bog'liq degan qoidaga amal qilmaydi.

Eklektika – bir-birini inkor qiladigan tuturiqsiz fikrlarni sun'iy ravishda birlashtiradigan nuqtai nazar, turli qarashlarni bir-biriga aralashtirib yuborish usulidir. **Indeterminizm** hodisalar o'rtasidagi sababiyatning qonuniy ekanligini rad etadi. Boshqacha aytganda, sababiy qonuniyatning obyektivligini asoslab beruvchi **determinizm**ning aksidir. **Sofistika** – eng qadimgi soxta munozara yuritish sanoati bo'lib, tinglovchini adashtiradigan, haqiqatni yolg'on, yolg'onni haqiqat deb e'lon qiladigan usuldir. Bu haqda oldingi ma'ruzalarda aytib o'tildi. **Regress** - taraqqiyotning yuqori bosqichidan quyi bosqichiga qarab qaytishi bo'lsa, **progress** taraqqiyotning quyidan yuqorilab borishini bildiradi.

Mazmun va shakl. Har bir narsa-hodisa o'z mazmuni va shakliga ega. Mazmun deb narsa va hodisalarni tashkil etuchi unsurlarning muayyan tarzda tartibga solingan yig'indisiga aytiladi. Mazmun shaklda ifodalanadi. Shakl mazmunning ichki tashkil topishi, namoyon bo'lish uslubidir. Mazmun va shakl o'zaro bog'langan. Mazmun tez o'zgaradi, shakl-sekin. Shakl mazmunning rivojiga keng yo'l ochib beradi, ammo ular bir-biriga mos kelmay qolishi ham mumkin. Shunda eski shakl ulotiriladi, mazmun yangilanadi.

Mazmun va shakl o'rtasidagi dialektik o'zaro aloqa quyidagiomillar bilan belgilanadi.

1. Mazmun va shakl bir-biri bilan uzviy bog'liq. Amalda shaklsiz mazmun va mazmunsiz shakl hech qachon va hech qayerda mavjud emas. Shaklni mazmundan

ajratishga, shakl mustaqil ahamiyatga ega ekanligini isbotlashga urinishlar formalizmga olib keladi.

2. Mazmun va shaklning birligida mazmun yetakchilik qiladi. Mazmunning o'zgarishi doim shaklning o'zgarishiga sabab bo'ladi. Qandaydir tashqi kuch emas, balki aynan mazmun o'zini shakllantiradi. Misol uchun, fanni rivojlantirish, yangi qonunlarni kashf etish, obyektiv haqiqatlarning tagiga yetish mazkur yangi qonunlar mazmunini rasmiylashtiruvchi tegishli yangicha tasavvurlar, formulalar, nazariyalarni talab qiladi.

3. Mazmun va shaklning birligi mazmunga nisbatan shaklning nisbatan mustaqilligi, faolligini nazarda tutadi. Shaklning nisbatan mustaqilligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

a) rivojlanishda shaklning mazmundan oqsashida. Mazmun hech qachon bir darajada turmaydi. U o'zgaradi. Shakl ham o'zgarishsiz qolmaydi. Ammo mazmun bilan taqqoslaganda shakl barqarorroq, turg'unroqdir. Bu hol shu bilan izohlanadiki, mazmun o'z harakatiga ega bo'ladi, shakl va mazmun bilan belgilanadi. Mazmundan farqli o'laroq, shakl hodisaning turg'unroq tomoni sifatida amal qiladi. U muqarrar tarzda o'z mazmunidan ortda qoladi;

b) shaklning mazmuniga aks ta'sirida. Bu ta'sir ikki yoqlama: shakl yo mazmunning o'zgarishiga ko'maklashadi, yo unga monelik qiladi. Albatta, agar shakl mazmunning o'zgarishiga muvofiq bo'lsa, u mazmun jadal sur'atlarda rivojlanishiga zamin yaratadi. Agar ularning o'rtasida ziddiyat tug'ilsa, mazmun lozim darajada rivojlana olmaydi, chunki unga eski shakl xalaqit beradi. Shu sababli ertami-kechmi ziddiyatni yechish vaqti keladi. Yangi mazmunga muvofiq yangi shaklyaratiladi. Shunday qilib, mazmun va shakl o'rtasidagi ziddiyat narsalar va hodisalarning o'zgarish, ularning boshqa narsalar va hodisalarga aylanish sabablaridan biri hisoblanadi.

Mazmun va shakl kategoriyalari ham nisbat kategoriyalari bo'lgan struktura, sistema va element kategoriyalari bilan ham bog'langan. Shakl struktura kategoriyasi orqali yanada rivojlantiriladi. Struktura yaxlit bir butunlik tarkibiga kiruvchi elementlarning nisbiy barqaror bog'lanishining uslidir. Struktura narsalarning barqarorligini, sifat muayyanligini, doimiyligini bildiradi. Agar obyekt o'zaro bog'langan va o'zaro ta'sir etuvchi qism hamda unsurlardan iborat bo'lsa, unga sistema sifatida qarash mumkin.

Sistema ichdan yoki sirdan tartibga solingan ko'pdan-ko'p o'zaro bog'langan elementlar majmuasidir. Sistema element va strukturadan tashkil topadi.

Element murakkab narsa, hodisa, jarayonlarning bundan boshqa bo'linmas komponentlari – tarkibiy qismlaridir. Sistemaning ichki jihatdan tartibga solinganligi uning elementlari o'rtasidagi aloqalar, o'zaro ta'sirlar, qonunlarning majmuasida ifodalanadi. Har bir qonun hodisalar o'rtasidagi aloqalarning biror

tipini yoki tartibini ifodalaydi. Masalan, o‘simliklar sistemasi, quyosh sistemasi, xalq xo‘jaligi sistemasi, oliy asab sistemasi, oliy ta‘lim sistemasi.

Butun va qism. O‘zaro bog‘langan soddaroq narsalardan tashkil topadigan har qanday predmetning murakkab tuzilishini ifodalovchi falsafiy kategoriyalarning ayrim nisbatan ajralmas majmuani tashkil etadi. Predmetni (butunni) tashkil etuvchi narsalar uning qismlari hisoblanadi. Butunni tashkil etuvchi qismlarni birlashtiradigan bog‘lanish predmetga yaxlitlik baxsh etadi, ya‘ni butunga xos bo‘lgan, lekin uni tashkil etuvchi qismlarga ularning tarqoqlik holatiga xos bo‘lmagan integrativ xossalar va qonuniyatlar paydo bo‘lishiga olib keladi. Binobarin, butun o‘zini tashkil etuvchi qismlarning birligidir. U o‘z qismlarining o‘zaro aloqasi tufayli mavjud bo‘lib, bu aloqaning barqarorligi mazkur butunning tuzilishida o‘z ifodasini topadi.

Butun va qism kategoriyalarini sistema, struktura, element kategoriyalari to‘ldiradi va rivojlantiradi. Sistema (tizim) tushunchasi qadimgi yunon falsafasida sistema (tizim) tushunchasi borliqning tartiblilik va yaxlitligi sifatida tavsiflangan. Hozirgi talqinda sistema muayyan yaxlitlikni tashkil etuvchi qonuniy munosabatlar va aloqalarda bo‘lgan elementlarning organik to‘plami sifatida tavsiflanadi. Sistema (yunon. systema – birlashtirish, yaratish) – bir-birining o‘rtasida qonuniy bog‘lanish yoki o‘zaro aloqa mavjud bo‘lgan muayyan elementlar yig‘indisi. Har qanday sistemaning strukturasi avvalo uning tarkibiy elementlariga bog‘liq bo‘ladi. O‘z navbatida, elementlarning xossalari ham ko‘p jihatdan o‘zlari hosil qilgan sistemaning strukturasi bilan belgilanadi. Sistema va element tushunchalari butun va qism kategoriyalariga yaqin turadi. Ammo ular ayniy tushunchalar emas. Xususan, qism bo‘linadi, element – sistemaning boshqa qismlarga ajralmaydigan komponenti hisoblanadi. Shuningdek, sistema butun bilan ham solishtirilishi mumkin va xuddi butun kabi, qismlarning aloqadorligi, tartiblilik va uyushqoqligi bilan tavsiflanadi. Ammo butunni o‘rganishda uning o‘ziga xos xususiyatini, sifat jihatidan muayyanligini aniqlash vazifasi birinchi o‘ringa chiqadi. Sistemali yondashuv sistemalarning sifat jihatidan o‘ziga xosligidan qat’iy nazar, ular xulq-atvorining umumiy tamoyillari va qonunlarini aniqlashni nazarda tutadi. Ayni shu sababli sistemalar juda keng miqyosda qo‘llaniladi.

Element – (lot. elementum – birlamchi modda) – butunning nisbatan bo‘linmas qismi. Qism tushunchasi o‘z hajmiga ko‘ra “element” tushunchasidan kengroq, chunki bu har qanday qism emas, balki nisbatan bo‘linmas qism. Bunda “qism” butun tushunchasi bilan, “element” esa –struktura tushunchasi bilan munosabatga kirishadi. Element narsaning boshqa bo‘linmaydigan zarrasini anglatuvchi kategoriya. Xususan, modda atomlardan tashkil topadi va atomlar moddaning elementlari hisoblanadi.

Struktura – (lot. struktura – tuzilish, joylashuv, tartib) narsalar va hodisalarning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi qonuniy aloqa usuli. Struktura sistemaning tuzilishi va ichki shakli, mazkur Sistema elementlari o‘rtasidagi barqaror o‘zaro aloqalarning birligi.

Ayrimlik va umumiylik. Ayrimlik deb alohida narsa, hodisalarga xos bo‘lgan nodir belgi, tomon, xususiyatlarni aks ettiruvchi tushunchalarga aytiladi. Masalan, Farg‘ona davlat universiteti – tushunchasida ayrimlik va umumiylik mavjud. Farg‘onadagi oliygoh ekanligi uning ayrimligi, universitet ekanligi umumiyliigi. Daraxt – umumiylik, olma daraxti – ayrimlik. Umumiylik deb bir guruh, doiraga kiradigan narsa va hodisalarga xos bo‘lgan takrorlanadigan muhim tomonlar va belgilarga aytiladi.

Umumiylik bilan ayrimlik o‘rtasida xususiylik mavjud. Xususiylik buyumlarning o‘ziga xos tomonlarini eks ettiradi. Masalan, yong‘oq daraxti – ayrimlik, mevali daraxt – xususiylik, daraxt – umumiylik. Yoki bug‘doy – ayrimlik, don – xususiylik, o‘simlik – umumiylik.

4. Narsa va hodisalar o‘rtasidagi sababli bog‘lanish (determinizm)ni anglashda imkon yaratuvchi kategoriyalar: sabab va oqibat, zaruriyat va tasodif, imkoniyat va voqelik.

Sabab va oqibat. Falsafiy tamoyillar ichida determinizm tamoyili muhim qonuniyatni ifodalashi haqida yuqorida qayd etildi.(determinizm lotincha-belgilamoq). Determinizm – sababiyat qonuniy xarakterga ega ekanligi, barcha hodisalarning umumiy, qonuniyatli aloqadorligi, sababiy o‘zaro bog‘langanligi haqidagi ta’limot. Indeterminizm sababiy bog‘lanishlarning qonuniy xarakterga ega ekanligini inkor qiladigan nuqtai nazar. Izchil determinizm sababiyatning obyektiv ekanligini tan oladi.

Sababiyat tushunchasi sabab va oqibat bog‘lanishini ifodalaydi. Hozirgi zamon fanlari borliqning mohiyatini o‘rganib, hodisalarning sababiy bog‘langanligini asoslamoda. Olamning paydo bo‘lishi, hodisalarning rivojlanishi va bir shakldan ikkinchi shaklga o‘tishining obyektiv sabablari borligini isbotlamoda. Sababsiz hodisa bo‘lmaydi, har bir o‘zgarishning o‘z sababi bor.

Sabab nima? Sabab deb, biror natijani yuzaga keltiradigan hodisaga aytiladi. Sabab ta’sirida oqibat kelib chiqadi. Oqibat sabab ta’sirida yuzaga kelgan natijadir. Bir hodisa ikkinchisini yuzaga chiqaradi, tug‘diradi. Masalan: o‘zbek xalqining uzoq davrlardan buyon Vatan ozodligi uchun olib borgan goh oshkora, goh yashirin kurashlari **sababli** mustaqillik qo‘lga kiritildi – **oqibat**.

Hukumatning to‘g‘ri siyosati – sabab, oqibat sifatida fuqarolarning bahamjihatligi ta’minlanmoda. Sababni bahonadan farq qilish kerak. Bahona natijani keltirib chiqaruvchi sabab emas. Bahona sababning yuzaga chiqishi, namoyon bo‘lishida ishtirok etuvchi tasodifiy hodisa. Masalan, Shekspirning

“Otello” fojeasidagi Dezdemona o‘ldirilishining sababi boshqa, bahonasi boshqa. Bahona ro‘molcha voqeasi. Sabab – amal, martaba uchun olib borilgan kurashdir.

Sabab va oqibat uzviy bog‘langan. Sabab oqibatni keltirib chiqaradi, oqibat sababsiz sodir bo‘lmaydi.

Sabab va oqibat bog‘lanishining muhim metodogik ahamiyati bor. Meditsinada kasallik sababini aniqlash, kasallikni davolashga, sog‘ayish oqibatga olib keladi. Jamiyatda ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi – sabab, hayot farovonligiga erishish – oqibat, oiladagi urush-janjal – sabab, ro‘zg‘ordan baraka ketishi – oqibat.

Zaruriyat va tasodif. Zaruriyat sabab ta‘sirida oqibatning izchillik bilan yuzaga chiqishidir. Zaruriyat hodisalarning ichki mohiyatidan kelib chiqadi. Tasodif – zaruriyatning teskarisi. U mazkur hodisaning mohiyatida emas, u zaruriyatga qo‘shimcha sifatida namoyon bo‘ladi.

Tasodiflar xilma-xil bo‘ladi: ijobiy va salbiy tasodiflar. Ijobiy tasodiflar tabiatda qazilma boyliklarning topilishi, radioaktiv elementlarning kashf etilishi va boshqalar. Jamiyatda iste‘dodli shaxslarning el-yurtga boshchilik qilishi, rahnamo bo‘lishi, tarixiy burilishlarning aniq bir sanaga to‘g‘ri kelishi va h.k. Tafakkurda muayyan qonunlarning ochilishi, muayyan tarixiy shaxslarning bunga muyassar bo‘lishi va h.k.

Salbiy tasodiflar: tabiatda vulqonlarning otilib chiqishi, biror sanaga to‘g‘ri kelishi, do‘l yog‘ishi, yong‘inlar, to‘fonlar, zilzila va x.k. Jamiyatda qirg‘in urushlar, isteododli shaxslarning fojeali halokati, qobiliyatsiz shaxsning yurtga bosh bo‘lishi va h.k.

Zaruriyat va tasodif ilm, fan oldiga qator masalalarni ko‘ndalang qilib qo‘yadi. Fanning vazifasi ijobiy tasodiflarni o‘rganish, qonuniyatni aniqlash, ularni zaruriyatga aylantirish; salbiy tasodiflarni avvaldan payqash, ularni bartaraf etishdan iborat.

Mohiyat va hodisa. Inson kundalik hayotida minglab turli tuman hodisalarga duch keladi. Masalan, ertalab uydan tashqari chiqsangiz, yer sathining xo‘l bo‘lganligini, daraxtlarda mayda suv zarrachalarini yaltirab turganini ko‘rasiz. Bu hodisa bo‘lib, uning mohiyati kechasi yomg‘ir yoqqanligidir. Biror joyda quyuc tutun buralib chiqayotganini ko‘rasiz. Bu hodisa bo‘lib, mohiyati esa yong‘indir.

Hodisa mohiyatning sezgilar yordamida bilish mumkin bo‘lgan yuzasida yashovchi belgi va xususiyatlaridir. Hodisada mohiyat yashiringan bo‘ladi. Mohiyat esa narsa-hodisalarning mazmunini tashkil etuvchi ichki, zaruriy, barqaror bog‘lanishlar majmuidir. Masalan, istiqloqlarning mohiyati – millatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-g‘oyaviy, madaniy-ma‘naviy mustaqilligidir. Fuqarolik jamiyati va huquqiy-demokratik davlatning mohiyati – xalq irodasi, erkin-emin saylovlarda va davlatni boshqarishdagi ishtirokidir.

Mohiyat va hodisa aloqasi shundayki, hodisa mohiyatli, mohiyat hodisalidir. Mohiyat hodisada ifodalanadi. Ammo hamma vaqtda ham hodisa va mohiyat bir-biriga mos tushmasligi mumkin. Hodisa yuzada yashaydi, uni payqash oson, mohiyat yashirin bo'ladi, shuning uchun uni ochish va bilish qiyin. Hodisa mohiyatga qaraganda xilma-xil va o'zgaruvchan bo'ladi. Mohiyat turg'unroq, nisbiy barqarordir. Ammo u ham o'zgarib turadi. Masalan, odamning kiyinishi, tashqi ko'rinishi uning mohiyatini ifodalamasligi, aldashi ham mumkin. Shunga qaramay odamning mohiyati uning xatti-harakati, yurishi, kiyinishi, do'stlar davrasida namoyon bo'ladi. «Sen do'stlaringning kimligini ayt, men sening kimligingni aytib beraman», degan maqol mohiyatning hodisada namoyon bo'lishini yaqqol ko'rsatadi. Mohiyat narsani narsa, buyumni buyum qilib turgan narsa, mohiyat o'zgarsa buyum ham o'zgaradi.

Fanning vazifasi mohiyatni ochishdan iborat. Bilim hodisani o'rganishdan boshlanadi, so'ng mohiyat bilib olinadi. Birinchi tartibdagi mohiyatdan ikkinchi tartibdagi mohiyat bilanborish tufayli bilim chuqurlashadi. Mohiyatni bilish narsa, jarayonning paydo bo'lishi, rivojlanishi sababini, uning muhim xususiyatlarini bilib olishga yordam beradi.

Imkoniyat va voqelik. Imkoniyat yuzaga chiqmagan voqelikdir. Voqelik yuzaga chiqqan imkoniyatdir. Voqelik mavjud hodisadir. Imkoniyat mavhum yoki real bo'ladi. Mavhum imkoniyatning voqelikka aylanishi uchun shart-sharoit bo'lmaydi. Keksalarni yoshartirish – hozircha mavhum imkoniyatdir.

Real imkoniyat zarur shart-sharoitda voqelikka aylanadi. Bunda odam omili, ilm-fanning roli ham katta. Mustaqil respublikamiz gullab- yashnashi uchun real imkoniyatga ega. Yurtimiz boyliklari, odamlari, fan-texnika, istiqlol afzalliklari real imkoniyat bo'lib, ularni tadbirkorlik bilan ishga solinsa, kelajagi buyuk davlat g'oyasi voqelikka aylanadi.

Respublika mustaqilligini mustahkamlashda taraqqiyot nazariyasining ahamiyati beqiyos kattadir. Bunda sinergetika ta'limotidan hamda sharqona falsafiy ta'limotlardan foydalanish fan va amaliyot ishi muhim vazifadir.

Hozirgi zamon falsafasi bir qator muammolarga yangicha tafakkur andozasi nuqtai-nazardan baho bermoqda. Inson, uning bilimi, mohiyati, qadriyat, borliq kabi masalalarga yangicha qarash vujudga kelmoqda. Shu bilan birga murosa falsafasi deb yurgizilayotgan sinergetika haqidagi qarashlar ham katta qiziqish tug'dirayotir. Bu tushuncha XX asrning 70-yillarida ilmiy taomilga kirib keldi. U dastlabki davrda fizika, ximiya, biologiyaga oid hodisalardagi, keyinchalik iqtisodiy-texnikaviy, ijtimoiy jarayonlardagi o'z-o'zini tashkil qilish, o'z-o'zini boshqarish, tartibsizlik kabi hodisalarning umumiy yo'nalishi qonuniyatlarini o'rganishga qaratilgan edi. Bu ta'limotni belgiyali fizik Ilya Prigojin, so'ngra nemis fizigi Genrix Xakin va boshqa olimlar yaratgan. Hozirgi vaqtda unga

qiziqish kuchaydi. Sinergetika va dialektikaning munosabati hozirgi zamonning eng muhim muammosi sifatida maydonga chiqayotir. Falsafa sohasida fikr yuritayotgan olimlar dialektika ilmiga nisbatan muqobil nazariyalar yaratish sohasida ish olib bormoqdalar. Sinergetika fan va ijtimoiy taraqqiyot omuxтали(sintezi) natijasida vujudga keldi. U yangi tafakkur usuli sifatida talqin qilinmoqda.

Sinergetika dialektikaning qonunlarini taraqqiyotning doimiy, universal qonuni deb qaramaydi.

Sinergetika hozirgi tamaddun sivilizatsiya taraqqiyotiga xos bosh tamoyil – uzluksiz evolyutsiya, bosqichma-bosqich rivojlanish koevolyutsiya, muvozanatsozlik, beqarorlikning barqaror sifat kasb etishi kabi qonunlarni sharhlab berishga harakat qiladi.

Sinergetika borliqni ham barqarorlik, ham beqarorlikning o‘zaro mushtarakligidan iborat, deb qaramoqda. Davlat tizimi tartib qonun ustivorligini talab qilsa, erkin bozor tartibsizlik – narx-navoning erkinlashuvini taqozo etadi.

Sinergetika erkinlik va zaruriyat kategoriyalariga ham yangicha yondashadi. Shu asosda “erkin fikrlash” degan tushunchani yangicha tahlil qilish imkonini beradi. Inson zaruriyatni anglaydi, shu asosda fikr yuritadi, degan qoidada insonning erkin fikrlashiga yo‘l qo‘yilmaydi. Sinergetikada esa, erkinlikni ma’lum qoida va andozalardan xalos bo‘lish erkinligi tarzida ham tushunadi. Shunday qilib, falsafiy tafakkurning yangi usuli sinergetikaga qiziqish ortib bormoqda.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Taraqqiyot nima?
2. Miqdor nima? Sifat-chi?
3. Inkori nima? Inkorni inkor-chi?
4. Ziddiyatlarni qanday tushunasiz?
5. Kategoriya tushunchasini izohlang.
6. Hozirgi davrda rivojlanish va o‘zaro aloqadorlik tamoyillari qanday namoyon bo‘lmoqda?

6-mavzu: Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari

Reja:

1. Jamiyat tushunchasi. Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi.
2. Kishilar birligining tarixiy shakllari. Oila, urug‘, qabila, elat, millat. Jamiyat – doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm.
3. Jamiyatda ro‘y berayotgan demokratik o‘zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.
4. Insoniyat istiqboli va global muammolar. O‘zbekistonda global muammo – Orol fojiasi.

Tayanch iboralar: jamiyat, ijtimoiy munosabat, ijtimoiy uyushma, davlat, taraqqiyot, milliy davlatchilik, taraqqiyotning o‘zbek modeli, jamiyat tarkibi, fuqarolik jamiyati, oila, odam, inson, shaxs, inson manfaatlari, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o‘tish, fuqarolik jamiyati, aksiologiya, qadriyatlar, global muammolar.

MAVZUNING MAQSADI: jamiyat to‘g‘risidagi ilg‘or ilmiy qarashlarni umumlashtirish, demokratik jamiyatning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida bilimlar berish, inson kamoloti omili, qadriyatlar va global muammolar mazmunini yoritish.

1.Jamiyat tushunchasi. Jamiyatga ilmiy-falsafiy yondashishning asosiy tomonlari. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi.

Jamiyat – tabiatning bir qismi, odamlar uyushmasining maxsus shakli, kishilar o‘rtasida amal qiladigan juda ko‘plab munosabatlar yig‘indisi, degan turlicha ta‘riflar ham bor. Jamiyat muttasil ravishda rivojlanuvchi, takomillashib boruvchi murakkab tizimdir. Har bir yangi davrda jamiyat mohiyatini bilish zarurati vujudga keladi.

Jamiyat moddiy va ma‘naviy omillar birligidan iborat. Hozirga qadar adabiyotlarda moddiy va ma‘naviy hayot bir-biridan keskin farqlanar, moddiy hayotni tadqiq etishga ko‘proq e‘tibor berilardi. Holbuki, jamiyat mohiyati uni tashkil etuvchi inson mohiyati bilan uzviy bog‘liq. Xuddi inson tanasini uning ruhidan ajratib bo‘lmagani singari, jamiyatning moddiy va ma‘naviy jihatlarini ham bir-biridan ajratish va ularning birini ikkinchisidan ustun qo‘yish mantiqqa ziddir.

Dunyoviy qarashlarga ko‘ra, odamlar o‘zlarining moddiy va ma‘naviy

extiyojlarini qondirish uchun birgalikda yashashga, jamoa bo'lib birlashishga intilgan. Kishilar hayotiy tajriba, aql va tafakkur tufayli jamiyat bo'lib yashashning qulay, afzal va zarurligini tushungan. Bu jarayonda o'zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivojlantirish orqali ma'naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir-biri bilan yaqinlashtirgan, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish imkonini bergan.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyushtirishning tarixiy shakllari: oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o'rtasida amal qiladigan axloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy va boshqa munosabatlarning barchasi bir so'z bilan ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qoldirishga yordam beradi. Ular mohiyatan inson va jamiyat mavjudligining zarur sharti hisoblanadi. Masalan, oila, davlat, ta'lim-tarbiya, mahalla, vatan kabi qadriyatlar inson va jamiyat o'z mohiyatini yo'qotadi.

Insonning moddiy ehtiyojlari oziq-ovqatlar, kiyim-kechak, uy-joy, transport vositalari, o'zini himoyalash, zurriyot qoldirish kabilardan iboratdir. Ma'naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o'zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, sanoat, g'oya, mafkura, go'zallik, ma'naviy kamolot yo'lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyojlarni madaniy shakllarda qondirishida yaqqol namoyon bo'ladi. Inson aqlli mavjudot sifatida moddiy ehtiyojlarini madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma'naviy olamni uyg'unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o'z maqsadlariga mos ravishda o'zgartirishga harakat qiladi. Ilm-fan va texnika insonning ma'naviy va moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Inson yuksak ma'naviyat tufayligina o'z ehtiyojlarini madaniy shakllarda oqilona va to'laroq qondirish imkoniga ega bo'ladi. Mamlakatimizda ma'naviyat masalalariga alohida e'tibor berilayotganining sababi ham ana shunda. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayoti kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari bilan uzviy bog'liq holda vujudga keldi.

Jamiyatning moddiy hayotiga quyidagilar kiradi: kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar; oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i, kommunikatsiya vositalari; moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish; ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlar majmui; moddiy boyliklar, tabiiy zahiralari.

Jamiyatning ma'naviy hayotiga olamni tushunish, jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlar, nazariyalar, ta'limotlar, g'oyalar, mafkura, ijtimoiy ong shakllari, ta'lim-tarbiya, axborot vositalari, madaniyat, ilm-fan muassasalari va boshqalar kiradi. Jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini boshqarish, kishilar

o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solishda turli siyosiy institutlar (davlat, siyosiy partiyalar, tashkilotlar, turli uyushmalar) muhim o'rin tutadi. Jamiyatni boshqarishning siyosiy-huquqiy jihatlari ham muhimdir. Kishilar tamonidan siyosiy va huquqiy bilimlarning chuqur o'zlashtirilishi jamiyatning barqaror yashashi va rivojlanishida alohida o'rin tutadi.

MUAMMOLI VAZIYAT! Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega.

Falsafiy tafakkur tarixida jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xususan, nemis faylasufi Gegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanish sabablarini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, L.Feyerbax din bilan bog'lagan, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlagan. Fransuz mutafakkiri O.Kont jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma'naviy taraqqiyotining uch bosqichi (teologik, metafizik, pozitiv bosqichlar) bilan izohlagan.

Jamiyat taraqqiyoti ko'p bosqichli jarayon ekani to'g'risidagi qarashlar AQSh faylasufi O.Toffler tomonidan ilgari surilgan. Bunday qarashga ko'ra jamiyat o'z taraqqiyotiga binoan, agrar jamiyat, industrial jamiyat, postindustrial jamiyatga ajratilgan. Adabiyotlarda jamiyat taraqqiyoti borasida sivilizatsiyali yondashuv g'oyasi ilgari surilmoqda. Bunday yondashuvga ko'ra har bir xalq o'zining betakror, noyob, o'ziga xos va o'ziga mos turmush tarzini saqlab qolgan holda, boshqa xalqlar tajribalaridan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o'ziga xos modelini yaratadi.

E'TIBOR BERING! Kishilarda yangicha iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm-fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat hayotiga barqarorlik va beqarorlik ham xos. Har bir inson o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish uchun osoyishtalik va tinchlikka muhtoj bo'lgani kabi, jamiyat ham o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ado etishi uchun ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka ehtiyoj sezadi.

Barqarorlik – jamiyat taraqqiyotining tarixiy rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko'rsatish imkoniyatidir. U turg'unlik tushunchasidan keskin farqlanadi. Ijtimoiy-siyosiy turg'unlik tushunchasi

jamiyatdagi mavjud siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy tizimning tanazzuli alomatidir.

Jamiyatda barqarorlik beqarorlik bilan, inqiroz gullab-yashnash bilan almashinib turishi ham mumkin. Jamiyatning ma'naviy, iqtisodiy, siyosiy, huquqiy sohalarida muayyan yutuqlarga erishilgach, ijtimoiy imkoniyatlar ro'yobga chiqarilib bo'lgach, uning bundan keyingi taraqqiyoti yo'lida yangi muammolar tug'iladi va ularni hal etish vazifasi paydo bo'ladi.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan boshqa bir ijtimoiy-siyosiy tuzumga o'tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligining izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o'zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligida, ijtimoiy ideallarning yo'qolishida, g'oya va mafkuraga loqaydlikning kuchayishida, turli jinoiy guruhlarining paydo bo'lishida, ijtimoiy adolat mezonlarining buzilishida, davlat idoralarining aholini boshqarish qobiliyati kuchsizlanishida, turli ziddiyatlarning keskinlashuvida o'z ifodasini topadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va xalqning o'z taraqqiyot yo'lini tanlash huquqiga ega bo'lishi umumiy xavfsizlik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash garovi ekanini ko'rsatdi. O'zbekiston milliy mustaqillikka erishganidan keyin o'z milliy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, o'ziga xos va mos taraqqiyot yo'lini tanlash, rivojlanishning o'zbek modelini yaratish imkoniga ega bo'ldi.

Ijtimoiy rivojlanishning o'zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg'or tajribasiga, milliy davlatchilik tajribalarimizga va xalqimiz mentalitetiga tayanadi.

O'zbek modelining asosiy tamoyillari quyidagilardir: iqtisodning siyosatdan ustuvorligi; davlatning bosh islohotchi ekanligi; qonun ustuvorligi; kuchli ijtimoiy himoyalash; bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo'l bilan o'tish.

O'zbek modelining o'ziga xos xususiyatlari davlatchilik asoslarining, ma'naviy qadriyatlarning tiklanishi, o'zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, milliy mentalitetimizga xos xususiyatlarning tiklanishi va rivojlanishi, demokratik qadriyatlarning rivojlantirilishi, inson huuqlarining kafolatlanishi va boshqalarda o'z ifodasini topmoqda.

2. Kishilar birligining tarixiy shakllari. Oila, urug', qabila, elat, millat. Jamiyat – doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm.

Jamiyat va oila mohiyatan bir-biri bilan uzviy bog'liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o'z aksini topadi. Shu ma'noda, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat aozosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi.

Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining

muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma'naviy-axloqiy muhitning sog'lomligi oilaviy madaniyatga bog'liq. Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Oilada er va xotinniig mavqei, oilaviy munosabatlar xarakteri turli xalqlarda turlichadir. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarining eng ilg'or anoanalarini tiklashga qaratilgandir. Ona va ayol muqaddasligi o'zbekona qadriyatdir. Hadisi sharifda ona va ayolning muqaddasligi to'g'risidagi g'oyalar oilaviy munosabatlarni takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Ulug' mutafakkirlar jamiyatning madaniy darajasi ayolning jamiyat va oiladagi ahvoli, mavqei bilan belgilanishini alohida ta'kidlaganlar. Sog'lom, barkamol avlod tarbiyasi ko'p jihatdan ayolning ma'naviy salohiyati, bilimi, uddaburonligi va erkinligiga bog'liqdir.

Mamlakatimizda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan qator tadbirlar ayolning oila va jamiyatdagi mavqei va rolini kuchaytirishga qaratilgan. Oila muammolarini ilmiy asosda o'rganish va ularni oqilona hal etishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarni takomillashtirishga alohida e'tibor berayotganidan dalolat beradi.

3. Jamiyatda ro'y berayotgan demokratik o'zgarishlar, ularning tarixiy ahamiyati. Jamiyat taraqqiyoti jarayonida inson omilining ortib borishi.

Insonning yaralishi, mohiyati va jamiyatda tutgan o'rni falsafiy muammolar tizimida muhim o'rin tutadi. Turli falsafiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelingan. Shunday bo'lishi tabiiy ham edi, chunki inson mohiyatan ijtimoiy-tarixiy va madaniy mavjudot sifatida har bir yangi tarixiy sharoitda o'zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi. Suqrotning "o'zligingni bil" degan hikmatli so'zi har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi.

Inson haqidagi ta'limotni rivojlantirishga antik materialistlar Demokrit, Lukretsiya Kar va boshqalar salmoqli hissa qo'shdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, inson hayotining maqsadi-ongli lazzatlanish, azob-uqubatlarga chap berish, ruhning sokin va tinch holatiga erishishdir. Shu sababli ular falsafaning asosiy vazifasi insonga baxtli bo'lish yo'lini ko'rsatishdan iborat deb hisoblangan. Ularning fikricha, jon ayrim atomlardan tashkil topgan va o'limga mahkum, tana halokatga uchragandan so'ng atomlar yemiriladi. Inson o'limdan qo'rqmaslik kerak, zero toki u hayot ekan, o'lim yo'q, o'lim kelganda esa inson yo'q bo'ladi.

Umuman olganda antik falsafa "inson nima?" degan savolga javob bermadi, balki ana shu savolni kun tartibiga qo'ydi. O'rta asr falsafasi asosan diniy falsafa o'laroq, insonni unda ikki negiz: oliy (ruh) va past (tan) bir-biri bilan uzluksiz

kurash olib boruvchi mavjudot sifatida qaradi. O'rta asr Yevropa diniy falsafasining "otasi" Avreliy Avgustin Avliyo insonning mohiyatini aynan ruh va faqat u tashkil etadi, deb hisoblaydi.

Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Ulug' mutasavvuf Abdulxoliq G'ijduvoni insonni "kichik olam" deb hisoblagan. Falsafada bahs yuritiladigan barcha masalalar inson muammosiga bevosita dahldordir. Umuman olganda, insonga daxldor bo'lmasa, unga foyda keltirmasa, jamiyatning og'irini yengil qilmasa, unday fanning keragi bormikan? Shu ma'noda, inson, avvalo o'zi uchun zarur bo'lgan fanlarni, ilmlar va bilimlar tizimini yaratgan. Tabiat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalari inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo'lish shakllaridir. Ularning barchasi inson tabiati va mohiyati bilan bog'liqdir.

Sharq musulmon fasafasi doirasida inson muammosiga ikki xil yondashuvni ko'rish mumkin. Ulardan biri ko'proq taqdir haqidagi islom aqidasi suyanadi. Inson taqdiri oldindan belgilab qo'yilgan, shu sababli insonning qo'ldan keladigan birdan-bir ish - bu o'zini ana shu taqdirda bog'lab qo'yilganidek tutish. Biroq Forobiy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirza Bedil, XIX asr boshlaridagi ma'rifatparvarlar – Ahmad Donish, Muqimiy, Furqat, Zavqiy, Sattorxon Abdullg'afforov va boshqalar inson haqidagi gumanistik, ma'rifatparvar va demokratik konsepsiyaning shakllanishiga katta hissa qo'shdilar. Ularning ijodlari uchun insonga, uning kuchi, aqli, irodasiga ishonch xosdir, ular ommani ma'rifatli va bilimli bo'lishiga da'vat etdilar.

Inson mohiyatini falsafiy jihatdan chuqurroq tahlil qilishda shaxs, individ, individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir-biridan farqlash muhimdir. Shaxs sotsial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Inson dunyoga kelgan vaqtida jamiyat, siyosiy tuzum, madaniyat, ishlab chikarish, oila, ommaviy axborot vositalari, mafkura kabi ijtimoiy tuzilmalar mavjud bo'ladi.

Inson ta'lim-tarbiya, mehnat, muloqot jarayonida ijtimoiy tajriba, bilim, turli munosabatlar, axloqiy me'yorlar, siyosiy g'oya, milliy mafkura kabi omillar ta'sirida yashaydi, ularni o'zlashtiradi va shu jarayonda ijtimoiylashadi, ya'ni shaxs bo'lib shakllanadi. Natijada insonda yangicha fazilat va sifatlarni paydo bo'ladi. U yaratuvchan mavjudot sifatida faoliyat ko'rsata boshlaydi.

O'zbekistonda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qoldi. Mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar o'z oldiga ana shunday shaxsni shakllantirishni maqsad qilib qo'ydi.

Falsafada shaxs muammosi – bu, eng avvalo, insonning mohiyati, uning dunyodagi, tarixdagi va jamiyatdagi o'rni muammosidir. Muayyan ijtimoiy

munosabatlar muayyan tarixiy tipdagi shaxsning shakllanish jarayonida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Inson tarixning yaratuvchisi sifatida tabiat taraqqiyotidagi uzluksizlikni ta'minlaydi. U o'z bilimi, tajribasi va yutuqlarini kelgusi avlodlarga meros qilib qoldiradi; tabiat va jamiyatni qayta quradi va takomillashtiradi. Inson o'z aqli tufayli butun koinot, tabiat taraqqiyotida buyuk yaratuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi, o'z tarixini yaratadi, uni avaylab-asraydi. Inson faoliyati va tajribalari jamiyatning takomillashuvi va kishilarning har tomonlama kamol topishi uchun manba bo'lib xizmat qiladi. Tabiat va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati, yaratuvchilik mohiyati, oliy mavjudot ekani, vorislikning davomiyligini ta'minlashi, barcha ijobiy va foydali yutuqlarni saqlashi va targ'ib etishi kabi xususiyati va qobiliyati tufayli inson muqaddas va tabarruk qadriyat hisoblanadi.

Barkamol insonni tarbiyalash, voyaga yetkazish haqida musulmon sharqi axloqi tarixida inson hayoti uchun dasturularial, qo'llanma vazifasini o'tagan ko'p pandnomalar, xalq kitoblari mavjud bo'lgan. Shulardan ba'zilarini sanab o'tamiz. Chunonchi, Kaykovusning "Qobusnoma", Sa'diyning "Guliston", "Bo'ston", Amir Temurning "Temur tuzuklari", Abdurahmon Jomiyning "Bahoriston", Alisher Navoiyning "Mahbul qulub", Xusayn Voiz Koshifiyning "Axloqi muhsiniy" va boshqalarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu asarlarning ko'pchiligida odil shoh va adolat, halollik, soflik, poklik, kabi insonning sharqona fazilatlari berilgan.

Alisher Navoiyning "Nasoyimul muhabbat" asarida komil insonga xos xususiyatlar, uning sharqona fazilatlari sanab o'tilgan. Bular qatoriga ulug' mutaffakir quyidagilarni kiritadi: tavba, xalol luqma bilan qanoatlanish, o'z kasbidan topib kun o'tkazish, shariatga rioya etish, barchadan o'zini kam deb bilish, xatto farzandlari, xizmatkorlariga qo'pollik qilmaslik, chuchuk tilli bo'lish-yaxshi, muloyim tilli bo'lish, rahmdil bo'lish, saxiy bo'lish, mard bo'lish, xalimlik, xushxulq bo'lish. Rozi-rizolilik bilan kun o'tkazish, sabrli bo'lish, sadoqatli, vafoli bo'lish, riyozat chekishdan qo'rqmaslik va boshqalar. Komil inson iymon va e'tiqodlilik, halollik va poklikning oliy timsoli. Biz hammamiz shunga intilib yashamog'imiz lozim.

Insonni bilish va uning kelajagini anglash borasida falsafa oldida bir-birini taqozo etuvchi uchta vazifa turadi. Birinchi o'rinda falsafa, insoniyat madaniyati sohasini va turli fanlarning tutash joylarida yangi tushuncha va masalalarni oldinga olib chiqadi; ikkinchidan, falsafa, tom ma'noda, masalani analitik tadqiq etish vazifasini amalga oshiradi; uchinchidan, falsafa metodologik ahamiyat kasb etib, ilmiy bilish va faoliyat ko'rsatish, ularni metodik va mantiqiy shakllarini analiz qiladi. Shuningdek, falsafa qadriyatlar tizimini ifoda etib, insonning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tushuntiradi.

XX asr oxiri – XXI asr boshlariga kelib integratsiya jarayonlari yanada avj oldi, zamonaviy axborot texnologiyalarining bemisil rivoji va yagona jahon axborot maydonining shakllanishi bu jarayonning yangi bosqichga ko‘tarilishiga “Sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi”ga olib keldi.

4. Insoniyat istiqboli va global muammolar. O‘zbekistonda global muammo – Orol fojiasi.

Kishilik jamiyatining kelgusi istiqboli to‘g‘risida jiddiy ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A.Pechchei tomonidan asos solingan “Rim klubi” a‘zolari bo‘lgan J.Forrester, D.Medouz, Ya.Tinbergan, A.King va boshqalar tomonidan tayyorlangan hisobotlarning ilmiy ahamiyati nihoyatda katta. Ularda insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko‘lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zug‘umning mudhish oqibatlari qanday bo‘lishi to‘g‘risida jiddiy mulohazalar yuritiladi. “Rim klubi” a‘zolari tomonidan qilingan bashoratlar ilmiy-falsafiy mazmunga ega bo‘lib, unda asosan tajriba sinovidan o‘tgan bilimlar va mantiq qonunlari va kategoriyalariga suyangan holda insoniyatning kelajagi to‘g‘risida muhim ilmiy xulosalar bayon qilingan. Demak, insoniyat taraqqiyotining kelgusi istiqbolini belgilashdagi eng muhim belgilar sirasiga umumbashariy muammolar tabiatini chuqur anglash, bu muammolarning yechimi umuminsoniy mushtarak manfaatlarini yo‘lida hamjihatlikda qilingan sa‘y-harakatlar ekanini alohida ta’kidlash lozim. Ana shunday misollar anchagina. Masalan, 1955 yil 31 yanvarda Frederiko Jolio Kyuri Nobel mukofoti sovrindori Bertran Rasselga xat orqali murojaat qilib, yadro qurolining juda xavfli tus olayotganligini, bu falokatning oldini olish uchun fan arboblari birgalikda harakat qilishi lozimligini bildiradi. B.Rassel F.Kpyuri taklifini qo‘llab-quvvatlab, bu murojaatga imzo chekuvchi vakillar bir xil siyosiy oqim tarafdorlari bo‘lib qolmasligi, bunda jahondagi barcha kuchlar, har bir xalq, jamiyat vakillari ishtiroki zarurligini ta’kidlaydi. Masalaga bunday yondashish falsafiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab bergan edi. Bu esa ilmiy-siyosiy adabiyotlarda “yangicha tafakkur uslubi” deb atalgan va jahonning eng atoqli olimlari A. Eynshteyn, F. Jolio-Kyuri, M.Born, L.Poling va boshkalar tomonidan imzo qo‘yilgan manifestga asos qilib olingan edi. Natijada 1955 yil 9 iyul kuni B.Rassel tomonidan o‘tkazilgan press-konferensiyada “Rassel-Eynshteyn manifesti” nomi bilan shuhrat qozongan, butun yer yuzi aholisiga, siyosiy va davlat arboblari qaratilgan mashhur chaqiriq e‘lon qilingan. U hozirgi paytda tinchlik va qurolsizlanish uchun kurashuvchi Pagtush harakatini boshlab bergan edi. Manifestda “Biz yangicha fikr qilishga odatlanishimiz kerak. Biz o‘z-o‘zimizdan u yoki bu guruh mamlakatlarning harbiy g‘alabasini ta‘minlash uchun nimalar qilish zarur deb emas, balki yadro halokati va uning

dahshatli oqibatlari qanday bo'lishi mumkinligi to'g'risida insoniyatni ogohlantirish uchun nimalar qilding deb so'rashimiz kerak", - degan so'zlar bor edi.

"Rassel-Eynshteyn manifesti" chop etilganiga ham mana 45 yil o'tdi. Bu vaqt mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish va sinab ko'rish ko'lami bir necha barobar ko'paydi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi o'tgan yarim asr mobaynida qurollanishga 16-18 trl. dollar mablag' sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalar uchun har yiliga 1 trl. dollar miqdorida mablag' ajratilmokda. Bir kunda qurol-yaroqqa ajratilgan mablag' 3,4-3,5 mlrd. dollorni tashkil etmoqda. Taqqoslash uchun quyidagi raqamlarga murojaat qilamiz. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotning bezgakka qarshi kurash tadbirlari uchun bir yilda 28-30 mln. dollar ajratishini, Xalqaro nufuzli tashkilot YuNESKOning bir yillik budjeti 950-980 mln. dollar miqdorida ekanligini hisobga olsak, masala oydinlashadi.

Harbiy sanoat o'z domiga tabiatning shunday noyob boyliklarini tortayaptiki, bu sarf-xarajatlar o'sish sur'atining tezligiga qarab beixtiyor o'z kelajagimiz to'g'risida xomush xayollar og'ushida qolmasdan iloj yo'q. Bu soha faqat tabiiy resurslar bilan cheklanib qolmasdan, balki, o'ta kamyob aql egalari, talantli kishilarning aqliy faoliyatini ham o'z izmiga solib, oqibatda, ilmiy-texnika taraqqiyotining insoniyat manfaatiga qaratilgan yo'nalishiga asosiy to'siq bo'lib qolmoqda.

Davrimizning yana bir muhim belgilaridan biri jahon iqtisodiyoti sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kengayib borayotganligidir. Agar hozirgi sur'atda jahon iqtisodiyoti davom etadigan bo'lsa, u vaqtda sanoat va xalq xo'jaligining energiyaga bo'lgan ehtiyoji uchun yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilgi talab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35-40 mlrd., XXI oxiriga borib, 80-85 mlrd. tonnani tashkil etishi taxmin etilmoqda.

Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo'li esa bitta - yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) idan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Yaqin kelajakda rivojlanayotgan mamlakatlarda elektr energiyasi ishlab chiqarishni tez sur'atlar bilan ko'paytirib borish ko'zda tutilmoqda. Butun jahonda ishlab chiqarilgan elektr energiyasining qariyb 34% ana shu mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi. Elektr energiyasining shu qadar tez sur'atlar bilan ishlab chiqarilayotganligi yon-atrofdagi tabiiy va ijtimoiy muhitga ta'sir etmasdan iloji yo'q. Masalan, gigant GESlarning qurilishi o'z navbatida ana shu regionning iqlim

sharoitiga, yon atrofdagi shahar va qishloqlarda xalq xo'jaligining ko'pgina tarmoqlariga salbiy ta'sir o'tkazishi mumkin (masalan, ekin maydonlarining qisqarishi, mavjud maydonlarning sho'rlanishi va ishdan chiqishiga olib kelishi mumkin). Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalari hozirgi davrning yechilishi murakkab muammolariga aylandi. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV blokining ishdan chiqishi natijasida juda katta miqdordagi radiatsiyaning havoga tarqalishi mazkur regionning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo'lib qolishiga sababchi bo'ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodini o'stirish uchun energiyaga bo'lgan ehtiyojni qondirishdan o'zga chora yo'q. Biroq bugungi kunda elektr energiyasini ishlab chiqarish jarayonida mavjud tabiiy muhitga ta'sir darajasini kamaytirgan holda energiyani ko'proq ishlab chiqarish masalasi ko'ndalang bo'lib turibdi. Shuning uchun ham bu muammoni ijtimoiy taraqqiyotning kelajagini belgilab beradigan eng muhim omillardan biri sifatida jahonshumul ahamiyatga molik muammolar sirasiga kiritilishini hayotning o'zi taqozo etmoqda.

XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishlab chiqarilgan ko'mirning 45%, temir rudasining 57%, neftning 76%, tabiiy gazning 80%i keyingi 25 yilga to'g'ri kelar ekan. Ana shunday holatni xom-ashyoning boshqa turlari to'g'risida ham gapirish mumkin. Tahlillarga qaraganda, 90-yillarda ishlab chiqarilgan xom-ashyo miqdori 60-70-yillardagiga qaraganda 1,5-2 barobar ko'paygan. Yer yuzida vujudga kelgan bunday holat, bir tomondan, insoniyatni xom-ashyo resurslari bilan ta'minlash imkoniyatlari, hosildor yerlar va ichimlik suvi manbalarining kamayib borishi, shuningdek boshqa xom-ashyo zahiralarning kamayib ketishi kabi boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqaradi.

Juda ko'p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan qiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ayni shu mamlakatlardan 42-45% km³ hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqava suvlar suv havzalari, ko'l, dengiz, okean suvlarini o'zining zaharli tarkibi bilan bulg'amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suvlariga bo'lgan ehtiyoj dunyo miqyosida asrimizning 90-yillariga nisbatan yana 2,3-2,5 barobar oshdi.

Har yili okeanlarga 12-15 mln. tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to'kilmoqda, shaharlarning kengayishi, sanoat korxonalarini qurish uchun ming-minglab gektar yer maydonlari ajratib berilmoqda, o'rmonlar kesilib yashil yerlar kamaymoqda.

Nihoyatda tez o'sib borayotgan dunyo aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash muammosi keyingi paytlarda jahonning bir qancha mintaqalarida ancha keskinlashdi. Mavjud ma'lumotlarga asosan, dunyo xalqlarining 2/3 qismi doim oziq-ovqat taqchilligi hukm surayotgan mamlakat xalqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqalarda ekiladigan yer maydonlari aholi jon boshiga nisbatan

kamayib, 0,2 g. ni tashkil etmoqda. Holbuki, 1950 yilda bu ko'rsatkich 0,5 g. ni tashkil etgan edi.

Oziq-ovqat zahiralarning o'sishini, bir tomondan, ishlanadigan yer maydonlarini kengaytirish hisobiga, ikkinchi tomondan, ekilayotgan maydonlarning hosildorligini oshirish hisobiga ta'minlash mumkin. Keyingi paytlarda hosildorlikni ko'paytirish ustida juda ko'p ishlar qilinib, 80-yillarning oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishtirilgan mahsulot o'sishining 90% hosildorlikni ko'tarish hisobiga to'g'ri keldi. Ammo, bizga ma'lumki, bunday muvaffaqiyatlarga tabiatga haddan ziyod qilingan qattiq zug'um natijasida erishiladi. Juda ko'p yerlar bunday tazyiqqa dosh bera olmasdan ishdan chiqib boshladi. Bu yerlarni tabiiy holatiga qaytarish uchun imkoniyat qolmadi. Bunday tahlikali holatning sabablarini aholining tabiiy o'sishi nihoyatda tez sur'atlar bilan ko'paygani, ularning ish va oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga bo'lgan intilishi bilan tabiiy muhitning ekologik muvozanatini saqlash uchun yetarli mablag'ni topa olmayotganligidan izlash kerak.

XX asr o'zining bir qator belgilari bilan oldingi barcha davrlardan keskin farq qiladi. Xususan, XX asrni yana "demografik portlash" davridir, degan qarashlar ham keng tarqalgan. Bunda qolgan barcha jahonshumul muammolarni keltirib chiqaruvchi bosh sabablardan biri ham aynan yer yuzida aholining tez suroatlar bilan ko'payishi bilan bevosita bog'liq ekanligi nazarda tutiladi. "Demografik portlash" tushunchasi ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning qisqa bir davrida, muayyan mintaqa yoki mamlakatda va shuningdek, butun yer yuzida tabiiy tug'ilish hisobiga aholi miqdorining nihoyatda tez ko'payishini anglatadi.

Insoniyatning oldida ana shunday xavf borligi to'g'risida dastlab ingliz iqtisodchisi Tomas Robert Maltus (1766-1834) ogohlantirgan edi. U o'zining "Aholishunoslikning qonuniyati to'g'risida tajribalar" nomli kitobida aholining geometrik progressiya bo'yicha ko'payishini, uning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlarning ko'payishi arifmetik progressiya bo'yicha ro'y berishini aytgan edi. Mazkur bu jarayonning oldi olinmasa, yaqin kelajakda, planetar masshtabda, tabiiy muhit berishi mumkin bo'lgan moddiy ne'matlar miqdori bilan juda tez suroatlarda ko'payayotgan dunyo aholisi ehtiyoji o'rtasida ziddiyat vujudga kelishini bashorat qilgan edi.

Bundan 6-8 ming yillar oldin yer yuzida 5 mln. atrofida odamlar istiqomat qilishgan, deb tahmin qilinadi. Bu ko'rsatkich eramizning boshlarida 230 mln., 1-ming yillikning oxiri 2-ming yillik boshlarida, ya'ni Beruniy zamonida 305 mln; 1500 yilda 440 mln; 1800 yilda 952 mln; 1900 yilda 1656 millionni tashkil etgan. XVI asr boshidan XIX asr boshigacha, ya'ni uch asr mobaynida bu ko'rsatkich 174 foizga oshganligini; 1900 yildan to 1999 yilgacha esa bu nisbat sal kam 4 barobar oshganligini kuzatamiz.

1999 yil 13 oktabr kuni Yer yuzi aholisi olti milliardlik dovonni bosib o‘tdi. Fransiya aholisi 56,2 mln. ni, Yer yuzi aholisi salmog‘ining 0,94 foizini, Filippin aholisi ham 65 mln. kishini tashkil etib, jahon aholisidagi salmog‘i (1,05%) bo‘yicha Fransiyadan o‘zib ketdi. Bu borada milliarddan ko‘p aholi yashaydigan Xitoy va shu ko‘rsatkich tomon borayotgan Hindiston alohida o‘rin tutadi. Xullas, bu masala bir mamlakat doirasidan chiqib jahon muammosiga aylandi. U bilan bog‘liq muammolarni hal qilish uchun ham butun jahonda mushtarak faoliyat olib borish zarur.

Insoniyatning kelgusi istiqbolini shubha ostida qoldirayotgan umumbashariy muammolar ko‘lamining kengayib borishi, kishilar tomonidan tabiatga qilinayotgan zug‘umning mudhish okibatlarini qanday bo‘lishi to‘g‘risida jiddiy mulohazalar yuritilishiga sabab bo‘ladi.

Vujudga kelayotgan bu holatdan chiqib ketishning yo‘li esa bitta – yoqilg‘ining organik moddalar (neft, ko‘mir, gaz va x. k.) dan olinadigan energiya salmog‘ini kamaytirib, noorganik yoqilg‘i manbalar (GESlar, AES, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va x.k.) idan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirib borish. Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2025 yilda bu ehtiyojning 60%ini qondirishi mumkin.

Mamlakatimizda sobiq Ittifoqdan meros qolgan eng global muammo – Orol fojiasi ekanligini bilamiz. Bu borada respublikamiz mintaqadagi davlatlar orasida ko‘pdan-ko‘p tashabbuslarni o‘rtaga tashlab kelmoqda. Shu bilan birga mamlakatimiz aholisi ham muttasil o‘tib bormoqda. Keyingi paytlarda respublika hukumati onalarning sog‘luginimuhofaza qilish, tug‘ilgan har bir chaqaloq oldida ota va onaning, qolaversa, jamiyatning javobgarlik hissini oshirish borasida, shuningdek farzandning ota-ona va Vatan hamda xalq oldidagi burchlarini chuqur anglashlari uchun juda katta ma‘naviy rag‘batlantiruvchi tadbirlar ishlab chikqanligi o‘ta muhim ahamiyat kasb etdi. Shu maqsadda “Sog‘lom avlod” jamg‘armasining tuzilishi, “Sog‘lom avlod uchun” ordenining ta‘sis etilishi fikrimizning dalili bo‘ladi.

Jahon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo‘shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko‘p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aqliy imkoniyatlarimiz, xalqimizning yuksak madaniyati va axloqiy qadriyatlarini, zaminimizda yashayotgan odamlarning mehnatsevarligi, saxovatligi, bag‘rikengligi va jahon hamjamiyatida o‘ziga munosib o‘rinni egallashga bo‘lgan istagi buning garovidir.

Nazorat va mustahkamlash uchun savollar:

1. Inson nima uchun falsafaning bosh mavzusi deb qaraladi?
2. Shaxs deganda nimani tushunasiz?
3. Antropologiya fanining ma'nosi va vazifalari nimalardan iborat?
4. Umumbashariy muammolarning vujudga kelish sabablari nimada?
5. Umumbashariy muammolarda demografik omilning o'rni qanday?

IKKINCHI MODUL

7-mavzu: Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati

Reja:

1. Tafakkur – mantiq ilmining o‘rganish obyekti
2. Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan
3. Tushuncha. Hukm. Xulosa chiqarish

Tayanch iboralar: mantiq, logika, tafakkur, tafakkur shakli, formal mantiq, matematik mantiq, dialektik mantiq, klassik mantiq, noklassik mantiq, tafakkur qonunlari, ayniyat qonuni, nozidlik qonuni, istisno qonuni, yetarli asos qonuni, tushuncha, tushunchaning mazmuni, tushunchaning turlari, mulohaza, xulosa, deduksiya, induksiya, analogiya.

MAVZUNING MAQSADI: Mantiq fanining mazmun-mohiyatini mohiyatini ochish, tafakkur qonunlarining inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini tushuntirish.

1. Tafakkur – mantiq ilmining o‘rganish obyekti.

Mantiq ilmining ta’lim sohasidagi vazifalari jiddiydir. O‘quv jarayonining samaradorligi ma’lum bir darajada ishlatiladigan tushunchalarning, terminlarning aniq bo‘lishiga, muammolarning mantiqan to‘g‘ri qo‘yilishi va hal qilinishiga, mavjud gipotezalar strukturasi to‘g‘ri tahlil qila olishga, argumentlash qoidalaridan to‘g‘ri foydalanishga bog‘liq. Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o‘rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo‘lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Zamonamiz fanlarining barchasiga inson qadr – qimmat, uning axloqi, madaniyati nuqtai nazaridan qarash kerak. Mantiq fani ham bundan istisno emas. Inson muammosining xal qilinishi, uning turmush tarzi, moddiy, ma’naviy, axloqiy nuqtai nazardan takomillashishiga bog‘liq.

Insoniylik muammosini hal qilishda mantiq ilmi, ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida, alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, hozirgi zamon fanida yuksak kashfiyotlar, ijtimoiy hayotda murakkab munosabatlar yuz bermoqda, bularni tahlil qilish uchun esa mantiqiy fikrlash madaniyati kerak.

Mantiq fanini o‘qitishdan maqsad talabalarni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun-qoidalari bilan tanishtirish va shu asosida ularda murakkab mantiqiy masalalar va muammolarni yechish malakasini shakllantirish, mustaqil va erkin fikr yuritish qobiliyatini takomillashtirishdan iborat. Ularni yetuk mutaxassis bo‘lishlari, yangi huquqiy demokratik jamiyat qurishning faol ishtirokchilariga aylanishlari uchun zarur nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega qilishdan iborat.

DIQQAT QILING! Mantiq so‘zi arab tilidan kirib kelgan bo‘lib, “fikr”, “so‘z”, “aql”, “qonuniyat” ma’nolarida ishlatiladi. Logika so‘zi grekcha logika so‘zidan olingan bo‘lib, “so‘z”, “fikr”, “tafakkur” ma’nolarini bildiradi. Mantiq fani inson tafakkurining qonun va shakllarini o‘rganadi. Mantiq qonunlari fikrlar o‘rtasidagi zaruriy, muhim bog‘lanishlarni aks ettiradi.

Mantiq ilmining o‘rganish obyektini tafakkur tashkil etadi. “Tafakkur” arabcha so‘z bo‘lib, o‘zbek tilidagi “fikrlash”, “aqliy bilish” so‘zlarining sinonimi sifatida qo‘llaniladi. Tafakkur bilishning yuqori bosqichidir. Uning mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun bilish jarayonida tutgan o‘rni, bilishning boshqa shakllari bilan bo‘lgan munosabatini aniqlab olish zarur. Bilish voqelikning, shu jumladan, ong hodisalarining inson miyasida subyektiv, ideal obrazlar shaklida aks etishidan iborat. Bilish jarayonining asosini va oxirgi maqsadini amaliyot tashkil etadi. Bilish murakkab, ziddiyatli, turli xil darajalarda va shakllarda amalga oshadigan jarayondir. Uning dastlabki bosqichini hissiy bilish – insonning sezgi organlari yordamida bilish tashkil etadi.

Hissiy bilish 3 ta shaklda: sezgi, idrok va tasavvur shaklida amalga oshadi. **Sezgi** predmetning birorta tashqi xususiyatini (masalan, rangini, shaklini, ta‘mini) aks ettiruvchi yaqqol obrazdir. **Idrok** predmetning yaxlit yaqqol obrazi bo‘lib, u mazkur predmet haqidagi turli xil sezgilarni sintez qilish natijasida hosil bo‘ladi. Alohida olingan sezgilardan farqli o‘laroq, idrok berilgan predmetni boshqa predmetlardan (masalan olmani behidan, nokdan va shu kabilardan) farq qilish imkonini beradi. **Tasavvur** esa avval idrok etilgan predmetning obrazini ma‘lum bir signallar (berilgan predmet bilan ma‘lum bir umumiylikka ega bo‘lgan) ta‘sirida miyada qayta hosil qilishdan, yoki shu va boshqa obrazlar negizida yangi obraz yaratishdan iborat hissiy bilish shaklidir.

E‘TIBOR BERING! Mantiq keng ma’noda olamdagi qonuniy, zaruriy bog‘lanish va aloqalar, tartib va izchillik, tafakkurimizning ichki aloqadorligi tadrijiy rivojlanishi, turli fikrlar o‘rtasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni ifodalaydi.

Formal mantiq to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fandır. Uni, tarixiy kelib chiqishini e‘tiborga olgan holda, an‘anaviy (klassik) mantiq, ommaviyligi nuqtai nazardan esa umumiy mantiq deb ham yuritiladi. Mantiq fani inson tafakkurining eng umumiy shakllari, qonunlari va fikrlash usullarini o‘rganadi va o‘rgatadi.

Shuningdek, mantiq tushunchasi obyektiv olam qonuniyatlarini (masalan, “obyektiv mantiq”, “narsalar mantig‘i”) yoki tafakkurning mavjud bo‘lish shakllari va taraqqiyotini, shu jumladan, fikrlar o‘rtasidagi aloqadorlikni ifodalaydigan qonun-qoidalar yig‘indisini (masalan, “subyektiv mantiq”) ifoda etishda ham ishlatiladi.

Mantiq ilmiga doir adabiyotlarda mantiq taraqqiyotining asosiy bosqichlari sifatida klassik va noklassik mantiqlar olinadi. Shuningdek, formal, dialektik va matematik mantiq haqida fikr yuritiladi. Simvolik mantiq degan ibora ham mavjud bo‘lib, u formal mantiqning xozirgi bosqichini ifoda etish uchun ishlatiladi. Formal mantiq fani – fikrlarning konkret mazmunidan mavhumlashgan holda faqat berilgan to‘g‘ri fikrlardan yangi to‘g‘ri fikrlarni keltirib chiqarish qonunlarini o‘rganadi. Formal logikaning asoschisi Aristotel bo‘lgan.

Formal mantiqqa to‘g‘ri tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi falsafiy fan, deb ta‘rif berish mumkin. **Dialektik mantiq**, formal mantiqdan farqli o‘laroq, tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida hamda taraqqiyotida olib o‘rganadi. **Matematik mantiq** esa tafakkurni matematik metodlar yordamida tadqiq etadi. U hozirgi zamon matematikasining muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, tafakkurni mantiqiy hisoblash deb ataladigan yuqori darajada abstraktlashgan va formallashgan sistemada tahlil qiladi.

Biz o‘rganadigan fan formal mantiq bo‘lib, u hozirgi paytda o‘zining maxsus formallashgan tiliga, to‘g‘ri muhokama yuritish uchun zarur bo‘lgan samarali mantiqiy metodlari va usullariga, konseptual vositalariga ega. Mazkur fan tafakkurni o‘rganuvchi boshqa fanlar, xususan falsafa, psixologiya, fiziologiya bilan yaqindan hamkorlik qiladi hamda ilmiy bilimlar sistemasida o‘zining munosib o‘rniga ega. Ayniqsa, uning bilish metodi sifatidagi ahamiyati katta.

Matematik mantiq – an‘anaviy formal mantiq taraqqiyotining ikkinchi bosqichi bo‘lib, tafakkurni simvollar sistemasi yordamida o‘rganadi. Matematik mantiq o‘ziga xos alifboga ega bo‘lib, bular yordamida mantiqiy hisoblash ishlarini olib boradi. Matematik mantiqning asoschisi XVII asrda yashagan nemis faylasufi G.Leybnis bo‘lgan.

XIX asrga kelib, matematik mantiq fan sifatida shakllana boshladi. Matematik mantiq ham formal mantiq singari fikrning mazmunidan mavhumlashgan holda berilgan to‘g‘ri bilimlardan yangi to‘g‘ri bilimlarni keltirib chiqarish qonunlarini o‘rganadi.

Dialektik mantiq tushunchasini birinchi bo‘lib, XIX asrning boshlarida Gegel kiritgan. Dialektik mantiq tafakkur orqali amalga oshirilgan bilimlarning shakllanishi va rivojlanishini, tafakkur genezisini (paydo bo‘lishini) o‘rganadi. Tafakkur ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, uni turli tomondan, xususan, mazmuni va shakli (strukturasi) bo‘yicha, tayyor holda yoki kelib chiqishi va taraqqiyotida olib o‘rganish mumkin. Bularning barchasi mantiq ilmining vazifasini tashkil etadi, uning turlicha metodlardan foydalanishiga, har xil yo‘nalishlarga ajralishiga sabab bo‘ladi.

Hozirgi paytda uning formal mantiq, dialektik mantiq va matematik mantiq kabi yo‘nalishlarini farq qilish mumkin. Formal mantiq tafakkurning strukturasi fikrning konkret mazmuni va taraqqiyotidan chetlashgan holda, nisbatan mustaqil ravishda olib o‘rganadi. Uning diqqat markazida muhokamani to‘g‘ri qurish bilan bog‘liq qoidalar va mantiqiy amallar yotadi.

Ko‘p ma‘noli mantiq hozirgi zamon noklassik mantiq‘ining bir tarmog‘i bo‘lib, fikrlashni “chin”, “xato”, “qisman chin”, “qisman xato” kabi tushunchalar orqali ifodalaydi. Agar umumiy formal mantiqda mulohazalar ikki qiymatli (chin yoki xato) bo‘lsa, ko‘p ma‘noli mantiqda mulohazalar uch va undan ortiq ma‘nolidir.

Intuitiv mantiq (lotincha **intuition** – diqqat bilan e‘tibor barish, diqqat bilan kuzatish) – hozirgi zamon noklassik mantiq‘i tarmog‘i bo‘lib, matematik intuitsiya prinsiplaridan kelib chiqadi va h.k.

Mantiq fani bilish, to‘g‘ri fikrlash metodlarini o‘rganuvchi fandır. Yuqorida ta‘kidlanganidek, tafakkur keng ma‘noda mantiqni tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganuvchi fan, deb atash mumkin. Tafakkur shakllari haqida so‘z yuritishdan avval tafakkurning quyidagi asosiy xususiyatlariga to‘xtalmoq joiz:

1) unda voqelik abstraktlashgan va umumlashgan holda in‘ikos qilinadi. Hissiy bilishdan farqli o‘laroq, tafakkur bizga predmetning nomuhim, ikkinchi darajali (bu odatda bilish oldida turgan vazifa bilan belgilanadi) belgilaridan abstraklashgan (fikran chetlashgan, mavhumlashgan) holda, e‘tiborimizni uning umumiy, muhim, takrorlanib turuvchi xususiyatlariga va munosabatlariga qaratishimizga imkon beradi.

2) tafakkur borliqni bilvosita aks ettiradi. Unda yangi bilimlar tajribaga har safar bevosita murojaat etmasdan, mavjud bilimlarga tayangan holda hosil qilinadi. Fikrlash bunda predmet va hodisalar o‘rtasidagi aloqadorlikka asoslanadi. Masalan, bolaning xulq-atvoriga qarab, uning qanday muhitda tarbiya olganligi haqida fikr yuritish mumkin. Tafakkurning mazkur xususiyati, ayniqsa, xulosaviy fikr hosil qilishda aniq namoyon bo‘ladi.

3) tafakkur insonning ijodiy faoliyatidan iborat. Unda bilish jarayoni borliqda real analogiga ega bo‘lmagan narsalar – yuqori darajada ideallashgan

obyektlarni (masalan, absolyut qattiq jism, ideal gaz kabi tushunchalar) ni yaratish, turli xil formal sistemalarni qurish bilan kechadi. Ular yordamida predmet va hodisalarning eng murakkab xususiyatlarini o'rganish, hodisalarni oldindan ko'rish, bashoratlar qilish imkoniyati vujudga keladi.

4) tafakkur til bilan uzviy aloqada. Fikr ideal hodisadir. U faqat tilda-moddiy hodisada (tovush to'lqinlarida, grafik chiziqlarda) reallashadi, boshqa kishilar bevosita qabul qila oladigan, his etadigan shaklga kiradi va odamlarning o'zaro fikr almashish vositasiga aylanadi. Boshqacha aytganda, til fikrning bevosita voqe bo'lish shaklidir.

Tafakkur 3 shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shakllarida namoyon bo'ladi.

Tafakkur shakli fikrning mazmunini tashkil etuvchi elementlarning bog'lanish usuli, tuzilishidir. **Fikrlash elementlari** predmetning fikrda ifoda etilgan belgilari haqidagi axborotlardir.

Tushuncha, hukm va xulosa chiqarish tafakkurning universal mantiqiy shakllari, uning asosiy tarkibiy unsurlari hisoblanadi.

Chin fikr o'zi ifoda qilayotgan predmetga mos keluvchi fikrdir.

DIQQAT QILING! Fikrni to'g'ri qurishga tafakkur qonunlari talablariga rioya qilingandagina erishish mumkin. **Tafakkur qonuni** muhokama yuritish jarayonida (fikrlash elementlari) o'rtasidagi mavjud zaruriy aloqalardan iborat.

Fan uchun formal mantiq murakkab muammolarni yechish vositasini beradi. Bunday vositalar, odatda, ilmiy nazariyaning strukturasi o'rganishda, unda ishlatiladigan formalizmning mohiyatini tushuntirib berishda, formal ziddiyatlar bo'lsa, ularni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Uning nazariy ahamiyati shundan iboratki, u fan sifatida to'g'ri fikr yuritishning qanday amalga oshirishi haqida bilim beradi. Mantiq to'g'ri fikr yuritishning xususiyatlarini o'rganadi.

Insoniylik muammosini o'rganish va hal etishda mantiq ilmi alohida ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon fanlarining o'tkir muammolarini, ijtimoiy hayotning murakkab va dolzarb masalalarini aniq hamda bexato yechish, tahlil qilishda mantiqiy fikrlash madaniyatining o'rni beqiyos.

Mantiq fani ilmiy ishonch-e'tiqodning shakllanishida ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Ishonch-e'tiqod esa insonning komillik mezonlaridan biri hisoblanadi.

Mantiq fani fikr yuritish madaniyatini o'stirishda bemisldir. Mantiq fani mazmunini o'rganish kishilarning tanqidiy qarash xislatlarini o'stiradi. Mantiqiy

usullardan to'g'ri va samarali foydalana olish, ta'lim-tarbiya jarayonida isbot va raddiyaning mantiqiy tomonlarini bilish insonlarda o'z nutqini asosli bo'lishini ta'minlaydi, fikrdagi ziddiyatlarni ochishga yordam beradi. Shiddatli globallashuv, axborotlashuv va modernizatsiya zamonida jamiyatning faol ishtirokchisi bo'lish imkoniyatini yaratadi.

Olamdagi narsa va hodisalar harakati o'ziga xos ichki qonunlar asosida yuzaga keladi. Bu harakatning inson ongidagi in'ikosi, ya'ni tafakkur jarayoni ham o'ziga xos obyektiv qonuniyatlarni asosida amalga oshadi.

2.Mantiq tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganuvchi fan.

Formal mantiq ilmida qonun tushunchasi fikrlash elementlari o'rtasidagi ichki, muhim, zaruriy aloqadorlikni ifodalaydi.

Mantiqiy tafakkur ikki turdagi qonunlarga bo'ysunadi. Ular dialektika qonunlari va formallashtirilgan mantiq qonunlaridir. Dialektika qonunlari obyektiv olam va bilish jarayoniga xos bo'lgan eng umumiy qonunlar bo'lib, dialektik mantiq ilmining o'rganish sohasi hisoblanadi. Formallashtirilgan mantiq qonunlari esa, faqat tafakkurdagina amal qiladi. Dialektika qonunlari mantiqiy tafakkurni uning mazmuni va shakli birligida olib o'rgansa, formal mantiq qonunlari esa, fikrning to'g'ri tuzilishini, uning aniq, izchil, ziddiyatsiz va asoslangan bo'lishini e'tiborga olgan holda o'rganadi. Bu qonunlar fikrlashning to'g'ri amalga oshirishini ta'minlab turadi. Ular tafakkur shakllari bo'lgan tushunchalar, mulohazalar (hukmlar) hamda xulosa chiqarishning shakllanishi va o'zaro aloqalarini ifodalaydi.

Tafakkur qonunlari yuzaki qaraganda subyektiv qonunlardek bo'lib tuyulsa ham, aslini olganda, obyektiv mazmunga egadir. Bu qonunlar hamma kishilarning fikr yuritishida bir xil amal qiluvchi umuminsoniy qonunlardir. Ularni buzish, almashtirish, o'zgartirish, yangilash mumkin emas.

Inson tafakkuriga xos bo'lgan muhim xislatlardan biri fikrning aniq bo'lishidir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi har bir buyum, hodisa o'ziga xos belgi va xususiyatlarga ega.

Tafakkurga xos bo'lgan izchillik belgisi har bir fikrning muayyan tartibda o'zaro bog'langan holda bayon etilishini talab qiladi. Fikrdagi izchillikning buzilishi, fikr ma'nosining o'zgarishiga olib keladi va bunday fikrni tushunib olish qiyinlashadi. Masalan, birorta faylasuf - mutafakkirning umumfalsafiy qarashlarini o'rganmasdan turib, uning ijtimoiy yoki axloqiy ta'limotining mohiyatini to'liq tushunib bo'lmaydi.

Tafakkurga xos bo'lgan belgilardan yana biri fikrlash jarayonining ziddiyatsizlik xususiyatiga ega bo'lishligidir. Bu belgi ham obyektiv asosga ega. Ma'lumki, obyektiv voqelikda har bir buyum yoki hodisa bir vaqtning o'zida biror sifatiga ko'ra ikki zid belgiga ega bo'lmaydi. Masalan, biror buyum bir vaqtning o'zida ham bor, ham yo'q bo'la olmaydi yoki inson ham e'tiqodli, ham e'tiqodsiz

bo'la olmaydi. Fikrda mantiqiy ziddiyatlarning mavjud bo'lishi uning noaniq, chalkash, tushunarsiz bo'lishiga olib keladi.

Buyum va hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlar tafakkurga xos bo'lgan asoslilik belgisining obyektiv negizidir. Inson fikr yuritish jarayonida iloji boricha chinligi asoslangan mulohazalarni bayon qilishga intiladi.

E'TIBOR BERING! Yuqorida bayon qilingan belgilar tafakkur qonunlarining mazmunini tashkil etadi.

Biror buyum yoki hodisa haqida fikr yuritilganda ularga xos bo'lgan barcha muhim belgilar, tomonlar qamrab olinadi. Predmet haqidagi fikr necha marta va qanday holatlarda takrorlanishiga qaramasdan doimiy, o'zgarmas va qat'iy mazmunga ega bo'ladi. Tafakkurga xos bo'lgan bu aniqlik xususiyati ayniyat qonunining mohiyatini tashkil etadi.

Ayniyat qonuniga ko'ra, ma'lum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda o'z-o'ziga tengdir. Bu qonun formal mantiq ilmida "A-A dir" formulasi bilan ifodalanadi.

Ayniyat qonunining asosiy talabi quyidagicha: fikrlash jarayonida turli fikrlarni aynanlashtirish va aksincha, o'zaro aynan bo'lgan fikrlarga teng emas, deb qarash mumkin emas. Bu mantiqiy tafakkurning muhim shartlaridan biridir. Fikrlash jarayonida bu qonunni, bilib yoki bilmasdan, buzish holatlari uchraydi. Ba'zan, bu holat bir fikrning tilda turli xil ifodalanishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan: "Dialektika qonunlari" va "Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining eng umumiy qonunlari" tushunchalari shakliga ko'ra turlicha bo'lsa ham mazmunan aynandir.

Bahs-munozara jarayonida qanday qilib bo'lsa ham raqibni aldash va yutib chiqish maqsadida ayniyat qonunining talablarini ataylab buzuvchilar sofistlar deb ataladi; ularning ta'limoti esa sofistika deyiladi.

Ba'zan turli ma'nodagi bir xil so'zlarni mohirlik bilan ishlatish orqali ajoyib she'riy misralar yaratiladi. Sharq adabiyotida "tuyuq" nomi bilan ma'lum bo'lgan bu she'riy misralar go'zalligi, insonga o'ziga xos zavq berishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, o'zbek xalqiga xos bo'lgan askiya san'atida ayniyat qonunlari ataylab buzilishini, tushunchalarning o'z ma'nosida emas, balki ko'chma ma'nolarda qo'llanilishini kuzatish mumkin. Bu o'ziga xos so'z o'yini bo'lib, unda qo'llaniladigan nozik qochirimlar askiya aytuvchining mahoratini ko'rsatadi va tinglovchilarning kulgusiga sabab bo'ladi.

Ayniyat qonuni predmet va hodisalarning nisbiy barqarorligini ifoda etgan holda, tafakkurning rivojlanishini, tushunchalar va bilimlarning o'zgarib, boyib borishini inkor etmaydi. Bu qonun fikrning mazmuni predmet va hodisalarni to'laroq bilib borish orqali o'zgarishini e'tirof etadi va uni hisobga olishni taqozo qiladi.

Ayniyat qonuni tafakkurga, uning barcha elementlari, shakllariga xos bo'lgan umumiy mantiqiy qonundir. Bu qonunning talablari tafakkurning har bir shakliga xos bo'lgan konkret qoidalarda aniq ifodalanadi. Tafakkurning tushuncha, mulohaza (hukm), xulosa chiqarish shakllari, ular o'rtasidagi munosabatlar shu qonunga asoslangan holda amalga oshadi.

Nozidlik qonuni. Inson tafakkuri aniq, ravshan bo'libgina qolmasdan, ziddiyatsiz bo'lishi ham zarur. Ziddiyatsizlik inson tafakkuriga xos bo'lgan eng muhim xislatlardan biridir. Ma'lumki, obyektiv voqelikdagi buyum va hodisalar bir vaqtda, bir xil sharoitda biror xususiyatga ham ega bo'lishi, ham ega bo'lmasligi mumkin emas. Masalan, bir vaqtning o'zida, bir xil sharoitda inson ham axloqli, ham axloqsiz bo'lishi mumkin emas. U yo axloqli, yo axloqsiz bo'ladi.

Bir vaqtning o'zida bir predmetga ikki zid xususiyatning taalluqli bo'lmasligi tafakkurda nozidlik qonuni sifatida shakllanib qolgan. Bu qonun fikrlash jarayonida ziddiyatga yo'l qo'y maslikni talab qiladi va tafakkurning ziddiyatsiz hamda izchil bo'lishini ta'minlaydi.

Nozidlik qonuni ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, xech bo'lmaganda ulardan biri albatta xato bo'lishini ifodalaydi. Bu qonun «A ham V, ham V emas bo'la olmaydi» formulasi orqali beriladi.

Nozidlik qonuni qarama-qarshi va zid mulohazalarga nisbatan qo'llaniladi. Bunda qarama-qarshi mulohazalarning har ikkalasi ham bir vaqtda xato bo'lishi mumkin; o'zaro zid mulohazalar esa bir vaqtda xato bo'lmaydi, ulardan biri xato bo'lsa, ikkinchisi albatta chin bo'ladi. Demak, fikrlash jarayonida, vaqt, munosabat va obyekt birligining saqlanishi nozidlik qonunining amal qilishi uchun zaruriy shart-sharoit hisoblanadi. Nozidlik qonuni to'g'ri fikr yuritish jarayonida amal qiladi.

Mantiq ilmi umuman har qanday zid mulohazalarni ta'qiqlamaydi, balki bir masala yuzasidan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid, qarama-qarshi mulohazalarni bayon qilish mumkin emasligini ta'kidlaydi.

Formal mantiq dialektik ziddiyatlar bilan mantiqiy ziddiyatlarni chalkashtirib yuborishni qoralaydi. Mantiqiy tafakkurdagi ziddiyat bilan real hayot ziddiyatlarini, ya'ni dialektik ziddiyatni bir-biridan farqlash, ularni almashtirib yubormaslik zarur. Chunki bulardan birinchisi tafakkurda yo'l qo'yib bo'lmaydigan ziddiyat bo'lsa, ikkinchisi buyum, hodisalar taraqqiyotining ichki manbaini tashkil qiladigan dialektik ziddiyatdir. Birinchisi subyektiv, ikkinchisi obyektiv ziddiyatdir.

Nozidlik qonunini bilish va unga amal qilish raqibning, suhbatdoshning fikrlaridagi mantiqsizlikni aniqlash, ilmiy tahlilni izchil va chuqur mantiqiy asosda olib borish imkonini beradi.

Uchinchi istisno qonuni nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo'lib, fikrning to'liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligini ifodalaydi. Bu qonun "A V yoki V emasdir" formulasi orqali beriladi.

Uchinchi istisno qonuni tushunchalar o'rtasidagi zid munosabatlarni ifodalaydi. Agarda zid munosabatlar tushunchaning to'liq mazmunini qamrab olmasa, ikki zid belgidan boshqa belgilarning ham mavjudligi ma'lum bo'lsa, unda uchinchi istisno qonuni amal qilmaydi.

Masalan:

Talaba imtihonda "a'lo" baho oldi.

Talaba imtihonda "ikki" baho oldi.

Bu mulohazalar munosabatida nozidlik qonuni amal qiladi. Chunki bu mulohazalarning har ikkisi ham xato bo'lishi va talaba imtihonda "o'rta" yoki "yaxshi" baho olishi mumkin.

Agar, "Talaba imtihonda "a'lo" baho oldi" va "Talaba imtihonda "a'lo" baho olmadi" mulohazalarini tahlil qilsak, unda bu mulohazalardan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o'rin yo'q ekanligi ma'lum bo'ladi. Chunki "yaxshi", "o'rta" va "ikki" baholar – "a'lo" baho emas.

Uchinchi istisno qonuni quyidagi holatlarda qo'llaniladi:

1. Alohida olingan yakka buyumga nisbatan bir xil vaqt va munosabat doirasida o'zaro zid fikr bildirilganda. Masalan, Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. Toshkent – O'zbekistonning poytaxti emas.

2. Son va sifatiga ko'ra o'zaro zid mulohazalar bayon qilinganda, buyum va hodisalarning sinfi haqida tasdiqlab bayon qilingan mulohaza bilan shu sinf buyum va hodisalarning bir qismi haqida inkor etib bayon qilingan mulohazalardan biri chin, ikkinchisi xato, uchinchisiga o'rin bo'lmaydi.

Uchinchi istisno qonunida ham, nozidlik qonunidagi kabi vaqt, munosabat, obyekt aynanligiga rioya etish shart, aks holda bu qonun o'z kuchini yo'qotadi, fikrning izchilligiga zarar etadi va mantiqsizlikka yo'l qo'yiladi.

Uchinchi istisno qonuni boshqa mantiqiy qonunlar singari ziddiyatli mulohazalarning chin yoki xatoligini aniqlab berolmaydi. Buning uchun voqea va hodisalarni, ularning rivojlanish qonuniyatlarini bilish talab qilinadi. Inson o'z bilimlariga asoslangan holda o'zaro zid mulohazalardan qaysi biri chin yoki xato ekanligini aniqlaydi. Bu qonun o'zaro zid mulohazalar bir vaqtda chin bo'lmasligini tasdiqlaydi.

Uchinchi istisno qonunini bilish muhokama yuritishda to'g'ri xulosa chiqarish uchun muhim bo'lib, o'zaro zid qarashlarni aralashtirib yuborishga yo'l qo'ymaydi.

To'g'ri fikrlashga xos bo'lgan muhim xususiyatlardan biri isbotlilik, ishonchlilikdir. Fikrlash jarayonida buyum va hodisalar haqida chin muhokama yuritibgina qolmasdan, bu muhokamaning chinligiga hech qanday shubha bo'lmasligi uchun, uni isbotlashga, asoslashga harakat qilinadi. Bunda chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan va o'zaro mantiqiy bog'langan mulohazalarga asoslaniladi, ya'ni bayon qilingan fikrning chinligi avvaldan ma'lum bo'lgan, tasdiqlangan boshqa bir fikr, mulohaza bilan taqqoslanadi. Tafakkurning bu xususiyati yetarli asos qonuni orqali ifodalanadi.

Yetarli asos qonuni. Inson tafakkuriga xos bo'lgan bu qonunni birinchi marta nemis faylasufi va matematigi G. Leybnis ta'riflab bergan. Uning ta'kidlashicha, barcha mavjud narsalar o'zining mavjudligi uchun yetarli asosga ega. Har bir buyum va hodisaning real asosi bo'lgani kabi, ularning in'ikosi bo'lgan fikr-mulohazalar ham asoslangan bo'lishi kerak. Yetarli asos qonunining bu talabi quyidagi formula orqali ifodalanadi: "Agar V mavjud bo'lsa, uning asosi sifatida A ham mavjud".

Yetarli asos qonunida to'g'ri tafakkurning eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lgan fikrlarning izchillik bilan muayyan tartibda bog'lanib kelish xususiyati ifodalanadi. Bu qonun avvalgi ko'rib o'tilgan qonunlar bilan o'zaro bog'liq holda amal qiladi. Fikrlash jarayonida berilgan mulohazaning chinligini asoslash uchun keltirilgan chin mulohazalar mantiqiy asos deb, berilgan mulohazaning o'zi esa mantiqiy natija deb yuritiladi.

Mantiqiy asos bilan obyektiv, haqiqiy real asosni aralashtirib yuborish mumkin emas. Asos va natija orasidagi mantiqiy bog'liqlikni sabab va oqibat aloqadorligidan farqlash zarur. Masalan, "Bu kishi bemor" degan mulohazani "U shifoxonada davolanayapti" degan fikr bilan asoslash mumkin. Aslida shifoxonada

davolanish dastlabki mulohazaning sababi emas, balki oqibatidir. Ko‘rinib turibdiki, mantiqiy asos hamma vaqt ham hodisaning sababi bilan mos kelmaydi. Fikrlarning yetarli asosga ega bo‘lishligining obyektiv manbai faqat sabab-oqibat munosabatinigina emas, shuningdek, fikrning izchilligi, asoslanganligini, isbotlangan bo‘lish xususiyatlarini ham, ya‘ni obyektiv mazmuni sabab-oqibat munosabatlaridan tashqarida bo‘lgan boshqa munosabatlarni ham o‘z ichiga oladi.

3. Tushuncha. Hukum. Xulosa chiqarish.

Tushuncha predmet va hodisalarning umumiy, muhim belgilarini aks ettiruvchi tafakkur shaklidir. Tushuncha olamning tafakkurda in‘kos etish shakllaridan biri, uning yordami bilan hodisalarning, jarayonlarning mohiyati bilib olinadi va ularning umumiy hamda muhim tomonlari, belgilari umumlashtiriladi. Tushuncha tarixan rivojlanuvchi bilish mahsuli, bu bilish quyidan yuqoriga ko‘tarila borib, amaliyot asosida qo‘lga kiritilgan natijalarni chuqurroq tushunchalarda yakunlaydi. Tushunchaning mohiyatini chuqurroq tushunish uchun buyumlarning belgilarini va uning turlarini bilish zarur.

Belgilar deb, predmetlarni bir-biridan farq qiluvchi hamda ularning bir-biriga o‘xshashligini ifoda qiluvchi tomonlarga, xususiyatlarga aytiladi. Har bir predmet olamdagi boshqa predmetlar bilan (bevosita yoki bilvosita) aloqada bo‘lganligi uchun ko‘p belgilarga ega. Belgilar individual, yakkalik umumiy, nomuhim va muhim belgilari ega.

Tushuncha predmetning nomuhim belgilaridan chetlashar ekan, demak uni to‘laligicha aks ettira olmaydi. Bu ma‘noda u hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqdan uzoqroqda turadi. Lekin, tushuncha predmetning muhim belgilarini in‘ikos qilishi, mohiyatini aks ettirishi bilan hissiy bilish shakllariga nisbatan borliqni chuqurroq, to‘laroq ifoda etadi.

Tushuncha, hissiy bilish shakllaridan farqli o‘laroq, inson miyasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aks etmaydi. U ma‘lum bir mantiqiy usullardan foydalanilgan holda hosil qilinadi. Bu usullar taqqoslash, analiz, sintez, abstraksiyalash, umumlashtirishlardan iborat.

Taqqoslash yordamida predmetlar o‘zaro solishtirilib, ularning o‘xshash, umumiy tomonlari va bir-biridan farq qildiruvchi individual belgilari aniqlanadi.

Taqqoslash analizni taqozo qiladi. Chunki predmetlarni yaxlit holda solishtirib bo‘lmaydi. Ular u yoki bu xossasiga ko‘ra taqqoslanishi kerak. Buning uchun u xossalarga ajratilishi lozim. **Analiz** yordamida predmet fikran uni tashkil qiluvchi qismlar, tomonlarga ajratilib, har qaysisi alohida o‘rganiladi.

Sintez analizga teskari usul bo‘lib, u analiz davomida ajratilgan qismlar, tomonlarni fikran birlashtirib, predmetni bir butun holiga keltirishdan iborat. Sintez bo‘lmasa predmet haqida yaxlit fikr hosil qilib bo‘lmaydi. Analiz va sintez uzviy bog‘liqdir.

Tushuncha hosil qilish uchun predmetning yuqoridagi usullar bilan aniqlangan umumiy va individual belgilarining muhimlari ajratilishi, nomuhamlari chetlashtirilishi lozim. Bu esa abstraksiyalash yordamida amalga oshiriladi.

Umumlashtirishda predmetlar ularning ayrim umumiy, muhim xususiyatlariga ko‘ra sinflarga birlashtiriladi va shu tariqa bitta tushunchada bir jinsli predmetlarning barchasini fikr qilish imkoniyati yaratiladi.

Tushunchaning shakllanishi so‘z bilan uzviy bog‘liq. Ular o‘rtasidagi aloqadorlik tafakkur va til o‘rtasidagi bog‘lanishning konkret tarzda namoyon bo‘lishidir.

Tushuncha o‘zining mazmuni va hajmiga ega. Tushunchaning mazmunini fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yig‘indisi tashkil etadi.

Tushunchaning hajmi esa unda fikr qilinayotgan predmetlar yig‘indisidan iborat. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan “fan” tushunchasining hajmi mavjud barcha fanlarni: matematika, fizika, mantiq va hokazolarni o‘zida qamrab oladi.

Mantiqda tushunchalar mazmuni va hajmi bo‘yicha bir qancha turlarga bo‘linadilar. Xususan, hajmiga ko‘ra yakka va umumiy tushunchalar farq qilinadi.

Yakka tushunchaning hajmida bitta predmet fikr qilinadi. Masalan, “Yer planetasi”, “O‘zMU asosiy kutubxonasi” va shu kabilar yakka tushunchalardir. Umumiy tushunchalar predmetlar guruhini aks ettiradi. “Planeta”, “Kutubxona” tushunchalari umumiy tushunchalar hisoblanadi. Umumiy tushunchalar aks ettiruvchi predmetlarning miqdori chegaralangan va chegaralanmagan bo‘lishi mumkin.

Fikr yuritish jarayonida ayiruvchi va to‘plovchi tushunchalarni farq qilish ham muhim ahamiyatga ega. Ayiruvchi tushuncha shunday umumiy tushunchaki, u aks ettiruvchi belgilar berilgan sinfning har bir predmetiga xosdir.

Mazmuni bo‘yicha tushunchalar, avvalam bor, abstrakt va konkret tushunchalarga bo‘linadi. Konkret tushunchalarda predmet o‘zining belgilari bilan birgalikda fikr qilinadi. Abstrakt tushunchalarda esa predmetning belgilari undan fikran ajratib olinib, alohida aks ettiriladi.

Mazmuni bo‘yicha yana nisbatsiz va nisbatdosh tushunchalarni ham ajratish mumkin. Nisbatsiz tushunchalar nisbatan mustaqil, alohida mavjud bo‘lgan predmetlarni aks ettiradi. “Davlat”, “Badiiy asar” ana shunday tushunchalardir.

Nisbatdosh tushunchalar esa zaruriy ravishda bir-birining mavjud bo‘lishini taqozo qiladigan predmetlarni aks ettiradi. Masalan, “O‘qituvchi” va “O‘quvchi”, “Ijobiy qahramon” va “Salbiy qahramon”, “Sabab” va “Oqibat” tushunchalari nisbatdosh tushunchalar qatoriga kiradi.

Ba’zi hollarda ijobiy va salbiy tushunchalar ham farq qilinadi. Ijobiy tushunchalarning mazmunida predmet unga xos belgilar orqali fikr qilinsa, salbiy

tushunchalarning mazmunida predmet unga xos bo'lmagan belgilar orqali fikr qilinadi. Masalan, “Savodli kishi”, “Vijdonli kishi” – ijobiy tushunchalar, “Savodsiz kishi”, “Vijdonsiz kishi” – esa salbiy tushunchalardir.

Dunyodagi barcha buyum va hodisalar o'zaro aloqada bo'lganligi sababli ularni aks ettiruvchi tushunchalar ham o'zaro aloqa va munosabatlardadir. Bu munosabatlar xilma-xil bo'lib, ular eng avvalo taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan tushunchalarga bo'linadilar. Taqqoslanadigan tushunchalar umumiy belgilarga ega bo'lgan, mazmuni va hajmi jihatidan bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalardir. Masalan, “daftar” va “kitob”. Taqqoslanmaydigan tushunchalar umuman o'zaro qiyoslanmaydilar. Mantiqda faqat taqqoslanadigan tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy munosabatlar o'rganiladi. Taqqoslanadigan tushunchalar esa hajm jihatidan sig'ishadigan va sig'ishmaydigan bo'ladi. Sig'ishadigan tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar 3 xil bo'ladi:

1) Mos tushunchalar. Bu tushunchalar hajmi jihatidan aynan teng, bir predmet yoki voqeani ikki tomondan ifodalaydi. Mos tushunchalarning bir predmetning bir belgisi ko'rsatiladi.

Masalan: A. Abu Ali ibn Sino. B. “Tib qonunlari” kitobining muallifi.

2) Qisman mos tushunchalar. Bu munosabat ikki guruh predmetlar o'rtasidagi munosabatni aks ettiradi, ya'ni birinchi guruh predmetlarning bir qismi ikkinchi predmetlarning bir qismiga teng keladi.

Masalan: A. Yuqumli kasalliklar. B. Suv chechak.

3) Bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar. Bu munosabatlar bo'ysindiruvchi tushunchani batamom o'z ichiga oladi.

Masalan: A. Shamollash jarayoni. B. Pnevmoniya.

Sig'ishmaydigan tushunchalar:

1) birga bo'ysunish munosabatidagi tushunchalar. Ular biror kattaroq sinfga kiruvchi bir necha kichik sinflarni ifodalaydi.

Masalan: A. Tibbiyot. V. Jarrohlik. S. Terapiya.

2) qarama- qarshi munosabatdagi tushunchalar. Ular hajmi jihatidan mustaqil bo'ladilar, ya'ni qarama-qarshi ikki guruh predmetlarni ifodalaydi.

Masalan: A. Oq. V. Qora.

3) zidlik munosabatdagi tushunchalar. Ular hajmi jihatidan bir-birlariga kirishmaydi.

Masalan: A. Sog'lom. V. Sog'lom emas.

Tushunchalar umumiyashtirilayotganda tushuncha hajmi kichrayadi, mazmun esa boyib boradi.

Hukm – predmetga ma'lum bir belgining (xossaning, munosabatning) xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shaklidir.

Hukmning asosiy vazifasi predmet bilan uning xususiyati, predmetlar o'rtasidagi munosabatlarni ko'rsatishdir. Ana shuning uchun ham u doimo tasdiq yoki inkor shakldagi fikrdan iborat bo'ladi. Fikr yuritish jarayonida biz predmet va hodisalarning, tashqi xususiyatlari bilan birga ularning ichki, zaruriy bog'lanishlarini, munosabatlarini bilib boramiz. Predmet va hodisalarning xususiyatlarini ketma-ket o'rganib, ular haqida hukmlar hosil qilamiz. Bilimlarimiz turlicha bo'lgani uchun ularni ifodalaydigan hukmlar ham har xil bo'ladi. Ba'zi hukmlarda aniq, tekshirilgan bilimlar ifodalansa, boshqalarida belgining predmetga xosligi taxmin qilinadi, ya'ni noaniq bilimlar ifodalanadi.

Hukmlar nisbatan tugal fikrlardir. Unda konkret predmet bilan uning konkret belgisi haqida bilim ifoda qilingan bo'ladi.

Hukmlar voqelikka mos kelish darajasiga ko'ra chin, xato va noaniq (ehtimol, taxminiy) bo'ladi. Obyektiv voqelikka mos kelgan, uni to'g'ri ifodalagan hukmlar chin, mos kelmaganlari xato bo'ladi. Ayni vaqtda chinligini ham, xatoligini ham aniqlab bo'lmaydigan hukmlar – noaniq hukmlardir.

Hukmlar tildagi gaplar orqali ifodalanadi. Hukm mantiqiy kategoriya bo'lsa, gap grammatik kategoriyadir. Hukmlar asosan darak gap orqali ifodalanadi. Faqat darak gaplarga fikr tasdiq yoki inkor holda bo'ladi.

Masalan, "Vaqt orqaga qaytmaydi", "Hayot – bu harakat" kabi gaplar hukmni ifoda qiladilar.

Oddiy hukmlar:

Hukmlar tuzilishiga ko'ra oddiy va murakkab bo'ladi. Oddiy hukm deb, tarkibidan yana bir hukmni ajratib bo'lmaydigan mulohazaga aytiladi. Tarkibidan ikki yoki undan ortiq hukmni ajratish mumkin bo'lgan mulohazalarga murakkab hukm deyiladi. Masalan, "Mantiq ilmini o'rganish to'g'ri fikrlash madaniyatini shakllantiradi", degan mulohaza oddiy hukmni ifodalaydi. "Mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlarini o'rganadi", degan mulohaza murakkab hukmdir. Bu mulohazaning tarkibi ikki qismdan: "Mantiq ilmi tafakkur shakllarini o'rganadi" va "Mantiq ilmi tafakkur qonunlarini o'rganadi", degan ikki oddiy hukmdan iborat.

Mulohaza (hukm) tarkibida mantiqiy ega va mantiqiy kesimni ajratib ko'rsatish mumkin. Mantiqiy ega – subyekt (S) fikr qilinayotgan predmet va hodisani bildiradi. Mantiqiy kesim – predikat (P) predmet xususiyatini, munosabatini bildiradi. Predikatda ifodalangan bilimlar hisobiga subyekt haqidagi tasavvur boyitiladi. Hukmning subyekt va predikati uning terminlari deb ataladi.

Hukmning uchinchi zaruriy elementi mantiqiy bog'lamadir. U subyekt va predikatni bir-biri bilan bog'laydi, natijada hukm hosil bo'ladi. Oddiy qat'iy hukmning formulasi quyidagicha yoziladi: S-P.

Oddiy hukmlar sifati va miqdoriga ko'ra turlarga bo'linadi. Sifatiga ko'ra, tasdiq va inkor hukmlar farqlanadi. Hukmning sifatini mantiqiy bog'lama

belgilaydi. Tasdiq hukmlarda belgining predmetga xosligi, inkor hukmlarda, aksincha, xos emasligi ko'rsatiladi. Masalan, "Abdulla Oripov O'zbekiston Respublikasi Madhiyasining muallifidir" – tasdiq hukm, "Matematika ijtimoiy fan emas" – inkor hukm. Miqdoriga ko'ra oddiy hukmlar yakka, umumiy va juz'iy hukmlarga bo'linadi. Bunda subyektda ifodalangan predmetlarning sonidan, ya'ni uning hajmidan kelib chiqiladi.

Yakka hukmlarda birorta belgining bir predmetga xosligi yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan: "O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlatdir", "Ahmedov tarixchi emas".

Umumiy hukmlarda birorta belgining yakka predmetlar sinfining hammasiga yoki undagi har bir predmetga taalluqli yoki taalluqli emasligi haqida fikr bayon qilinadi. Masalan, "Har bir inson baxtli bo'lishni xohlaydi" va "Hech bir aqlli odam vaqtini behuda sarflamaydi".

Juz'iy hukmlarda birorta belgining predmetlar to'plamining bir qismiga xos yoki xos emasligi haqida fikr bildiriladi. Masalan, "Ba'zi yoshlar tadbirkor". "ayrim talabalar dangasa emas". Juz'iy hukmlarda "ba'zi" so'zi "hech bo'lmasa bittasi, balki hammasi", degan ma'noda qo'llaniladi. Shunga ko'ra, "Ba'zi toshlar tirik mavjudot emas", degan hukm chin bo'ladi, chunki hech bir tosh tirik mavjudot emas.

Ma'lum ma'noda yakka hukmlarni umumiy hukmlar bilan tenglashtirish mumkin. Chunki har ikki hukmda ham to'plamdagi predmetlarning har biriga nimadir taalluqli yoki taalluqli emas, deb ko'rsatiladi. Yakka hukmlarda esa bu to'plam birgina predmetdan iborat bo'ladi.

Mulohazalarning to'g'ri yoki noto'g'riligini aniqlashda va ba'zi boshqa holatlarda oddiy hukmlarning miqdor va sifati bo'yicha birlashgan klassifikatsiyasi (asosiy turlari) dan foydalaniladi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Umumiy tasdiq hukmlar. Ular bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Hamma talabalar mantiq ilmini o'rganadilar". Bu hukmlar lotin alifbosidagi A harfi bilan belgilanadi va "Hamma S–Pdir" formulasi orqali ifodalanadi.

2. Umumiy inkor hukmlar bir vaqtning o'zida ham umumiy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Hech bir ishbiarmon rejasiz ish yuritmaydi". Bu hukm "Hech bir S–P emas" formulasi orqali ifodalanadi va lotincha E harfi bilan belgilanadi.

3. Juz'iy tasdiq hukmlar bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham tasdiq bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar mas'uliyatli". U lotincha I harfi bilan belgilanadi va "Ba'zi S–Pdir" formulasi orqali ifodalanadi.

4. Juz'iy inkor hukm bir vaqtning o'zida ham juz'iy, ham inkor bo'lgan fikrni ifodalaydi. Masalan, "Ba'zi talabalar sport bilan shug'ullanmaydilar". Uning formulasi "Ba'zi S–P emas" bo'lib, lotincha O harfi bilan belgilanadi.

Oddiy hukmlarda terminlar hajmi. Oddiy hukmlardagi terminlar (S va P) tushunchalar orqali ifodalanganligi tufayli ularning hajmiga ko'ra, o'zaro munosabatlarini aniqlash mumkin. Hukmlarda terminlar (S va P) to'liq yoki to'liqsiz hajmda olingan bo'ladi. Termin to'liq hajmda olinganda uning hajmi boshqa terminning hajmiga to'liq mos bo'ladi yoki mutlaqo mos bo'lmaydi (ularning hajmi bir-birini istisno qiladi). Termin to'liqsiz hajmda olingan bo'lsa, unda uning hajmi boshqasining hajmiga qisman mos keladi yoki undan qisman istisno qilinadi. Oddiy hukmlarda terminlar hajmi quyidagicha bo'ladi:

1. A – Umumiy tasdiq hukmlarning subyekti hamma vaqt to'liq hajmda olingan bo'ladi. Predikati esa ba'zan to'liq, ba'zan to'liqsiz hajmda bo'ladi. Masalan, "Hamma insonlar tirik mavjudotdir".

Bu hukmning subyekti – "inson", predikati – "tirik mavjudot" tushunchasidir, "hamma" – umumiylik kvantori. Bu hukmning subyekti to'liq hajmda olingan, chunki unda hamma insonlar to'g'risida fikr bildirilgan va bu tushuncha "tirik mavjudot" tushunchasining hajmiga to'liq kirishadi. Uning predikati to'liq hajmda olinmagan, chunki unda tirik mavjudotlarning bir qismi – insonlar haqida fikr yuritiladi.

Umumiy tasdiq hukmlarning ba'zilarida S ham, R ham to'la hajmda bo'lishi mumkin. Masalan, "Hamma musulmonlar Islom diniga e'tiqod qiladilar".

Hukmlarda terminlar hajmini aniqlash qat'iy sillogizmni to'g'ri tuzishda va bevosita xulosa chiqarishda muhim ahamiyatga ega. Oddiy hukmlarda terminlar hajmini quyidagi shakl orqali yaqqol ifodalashda "+", "-" belgilaridan foydalanadi. Bunda "+" to'liq hajmni, "-" to'liqsiz hajmni bildiradi.

Predikatning mazmuniga ko'ra oddiy hukm turlari. Ular quyidagilardan iborat: atributiv hukmlar, mavjudlik hukmlari va munosabat hukmlari. Atributiv (sifat va xususiyat) hukmlarda biror xususiyatning predmetga xosligi yoki xos emasligi aniq, qat'iy qilib ko'rsatiladi. Shuning uchun atributiv hukmlarni birorta predmetning sinfga kirishi (mansubligi) yoki kirmasligi (mansub emasligi) haqidagi hukm deb ta'riflash bo'ladi.

Masalan, "Hamma daraxtlar o'simliklardir" va "Hech bir o'simlik hayvon emas". Birinchi hukmda daraxtlarning o'simliklar sinfga kirishi haqida fikr bildirilsa, ikkinchi hukmda o'simliklar va hayvonlar sinfining o'z holicha umumiylikka ega emasligi haqida fikr bildirilgan.

Ikkita, uchta va hokazo predmetlar o'rtasida muayyan munosabatlarning bo'lishi yoki bo'lmasligini ifodalagan hukmlarga munosabat hukmlari deyiladi. Masalan: "Butun bo'lakdan katta". "Ikki uchdan kichik son". Birinchi hukmda

“kattalik” munosabati butun va bo‘lak o‘rtasida bo‘lishi tasdiqlansa, ikkinchi hukmda uch soni bilan ikki sonining munosabati haqidagi fikr tasdiqlangan.

Munosabat hukmlari sifatiga ko‘ra, tasdiq yoki inkor hukm turlariga bo‘linadi. Tasdiqlovchi munosabat hukmlarida predmetlar o‘zaro muayyan munosabatda ekanliklari haqida fikr bildiriladi. Inkor etuvchi munosabat hukmlarida esa predmetlar o‘rtasidagi muayyan munosabatlarning mavjud emasligi haqida fikr bildiriladi.

Munosabat hukmlari miqdoriga ko‘ra ham turlarga bo‘linadi. Xususan, ikki o‘rinli munosabat hukmlari miqdoriga ko‘ra yakka-yakka, umumiy-umumiy, juz‘iy-juz‘iy, yakka-umumiy, yakka-juz‘iy, umumiy-juz‘iy, juz‘iy-umumiy turlarga bo‘linadi.

Masalan, “Ukasi akasidan baland” (yakka-yakka); “Guruhimizning har bir talabasi fakultetimizdagi hamma o‘qituvchilarni biladi” (umumiy-umumiy); “Guruhimizdagi ba‘zi talabalar ba‘zi hind kino yulduzlarini yaxshi biladilar” (juz‘iy-juz‘iy); “Tarix o‘qituvchisi guruhimizdagi har bir talabani yaxshi biladi” (yakka-umumiy); “Do‘stim ba‘zi masalalarni yecha oladi” (yakka-juz‘iy); “Guruhimizdagi hamma talabalar ingliz tilini o‘rganadilar” (umumiy-yakka); “Guruhimizdagi ba‘zi talabalar fransuz tilini o‘rganadilar” (juz‘iy-yakka); “Guruhimizdagi ba‘zi talabalar “Paxtakor” komandasining har bir o‘yinchisini biladilar” (juz‘iy-umumiy).

Uch o‘rinli, to‘rt o‘rinli va hokazo munosabat hukmlari ham yuqoridagi kabi turlarga bo‘linadilar.

Atributiv va munosabat hukmlaridan boshqa yana mavjudlik hukmlari (Kutubxonada mantiq darsligi bor), ayniyat hukmlari (“A–B” ko‘rinishda bo‘lgan) va modal hukmlar (ehtimol yomg‘ir yog‘adi) ni ko‘rsatish mumkin. Ba‘zi darsliklarda ular oddiy qat‘iy hukm turlari sifatida talqin qilinadi. Biz bu hukm turlarini alohida ko‘rib chiqmaymiz, chunki mavjudlik hukmlarini ko‘pincha atributiv hukmlar ko‘rinishida, ayniyat hukmlarini munosabat hukmlari ko‘rinishida talqin qilish mumkin.

Shuningdek, oddiy hukm turlari sifatida ajratib ko‘rsatuvchi va istisno qiluvchi hukmlar ham farqlanadi. “Guruhimiz talabalaridan faqat 4 kishi musobaqada qatnashadi”. Bu ajratib ko‘rsatuvchi hukmdir. “Mantiq tarixi” kursidan boshqa hamma o‘qitiladigan fanlardan darsliklar yetarli”. Bu esa istisno qiluvchi hukmdir.

Murakkab hukmlar:

Hukm terminlari birdan ortiq bo‘lsa, murakkab hukm deb ataladi. Murakkab hukmlar “va”, “yoki”, “agar... unda” kabi mantiqiy bog‘lamalar, inkor qilish va modal terminlarni qo‘llash orqali ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning o‘zaro birikishidan hosil bo‘ladi. Mantiqiy bog‘lovchining mazmuniga ko‘ra murakkab

hukmlarning quyidagi asosiy turlarini farq qilish mumkin: birlashtiruvchi, ayiruvchi, shartli, ekvivalent.

Birlashtiruvchi (kon'yunktiv) hukmlar deb ikki va undan ortiq oddiy hukmlarning “va”, “ham”, “hamda” kabi mantiqiy bog‘lovchilar vositasida o‘zaro birikishidan hosil bo‘lgan hukmlarga aytiladi.

Masalan, 1. “Qo‘ng‘iroq chalindi va dars boshlandi”.2. “Alisher Navoiy shoir va davlat arbobi bo‘lgan”. 3. “Muhammad Xorazmiy va Ahmad Farg‘oniyalar matematika fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar”.

Birinchi birlashtiruvchi hukm ikki mustaqil oddiy hukmning bog‘lanishidan hosil bo‘lgan. Ikkinchi hukmda bir xil subyektga ega bo‘lgan ikki oddiy hukm o‘zaro bog‘langan. Uchinchi birlashtiruvchi hukmda esa bir xil predikatga ega bo‘lgan ikki oddiy hukm o‘zaro bog‘langan. O‘zbek tilida birlashtiruvchi hukmlar “ammo”, “lekin”, “biroq” kabi bog‘lamalar va (,) vositasida ham tuziladi. Mantiqiy bog‘lamalar kon'yunksiya belgisi “ \wedge ” orqali ifodalanadi. Formulasi $p \wedge q$.

Kon'yunktiv (birlashtiruvchi) hukm tarkibidagi oddiy hukmlarni «r» va “q” shartli belgilari bilan belgilasak, unda bu hukm “ \wedge ” formulasi orqali ifodalanadi. Kon'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlar chin yoki xato bo‘lishi mumkin. Tarkibidagi hamma oddiy hukmlar chin bo‘lganda, birlashtiruvchi hukm chin bo‘ladi. Boshqa hamma holatlarda esa xato bo‘ladi. Masalan, “Yolg‘on gapirish va o‘g‘irlik qilish jinoyatdir” hukmidagi birinchi oddiy gap “Yolg‘on gapirish jinoyatdir” chin bo‘lmaganligi uchun bu hukm chin bo‘lmaydi.

Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukm deb “yo”, “yoki”, “yohud” mantiqiy bog‘lamalari vositasida oddiy hukmlardan tashkil topgan mulohazaga aytiladi. Bu bog‘lovchilar ikki oddiy hukmni yoki bir qancha predikatlarni. yoki bir qancha subyektlarni bir-biridan ayirib turadi.

Masalan, “Qodirov falsafa yoki sotsiologiya, yoki psixologiya bo‘limida o‘qiydi”. “Konsertda birinchi yoki ikkinchi kurs talabalari qatnashadilar”. Ayiruvchi bog‘lamalar “V” – diz'yunksiya belgisi orqali ifodalanadi. Ayiruvchi (diz'yunktiv) hukmlar oddiy yoki qat‘iy turlarga bo‘linadi. Oddiy diz'yunktiv hukm tarkibidagi oddiy hukmlardan biri yoki hammasi chin bo‘lishi mumkin, qat‘iy diz'yunktiv hukmda esa tarkibidagi oddiy hukmlardan faqat bittasi chin bo‘ladi. Oddiy diz'yunktiv hukm $p \vee q$ formulasi bilan, qat‘iy diz'yunktiv hukm $p \vee q$ formulasi bilan belgilanadi.

“Abdulla Avloniy shoir yoki dramaturgdir”. Bu oddiy diz'yunktiv hukm. “Abdullaev musobaqada yo yutadi, yo yutmaydi”. Bu qat‘iy diz'yunktiv hukm.

Shartli (implikativ) hukm ikki oddiy hukmning “agar... unda” mantiqiy bog‘lamasi orqali birikishidan tashkil topadi. Shartli hukmning mohiyatini aniqlash uchun zaruriy va yetarli shart tushunchalarini farqlash zarur. Hodisaning zaruriy sharti deb, uning mavjudligini ta‘minlaydigan holatga aytiladi. Agar hodisaning

sharti zaruriy bo'lmasa, hodisa ham bo'lmaydi. Masalan, "Agar o'simlik suvsiz qolsa, u quriydi".

Shartli hukm tarkibida asos va natija qismlari farqlanadi. Shartli hukmning "agar" va "unda" so'zlari oralig'idagi qismi – asos, "unda" so'zidan keyingi qismi – natija deb ataladi. "agar yomg'ir yog'sa, unda uylarning tomi ho'l bo'ladi" hukmida "yomg'ir yog'sa" hukmi asos, "uylarning tomi ho'l bo'ladi" hukmi – natija hisoblanadi. Demak, asosda ko'rsatilgan hodisa, natijada qayd etilgan hodisaning kelib chiqishi uchun yetarli shartni ifodalagan hukm shartli hukm deyiladi.

Zaruriy modal hukmlar turli fanlarning qonunlarini, shu jumladan, mantiq qonunlarini va ulardan kelib chiqadigan holotlarni ifodalaydi. Masalan, "Butun bo'lakdan katta", "Har bir fuqaro qonunlarga bo'ysunishi shart".

Qonunlarga zid bo'lgan, ularni va ulardan kelib chiqadigan turli holotlarni inkor etuvchi hukmlar ehtimoliy hukmlari deyiladi. Masalan, "Simob daryosining bo'lishi mumkin emas".

Qonunlar va ulardan kelib chiqadigan holatlarga zid bo'lmagan, qonunlarni ham, ularning oqibatlarini ham ifodalamaydigan hukmlar tasodifiy hukmlar deyiladi. Masalan, ba'zi hududlarda dengiz ko'pigining toshqini bo'lishi tasodifiydir.

Ehtimollik hukmlari deb, qonunlar va ularning oqibatlariga zid bo'lmagan fikrlarga aytiladi. Masalan, "Marsda hayot bo'lishi mumkin". Modal tushunchalardan hamma sohalarda foydalanish mumkin.

Xulosa chiqarish deb, bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma'lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo'lgan tafakkur shakliga aytiladi.

Xulosa chiqarish jarayoni asoslar, xulosa va asoslardan xulosaga o'tishdan tashkil topadi. To'g'ri xulosa chiqarish uchun, avvalambor, asoslar chin mulohazalar bo'lishi, o'zaro mantiqan bog'lanishi kerak.


Masalan, "Arastu – mantiq fanining asoschisi" va "Platon yunon faylasufidir" degan ikki chin mulohazadan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Chunki bu mulohazalar o'rtasida mantiqiy aloqadorlik yo'q.

Xulosa asoslari va xulosa ham o'zaro mantiqan bog'langan bo'lishi shart. Bunday aloqadorlikning zarurligi xulosa chiqarish qoidalarida qayd qilingan bo'ladi. Bu qoidalar buzilsa, to'g'ri xulosa chiqmaydi.

Masalan, "Talaba A – a'lochi" degan mulohazadan "Talaba A – odobli", deb xulosa chiqarib bo'lmaydi.

Xulosa chiqarish xulosaning chinlik darajasiga ko'ra, aniqrog'i, xulosa chiqarish qoidalarining qat'iyligiga ko'ra hamda xulosa asoslarining soniga va fikrning harakat yo'nalishiga ko'ra bir qancha turlarga bo'linadi.

Xulosa chiqarish



Mazkur tasnifda xulosa chiqarishni fikrning harakat yo‘nalishi bo‘yicha turlarga ajratish nisbatan mukammalroq bo‘lib, u xulosa chiqarishning boshqa turlari haqida ham ma‘lumot berish imkonini yaratadi. Xususan, deduktiv xulosa chiqarish zaruriy xulosa chiqarish, induktiv xulosa chiqarish (to‘liq induksiyaning hisobga olmaganda) va analogiya ehtimoliy xulosa chiqarish, deb olib qaralishi, bevosita xulosa chiqarish esa deduktiv xulosa chiqarishning bir turi sifatida o‘rganilishi mumkin.

Deduktiv xulosa chiqarish:

Deduktiv xulosa chiqarishning muhim xususiyati unda umumiy bilimdan juz‘iy bilimga o‘tishning mantiqan zaruriy xususiyatga egaligidir. Uning turlaridan biri bevosita xulosa chiqarishdir.

Faqat birgina mulohazaga asoslangan holda yangi bilimlarning hosil qilinishi bevosita xulosa chiqarish, deb ataladi.

Induktiv xulosa chiqarish:

Biz avvalgi mavzuda zaruriy xulosa chiqarish bilan (deduktiv xulosa chiqarish asosida) tanishib chiqqan edik. Mantiqda ehtimoliy xulosa chiqarish ham o‘rganiladi.

Ehtimoliy xulosa chiqarish turli xil shakllarda, shu jumladan, induktiv xulosa chiqarish shaklida amalga oshishi mumkin. Ularning barchasiga xos xususiyat – xulosaning asoslardan mantiqan zaruriy ravishda kelib chiqmasligi hamda faqat ma‘lum bir darajada tasdiqlanishidir. Asoslarning xulosani tasdiqlash darajasi mantiqiy ehtimollik, deb nom olgan.

Ehtimoliy xulosa chiqarish ba'zan induksiya (lotincha– inductio – yagona asosga keltirish) - juz'iy bilimdan umumiy bilimga mantiqan o'tish shaklida sodir bo'ladi.

Induktiv xulosa chiqarish empirik umumlashtirish shaklida amalga oshib, unda birorta belgining ma'lum bir sinfga mansub predmetlarda takrorlanishini kuzatish asosida, shu belgining mazkur sinfga tegishli barcha predmetlarga xosligi haqida xulosa chiqariladi.

Induksiya asosida chiqarilgan xulosalar ilmiy bilishda o'rnatilgan turli empirik qonunlar, yaratilgan umumlashmalar tarzida o'z aksini topadi, predmet va hodisalar haqidagi bilimlarimizni kengaytirishga olib keladi.

Induktiv xulosa chiqarish bilvosita xulosa chiqarish hisoblanadi, ya'ni uning asoslari ikkita va undan ortiq mulohazalardan tashkil topgan bo'ladi. Ular, odatda, yakka predmet yoki predmetlar sinfining bir qismini ifoda qiladilar. Xulosada esa, bir mantiqiy sinfga mansub predmetlarning barchasiga nisbatan umumiy hukm tarzidagi fikr hosil qilinadi.

Demak, induktiv xulosa chiqarishda yakkalik, juz'iylik va umumiylikning dialektik aloqasini kuzatamiz. Ayrim faktlarni ifodalaydigan, juz'iy xarakterga ega bo'lgan bilimlar umumiy bilimlarni hosil qilish uchun mantiqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Takrorlanib turuvchi turg'un aloqalar, odatda, predmetlarning muhim zaruriy aloqalaridan iborat bo'lgani uchun, bu umumiy bilimlar qonuniyatlarni ifoda qiladilar. Asoslardagi yakka va juz'iy faktlar haqidagi bilimlar esa ana shu qonuniyatlarning namoyon bo'lishini qayd etadilar.

Induktiv xulosa chiqarishning ikkita turi: to'liq va to'liqsiz induksiyalar farq qilinadi.

Analogik xulosa chiqarish:

Analogiya (grek. – moslik, o'xshashlik) bivosita xulosa chiqarishning bir turidir, deduktiv xulosa chiqarishda fikr umumiylikdan juz'iylikka qarab, induksiyada juz'iylikdan umumiylikka qarab harakatlansa, analogiyada bir juz'iy holatdan boshqa juz'iy holatga qarab harakatlanadi.

Analogiyada predmetlarning o'xshash xossalari asoslanib xulosa chiqariladi. Tabiat va jamiyatda obyektiv turli-tumanlik bilan bir qatorda, obyektiv o'xshashlik ham mavjuddir. Ular inson ongida o'z ifodasini topadi. Obyektiv reallikning turli sohalariga oid qonun va qoidalar tuzilishi jihatidan o'xshash bo'lsa, ular aks ettirgan voqelikdagi turli narsa va hodisalar ham ma'lum ma'noda o'xshash bo'ladi.

Analogiya bo'yicha xulosa chiqarish obyektiv reallikning cheksiz ko'rinishlari hamda unda mavjud bo'lgan turli sistemalarning xossalari, munosabatlari, tarkiblaridagi o'xshashliklarga asoslanadi. Masalan, sayyoralar,

davlatlar, ijtimoiy tuzumlar mohiyatida o‘xshashlik bor. Bilishda muhim va nomuhim xossalar o‘xshashligi asosida analogiya bo‘yicha xulosa chiqariladi.

Analogiya vositasida bir predmetdan (modeldan) boshqa predmetga (prototipga) axborot o‘tkaziladi. Xulosa asoslari modelga, xulosa prototipga taalluqli bo‘ladi. Masalan, qadimgi greklarning “Dekar va Ikar” afsonasida aytilishicha, ota va bola qullikdan ozod bo‘lish uchun o‘zlariga qanot yasashadi va uchib ketishadi. Bunda xulosa chiqarish quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

Qush tirik mavjudot, uning qanoti bor, u uchadi.

Inson ham tirik mavjudot, uning qanoti yo‘q, u uchmaydi.

Insonning ham qanoti bo‘lsa, u, ehtimol, uchadi.

Analogiya bo‘yicha xulosa chiqarish boshqa xulosa chiqarishlar kabi asoslardan, xulosadan va asoslar hamda xulosa o‘rtasidagi mantiqiy aloqadan iboratdir. Uning xulosasi ehtimoliy shaklda bo‘lib, keyingi tekshirishlarni talab qiladi. Aniq asoslardan ba‘zan aniq, ba‘zan ehtimoliy xulosa chiqadi.

Analogiya o‘zining obyektiv asosiga ega. Bular predmetlar, ularning xossalari o‘rtasidagi aloqalar va munosabatlardir. Demak, mantiq ilmi tafakkur shakllari va qonunlari haqidagi ta’limot. Tafakkur shakllari va qonunlarini o‘rganish, ulardan ongli ravishda foydalanish fikrlash madaniyatini o‘stiradi, xususan, fikrni to‘g‘ri qurish malakasini rivojlantiradi; bahs yuritishda o‘zining va boshqalarning fikriga tanqidiy munosabatda bo‘lishiga, suhbatdoshining mulohazalaridagi xatolarni ochib tashlashga yordam beradi.

Muhokamani to‘g‘ri qurishga, formal ziddiyatlar, xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka erishish, aytish mumkinki, o‘ziga xos san‘at-mantiq san‘ati hisoblanadi. Bu san‘atning nazariy asoslarini chuqur egallagan kishigina uning imkoniyatlarini amaliy muhokama yuritishda namoyish qila oladi.

Shu o‘rinda buyuk mutafakkir, “muallimi soniy” taxallusi bilan birga “Mantiqiy” taxallusini ham olgan Abu Nasr Forobiyning mantiq ilmining ahamiyati haqida bildirgan quyidagi fikrlarining alohida e‘tiborga loyiq ekanligini ta’kidlash zarur. U shunday yozadi: “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda, to‘g‘ri tafakkurga yetaklaydigan, uning yordamida har safar xulosa chiqarayotganda adashishga qarshi ehtiyot choralarini ko‘rsatadigan san‘atni-mantiq san‘atini o‘rganishdir. Uning asosiy qonun-qoidalarining aqlga bo‘lgan munosabati grammatika san‘ati qoidalarining tilga bo‘lgan munosabatiga o‘xshash; xuddi grammatika kishilarning tilini to‘g‘rilash extiyoji sababli yaratilgani, unga xizmat qilishi zarur bo‘lgani singari, mantiq ham tafakkur jarayonini yaxshi amalga oshirish maqsadida, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgan barcha hollarda aqlni to‘g‘irlab turadi”.

Nazorat savollari:

1. Mantiq so'zi qaysi so'zdan olingan va u qanday ma'nolarni anglatadi?
2. Tafakkurning bilish jarayonida tutgan o'rni haqida gapiring.
3. Formal mantiq, dialektik mantiq, matematik mantiq tushunchalariga ta'rif bering.
4. Mantiqning asosiy qonunlari qaysilardan iborat?
5. Ayniyat qonuni haqida gapiring.
6. Nozidlik qonuni deganda nimani tushunasiz?
7. Uchinchisi istisno qonunini izohlang.
8. Yetarli asos qonuni haqida nima bilasiz?
9. Tushuncha nima?
10. Hukm deb nimaga aytiladi?
11. Xulosa chiqarish haqida nima bilasiz?

8-mavzu: Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq

Reja:

1. Etika fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Axloqning paydo bo'lishi.
2. Muomala madaniyati. Kasbiy axloq.
3. Pedagogik etika, uning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati.

Tayanch iboralar: odob, xulq, axloq, etika (axloqshunoslik), axloqiy tarbiya, axloq falsafasi (ezgulik falsafasi), etosfera, biologik etika, fazilat va illat, axloqiy madaniyat, muomala madaniyati, kasbiy odob, tibbiy tarbiya, ekologik tarbiya, shaxs axloqiy tarbiyasi, zamonaviy axloqiy tarbiya.

MAVZUNING MAQSADI: . Etika fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasining mazmuni, axloqning paydo bo'lishi, muomala madaniyati, kasbiy axloq tushunchalarining mohiyatini ochish.

1. “Etika” fanining predmeti, mohiyati, uning asosiy belgilari va tuzilmasi. Axloqning paydo bo'lishi.

Bugun O'zbekiston yangi taraqqiyoti sharoitida yoshlarning yuksak ma'naviyati, ularning axloqiy, aqliy, estetik, jismoniy yetukligiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlatimiz siyosatining markazida turgan jismonan sog'lom barkamol avlodni tarbiyalash hozirgi davrning eng muhim vazifalaridan biridir. Bu borada esa etika fanining o'rnini beqiyosdir. Etika fani mamlakatimiz talaba yoshlarini axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim omillardan biridir. Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqqa zid bo'lgan harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlarini, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq- odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkin.

Bugungi globallashtirilgan XXI asrda yoshlarni axloqimizga zid bo'lgan illatlardan himoya qilish har birimiz uchun asosiy vazifadir. Go'zal axloq va odob bilan belgilangan ma'naviy fazilatlar insonlar o'rtasidagi barcha munosabatlarga singib ketganidan keyingina chinakam axloqiy ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ham axloqiy qadriyatlar barcha davrlarda insonning ma'naviy kamoloti, jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etilgan. Barcha ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy muammolarni hal etish imkoniyati inson shaxsini tarbiyalash orqali yaratilgan.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning bosh mezoni, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi yangilanishlarning asosiy yo'nalishlari, zamonaviy dunyoqarashni shakllantirayotgan muhim omillar bevosita axloqning ma'naviyat tizimida muhim o'rin tutganligidan dalolat beradi. Axloq normalari bir xalqdan boshqa xalqlarga, avloddan avlodga o'tib, boyib, takomillashib boradi. Mukammal axloq va komil inson haqidagi tushunchalar har bir davrning imkoniyatlari va mezonlari asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Inson ma'naviy olamining yuksalishi bilan bog'liq turli holatlar haqida ko'p gapirish mumkin. Lekin, muxtasar qilib aytganda, Olohning o'zi bizga buyurgan komil inson bo'lish, halollik va adolat bilan hayot kechirish kabi olijanob fazilatlarining ma'no-mazmunini nafaqat chuqur anglash, balki ana shunday xususiyatlarga ega bo'lish, ularga amal qilib yashash – odamzotning ma'naviy boyligini belgilab beradigan asosiy mezon desak, hech qanday xato bo'lmaydi. O'ylaymanki, bunday xulosani insoniyat o'z ongli hayoti davomida doimo orzu qilib, intilib kelgan yuksak ma'naviy idealning falsafiy ifodasi, mantiqiy natijasi sifatida qabul qilish o'rindir".

Etika hamma jamiyatlarda ham yuksak e'tiborga ega bo'lgan. Bu bejiz emas. Chunki davlatning kuch-qudrati, salohiyati, undagi odamlarning ma'naviy barkamolligi, iymon-e'tiqodi, halol-pokligi ko'p jihatdan axloq umumme'yorlarining o'zlashtirilishi darajasi bilan bog'liq.

Jamiyatning yangi taraqqiyoti bosqichida komil insonni tarbiyalash zaruriyati etika fanini yuksak bosqichga ko'tarishni taqozo qilmoqda. Bu sohada jiddiy nazariy tadqiqotlar o'tkazilishi va uni amaliy hayotga samarali tadbiiq etilishi muhimdir.

DIQQAT QILING! Etika-axloqning kelib chiqishi, mohiyati, taraqqiyoti, tarkibiy qismlari, ularning amal qilishi, shuningdek, insonning oila, mahalla-ko'y, o'qish va ish joyi, jamiyatdagi axloqiy munosabatlarni o'rganadigan qadimiy falsafiy fan. U tariximizda "Ilmi axloq", "Axloq ilmi", "Ilmi ravish", "Odobnoma" kabi nomlar bilan yuritilgan. Yevropada "Etika" deb nomlangan.

"Etika" atamasini birinchi marta muomalaga kiritgan faylasuf Arastudir. U fanlarni tasnif qilib, uch guruhga bo'ladi: nazariy, amaliy va ijodiy.

Birinchi guruh fanlari: falsafa, matematika, fizika; ikkinchi guruh fanlari: etika va siyosat; uchinchi guruh: san'at, hunarmandchilik va boshqa amaliy fanlar. Arastu axloq falsafasining nazariy asoschisidir. U etikani ruhshunoslik bilan siyosatshunoslik oralig'idagi alohida falsafiy fan sifatida talqin qildi. Uning o'g'liga bag'ishlangan "Nikomaxning axloq kitobi" asari birinchi nazariy manbadir va hozirda ham o'z qimmatini yo'qotmagan. Demak, qadimgi yunonlar


axloq haqidagi ta'limot – “etika”ni asoslaganlar. Uni amaliy falsafa ham deb ataganlar.

Axloqiy g'oyalarning, axloqiy qadriyatlarining juda qadimda vujudga kelganligiga ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan “Avesto” kitobini va uning shiori “Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal” ekanini aytib o'tish o'rindir. Yuqorida aytib o'tganimizday, etika axloqning kelib chiqishi, mohiyati va odamlarning jamiyatdagi axloqiy munosabatlarini o'rganadi, o'rgatadi.

“Axloq” arabcha so'z bo'lib, “xulq” so'zining ko'plik shaklidir. Axloq atamasi ikki xil ma'noda ifodalanadi: birinchidan, u umumiy tushuncha sifatida fanning tadqiqot obyektini anglatadi; ikkinchidan, u konkret tushuncha sifatida odam fe'l-atvori va xatti-harakatining keng qamrovli qismini bildiradi.

O'zbek axloqshunosligida eng muhim atamalar odob, xulq, axloq hisoblanadi. Mazkur tushunchalar o'z mazmuniga ko'ra o'ta yaqin, lekin qamroviga ko'ra farqlidir. Ular axloqiy rivojlanishning o'ziga xos bosqichlari hamdir.

Taniqli axloqshunos Abdulla Sherning yuqoridagi tushunchalarni tasnif qilishicha, odob nisbatan torroq va konkretroq tushuncha.



Axloq – ijtimoiy ong shakllaridan biri. Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, ijtimoiy va shaxsiy hayotdagi o'zaro, shuningdek, jamiyatga bo'lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror, muayyan norma va qoidalar yig'indisi.

Axloq inson ruhiy olami, aqliy salohiyatining oila, jamoa, jamiyatda fe'l-atvor, odob-xulq, xatti-harakat tarzida namoyon bo'ladigan faoliyat, munosabatlar majmuidir.

Odob, xulq, axloq tushunchalari nisbiy xarakterga ega. Bu tushunchalar davr ruhi, konkret millat yoki elat, ijtimoiy guruhning ularga qanday ma'no, mazmun

yuklashi bilan reallashadi, muayyan mezonga ega bo‘ladi, ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Masalan, bir millatda yoki ijtimoiy guruhda axloqsizlik deb hisoblangan holat ikkinchi bir millat yoki ijtimoiy guruhda normal hodisa deb qabul qilinishi mumkin. Shuningdek, bu tushunchalar uzviy birlikda. Ular bir-biriga o‘tib turadi va to‘ldiradi. Bir vaqtlar odobsiz, badxulq, axloqsiz bo‘lgan o‘spirin vaqt o‘tishi bilan o‘zligini anglash jarayonida o‘sib-ulg‘ayib, oq-qorani tanib odob, xulq va axloqiylik bobida namuna bo‘ladigan darajaga yetishi mumkin. Bunga hayotiy misollar ko‘p. Aksincha holatlar ham ro‘y berishini istisno qilib bo‘lmaydi. Odobli, xushxulq, axloqli hisoblangan bola yoki kishi nosog‘lom muhit ta‘sirida ruhiy tushkunlikka uchrab, sinib, salbiy xatti-harakatlar sohibiga aylanishi mumkin.

Axloqning o‘ziga xos tarkibiy qismlari, mezoniy tushunchalari va amal qilish tamoyillari hamda me‘yorlari bor. U nazariy va amaliy faoliyat omuxtaligi natijasidir.

Axloq ijtimoiy hodisa sifatida o‘z tuzilmasiga ega. Axloq tuzilmasi o‘z ichiga axloqiy ong, axloqiy hissiyot va axloqiy xatti-harakatlarni oladi.

Insoniyat tarixi ma‘lum ma‘noda axloq, axloqiy rivojlanish tarixidir. Odamning ijtimoiylashishi, insoniylashishida, o‘zligini anglashida axloqning o‘rni va roli beqiyosdir.

Etika tarixida kishini aql bilan ish ko‘rishga, me‘yorida lazzatlanishga, o‘z ehtirolarini jilovlab, lahzalik lazzatga umrini baxsh etmaslikka chaqiruvlar va aksincha lazzatning ustuvorligi, shuningdek, baxtning ustuvorligi haqidagi qarashlar keng tarqalgan edi. Lazzatning ustuvorligi ilmiy tilda gedonizm, baxtning ustuvorligi evdemonizm deb nomlanib, baxtning gedonizm va evdemonizmga asoslanishi bilan ajralib turadi. U ruhiy tabobatning eng muhim vazifasi insoniy baxt bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan lazzatning mohiyatini bilish va tushuntirishdan iborat deb hisoblaydi: lazzat – iztirobdan qutilish. Lazzatning bir shartini farovonlikda, ikkinchi shartini esa u, hamma narsaga aql bilan yondashuvda ko‘radi. Ar-Roziyning mazkur ta‘limoti Epikur qarashlarini ijodiy rivojlantirish edi.

Etikaning hozirgi kunda umumjahoniy – global muammolarni hal qilishdek muhim vazifasi Yer yuzida “etosfera” – axloqiy muhit davrini yaratish; kelajakda inson o‘zini va sayyoramizni muqarrar halokatdan qutqarish uchun axloqiylik muhitini vujudga keltirishi shart.

Etika fani tadqiqotlariga ko‘ra, axloqiylik va axloqsizlik juft tushuncha. Agar axloqiylik fazilatlarda namoyon bo‘lsa, axloqsizlik illatlarda ko‘zga tashlanadi. Bu ikki tushuncha bir-birini inkor etadi. Ma‘lum ma‘noda bu tushunchalar bir narsaning ikki tomoni sanaladi. Ularni muayyan me‘yor chiziqlari chegaralab turadi. Ular me‘yor buzilishi bilan o‘z sifatini o‘zgartiradi. Masalan, muhabbat,

ya'ni seva olish qobiliyati, o'z muhabbatini asrab-avaylash, qizg'onish hissini kuchaytirib, rashkka, rashk fojeaga olib kelishi mumkin. Fazilat bilan illat orasi bir qadam.

Insonda hukmronlik qilish maylibir qadar kuchli. Bu maylni qondirish erkin harakatni ixtiyor etish imkoni bilan bog'liq. Lekin insonda ixtiyor qilish erkinligi obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra cheklangan. Mutloq ixtiyor erkinligi yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. U nisbiy xarakterga ega.

Ixtiyor erkinligini cheklashning, aqlga bo'ysundirishning asosiy vositasi-axloq. Axloqni rivojlantirish tabiiy-tarixiy zarurat. Noosfera – axloqni rivojlantirish manbai.

Ixtiyor erkinligi axloqiy tanlov muammosini keltirib chiqaradi. Axloqiy tanlov –inson xatti-harakati, faoliyatiningboshlang'ich nuqtasidir. Axloqiy tanlov odam gardaniga mas'uliyat hissini yuklaydi. Oiladagi mas'uliyat, mahalla-ko'y oldidagi mas'uliyat, jamoa va nihoyat jamiyat oldidagi mas'uliyat. Hamma davrlarda ham inson va jamiyat axloqiy hayotida tanlovning ahamiyati beqiyos bo'lgan. Axloqiy tanlov bu – sinov. Kimdir bu sinovga dosh beradi, undan mardona o'tadi, kimdir uning oldida ojiz qoladi, sinadi. Xulosa shuki, mamlakatimizda barkamol avlodni tarbiyalashda etika fanining xizmati beqiyos.

Har qanday davlat va jamiyatning axloqiy yuksaklik darajasini uning fuqarolari axloqiy madaniyati belgilaydi. Axloqiy madaniyat – insonning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi hamda bu tajribalardan o'zga insonlar bilan bo'lgan munosabatlarida foydalanishi, o'z-o'zini doimiy takomillashtirib borishi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

2. Muomala madaniyati. Kasbiy axloq.

Axloqiy madaniyatning eng muhim unsurlaridan biri – muomala odobi. U mohiyatan o'zaro hamkorlikning shakllaridan biri. Inson zoti bir-biri bilan hamkorlik qilmasdan, o'zaro tajriba almashmasdan, bir-biriga ta'sir ko'rsatmasdan rasmana yashashi mumkin emas. Muomala odam uchun ehtiyoj, zarurat, sog'lom kishi usiz ruhan qiynaladi, kayfiyati tushib boradi. Buni deyarli har birimiz o'z shaxsiy hayotimizda boshimizdan kechirganmiz.

Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishni, an'anaviy axloqiy-me'yoriy talablarni bajarishni taqozo etadi. Shuning barobarida u insondagi yaxshi jihatlarni namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Uning eng yorqin, eng sermazmun va eng ifodali namoyon bo'lishi so'z, nutq vositasida ro'y beradi. So'zlash va tinglay bilish, suhbatlashish madaniyati muomalaning muhim jihatlarni tashkil etadi. Shu bois muomala odobi o'zini, eng avvalo, shirinsuxanlilik, kamsuqumlik, bosiqlik, xushfe'llilik singari axloqiy me'yorlarda namoyon qiladi. Darhaqiqat, muomala odobida muloqotning asosi bo'lmish til katta ahamiyatga ega.

Muomala odobida “siz” va “sen”ning o‘z o‘rnida qo‘llanilishi ham ahamiyatga ega. Xususan, ota-ona, aka-opa yoki boshqa yoshi katta odamlar uchinchi shaxs bo‘lganida ularga nisban birlikdagi “u” olmoshini emas, hurmatni anglatuvchi “ular” yoki “u kishi” shaklini qo‘llash odobdan. Masalan, “Otam shunday dedi” emas, “Otam shunday dedilar”, “U kishi shuni xohlayaptilar” v.h.

Suhbat paytida tinimsiz harakatda bo‘lib turish, qo‘lni paxsa qilib gapirish yoki suhbatdoshining yoshini nazarga olmay, uni oyoqni chalkashtirib o‘tirgan holda tinglash, birov jon kuydirib so‘zlayotganda esnash va boshqa shunga o‘xshash holatlar ham muomaladagi odobsizlikni bildiradi.

Muomala odobining yana bir “ko‘zgusi”, bu – insoniy qarash, nigoh, so‘zsiz – noverbal harakatlar. Ma’lumki, odamning qarashida, yuz ifodasida, qo‘l harakatlarida uning qay sabablardandir tilga chiqmagan, so‘zga aylanmagan hissiyoti, talablari o‘z aksini topadi. Chunonchi, suhbatdoshining gapini oxirigacha eshitmay, qo‘l siltab ketish – muomaladagi madaniyatsizlikni anglatadi. Ba’zan qarab qo‘yishning o‘zi so‘zdan ham kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi.

Umuman olganda, muomala odobi kishilarning nasihat qilmasdan va odob o‘rgatmasdan bir-biriga ta’siri, tarbiya va o‘z-o‘zini tarbiya vositasi sifatida diqqatga sazovor. Shu sababli yoshlarimizda muomala odobini shakllantirish hozirgi kunda jamiyatimiz oldida turgan muhim vazifalardan. Bunda ota-onaning, mahalla-ko‘yning ta’siri katta. Undan foydalana bilish kerak. Zero, axloqiy komillikka erishish muomala odobini egallashdan boshlanadi.

DIQQAT QILING! Etiket muayyan vaziyat sharoitida qo‘llaniladigan qoida-tartib, amal qilinishi shart bo‘lgan axloqiy xatti-harakatdir. U odatda shaxsning tashqi madaniyatini, rasmiy munosabatlarda o‘zini tutish qonun-qoidalarining bajarilishini boshqaradi.

Odamlarning bir-birlari bilan munosabatda bo‘lishlari etiket qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Ularning bir-birlari bilan munosabatga kirishish madaniyatiga etiket, munosabat qilish qoidalariga esa etiket qoidalari deyiladi.

Etiket tushunchasi fransuzcha “etiquette” so‘zidan olingan bo‘lib, rus tilida etiketka, o‘zbek tilida esa yorliq degan ma’noni bildiradi. Hozirgi vaqtda barcha tillarda etiket so‘zi qabul qilingan. Etiket tushunchasining o‘ziga yarasha kelib chiqish tarixi bor. Fransiya qiroli Lyudovik XIV tantanali qabul marosimlaridan birida mehmonlarga “o‘zini tutish qoidalari” deb yozilgan kartochka beradi. Kartochka esa etiketka deb nomlangan. Vaqtning o‘tishi bilan etiketka so‘zi etiket so‘ziga va unda yozilgan qoidalar esa etiket qoidalariga aylangan va bugungi kungacha uning ma’nosi o‘zgartirilmasdan ishlatiladi. Masalan, rus tili lug‘atida

etiket–bu qandaydir jamiyatda o‘zini tutish (yurish-turishning) belgilangan tartibi va muomala qilish shakli deb ta’riflangan.

Etiketning tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, odatda Fransiya va Angliyani etiketning klassik mamlakatlari deyishadi. Lekin bu etiket qoidalari ilk bor Fransiya va Angliyada vujudga kelgan degan degan so‘z emas. Agar etiket to‘g‘risidagi ma’lumotlar paydo bo‘lish tarixi XIV va XV asrlarga mansubligi hisobga olinsa, ularni etiket makoni deb aytib bo‘lmaydi, chunki etiket faqat ma’naviy yuksak jamiyatda vujudga kelishi mumkin.

Mamlakatlarning rivojlanish tarixidan ma’lumki, Angliya shu davrlarda mustamlakachilik urushlarini olib borgan, bir urushni tamom qilgandan darrov ikkinchi urushga kirgan. U XVI asrning o‘rtalarigacha varvarlar (vahshiylar) mamlakati sifatida tanilgan. Fransiya esa Angliya qaramida bo‘lgan va nodonlar mamlakati hisoblangan, chunki fransuzlar harbiy xizmatdan boshqa hech narsani tan olishmagan, ilmni hurmat qilishmagan, olimlarni esa e’tiborga loyiq bo‘lmagan odamlar deb hisoblashgan. Demak, deyarli ikki yarim asr davomida ikkala mamlakatda ham qo‘pollik, unga sajda qilish va behurmatlik hukmronlik qilgan. Albatta bunday mamlakatlarda etiket to‘g‘risida gap bo‘lishi ham mumkin emas. Germaniyada murosasiz va shafqatsiz Gussitlar urushlari avjiga chiqqan vaqt edi. O‘sha asrlardagi Yevropa mamlakatlari ichida urushlardan faqat Italiya istisno bo‘lgan. Italiyaliklarning feodal urf-odatidan Yevropa mamlakatlari ichida yangi zamon ruhiga o‘tishi XIV asrdan boshlandi va Italiya jamiyati ma’naviy qiyofasining yaxshi tomonga o‘zgarishiga olib keldi. Agar XV asrdagi Italiyani boshqa Yevropa mamlakatlari bilan solishtirilib qaralsa, unda jamiyatning bilimlilik darajasining yuqoriligi, ma’naviy va moddiy boyligi, hayotning farovonligi ko‘zga tashlanadi. Demak, Yevropa mamlakatlari ichida birinchi Italiyada madaniyatli jamiyat shakllana boshlagan. Shuning uchun ham Italiya birinchi etiket makoni deb hisoblanishiga haqli.

O‘rta asrlarda eng mashhur bo‘lgan etiket bo‘yicha kitob “Klerikalis intizomi” nomi bilan Ispan ruhoniysi Pedro Alfanso tomonidan yozilib, 1204 yilda nashr qilingan. U dindorlar va monarxlar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda asosan o‘zini tutish qoidalari hamda suhbat olib borish va mehmonlarni kutib olish tartibi o‘zining ifodasini topgan. Kitobning mashhurligi shundan iboratki, keyinchalik uning asosida Angliya, Gollandiya, Fransiya va o‘sha vaqtdagi Italiya va Germaniyaga qarashli hududlarda etiket bo‘yicha qo‘llanmalar nashr qilingan. Rossiyada birinchi bo‘lib, etiket bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalari nashr qilindi. Pyotr birinchi tomonidan tashkil qilingan aristokratlar (oqsuyaklar) maktabi tinglovchilari uchun yozilgan “Yoshlar ko‘zgusi yoki Turmush muomalalari bo‘yicha ko‘rsatma” (“Zerkalo yunosti ili pokazaniya po jiteyskomu obxojudeniyu”) nomli asar Rossiyada mashhur etiket bo‘yicha kitoblardan biri bo‘lgan. Bu kitob

XVIII asrda bir necha marta qayta nashr qilingan, unda asosan jamiyatda muomala qilish, ovqatlanish stoli atrofida o'zini tutish, pichoq va panshaxalardan foydalanish, tanishlar bilan uchrashganda qancha masofada bosh kiyimini olish va egilib salom berishda tananing qanday holatda bo'lish qoidalariga e'tibor berilgan. Shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, aristokratik g'arbiy Yevropada saroy etiket qoidalarining qat'iyligi ba'zan kulgili va bir vaqtning o'zida yig'latib-kuldiradigan tragekomik vaziyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan.

Jamiyatda shakllangan etiket qoidalari axloqiy me'yorlar deyiladi. Bugungi kunda jamiyatdagi axloqiy me'yorlar uzoq vaqt davomida odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy natijasi hisoblanadi. Bu qoidalarga itoat qilish davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabat qilish garovi bo'lib xizmat qiladi, chunki bir-birini hurmat qilmasdan va boshqa davlatlarga nisbatan o'zini tutish chegaralarini saqlamasdan birga tinch-totuv yashash mumkin emas. Bundan tashqari etiket qoidalariga rioya qilish bozor iqtisodiyoti davrida turli dinlarga itoat qiladigan turli millat vakillarining, jamiyatimizda paydo bo'lgan turli tabaqali guruhlarning va har xil dunyoqarashdagi kishilarning tinch-totuv yashash garovi bo'lib xizmat qiladi.

Etiket qoidalariga nafaqat davlatlar o'rtasida, jamiyatning har bir a'zosi va kasb guruhlari a'zolari tomonidan ham rioya qilinishi lozim. O'zini madaniyatli hisoblaydigan har bir kishi etiket qoidalarining asosiylarini nafaqat bilishlari, ularga itoat qilishlari ham lozim, chunki muomala qilishda o'zini tutabilish va to'g'ri xatti-harakat qilish munosabatlarni osonlashtiradi, bir-birlarini tezroq tushunish uchun imkoniyat yaratadi, barqaror aloqa o'rnatish garovi bo'lib hisoblanadi.

Insonlar ahamiyat berishi lozim bo'lgan etiket qoidalari axloq normalariga asoslanadi. Zamonaviy amaliyotda davlat xizmatchilariga quyidagi jihatlar, ya'ni mas'uliyatni chuqur his etish, mehnatsevarlik, beg'araz yordam, buyruq va ko'rsatmalarda belgilangan vazifalarni o'z vaqtida bajarish, haqgo'ylik, aniqlik, adolatli qaror chiqarish va shu kabi axloqiy sifatlar taalluqlidir. Va aksincha, mas'uliyatsizlik, ishdan bo'yin toblash, ta'magirlik, poraxo'rlik, so'zda qat'iy turmaslik, noto'g'ri asos va ma'lumotlar orqali mablag' o'zlashtirish kabilar axloqsizlik hisoblanadi.

Axloq normalari huquqiy normalardan shu jihati bilan farqlanadiki, ular davlat va xalqaro reglament hujjatlarida qayd etilmagan. Axloqiy me'yorlarning buzilishi bilan birga huquqiy normalarning ham buzilishi bir qator noxush hodisalarni keltirib chiqaradi. Ko'p hollarda axloqiy me'yorlarning buzilishi ijtimoiy tanbehlar orqali jazolanadi va u turli ko'rinishlarda sodir bo'ladi: tanqidiy mulohaza, ta'qib qilish, tanbeh berish, so'zini ustidan chiqmaslik. Ayrim

holatlarda ta'niqidiy qarash, hazillashib jilmayish yoki hazil tovushdagi ibora ham yetarlicha jazo sifatida ko'rinadi.

Ma'lumki, axloq normalari, an'ana, urf-odatlarga asoslanadi. U o'lka, mamlakat, mintqa va turli millatlarda o'zgacha amal qiladi. Masalan, oq rang ayrim xalqlar an'analariida sipolik, xushbaxtlik, boshqalarida esa motam, ko'pgina nemis tilida so'zlashuvchi mamlakatlarda an'analarga asosan stolda uy sohibining chap tomonida o'tirish hurmat belgisi sanalsa, zamonaviy xalqaro an'analarda o'ng tomonda o'tirish e'tirof etiladi. Bunga o'xshash turli misollarni ko'plab keltirish mumkin.


Axloq normalariga asoslangan insonning tashqi ta'sirlar natijasida shakllangan xulq-atvoridagi ayrim jihatlar davlat xizmatchisining kishilar bilan ish yuzasidan bo'ladigan o'zaro muloqotida mumkin qadar ko'p ro'y beradi.

Davlat xizmatchilaridagi zamonaviy etiket an'analari quyidagi xususiyatlarni bilishni talab etadi, ya'ni chuqur mulohazalik, xushmuomalalik, shirinsuxanlik, punktuallik, yoqimlilik, so'ziga sodiqlik, tinglay olish, muqobil holatlarda o'zini tuta bilish va shu kabilar.

Etiketning qamrovi keng. U xalqaro miqyosda qabul qilingan axloq normalaridan tortib to xalqimizda go'zal va betakror udumga aylangan samimiy sertakalluflikni ham o'z ichiga oladi. Ayrim hollarda namoyon bo'luvchi munofiqona munosabat bundan mustasno albatta. Siyosiy arboblari etiket normalariga rioya qilmaganliklari sababli davlatlar o'rtasidagi munosabatlarga jiddiy putur yetganligini tarixdagi misollardan ko'rish mumkin.

Hozirgi zamon etiketi odamlarning turmushda, xizmatda, jamoat joylarida, ko'chada, mehmonchilikda va rasmiy tadbirlarda o'zini tutish va harakat qilish qoidalarini belgilaydi. Shuning uchun ham etiket barcha xalqlarning asrlar davomida yaxshilik, odillik va odamgarchilik to'g'risidagi tasavvurlari bo'lib, umuminsoniy madaniyatning eng yirik va muhim qismi hisoblanadi.

Axloqiy madaniyat kasbiy odobda ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Chunki inson voyaga yetib, bir kasbning boshini tutgach, o'z kasbi doirasida odamlar bilan muntazam munosabatda bo'ladi. Bu munosabat, bir tomondan, hamkasblar davrasida ro'y bersa, ikkinchi jihatdan, u kasb talabiga binoan uchrashadigan turli toifadagi odamlar bilan yuzaga keladi. Ayni paytda, kasbiy odob axloqiy madaniyatning eng yuksak shakllaridan biri; uning jamiyat axloqiy hayotidagi o'rni yuksak. Shu bois kasbiy odobga kengroq to'xtalish joiz.



Hozirgacha bizga ma'lum bo'lgan turkiy xalqlar yozma badiiy-falsafiy adabiyoti tarixida turli toifalar, mansablar va kasblar mazmun-mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari, rahbarlik odobi, kasbiy odobning eng nozik qirralarini: kasbiy burch, kasbiy erkinlik va kasbiy fidoiylik me'yorlarini chuqur va atroflicha ko'rsatib bergan birinchi qomusiy asar buyuk alloma Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asari deyilsa xato bo'lmaydi. Ana shu savollarga javob izlash jarayoni axloqiy tarbiyaning amaliy ko'rinishidir.

Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosi, avvalo, ota-onaning o'zi axloqiy tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatishi lozim.

Kasbiy odob–jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq kasbiy burch, sha'n, or-nomus, qadr-qimmat kabi xatti-harakatlarning majmui, umumiy axloqning kishilar kasb-koridagi o'ziga xos ko'rinishidir. Odob (arab. adab so'zining ko'pligi) – jamiyatda e'tirof etilgan xulq normasi. Shaxs ma'naviy hayotining tashqi jihatini ifodalaydi va o'zgalar bilan munosabat (oilada, mehnat jamoasi, turli marosimlar)da namoyon bo'ladi. Odob negizida axloqning ba'zi tamoyil va me'yorlari, shuningdek, maqsadga muvofiqlik va go'zallik talablari yotadi. Odob kishining jamoat orasida o'zini qanday tutishi, odamlar bilan qay yo'sinda muomala qilishi, o'z turmushi, bo'sh vaqtini qanday tashkil etishi, inson tashqi qiyofasi qanday bo'lishi

lozimligiga tegishli qoidalar (masalan, sharm-hayo, kamtarlik, xushmuomalalik kabilar)ni o'z ichiga oladi. Ba'zi lug'atlarda "kasbiy odob" atamasi "kishilar o'rtasidagi kasb faoliyati bilan bog'liq munosabatlarga ma'rifiy tus beradigan xulq-atvor kodeksidir" deya ta'riflangan. Olim Abdulla Sher odob, xulq va axloq atamalari haqida maxsus fikr yuritib, "Axloq – barcha uchun birdek taalluqli hisoblangan... ma'naviy hodisa" deb yozadi. Kasbiy odob tushunchasi barcha uchun birdek taalluqli hisoblanmagan, balki muayyan kasb-kor egalarigagina mansub bo'lgan ijtimoiy xulq atvor qoidalari, me'yorlaridir.

Kasbiy odob normalarning mazmuni, ularning amaliyligi u yoki bu masalalarni yechishda yordam beradi. Ijodkor-pedagoglarning ijodiyoti bunga misol bo'la oladi. O'quv tarbiya jarayonidagi asosiy tamoyillaridan biri – bola qalbidagi qo'rquv hissiyatini yo'qotish, o'z kuchiga ishonadigan, o'zini erkin his qiladigan qilib tarbiyalash. Bu tamoyillar shaxsiy vazifa berish: har birini kuchiga qarab, muvaffaqiyatiga qarab baholash. Yana bir tamoyil – rahm-shavqat tamoyilidir. Buning ma'nosi bolaning sha'niga tegmaslik, ko'pchilik oldida qoloqlarning nomini tilga olmaslik va eng asosiysi baho qo'yishda juda ehtiyotkor bo'lish.

B). Jurnalist odobi. Jurnalist odobiva masalaning axloqiy-psixologik o'ziga xosligi yuksak ma'naviy javobgarlikni talab etadi. Bu – axborot manbasi bo'lib xizmat qiladigan, bu axborotlarni ishonib o'qiydigan odamlar va bu jurnalistlar ishlaydigan muassasalar oldidagi javobgarlikdir. Bu esa ijodiy izlanish va doimo o'z ustida ishlashni talab qiladi. Lekin jurnalistning mehnati faqatgina texnik tomonlariga qarab qolishi kerak emas. Kuchli javobgarlik hissi bilan bir qatorda, o'zini jurnalistikaga bag'ishlagan insonda erkin fikr, mustahkam iroda bo'lishi kerak. Jurnalist odobio'z-o'zininazorat qilib turishnitalab etadi.

V) Shifokor odobi. Shifokor odobining qonun-qoidalarida hozirgi zamon sog'liqni saqlash amaliyoti oldida turgan masalalar aks etmoqda. Uning faoliyatida rioya qilishi zarur bo'lgan bir qator muhim qoidalar mavjud. Asosiy qoidalardan biri bemorga ziyon yetkazmaslik. Vrach odobining yana bir qoidasi sir saqlashni talab etadi. Qasamyod burchi shifokorga har qanday vaziyatda ham, qiyinchiliklarga qaramasdan bemorga yordam berishga undaydi, ba'zi hollarda o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bo'lsa ham.

G) Rahbar odobi. Rahbar o'z xulq-atvori bilan atrofida qilargalarga o'rnak bo'lishi kerak. Turli darajadagi rahbarlar bor, ularning xususiyatlari ham o'ziga yarasha har xil. Har birlariga o'ziga xos talablar qo'yilgan. Xushmuomala bo'lish, boshqalarning fikr va mulohazalariga befarq bo'lmaslik, sabrli bo'lish va asabiylashmaslik, adolatli bo'lish, ayniqsa, o'z xodimlariga nisbatan diqqat-e'tiborli bo'lish rahbarning yaxshi xususiyatlaridandir. Ish yuzasidan muloqot – inson hayotining zaruriy qismi, boshqa kishilar bilan bo'lgan munosabatdagi

muhim turidir. Eng muhim va doimiy munosabatlarni boshqaruvchisi sifatida axloqiy normalar bo'lib, unda insonning yaxshilik va yomonlik, adolat va adolatsizlik, to'g'ri va noto'g'ri bo'lgan munosabatlarini tasavvur qilish mumkin.

Rahbarning tarbiya ko'rganligi va boshqa zaruriy sifatlari, xulqi va xatti-harakati qo'l ostidagilarning ko'z o'ngidadir. Uning tashqi ko'rinishi, o'zini tutishi, ish yuzasidan etiketda qo'yilgan talablarni qanday bajarishini butun tashkilot darrov biladi. U arzimaydigan xulq-atvoridagi ko'rinish bo'lsa ham ahamiyatsiz, bir marta qo'yilgan nojo'ya xatti-harakat butun tashkilotda, tevarak-atrofga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Rahbarning o'z xalqi uchun xizmatkor xodim ekani, xalqning osoyishtaligi, ravnaqi va hayotining farovonligi uchun mas'ul ekanligi milliy ma'naviy merosimizda ham o'z aksini topgan. Qadim zamonlardan boshlab, rahbar o'z qo'l ostidagilarning holidan doimo xabardor bo'lib turishi, ularni mamnun qiladigan darajada boshqaruvni olib borishi haqidagi ko'rsatmalar amal qilib keladi. Hattoki bu to'g'risida maxsus asarlar ham bitilgan. Muqaddas diniy qadriyatlarda adolat, mas'uliyat, haqqoniylik kabi xususiyatlar har bir rahbarning asosiy shiorlari bo'lishi lozim deyiladi. Bir hadisning mazmunicha har bir kishi qo'l ostidagilar uchun boshqaruvchi va mas'uldir, er oilasi uchun, ota-ona farzand uchun, rahbar xalqi uchun.

Bu kabi fikr mulohazalar milliy ma'naviy merosimizning noyob durdonalari Avesto, tosh bitiklari, islom dini manbalari, ulug' mutafakkirlarimizning sohaga tegishli asarlarida o'z aksini topgan. Alloma Kaykovus Qobusnomada shunday yozadi:

Fuqaroning holidin xabardor bo'lg'ilki, podshohlar – cho'pon, fuqarolari qo'y ramasi manzarasida bo'lur. Agar cho'pon qo'y ramasini saqlashga urunmasa, rama qisqa vaqt ichida halok bo'lur. Hech odamdin xizmatni darig' tutmag'il va lekin har kishiga ish buyursang, o'ziga munosib ishni buyurg'il, nomunosib ishni buyurmag'il, undoqkim, farroshlikka munosib odamga sharobdorlikni buyurmag'il, sharobdorlikka munosib kishini xazinador qilmag'il. Alqissa, har kishiga har ishni buyurib bo'lmas. Agar ish bilmag'on kishiga bir ishni buyursang, u o'z manfaati uchun bu ishni bilmaslig'in aytmasa, ul ish durust va foydali bo'lmag'usidir. Bas, ishni bilg'on odamga buyurg'il, toki dardisarlikdin qutulg'on bo'lg'aysen.

Kasbiy madaniyat – insonning egallagan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlari yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, boshqalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisadir. Shaxsning kasbiy madaniyati bilimlar, malakalar, ko'nikmalar, axloqiy qobiliyati, axloqiy va estetik rivojlanish, dunyoqarash, odamlar bilan o'zaro muloqotlarining usullari va shakllari, shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanish darajasi kabi faoliyatda amalga

o'shiriladigan insoniy kuchlar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Kasbiy madaniyat – insonning mehnat faoliyatida namoyon bo'ladi. Madaniyatning bu qismi o'zlashtirish ko'rsatkichlari va natijalarida, kasbiy layoqatliligi, o'z xatti-harakatlarini birgalikdagi faoliyati bo'yicha hamkasb sheriklari bilan muvofiqlashtirishda, qaror qabul qilishda o'zini-o'zi idora qilish, mustaqillik, yakuniy natijaga yo'naltirilgan o'zini-o'zi tekshirish, rasmiy shaxslar bilan ish yuzasidan olib boriladigan munosabatlarni tuzishda, ishga olish hujjatlarini rasmiylashtirishdagi kasbiy, axloqiy ko'rinishi, ish joyini va asboblarni tutishi, ilg'or tajriba, innovatsion jarayonlar, zamonaviy texnologiyalarni anglash va qo'llashda namoyon bo'ladigan shaxs xususiyatlaridir. Shaxsning kasbiy madaniyati darajasi uning umumlashgan madaniy merosga erishganligi, o'ziga xos qobiliyatlarning rivojlanish darajasi bilan belgilanadi.

Kasbiy etiket – bu kasbi bo'yicha birlashgan guruhlar a'zolarining bir-birlariga nisbatan, rahbar xodimlar va ularga bo'ysunadigan kishilar o'rtasidagi hamda o'z kasbiy burchiga nisbatan o'zini tutish va xatti-harakat qilish qoidalarini o'z ichida oladi. Shundan kelib chiqqan holda, turli kasb guruhlarining etiketi jamoada ishlaydigan kasb egalarining bir-birlari bilan o'zaro, tashkilot rahbar xodimlari va mutaxassislarining ularga bo'ysunadigan kishilar bilan hamda xodimlarning va mutaxassis-rahbar xodimlarning munosabat hamda o'z kasbiy burchiga amal qilish qoidalaridan iborat.

3. Pedagogik etika, uning jamiyat oldidagi burchi va mas'uliyati.

Pedagogik etika – o'qituvchining xulq-atvor normalarini o'rganuvchi fandır. Pedagogik etika yoki deontologiya (yunonchadeon– burch va logos –ta'lim), etika (yunonchaethos– xulq, odat) – o'qituvchining kasbiy madaniyatining muhim asosi– xulq-atvor normalari va qoidalari haqidagi fan; odamlar o'rtasidagi munosabatlarni anglatadi.

Pedagogik etika umumiy axloqiy me'yorlar asosida o'qituvchi bolalar, ularning ota-onalari va hamkasblari bilan muloqot qilish jarayonida rahbarlik qilishi kerak bo'lgan me'yoriy axloqiy pozitsiyalarni belgilaydi.

Pedagogik etikaning o'ziga xos talablari mavjud.

Ular quyidagilar:

1. Muvaffaqiyatga ishonchni mustahkamlovchi munosabat;
2. O'qituvchi va bola o'rtasida to'g'ri munosabatlarni o'rnatish. Har bir talabaga do'stona munosabat;
3. Birinchi uchrashuvdanoq talabalar bilan qulay og'zaki muloqot;
4. O'qituvchining tashqi ko'rinishi, guruhdagi vaziyat.

Pedagogning kasbiy odobi. Pedagog avvalo nima uchun tarbiyachi vazifasini bajarayotganligini tushunib olishi kerak. Jumladan, “Insonlarda nimani tarbiyalash kerak?” degan savolga to‘g‘ri javob berishgina emas, balki qanday tarbiyalash kerakligini ham bilishi kerak. Bu esa pedagog ijodiyotida va pedagog etiketida asosiy omildir. Bolaning ichki dunyosiga kira bilish, uning ishongan do‘sti bo‘lish, yaxshilikka yo‘naltirish, javobgarlikni his qilishni singdirish, uni jamiyatga foydali inson qilib yetishtirish – bu pedagogikaning gumanitar tamoyilidir. Kasbiy odob qonun-qoidalari kabinetlarda emas, balki ish jarayonida shakllanadi va ularni ishdagi ijodkorlikdan ajratib bo‘lmaydi, ayniqsa pedagogik ish jarayonida. Shuning uchun kasbiy omilkorlik, o‘z ishini yaxshi bilish, qaysi kasb ekanligidan qat’iy nazar axloqiy normalarning boshlanishidir.

ESLATMA! Pedagogik takt pedagog etikasida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Takt –bu o‘zini munosib, to‘g‘ri tutish qobiliyatini yaratadigan mutanosiblik hissidir.

Pedagogik takt – o‘qituvchi bolalar bilan muloqot qilish jarayonida kuzatishi kerak bo‘lgan o‘lchov prinsipi; o‘qituvchining pedagogik mahorati, tajribasi, madaniyat darajasi va shaxsiy fazilatlarini bilan belgilanadi; har qanday vaziyatda (shu jumladan ziddiyatli vaziyatlarda), bolani kamsitmasdan va unga qarshilik ko‘rsatmasdan ta’limga ta’sir qilishning eng yaxshi choralarini topish qobiliyati sifatida ifodalangan.

Pedagogik takt muloqot subyektlarining shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni, o‘qituvchining axloqiy va axloqiy-kasbiy munosabatlariga rioya qilishni o‘z ichiga oladi. Pedagogik takt – bu o‘qituvchining kasbiy sifati, uning mahoratining bir qismidir.

Pedagogik taktikaning asosiy xususiyatlari:

- Tabiiylik, tanish bo‘lmagan holatning qulayligi;
- Ohangning samimiyligi, har qanday yolg‘ondan holi bo‘lishi;
- Hech qanday kelishuvsiz bolaga ishonish;
- So‘rovsiz ariza berish;
- Maslahatlar berish;
- Talabning mustaqil talab va takliflarini qabul qilish;
- O‘zaro munosabatlardagi ohangning jiddiyligi;
- Hazil va istehzosiz munosabat;
- Talabchanlik;
- Munosabatlarda o‘zini tuta olish madaniyati;
- Talabni asossiz bekor qilmasdan tarbiyaviy ta’sirlarni amalga oshirishda qat’iylik va izchillik;

- Shoshilinch qarorlarsiz tarbiyaviy ta'sirning tezkorligi va o'z vaqtida bajarilishi;

- O'quvchining nazoratida unga diqqatli bo'lish; muloqotda xotirjamlik va muvozanat, befarqlik va haddan tashqari qo'zg'aluvchanlik bundan mustasno;

- Bola bilan muomala odobiga rioya qilgan holda suhbat o'tkazish;

- Pedagogik taktning asosiy belgisi – muloqot jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarda o'lchovni topishdir.

Pedagogik nizolarni hal qilish. Qarama-qarshilik turlari:

- ichki va tashqi;

- shaxslararo va guruhlararo;

- ijtimoiy;

- millatlararo va davlatlararo;

- potensial va haqiqiy;

- to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita;

- vertikal va gorizontal;

- rol o'ynash;

- motivatsion;

- muloqot (noto'g'ri tushunish asosida).

Nizolarni hal qilish qoidalari:

Avvalo, mojaroli vaziyatni o'zlashtirishga harakat qilish kerak, bu o'zaro hissiy taranglikni bartaraf etishni anglatadi. Qanday? Inson avvalo o'zidan boshlashi kerak: "qo'shimcha" kuchlanish, qattqlik, maqsadsiz harakatlarni olib tashlash, mimika, imo-ishoralarni o'z o'rnida qo'llash lozim. Shunday qilib, bu vaziyatda tashqi xotirjamlik va chidamlilik muhim o'ringa ega.

Suhbatdoshning xatti-harakatlarining sabablarini tushunishga harakat qilish lozim. Ruhiy tahlilni kiritish hissiy qo'zg'alishni kamaytiradi. Shunday qilib, harakatni darhol baholashga urinmaslik kerak, birinchi navbatda hozirgi vaziyatga munosabatni bildirishga intilish lozim. Shuningdek, maqsadga rozi bo'lish. Pedagogni talaba bilan nima birlashtirganini imkon qadar erta anglash, o'zaro munosabatlarning "umumiy boshlang'ich nuqtasini" ko'rish, uni namoyish qilish, "Biz" pozitsiyasiga kirish kerak. O'z pozitsiyasini ishonch bilan ta'minlash. Va nihoyat, ziddiyatni hal qilgandan so'ng, unga aqlan qaytish, uning sabablari va oldini olish yo'llarini tahlil qilish zarur. O'tkir to'qnashuvni o'chirishdan ko'ra uni oldini olish har doim osonroqdir.

Pedagog o'z xulq-atvori bilan sherigiga (farzandiga, hamkasbiga) ta'sir o'tkazishi lozim. Konflikt ishtirokchisining yuziga jimgina qarash taranglikni bartaraf etishga yordam beradi, bu o'qituvchiga diqqatni jamlash va uning holatini o'rganish imkonini beradi.

Pedagogik muloqot talablari:

Pedagogik jarayon o'qituvchining bolalar bilan bo'lgan munosabatiga asoslanadi, o'ziga xos shaxsiy ma'no beradi, ta'lim jarayonini turli xil tuyg'ular bilan bo'yaydi, ularsiz hech qachon bola qalbi sirlariga erishib bo'lmaydi. Pedagogik muloqotni tashkil qilishda faqat pedagogik maqsad va vazifalardan kelib chiqib bo'lmaydi.

Pedagogik muloqotni tashkil qilishda nutqni ma'lum bir bolaga yoki butun guruhga to'g'ri va yetarli darajada qaratish muhimdir. Pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bitta funksiya – axborot bilan cheklab bo'lmaydi.

Bolalar bilan muloqotda bo'lganda, ular bilan yuqoridan pastgacha “vertikal” aloqani tashkil qilmaslik lozim. Munosabatlarni shunday qurish kerakki, rahbarning pozitsiyasi tabiiy ravishda pedagogik jarayonning butun mantiqidan kelib chiqadi. Guruhdagi psixologik muhitni his qilish juda muhim, busiz samarali ta'lim jarayoni mumkin emas.

Pedagog o'zini tashqi tomondan, bolalarning ko'zlari bilan ko'rishni o'rganishi, o'z faoliyatini tahlil qilishi lozim. Shuningdek, talabalarni tinglashni o'rganishi kerak. Talaba yoshlar bilan muloqotni tashkil qilishda doimo ularning kayfiyatini tushunishga, guruhning mikroiklimidagi eng kichik o'zgarishlarni ushlab qolishga intilish kerak; o'zida pedagogik mushohadani rivojlantirish zarur.

Shuni esda tutish kerakki, ziddiyat quyidagilar bo'lishi mumkin: pedagogik savodsizlik oqibati; talablar to'qnashuvi natijasi, munosabatlar, qadriyat yo'nalishlari, odatlari va ko'nikmalari. Pedagog albatta bu mojaroning sabablarini tahlil qilishi kerak. Shu bilan birga, talabalar uchun tez-tez tabassum qilish lozim. O'qituvchining guruhga kirishidagi tabassumi talabalar bilan uchrashuvi uning uchun yoqimli ekanligini anglatadi. O'qituvchidan ma'qullash, maqtash, dalda berish tez-tez eshitilishi juda muhimdir.

Kommunikativ xotirani rivojlantirish kerak – bu bolalar bilan oldingi muloqot holatini tezda tiklashga yordam beradi, muloqotning hissiy muhitini qayta ishlab chiqaradi.

“Talabani tushunish” –bu o'qituvchining kasbiy majburiyati.

Tushunish – bu ruhiy holatga kirish, harakatlar, xatti-harakatlar, kechinmalar motivlarini tushunish. O'qituvchi va bola o'rtasidagi aloqa ba'zan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ladi. Suhbatdoshingizni tinglash qobiliyati o'qituvchining mahorati va, albatta, muloqot san'atidir.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalash pedagog kadrlarga bo'lgan mas'uliyatni yanada oshiradi. Har bir o'qituvchi kasbining ustasi sifatida o'z oldiga qo'ygan maqsad sari harakat qilishi lozim. Bunda albatta u pedagog

etikasiga qat'iy amal qilishi lozim. Pedagog etikasi inson va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga egaligi bilan ajralib turadi. Zero, o'qituvchi yoshlarni tarbiyalash natijasida jamiyatning kelajagi qanday bo'lishini belgilab beradi. Axir bekorga aytishmagan, shifokor o'z faoliyatida xato qilsa bitta odamning hayotiga zomin bo'ladi, o'qituvchi xato qilsa jamiyatdagi ko'plab odamlarning hayot yo'li arosatda qolishi mumkin.

Nazorat savollari:

1. Etika fanining mohiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Axloqiy madaniyat nima?
3. Axloqning o'ziga xos tarkibiy qismlari, mezoniy tushunchalari va amal qilish tamoyillari hamda me'yorlari nimalardan iborat?
4. Etiketning vujudga kelish tarixi haqida gapiring.
5. Pedagog etikasiga ta'rif bering.
6. Pedagogik takt deganda nimani tushunasiz?
7. Insonning egallagan bilimlari va hosil qilgan tajribalariga asoslangan malakali harakatlar yoki mehnat faoliyatining mahsulidan bunyod bo'lgan narsalar, boshqalarda zavq uyg'ota oladigan ijtimoiy hodisa – bu....
8. Kasbiy etiket deganda nimani tushunasiz?

9-mavzu: Pedagog faoliyatida estetika

Reja:

1. Estetikaning mazmun-mohiyati, estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.
2. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg‘u, estetik did, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar.
3. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta’minlovchi omil.
4. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli.

Tayanch iboralar: estetika, estetik ehtiyoj, nafosat, estetika obyekti, go‘zallik, ulug‘vorlik, fojaviylik, kulgulilik, estetik anglash, estetik munosabat, estetik faoliyat, estetik tuyg‘u, estetik did, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar, estetik qadriyatlar.

MAVZUNING MAQSADI: Estetikaning mazmun-mohiyati, estetik anglash tushunchasi, uning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg‘u, estetik did, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar tushunchalari mohiyatini ochish. Estetik qadriyatlar, jamiyat axborotlashuvining rolining jamiyat va inson hayotidagi o‘rnini tushuntirish.

1. Estetikaning mazmun-mohiyati, estetik anglash tushunchasi va uning individual xarakteri.

Olamdagi maxluqotlar orasida aql-idrok sohibi bo‘lgan Odamga yorug‘likni qorong‘ulikdan (kunni tundan), ranglarni (oqni qoradan) farqlay olish, kulishni va fojiani: mushohada etish, nafosat, go‘zallik, ezgulik, ulug‘vorlik, olijanoblik olamiga intilish bilan birga xunuklik, xudbinlik, loqaydlik, johillik, pastkashlik kabi illatlarga qarshi kurash olib borish qobiliyati in’om etilgan. Inson shu qobiliyati tufayli o‘zligini anglab, komillik sari intilib kelmoqda. Insonning o‘ziga, o‘zi yashayotgan turmush muhitiga havodek zarur bo‘lgan go‘zallik, nafosat dunyosini yaratishdagi mashaqqatli mehnati tufayli shu qadar ulug‘vor ahamiyatga molik bo‘lgan ma’naviy boyliklar vujudga kelishiga hayrat bilan boqib, insonning aql-nafosat qudratiga tahsinlar aytilish lozim. Nafosat va go‘zallik dunyosi shu qadar xilma-xil, rango-rang, jozibali, ehtirosli, mo‘jizali, sehrliki, unda moddiy go‘zallik bilan ma’naviy go‘zallik uyg‘un holda chiroy ochib turadi. Insonning nafosat olamini anglashga intilish atrof-voqelikni anglashga intilishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Inson moddiy go‘zallik dunyosini bunyod etish jarayonida

ma'naviy go'zalliklarni ham kashf eta borgan, ya'ni nafosat olamining yaratilishi jarayoni uni anglash, mushohada etish jarayoni bilan uyg'unlikda sodir bo'lgan. Nafosat olamini yaratish bilan bir qatorda uni anglash, idrok etish, o'zlashtirish maqsadi, ya'ni nafosat olamini tadqiq va tahlil etish zaruriyati paydo bo'ldi.

Estetika so'zi yunoncha «estezis» so'zidan olingan bo'lib, «sezish», «his qilish qobiliyati» ma'nosini bildiradi. Bu fan – insonning voqelikka estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonun-qoidalari haqidagi fan.

Uzoq vaqt bu fan «Go'zallik falsafasi» deb ta'riflab kelingan. Lekin hozirgi davrda «Estetika» fanini bunday ta'riflab bo'lmaydi, chunki «go'zallik»ning o'zi «Estetika»ga tegishli tushunchalardan biriga aylanib qoldi.

Birinchi marta estetika so'zini fanning nomi sifatida olmon faylasufi Aleksandr Baumgarten (1714-1762) “Poetik asarning ba'zi bir masalalari to'g'risida falsafiy mulohazalar” kitobida ishlatgan (1735 yil).

Lekin bu bilan Baumgartenni «Estetika» fanining asoschisi deb bo'lmaydi, chunki estetika nazariyalari qadim zamonlardayoq «Falsafa» fani doirasida o'rganilgan.


Dastlabki estetik ta'limotlar quldorlik jamiyati davrida – Sharq mamlakatlari (Misr, Bobil, Hindiston, Xitoy, Eron va Turon)da vujudga kelib, qadimgi Yunonistonda, ayniqsa, Aflotun, Arastu, Suqrot asarlarida, qadimgi Rimda Lukresiy Kar, Goratsiy va boshqalarning tadqiqotlarida rivojlantirildi. XVIII asrning ikkinchi yarmidan mustaqil fan sifatida shakllana boshladi.

«Estetika» so'zi ko'pincha narsa va hodisalarning rang-tusi va shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma'nolari majmui sifatida ham qo'llaniladi. Mazkur tushuncha kishilarning yaxshi fe'l-atvori, muomalasi, nutqi, did bilan kiyinishini anglatadi yoki tabiatdagi go'zallikni ham bildiradi.

Estetika so'zi ba'zan «nafosat» tushunchasi bilan baravar ishlatiladi. San'atda ham estetika bir qancha ma'nolarda qo'llaniladi. Voqelikdagi tabiatan nozik narsalar va hodisalar in'ikosi – badiiy adabiyotda nazm, tasviriy san'atda – manzara, miniatyura va boshqalar fikrimizga yorqin dalildir. Ikkinchidan, san'atda nima in'ikos ettirilishidan qat'i nazar, nihoyatda nozik ifoda usullari qo'llanilishi, ifoda usulining bag'oyat nafisligi – nozik raqs va boshqalar diqqatga sazovordir. “Estetika” atamasi o'rnini bevosita va bilvosita «Nafosat» atamasi bosa oladi. Ko'pchilik «estetika» atamasiga o'rgangani uchun “nafosat” atamasini chuqur his qilolmaydi. Biz voqelikdagi go'zallik va xunuklikni turlicha tushunamiz. Estetik qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz nisbiy bo'lib, ularni xolis baholash estetikaning vazifasidir.

Mazkur fanning asosiy tushunchasi – go‘zallik zohiriy va botiniy ma’noga ega, voqea-hodisa, buyum zohiran go‘zal, botinan xunuk bo‘lsa, bu yerda tom ma’nodagi go‘zallik deb bo‘lmaydi. Shu bois donishmandlar tashqi va ichki go‘zallik mutanosibligiga alohida ahamiyat berganlar.

Go‘zallikka intilish tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida namoyon bo‘ladi. Go‘zallik qurshovida yashagan inson bilan xunuklik muhitida o‘sgan odam o‘rtasida katta farq bor. Go‘zallik tarbiyasi insonni ma’naviy jihatdan kamolotga yetaklaydi, estetik his-tuyg‘uni taraqqiy ettiradi. Estetik his-tuyg‘u insonni qurshab turgan muhitdagi go‘zallik va xunuklikni, ulug‘vorlik va tubanlikni, fojiaiviylik va kulgililikni idrok etish va baholash qobiliyatidir. Ulardagi timsollar ham o‘z tuzilishiga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Masalan, musavvirlik, haykaltaroshlik, teatr va boshqa san’at turlarida voqea-hodisalar bevosita tasvirlanadi. Musiqa, raqs, me’morchilikda san’atkorning voqea-hodisalar va narsalardan tug‘ilgan g‘oyaviy-hissiy holati ifodalanadi. Bu jihatdan estetika san’atga yaqin turadi.



Estetikaning fan, keyinchalik esa o'quv darsi sifatida shakllanish jarayonlarida uni bir qator mustaqil bilim sohalariga bo'lib yuborishlar, ya'ni estetikani «estetik qadriyatlar nazariyasi», «estetik idrok etish nazariyasi» va «umumiy san'at nazariyasi» sohalariga ajratib o'rganish hamda o'qitish maqsadga muvofiq deb ko'rsatilgan edi. Insonning estetik faoliyati badiiy faoliyati bilan, aksincha uning badiiy faoliyati estetik faoliyati bilan bab-baravar degan aqida tarixiy taraqqiyot tajribasida o'zini oqlamadi. Aslida bu ikki nisbiy mustaqil maqomga ega bo'lgan inson faoliyati sohaları o'zaro shu qadar chirmashib ketganki, ularni bir-birisiz tasavvur qilib bo'lmaydi.


Insonning estetik faolligi jarayonida tabiat va jamiyat qadriyatlari munosabatlari tizimidagi estetik xususiyatlar (go'zallik va xunuklik, ulug'vorlik va tubanlik, fojialilik va kulgililik) qonuniyatlari namoyon bo'ladi. Insonning estetik faoliyati sifati va darajasi esa estetik qadriyatlar bilan estetik baholash qobiliyati, estetik idrok etish bilan estetik amaliyot o'rtalaridagi uzviy aloqadorlik madaniyatning barcha sohalaridagi badiiy va estetik o'zaro bog'liq mezonlari bilan o'lchanadi.

Estetikaning ikkinchi tarkibiy qismi bo'lgan san'atni yaxlit birlikda mushohada etib o'rganish, uning faoliyati boshqa turlari qatorida tizimi va amal qilish xususiyatlarini anglab, badiiy ijod, uning samarasi bo'lgan san'at asarlari bilan ularni odamlar idrok qilishining uzviy bog'liqligini ilg'ab olish, badiiy faoliyat aniq shakllarini yaratuvchi qonunlarini o'rganish faoliyat badiiy taraqqiyoti qonunlarini san'at ravnaqining istiqbollari ko'ra bilish qobiliyatining vujudga kelishi jarayonlarini tadqiq etish estetika fanining eng muhim mavzusi hisoblanadi.

Estetika fani hech vaqt faqat atrof-voqelikni estetik va badiiy idrok etish qonuniyatlarini o'rganish bilan chegaralanib qolmay, u tadqiq va tahlil ishlarini istiqbol maqsad-manfaatlariga yo'naltirib turgan. Estetikaning istiqbolga mo'ljallanganligi shu bilan izohlanadiki, u voqelikni nafosat nuqtai nazaridan baholashda, badiiy mezon o'lchovlarini ilmiy jihatdan ishlab chiqib, amaliy faoliyatga tatbiq etishda o'z ifodasini topadi.

Insonning estetik tafakkuri shakllanib, rivojlanib va takomillashib borgani sari uning ijtimoiy-ruhiy, mafkuraviy-g'oyaviy, siyosiy-ma'naviy intilishlari ham tobora tiniqlashib boradi. Chunki estetik tafakkur insonning maqsad-manfaatlarini estetik-badiiy vositalarda nazariy asoslab beradi, estetik madaniyat va badiiy amaliyot asoslarini o'rganish, tahlil qilish bilan boyitadi, estetik nazariyalarning falsafiy asoslarini ochib beradi, voqelikni estetik in'ikos etish jarayonlarini ko'rsatib beradi.

Shunday qilib, estetika fani voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika – bu nafosat olami, san’at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg‘u, sezish, idrok qilish vositalari orqali o‘rganadigan va o‘rgatadigan fandır.



Ular orasidagi “borliqni estetik o‘zlashtirish” tushunchasi qolgan «estetik munosabat», «estetik bilish», «estetik tafakkur», «estetik faoliyat» tushunchalarini ham qamrab oladi. Shu bois estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik

o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini o'rganadi, desak to'g'riroq bo'ladi. Borliqni estetik o'zlashtirish esa san'atning asosiy mazmunini tashkil etadi. Shu bois estetika fani san'atning asosiy uslubiy-metodologik zamini bo'lib xizmat qiladi.

Estetikaning borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatidagi o'ziga xos bir qator fazilatlari ham bor. Estetika fani inson tevarakatofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarining barchasini qamrab olishga, inson faoliyatining barcha jabhalaridagi nafasat olamini san'at barcha turlari vositasida chuqur o'rganishga da'vat etadi. San'at esa estetik boyliklarni yaratish manbaidir. San'atni ilmiy jihatdan tahlil va tadqiq etish barobarida esa estetik faoliyatning barcha ko'rinishlariga ilmiy jihatdan yondoshish uchun zamin yaratiladi. Shu bois san'at va badiiy ijodning tabiati va mohiyatini o'rganish, qonuniyatlarini o'zlashtirish go'zallik nafasat (estetika)ning barcha sifat darajalarini o'rganish uchun kalit vazifasini o'taydi. Bu jabhalarga san'atning umumiy nazariyasi, estetika fanining xususiy-uslubiy asoslariga oid tadqiqotlar, moddiy boyliklar yaratish estetikasi, muhandislik-loyihachilik faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlari sohasida estetik jihatlar, tabiat estetikasi, insoniy munosabatlar estetikasi, kundalik turmush va odob estetikasi kabi bir qancha sohalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Hozir jahon estetika fanida bu jabhalarning har biri estetika tarkibiga kiruvchi mustaqil maxsus o'quv kurslari darajasiga ko'tarilgan. Estetika fani esa bu maxsus o'quv kurslarning uslubiy-metodologik asosini tashkil etadi.

Estetika haqidagi qarashlar tarixi qadimgi Somir, Bobil va Misrga borib taqaladi hamda bizning kunlarda ham eng yangi davr tarixida mujassam.


Shunday qilib, estetika voqelikni estetik mushohada qilish va badiiy ijod jarayonlarining uzviy mutanosibligini namoyon qiladi va ifodalaydi. Boshqacha qilib aytganda, estetika – bu nafasat olami, san'at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg'u, sezish, idrok qilish vositalari orqali o'rganadigan va o'rgatadigan fandır.

2. Estetik anglashning asosiy elementlari: estetik ehtiyoj, estetik munosabat, estetik tuyg'u, estetik did, estetik ideal, estetik qarashlar, estetik nazariyalar.

Estetika nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarixi tashkil qiladi. Bilish nazariyasi vositasida san'atning bilish tabiati, voqelikning badiiy-ramziy ifodalash bilan ilmiy tadqiq etish o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va o'zaro farqlar, voqelikni badiiy vositalar orqali tasvirlashning ijodiy tabiati, san'at asarlaridagi shartlilik va badiiy haqiqat kabi estetika fanining juda ko'p nazariy hamda uslubiy asoslari muammolarini yechish, ularga javob izlab topish mumkin.

Estetik ong – ma’naviy-ruhiy voqea-hodisalar majmui bo‘lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, idrok, estetik did, estetik fikr, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariyalar tizimini anglatadi.

Estetik ong – hodisa, estetik anglash – jarayon. Estetik ong boshqa ong shakllari kabi tarixiylik, vorisiylik xarakteriga ega bo‘lib, u nisbiy mustaqildir. Estetika kategoriyalari borliqqa munosabatni badiiy-ijodiy aks ettiradi. Mazkur kategoriyalar ijtimoiy borliq, inson hayoti sohalarining har birida - ishlab chiqarish, mehnat va ijtimoiy-siyosiy faoliyatda, tabiatga munosabatda, madaniyat, turmush va hokazolarda olamni estetik o‘zlashtirishning o‘ziga xos shakllaridir.



Estetika kategoriyalari ijtimoiy ongning boshqa shakllari kabi tarixiylik, ijtimoiylik, nisbiy mustaqillik, vorisiylik kabi xususiyatlarga ega.

Go'zallik – estetikaning asosiy tushunchasi bo'lib, aslini olganda, estetikaning barcha muammolari go'zallik tushunchasi bilan u yoki bu darajada bog'liqdir. Zero, u estetikaning boshqa mezoniy tushunchalariga nisbatan keng ko'lamli, qamrovli va ayni paytda kategoriyalar orasidagi ko'prik hisoblanadi.

Go'zallik – tabiat, jamiyat va san'at hodisasi. Go'zallik hissiy ta'sir o'tkazish orqali insonda jismoniy va ma'naviy kuchlar oqimining ko'payishiga, shodlik, zavqlanishdan to'la ma'naviy qoniqish hosil qilishga imkon yaratadi, deb ta'rif beriladi.

Go'zallik keng mazmunda– jamiki lazzat baxsh etadigan: yoqimli his uyg'otadigan, xushnudlik kayfiyatlarini paydo qiladigan narsa-hodisalarni qamrab oladi. Tor ma'nodagi go'zallik esa – narsalarning faqatgina shakl yoki tashqi ko'rinishi bilan ifodalanadi.

Go'zallik nafosat olamining mag'zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Shu bois estetikani go'zallik haqidagi fan, go'zallik falsafasi deb ham ataydilar.

Lekin go'zallik tushunchasi o'zaro hech bir umumiyligi bo'lmagan turli-tuman hodisalarning keng doirasiga taalluqli bo'lib, go'zallikka berilgan har qanday ta'rif nisbiy va bir tomonlama bo'lib qolaveradi. Zero, go'zallikni aniqlashda go'zallik obyektlariga yondashuv va me'yorlar turli-tuman bo'lishi tabiiy. Ba'zi hollarda go'zallikning mezoni, normativ baholanishi mutanosiblik, ba'zi obyektida hamohanglik, ba'zisida uyg'unlik, ba'zisida maqsadga muvofiqlik, ba'zisida me'yor yoki mazmun va shakl mutanosibligi yoxud ohang belgilovchi ahamiyat kasb etadi.

Go'zallik avvalo, bilishning mahsuli. Shuningdek, go'zallik normativ-baholash xususiyatiga ega. Chunki go'zallikni his etish, uni baholay bilish orqali inson o'zida uyg'unlikni paydo qilib boradi. Uyg'unlik esa pirovardida insonni faollashtiradi, voqea-hodisalarga nisbatan befarq munosabatda bo'lmaslikka undaydi.

Go'zallik ijtimoiy tarixiy, konkret, nisbiy, ijobiy, maqsadga muvofiq hodisadir. Go'zallik – his, tuyg'u, did, baho, ideal.

Go'zallikni “chiroyli”, “ko'rkam”, “nafis”, “jozibador”, “maftunkor” kabi tushunchalari bilan ham sinonim sifatida foydalaniladi. Lekin go'zallikni sanab o'tilgan tushunchalar bilan muayyan tafovutlari bor. Masalan, chiroylilik– narsalarning faqat ichki yoxud tashqi ko'rinishidagi holatni, bajarilgan ish, amalga oshirilgan harakatdagi hamohanglikni ifodalaydigan estetik tushuncha. Chiroylilik insonlarda yoqimli taassurot qoldiradi. Biroq shaklan chiroyli ko'ringan narsa-hodisa mohiyatan yoqimsiz bo'lishi ham mumkin. Go'zallik esa chiroylilikdan farqli o'laroq, narsa-hodisaning to'la ijobiyligiga, undagi mazmun bilan shaklning

uyg'unligiga asoslanadi. Chiroylilik narsa-hodisaning yoki shakl yoki mazmun ifodasi bilan kishida yoqimli taassurot qoldiradi. Go'zallik esa voqelikni faqat shakl yoki mazmunini emas, balki ularning uyg'unligiga asoslanib baholaydi.

Go'zallik azaliy muammo sifatida o'tmish mutafakkirlarini befarq qoldirmagan. Estetik tafakkur tarixida go'zallik haqidagi g'oyalar, qarashlar, nazariyalar, ta'limotlarning butun bir tizimi shakllandi. Ayniqsa, ma'naviyatimizning eng qadimgi yodgorliklaridan bo'lgan Avestoda ezgulik, ulug'vorlik, pokizalik bilan bir qatorda go'zallikka doir g'oyatda muhim g'oyalar ilgari suriladi. Shuningdek, go'zallik Avestoda tabiat, jamiyat va insonga beg'ubor munosabat orqali, atrof-muhit pokizaligi uchun qayg'urish, zaminni asrash, vijdon va e'tiqod musaffoligi tarzida ifodalanishi bilan bir qatorda go'zallikka manfaatli yondashuvning o'ziga xos talqinini ko'rish mumkin. Antik davr estetikasida, kosmologizm ta'limotiga ko'ra, koinotdagi uyg'unlik, mutanosiblik, hamohanglik o'zining ulug'vorligi bilan kishini hayratga soluvchi eng yuksak go'zallik timsoli sifatida e'tirof etiladi. Antik davrning mumtozchilik davriga kelib, go'zallik antropologiya tamoyillari asosida tadqiq etildi, ya'ni go'zallik haqidagi qarashlar, nazariyalar va ta'limotlar «osmondan yerga tushirildi».

Bundan tashqari, go'zallikka ta'masiz yondoshish, unga nisbatan manfaatsiz bo'lishning ahamiyati borasidagi qarashlar musulmon olamida, xususan, Abu Homid Muhammad al-G'azzoliy tomonidan ilgari surilgan. Tasavvuf estetikasiga doir tadqiqot ishlarini olib borgan A.Qurbonmamadov tasavvufda go'zallikning uch asosiy bosqichini quyidagicha ko'rsatib o'tadi: birinchisi– mutloq o'zgarmas ilohiy go'zallik; ikkinchisi – inson faoliyati bilan bog'liq bo'lgan botiniy, ma'naviy go'zallik; uchinchisi – mutloq go'zallikning aksi sifatida namoyon bo'luvchi narsalar va moddiy olam go'zalligi.

Nasroniylik nafosatshunosligi ham go'zallik muammosini faqat ilohiylik bilangina cheklab qo'ymay, aksincha, uning zaminiy jihatlarini ham o'rganishga e'tiborni qaratdi. Ana shularning natijasi o'laroq, keyinchalik G'arbiy Ovro'pa madaniyati va mafkurasida yuksalish bosqichi - Uyg'onish (Renessans) davri boshlandi. Mazkur davrda go'zallikning mohiyati insonparvarlik g'oyalari bilan yo'g'rildi. Bu davr bejizga badiiy- estetik davr ham deyilmaydi. Bunga o'sha davr buyuk ijodkorlari, rassomlari, san'atkorlari, so'z ustalari faoliyati yorqin dalildir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan ma'rifatchilik harakatining yirik vakillari Behbudiy, Fitrat, Cho'lpon, Avloniy singari mutafakkirlarning qarashlarida go'zallik muammosi Vatan istiqloli, millat ozodligidek yuksak g'oyalar bilan yo'g'rilganligini ular yaratgan asarlar orqali yaqqol his qilish mumkin.

Umuman olganda, estetik tafakkur tarixida go'zallik kategoriyasining yoritilishida go'zallik Oliy Ibtido – Xudoga qiyoslangan (Ollah go'zalligi) bo'lsa-da,

mutafakkirlar go‘zallikning insoniy munosabatlarda namoyon bo‘lish xususiyatlarini (insonning zohiriy va botiniy go‘zalligi) ham ko‘rsatib o‘tdilar. Borliq, moddiy va ma‘naviy olam go‘zalligi mutloq go‘zallikning aksi, zuhroti sifatida talqin qilindi.

Go‘zallikning moddiy va ma‘naviy qadriyatlar tizimidagi o‘rni muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday jarayon nazariyaning amaliyot bilan uzviyligini talab etadi. Go‘zallikni nazariy tahlil qilishdan ko‘zlangan maqsad ham uning amaliyotga tatbiq qilish, amaliyot bilan bog‘lashdan iboratdir. Zero, inson nafaqat mavjud go‘zallikni idrok qiladi, ayni paytda uni yaratadi ham.

Ijtimoiy taraqqiyotning ikki muhim jihati: moddiylik va ma‘naviylikni o‘zida uyg‘unlashtirgan bir qator sohalar hozirgi kunda mamlakatimizda jadal sur‘atlar bilan taraqqiy etib bormoqda. Hozirda go‘zallik jamiyat hayotining barcha jabhalarida namoyon bo‘lmoqda. “Chiroyli shaharlar”, “bejirim liboslar”, “ko‘rkam saylgohlar”, “chiroyli avtomashinalar”, “bejirim mahsulotlar”, “maftunkor oromgohlar” kabi so‘zlarning hayotimizda tez-tez tilga olinishi jamiyat hayotiga go‘zallikni jadal kirib borayotganligidan dalolat beradi.

Go‘zallik olami g‘oyatda boy va serqirra. Biroq, go‘zallik haqidagi har qanday fikr, g‘oya, qarash, nazariya pirovardida amaliyotga tadbiiq etilgandagina qadriyatga aylanadi. Go‘zallik nazariyasini amaliyotga qo‘llash esa bevosita insonning estetik ongi, estetik faoliyati orqali amalga oshiriladi. Go‘zallik fikr, g‘oya, qarash nazariya amaliyot, qadriyat bilan hamohangdir.

Ma‘lumki, moddiy ne‘matlarni yaratishning asosini mehnatga ongli munosabat masalasi tashkil etadi. Shu jihatdan qaraganda, mehnatni moddiy-estetik madaniyatning asosiy mohiyatini tashkil qiluvchi omil, deb atasak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Biroq, inson o‘zining faoliyati orqali mehnatga turlicha munosabatda bo‘ladi.

O‘zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning iqtisodiy asosi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotidir. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish uchun iqtisodiy, huquqiy shart-sharoit va kafolatlar yaratildi. Mulkdorlar sinfini shakllantirish, ularning huquqini mustahkamlash, nufuzini oshirish borasida talaygina ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari, mehnatning mahsuli go‘zallik sifatida idrok etilishi uchun mehnatkash tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar, avvalo, iste‘molchining didiga mos kelishi, uning ehtiyojini qondirishi lozim. Buning uchun esa mahsulot ishlab chiqaruvchi tadbirkor ham muayyan estetik bilimga, estetik didga ega bo‘lishi, iste‘molchining nafaqat moddiy, balki ma‘naviy-estetik ehtiyoji bilan hisoblashmog‘i talab etiladi.

Inson hayoti, faoliyati nafaqat tabiiy ehtiyojlarga, balki o‘zi tomonidan yaratilgan narsalar olamiga ham bog‘liq. Inson o‘zini qurshab turgan olamning qanday bo‘lishini ko‘p hollarda o‘zi belgilaydi. Ana shu jarayonning asosida esa

zamonaviy amaliyotning muhim ko‘rinishi hisoblangan narsalar olamini badiiy loyihalash masalasi yotadi. Fan-texnikaning taraqqiy etib borishi natijasida badiiy loyihalash ham takomillashib boradi. Endilikda texnika o‘zining bejirimligi, qulayligi, jozibasi bilan insonga yaqinlasha boshladi. Mazkur holatning rivojlanib borishi bilan birga texnika loyihasiga nisbatan ikki xil munosabat ham shakllanib bordi. Birinchidan, loyihaning asosida texnikaning mexanik faoliyati, uning ishlash jarayoni ko‘zda tutilgan bo‘lsa, ikkinchidan, uning tashqi ko‘rinishiga e‘tibor qaratildi. Keyinchalik mazkur ikki munosabatning uyg‘un faoliyati natijasida mashinaning insoniylashgan yangi uchinchi olami, zamonaviy ibora bilan aytganda - dizayn yuzaga keldi.

Ijtimoiy taraqqiyotning bundan keyingi bosqichlarida go‘zallikni yaratish uchun eng avvalo:

- shaxs estetik tuyg‘usi, didi va idealini kamol toptirish;

- milliy mafkura, milliy g‘oya, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda san‘atning bevosita ishtirokini ta‘minlash;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarning estetik jihatlarini yosh avlod tafakkuriga singdirish;

- milliy urf-odat va an‘analarning go‘zallik bilan bog‘liq tomonlariga alohida e‘tiborni qaratish, ularni zamon ruhida targ‘ib qilish kabi vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

Go‘zallikning inson kamolotida tutgan o‘rni insonning xulqiy go‘zalligi bilan izohlanadi. Buni quyidagi fikrlar orqali isbotlashga harakat qilamiz. Inson paydo bo‘lgandan buyon uning mohiyati, kamoloti, hayot tarzi xususidagi bahslar yakunlanmagan; ular hanuz davom etmoqda. Shunga ko‘ra, go‘zallik falsafasi hisoblangan estetika ayni paytda, inson go‘zalligining mohiyatiga doir muammolarni tadqiq etishni o‘zining muhim vazifasi qilib belgilaydi.

Estetik tafakkur tarixida go‘zallikning tabiatda namoyon bo‘lishi, ilmiy jihatdan tadqiq qilinishi bilan bir qatorda insonning jismi va ruhiyatiga daxldor ko‘plab fikr-mulohazalar bildirilgan. Ularni asosan ikkiga ajratish mumkin:

1. Inson go‘zalligini tashqi ko‘rinishga qarab baholash.

2. Go‘zallikning insonga xos belgilarini ma‘naviy tuyg‘ular, axloqiy fazilatlar bilan bog‘lab o‘rganish.

Inson go‘zalligiga bu tariqa yondashuvning muayyan sabablari bor.

Birinchidan, go‘zallikning inson shaklidagi ko‘rinishida yagona, mutloq va tugal timsol mavjud emas. Agar mavjud bo‘lganda edi, u barcha xalqlarga go‘zallik timsoli sifatida namuna qilib ko‘rsatilgan bo‘lard. O‘zbek klassik adabiyotida badiiy ijod sohiblari ayollar ta‘rifida ko‘z, kiprik, qosh, yanoq, lab, burun, kuldirgich, xususan, soch ta‘rifiga alohida e‘tibor berganlar. Masalan, Navoiy, Bobur, Lutfiy, Atoiy va hokazo.

Ikkinchidan, insonlarning go‘zallik haqidagi qarashlari turlicha bo‘lib, ular vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib boradi. Kishilarning estetik, xususan, go‘zallik haqidagi ideali ana shu o‘zgarishlarning birlamchi sababidir. Inson voqelikni estetik tarzda o‘zlashtirar ekan, unga dastlab o‘z estetik ideali va estetik dididan kelib chiqib munosabat bildiradi. Go‘zallikka munosabatda jins, yosh, e‘tiqod, milliy mentalitet, kasbiy bilim, konkret vaziyat va hokazolarning roli va o‘rni beqiyosdir.

Aksariyat hollarda insonning tashqi go‘zalligiga nisbatan yuzaki munosabat bildiriladi; tashqi go‘zallik shaxsning chinakam “Men”ini namoyon qilishiga to‘sqinlik qiluvchi, o‘tkinchi hodisa sifatida qaraladi. Ammo, inson go‘zalligiga nisbatan bunday yondoshuv bahsli. Chunki, insonning tashqi go‘zalligi muayyan holatlarda shaxsning o‘zigagina emas, balki boshqalarning faoliyatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. ”Qaydin olsin she‘rni shoir, bo‘lmasa ilhomchisi”... Bu borada buyuk donishmand G‘iyosiddin Abulfatx Umar Hayyomning “Navro‘znoma” asarida g‘oyatda o‘rinli fikrlarni bayon etgan. Allomaning mazkur fikri insonning zohiriy go‘zalligiga doir mavjud munozaralarga birmuncha oydinlik kiritadi.

Ma‘lumki, qalbning moyilligi jamol mushohadasining natijasidir. Ya‘ni, inson narsalarning zohiriy go‘zalligini botiniy go‘zallikka nisbatan birinchi bo‘lib payqaydi. U avvalo, ko‘rinib turgan go‘zallikni his qiladi, so‘ngra uning mohiyatiga murojaat etadi. Shu bois tashqi go‘zallikni muayyan obyekt yoki subyekt haqida dastlabki tasavvur-ma‘lumotni paydo qiluvchi birlamchi asos, deyish mumkin. Mazkur fikr o‘z navbatida inson go‘zalligiga ham daxldor. Biroq, chiroyli husn inson tashqi go‘zalligining barkamol bo‘lishi uchun kifoya qilmaydi. Uning takomillashuviga ko‘mak beradigan muayyan asoslar mavjud. Bular sirasiga orasta kiyinish, o‘zgalarga latif so‘zlar bilan muomala qilish, pokiza, ozoda yurish kabilar kiradi. Ular nafaqat shaxsning o‘ziga, ayni paytda boshqalarga ham ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlaydi, hatto yuzaga kelishi kuzatilgan nizolarning oldini oladi ham. Hadislarda esa yangi kiyim kiygan shaxsni duo qilmoq haqida alohida uqtiriladi. Bir so‘z bilan aytganda, inson tashqi ko‘rinishidagi chiroylilik ham uning mukammallashuvida o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Insonning botiniy go‘zalligi uning odob, xulq va axloqiy fazilatlarini bilan belgilanadi. Buni nafosat ilmi xulqiy go‘zallik deb nomlaydi.

Insonning amaliy hatti-harakati, axloqiyliigi, nafosatga munosabati ayni paytda uning botiniy tuyg‘ulariga, qalb kechinmalariga bog‘liq. Bu kechinmalar, odatda shaxs faoliyatidagi yaxshi a‘mollarga qarab-fazilatlar, yomon qilmishlariga –illatlar deb ataladi.

Inson xulqiy go‘zalligini takomillashuvida axloqdagi eng muhim mezoniy tushuncha hisoblangan muhabbat va ezgulik alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari, axloqiy va hulqiy go‘zallikda bevosita inson xatti-harakatining sababi bo‘lgan niyat muhim o‘ringa ega.

Bugungi kunda insoniy go‘zallik “barkamollik” tushunchasi bilan izohlanmoqda. Barkamol inson deganda, o‘z haq-huquqlarini taniydigan, o‘z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, o‘z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg‘un holda ko‘radigan, o‘zini jamiyatning ajralmas qismi deb his etadigan, zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan, ma’naviy jihatdan yuksak, jismonan baquvvat erkin shaxs tushuniladi.

Zamonaviy axloqshunoslik va nafosatshunoslik insoniy go‘zallikni o‘z “Men”ini namoyon etishda, insonni doimiy tarzda o‘z ishiga ongli munosabatda bo‘lishiga talabchanligida, insonni o‘z hayotini go‘zallashtirishga mas’ul ekanligida (Zigmund Freyd), insonning xavotiri zamirida insonni buyuk maqsadlarga da’vat etish mavjudligida (Jan Pol Sartr), ijtimoiy va iqtisodiy kuchlar qarshisida ojiz bo‘lmaslik, o‘z qo‘li bilan barpo etgan narsalarga sajda qilib qolmaslik (Erix Fromm) orqali izohlanmoqda. Endilikda texnogen sivilizatsiyaning markazi hisoblangan, faqat ko‘zga ko‘rinib turgan, aql va idrokka asoslangan borliqningina tan olgan G‘arb mutafakkirlari ham inson xulqiy go‘zalligini takomillashtirishda ko‘hna Sharqning allaqachon tajribasidan o‘tgan axloqiy muhit muammosiga e’tiborni qaratmoqda. Shu bois ular insonning tubanlashuvidan qutilish yo‘lini axloqiy muhit-etikosferani yaratishdan iborat, deb bilmogdalar.

Insonning faqat ma’naviy go‘zalligiga e’tibor berish, uning jismoniy go‘zalligiga putur yetkazadi. Ayni paytda, ma’naviy go‘zallik hisobiga jismoniy go‘zallikni ulug‘lash insoniyatni muqarrar tarzda muvaffaqiyatsizlikka olib keladi. Biz hozirda insonning ma’naviy va jismoniy go‘zalligini uyg‘unlashtirish masalalari dolzarb bo‘lgan davrda yashayotganligimizni unutmashimiz kerak. Ana shuni teran his qilganimizdagina ko‘zlagan maqsadlarimizga yetishishimiz mumkin bo‘ladi.

Nafosatshunoslikning eng muhim mezoniy tushunchasi bo‘lgan go‘zallikka doir yuqorida ilgari surilgan fikr va g‘oyalar asosida quyidagicha xulosaga kelish mumkin:

1. Go‘zallik falsafiy-estetik hodisa sifatida ezgulik va haqiqat bilan birgalikda oliy qadriyatlar tizimini tashkil etadi.

2. U estetikaning eng qamrovli va universal tushunchasi sifatida boshqa estetik tushunchalarga nisbatan yetakchilik xususiyatiga ega.

3. Go‘zallik eng oliy qadriyat bo‘lmish insonning ideal haqidagi tushunchasini shakllantiradi.

4. U umuminsoniylik tabiatiga ega bo‘lib, har qanday sinfiylik, partiyaviylik, yakka mafkuraviylik singari aksil ma’naviy doiralardan yuqori turadi, ayni paytda milliylikni inkor etmaydi va aynan ana shu xususiyati tufayli umumbashariy qadriyat darajasiga ko‘tariladi.

5. Go‘zallik ideal va real voqelik orasidagi ko‘prik vazifasini o‘tashi barobarida badiiy ijod ravnaqi va san‘at turlari taraqqiyotini ta‘minlaydi. Go‘zallik muammosini o‘rganish o‘z navbatida san‘atning mohiyati va dolzarb masalalarini anglab yetishga hamda tadqiq etishga ko‘maklashadi, zamonaviy estetikaning nazariy teranlashuviga, rivojlanishiga yordam beradi.

6. Go‘zallik komil inson shaxsini tarbiyalashning asosiy vositalaridan biri sifatida inson estetik didini shakllantirishda ulkan ahamiyatga ega. U inson qalbini mayinlashtiradi, yovuzlikdan yiroq tutadi va faoliyatga undaydi, tabiatni go‘zallashtirish va insonni tabiiylashtirish uchun xizmat qiladi.

Bir so‘z bilan aytganda, go‘zallik– ma‘naviy va moddiy xususiyatga ega bo‘lgan, ijtimoiy hayotda favqulodda ahamiyat kasb etuvchi hamda narsa-hodisalarning uyg‘unligi, hamohangligi, mutanosibligi, maqsadga muvofiqligiga asoslangan qadriyatlar majmuidir.

Dialektik ziddiyat sifatida go‘zallikni takomillashib borishidagi zaruriy shart nafosatshunoslikda umumiy nom bilan “xunuklik” deb ataladi. Odatda xunuklikni go‘zallikning aksi deb yuritimiz. Biroq, bunday yondoshuv qisman to‘g‘ri. Chunki, xunuklik asli chiroylilikning aksidir. Zero, uyqash va bir-biriga yaqin bo‘lgan tushunchalarning unsurlari u yoki bu ko‘rinishda har ikkala tushunchada ham namoyon bo‘lish ehtimoli mavjud.

Xunuklik bir paytning o‘zida ham go‘zallikning, ham nafosatdan lazzatlanishning ziddidir. Chunki, xunuklik lazzatlanish tuyg‘usi mavjud bo‘lgan jarayondan uzoqroq joyda vujudga keladi.

Go‘zallikka shuningdek, badbasharalik, beo‘xshovlik, nomutanosiblik kabi tushunchalar ham muqobil tarzda qo‘llanilishi kuzatiladi. Odatda badbasharalik yuzga nisbatan qo‘llanilsa, beo‘xshovlik butun tanaga yoki kompleksga nisbatan qo‘llaniladi. Nomutanosiblik odatda shakldagi qusrga nisbatan ko‘proq qo‘llaniladi.

3. Estetik qadriyatlar – barqarorlikni ta‘minlovchi omil.

Ingliz nafosatshunosi E.Byork go‘zallikni ulug‘vorlik bilan solishtirar ekan, go‘zallikni ulug‘vorlikka qarama-qarshi qo‘yadi. Olmon nafosatshunosi I.Kant go‘zallik va ulug‘vorlik uyg‘unlikda rivojlanuvchi tushunchalar deb hisoblaydi. Gegel esa ulug‘vorlik go‘zallikning bir ko‘rinishi, ulug‘vorlik – zohiriy go‘zallikning botiniy go‘zallikka aylanishi, deb biladi.

Ulug‘vorlik– insonning narsa, hodisalarga nafosatli va axloqiy mezonlar bilan yondoshishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg‘usini hosil qiluvchi estetik tushunchalar majmuidir.

Ulug'vorlik– go'zallikning yuksak darajasi, buyukligi va kuchliligi bilan ajralib turadigan o'ziga xos turi, inson qalbini kuchli hayratlantiruvchi, zavqlantiruvchi, larzaga keltiruvchi o'ziga xos tuyg'udir. Ulug'vorlikning ko'lami go'zallik ko'lami kabi cheksizdir. Ulug'vorlik o'zida hajm, miqdor, ko'lam va buyuklikni mujassam etadi. Ulug'vorlik tabiat, jamiyat hodisalarida, inson suvrati va siyratida, san'at turlarida namoyon bo'ladi.

Ulug'vorlik– tabiatda cheksiz osmon, purviqor tog'lar, yuksak cho'qqilar, moviy dengizlar, ming yillik chinorlar, shuningdek, vulqon va chaqmoq singari tabiat hodisalarida namoyon bo'ladi. Ular uzoqdan kishilarda hech qanday hayajonli taassurot qoldirmaydi. Biroq, ularga yaqinlashganimiz sari ruhiyatimizni hayajon, jo'shqinlik egallay boshlaydi, ularni butunligicha ko'z bilan qamrab ololmaslik darajasiga yetganda esa bu hayajon yanada ortadi. Inson tomonidan yaratilgan ikkinchi tabiatning ham ulug'vor bunyodkorliklari behisob. Masalan, sun'iy ko'llar, gulzorlar, o'rmonzorlar, binolar va hokazolar.

Ulug'vorlik jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar, tarixiy va milliy qahramonlik, jasorat, xalqparvarlik, barqarorlik, bunyodkorlik tushunchalari bilan uyg'unlashadi. Bular buyuk va muhtasham arxitektura yodgorliklari, gigant texnik qurilmalar, qudratli ijtimoiy harakatlar, O'zbekiston mustaqilligining qo'lga kiritilishi va hokazo.

Davlatda barqarorlik, jamiyatda adolat ustuvorligi, shaxsning erkin va hurfikrlilik asosida faoliyat olib borishi ijtimoiy tizimning ulug'vorligini aks ettiradi. Ozod va obod Vatan, erkin va forovon hayot qurish – O'zbekiston xalqlarining ulug'vor maqsadidir.

Ulug'vorlik insonda ham o'zining boy qudratini, salohiyatini namoyon qiladi. Ulug'vorlik inson qiyofasi, salobati, ko'z qarashlari, qadam tashlashi, so'zlashuv yo'sini va hokazolarda o'zining ifodasini topishi mumkin. Masalan, Amir Temurning Toshkent, Samarqand va Shahrisabzdagi haykallari, Olim Xo'jayevning Navoiy siymosidagi xatti-harakatlari, Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusufning qiroatlari, Qodir Maqsumovning notiqlik mahorati ulug'vorlikning go'zal namunalaridir.

Ulug'vorlik san'atda o'zining har tomonlama ijodiy ifodasini topadi; san'atning barcha turlari uchun ulug'vorlik asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi. Badiiy adabiyot va ifodali san'at turlari ulug'vorlikni tasvirlashda xilma-xil vositalardan foydalanib hamda ulug'vorlik mavzusini badiiy o'zlashtirib, jasorat dostonlarini, liro-epik dostonlarni, qahramonlik fojialarini, mardonavor musiqa asarlarini (simfoniya, oratoriya)ni vujudga keltirdi.

Ulug'vorlik me'morchilikda yuksak ahamiyat kasb etadi: Samarqanddagi Registon maydoni, Go'ri Amir mavzoleyi, Bibixonim, Imom Buxoriy majmuasi, Buxorodagi Minorai Kalon, Xivadagi Kalta Minor, Shahrisabzdagi Oqsaroy,

Toshkentdagi Yevropa va Osiyo me'morchiligining yangi an'alarini uyg'unlashtirgan Milliy Bank binosi, Oliy Majlis binosi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Misrdagi ehromlar, yunonlarning Parfenoni, rimliklarning Kolizeyi, o'rta asr gotik bosh cherkovlari shular jumlasidandir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, ulug'vorlik tushunchasiga faqat miqyos, ko'lam va o'lchovining kattaligi bilan yondoshish uning qamrovini chegaralab qo'yadi. Bobil minorasi, Minorai Kalon, Misr ehromlari o'zining keng miqyoslilik bilan kishilarni hayratga solsa, Go'ri amir, Shohizinda, Ichan qal'a, Registon maydoni, Mir Arab madrasasi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Chor Minor, Bola hovuz machiti insonda yuksak darajada nafosat va go'zallik tuyg'ularni shaklantiradi.

San'atning teatr, kino va badiiy adabiyot turlarida ulug'vorlik fojealilik bilan yonma-yon turadi: estetikaning bu ikki kategoriyasi o'rtasida o'ziga xos dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, ular milliylik va umuminsoniylik xususiyatlariga ko'ra farqlanadilar. Masalan, Shayxzoda va Shekspir asarlari bir vaqtning o'zida ham ulug'vorlikni ham fojaviylikni namoyon ettiradi. Farq, Ulug'bekning o'limi bilan Otteloning qismatida, xolos. San'atdagi ulug'vorlik badiiy mazmun va shakl barcha imkoniyatlari vositasida ifodalanadi, lekin bunda hal qiluvchi rolni g'oya o'ynaydi.

Harbiy sohadagi ulug'vorlik o'zining yorqinligi, jangovorligi, tantanavorligi bilan har qanday insonni lol qoldiradi: madhiyasi, harbiy parad va marshlari, texnikasi.

Nafosatshunoslik kategoriyalari orasida xunuklik singari kishilarda salbiy his-tuyg'u paydo qiladigan boshqa tushunchalar ham mavjud. Tubanlik ana shunday tushuncha.

Tubanlik – insonda kuchli nafratlanish tuyg'ularini hosil qiluvchi narsa-hodisalar majmuidir. Uni xunuklik bilan aynanlashtirib bo'lmaydi. Chunki, xunuklik kishilarda yengil noxushlik tuyg'usini paydo qilsa, tubanlik esa kuchli nafratlanish hissini uyg'otadi. Tabiat, hayvonot va nabotot olamidagi xunuklik yengil noxushliklar ko'rinishida namoyon bo'ladi, biroq, tubanlikka aylanmaydi. Insondagi xunuklik esa tubanlik darajasiga borib yetadi. Daryoning suvi loyqalangani, ko'kalamzorlarga to'kilgan axlat, qurbaqa, ilon xunuk ko'ringani bilan undan odamlar nafratlanmaydilar. Inson tomonidan qilinadigan ayrim xatti-harakatlardan esa nafratlanish va hatto jirkanish mumkin.

4. Fojeaviylik (tragediya) muammosi har doim falsafiy va nafosatli tafakkur e'tiborini o'ziga jalb qilib kelgan.

Fojeaviylik– tabiatdagi dahshatli, halokatli tabiiy hodisalar, jamiyat hayotining chuqur, keskin ziddiyatlari va to‘qnashuvlari, insondagi kuchli iztirob, dard, yo‘qotishlardir. Unda tabiat va uning fojeaviy oqibatlari, hayot va o‘lim, erkinlik va zarurat, aql va tuyg‘u, qonun va burch, shaxsiy va ijtimoiy tomonlar tabiat va jamiyat, jamiyat va inson o‘rtasidagi ixtilofli, antagonistik munosabatlar namoyon bo‘ladi.

Tabiatdagi fojeaviylik –halokatli toshqinlar, kuchli zilzilalar, yong‘inlar, ozon qatlamining emirilishi, Orol dengizining qurishi, Chernobil atom elektrostansiyasi voqeasi va hokazolar.

Jamiyatdagi fojeaviylik – Ukraina va Suriyadagi urushlar fojeasi, jahon moliyaviy iqtisodiy krizisi fojeaviy oqibatlari, terrorizm, diniy ekstremizm, “ommaviy madaniyat”, davr vabosi bo‘lgan turli kasalliklar.

Tabiat va jamiyat fojealarining shaxs fojeasi sifatida namoyon bo‘lishi: inson o‘limi, og‘ir azob-uqubatlar, jismoniy va ma‘naviy yo‘qotishlar, chuqur ruhiy tushkinlik, ilojsizlik, qadsizlik-ma‘naviy o‘lim va hokazo.

San‘atdagi fojealilik – fojeali ohanglar, fojealilik san‘ati va nihoyat fojealilik – san‘at turi kabi muammolar alohida mushohada qilinishi lozimdir. Deyarli barcha ulkan ijodkorlar yaratgan asarlarda fojeali ohanglar mavjudligini juda ko‘p misollarda ko‘rib chiqishimiz mumkin. Masalan, M. Shayxzodaning “Jaloliddin Manguberdi” va “Mirzo Ulug‘bek” asarlarida fojeali ohanglar boshdan oxiriga qadar sezilib (eshitilib) turadi.

Har qanday fojea zaminida alohida fojeali to‘qnashuv yotadi va uning eng muhim tomoni ko‘lamlilik va ijtimoiy ahamiyatga molikligidir. Gegel fojealilikni mohiyatli kuchlar to‘qnashuvining natijasi, deb biladi. Chunki, bu to‘qnashuvlar kurashining qanday tugallanishi pirovardida insoniyat istiqboli, taqdiri bilan bog‘lanib ketadi. Bu hol fojea san‘atining falsafiy jihatdan eng hajmli turiga aylantiradiki, unda ijodkorga hayotning insoniyatni butun tarixi davomida hayajonlantiradigan tub masalalarni o‘z oldiga qo‘yib, hal qilish imkoniyatini beradi.

Fojea qahramoni ko‘pincha ijobiy tasvirlanadi, u o‘z davrining ijobiy orzu-umidlari, u yoki bu qirralarini o‘zida mujassamlashtirgan kuchli, yorqin, ulug‘vor shaxsni namoyon etadi. Odatda fojea mazmunida qahramonning mavjud shart-sharoitlarni tubdan o‘zgartirishga faol intilishi namoyish etiladi. Fojea qahramoni bu yerda fojeali dramatik harakatning asosiy subyekti sifatida amal qiladi. Shuning uchun fojea qahramonning faolligi, o‘z orzu-irodasini, hatto o‘zini qurbon qilib bo‘lsa ham barqaror etishga intilishi uning mohiyatli belgisini tashkil etadi. O‘z irodasini o‘rnatishga intilishida u tarixiy imkoniyatsizlik bilan to‘qnashib, xuddi mana shu to‘qnashuv, mazkur tarixiy sharoitlarda yechimsiz qolib, fojeani yuzaga

keltiradi. Yuksak fojea qahramonning mashaqqatli azob-uqubatlari bilan bog‘langan bo‘lsa-da, ko‘pincha asar uning halokati bilan tugallansa-da, bari-bir qayg‘u va ma‘yuslik emas, balki yashash va kurash istagi (optimistik tragediya), bu kurashda o‘quvchi va tomoshabinda o‘zining halok bo‘lishini bilib turgan inson uchun g‘urur tuyg‘usi qo‘zg‘aladi. Inson ulug‘vorligini tarannum etish hammadan ham ko‘proq va yorqinroq san‘atning fojea turida ifoda topgandir. Fojeaviylik san‘atda rang-barang uslublarda talqin etilishi mumkin.

Shekspirda fojealilik butun hayotni, ijtimoiy aloqalar va munosabatlarni qamrab oladi, lekin ularning barchasida inson shaxsi to‘laqonli ravishda ifodalanadi. Shekspir feodal tartibotlarni inkor etish bilan birga tug‘ilib kelayotgan tuzumning g‘ayriinsoniy tabiatini ham fahmlab olgan ko‘rinadi. Shekspir o‘zining fojeaviy asarlarida kuchli, jasoratli, g‘ururli, erkin inson timsolini barqaror o‘rnatadi. Inson o‘z shaxsi erkinligini o‘rnatish mumkinligiga ishonadi va uning yanglishishi mana shunda namoyon bo‘ladi.

“Hamlet”ning abadiy, mangu sir-ahamiyati, uning so‘nmas kuchi va ta’sirchanligi undagi ma’naviy-ruhiy hamda falsafiy boylikning voqelikning ijodiy-yaxlit idrok qilish bilan qaytarilmas darajada qo‘shilib ketganligidadir. Xamlet-insonparvar mutafakkir va ayni vaqtda dadil hamda qo‘rqmas jangchi. Uning axloqiy g‘alabasi-bu qo‘rqmas inson tafakkurining g‘alabasidir, garchand u qahramonning o‘limi evaziga erishilgan bo‘lsa ham buyuk saboq va kelajak avlodlarga vasiyat sifatida idrok qilinadi.

Chingiz Aytmatovning “Kunda” romanini ham fojea asari deyishimiz mumkin. Chunki uning asosiy badiiy ohangi, undagi ehtirosli to‘qnashuvlar ruhi, ulkan hissiy ta’sir kuchi, qahramonlarining taqdiri jihatlaridan o‘ta fojeali matnga egadir. Bu roman-fojeada davrimizda keng tomir yoygan ijtimoiy, axloqiy, ekologik muammolar chuqur qo‘yilgan bo‘lib, shu tufayli bu asar kutilayotgan fojeadan ogohlantiruvchi qudratli bong ovoziday jaranglaydi.

Insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichda uning muqarrar tarzda imkoniyatlari tarixiy cheklanganligi san‘atda fojeali ohanglar tug‘ilishiga bitmas-tuganmas zamin vazifasini o‘taydi.

Har qanday fojeada forig‘lanish elementlari goh yashirin, goh oshkora tarzda namoyon bo‘ladi. Fojeaviylik hodisalari insonlarni, insoniyatni ro‘y berishi mumkin bo‘lgan yoki ro‘y bergan mash‘um hollardan saqlanishga, forig‘ bo‘lishga, poklanish, tozalanishga undaydi, ular qalbida dahshatga, razolatga, adolatsizlikka, qarshi kurash hissini uyg‘otadi, ezgulikni qaror topishiga turtki, impuls beradi.

DIQQAT QILING! Aksariyat tadqiqotchilar kulgililik kategoriyasining murakkabligi, tushunchalar tizimidagi paradokslarni ko‘rib, kulgililikni ta‘riflash, izohlash juda qiyinligini e‘tirof etadilar. Masala shundaki, kulgi qo‘zg‘aydigan hodisalarning benihoyat ko‘pligi, eng muhimi, kulgililik ko‘lami hamda chegarasining o‘ta harakatchan, qo‘nimsiz, o‘zgaruvchanligi va buning natijasida kulgu nima va u qachon, qayerda, qanday sharoitda yuzaga keladi-yu, qachon, qayerda, qanday sharoitda yakun topadi yoki umuman kulgiga olib kelmaydi, degan savolga bir mazmunda javob topib bo‘lmaydi.

Kulgililik insonning dunyo – voqea – hodisalarga o‘ziga xos munosabatlaridan biri-dunyoga kulgili nigoh bilan qarashidir. Bunday qarashni mavjud voqelik va uning beo‘xshov tomonlari to‘ldiradi.

Kulgililikka nisbatan mavjud bo‘lgan qarashlarning rang-barangligi, tabiiyki, nafaqat narsa, hodisa bilan bog‘lanibgina qolmay, balki uning ijtimoiy aloqadorligi, go‘zallik va kulgililik tushunchalarining u yoki bu talqini bilan bog‘langanligidir. Kulgililik tushunchasi talqinining har biri odatdagidek o‘zining aniq, oqil mag‘ziga ega bo‘ladi, kulgililikka haqiqatdan ham xos bo‘lgan ba‘zi tomonlarini ochib beradi.

Kulgi u yoki bu darajada o‘z manbai va o‘z namoyondasi bilan birga yaxlit birlikni tashkil etadi. Insonning turli sabablarga ko‘ra kulgisi qistaydi. Bevosita kulgililik biror-bir hodisaning, birinchi navbatda, insonning tashqi ko‘rinishi bilan uning asl mohiyati o‘rtasidagi nomuvofiqlik, ziddiyati, boshqacha aytganda, amaldagi voqelik bilan yuksak estetik orzularga mos kelishi kerak bo‘lgan voqelik o‘rtasidagi muhim tafovutlar, beo‘xshovliklar, kelishmovchiliklarni tabiiy anglash natijasida vujudga keladi. Ba‘zi-bir odamlar o‘zining pastkash, johil, loqayd, xudbin mohiyatini tashqi viqor, oliftalik, takabburlik bilan «bezab» ko‘rsatmoqchi bo‘ladi. Bunday odamlarni uchratganda ham kulish, ham quvonish mumkin. Kulishimiz manbai bu odamdagi mohiyat bilan ko‘rinish o‘rtasidagi beo‘xshovlik bo‘lsa, quvonishimiz sababi mazkur haqiqatni anglashimizdan, haqiqatni yolg‘ondan ajratish qobiliyatimiz mavjudligidan kelib chiqadi.

Kulgi insonni ruhan ko‘taradi, unga insoniy g‘urur tuyg‘usi bag‘ishlaydi. qo‘rquv bilan kulgi bir-biriga o‘ta qarama-qarshi tushunchalar bo‘lib, agar inson yaramas va hunuk hodisalar ustidan kulishga o‘rganib olsa, u bu illatlardan qo‘rqishni tark etadi va ular bilan kurashga bel bog‘laydi.

Kulgi o‘z tabiati jihatidan demokratik mazmunga ega bo‘lib, barcha odamlarni bir-biriga qovushtirib baravarlashtiradi, chunki kulishayotgan odamlar o‘zaro tenglashadilar.

Kulgi eskilik bilan kurashning omilkor vositasigina bo‘lib qolmay, balki insonning kuch-qudrati va ozodligi timsoli hamdir.

Kulgi beqiyos rango-rang, xilma-xil qirralarga ega bo'lib, mayin, rag'batlantiruvchi, hushfe'l hazil tuyg'usidan tortib, to ayovsiz achchiq istehzogacha bo'lgan keng doirada amal qiladi.

Kulgililik o'zining barcha xilma-xil ko'rinishlari, boyligi bilan san'atning me'morchilikdan boshqa deyarli hamma turlarida namoyon bo'ladi, lekin o'zining eng to'la bo'lgan estetik ifodasini komediyada topadi.

Komediya mavzuini hayotdagi va insondagi beo'xshovliklar, nomutanosiblikdan oladi. Kulgililikning namoyon bo'lish shakllari xilma-xilligi ularning san'atda xilma-xil tarzda aks etishlarini keltirib chiqaradi. Komediya asarlari turlarining xilma-xilligi, rango-rangligi mana shundan kelib chiqadi.

Komediya bilan kulgi egizaklardek bir-biridan ajramaydigan tushunchalardir. Kulgi komediyada tasvirlanayotgan voqea-hodisalar mohiyatini ochib berishning hal qiluvchi vositasi, tasvirlanayotgan obyektga nisbatan estetik baholashning va muallif munosabati ifodasining asosiy shakli bo'lib xizmat qiladi. Komediya san'atida kulgini asosiy estetik vosita qilib ishga solish uning ijtimoiy ahamiyatligini pasaytirmaydi, chunki kulgi dunyoning barkamol emasligini ta'kidlab qolmasdan, balki uni qayta qurib yangilashni ham ko'zda tutadi.

Kulgining komediyada o'ynaydigan maxsus roli ko'p jihatlardan uning o'ziga xos ijtimoiy burch-vazifalarida ifoda topadi. Komediya, birinchi navbatda, badiiy tanqid va o'z-o'zini tanqid qilishning o'ziga xos shaklidir. Komediylarning asosan tanqidiy yo'nalganligini ko'pincha o'ta soddalashtirib, komediya yomon hulq, yomon odam, yomon hodisalarni to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tuzatishga, yaxshilashga olib keladi deb tushunadilar va tushuntiradilar.

Komediyaning bosh vazifasi utilitar-maishiy mohiyati emas, balki estetik yo'nalishdadir, ya'ni komediya axloq-odobdan saboq berib qolmay, hayotdagi kulgulilikni ilg'ab olishdagi qobiliyatini o'stiradi, odamlarda hazil tuyg'usi kabi qimmatbaho fazilatni ham rivojlantiradi.

Kulgilining badiiy shakllari orasida mashara (satira) alohida o'ringa ega. Umumestetik ma'noda mashara voqelikni badiiy tasvirlash turi bo'lib, unda hayotning salbiy hodisalari ustidan kulish-bunday hodisalar asosida yuksak insonning orzulariga zid ekanligini bo'rttirib ko'rsatish maqsadi yotadi. Mashara san'ati har xil ko'rinishlarda namoyon bo'lishi mumkin. Unga lirika ham, epos ham, drama ham yot emas. Shuning bilan birga ifoda kuchining o'ziga xos maqsadlari va vositalari bilan farqlanadigan san'atning o'ziga xos alohida turini tashkil qiladi.

Mashara markazida doim hayotning salbiy voqea-hodisalari joylashgan bo'lib, butun fosh qilish kuchi ularga qarshi qaratilgan bo'ladi. Shuning uchun komediya san'atiga xos tanqidiy yo'nalganlik masharada eng to'la va eng aniq

ifoda topadi. Masharaga asosan kulgi fosh qiladi, lekin u bu erda qahr-g'azabdan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

Mashara badiiy umumlashtirishning alohida turi sifatida mumkin qadar keng mushohada etiladi. Shu boisdan mashara obyekti bo'lgan kimsalar gohida yirik ramziy umumlashmalar darajasiga ko'tariladi. Bekorga biz gap orasida Tartyuf, qori Ishkamba, Xlestakov, Iudushkalar nomini qistirib o'tmaymiz, chunki bu hollarda fikr bildirilayotgan odamning ularga o'xshagan xislatlari borligiga ishora qilib, uzoq vaqt ijtimoiy hayotda o'z mavqeini saqlashga qodir bo'lgan tabaqalar qiyofalarini masxaraomuz umumlashtirishga uringan bo'lamiz.

Kulgili san'at turlari va xillari orasida hazil tuyg'usi (yumor) ham alohida o'ringa ega. Uning ishtirokisiz biror-bir kulgili holat amalga oshmaydi.

Moler hazil tuyg'usini insonni hayvondan ajratib turadigan xususiyati deb atagan edi. Kulgililikning subyektiv tomoni bo'lgan hazil tuyg'usi shaxsning tabiiy va erkin, bevosita idrok etish natijasida xilma-xil kulgili beo'xshovliklarni ko'rib, anglab, ularga kulgi bilan javob berish qobiliyati ifodasidir. hazil tuyg'usi juda murakkab aqliy tuyg'u bo'lib, unda shaxs o'zining butun borlig'i bilan namoyon bo'ladi, uning his-tuyg'u va aql madaniyati, orzu-umidlari mazmuni va tabiati namoyish etiladi.

Hazil tuyg'usi va voqelikka masxarali munosabat - bu kulgililikning har xil shakllaridir. Lekin hazil ham ijtimoiy-kulgili hayot tomonlarini masxara kulgisidan kam bo'lmagan darajada ochib berishga qodirdir. Faqat bunda hazil obyekti g'azab qo'zg'atishni qoralashdan ko'ra ko'proq achinish, yo'q qilib yuborishdan ko'ra ko'proq yordam ko'rsatish obyektiga aylanadi.

Kulgililikning barcha shakllari ular qanchalik erkin namoyon bo'lish imkoniyatlariga ega bo'lib borsalar, shunchalik ko'p ahamiyat kasb etadilar. Rivojlangan hazil tuyg'usi, hayotning kulgili tomonlarini nozik ilg'ab olish va fahmlash qobiliyati rivoji borgan sari shaxsning ma'naviy-ruhiy sog'lomligi hamda barkamolligi ko'rsatkichi bo'lib boraveradi.

Xullas, yengil kulgi bilan bog'liq bo'lgan hazil, yumor, mutoyiba, komediya, askiya kabi kulgu janrlari inson qalbini kundalik g'am-tashvishlardan, qayg'ulardan forig' qilish, tozalash-poklash, kayfiyatini ko'tarish, xushchaqchaq qilish, dam oldirish, ruhiyatini yangi ideallar bilan boyitishga xizmat qilsa, zaharxanda kulgi, masxaralash, hajv, mazah, satira kabilar insondagi va jamiyatdagi salbiy xislatlar, illatlar, qusr va nuqsonlarni yo'qotib, yemirib tashlashni maqsad qilib oladi. Hamda inson va jamiyat komilligi, yetukligi uchun xizmat qiladi.

Estetika kategoriyalari o'zaro chambarchas bog'langan bo'lib, ularni bir biridan amaliy jihatdan ajratish mumkin emas. Go'zallik ulug'vorlik bilan, fojeaviylik satira, qusyr bilan doimo yonma-yon.

Estetik did tushunchasining o‘ziga xosligi shundaki, u bir tomondan, idrok, fahm, farosat kabi ildizi aqlga borib taqalsa, ikkinchidan, o‘zining ehtiros, hishayajon, subyektiv baholash xususiyati bilan ulardan ajralib turadi. Shu sababli biz did haqida gapirganimizda odatda, estetik didni – insondagi go‘zallik, ulug‘vorlik, fojeaviylik singari estetik xususiyatlarni, umuman, nafosatni idrok etish qobiliyatini nazarda tutamiz. Masalan, osmonni qora bulut to‘liq qoplab olganini ko‘ra-bila turib, yomg‘irpushsiz va soyabonsiz yo‘lga chiqqan odamni fahmsiz, chang, loy poyafzalini yechmay, gilamni bosib, ichkariga kirgan odamni farosastiz deb ataymiz, qalampir nusxa rangli ko‘ylak, jinsi shim va ayni paytda kirza etik kiyib, salla o‘rab olgan odamni ko‘rsak, uni didsiz deymiz. Birinchi hodisada biz tabiiy sharoitga moslashmay, o‘ziga jabr qilayotgan kishini, ikkinchisida ham gigienik, ham axloqiy qonun-qoidalarga amal qilmay tarbiyasizligi tufayli uy egasini ranjitgan odamni, uchinchi hodisada kiyinishdagi uyg‘unlikni tushunmagan, go‘zallik bilan bachkana yaltiroqlilikning farqiga bormagan kimsani ko‘ramiz. Yoki, boshqacha qilib aytganda, biz ongning, birinchi hodisada – haqiqatga, keyingisida – ezgulikka, uchinchisida – go‘zallikka munosabatini uchratamiz. Har uchala hodisaning asosida ham qobiliyat yotadi. Fahm – aqliy, farosat – axloqiy, did – estetik qobiliyatni yuzaga chiqaradi. Uchala qobiliyatning ham ibtidosi, tabiiy-tug‘malikka borib taqalsa-da, ular o‘zlarini asosan tarbiya, ijtimoiy munosabatlar orqali ro‘yobga chiqaradi. Ayniqsa, estetik did murakkab tarbiya jarayonini taqozo etadi. Chunki u ham aqliy, ham axloqiy, ham hissiy tarbiya uyg‘unlashgan umumiylikdan iboratdir.

Biz yuqorida estetik bahoning estetik did va ideal bilan bog‘liqligini aytib o‘tgan edik. Xuddi shunday holat estetik did uchun ham xos. U estetik baho bilan shu qadar uzviy bog‘liqlik, ularni ba‘zan ajratib bo‘lmay qoladi, go‘yo estetik baho estetik didning ajralmas qismiday tuyuladi. Lekin, shunday bo‘lsa-da, ularni aynanlashtirish yoki bir hodisa sifatida qabul qilish mumkin emas, aks holda bunday qarash ilmiy tahlil tamoyillaridan yiroq “ko‘cha gapri”ga aylanib qoladi. Zero, estetik did muayyan estetik baho yoki baholar yig‘indisi emas, balki estetik bahoga layoqatni anglatadigan, subyekt uchun baho me‘yorlarini va mezonlarini tayyorlab beruvchi – “ishlab chiqaruvchi” jarayondir. Demak, estetik didsiz estetik bahoning mavjudligi mumkin emas. Ayni paytda shunday holni estetik ideal bilan bog‘liqlikda ham ko‘rish mumkin: estetik ideal estetik didning yashash sharti hisoblanadi; did ma‘lum ma‘noda idealning amaliyotda namoyon bo‘lishidir; estetik idealning o‘zgarishi albatta didning o‘zgarishiga olib keladi. Shunday qilib, did estetik anglash jarayonidagi o‘rnini almashtirib bo‘lmaydigan muhim xalqalaridan biri, estetik anglashning eng muhim unsuridir. Ana shu nuqtai nazardan estetik did tarbiyasi inson shaxsi kamolotida katta rol o‘ynaydi, estetik did tarbiyasining asosan uch ildizi mavjud. Ular go‘zallik, san‘at va badiiy ijod.

Albatta, badiiy ijod deganda faqat san'at asarlarining yaratilish jarayonini tushunish kerak emas, u ayni paytda dizaynda, modada, atrof-muhitni va mehnatni go'zallashtirishda ham namoyon bo'ladi. To'g'ri, badiiy did estetik didga nisbatan xususiy, tor qamrovli, lekin u shuning barobarida estetik didning asosini tashkil etadi, deyish mumkin.

Estetik did har kimda har xil bo'lishini, unda subyektiv mushohada kuchli ekanini yaxshi bilamiz. Buyuk ingliz faylasufi Deyvid Hyum shundan kelib chiqib, did haqida bahslashmaydilar, ya'ni har kimning didi har xil degan fikrni ilgari surgan. Lekin shunday estetik qadriyatlar borki, ular muayyan zamon, ijtimoiy hayot, umummilliy, umuminsoniy madaniy daraja bilan shartlanadi. Ular idrok etilganida bahslashish mumkin emas. Chunki bunda bir-ikki odamning yoki guruhning didi o'zgacharoq bo'lsa, xususiylikka nisbatan maxsus e'tiborini qaratish shart emas: ularning fikri sukut saqlash yo'li bilan inkor etiladi. Chunki yuz minglab yoki millionlab shaxslar va qator zamonlar tan olgan qadriyatni «bu menga yoqmaydi», deyishga hech kimning ma'naviy haqqi yo'q, agar shunday deydiganlar topilsa, ularning didi, aytilganidek, e'tiborga noloyiq. Shuning uchun ham Kant o'zining did haqida bahslashish ham mumkin va aksincha bahslashmaslik ham mumkin, degan mashhur qoidasini, o'ziga xos antinomiyaning o'rtaga tashlaydi. Kantning haqligini quyidagi misolda yaqqol ko'rish mumkin.

Deylik, Eshmat chinnigulni, Toshmat esa atirgulni yaxshi ko'radi. Bu holatda ularning birortasini tanqid qilib bo'lmaydi, chunki har ikki did o'ziga xos subyektiv kechinmalarga asoslansa-da, ularning umumiy obyektiv ildizlari bor, ular gullardagi go'zallikni ikki xil shaklda ko'radilar va bu holat tabiiy. Shu sababli har ikki did ham hurmatga, e'tiborga loyiq. Bordi-yu Eshmat tovus va uning dumini, Toshmat esa echkiemar va uning dumini go'zal desa, Toshmatning fikri yonom chiqarish uchun qilinayotgan oliftagarchilik yoki estetik didsizlik tarzida qabul qilinadi. Chunki insoniyat zamonlar mobaynida tovusni – jannat qushi, go'zallik ramzi tarzida, echkiemarni esa xunuklik timsoli sifatida qabul qilib keladi: bu o'rinda did borasida bahslashish mumkin emas, tovusning go'zalligi umumbashariy "tasdiqdan o'tgan". Shu sababli Toshmatning fikri tanqid rad etiladi, uning "o'ziga xos", "subyektiv" qarashi hisobga olinmaydi. Shunday qilib, umumbashariy yoki umuminsoniy estetik qadriyat sifatida tan olingan estetik obyektlar haqida bahslashilmaydi, ular barcha rasmona did egalari tomonidan yuksak baholanadilar.

Ayni paytda shuni ham nazarda tutish lozimki, did yagona, mutlaq estetik hodisa emas, u ham muayyan nisbiylik tabiatiga ega. Chunonchi, uning to'rt xil darajasi haqida fikr yuritish mumkin, bu darajalar odamlarning mavqei, saviyasi, madaniylik toifasi bilan bog'liq. Birinchisi, estetik obyektning qanday bo'lsa, shundayligicha, aniq bir reallik tarzida idrok etuvchi subyektiv fikri ojiz, biror

obyektini hamma zo‘r desa, zo‘r ekan deb qaraydigan faqat jo‘n idrok etishga asoslangan did. Ikkinchisi, uning aksi – nafosatni zavqlanish uchun emas, balki o‘zining boshqalardan madaniyatligini, o‘qimishligini ko‘rsatish uchun bir vosita deb biladigan, zavqlanishni murakkab tahlil bilan almashtiradigan did egalari. Ularni odatda, nafosatbozlar – estetiklar deb ataymiz. Uchinchisi, bejamadorlikdan, yaraqlab turadigan narsa-hodisalardan hayratlanadigan, modaparast did egasi. To‘rtinchisi, milliy va umumbashariy estetik qadriyatlardan zavqlanadigan, ularni, baholay oladigan, badiiy soddalikni anglay biladigan kishilar didi.

Birinchi xildagi did estetik obyektini faqat hodisa tarzida qabul qilib, uning mohiyatini butunlay anglamaydigan, jo‘n hissiyotga asoslangan did; ikkinchisi, mohiyatni hodisadan ajratib olib, uni “kavlashtiraveradigan”, o‘ta murakkablashtiradigan, faqat intellekt bilan, aql bilan ish ko‘radigan did; uchinchisi, o‘ta yaltiroqlikni, yoqtiradigan har bir Yangilikni qadriyat sifatida qabul qiladigan bachkana did. To‘rtinchisi, hodisa bilan mohiyatni yaxlitlik tarzida idrok etadigan, hissiy-intellektual yondashuvning uyg‘unligiga asoslangan did. Ana shu to‘rtinchi xil didni haqiqiy yuksak estetik did, deyish mumkin.

Aytilganlardan estetik did masalasi shaxs, jamiyat va millat madaniyati uchun katta ahamiyatga ega ekani ravshan bo‘lib turibdi. Shu sababli estetik did tarbiyasi har doim ham muhim ahamiyat kasb etib kelgan. Ayniqsa, mustamlaka botqog‘idan chiqqan xalqimizning tenglar ichida teng bo‘lib, jahonga rosmana chiqishi uchun estetik did tarbiyasi alohida dolzarblikka ega. Biz qurayotgan erkin fuqarolik jamiyati va unda har bir shaxsning yuksak estetik didga erishish zamon talabidir. Chunki faqat yuksak estetik did egasigina haqiqiy erkin fikrlash salohiyatiga, dunyoni, Vatanni, hayotni go‘zallik prizmasi orqali ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘la oladi.

Estetik did murakkab hissiy-intellektual hodisa, dedik. Uning bu xususiyati doimo, yuqorida aytganimizdek, estetik ideal bilan bog‘liq – estetik ideal, bir tomondan, didni belgilab bersa, ikkinchi tomondan, estetik did estetik idealning amaldagi ko‘rinishidir. Xo‘sh, estetik idelning o‘zi nima? Endi estetik anglashning ana shu unsuriga to‘xtalamiz.

Estetik ideal. Ideal deganda, biz odatda muayyan bir inson shaxsi yoki ijtimoiy-tarixiy hodisaning boshqalar tomonidan yuksak namuna, oliy maqsad hamda komillik tarzida qabul qilinishini nazarda tutamiz. U tasavvurdagi shaxs yoki jamiyatni real shaxslar va mavjud jamiyatdan yuqori qo‘yish, ya‘ni ideallashtirish bilan bog‘liq. Masalan, O‘zbekistonni kelajagi buyuk davlat sifatida tasavvur etishimiz uning hozirgi reallikdan baland, namunaviy bo‘lishi lozimligini anglatadi. Ayni paytda ana shu yuksak namunaviylik har bir o‘zini tanigan odam uchun oliy ijtimoiy maqsaddir. Yoki Navoiy shaxsini olib ko‘raylik, u komil inson

sifatida biz uchun ideal hisoblanadi. Bularni biz ijtimoiy ideallar sirasiga kiritamiz. Shuningdek, har bir inson o'zi intiladigan subyektiv ideallar ham mavjud bo'ladi, o'z idealini belgilab olmagan inson shaxs hisoblanmaydi. Zero har bir odam ko'rib turganidan yorug'roq, musafforoq, yuksakroq narsaga intilishi shart, aks holda uning hayoti ma'nosiz kechadi, uning mavjudligi faqat biologik jonzodligi bilan chegaralanib qoladi.

Ideal borasida gap ketganda, uning mavjudlik shartlari masalasi muhim. Ijtimoiy ideal ko'proq kelajak bilan, shaxsiy ideal esa asosan o'tmish bilan bog'liq. Masalan, Forobiyning fozil odamlar shahri – kelajakda ma'lum ma'noda reallikka aylanishi mumkin bo'lgan ideal jamiyat. Bir necha asr avval yashab o'tgan Jaloliddin Manguberdi esa o'zbek millati uchun, ayniqsa yoshlarimiz uchun ideal qahramon. Lekin har ikki holda ham ideal real hayotimizda mavjud emas – biri kelajakdan, ikkinchisi esa o'tmish qa'ridan turib bizni yuksak axloqiylik, baxt va qahramonlikka chorlaydi. To'g'ri, shaxsiy ideal real hayotda ham mavjud bo'lishi mumkin. Biroq bunday ideal ko'pincha ma'naviyatni mafkuraga bo'ysundirish oqibatida vujudga keladi. Shu sababli unga ko'proq vaqtinchalik, o'tkinchilik xususiyati xos: u jamiyatga hodisa sifatidagina ruhiy ta'sir ko'rsatadi va yangi bir mohiyat ochilgan paytda o'z ideallik xususiyatini yo'qotadi: “unday emas”, “bunday” bo'lib chiqadi. G'oyaning o'z realligiga mos emasligi ochilib qoladi. “Zero ideal – deydi, Hegel – o'z realligi bilan aynanlashgan g'oyadir”. Masalan, Lenin, Stalin kabi shaxslar yolg'on tashviqot, siyosiy firibgarliklar, vositasida jamiyatni totalitar mafkuraviylashtirish natijasida ma'lum muddat ideal sifatida qabul qilindilar. Lekin ularning asl mohiyati, munofiqliklari, qattolliklari, qizil terrorga asoslanib siyosat yurgizganliklari fosh etilgach, ular aksil idealga aylandilar.

Idealning murakkab tomoni shundaki, u qadriyat bilan bog'liq. Qadriyat idealning obyektidagi in'ikosi tarzida namoyon bo'ladi. Hegel so'zlari bilan aytganda: «Ideal mavjud bo'lishi uchun tashqi shakl o'z-o'zicha qalbgga mos kelishi lozim». Ya'ni ideal jonli subyektning qalbiga mos keladigan namunaviy shakldir, unda inson o'z g'oyalarining hissiy-intellektual ko'rinishini ma'naviy qadriyat sifatida idrok etadi. Bordi-yu mazkur g'oyalar o'ta mafkuraviylashtirilsa yuqorida aytganimizdek, ideal o'rnida aksil ideal paydo bo'ladi. Ijtimoiy-axloqiy idealning o'zgaruvchanlik xususiyati ko'pincha ana shu bilan bog'liq. Bu hodisa tarixiy jarayonlar, zamon, jamiyat talablaridan kelib chiqib, qadriyatlarning qayta baholanishi natijasida ro'y beradi. Lekin diniy ideal o'zgarmaslik tabiatiga ega. Masalan, musulmonlar uchun Muhammad alayhissalom, nasroniylar uchun Iso alayhissalom, buddaviylik dinidagilar uchun Buddha ideal hisoblanadi va har qanday sharoitda ham ular idealligicha qolaveradi.

Mana, biz ma'lum ma'noda ijtimoiy ideal haqida tushunchaga ega bo'ldik. Endi estetik ideal nimada, uning ahamiyati nima degan savollarga javob topishga harakat qilamiz.

Avvalo shuni aytish kerakki, estetik ideal inson, shaxs va jamiyatning estetik tajribasidan vujudga keladi. Inson dunyoni ana shu tajriba vositasida estetik idrok etadi. Shu sababli estetik ideal go'zallik, ulug'vorlik mo'jizaviylik va boshqa estetik xususiyatlarni belgilovchi mezon sifatida yuzaga chiqadi. Inson ana shu idealga mos keladigan go'zallik yoki ulug'vorlikni tan oladi, mos kelmaydiganlarini esa aksil estetik hodisa sifatida inkor etadi.

Estetik ideal o'ziga mos go'zallik, ulug'vorlikni yoki mo'jizaviylikni ko'proq san'atdan topadi. Shu tufayli u doimo erkinlikni talab qiladi. Avvalo san'at asari orqali san'atkor voqelikni o'z ideali prizmasidan o'tkazib tasvirlaydi, boshqacharoq aytganda, o'z ideallarini san'at vositasida moddiylashtiradi: binoga, haykalga, romanga, spektaklga, rasmga, badiiy asarga va boshqa ma'naviy hodisalarga aylantiradi: san'atkor erkin harakat qiladi. Biz esa o'z ideallarimizni ulardagi obrazlar orqali tanlaymiz, ularni o'zimiz uchun ma'lum muddatga yoki bir umrga namuna qilib belgilaymiz, bu holatdagi xatti-harakatimiz ham erkinlik orqali ro'y beradi. Ya'ni, san'at har bir insonni individual o'ziga xosligini hisobga olgan holda, uning o'z estetik idealini obrazlar vositasida shakllantiradi. Estetik idealning ana shu shakllanish jarayoni murakkab; uzoq muddatni, hissiy-intellektual qudratni, tanlov imkonini beradigan muayyan shart-sharoitni, erkin jamiyatni taqozo etadi; ana o'shanda shaxs uchun to'g'ri ruhiy yo'lanma vujudga keladi.

Qisqacha qilib aytganda, estetik idealning shakllanishida go'zallik, ulug'vorlik, hayolilik, mo'jizaviylik, uyg'unlik singari xususiyatlar asos vazifasini o'taydi. Ayni paytda u fojeaviylik va kulgilik tushunchalarida ham o'zini namoyon etadi, xunuklik va tubanlik kabi hodisalarni baholashda ishtirok qiladi.

4. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli

Informatsion texnologiyalar – estetik tarbiyaning global vositasi. Bir paytlar tabiiy va texnika bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan oliy ta'lim muassasalari talabalariga “Sizning idealingiz asosan qaysi sohalarda aks etadi?”, degan savolga ularning ko'pchiligi san'at, adabiyot va ma'rifat sohasida ko'proq aks etadi, degan javob berishgani ham fikrlarimizni isbotlaydi.

Aytish mumkinki, axborot va kommunikatsiya texnologiyasi bugungi kunda insoniy va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylanishi natijasida odamlarning turmush tarzini, o'zaro aloqasini hatto tashqi ko'rinishi ham tubdan o'zgarishiga olib keldi.

Estetikaning borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlari haqidagi fan sifatida bir ancha xususiyatlarga ega.

- Estetika fani inson tevarak atrofidagi moddiy va ma'naviy boyliklarning barchasini qamrab olishga va go'zallik qonunlari asosida yoritishga xizmat qiladi.

- Inson faoliyatining barcha jabhalaridagi nafosat olamini san'at turlari vositasida chuqur o'rganishga da'vat etadi. San'at esa-estetik boyliklarni yaratish manbaidir.

- San'atni ilmiy jihatidan tahlil va tadbiiq etish bilan estetik faoliyatining barcha ko'rinishlariga ilmiy jixatdan yondashish uchun zamin yaratiladi.

- San'at va badiiy ijodning tabiatini va mohiyatini o'rganish, qonuniyatlarini o'zlashtirish, go'zallikni o'rganish uchun kalit vazifasini o'taydi.

Boshqa fanlarda bo'lgani singari estetikani ham bir qancha muammolari bor. Estetika fanining muammolaridan biri go'zallik muammosidir.

Estetika jamiyatdagi, tabiat va san'atdagi go'zallik nimadan iborat ekanligini tushuntirib beradi. Go'zallikning obyektiv mezonini ochib beradi. Estetik go'zallik voqelikning o'zida mavjuddir. Shuning uchun san'at, hayotdagi go'zallikni bilish va aks ettirish deb hisoblaydi. San'atdagi go'zallik voqelikdagi go'zallikdan ustun turmaydi, faqat voqelikdan ayrim konkret ko'rinishlariga qaraganda, san'atdagi go'zallik mukammalroq namoyon bo'ladi xolos. Insonning eng go'zal fazilatlari uning mehnatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Odam bolasi yoshlikdan boshlab mehnatga o'rgansa, mehnat orqali baxtini va quvonchini, hayotdagi o'rmini topishni yaxshi tushunib etsa ayni muddao. AKS Holda mexnatni hayotiy ehtiyoj deb bilmagan shaxs nafosatni, inson go'zalligini ham tushunib etmaydi.

Badiiy did-kishining adabiyot va san'at asarlaridan ma'naviy quvonch olishi uning badiiy didida namoyon bo'ladi. Negaki, kishilar san'at va adabiyotni sevadilar. Badiiy ijodiyotsiz insoniyat hayotini tasavvur etish qiyin. San'at asarlarini idrok etganda inson ko'ngil ila vujudga kelgan tuyg'ular o'zini kuchli ijtimoiy mazmuni bilan ajralib turadi. Chunki, badiiy ijodiyotdagi har bir obraz, har bir xarakter ma'lum ijtimoiy idealni ifodalaydi, ma'lum axloqiy va estetik g'oyani ilgari suradi. Bu jihatdan san'atning ijtimoiy ong formalaridan biri sifatida kishilarning tushunchasiga, ijtimoiy faoliyatiga ko'rsatadigan ta'siri nihoyatda kattadir. San'at universal xususiyatlarga ega bo'lib, barcha ijtimoiy guruhlarni voqe'likni estetik jihatdan o'zlashtirishga da'vat etadi.

Estetika tuyg'ularning ma'naviy tus olishi uchun yetakchi omilga aylanadi. Estetika ishlab chiqarish, kishilarning mehnatiga tobora ko'proq kirib bormoqda. Endilkda korxonalarda yangi xil stanoklar, sex jihozlarining estetik sifatini ta'minlash, korxonalarining barcha binolari estetik talablarga javob berishi, go'zallik tuyg'ularini uyg'ota olishi va qondirish uchun g'amho'rlik qilish bilan bevosita mutaxassislar paydo bo'lmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitidagi talablaridan yana biri o‘quv yurtlari, binolari va o‘quv xonalarini yosh avlodning badiiy didiga hamda estetik ehtiyojlariga javob beradigan tarzda jihozlashdir.

Maxsus fan ishlab chiqarish estetikasi, texnika estetikasi fani paydo bo‘ldi. Ilgari ishlab chiqarishda uchramagan “texnika estetikasi”, “dizayn” kabi tushunchalar hayotimizning barcha sohalarida muqim o‘rnashgan hamda yetakchilik qilmoqda.

Nazorat savollari:

1. Estetika fani nimani o‘rganadi?
2. Estetik ong nima?
3. Estetik did deganda nimani tushunasiz?
4. Estetik qadriyatlarning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati qanday?
5. Estetika kategoriyalari haqida gapiring.
6. Bugungi kundagi “texnika estetikasi”, “dizayn” tushunchalari haqida nima deya olasiz?
7. Go‘zallik tushunchasiga misol keltiring.
8. Olamni estetik anglashda jamiyat axborotlashuvining roli nimadan iborat?

UCHINCHI MODUL

10-mavzu: Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari

Reja:

1. Korrupsiya tushunchasining tasnifi. Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chiqishi va uning asosiy ko'rinishlari
2. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari.
3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618-sonli farmonni tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

Tayanch iboralar: korrupsiya, korrupsiyaviy huquqbuzarlik, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi, korrupsiyaviy xavf-xatar, korrupsiyaning oldini olish, huquqiy ong, huquqiy madaniyat, moddiy boyliklar, shaxsiy naf ko'rish, korrupsiyaviy jinoyatlar.

MAVZUNING MAQSADI: Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlik tushunchalarining mohiyati, kelib chiqishi va uning asosiy ko'rinishlari. Korrupsiyani belgilovchi omillar va uning kelib chiqish sabablari mohiyatini ochish, PF-5618-sonli farmonni tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

1. Korrupsiya tushunchasining tasnifi. Korrupsiya va korrupsiyaviy huquqbuzarlikning mohiyati, kelib chiqishi va uning asosiy ko'rinishlari.

So'nggi yillarda mamlakatimizda korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish, davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarida korrupsiogen omillarga chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Byurokratik to'siqlarni bartaraf etish choralari ko'rilmoqda, "Korrupsiyasiz soha" loyihalari (masalan, 2019-2020 yillarda kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihasi amalga oshirildi) amaliyotga tatbiq etilmoqda. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston" gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovga bergan intervyusida "Albatta, jamiyatdagi qonun buzilishi, adolatsizlik, inson huquqlariga bepisand munosabat, korrupsiya bilan bog'liq holatlarga beparvo qarab bo'lmaydi"³ deb aytib o'tdi.

³Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон газетаси бош мухарири С.Дониёровга берган интервьюси. - Тошкент. 2021.

Korrupsiya (Lotincha “sorrupcio” – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turidir. Korrupsiyaviy faoliyat xufyona iqtisodiyotning asosiy zararli va yemiruvchi turlaridan biri hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonunida “korrupsiya” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi:

“Korrupsiya” deganda – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish tushuniladi.

Etimologik jihatdan “korrupsiya” – lotincha “corruptio”, ya’ni “buzish, sotib olish, pora evaziga og‘dirish” degan ma’nolarni anglatadi. Yuridik ensiklopediyasida ta’kidlanishicha, “korrupsiya” – mansabdor shaxslar o‘zlariga berilgan huquqlar va hokimiyat vakolatlaridan shaxsiy boylik orttirish uchun foydalanishda ifodalanuvchi siyosat yoki davlat boshqaruvi sohasidagi jinoiy faoliyat.

Insoniyat tarixidan ma’lumki, korrupsiya jamiyatni yemiradigan, shaxsni axloqiy jihatdan inqirozga uchratadigan, har qanday davlat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir qiladigan ijtimoiy illatdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev korrupsiyani mohiyati va unga qarshi kurashish zarurligi haqida quyidagi fikrni bejiz aytmagan edi: “Jamiyat rivojiga g‘ov bo‘layotgan yana bir illat – bu korrupsiya balosidir. Bunday xatarga qarshi kurashish maqsadida yaqinda Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilinib, Senatga yuborilgan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunni tezroq amaliyotga joriy etish chora-tadbirlarini ko‘rishimiz lozim. Bularning barchasi, o‘z navbatida, inson huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimini takomillashtirishga, xalqimizning davlat hokimiyatiga bo‘lgan ishonchini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi”.

Yuridik atamalar qomusiy lug‘atida korrupsiya tushunchasiga “Davlat funksiyalarini bajarish vakolatiga ega bo‘lgan (yoki ularga tenglashtirilgan) shaxslarning noqonuniy tarzda moddiy va boshqa boyliklar, imtiyozlarni olishda o‘z maqomi va u bilan bog‘liq imkoniyatlardan foydalanishi, shuningdek, bu boylik va imtiyozlarni jismoniy yoki yuridik shaxslar qonunga xilof ravishda egallashiga imkon berishi”, deb ta’rif berilgan.

BMTning xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ma’lumotida shunday deyiladi: “Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko‘rish maqsadlarida davlat hokimiyatini suiste’mol qilish”dir. Korrupsiya tushunchasiga berilgan shu kabi ta’rif Jahon bankining hozirgi dunyoda davlatning roliga bag‘ishlangan hisobotida ham berilgan: korrupsiya – bu “shaxsiy naf ko‘rish yo‘lida davlat hokimiyatini suiste’mol qilish”dir.

Aksariyat hollarda korrupsiya deganda davlat mansabdorlari tomonidan o‘z shaxsiy manfatlarni ko‘zlab boylik orttirish maqsadida fuqarolardan pora olishi, qonunga xilof ravishda boylik orttirishi tushuniladi. Lekin, umuman olganda, davlat mansabdorlarigina emas, balki, korxonalar yoki firmalarning menejerlari ham korrupsiyaga doir munosabatlarning ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Bunda ko‘pincha poralar pul bilan emas, balki boshqa shakllarda olinadi; korrupsiyaga doir jinoyatlarning tashabbuskorlari ba‘zan tadbirkorlar bo‘lishi ham mumkin.

Korrupsiyaning bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin: subyektlarning maqomiga ko‘ra:

- A) hokimiyat organlaridagi korrupsiya;
- B) xususiy sektordagi korrupsiya;
- V) siyosatdagi korrupsiya yoki siyosiy korrupsiya;

Darajasiga ko‘ra:

- A) quyi darajadagi korrupsiya;
- B) yuqori darajadagi korrupsiya;
- V) vertikal korrupsiya;

Ijtimoiy xavflilik darajasiga ko‘ra:

- A) korrupsiya – qilmish;
- B) korrupsiya–jinoyat.

Hokimiyat (ijroiya, vakillik va sud) organlaridagi korrupsiya hozirgi vaqtda jahonning deyarli barcha mamlakatlari, shu jumladan O‘zbekistonda ham muhim muammolardan biri hisoblanadi. Bu turdagi korrupsiya jinoyatlarining o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularni o‘zlari qonunga rioya etishlari va uni muhofaza qilishlari lozim bo‘lgan kishilar sodir etadi. Aksariyat mamlakatlarda bu jinoyatlar keng tarqalganligi, davlat apparati xodimlari korrupsiya tuzog‘iga ilinganligi mazkur mamlakatlarning qonunchilarini poraxo‘rlik, mansab mavqeini suiiste‘mol qilish va boshqa xavfli mansabdorlik jinoyatlariga qarshi qat‘iy choralar ko‘rishga va, aksincha, mansabdorlarning uncha xavfli bo‘lmagan va ko‘proq darajada tarqalgan jinoyatlariga jiddiy e‘tibor bermaslik (masalan, uncha qimmat turmaydigan sovg‘a olish jinoyat hisoblanmaydi) holatlari uchrab turibdi.

Ayrim tadqiqotchilar siyosiy korrupsiyani alohida tadqiq etib, uni korrupsiyaviy jinoyatlarning alohida turi sifatida ajratib ko‘rsatadi. Ular asosan korrupsiyaning uchta asosiy shaklini keltiradi:

1) mansabdor shaxs yuzaga kelgan qarindosh-urug‘chilik munosabatlari tufayli qonunga zid harakat qiladi;

2) jinoyat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, mansabdor shaxslarni sotib olishga asoslangan. Ular esa mukofot puli olish evaziga g‘ayriqonuniy xizmatlar ko‘rsatadi;

3) taraflardan biri o'ziga eng qulay tartib vujudga keltirish uchun jinoyatga mansabdor shaxslarning tegishli toifalarini izchillik bilan jalb etishni nazarda tutadi. Korrupsiyaning bu shakli uyushgan jinoyatchilik bilan mustahkam bog'langan bo'lib, mansabdor shaxslarga nisbatan sotib olish, provakatsiya qilish va tahdid solishni anglatadi⁴.

Siyosiy korrupsiya shaklining ko'p uchraydigan ko'rinishi—bu pora olish va pora berish hisoblanadi. Bu holat saylovlarda nomzodlar o'z huquqini qing'ir yo'llar bilan amalga oshirish maqsadida siyosat subyektlarini pora evaziga og'dirib olishga urinadi.

Faoliyat ko'rsatish darajalariga binoan korrupsiya quyi darajadagi, yuqori darajadagi va vertikal jihatlari bilan bir-biridan farqlanadi.

Quyi darajadagi korrupsiya hokimiyat va boshqaruv organlarining o'rta va quyi darajalarida keng tarqaladi, mansabdorlar va fuqarolarning muntazam o'zaro aloqalari bilan bog'likdir (masalan, ro'yxatdan o'tkazish, jarimalardan qutilish, litsenziyalar va turli ruxsatnomalar olish va sh.k.).

Yuqori darajadagi korrupsiya yuqori hokimiyat organlarida ishlaydigan siyosatchilar, oliy martabali mansabdorlarni o'ziga qamrab oladi va juda katta boyliklar evaziga o'z foydasiga qarorlar qabul qilish bilan bogliqdir (qonunlarni ilgari surish va qabul qilish, davlat buyurtmalari, mulk shakllarini o'zgartirish va sh.k.). Aksariyat hollarda korrupsiyaviy bitimdan manfaatdor bo'lgan ikkala tomon ayni bir davlat hokimiyati organida ishlashi mumkin. Masalan, quyi turuvchi davlat organining mansabdori o'zidan yuqorida turuvchi boshliqqa o'zining korrupsiyaviy harakatlariga homiylik qilishi yoki qo'shimcha mablag'lar, resurslar, vakolatlar ajratishi uchun pora beradi.

Korrupsiyaning pora olish va xizmat mavqeini suiste'mol qilish kabi odatdagi shakllaridan tashqari, yana uning quyidagi amalda namoyon bo'lishi shakllarini bir-birlaridan farqlash mumkin:

- mansabdor shaxslar, davlat xizmati xodimlari, deputatlar tijorat faoliyatida shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish uchun bevosita ishtirok etish; davlat pul mablag'larini o'zlashtirish niyatida tijorat tuzilmalariga o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- o'z korporativ (siyosiy, diniy, milliy va sh.k.) guruhiga davlat resurslari hisobidan imtiyozlar berish; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida

⁴Исмоилов Б.И. Коррупцияга қарши курашнинг халқаро-ҳуқуқи й асослари махсус курси бўйича маъруза матни. –Т.:2013. –Б.8-9

ommaviy axborot vositalariga tazyiq o'tkazish uchun o'z xizmat mavqeidan foydalanish;

- mansabdor shaxslar va davlat xizmati xodimlari shaxsiy boyish maqsadida tijorat tuzilmalarida soxta shaxslardan va qarindoshlaridan foydalanishi; shaxsiy yoki korporativ naf ko'rish maqsadida axborotni manipulyatsiya qilish (buzib ko'rsatish, bermaslik, berish muddatlarini cho'zish va sh.k.) uchun xizmat mavqeidan foydalanish;

- tor gruppaviy manfaatlarda normativ hujjatlar qabul qilish haqidagi qarorlarni ilgari surish; ayrim nomzodlarning saylov fondlariga davlat moliyaviy va moddiy resurslarini taqdim etish.

Amaliyotda korrupsiyaning "kikbeking" degan shakli ancha keng tarqalgan. Uning sxemasi juda sodda: jinoiy til biriktirish ishtirokchilari muayyan narxlarda bitim tuzishga og'zaki kelishadilar, rasmiy bitimni esa balandroq narxlarda imzolaydi. Tafovutning bir qismi bitimga ruxsat bergan mansabdor shaxslarga topshiriladi, ya'ni yashirin tarzda pora beriladi. Pora olishning bu kabi shakli so'nggi yillarda O'zbekistonda ham uchrab turibdi.

Korrupsiya jinoyati nafaqat xufiyona, balki korrupsiyaga doir munosabatlarga kirishgan tomonlarning o'zaro kelishuviga binoan ochiq tarzda ham sodir etilishi mumkin. Aksariyat hollarda u tegishli hokimiyat organlariga shikoyat berilishiga sabab bo'lmaydi, chunki g'ayriqonuniy kelishuvdan har ikkala tomon ham naf ko'radi. Hattoki, jabrlanuvchilar pora so'ragan mansabdorlar ustidan ham kamdan-kam holda shikoyat qiladi. Chunki, odamlar korrupsiyaga qarshi kurash jarayonini samara berishiga unchalik ishonmaydi. Bu holatga doir milliy va xorijiy tajribabilan bog'liq bo'lgan muayyan obyektiv va subyektiv sabablar mavjuddir.

Korrupsiya harakatlari odatda davlat faoliyatining mutaxassis bo'lmagan kishilar tushunishi ancha qiyin bo'lgan o'ziga xos turlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham korrupsiya o'ta moslashuvchan jinoyatdir. U vaziyatga qarab tinimsiz o'zgarib turadi va takomillashib boradi. Shu bois bu hodisa haqida to'liq, mukammal yoki hech bo'lmasa qandaydir uzuq-yuluq ma'lumotlar olish ham qiyin masalalardan biri hisoblanadi.

Korrupsiya sohasida amalga oshirilishi dolzarb bo'lgan asosiy vazifalar:

-O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmonning mazmun-mohiyatini singdirish;

- Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavf-xatarlarning kelib-chiqish sabab va omillarini umumiylikiga ko'ra: iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy omillarini tahlil etish orqali har bir omillarni bugungi kun ijtimoiy hayotidagi amaliy misollar yordamida ko'rib chiqish va ularning tub mohiyatini anglashga yordam berish;

- “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida” PF-5618 son farmonini tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy tamoyillari. Mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini quyidagi tamoyillarga asoslanib amalga oshiradi:

-qonuniylik – mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari, davlat organlarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha jahonda tan olingan amaliyotni hisobga olgan holda hamda Vazirlik tizimining belgilangan ichki hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi;

- korrupsiyaga toqatsizlik – mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar o‘z faoliyatining barcha sohalarida korrupsiyaning har qanday shakllari va ko‘rinishlariga murosasiz munosabatda bo‘ladi. Mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlarning xodimlariga korrupsiyaviy xavf-xatar kelib chiqishi mumkin bo‘lgan faoliyatda bevosita yoki bilvosita ishtirok etish taqiqlanadi;

- ochiqlik va shaffoflik – Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida qabul qilingan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar xodimlari va kontragentlarini, keng jamoatchilikni xabardor qilish;

- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar uchun javobgarlikning muqarrarligi – korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni sodir etgan Vazirlik tizimi xodimlari o‘zining maqomi va egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar Vazirlikning ichki hujjatlari va amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar;

- korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini doimiy ravishda takomillashtirish – korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini monitoring va nazorat qilish hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni amalga oshirish natijalariga ko‘ra mehnat organlari va tasarrufiy tashkilotlar Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorligini to‘xtovsiz ravishda kuchaytirish choralarini ko‘radilar.

2. Korrupsiyani belgilovchi omillar va ularning kelib chiqish sabablari.

O‘zbekiston 2008 yil 7 iyulda BMTning Korrupsiyaga qarshi kurashish konvensiyasiga, 2010 yil mart oyida Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurashning Istanbul rejasiga (2003 yil 10 sentabr) qo‘shilgan. Shuningdek, Oliy Majlis tomonidan Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha Yevroosiyo guruhi to‘g‘risidagi bitimi (Moskva, 2011 yil 16 iyun) 2011 yil 13 dekabrda ratifikatsiya qilingan.

O'zbekistonda 2017 yilning 4 yanvaridan «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonun kuchga kirdi.

Qonunga ko'ra, respublikada Bosh prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi, Bosh prokuratura huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiradi.

Shuningdek, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa tashkilotlar, OAV va fuqarolar korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasi tashkil etilgan.

Pora olganlik uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravaridan 100 baravarigacha miqdorda jarima yoki muayyan huquqdan mahrum etilgan holda 5 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi belgilangan. Ushbu jinoyat og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilganda 10 yildan 15 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanadi.

Basharti, shaxsga nisbatan pora so'rab tovlamachilik qilingan bo'lsa yoki bu shaxs jinoiy harakatlar sodir etilgandan keyin bu haqda o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

Pora berish jinoyati uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarimadan 5 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha jazo tayinlanadi.

Pora olish-berishda vositachilik qilganlik uchun esa eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda jarimadan 5 yildan 8 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishgacha jazo belgilangan. Vositachilik qilgan shaxs jinoiy harakatlarni sodir etganidan keyin bu haqda o'z ixtiyori bilan arz qilsa, chin ko'ngildan pushaymon bo'lib, jinoyatni ochishda faol yordam bergan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadi.

Korrupsiya bugungi kunda nafaqat iqtisodiyotga, balki, jamiyatimiz ma'naviy-axloqiy nufuziga katta zarar yetkazayotgan eng xavfli illat hisoblanadi.

Har bir jinoyatning kelib chiqishiga ta'sir etuvchi omillar va sabablar bo'lganidek, korrupsiyaviy jinoyatlar kelib chiqishining ham bir necha omillari, sabablari mavjud. Bular quyidagilardir:

- antropologik omillar;
- iqtisodiy omillar;
- ijtimoiy omillar.

Antropologik omillar– insonning ziddiyatli tabiati, ezgulik va yovuzlikning doimiy kurashi, insonning kam kuch sarflab ko‘proq foyda olishga intilishi va sh.k.

Iqtisodiy omillar – tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari (“qonunga bo‘ysunish bahosi”), bozor xo‘jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi va boshqalar.

Ijtimoiy omillar – jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, “xavf guruhlari”ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, muhojir ishchilar, ayollar va o‘smirlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h.k.

Shuningdek, korrupsiyaviy omillarga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

Huquqiy omillar – tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo‘jaligining o‘zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o‘rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo‘jaligining tartibga solinmasligi va sh.k.

Axloqiy omillar - qonunchilik hamda tadbirkorlikning axloqiy asoslari o‘rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o‘rtasidagi ziddiyatlar; milliy an‘analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarining ta’siri va boshqalar.

Siyosiy omillar - hokimiyat va yirik kapital o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta’sir ko‘rsatishning kuchga asoslangan usullari o‘rtasidagi nisbat.

Korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumer davlati tan olinadi. Qadimgi davlatlarni, ayniqsa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq tashvishga solganligi bizgacha saqlanib qolgan manbalardan ma’lum. Chunki bu holat davlatning obro‘sigacha juda qattiq putur yetkazardi. Dunyoning yetakchi dinlarida ham birinchi navbatda huquqni

muhofaza qiluvchi organlarning poraxo‘rligi qattiq qoralanadi. Jumaladan, *Injilda* “Sovg‘alarni qabul qilma, chunki sovg‘a ko‘rni ko‘radigan qiladi va haqiqatni o‘zgartiradi” deyilgan bo‘lsa, *Qur‘oni Karimda* “Boshqalarning mulkini nohaq yo‘l bilan olmangiz va boshqalarga tegishli bo‘lgan narsalarni olish uchun o‘z mulkingizdan hokimlaringizga pora qilib uzatmangizlar” deyilgan.

Qadimgi yunon faylasufi *Aristotel* aytganidek, “Har qanday davlat tizimida - qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo‘l bilan boyishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim” degan. Fransuz mutafakkiri *Sharl Monteske* esa bu borada “Asrlar tajribasidan ma‘lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo‘lgan shaxs, uni suiste‘mol qilishga moyil bo‘ladi va u ma‘lum bir maqsadga erishmaguncha shu yo‘nalishda yuradi” degan fikrlarni bildirgan.

Ushbu illatni tadqiq qilgan bir qator yirik mutaxassislar quyidagi faktorlarni korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillar sifatida ko‘rsatadi:

- *ikki xil ma‘noni anglatuvchi qonunlar;*
- *aholi huquqiy savodxonligining pastligi;*
- *mamlakatdagi siyosiy vaziyatning notinchligi;*
- *ijro hokimiyatining birligi tamoyilining buzilishi;*

BMTning Rivojlanish Dasturi nazariy tahliliga ko‘ra, korrupsiyaning vujudga kelishida quyidagi omillar katta rol o‘ynaydi. Jumladan, vakolat va hokimiyat, o‘zboshimchalik va shaxsiy manfaat, hisobdorsizlik va oshkorasizlik. Shunday ekan, korrupsiya – bu keng ma‘noda davlat xizmatchisi yoki mansabdor shaxsning o‘ziga davlat yoki jamiyat tomonidan belgilangan vakolatni suiste‘mol qilib, undan shaxsiy maqsadlarda foydalanishidir.

Ushbu holatni korrupsiya borasida yetakchi nazariyotchi olim Robert Klitgard quyidagi formula shaklida ifodalaydi:

$$\text{Korrupsiya} = (\text{Vakolat} + \text{O‘zboshimchalik}) - (\text{Hisobdorlik} + \text{Oshkoralik})$$

Har qanday jinoyatchilik ma‘lum bir sabab va shart-sharoitlar ta‘sirida vujudga keladi. Korrupsiya va uni vujudga keltiruvchi sabablar o‘rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud. Bundan xulosa shuki, birinchidan, korrupsiyani faqat uni vujudga keltiruvchi sabablar va shart-sharoitlarni yechish yo‘li bilan kamaytirish va cheklash mumkin; ikkinchidan, bu muammolarni yechishga korrupsiyaga qarshi barcha yo‘nalishlarda qat‘iy va murosasiz kurash olib borish ko‘maklashadi.

Ilmiy adabiyotlarda quyidagi sabablar korrupsiyani vujudga keltiruvchi umumiy sabablar qatoriga kiradi:

1. Demokratik an'analar chuqur anglanilmaganligi.
2. Fuqarolik jamiyati institutlarining korrupsiyaga qarshi kurashishga yetarli darajada jalb qilinmaganligi.
3. Hokimiyat institutlari tizimining nuqsonlari mavjudligi.
4. Qonunchilik texnikasi yetarli darajada ta'minlanmaganligi va asosiy holatlari hayotga to'g'ri tadbiiq qilinmaganligi.

Bundan tashqari korrupsiyani sabablari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin:

Iqtisodiy – davlat xizmatchlarining past oylik maoshi, ularning tadbirkorlar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda yuqori vakolati.

Institutsional – davlat idoralari ishidagi yopiqlik, hisobotlar tizimidagi qo'shib yozishlar, qonunchilik tizimida shaffoflikning yo'qligi, davlatning kuchsiz kadrlar siyosati.

Ijtimoiy-madaniy – jamiyatning intizomsizligi, fuqarolar tartibsizligi va axborotga ega emasligi, jamoatchilik passivligi.

Korrupsiyani belgilovchi maxsus omillar qatoriga aksariyat mutaxassislar ayrim faoliyat sohalari huquqiy jihatdan lozim darajada tartibga solinmaganini va amaldagi qonun hujjatlarida mavjud kamchiliklarni kiritadilar. Lekin bular ichida normativ-huquqiy bazaning nuqsonlari korrupsiyani vujudga keltiruvchi eng muhim omillardandir. Uning quyidagi ko'inishlari mavjud:

1. Huquq kolliziyalari;
2. Qaytarilishlar;
3. Protsessual mexanizmlarning noaniqligi va samarasizligi.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, har qanday holatda ham korrupsiyadan bevosita aziyat chekadigan bu jamiyat va insonlar.dir Shuning uchun ushbu muammo global muammo sifatida tan olinib, unga qarshi kurashning davlatlar o'rtasida muvofiqlashtirilgan dasturlari va boshqa huquqiy me'yorlari ishlab chiqilgan. Xususan, BMTning "Korrupsiyaga qarshi" konvensiyasi global doirada qabul qilingan xalqaro-huquqiy hujjat bo'lib, ushbu hujjatning loyihasi ikki yil davomida 130 dan ortiq davlatlar ishtirokida muhokama qilingan va 2005 yil dekabr oyida kuchga kirgan. Unda korrupsiyaga qarshi xalqaro va milliy kurash

amaliyotini yo'lga qo'yish va ularni amalga oshirish mexanizmlari buyicha ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Hozirda ushbu xalqaro-huquqiy hujjatga 140 davlat qo'shilgan va 80 davlat tarafdor sifatida qabul qilgan. O'zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo'shilgan. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi – davlatlarga yordam ko'rsatishi mumkin bo'lgan organlar sifatida belgilanganligi bildirilgan.

Bu qoida Konvensiya 6-moddasining 3-bandida har bir Ishtirokchi-davlat o'z mamlakatida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa Ishtirokchi –davlatlar bilan hamkorlik qilish vakolatiga ega bo'lgan organ haqida BMTning Bosh kotibiyatiga xabar berishi lozimligi haqidagi talablariga to'la javob beradi. Qonunning 2-bandiga ko'ra, Konvensiya 42-moddasining 1 va 3-bandlari bo'yicha 15-19, 21, 22-moddalarda, 23-moddaning 1-bandida, 24, 25, 27-moddalarda nazarda tutilgan qilmishlar milliy qonunchilikka muvofiq jinoiy jazolanadigan qilmish ekanligi va ularga nisbatan O'zbekiston Respublikasining yurisdiksiyasi tatbiq etilishi bayon etilgan.

Yevropa Ittifoqi doirasida ham korrupsiya muammosi muammolardan biri sanalib, a'zo davlatlarda unga qarshi kurashni muvofiqlashtirish maqsadida bir nechta hujjatlar qabul qilingan. Ushbu hujjatlardan eng muhimlari sifatida "Korrupsiyaga qarshi jinoiy javobgarlik to'g'risida" gi va "Korrupsiyaga qarshi fuqarolik javobgarlik to'g'risida"gi konvensiyalarni ta'kidlab o'tishimiz mumkin.

Osiyo va tinch okeani hududidagi 21 davlat ham 2004 yilda "Osiyo Taraqqiyot Banki va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki Osiyo va Tinch okeani korrupsiyaga qarshi harakat dasturi" deb nomlangan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tavsiyaviy xarakterga ega bo'lgan paktni qabul qilganlar.

Afrika qit'asida ham korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha tegishli xalqaro-huquqiy xarakterga ega bo'lgan hujjat mavjud bo'lib, u "Korrupsiyaga qarshi kurash va uning oldini olish to'g'risida Afrika Ittifoqi konvensiyasi" deb nomlanadi. U 2003 yil iyul oyida, Afrika Ittifoqining Mozambikda o'tkazilgan sammitida qabul qilingan.

Yaqin sharq va arab davlatlarida ham korrupsiyani halqaro muammo sifatida tan olinib, unga qarshi xalqaro kurash vositasi sifatida "Rivojlanish uchun yaxshi boshqaruv" dasturi ustida ish olib borilayotgan bo'lib, ushbu dastur mazkur

davlatlarda BMT ning “Korrupsiyaga qarshi” konvensiyasini amalga kiritishni nazarda tutadi.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi doirasida esa, a’zo davlatlar tomonidan 2003 yil 15 noyabrda “Korrupsiyaga qarshi siyosatning qonunchilik asoslari to‘g‘risida”gi model qonun qabul qilingan.

Kanada, Fransiya, Germaniya, Italiya, Rossiya, Yaponiya, Angliya va AQSh kabi rivojlangan davlatlarni norasmiy birlashtiruvchi “Katta 8 lik” guruhi ham korrupsiya muammosini dolzarb ekanligini so‘nggi uchrashuvlarning barchasida ta’kidlab o‘tdi.

Yuqorida ta’kidlangan barcha xalqaro-huquqiy hujjatlarning va kelishuvlar korrupsiyaga qarshi kurashda muhim ahamiyat kasb etib, ular korrupsiyaga qarshi kurashni o‘zaro muvofiqlashgan holda olib borish, bu borada xalqaro hamkorlikni mustahkamlash va bir-birlariga texnik yordam ko‘rsatishni nazarda tutadi.

Ta’kidlash joizki, 12 ta davlat organlari, muassasalari va NNT vakillaridan iborat komissiya tomonidan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Milliy dastur ishlab chiqilmoqda. U quyidagi maqsadlarni qamrab oladi:

- Mamlakatning sud-huquq va ma’muriy boshqaruv tizimini bosqichma-bosqich isloh qilish;

- Korrupsiya darajasini kamaytirish, inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlatning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlariga uning har qanday ko‘rinishidan muhofaza qilish;

- Korrupsion harakatlarni aniqlash va bartaraf qilishi uchun xizmat qiluvchi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini ushbu faoliyatga keng jalb qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, korrupsiya murakkab ijtimoiy hodisa bo‘lib, unga qarshi kurashish uchun alohida choralarni qo‘llash samarali hisoblanmaydi. Ushbu faoliyat kompleks-majmuaviy tarzda amalga oshirilishi lozim. Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatining maqsadi va obyekt sifatida alohida olingan korrupsioner emas, balki ushbu xatti-harakatlarni amalga oshirishga sharoit yaratib beruvchi holatlarini bartaraf qilish va oldini olish choralari namoyon bo‘ladi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

1. Antikorrupsion qonunchilikni yanada rivojlantirish.
2. Korrupsiyaga aniq ta’rif ishlab chiqish va qonunchilikka joriy etish.
3. Milliy qonunchilikni BMT Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablari bilan hamohangligini ta’minlash.
4. Davlat xizmatchilarining “Xulq-atvor Kodeksi”ni ishlab chiqish.

5. Fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini oshirish hamda fuqarolik jamiyati institutlarini kengroq safarbar qilish.

6. Davlat tuzilmalari faoliyatining oshkoraligini kuchaytirish.

3. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida PF-5618-sonli farmonni tushuntirish orqali talaba yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni shakllantirish.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirib borish qonun ustuvorligini ta'minlash va qonuniylikni mustahkamlashning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda milliy huquq tizimini tubdan isloh qilish, jamiyatda huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda malakali yuridik kadrlarni tayyorlash borasida sezilarli ishlar amalga oshirildi.

XXI asrga kelib dunyo yoshlarini ijtimoiy, siyosiy, huquqiy himoyalash, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatlariga amal qilish, qonunlarni xurmat qilish masalalariga e'tibor tobora ortib bormoqda. Ushbu masala Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida" gi Farmonda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish masalasi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida ta'kidlab o'tilgan.

Bugungi globallashtirish davrida jamiyatimiz yoshlarining siyosiy-huquqiy madaniyatining shakllanishi birinchi navbatda ularni huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, yoshlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirish uchun imkoniyatlar yaratish zarur. Ma'lumki, konstitutsiya davlat va jamiyat taraqqiyotining kafolati, halqimizning farovon hayot kechirish uchun munosib sharoit yaratishning bosh maqsadi hisoblanadi. Yoshlarda islohotlarga nisbatan daxldorlik hissini shakllantirish, qabul qilinayotgan qonunlarning maqsadi inson manfaatiga qaratilayotganligini tushuntirish muhimdir.

Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatning shakllanishi tarbiya va muhit bilan bevosita bog'liqdir. Shu bois birinchi navbatda aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida huquqiy tarbiyani keng yo'lga qo'yish, o'z navbatida yoshlarni yangicha va keng tafakkur yuritishga o'rgatish, dunyoda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni mustaqil tarzda tahlil qila bilish qobiliyatini yuksaltirish, yoshlarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida erkin fikrlash muhitini yaratish va mustaqil hayotlarida o'z maqsadlarini aniq belgilab olishlari uchun ularda mustaqillik dunyoqarashini shakllantirish lozimdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini

tubdan takomillashtirish to'g'risida" gi PF-5618-sonli farmonda jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- aholiga mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlari va davlat dasturlarining mazmuni va mohiyatini izchil yetkazish tizimini shakllantirish, fuqarolar ongida "Jamiyatda qonunlarga hurmat ruhini qaror toptirish – demokratik huquqiy davlat qurishning garovidir!" degan hayotiy g'oyani mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamiga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish;

- yosh avlod ongiga huquq va burch, halollik va poklik tushunchalarini hamda odob-axloq normalarini chuqur singdirib borish, Konstitutsiyaning muhim jihatlarini ularga bolaligidan boshlab o'rgatish;

- aholi o'rtasida huquqiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha huquqiy-ma'rifiy tadbirlarni xalqimiz tarixi, dini, milliy qadriyatlarini o'rgatish bilan uyg'un holda tashkil qilish, shuningdek, har bir fuqaroda davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali mamlakatga daxldorlik, vatanparvarlik hissini kuchaytirish;

- davlat xizmatchilarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirib borish, ularda korrupsiya va boshqa huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik munosabatini shakllantirish;

- davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda fuqarolik jamiyati institutlarining manzilli huquqiy targ'ibotni amalga oshirish borasidagi o'zaro hamkorligini mustahkamlash;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishga doir tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy sheriklik prinsiplaridan keng va unumli foydalanishni tizimli asosda yo'lga qo'yish;

- ommaviy axborot vositalarining huquqiy axborot bilan ta'minlashdagi rolini oshirish, huquqiy targ'ibotning innovatsion usullaridan keng foydalanish, shu jumladan, veb-texnologiyalarni qo'llashni kengaytirish;

- yuridik ta'limni takomillashtirish, shuningdek, yuridik kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishning ilmiy asoslarini chuqur tadqiq etish.

Shuningdek, farmonda “Yuksak huquqiy madaniyat – mamlakat taraqqiyoti kafolati” degan konseptual g’oya asosida aholining barcha qatlamlari huquqiy savodxonlikka erishishlari, yuksak darajadagi huquqiy ongga ega bo’lishlari hamda huquqiy bilimlarini kundalik hayotda qo’llay olishlari uchun tizimli va keng qamrovli huquqiy targ’ibot tadbirlarini tashkil qilish davlat organlari va tashkilotlarning ustuvor vazifalaridan biri etib belgilandi, jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta’lim muassasasi – tashkilot –jamiyat” prinsipi bo’yicha tizimli va uzviy tashkil etilishi belgilandi. Shu bilan birga, Farmonda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi hamda qo‘shimcha huquqiy ma’lumotlar (yuridik lug‘at, huquqiy adabiyotlar elektron maydonchasi, qonun hujjatlari loyihalari muhokamasi bo’yicha onlayn forum va boshqalar) yetkazish tizimini o‘z ichiga oladigan O‘zbekiston Respublikasining milliy huquqiy internet portalini yaratish; aholiga bepul maslahat berish portalini o‘z ichiga olgan Advice.uz huquqiy axborot tizimini yaratish; umumta’lim maktablari va akademik litseylarda huquqiy bilimlarga doir o‘quv mashg‘ulotlari ko‘lamini yanada kengaytirish; aholining kundalik hayotida ko‘p uchraydigan huquqiy masalalar yuzasidan savol-javob tarzidagi qo‘llanmalarni tayyorlash va xonadonlarga bepul tarqatish; aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga munosib hissa qo‘shgan davlat organlari va tashkilotlar xodimlariga aholining huquqiy savodxonligini oshirishda ko‘rsatgan xizmatlari uchun topshiriladigan “Huquqiy targ’ibot ishlari a’lochisi” ko‘krak nishonini ta’sis etish to‘g‘risidagi takliflari ma’qullanishi ta’kidlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi Adliya vazirligi bilan birgalikda 2019/2020 o‘quv yilidan boshlab ta’lim muassasalarida o‘quvchi va talabalarning huquqiy bilimlari uzluksiz va tizimli oshirib borilishini ta’minlash mexanizmi joriy etilib, o‘quvchi va talabalarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan o‘quv dasturlarining tubdan qayta ko‘rib chiqilishini ta’minlash belgilangan; 2019 yil 1 martdan yoshlarda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, ayniqsa, ularning ongida korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o‘ta salbiy illat ekanligini targ’ib qilishga qaratilgan o‘quv materiallari tayyorlanishini tashkil qilinishi, yosh avlodning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo’yicha ta’lim muassasalarining huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlik qilishining samarali mexanizmlarini kengaytirish choralarini ko‘rilishi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2017 yil 5 iyuldagi “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi farmoni va 18 iyuldagi

“O‘zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini takomillashtirishga doir kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida yoshlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish maqsadida yoshlarimizda faol hayotiy nuqtai nazar, aniq bir maqsadga intiluvchanlik, ijtimoiy harakatchanlikni izchil shakllantirish, yoshlar o‘z Vatani bilan faxrlanish hissini, islohotlarga daxldorlik tuyg‘usini yuksaltirish, Prezidentimiz rahnamoligida ishlab chiqilgan ijtimoiy yo‘naltirilgan yoshlar siyosatini amaliyotga samarali tatbiq etishni rivojlantirish, “yoshlarimiz qadimiy va boy tariximizni bilishi zarur va ayni paytda ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ularni kalondimog‘lik, beparvolik, loqaydlik kabi salbiy illatlardan asrashimiz kerak”⁵.

Jamiyatning yetakchi kuchi hisoblangan yoshlarning hayotida huquqiy madaniyatni shakllantirishda jamiyat ma‘naviy yangilanish jarayonlari bilan uzviylikda olib borish, ularning faoliyatida ma‘naviy-axloqiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish ham maqsadga muvofiq. Yoshlar bugungi murakkab hayotda turli muammolarni ijobiy hal etishlarida, ularni erkin fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratish lozim. Respublikamiz yoshlarining huquqiy faolligi, erkin va mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishda ilg‘or mamlakatlarning yoshlar tashkilotlari ish tajribalarini o‘rganish, ommaviy axborot vositalarining siyosiy-huquqiy ma‘lumotlarga oid keng axborotlarni berib borish ham maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta‘kidlash kerakki, ayrim talaba-yoshlarimizda izlanish qobiliyati yetishmasligi, dunyoqarashi keng ko‘lamda namoyon bo‘lmasligi, dolzarb masalalarga bir tomonlama yondoshganlari natijasida mustaqil fikri va huquqiy madaniyatning yetishmasligi kuzatiladi. Bunday yoshlarga ta‘lim jarayonidan tashqari ijodiy muhit yaratish, o‘quv va ilmiy-tarbiyaviy faoliyatlarini tahlil qilish va o‘rganish, ijtimoiy-huquqiy bilimlarini chuqurlashtirish lozim. Konstitutsiyaviy bilimlar yordamida yoshlarning tafakkurini, dunyoqarashini, fikrlash doirasini, qiziqish va muammolarini o‘rganish, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy mustaqilligini ta‘minlash, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotda o‘z o‘rnini egallashiga yordam berish muhim vazifalardan biri. Yoshlarda demokratik huquqiy tafakkurni shakllantirish, qabul qilinayotgan qonunlarning mazmun-mohiyatini ularga yetkazish maqsadida “O‘zbekiston – inson qadri ulug‘langan yurt”, “Birgalikda yuksak huquqiy madaniyat sari”, “Inson huquq va erkinliklari – oliy qadriyat”, “Konstitutsiya – adolat mezonini” kabi loyihalar, “Adolat” bilimdoni” ko‘rik-tanlovi yoshlarning huquqiy bilimini boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z navbatida huquqiy targ‘ibotni kuchaytirish, yoshlarning Konstitutsiya haqidagi

⁵ Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд -Т.: Ўзбекистон. 2017. –Б. 508.

bilim va tushunchalarini yanada takomillashtirish, ta'lim muassasalarining bu boradagi o'rni va rolini kuchaytirish dolzarb ahamiyatga ega. Yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda tafakkur erkinligining ahamiyati katta. Faylasuf olim A.Erkayev tafakkur erkinligining zarurati haqida shunday deydi: "Tilimizda hurfikrlilik degan tushuncha mavjud. U ijod va ilm-fanning dindan mustaqilligini yoqlaydigan tafakkur tarzini bildiradi. Tafakkur erkinligi hurfikrlilikni o'z ichiga olgan holda u bilan chegaralanib qolmaydi"⁶. Demak, yoshlarda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirishda faqat mustaqil fikr tushunchasining o'ziningina emas, uning hurfikrlilik, erkin fikrlash hamda mantiqiy tafakkur tushunchalari bilan bog'lagan holda tushuncha berish talab etiladi. Jamiyatning yetakchi kuchi hisoblangan yoshlarning ongida tafakkur erkinligini shakllantirishda jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan uzviylikda olib borish lozim. Yoshlar qanday faoliyat bilan shug'ullanmasinlar, qaysi sohani egallasinlar, hamma narsaga katta ma'suliyat bilan yondoshish hissini o'zlarida shakllantirishgi intilishlari lozim. Respublikamiz yoshlarining ijtimoiy faolligi, erkin va mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishda ilg'or mamlakatlarning yoshlar tashkilotlari ish tajribalarini o'rganish lozim. Ommaviy axborot vositalari orqali ilg'or mamlakatlar yoshlarining tadbirkorlik, ishbilarmonlik va bizning yoshlarga o'rnak bo'ladigan fazilatlarini haqida keng axborot berib borish, huquqiy bilimlarni, qonunlarning mazmun-mohiyatini ta'lim maskanlari, ommaviy axborot vositalari, Internet resurslaridan, adabiyot, san'at muassasalari imkoniyatlaridan foydalangan holda targ'ib etish zarur. Asosiy qonun bilan barcha fuqarolar zimmasiga Konstitutsiyaga va qonunlarga amal qilish, boshqalarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilish majburiyatini yuksaltirish barchaning doimiy vazifasi bo'lmog'i zarur.

XXI asrga kelib dunyo yoshlarining hayoti, ongi va tafakkurida yangicha tasavvurlar paydo bo'ldi. Yoshlar o'z manfaatlarini amalga oshirish yo'llarini erkin tanlab olishlari, jamiyatni rivojlantirishda ularning bevosita ishtirok etishi, huquq va burchlarini, erkinlik va fuqarolik mas'uliyatlarini amalga oshirish ehtiyojlari tobora ortib bormoqda. Bugungi globallashuv davrida jamiyatimiz yoshlarining huquqiy madaniyatini shakllanishi birinchi navbatda ularning huquqiy va ijtimoiy jihatdan himoya qilish, yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari doirasida o'z manfaatlarini amalga oshirishlari kafolatlangan. Konstitutsiya davlat va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida har bir inson, xususan yoshlar hayotini huquqiy jihatdan muhofaza etadi. Asosiy qonunimiz mohiyatiga tayangan holda "jamiyatimizda yashayotgan barcha fuqarolarning huquqlari, burchlari va majburiyatlariga

⁶Эркаев А. Тафаккур эркинлиги. –Т.: 2007. –Б. 13

sodiqligini mustahkamlash, xalqimizga xos bo'lgan insonparvarlik va bag'rikenglik tamoyillarini yanada yuksaltirish" to'g'risida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev o'z ma'ruzasida ta'kidlab o'tdi⁷.

Ta'kidlash joizki, O'zbekistonda barpo etilayotgan jamiyatning mohiyati va davlatimizning taraqqiyot va rivojlanish yo'lidagi o'ziga xos modelning ahamiyati, mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xalqimiz manfaati uchun xizmat qilishini yoshlar ongiga singdirish lozim. Yoshlarning erkin fikrlashi va huquqiy madaniyatini o'stirish har tomonlama izlanishlar olib borishni talab etadigan tarbiyaviy, nazariy, amaliy jarayon bo'lib, yoshlarni maktab davridan Vatanga muhabbat, ezigulik, mehr-oqibat, vazminlik, bosiqlik kabi fazilatlarni yuksaltirish, qonunlarni hurmat qilish, ularga amal qilish, kelajakda davlat va jamiyat qurilishida faol ishtirok etadigan, o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lishlarida ularga har tomonlama rag'batlantirish va ko'mak berish talab etiladi.

Bugungi kunda davlatimizda faoliyat olib borayotgan, yoshlarning suyanchi va tayanchi hisoblangan "O'zbekiston yoshlar ittifoqi" tashkiloti, Prezidentimiz tashabbuslari bilan qabul qilingan "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar kelajagimiz" dasturlari doirasida yoshlarning hayoti va kelajagini, ularning mustaqil g'oyalari, tadbirkorlik tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, qolaversa huquqiy madaniyatni yuksaltirishda ezgu maqsadlarni ko'zlamoda. Shu bilan birga, umumta'lim maktablarida boshlang'ich sinflar bilan ish olib boradigan "Kamalak" bolalar tashkiloti, iste'dodli va ijodkor yoshlar bilan ishlash uchun "Yoshlar tashabbuslari markazi" tuzilmalari ham o'z vakolati doirasida yoshlar huquqiy madaniyatini oshirish jarayonida faol va ijobiy harakatlarni amalga oshirmoqda. Ushbu tashkilotlar bilan hamkorlikda, keng jamoatchilik ishtirokida yoshlarni ehtiyoj va muammolarini o'rganish, ularga huquqiy va amaliy maslahatlar ko'rsatish, yoshlarning keng qatlamlarini, xususan uyushmagan yoshlarning bandligini ta'minlash bilan birga ularni katta maqsadlar sari yetaklash, huquq va manfaatlarini himoya qilish natijasida yoshlar orasida turli jinoyatlar va nizolarning oldini olish masalalariga e'tibor qaratish zarur. Insonda birinchi navbatda huquqiy madaniyat yuksak shakllansagina turli nizo va qarama-qarshiliklarni tinchlik, murosas bilan hal etish mumkin. Jamiyatning yetakchi kuchi hisoblangan yoshlarning hayotida huquqiy madaniyatni shakllantirishda jamiyat ma'naviy yangilanish jarayonlari bilan uzviylikda olib borish, ularning faoliyatida ma'naviy-axloqiy, huquqiy-tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish ham maqsadga muvofiq. Yoshlar bugungi murakkab hayotda turli muammolarni ijobiy hal etishlarida, ularni erkin fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zamin yaratish lozim. Respublikamiz

⁷ Ш.Мирзиёев Билимли авлод – буюк келажакнинг, тadbirkor халқ – фаровон халқнинг, дўстона ҳамкорлик эса таракқиётнинг кафолатидир. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 26 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маъруза 2018 йил 7 декабрь

yoshlarining huquqiy va ijtimoiy faolligi, erkin va mustaqil fikrlash madaniyatini oshirishda ilg'or mamlakatlarning yoshlar tashkilotlari ish tajribalarini o'rganish, ommaviy axborot vositalarining siyosiy-huquqiy ma'lumotlarga oid keng axborotlarni berib borish ham maqsadga muvofiqdir. Ta'kidlash kerakki, ayrim talaba-yoshlarimizda izlanish qobiliyati yetishmasligi, dunyoqarashi keng ko'lamda namoyon bo'lmasligi, dolzarb masalalarga bir tomonlama yondoshganlari natijasida mustaqil fikri va huquqiy madaniyatning yetishmasligi kuzatiladi. Shuning uchun bunday yoshlarga ta'lim jarayonidan tashqari ijodiy muhit yaratish, o'quv va ilmiy-tarbiyaviy faoliyatlarini tahlil qilish va o'rganish, ijtimoiy-huquqiy bilimlarni chuqurlashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, huquqiy madaniyat ta'lim-tarbiya jarayonida rivojlantiriladi. Shu bois yoshlarning tafakkurini, dunyoqarashini, fikrlash doirasini, qiziqish va muammolarini hisobga olish, huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning hayotda o'z o'rnini egallashiga yordam berish hozirgi kun talabidir.

Nazorat savollari:

1. Korrupsiya atamasiga ta'rif bering.
2. Korrupsiyaning qanday turlarini bilasiz?
3. "O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi farmon qachon qabul qilingan?
4. Farmondagi ustuvor vazifalar nimalardan iborat?
5. Huquqiy madaniyatga ta'rif bering.
6. Sizningcha, bugungi kunda korrupsiyaga qarshi qanday kurashish lozim?

11-mavzu: Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari

Reja:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tahlil etish. Korrupsiyani oldini olish va uning sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish.

2. 2019 yil 27 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF- 5729 sonli Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etish.

Tayanch iboralar: korrupsiya, davlat hokimiyati, davlat siyosati, amalga oshirilayotgan islohotlar, korrupsiyaga qarshi kurash tizimi, davlat dasturlari va qarorlari, jamoatchilikning ishtiroki, korrupsiyani keltirib chiqaradigan holatlar.

MAVZUNING MAQSADI: Korrupsiyani oldini olish va uning sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish mohiyatini ochish, 2019 yil 27 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF- 5729 sonli Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etish.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashda davlat hokimiyati organlari faoliyatini tahlil etish. Korrupsiyani oldini olish va uning sabablarini aniqlash hamda bartaraf etish.

O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi siyosat turli davlat dasturlari va qarorlarining asosiy maqsadlaridan biriga aylandi. Masalan, 2004 yildagi jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamalakatni isloh qilish va modernizatsiyalash dasturining maqsad va vazifalarida namoyon bo'ladi. 2008 yil O'zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qo'shildi va korrupsiyaga qarshi chora tadbirlarni amalga oshirish uchun ishchi guruh tashkil qilindi.

2010 yil sentabrda ishchi guruh Korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha Milliy reja loyhasini ishlab chiqdi. Bu hujjat korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha keng qamrovli siyosiy hujjat bo'lib, unda maqsadlar, asosiy faoliyat yo'nalishlari belgilangan va korrupsiyaning oldini olish va qarshi kurashishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, jamoatchilikning ishtiroki, ularni o'qitish masalalari o'z aksini topgan.

2010 yil mart oyida Jamoatchilik fikrini o'rganish markazi "Ijtimoiy fikr" tomonidan aholi o'rtasida korrupsiya masalalari bo'yicha maxsus so'rov o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi korrupsiyaga qarshi siyosatida asosiy e'tiborni jamoatchilikning xabardorlikni oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashda ta'limga, milliy qonunchilikning qoidalarini keng omma e'tiboriga yetkazishga qaratadi⁸.

Korrupsiyaga qarshi kurashish yo'llaridan biri bu davlat xizmatlari sifatini tubdan yaxshilash, ularning ko'lamini kengaytirish orqali aholi uchun qulay muhit yaratish va korrupsiyani keltirib chiqaradigan holatlarni kamaytirishdan iborat.

Olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarni amalga oshirish maqsadida aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish, shuningdek, keng jamoatchilik muhokamasi natijasida ishlab chiqilgan hamda quyidagilarni nazarda tutadigan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni bilan tasdiqlandi.

Harakatlar strategiyasining 2.4. – bandi bevosita Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish tizimini takomillashtirish masalalariga qaratilgan. Ushbu bandga asosan:

-jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirishning samaradorligini oshirish;

-korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmini takomillashtirish va korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarining samaradorligini oshirish belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining 2017 yil 3 yanvarda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonunida manfaatlar to'qnashuvi tushunchasiga ham izoh berilgan bo'lib - u shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat anglanadi.

⁸Обзор законодательной и институциональной базы для борьбы против коррупции: оценка и рекомендации. Узбекистан. Оценка и рекомендации. 2010. С.3.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi tomonidan “BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ga O‘zbekiston Respublikasining qo‘shilishi to‘g‘risida”gi Qonuni 2008 yil 24 iyunda qabul qilindi va 2008 yil 27 iyunda O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisi Senati tomonidan ma’qullandi va 2008 yil 28 avgustdan e’tiboran kuchga kirdi.

O‘zbekiston Respublikasi mazkur konvensiyaga bir nechta bildirishlar, bayonotlar va shartlar bilan qo‘shildi. Jumladan, Qonunning 1-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 6-moddasining 3-bandi bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Bosh prokuraturasi, Ichki ishlar vazirligi, Davlat xavfsizlik xizmati va Adliya vazirligi korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ishlab-chiqish va ularni amalga oshirishda boshqa ishtirokchi - davlatlarga yordam ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan organlar sifatida belgilanganligi keltirildi. Bu qoida Konvensiyaning 6-moddasi 3-bandidagi har bir ishtirokchi Davlat BMTning Bosh kotibiga korrupsiyaning oldini olish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda boshqa ishtirokchi davlatlarga yordam berishi mumkin bo‘lgan organ yoki organlarning nomi va manzilini xabar qiladi, degan talablariga to‘la javob beradi.

Ushbu qonun mazmuniga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiyaning “Noqonuniy tarzda boylik orttirilishi”ni jinoyat sifatida baholagan 20-moddasi va “Yuridik shaxslarning javobgarligi”ni nazarda tutilgan 26-moddalariga qo‘shilmagan. Yuqoridagi qonunning 3-bandiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konvensiya 44-moddasi 6-bandining “a” kichik bandiga muvofiq, ushbu Konvensiyadan korrupsiya jinoyatlari sodir etgan shaxslarni tutib topshirish masalalarida ushbu Konvensiyaning boshqa ishtirokchi-davlatlari bilan o‘zarolik asosida hamkorlik qilish uchun huquqiy asos sifatida foydalanishligini bildirgan.

Mustaqillikning dastlabki davridan boshlab mamlakatda huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishning strategik maqsadini amalga oshirishda qonun ustuvorligini ta’minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, sud-huquq tizimini isloq qilish, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi kurashish muhim ustuvor va dolzarb vazifalar sifatida qarab kelindi. Aynan shu davrda mamlakatda qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlashning huquqiy asoslari shakllantirildi, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasi Birlashgan Millatlar Tashkilotining “Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi”ga (2003 yil 31 oktabr, Nyu-York) 2008 yili, shuningdek, 2010 yili Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti doirasida qabul qilingan korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Istanbul harakat rejasiga (2003 yil 10 sentabr, Istanbul) qo‘shilishi korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi.

Korrupsiya va uni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan sabablar va omillarning oldini olish maqsadida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mehnat jamoalarida ishchanlik va oshkoralik muhitini yaratish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay sharoitlar tashkil etish, ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat organlari tomonidan litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, davlat xaridlari mexanizmini takomillashtirish, davlat xizmatchilarining odob-axloqqoidalari tasdiqlashga oid qator chora-tadbirlar amalga oshirildi. Lekin, mamlakatimizda 2017 yilga qadar korrupsiyaga qarshi kurashni muvofiqlashtiradigan, bu kurashni qonuniyligi va shaffofligini ta'minlaydigan maxsus qonun qabul qilinmagan edi.

Mamlakat Prezidenti Shavkat Mirziyoevning tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida" gi Qonuni qabul qilindi va u 2017 yil 4 yanvardan boshlab kuchga kirdi. Mazkur Qonundan ko'zlangan asosiy maqsad korrupsiyaga qarshi kurash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat bo'ldi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va tadbirkorlik sohalarida korrupsiyani yuz bermasligi yoki undan voqif etish qator choralar qatoridan ma'muriy va byurokratik to'siqlarni bartaraf etish, turli ro'yxatga olish, ruxsat berish va litsenziyalash jarayonlarini soddalashtirish va ularni rasmiylashtirish tezkorligini oshirish, davlat organlarining nazorat- tekshiruv vakolatlarini optimallashtirish hamda ular bilan tadbirkorlik subyektlari o'rtasida o'zaro munosabatlarning uzoqdan masofaviy tarzda bog'lana olish shakllarini joriy etish belgilandi. Shuning uchun ham davlat organi xodimi biror bir shaxs tomonidan uni korrupsion huquqbuzarlikni sodir etishga da'vat qilish holati, shuningdek, boshqa xizmatchilar tomonidan shu kabi holatlarning amalga oshirilishi bo'yicha unga oshkor bo'lgan ma'lumotlarni o'z rahbari yoki huquqni muhofaza qilish organlariga murojaat etish huquqlari belgilab qo'yildi. Mazkur majburiyatlarning amalda bajarilmasligi qonunchilikka muvofiq tegishli ravishda jazolanishi qoidasi o'rnatildi. Korrupsion jinoyat to'grisida axborot bergan shaxs davlat himoyasi ostiga olinadigan bo'ldi. Shuningdek, mazkur qoida yolg'on ma'lumotlarni taqdim etuvchi fuqarolarga nisbatan amal qilmasligiga e'tibor qaratildi.

Qonunning alohida moddalari bilan har qanday fuqaro turli tashkilotlar va davlat organlari faoliyati, o'ziga yoki boshqa shaxslar guruhiga taalluqli qabul qilinayotgan me'yoriy aktlar to'g'risida ma'lumot olish huquqiga ega ekanligi belgilab qo'yildi. Davlat organlari, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va nodavlat tashkilotlar tomonidan OAVga korrupsiya bilan bog'liq hodisalar, dalillar, voqealar va jarayonlar to'g'risida ma'lumotlarni taqdim etishi uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Mazkur chora-tadbirlarning yangi va yanada samarali tizimini yaratish, korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni to‘liq qonuniy tartibga solishga, davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirishga, fuqarolarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali jamiyatda korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga toqat qilmaslik muhitini yaratishga xizmat qilishi bilan ham ahamiyatlidir.

Qonunda korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari va bu boradagi davlat siyosatining muhim yo‘nalishlari mustahkamlab qo‘yildi. Qonun fuqarolar huquq va erkinliklari himoya qilishni ta‘minlashning qo‘shimcha huquqiy kafolatlarini yaratdi, shuningdek, u xususiy mulk huquqiga g‘ayriqonuniy tajovuzlar qilishdan, tadbirkorlik subyektlarifaoliyatiga asossiz aralashuvlarni cheklashlardan himoya qila boshladi.

Qonunning 7-moddasiga binoan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga quyidagilar kiritildi: Bosh prokuratura; Davlat xavfsizlik xizmati; Ichki ishlar vazirligi; Adliya vazirligi; O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Soliq, valyutaga oid jinoyatlarga va jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashish departamenti; Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni qonun hujjatlariga muvofiq boshqa davlat organlari ham amalga oshiradi.

Shu bilan birga, qonunda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish uchun Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Respublika idoralararo komissiyasini tashkil etish ham nazarda tutildi. Idoralararo komissiyani shakllantirish va uning faoliyati tartibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan belgilanishi nazarda tutildi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida, viloyatlarda va Toshkent shahrida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hududiy idoralararo komissiyalar tashkil etilishi belgilandi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;
- korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi va unda ishtirok etuvchi organlar hamda tashkilotlarning faoliyatini muvofiqlashtirish va hamkorligini ta‘minlash;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga doir chora-tadbirlarning ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini tashkil etish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarning oldini olishga, ularni aniqlashga, ularga chek qo'yishga, ularning oqibatlarini, shuningdek, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etishga doir chora-tadbirlar samaradorligi oshirilishini ta'minlash;

- korrupsiyaning holati va tendensiyalari to'g'risidagi axborotni yig'ish hamda tahlil etish;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohadagi mavjud tashkiliy-amaliy va huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish va ushbu sohadagi ishlarni yaxshilash yuzasidan takliflar tayyorlash;

- korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy idoralararo komissiyalar faoliyatini muvofiqlashtirish.

2. 2019 yil 27 mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF- 5729 sonli Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va unda ilgari surilgan asosiy vazifalarni tahlil etish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PF-5729-son Farmoni bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi va Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlangan edi.

ESLAB QOLING! O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi 29.06.2020 PK-4761-sonli qarori asosida yangi tashkil etilgan "Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi" ning asosiy vazifalari, faoliyat yo'nalishlari hamda huquqlari belgilab olindi.

Ular quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasida budget mablag'larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining

amalg oshirilishi va davlat dasturlarini bajarilishi bilan bog‘liq materiallar talab qilish, olish va o‘rganish;

- Jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo‘yicha murojaatlarni ko‘rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo‘yicha choralar ko‘rish;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo‘yicha ma‘muriy surishtiruvlar o‘tkazish;

- Ijro hokimiyati va xo‘jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ijrosini to‘xtatish yoki bekor qilish to‘g‘risida ko‘rib chiqilishi majburiy bo‘lgan taqdimnomalar kiritish kabi bir qator huquqlar berilgan.

Farmonning ahamiyati: “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon bu boradagi izchil sa‘y-harakatlarning mantiqiy davomi bo‘lib, bundan ko‘zlangan asosiy maqsad yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini yanada oshirish, eng yuqori darajadagi qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy imijini oshirish va mustahkamlashga qaratilgan.

Mazkur Farmon bilan 2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilinib, Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari ham belgilab berildi. Jumladan, sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish, davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish, korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish, davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta’minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarini tayyorlash, o‘tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish kabi masalalar shular jumlasidandir. Bundan buyon idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va

faoliyatining ochiqdigi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadigan bo'ldi.

2019 yil 1 iyuldan boshlab davlat organlari o'z zimmalariga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy ravishda baholab borishlari lozim. Agar davlat boshqaruvi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlamasalar hamda tegishli baho bermasalar, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'ysalar, shaxsan javobgar bo'ladilar.

O'tgan yillar davomida tadbirkorlik yo'lidagi ortiqcha cheklovlarni bartaraf qilish, ularning faoliyatiga davlat idoralarining noqonuniy aralashuvini qat'iy cheklash borasida salmoqli ishlar amalga oshirildi. Jumladan, korrupsiyaga yo'l ochib berayotgan yer ajratish amaliyoti tubdan isloh qilindi. Bu jarayon endilikda yer ajratish elektron tizimi orqali amalga oshirilmoqda.

2020 yil 1 yanvardan boshlab hokimlarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni olib qo'yish bo'yicha vakolati xalq deputatlari Kengashlariga berilishi belgilangan edi. Bu o'zgarish ham mulk daxlsizligini ta'minlash yo'lidagi jiddiy qadamlardan biridir. Darhaqiqat, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala bo'lib, bu borada nafaqat mas'ul idoralar, balki keng jamoatchilik ham hamjihat va hamfikir bo'lmog'i maqsadga muvofiqdir. Shundan kelib chiqib, qaerdadir ta'magirlik, poraxo'rlik holatlariga duch kelsak, har birimiz bu noxush hodisaga nisbatan befarq bo'lmasligimiz, loqaydlik qilmasligimiz, aksincha, korrupsiya illatini tag-tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarishga kirishmog'imiz burch va mas'uliyatimizga aylanmog'i darkor. Boshqacha ifodalaganda, adolatsizlikka nisbatan murosasiz bo'lishni o'zimizdan boshlashimiz zarur. Zero, bu borada har bir fuqaroning huquqi qonuniy asosda qat'iy kafolatlangan.

2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturi qabul qilindi. Senat raisi Nig'matulla Yo'ldoshev boshchiligidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining yangilangan tarkibi tasdiqlandi.

ESLATMA! O‘zbekistonda davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilishga kirishilib, kapital qurilish va oliy ta’lim sohalarida “Korrupsiyasiz soha” loyihasi amalga oshirilishi ko‘zda tutildi. Prezident tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash dasturi tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 27 may kuni “O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida” gi farmonni imzoladi. Hujjat korrupsiyaga qarshi kurashish tizimi samaradorligini oshirish, eng yuqori darajadagi qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, mamlakatning xalqaro maydondagi ijobiy obro‘-e‘tiborini oshirishga qaratilgan.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, viloyatlar va Toshkent shahar xalq deputatlari Kengashlari, tuman va shahar xalq deputatlari Kengashlarining tarkibida korrupsiyaga qarshi kurashish komissiyalari tashkil etiladi. Ular joylarda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi ishlarning holatini kompleks o‘rganish, joylarda korrupsiya ko‘rinishlari namoyon bo‘lishiga olib keladigan tizimli muammolar va korrupsiyaning holati to‘g‘risida O‘zbekiston Oliy Majlisi palatalarining korrupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari bo‘yicha qo‘mitalariga ushbu sohadagi faoliyatni takomillashtirish yuzasidan takliflar kiritgan holda muntazam ravishda axborot berib boradi.

Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari o‘rta muddatli istiqbolda quyidagilardan iborat ekani belgilandi:

- sud hokimiyatining mustaqilligini yanada mustahkamlash, sudyalarga har qanday tarzda qonunga xilof ravishda ta’sir o‘tkazish shart-sharoitlarini istisno etish;

- davlat xizmatchilarini tanlov asosida saralab olish, lavozimga tayinlash va yuqori lavozimlarga ko‘tarishning shaffof tartibiga asoslangan davlat xizmati tizimini shakllantirish, ular uchun cheklovlar, ta’qiqlashlar, rag‘batlantirish choralari hamda korrupsiyaning oldini olish boshqa mexanizmlarining aniq ro‘yxatini belgilash;

- davlat xizmatchilari daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish va ularning ish haqi yetarli darajada bo‘lishini ta’minlash, shuningdek, davlat xizmatini o‘tashda manfaatlar to‘qnashuvini hal etishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish;

- korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabar bergan shaxslarni himoya qilishning samarali tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini joriy etish;

- aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yanada oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni kuchaytirish;

- davlat organlari va tashkilotlarining hisobdorligi va faoliyatining shaffofligini oshirish;

- fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari faoliyatining chinakam erkinligini ta'minlash va ularni korrupsiyaga qarshi choralarni tayyorlash, o'tkazishda va ijrosini monitoring qilishda ishtirok etishga jalb qilish shular jumlasidandir.

Idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashishning samarali dasturlarini amalga oshirish, ularning hisobdorligi va faoliyatining ochiqligi mexanizmlarini joriy etish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishi va manfaatlar to'qnashuvining oldi olinishini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlarni bajarish orqali tegishli sohada korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarga imkon yaratayotgan sabablar va shart-sharoitlarni tag-tomiri bilan yo'qotish davlat organlari va tashkilotlari rahbarlarining birinchi darajadagi muhim vazifasi hisoblanadi.

1-iyuldan boshlab davlat organlari zimmasiga yuklangan vazifa va funksiyalarni amalga oshirishda yuzaga keladigan korrupsiya xavf-xatarlarini vaqti-vaqti bilan majburiy baholab boradi, uning yakunlari bo'yicha:

- korrupsiya xavf-xatariga eng ko'p duch keladigan davlat xizmatchilarining faoliyat sohalari va lavozimlari, shuningdek, ularning funksiyalari (vakolatlari)ning ro'yxatini shakllantiradi;

- idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlari ijrosining har choraklik monitoringini amalga oshiradi va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimum darajaga tushirish choralarni ko'radi;

- Idoralararo komissiya bilan kelishgan holda har yilgi idoraviy korrupsiyaga qarshi kurashish dasturlarini tasdiqlaydi;

- har yili Idoralararo komissiyaga tegishli organlar va tashkilotlar faoliyatida, shu jumladan, qonunchilikni va huquqni qo'llash amaliyotini takomillashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlariga barham berish bo'yicha takliflarni kiritadi.

Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlari korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlamaganliklari va tegishli baho bermaganliklari, shuningdek, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni takroran sodir etish holatlariga yo'l qo'yganliklari yuzasidan shaxsan javobgar bo'ladi.

1 sentabrdan boshlab ta'lim muassasalarida yoshlarga korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida huquqiy ta'lim berish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tatbiq etilishi lozim. Bundan tashqari, umumiy o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi va oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlarida korrupsiyaga qarshi mavzular yanada kuchaytiriladi.

Uch oy muddatda, shu jumladan, texnik infratuzilmani va zarur dasturiy ta'minotni yaratishga oid zaruriy chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutgan holda muayyan toifadagi davlat xizmatchilarining mulki va daromadlarini deklaratsiya qilish tizimini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilishi lozim.

1avgustdan boshlab eksperiment tariqasida, jamoatchilik va yetakchi ekspertlarni, shu jumladan, xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda dastlabki bosqichda kapital qurilish va oliy ta'lim sohalarida "Korrupsiyasiz soha" loyihasi amalga oshiriladi. 2020yil 1apreldan boshlab loyiha boshqa sohalarga ham bosqichma-bosqich joriy etiladi.

Qo'shimcha ravishda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida jamoatchilik nazorati mexanizmlarini samarali qo'llashga yo'naltirilgan "Yo'l xaritasi" loyihasi ishlab chiqilishi, unda Oliy Majlis palatalari va siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, huquqni muhofaza qiluvchi organlarning Oliy Majlis palatalari oldidagi hisobdorligi tartibini takomillashtirish, qarorlar qabul qilish jarayonida fuqarolar ishtirokining shaffof va samarali usullarini joriy etish ko'zda tutilgan.

Hozirda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi keskin va murossasiz kurash olib borilmoqda. Xususan, "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi, shuningdek Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha respublika idoralararo komissiyasining tashkil etilishi va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha Davlat dasturining tasdiqlanishi mamlakatda korrupsiya bilan bog'liq huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni samarali amalga oshirilishini ta'minladi. Misol uchun, qisqa vaqt ichida korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirishga oid beshta normativ-huquqiy hujjat, shu jumladan, "Huquqiy axborotni tarqatish va undan foydalanishni ta'minlash to'g'risida"gi, "Ma'muriy tartib-taomillar to'g'risida"gi, "Jamoatchilik nazorati to'g'risida"gi, "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda Davlat rahbarining bir qator Farmonlari qabul qilindi.

Olib borilgan tahlillar korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga institutsional yondashuv bir qator ijobiy jihatlarga ega bo'lishini ko'rsatdi. Mazkur muammoga kompleks yondashuvni amalga oshirish, jamiyatda mavjud korrupsiya darajasini pasaytirish borasidagi vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlarning muvaffaqiyat qozongan uchta asosiy faoliyatini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin:

- 1) korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi chora-tadbirlarni olib borish;
- 2) tergov vakolatlari, nazorat funksiyalari;

3) boshqa idoralardan mustaqil ravishda o'z faoliyatini olib borish, faqat davlat hokimiyatining oliy organlariga hisobdor bo'lish.

Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida tavsiyalarni ishlab chiqish bo'yicha yetakchi xalqaro tuzilma – Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining tadqiqotiga ko'ra, huquqni muhofaza qilish organlari vakolatlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ko'p maqsadli idoralarning modeli kompleks yondashuvning eng yorqin namunasidir. Ushbu turga tegishli bo'lgan idoralar tergov faoliyatini olib borish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'ziga xos siyosatni ishlab chiqish, tahliliy faoliyat, jinoyatlarning oldini olishda ko'maklashish, fuqarolik jamiyati bilan hamkorlik qilish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, korrupsiyaga qarshi kurashish dasturining bajarilishini monitoring qilib borish kabi vazifalarni bajaradi.

Mazkur muammoga kompleks yondashuvni amalga oshirish, jamiyatda mavjud korrupsiya darajasini pasaytirish borasidagi vazifalarni samarali hal etish imkonini beradi. Shu bilan birga, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlarning muvaffaqiyat qozongan uchta asosiy faoliyatini misol tariqasida keltirib o'tish mumkin. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organning korrupsiyaning oldini olish borasidagi vazifalari ham faoliyatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini oldini olishga qaratilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga ixtisoslashtirilgan organlar faoliyatini yuritishda katta tajribaga ega bo'lgan Fransiya, Ruminiya, Hindiston, Koreya Respublikasi, Finlyandiya, Norvegiya, Daniya kabi qator mamlakatlar mavjud. Masalan, bunga Fransiyada Fransiya Adliya vazirligi shafeligida korrupsiyaning oldini olish bo'yicha idoralararo organ bo'lgan Markaziy xizmatning tashkil etilishi mantiqiy javob bo'ladi. Finlyandiyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan Adliya ombudsmani shug'ullanadi, u Finlyandiya Prezidenti tomonidan tayinlanadi va boshqa davlat organlaridan mutlaqo mustaqil hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish organining samarali faoliyatida mahalliy bo'linmalarning roli muhim ahamiyatga ega. Xususan, Germaniya va Avstriya tajribasi ham korrupsiyaga qarshi kurashishda mahalliy tuzilmalarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Germaniyaning davlat apparatida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining asosiy bo'g'ini, bu federal va yer vazirliklari, idoralaridagi korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maxsus bo'linmalar (odatda bo'limlar)dir. Avstriyada korrupsiyaga qarshi kurashish bilan maxsus prokuratura shug'ullanadi. Uning shtab-kvartirasi Vena shahrida bo'lib, Avstriyaning barcha yirik shaharlarida o'z filiallariga ega.

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ixtisoslashtirilgan organ vakolat, hokimiyat organlari tuzilmasidagi qoidalar, muassasa rahbarini tayinlash va olib

tashlash tartibi, ichki tashkiliy tuzilma, vazifalar, yurisdiksiya, huquq va majburiyatlar, budjet, kadrlar tarkibini shakllantirish qoidalari (xodimlarni tanlash qoidalari, ayrim hollarda ularning immunitetlari to'g'risidagi qoidalar va boshqalar), boshqa institutlar bilan o'zaro hamkorlik qilish (ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlari), hisobdorlik hamda hisobot berish tizimi va hokazolar aniq belgilab berilgan qonunchilik bazasiga ega bo'lishi zarur.

O'zbekistonda Prezident Sh.Mirziyoev farmoni bilan tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi bevosita Prezidentga bo'ysunadi va mamlakat parlamentiga hisobdor bo'ladi. Farmon bilan Agentlikning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlari belgilandi. Jumladan, Agentlik mamlakatda korrupsiya holatini tizimli tahlil qilishni ta'minlaydi. Agentlik korrupsiyaga oid, birinchi navbatda, O'zbekistonning milliy manfaatlariga va xalqaro imidjiga zarar yetkazuvchi jinoyatlarni tergov qilish natijalarini kompleks tahlil qiladi.

Agentlikka, shuningdek, quyidagi bir qator huquqlar berildi:

- budjet mablag'larining sarflanishi, davlat aktivlarining realizatsiya qilinishi, davlat xaridlari, investitsiya loyihalarining amalga oshirilishi va davlat dasturlari bajarilishi bilan bog'liq materiallarni talab qilish, olish va o'rganish;

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiya masalalari bo'yicha murojaatlarini ko'rib chiqish hamda ularning buzilgan huquqlarini tiklash va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha choralar ko'rish;

- korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar bo'yicha ma'muriy surishtiruvlar o'tkazish;

- ijro hokimiyati va xo'jalik boshqaruvi organlari hamda ularning mansabdor shaxslari qarorlarida korrupsiya belgilari aniqlangan hollarda ularning ijrosini to'xtatish yoki bekor qilish to'g'risida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalarni kiritish.

Agentlikning ogohlantirish, taqdimnoma va murojaatlari o'n kun ichida ko'rib chiqilishi va natijalari yuzasidan yozma axborot berilishi shart.

MUHIM! O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga muvofiq, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tashkil etildi. Farmonga ko'ra, agentlik korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda maxsus vakolatli davlat organi hisoblanadi. Agentlik Prezidentga bo'ysunadi va Oliy Majlis palatalari oldida hisobdor.

ESLANG! O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan murojaatnomasida korrupsiyaning oqibatlari bilan kurashishdan ko‘ra barvaqt oldini olishga o‘tish kerakligini ta’kidlab, unga qarshi kurashishga mas’ul bo‘ladigan alohida organ tuzishni taklif qilgan edi. 2020 yilning 11 fevralida mazkur organni tashkil etish masalalari bo‘yicha Prezident raisligida yig‘ilish bo‘lib o‘tgandi.

Davlat organlari faoliyatida qonuniylikni ta’minlash jarayonidagi asosiy vazifalardan biri ham aynan korrupsiya bilan bog‘liq holatlarning oldini olish, unga yo‘l qo‘ymaslik hamda bunday salbiy illatga qarshi samarali kurash olib borishdan iboratdir.

Mazkur yo‘nalishda O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tomonidan tizimga aloqador sohalarda O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan vazifalarga muvofiq, korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, qonunchilik, xizmat intizomi, odob-axloq qoidalari va ichki tartib-qoidalarga rioya etilishini ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish va targ‘ibot tadbirlari o‘tkazilmoqda.

2020 yil 12 dekabr kuni vazirlik tizimidagi tashkilotlar, hududiy transport boshqarmalari vakillari ishtirokida "Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish" mavzusida videokonferensiya aloqa shaklida seminar-trening bo‘lib o‘tdi. Tadbirda O‘zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi, Adliya vazirligi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Hisob palatasidan vakillar ishtirok etishdi.

2020 yilda, KOVID-19 pandemiyasi jahonning boshqa davlatlari singari O‘zbekistonda ham vujudga keltirgan sog‘liqni saqlash, ijtimoiy-iqtisodiy sohasidagi muammolarning ko‘pligi inobatga olinsa, korrupsiyaga qarshi kuchli vositalar va mexanizmlarning mavjudligi har qachongidan ham muhimroqdir.

“Korrupsiya rivojlanish bo‘yicha barcha sa’y-harakatlarni susaytiradi, ammo hozirda esa har qachongidan ham ko‘proq, chunki tibbiy asbob-uskunalar yetkazib berish, vaksinalarni tarqatish va ijtimoiy himoya choralari tezda ishga tushirish jarayonlarida misli ko‘rilmagan darajada korrupsiya xavfi mavjud. Har yili jahon miqyosida korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSh dollari miqdoridagi mablag‘lar, sog‘liqni saqlash sohasidagi korrupsiya tufayli esa kamida 500 milliard AQSh dollari yo‘qotilmoqda, bu butun jahonda sog‘liqni saqlashga sarf etiladigan xarajatlarining umumiy qiymatidan ham ko‘proqdir. KOVID-19 pandemiyasi davridagi korrupsiya esa, e’tibordan chetda qolish xavfi yuqori bo‘lganlar uchun hayot va mamot masalasiga teng bo‘lishi mumkin” – deb aytadi BMT Taraqqiyot

dasturining O'zbekistondagi doimiy vakili Matilda Dimovska xonim o'zining kirish so'zi davomida.

BMT bugungi kunda butun dunyo bo'ylab mamlakatlar bilan hamkorlikda 16-BRM (Tinchlik, adolat va kuchli institutlar) ga asosiy e'tiborni qaratgan holda, tadbirkorlikda halollik va ijtimoiy hisobdorlik hamda texnologiyalar va innovatsiyalarning tegishli qo'llanilishi masalalarini KOVID-19 dan tiklanish davrida va undan so'ng ham korrupsiyaga qarshi kurashish tashabbuslari ichiga kiritish borasida ish olib bormoqdalar. Eng muhimi, mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish idoralarini qo'llab-quvvatlash va ularning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Ushbu faoliyatning umumjahon darajasidagi yo'nalishlarida ham BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi tomonidan loyihalar amalga oshirilmoqda.

MUHIM! "O'zbekistonda samarali hisobdor va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaning oldini olish" (PSEAT) loyihasi 2018 yildan buyon ishlab kelmoqda.

BMTTD, Adliya vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu o'ta muhim loyiha butun mamlakat bo'ylab korrupsiyaning ham tushunchasini ham o'zini yo'q qilish maqsadiga qaratilgandir.

Darhaqiqat, korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlarining huquqiy savodxonligini oshirish, ta'lim muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ta'lim va tarbiya masalalari Qonunning 16, 17, 18-moddalarida o'z ifodasini topgan. Chunki huquqiy ong va huquqiy madaniyati yuksak bo'lgan va huquqiy ta'lim va tarbiya jihatdan yetuk bo'lgan insonlar salbiy illat bo'lmish korrupsiyaga yo'l qo'ymaydilar. Bu borada O'zbekistonda keyingi yillarda juda katta islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bulardan xulosa qilish mumkinki, korrupsiyaning oldini olishga kompleks yondoshilmasa, bu illatni yengish juda qiyin kechadi. Faqatgina bitta sohani tanlab, bir yo'nalishda, masalan, qonunchilik yo'nalishi bo'yicha kurash olib boriladigan bo'lsa, korrupsiya zanjirini uzib bo'lmaydi.

Oldingi vaqtlardagidek korrupsiyaga qarshi kurashishni faqatgina DXX, prokuratura yoki ichki ishlar idoralarining vazifasi degan o'ylar bugun noto'g'ri ekanligini hayotning o'zi ko'rsatib turibdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti taklifiga ko'ra, endi barcha idoralarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasini tashkil etish vazifasi qo'yilmoqda. Bosh prokuratura, Adliya

vazirligi, Hisob palatasi va boshqa manfaatdor tashkilotlar bilan birgalikda davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlarining 26 tasida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini (“komplaens nazorat”) joriy etish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqildi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda davlatimizda korrupsiyaga, korrupsiyaviy jinoyatlarga qarshi beayov kurash olib borilmoqda. Jamiyatimiz gullab-yashnashi, yanada ravnaq topishi, O‘zbekiston Respublikasi rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi uchun uning har bir sohasini korrupsiyadan holi hududga aylantirishga qaratilgan barcha chora-tadbirlarni ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish har bir O‘zbekiston fuqarosining burchidir.

Nazorat savollari:

1. O‘zbekiston BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo‘shildi?
2. Korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha Milliy reja loyihasi qachon ishlab chiqildi?
3. O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari PF- 5729 sonli Farmoni qachon qabul qilingan?
4. Farmonda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlari etib nimalar belgilandi?
5. Korrupsiyaga qarshi kurashishda aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun nimalarga e’tibor qaratish lozim
6. “Komplaens nazorat” deganda nimani tushunasiz?

TO'RTINCHI MODUL:

12-mavzu: Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.

Reja:

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.

2. Din – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat.

3. Din – ma'naviyatning muhim ildizlaridan biri. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Tayanch iboralar: din, ilom dini, ma'naviyat, ma'naviy qadriyat jamiyat va shaxs, komil inson, ijtimoiy ong, aqidalar, urf-odat va marosimlar, masjid va diniy tashkilotlar, muayyan turmush tarzi, tafakkur tarzi.

MAVZUNING MAQSADI: Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari mohiyatini ochish, dinning jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyatini tushuntirish.

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligi.

Odamzod paydo bo'lgandan boshlab bir necha million yillar o'tgan bo'lsa, shu yillar davomida din nima ekanligini bilmaganlar, nutqqa ega bo'lgach ham, o'n ming yillar davomida diniy tasavvurlarsiz yashaganlar. Hozir mavjud bo'lib turgan diniy tartiblarning ko'pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy burilishlar, tangliklar davrida shakllanganligi bejiz emas. Shunday bo'lsa-da, din ijtimoiy taraqqiyotning keyingi davrlarida faqat ijtimoiy, tarixiy va etnik hodisa sifatidagina emas, avvalo ma'naviy ehtiyoj sifatida rivojlana boshladi.

Jamiyat hayotining bir qismi bo'lgan din ijtimoiy hayotning boshqa sohalari bilan muqarrar ravishda munosabatda bo'lgan. Ularga ta'sir ko'rsatgan va o'zi ham boshqa sohalarning ta'siriga duch kelgan.

“Dinshunoslik” fanining amaliy ahamiyati, talabalarning shu sohadagi bilim doiralarini kengaytirish, ularni qiziqtirgan masalalar yuzasidan erkin fikr yuritish hamda ilmiy va diniy ta'limotlarni hozirgi fanlar va talablari nuqtai nazaridan turib o'rganishdan iborat.

“Dinshunoslik” fani dinning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi, uning ijtimoiy, gnoseologik, psixologik ildizlari, turli xil dinlar ta’limotining vujudga kelishi va shakllanishini o‘rgatuvchi fanlardan biridir.

“Dinshunoslik” fani barcha ijtimoiy fanlar singari o‘zining o‘rganish obyektiga ega. Uning predmeti dastlabki diniy tasavvurlarning paydo bo‘lishidan urug‘-qabila, milliy va jahon dinlari paydo bo‘lgan davrda yuz bergan jarayonni hamda jamiyat taraqqiyotida din bilan bog‘liq bo‘lgan barcha ijtimoiy, hodisalarni, ma’naviy omillarni – mafkura va aqidalar, urf-odat va marosimlar, masjid va diniy tashkilotlarning talab va tartiblarini o‘rganish jarayonlarini o‘z ichiga oladi.

“Dinshunoslik” fanining O‘zbekiston xalqlari tarixi bilan uzviy bog‘liqligini alohida ta’kidlash zarur. Zero, Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi umuman din, xususan islom dini tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, fan va madaniyat tarixiy taraqqiyotida keyingi ming yillikda islom ta’limotining ta’siri kuchli bo‘lgan.

O‘zbekiston xalqlari tarixi predmeti qadimgi zamonlardan hozirgi davrgacha jamiyat taraqqiyotidagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanish bosqichlarini o‘rgansa, bu jarayonning barcha jihatlarida mavjud dinlarning aralashuvi, yohud kuchli ta’siri bo‘lganligi, xususan, Markaziy Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi va hukmron mafkuraga aylanishi bu xalqlar tarixida katta iz qoldirganligini dinshunoslik fani orqali yetkazishga harakat qilinadi.

“Dinshunoslik” fanini o‘qitishning yana bir amaliy ahamiyati shundaki, mustaqillik tufayli mamlakatimizda boshlangan ijobiy o‘zgarishlar din tarixiga, u bilan bog‘liq bo‘lgan madaniy merosga xolisona obyektiv munosabatni o‘rnatish imkoniyatini yaratdi. Jumladan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning qabul qilinganligi hozirgi sharoitda demokratik va insonparvar jamiyat qurayotgan O‘zbekiston xalqlari hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘z natijasini ko‘rsatmoqda.

Dinga, diniy tashkilotlarga va dindorlarga nisbatan to‘g‘ri munosabatning qayta tiklanishi haqiqiy vijdon erkinligini amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Mustaqillikning o‘tgan yillarida urushdan keyingi davrga nisbatan bu sohada ko‘p ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, qonun doirasida diniy tashkilotlar va jamoalar uchun to‘liq erkinlik, yangi diniy jamoalarni, jumladan, masjid va madrasalarni ro‘yxatdan o‘tkazish, diniy ibodatlarni bemalol ado etish, diniy adabiyotlar nashr etish, diniy arboblarning va tashkilotlarning faoliyatiga munosabatda jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Diniy tashkilotlarning jamoat tashkilotlari, tinchlik va xayriya ishlarida faol qatnashishdan iborat huquqi kafolatlandi va ro‘yobga chiqarildi.

Dinshunoslik fani mavzulari mazmunida Sharq falsafasiga xos jihatlar ustuvor bo‘lib, ilmiy-tarixiy jarayon adolatli amalga oshiriladi. Jumladan, mavzularda Markaziy Osiyoda vujudga kelgan hamda Budda, Xristian va Islom

dinlarining jamiyat ma'naviy shakllanishiga samarali ta'sir ko'rsatganligini xolisona yoritib beriladi. Shuningdek, zardushtiylik dini ko'pxudolik, yakkaxudochilik, mazdakiylik oqimlari haqida yangi-yangi ma'lumotlar beriladi. Ayniqsa, Islom va uning oqimlari tarixiy-tadrijiy rivoji va jamiyatning ma'naviy rivojlanishidagi o'rni va roli ilmiy dalillar bilan talabalarga yetkazib beriladi.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, "Dinshunoslik" fani predmetini quyidagicha ta'riflash mumkin:

Dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.

Bugungi kunda O'zbekistonda davlat va fuqarolik jamiyati ma'naviyatining asosini fan(ilmiy falsafa) tashkil etsa, din esa jamiyatning ma'naviy-axloqiy jihatdan poklanishida bir vosita sifatida faoliyat olib borishi kerak. Ana shu mulohazalarga tayanadigan bo'lsak, "Dinshunoslik" fani barcha turdagi maktab va oliy o'quv yurtlarida mukammal o'qitilishi tarixiy zaruratdir. Bu esa:

Birinchidan, vijdon erkinligi to'g'risidagi Konstitutsion Qonunni amalga oshirishga imkon yaratadi;

Ikkinchidan, bir dinning boshqa din, bir e'tiqod egalarining boshqa e'tiqod egalariga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishini oldi olinadi;

Uchinchidan, din ma'naviy madaniyatda o'ziga xos munosib o'rin egallaydi;

To'rtinchidan, birorta din siyosiy lashtirilmay daxlsizligi saqlab qolinadi;

Beshinchidan, yoshlar dindorlikni diniy mutaassiblikdan farqlashni, bunda o'z-o'zidan diniy partiyalar tuzish behuda, zararli ish ekanligini anglab yetadilar.

2. Din – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat.

Sharq, xususan, o'zbeklar milliy tarbiyasining falsafiy, metodologik asoslarini Sharq falsafasi – dunyoni idrok qilishning sharqona "ruhi", uslubini tushunmasdan aniqlab bo'lmaydi. Bunda din o'ziga xos o'rin tutadi. Jumladan, yevropalik shaxs mohiyatini xristianliksiz, Sharq kishisining mohiyatini esa islom dinisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu kungacha dinning mazmun-mohiyatlarini o'rganishda bir yoqlamalik kasb etib kelgan bo'lsa, bugungi kunda esa dinshunoslik fani orqali yoshlarga dinning mohiyati va mazmunini mutasavvuf olimlarning dinga oid fikrlari orqali tushuntirish imkoniyatlari paydo bo'ldi.

Dinning insoniyat ma'naviyatida tutgan o'rni beqiyos bo'lib, bunda inson, uning mohiyati, milliyligi haqida mulohazalarning katta bir tajribisi to'plangan. Shunga ko'ra diniy e'tiqod orqali inson va jamiyatning ruhiyatini uyg'unlashtirib, uning tarbiyaviy ahamiyatini oshirishdan iborat.

Din muammolariga xos dastlabki g'oyalar Markaziy Osiyoda – ideizm, panteizm va boshqalar, bu o'lkada yashagan, ijod qilgan ulug' allomalar Muhammad Muso Xorazmiy, Apmad Farg'oniy, Furobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Hayyomning ijtimoiy-falsafiy qarashlarida, Ibn Rushdning "Ikki haqiqat" ta'limotida olg'a surilgan bo'lsa, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, Najmiddin Kubro, Bohouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijdivoniy, Xoja Ahror Valiy kabi bir qator mutasavvuf olimlarning asarlarida islom dinining jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy taraqqiyotidagi ahamiyati atroflicha yoritib berilgan. Bu esa ilmiy dinshunoslik doirasida yangi oqim, yo'nalish va nazariyalar yuzaga kelishiga katta turtki bo'lgan.

Olimlarning dinshunoslik sohasidagi izlanishlari muhim xulosalar chiqarishga olib kelgan:

- birinchidan, har qanday din ijtimoiy hodisa fenomen hisoblanib, diniy ong ijtimoiy ong shakllaridan biridir;

- ikkinchidan, diniy tasavvur va e'tiqodlar jamiyat taraqqiyotining muayyan ijtimoiy sharoitlari ta'sirida turli-tuman shakl kasb etgan;

- uchinchidan, ibtidoiy diniy tasavvurlardan tortib jahon dinlarigacha bo'lgan dinlar evolyutsiyasini e'tirof etish dinshunoslik haqida to'g'ri ilmiy xulosa chiqarish imkoniyatini beradi.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, din ijtimoiy-tarixiy hodisa, kishilik jamiyati taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan ijtimoiy ong shakllaridan biri bo'lib, uning asosida ishonch, e'tiqod tuyg'usi yotadi. Shunga ko'ra, mazkur fan orqali talabalarni din va diniy ta'limotlarning diniy talqinidan tashqari ilmiy tushuncha, ta'limot, nazariya, falsafiy xulosalar bilan qurollantirish katta ahamiyat kasb etadi. Hozirgi zamon fani yutuqlari asosida dinning kelib chiqishi, evolyutsiyasi, hozirgi holati, insoniyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotida tutgan o'rni haqidagi ilmiy-nazariy ta'limotlarni berib borish dinshunoslik fanining asosiy maqsadlaridan biridir. Shuningdek, niderlandiyalik faylasuf olim B.Spinoza (1632-1677) dinning vazifasiga ta'rif berib, "Dinning maqsadi narsalarning tabiatini bilish emas, balki kishilarni faqat axloqiy hayot kechirish tarzida yashashga undashdir", degan edi.

O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda VIII asrdan boshlab islom yagona hukmron dinga aylanganligi, xalqimiz turmush tarziga chuqur kirib borganligini hisobga olib, uning shaxs, oila, jamiyat hayotida tutgan o'rni, madaniyat va ma'naviyat, san'at va adabiyotni boyitishga qo'shgan hissasi xususida talabalarni ilmiy-falsafiy bilimlar asosida fikr yuritishga o'rgatish lozim. Shuningdek, "Dinshunoslik" fani orqali talabalarda ibtidoiy dinlardan tortib to jahon dinlarigacha bo'lgan dinlarning shakllari, ta'limotlari, yo'nalish va oqimlari

mazhab va sektalari haqida umumiy ilmiy tasavvur hosil qilish orqali o'zlari mustaqil falsafiy xulosalar chiqara olish malakasini hosil qilishdan iborat.

Shu bilan birga talabalarga dinlarning, jumladan, islom dinining kompensatorlik (ovutuvchi) – to'ldiruvchilik, tasalli beruvchi, integrativ (birlashtiruvchilik), regulyativ(nazorat qiluvchilik), kommunikativ (aloqa bog'lovchilik), legitimlovchilik (qonunlashtiruvchilik) kabi 5 ta asosiy funksiyasi borligi haqida ma'lumot berishni taqozo etadi.

Talabalar bilishi lozim bo'lgan dinning besh funksiyasining qisqacha ta'rifi va tavsiflari quyidagilardan iborat:

*Birinchi*dan, har qanday din o'z dinidagilar uchun to'ldiruvchi, ovutuvchi(kompensatorlik) vazifasini bajaradi. Masalan, insonda diniy ehtiyoj hosil bo'lishini olib qaraylik. U o'z hayoti, turmush tarzi, tabiat va jamiyat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida shaxsiy va ijtimoiy ehtiyoj, maqsadlarga yetishishi qiyin, ilajsiz bo'lib ko'ringanda, bunday ma'naviy ehtiyoj vujudga kelgan. Chunki inson hayotida quvonchli yoki tashvishli onlarda, orzular ro'yobga chiqishi ilajsiz bo'lgan paytda insoniyatning dinga ehtiyoji jamiyat bo'lib yashash talablarida boshlangan; din bu o'rinda ma'naviy ehtiyojni qondiruvchi, tasalli beruvchilik vazifasini bajargan.

*Ikkinchi*dan, dinlar o'z ta'limot tizimini vujudga keltirib, unga e'tiqod qiluvchi shaxs va jamoani shu ta'limot doirasida saqlashga harakat qiladi. Buni dinlarning birlashtiruvchilik(integrativlik) funksiyasi deyiladi. Bunda din muayyan ijtimoiy, etnik va ma'naviy hayotning o'z ta'siri doirasida bo'lishini ko'zda tutadi. Masalan, islom o'tmishda Markaziy Osiyo xalqlarining ijtimoiy hayoti, axloqiy munosabatlari, hattoki adabiyot va san'atiga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Bular orqali elat va xalqdarda turli xil birlashtiruvchi munosabatlar qaror topgan.

*Uchinchi*dan, din dindorlar hayotini tartibga solish, nazorat qilish (regulyativlik) funksiyasini ham bajaradi. Har qanday dinlarning muayyan urf-odat, marosim va bayramlari bo'lib, ularni o'z vaqtida, diniy ta'lim va talab asosida bajarilishi shart qilib qo'yiladi.

*To'rtinchi*dan, din dindorlarning birligini, jamiyat bilan shaxsning o'zaro aloqasini ta'minlovchi xususiyat – aloqa bog'lashlik vazifasiga ham egadir. Bunda ma'lum bir dinga e'tiqod qiluvchi kishi shu dindagi boshqa kishilar bilan bog'liq bo'lish, urf-odat va ibodatlarni jamoa bo'lib ado etish ko'zda tutiladi. Cherkov, masjid va diniy tashkilotlar dinning bu funksiyasini amalga oshirishga ko'maklashadi, ayni paytda, bu holatni nazorat kiladi.

*Beshinchi*dan, har qanday din ijtimoiy tizim sifatida muayyan cheklovlarsiz bo'la olmaydi. Shuning uchun u qonun darajasiga ko'tarilgan axloq normalarini ishlab chiqadi. Bu bilan u legitimlovchilik-qonunlashtiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Har qanday dinning muayyan tarixiy sharoitda bajaradigan funksiyalari yig'indisi uning ijtimoiy rolini belgilaydi. Dinning ijtimoiy hayotga ta'siri hamma vaqt ham bir xil bo'lgan emas. U vaqtga, o'ringa, sharoitga qarab sezilarli darajada o'zgarib boradi.

Yuqoridagi maqsadlarni amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonun, Jinoyat, Fuqarolik, Oila, Yoshlar kodekslaridagi din va vijdon erkinligi haqidagi ko'rsatmalar, qoidalar dasturul amal bo'lib xizmat qiladi.

"Dinshunoslik" fanining vazifalari:

birinchidan, talabalarga fan doirasiga kirgan masalalarni tahlil etishda ilmiylik va obyektivlik uslubini qo'llash, ularga diniy qarashlar taraqqiyotiga, inson kamolotiga xizmat qiladigan jihatlarini ajratib olish, mustaqil fikr yuritish orqali ilmiy-falsafiy dunyoqarashga asoslangan diniy va dunyoviy iymon va e'tiqodni shakllantirish;

ikkinchidan, ibtidoiy din shakllaridan tortib, to urug' qabila va milliy dinlargacha, ularda jahon dinlarining paydo bo'lishi va rivojlanishining ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini tarixiy dalillar asosida har tomonlama ilmiy tahlil qilish va umumlashtirish;

uchinchidan, fanni o'rganish jarayonida dinning ta'rifi, tavsifi, diniy va ilmiy kategoriya(asosiy tushunchalar), dinning mohiyati va uning kishilik jamiyati tarakqiyotida tutgan o'rni; jamiyatni, shaxsni ma'naviy kamol topishida milliy va diniy qadriyatlarning ahamiyati; islom dinining Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyati va ma'naviyatiga ta'siri kabi masalalarni falsafiy tahlil qilish;

to'rtinchidan, talabalarga islom manbalari – Qur'oni Karim, Hadis, shariat haqida umumiy ilmiy tushunchalar berish, uni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shgan olimlarning hayoti va ijodi bilan tanishtirish; hadislarning tarbiyaviy ahamiyatini keng yoritish; tasavvuf ta'limotini takomillashtirishda hamyurtlarimiz ijodini bayon etish;

beshinchidan, hozirgi davrda mustaqil mamlakatimizda vijdon erkinligining to'liq kafolatlanganligini isbotlab berish, islomdagi real qadriyatlarni tiklash yo'lida qilinayotgan sa'y-harakatlarni tavsiflash, nihoyat, milliy va diniy qadriyatlarning sog'lom avlodni, jumladan, talabalarni kamol toptirishdagi ahamiyatini yoritish, ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdan iborat.

3. Din – ma'naviyatning muhim ildizlaridan biri. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi, komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

Din tarixida dinshunoslar dinning paydo bo'lishini turlicha izohlab kelganlar. Uning paydo bo'lish sabablari qadimgi dunyo dinshunoslarini ham qiziqtirgan,

binobarin, unga javob topishga harakat qilishgan. Qadimgi Xitoy, Hindiston va xususan, qadimgi grek faylasuflari borliq to'g'risida fikr yuritganlarida din, uning kelib chiqishi va mohiyati to'g'risida ham ayrim g'oyalarni olg'a surganlar.

Din tushunchasi o'zbek tiliga arab tilidan kirib kelgan bo'lib, e'tiqod, ishonch, inonmoq, itoat degan ma'nolarini bildiradi. Bizning fikrimizcha, din real voqelikdagi, ijtimoiy hayotdagi narsa va hodisalarni tabiatdan, jamiyatdan tashqarida mavjud deb hisoblaydigan, ularni o'ziga xos tarzda aks ettiradigan ma'naviy e'tiqod va amalning bir turidir.

Insoniyat tarixida din turli shakllarda namoyon bo'lgan. Dinning dastlabki ko'rinishlari fetishizm, totemizm, animizm, sehrgarlik kabilar bo'lganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan. Shuningdek, urug'-qabila va milliy dinlari bo'lgan sintoizm, hinduizm, yahudiylik, konfutsiylik, zardushtiylik, jahon dinlaridan buddizm, xristianlik, islom vujudga kelgan.

Turli dinlarga xos xususiyatlar, chunonchi, hududiylik(sintoizm) – asosan Yaponiya hududida tarqalgan, hinduizm – Hindistonda, islom, buddaviylik, xristianlik dini esa barcha qit'alarda shakllangan. Shuningdek, yahudiylik 3000 yildan ko'proq, xristianlik 2000 yilga yaqin, islom XV asrdan buyon mavjud bo'lib, ijtimoiy taraqqiyotda diniy va axloqiy muammolarni hal qilishda faoliyat olib bormoqdalar.

Inson jamiyati sodda bo'lgan davrlarda diniy hukmlar ham bir muncha yengilroq bo'lgan. Shunday bo'lgan bo'lsa-da, davrlar o'tgan sari din insoniyatni asta-sekinlik bilan tarbiyalab va o'zi ham mukammallashib borgan. Tarixdan ma'lumki, bir dinning vazifasi bitgandan keyin uning hukmini bekor qilib, o'rniga hukmlari mukammalroq bo'lgan din kelgan. Jumladan, Islom dini ana shunday mukammal dinlardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Arab istilochilari O'rta Osiyoni egallab olgandan so'ng islomni joriy qilish bilan o'z yozuvlarini ta'lim-tarbiya, odob-axloqlarini va shu bilan birga arab madaniyatini olib keldilar. Islomgacha bo'lgan dinlar bilan bog'liq yozuvlarni, toat-ibodat buyumlarini yo'q qilishgan. Ibodatxonalar o'rniga masjidlar qurilgan, arab alifbosiga asoslangan yozuv kiritilgan. Davlat tili, ilmiy til, asosan, arab tili hisoblangan. Bu haqda Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida yozishiga ko'ra, Xorazmda arab lashkarboshisi Qutayba islomgacha bo'lgan din bilan bog'liq yozuvlarni yaxshi biladigan va o'z bilimini boshqalarga o'rgatadigan kishilarni halok etib, bu yozuvlarni butunlay yo'q qilib yuborgan.

Mustaqillik tufayli jamiyatda dinni, ma'naviy hayot tarixini yoritishga yangicha munosabat vujudga keldi, o'tgan davr mutafakkirlarining, jumladan, mutasavvurlarning madaniy-ma'naviy va diniy merosini har tomonlama o'rganish uchun qulay sharoit yaratildi.

Asrlar mobaynida xalqimizning yuksak ma'naviyat, adolatparvarlik, ma'rifatparvarlik kabi ezgu fazilatlari Sharq falsafasi va islom dini ta'limoti bilan uzviy ravishda rivojlandi va o'z navbatida bu falsafiy-axloqiy ta'limotlar ham xalqimiz dahosidan bahra olib boyib bordi. Bu borada buyuk ajdodlarimiz Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Najmiddin Kubro, Xoja Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassaviy, Abdulxoliq G'ijdivoniy, Xoja Ahror Valiy, Xorazmiy, Beruniy, Ibn sino, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Boburlarning jahon sivilizatsiyasi, shuningdek, O'rta Osiyo ilm-fan va islom dini taraqqiyotiga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Muayyan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va g'oyaviy sabablarga ko'ra diniy dunyoqarashlar to'la hukmron bo'lgan sharoitlarda har qanday ilg'or tabiiy, ilmiy, jumladan, falsafiy qarashlar ham diniy qarashlarni, ularning mavjudlik sabablarini, mohiyati masalalarini chetlab o'ta olmagan, lekin ularning din haqidagi qarashlari ruhoni va ulamolarning rasmiy qarashlaridan jiddiy farq qilgan. Biz bu vaziyatni Farobiy va Beruniyning dinga bo'lgan munosabatlarida ko'rishimiz mumkin.

Forobiyning dinga munosabati asosan uning "Fozil shahar aholisi haqida kitob" risolasida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham falsafa kabi voqelikni o'rganishga qaratilgan, Bu falsafa moddiy olamni bilish, sabab, oqibat bog'lanishlarini aniqlash orqali o'rganadi. Din esa voqelikka bu uslub bilan emas, balki tasvir (obrazli), ramziy, majoziy, qiyosiy tasavvurlardan foydalanish orqali e'tiqod qilishga chaqirish yo'li bilan yondashadi. Demak, din voqelikni, sabab va oqibat bog'lanishlarining moddiy asosini o'rganmasdan izohlashga kirishadi. Ayni zamonda voqelikni falsafiy bilish, o'z mohiyatiga ko'ra, diniy bilishdan ustuvordir.

Beruniyning dinga munosabati uning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" va "Hindiston" asarlarida bayon qilingan. Uning fikricha, din ham bilim bo'lib, bunday bilim voqelikdagi narsa va hodisalarni dalillar orqali isbotlash bilan o'rganish mumkin bo'lmagan joyda qo'llaniladi. Diniy bilim isbotsiz e'tiqodga, ilmiy bilim esa dalillashga, isbotlashga asoslanadi. Beruniyning o'zi esa butkul dalillarga asoslangan bilimlar bilan shug'ullangan. U moddiy olam haqidagi ilmiy masalalarni hal qilishda dinning ta'sirini cheklashga intilgan. Farobiy va Beruniy dinga bunday yondashishlari orqali ilmiy bilimni din ta'siridan xalos etishga g'oyat o'rinli harakat qilganlar. Ular dinga emas, unga singib qolgan mutaassiblikka qarshi chiqqanlar.

Dinning paydo bo'lishi va rivojlanishini ilmiy asoslarda o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunda quyidagi: a) obyektivlik; b) muayyan tarixiy sharoitni hisobga olish; v) ilmiylik; g) qiyosiylik; d) umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liqlik, ye) din mavjudligini, umuman gnoseologik, ijtimoiy-iqtisodiy va psixologik sabablarni hisobga olishni taqozo etadi.

Shuni alohida ta'kidlash o'rinliki, ilohiyotga doir adabiyotlarda din so'zi ko'pincha islom so'ziga sinonim sifatida qo'llaniladi.

Islom dini va uning yozma manbalari paydo bo'lgandan keyin bir qator mamlakatlarda, xususan, Movarounnahrda rivojlandi. Islom tarixi va Qur'onni o'rganish Yevropada IX asrdan boshlangan. Amerika, Yevropa va Rossiya islomshunoslari olib borgan tadqiqotlarning ko'pi, shuningdek, ma'lumotlarning boyligiga qaramay, ular ma'lum darajada cheklangan.

Mustaqilligimizning sharofati bilan islom dinini har tomonlama chuqur va puxta o'rganish, uning asoslari, ahkomlari, jahon madaniyatining yuksalishiga qo'shgan ulkan hissasini tadqiq qilish va natijalarini keng jamoatchilikka yetkazish masalalari amalga oshirila boshlandi.

Din jamiyat, ayrim guruh va shaxslar hayotida rang-barang vazifalarni bajaradi. Jumladan, insonga Xudoni va uning payg'ambarlarini tanitish, olamning doimiy manzarasini yaratish, tabiat, jamiyatda va insonning mohiyatini tushuntirish, yagona e'tiqoddagi kishilarning xatti-harakatlarini tartibga solish, diniy birodarlikni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlash, turli diniy e'tiqodga amal qiluvchilarning bir-biridan farqlarini qiyoslash, diniy ahkomlar, qoidalar, me'yorlar va qadriyatlar asosida ongni boshqarish, axloqiy me'yorlar asosida yosh avlodni tarbiyalash kabilar aynan dinning ijtimoiy vazifalari deyish mumkin.

Muqaddas "Avesto" kitobi ijtimoiy tadbirlar tizimi haqida fikr yuritish imkonini beradigan birinchi yozma manba hisoblanadi. Kitobdagi ezgu fikr, ezgu amal, ezgu so'z kabi g'oyalar, bevosita ijtimoiy ko'mak tizimi shakllanganligidan dalolat beradi. Unda maqsadli yordam ko'rsatish usuli sifatida xayriya oddiy fuqarolar uchun o'zini tutishning xarakterli an'anaviy qoidalari hisoblangan, ruhoniylar va diniy tashkilotlar zimmasiga esa ijtimoiy xizmatlar – qo'llab-quvvatlash, yordam ko'rsatish, xayriya tadbirlarini o'tkazish yuklangan. Hukmdorlar, boy fuqarolar, ibodatxonalar xayriya tushliklarini uyushtirgan hamda faqir va nochor hamyurtlariga xayr-ehson tarqatganlar. Jamoalarda umumiy jamoaviy jamg'arma hisobidan muhtoj oilalarga va yetimlarga moddiy yordam berish tashkil etilgan.

O'rta Osiyoda musulmon ruhoniylarning ijtimoiy hayotdagi faoliyatini alohida baholash zarur. Chunki ular masjidlarga hamda ijtimoiy-diniy hamjamiyatlarga ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va ko'mak berish vazifalarini bajarganlar. Islomda ijtimoiy yordam turlari yakka tartibdagi hamda jamoaviy shakllarga bo'lingan. Islom dinida har kim o'ziga buyurilgan farzlarni bajarishlari yakka tartibdagi yordamning eng keng tarqalgan shakli hisoblangan. Jumladan, xayr-ehson tarqatish, muhtojlarga, yetimlarga moddiy yordam berish kabilar kiradi.

Hashar esa – jamoa yordamida xayr-ehson tarqatish, tibbiy ko‘mak berish, maxsus bepul shifoxonalar ochishga ko‘maklashish, yetimxonalardan xabar olib turish kabilar jamoaviy yordam shakllari orasida keng tarqalgan turi hisoblanadi.

Yordam berishga intilish insonga xos fazilat ekanini qayd etish zarur. Insonning diniy burchi, muhtojlarga insonparvarlik xizmatlarini ko‘rsatish tizimi sifatida ijtimoiy yordam va xayriya barcha dinlarning asosida yotadi.

Xristian dini tarqalishi bilan ijtimoiy maqsadlarga doir normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. 347 yilda Sadduqiy bosh cherkovida (G‘arbiy va Sharqiy Rim imperiyasi chegarasida) faqirlar, yetimlar, bevalar va musofirlarga yordam ko‘rsatish bo‘yicha o‘n ikkita qoida qabul qilindi. Shu bilan birga unda xayr-ehsonlar tarqatishda, faqirlarni ovqat bilan ta‘minlashda o‘z aksini topgan boshpana va oziq-ovqat berish tizimi ustuvor o‘rin egallaydi.

Diniy tashkilotlar faqat diniy ijtimoiy vazifalarnigina bajarib qolmasdan, balki ular azaldan ma‘naviyatimizning tarkibiy qismi sifatida kishilarni, shu jumladan, yoshlarni ma‘naviy-axloqiy jihatdan barkamol bo‘lishiga hamda ezgulikka intilib yashaydigan yetuk inson qilib voyaga yetkazishda beqiyos ahamiyatga ega.

Din – ma‘naviyatning muhim ildizlaridan biri. Mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov yangi jamiyatni barpo etishda ideal maqsadlarning jamiyat taraqqiyoti, uning ma‘naviy takomilidagi ahamiyati haqida to‘xtalib, ma‘naviyatni shakllantirishda milliy tarixiy turmush tarzimiz, xalqimiz urf-odatlar va kishilarning fikrlash tarzini hisobga olish zarurligini ta‘kidlagan edi. Haqiqatan ham ana shu uch omilda kishilar uchun kerak bo‘lgan ma‘naviyatning muhim ildizlari ifodalangan. Shuningdek, “...ma‘naviyatning yuksalishi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan yana bir mezon – muqaddas dinimiz”dir. Ana shu jihatdan kelib chiqib, dinni ham ma‘naviyatning muhim ildizlaridan biri sifatida e‘tirof etish mumkin.

Binobarin, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida qayd etilganidek, “Jaholatga qarshi ma‘rifat ulug‘vor g‘oya asosida dinning asl insonparvarlik mohiyatini, ezgulik, tinchlik va insoniylik kabi fazilatlar azaliy qadriyatlarimiz ramzi ekanligini keng yoritish va bu sohadagi ilmiy-ma‘rifiy faoliyatni jadal tashkil etish.

Islom va jahon sivilazatsiyasiga bebaho hissa qo‘shgan ajdodlarimizning boy madaniy merosini chuqur o‘rganish asosida yoshlarning ongu-tafakkurini shakllantirish.

Dinni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadigan buzg‘unchi yot g‘oyalarning asl mohiyati va maqsadlari haqida aholining, ayniqsa, yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish.

Jamiyatda milliy va diniy qadriyatlarimizga yot bo'lgan g'oyalarga nisbatan toqatsizlik muhitini shakllantirish. Jamiyatda bag'rikenglik, o'zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlash.

Diniy va dunyoviy bilimlar uyg'unligini rivojlantirish asosida ta'lim sifatini oshirish, diniy-ma'rifiy sohada malakali kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishning yaxlit tizimini yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Bugungi kunda islom diniga nisbatan butun dunyoda qiziqish va intilish kuchayib, uning xayrixoh va tarafdorlari ko'payib borayotgani hech kimga sir emas. Buning asosiy sababi muqaddas dinimizning haqqoniyligi va pokligi, insonparvarligi va bag'rikengligi, odamzodni doimo ezgulikka chorlashi, hayot sinovlarida o'zini oqlagan qadriyat va an'analarni ajdodlardan avlodlarga yetkazishdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bilan bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, muqaddas dinimizni pok saqlash, uni turli xil g'arazli xuruj va hamlalardan, tuhmat va bo'htonlardan himoya qilish, uning asl mohiyatini unib-o'sib kelayotgan yosh avlodga to'g'ri tushuntirish, islom madaniyatining ezgu g'oyalarini keng targ'ib qilish bugungi kunda hamon dolzarb bo'lib turibdi.

Nazorat savollari:

1. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni.
2. Dinshunoslikning ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan aloqadorligini nimada deb bilasiz?
3. Din – ijtimoiy ong shakli, muayyan turmush va tafakkur tarzi, ma'naviy qadriyat ekanligini tushuntirib bering.
4. Din – ma'naviyatning muhim ildizlaridan biri deganda nimani tushunasiz?
5. Dinning jamiyat va shaxs ma'naviyatini yuksaltirishdagi hamda komil insonni tarbiyalashdagi ahamiyati.

13-mavzu: Urug'-qabila va milliy dinlar

Reja:

1. Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Ilk tabu (ta'qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shamonlik, magiya (sehrgarlik).
2. Iudaizm – yahudiy milliy dini. Yahudiylik ta'limoti. Hinduiylik.
3. Konfutsiylikda ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daosizm – falsafiy ta'limot. Yapon milliy dini – sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

Tayanch iboralar: totemizm, animizm, fetishizm, shamonlik, magiya (sehrgarlik), Iudaizm – yahudiy milliy diniy, yahudiylik ta'limoti, Talmud, Bibliya, hinduiylik, jaynizm, sinkxiylik, konfutsiylik, daosizm, sintoizm, shomonlik.

MAVZUNING MAQSADI: Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi tushunchalari, jahon dinlarining mazmun-mohiyati va ularning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini , mohiyatini ochish.

1. Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari va ulardagi diniy tasavvurlarning xilma-xilligi. Ilk tabu (ta'qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shamonlik, magiya (sehrgarlik).

Jahon dinlari paydo bo'lmagan oldin kishilik jamiyatining eng qadimgi, ya'ni endigina urug'chilik tuzumi shakllanayotgan ana shu davrlarda totemizm, animizm, fetishizm, shomonizm, magiya (sehrgarlik) kabi diniy tasavvurlar yuzaga kelaboshladi.

Totemizm – hindlar tilidagi “O totem”(uning urug'i) degan ma'noni anglatgan. Totemizm ibtidoiy g'oyat sodda diniy e'tiqodning bir turi sifatida qadim zamonda urug'-qabila a'zolarining o'zlarini kelib chiqishlarini muayyan bir hayvon, o'simlik bilan bog'laganlar hamda ular ana shu hayvon va o'simliklarni muqaddaslashtirishgan. Shunga ko'ra totemizm muayyan kishilar guruhining tabiat, binobarin, tashqi muhit bilan bog'liqligini ifodalovchi dastlabki shakllardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Totemizm e'tiqodlari tub avstriyaliklarda keng saqlanganligini ularning urug'lari nomlaridan payqash mumkin. Ular urug'larni konkret hayvonlar (kengru, oq ho'kiz, kora ho'kiz kabi yoki ayrim o'simliklar) nomi bilan ataganlar. Totemizmning elementlarini hozirgi dinlarda ham ko'rish mumkin.

Masalan, hinduizm dinida fil, sigir, maymun, ilon kabilar muqaddas hayvonlar hisoblangan. O‘zbeklarda qaldirg‘och, musicha, laylak, ko‘k qarg‘ani muqaddas qushlar deb e‘zozlash ham totemizmning ko‘rinishlaridan biridir. Markaziy Osiyo xalqlarida, shu jumladan o‘zbeklarda muchalga qarab vaqt hisobini chiqarish totem e‘tiqodi bilan bog‘liqdir. Masalan, ota-bobolarimizda odamlarning yoshini ya‘ni tug‘ilgan kundan boshlab qancha yashaganligini muchal orqali, muayyan hayvon nomlari bilan atalgan yil hisobidan keltirib chiqarish odati bo‘lgan.

Muchal mo‘g‘ul, xitoy va butun turkiy xalqlarda keng tarqalgan yil hisobi bo‘lib, unda yil oylari 12 hayvon nomi bilan ataladi: sichqon (mush), mol (gov), yo‘lbars (palang), quyon (xargo‘sh), baliq (nahang), ilon (mor), ot (asp) qo‘y (go‘sfand), maymun (hamduna), tovuq (murg‘), it (sak), to‘ng‘iz (xo‘k) shular jumlasiga kiritilgan.

Bundan tashqari xalqimiz orasida hozirgacha saqlanib kelinayotgan irimlar ham, jumladan, “Qaldirg‘och, fayzli xonadonga in quradi”, “Chumchuq urishgan xonadonda janjal bo‘ladi”, “Hakka shaqqillasa mehmon keladi” degan qarashlar ham totemizm bilan bog‘liq g‘oyalar hisoblanadi.

Animizm – (lotincha – “anima” – “jon”, “ruh” demakdir) qadimgi zamon dinlaridan biri, kishi ruhining abadiyligiga ishonishdan iborat. Animizm tabiatdagi barcha buyumlarni ilohiylashtiradi, har bir jismda ruh bor, tanadan tashqarida ham jon bor, deb hisoblaydi.

Animistik tasavvurlar barcha xalqlar tarixidagi dinlarda jon va ruh haqidagi tushunchalarning shakllanishida ma‘lum rol o‘ynab kelgan. Animizm har bir kishida uning hayoti va ongining manbai bo‘lgan jon bor, deb talqin qilgan. Dastlabki animistik tasavvur jonni soya yoki nafas bilan aynan, deb bilar edi. Masalan, Shimoliy Amerika xalqlarida soya bilan jon, qadimgi arablarda jon bilan qon, Grenlandiyada esa nafas olish bilan jon bitta nom bilan ataladi.

Jon va ruhlarga ishonish barcha dinlarga xosdir. Dindorlarning fikricha, jon barcha kishilarda bo‘lib, xudo eng oliy ruh hisoblanadi. Odam o‘lgandan so‘ng tanadan chiqib ketadigan jon bor, degan tasavvur chuqurlasha borgan. Demak, odam o‘lganda jon chiqib ketib, yashayberar ekan, uning o‘zi abadiy yashaydi degan tushuncha paydo bo‘lgan. Abadiy ruh to‘g‘risidagi tasavvur ana shu yo‘sinda shakllangan. Ruhlarga ishonish arvohlarga ishonishni keltirib chiqargan.

Qadim Turkistonda marhumning jonini, ruhini “arvoh” deb atashgan. Arvoh marhumni tashlab uzoqqa ketmaydi, qabrdan chiqib uning atrofida yuradi deb o‘ylashgan. Animizm totemizm bilan deyarli bir vaqtda shakllangan.

Xalqimiz orasida mavjud bo‘lgan “Arvoh kapalak”, “Ruhlarning salbiy yoki ijobiy kuchiga ishonish” tushunchalari ham animizmning bir ko‘rinishi hisoblanadi.

Fetishizm – (portugalcha “fetisho” – fransuz tilida “fetish” – “sehrli narsa”, degani) narsalarni g‘ayritabiiy deb ishonish hamda ularga sig‘inishni anglatadi, ya’ni fetishizm jonsiz jismlarga sig‘inish demakdir. Bunday jonsiz buyumlarga keyinchalik tumor, sanam, but kabilarni ham kiritilgan bo‘lib, ular hozirgi kunda uchrab turadi.

Ibtidoiy odam ongida har xil moddiy buyumlar – tog‘, qoya tosh, daraxt, keyinchalik turli hayvonlarning suyagi, pati, tumor, sanam va hokazolarda g‘ayritabiiy kuchlar bor, degan tasavvur paydo bo‘lgan. O‘zlari vujudga keltirgan bunday kuchlarga o‘zlari sig‘ina boshlaganlar. Ibtidoiy din shakllaridan biri bo‘lgan fetishizm barcha xalqlarda diniy tasavvurlar shakllanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

Fetishizm politeistik (ko‘p xudolik), hatto monoteistik (yakka xudolik) dinlarida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Masalan, xristianlarda krestga (butga) sig‘inish, islomda esa turli o‘simlik turlarini – sedana, ko‘ztikan, qalampirmunchoq, achchiq qalampir, isiriq, chilonjiyda, daraxtlardan – yong‘oq, chinor, archa va boshqalar muqaddaslashtirilib, boshqa buyumlarga, shu jumladan odamlarga ta’siri yoki yordami bo‘lishi mumkin degan tasavvur paydo bo‘lgan. Bunday xususiyatni tog‘- toshlarga, turli buyumlarga ham xos degan g‘ayritabiiy fikrlar shakllangan.

Fetishizm diniy ibodatning ajralmas qismidir. Hozirgi vaqtda ba’zi soddadil, mutaassiblarning turli tumor, ko‘zmunchoq va hokazolarni taqib yurishlari, daraxtlarga latta-puttalarni osishi, is chiqarishi shunday jismlarni ilohiylashtirish, ularning mo‘jizaviy kuchiga ishonish fetishizmning diniy e‘tiqoddagi eng xarakterli ko‘rinishi va qoldig‘idir.

Fetishizmni ham xalqimiz orasida saqlanib qolgan unsurlari mavjud bo‘lib, unga quyidagilar kiradi: “Ayvon ustunlariga, so‘rtoklarga, isiriq boylash, tosh, hayvon shoxlari va ustuxonlarini osib qo‘yish”, “Darvozalarga ot taqasini qoqish” va boshqalar shular jumlasidandir.

Shomonlik (shamanizm)– ibtidoiy jamoa tuzumi yemirilishi davrida paydo bo‘lgan animistik e‘tiqod va ibodatning keng doirasiga kiradigan qadimgi diniy e‘tiqodlardan biri. “Shomon” tunguscha so‘z bo‘lib, “jazavali kishi” degan ma’noni anglatadi. Bu so‘z keyinchalik butun Sibirga, so‘ngra Yevropaga tarqalib, xalqaro atamaga aylangan. Bu dinining ruhoniysi shomon hisoblanadi. Shomonlar odamlar va ruhlarni o‘rtasida vositachilik qila olish qudratiga ega bo‘lgan kishilardir. Shomonlarga, shuningdek, kelajakni oldindan aytib berish, kasalni davolash, o‘lganlarni oxiratga uzatish, tabiatda xohlaganicha o‘zgartishlar qilish kabi xususiyatlar ham xosdir.

Tajribali shomonlar odatda iste’dodli gipnozchi, folbin, ko‘zboylog‘ich, qo‘shiqchi, shoir, baxshilar bo‘lishgan. Ular bemalol ruhlarni chaqira olish

qobiliyatiga ega bo'lganlariga ishonilgan. O'tmishda shomonlarning ruh bilan aloqasi shomon do'mbirasi yoki mo'jizaviy musiqa ijrosida turli rasm-rusumlarni bajarish jarayonida jazavasi tutib, holdan toygancha bajarilgan. Shomonlik jahon dinlarining shakllanishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatgan. Shomonlik hozirgi kunda ham ba'zi joylarda uchrab turadi. Jumladan, zamonamizdagi ekstraseanslar, qasidaxonlar, folbinlar shomonlikni zamonaviy ko'rinishi hisoblanadi.

Magiya –(sehrgarlik) – insonga, hayvonga yoki tabiat hodisalariga g'ayritabiiy yo'l bilan ta'sir ko'rsatish maqsadida bajariladigan xatti-harakatdir. Magiya yolg'on va ko'zga ko'rinmaydigan sehrli aloqa va ta'sirlarning tabiatda mavjudligi ishontirish, ayrim hollarda odam bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro ta'sir o'tkazish, bir odamning ikkinchi bir shaxsga ta'sir qila bilish qobiliyatiga ega ekanligini isbotlovchi diniy e'tiqoddur.

Sehrgarlik harakatining shakllari turlicha bo'lib, ular turmushning har xil sohalarida qo'llanilgan. Shuningdek, bu amal qadim zamonlardan beri mavjud bo'lib, barcha dinlarda bor va hozirgi kungacha saqlanib qolgan. Muhabbat magiyasi, davolash magiyasi, ishlab chiqarish magiyasi, dushmani yengish magiyasi kabi sehrgarlik ibodat va harakatlar ham ancha keng tarqalgan. Mehnat bilan bog'liq bo'lgan magik harakatlar ibtidoiy odamlar hayotida alohida o'rin egallagan, ya'ni ular tirikchilikka kerak bo'lgan narsalarni topishdan oldin shu buyum yoki hodisaga bog'liq bo'lgan magik harakatlarni bajarganlar.

Ibtidoiy jamoa ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojining darajasi, pastligi, kishilar hayotining urug' va qabila munosabatlari tor doirasi bilan cheklanganligi, tabiat kuchlari oldidagi ojizlik dinning ilk shakllarida o'z in'ikosini topgan. Bu ojizlik ibtidoiy odamning sodda, yuzaki tasavvurlariga asoslangan soxta, sehrgarlik usullarni qo'llanishga majbur etgan. Ojizlik, qadimgi odamlarning har doim mo'jizaga ishonish bilan xayoldagina maqsadga erishishiga madad bergan. Buning asosiy belgisi ayrim odamlar sehrgarlar insonlar bilan ruhlar o'rtasidagi munosabatlarda vositachilik vazifasini bajara oladigan xislatlarga ega deb ishonishidir.

Sehrgarlarning ayrim vazifalarini yana bir alohida toifadagi kishilar azayimxon, shomon, duoxonlar ham bajarishgan. Kasalliklarni sehrgarlik usuli bilan davolashga urinishlar hanuzgacha Markaziy Osiyo xalqlari orasida, xususan o'zbeklarda uchraydigan ibtidoiy turmush tarzining eng turg'un bo'lagidir.

2. Iudaizm – yahudiy milliy dini. Yahudiylik ta'limoti.

Kishilik jamiyati tarixida din shakllari turli-tuman bo'lgan. Ammo har qanday din muayyan, konkret tarixiy sharoit va ijtimoiy munosabatlarga muvofiq holda paydo bo'lgan, o'zgargan hamda rivojlangan. Din shakllarini shartli ravishda uchta

asosiy guruhga bo'lish mumkin: urug'-qabila dinlari, milliy dinlar va jahon dinlari shular jumlasidandir.

Milliy dinlar deb, odatda, bir millatga mansub xalqlar e'tiqod qiladigan dinlar tushuniladi. Bunday dinlar shakllanishining dastlabki va eng so'nggi davrlarini bir-biridan farqlash lozim. Dastlabki milliy dinlar quldorlik jamiyatida vujudga kelgan bo'lib, odatda, politeistik, ya'ni ko'p xudolik dinlari bo'lgan. Masalan, qadimgi grek dini ko'p xudolikning o'zginasidir. Zevs-pantion (qadimgi grek tilida – bosh xudo) hisoblanib, bir ukasi dengiz xudosi, ikkinchi ukasi – yer osti podsholigining xudosi hisoblanar edi. Shuningdek, muhabbat va go'zallik ma'budasi, urush xudosi, quyosh xudosi va san'at homiysi va boshqa yana bir qancha xudolar bo'lgan.

Milliy dinlar elat-millat dinlari deb ham yuritilgan. Chunki ular urug'-qabila dinlaridan farqli ravishda sinfiy jamiyat qaror topishi va shakllanishi davrida vujudga kelgan va rivojlangan. Binobarin, ular avvalo elatning, so'ngra millatning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etgan.

Milliy dinlarda tasavvur qilingan xudolar milliy xudolar hisoblanib, ibodat-marosimlar asosan muayyan elat yoki millatgagina mos tushar edi. Binobarin, bu xildagi qadimgi dinlar milliy davlat xarakterida bo'lishi bilan boshqa din shakllaridan ajralib turgan.

Yahudiylik – eng qadimgi dinlardan bo'lib, eramizdan oldingi XIII asrda yahudiylarning milliy dini sifatida vujudga kelgan. Uning Xudosi – Yaxve bo'lib, bu dinning shakllanishida yahudiylarning yahudo qabilasi asosiy rol o'ynagan. Jahon dinlari qatoriga ko'tarila olmagan, ammo eng qadimgi dinlardan biri bo'lgan. Muso alayhissalom yahudiylik dinining asoschisidir.

Yahudiylikni bu nom bilan atalishi haqida M.Abduhamidov quyidagi fikrlarni bildiradi:

1. Yahudiylar buzoqqa sig'inganlaridan so'ng tavba qildilar va arab tilidagi "Hada-yahudu – tavba qilmoq" fe'lidan olingan;
2. Ya'qub payg'ambarning katta o'g'li Yahuzoga nisbat berilgan;
3. Yahudiylar tavrot kitobini o'qishda qimirlab o'qishar edi. Arab tilidagi "Yatahavvada – qimirlamoq" fe'lidan olingan. Uning paydo bo'lishi va mustaqil monoteistik din sifatida maydonga chiqishi markazlashgan yahudiy davlatining tashkil topishi bilan uzviy bog'liqdir. Shuningdek, Dovud alayhissalom markazlashgan Isroil-Yahudiya davlatiga asos solgan bo'lsa, miloddan avvalgi X asrda Yahudiy davlatining podshosi Dovud alayhissalomning o'g'li Solomon (Sulaymon) hashamatli Yaxve ibodatxonasini qurdirgan.

Hozirgi Falastin hududida qadimgi zamonlarda dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullangan ko'chmanchi yahudiy qabilalari yashagan. Bu qabilalarda din sifatida animizm, magiya, fetishizm, sehrgarlik va turli o'simlik hamda

hayvonlarga sig‘inish hukmronlik qilgan. Qadimgi yahudiy qabilalari o‘zlarini muayyan hayvonlarning nomlari bilan ataganlar. Yahudiylikning “muqaddas” kitoblar to‘plamida hayvonlarni va o‘simliklarni, tabiatdagi dahshatli, stixiyali kuchlarni, arvohlarni va boshqalarni e‘zozlash izlari bor.

Quldorlik jamiyatidagi dastlabki milliy dinlarning o‘ziga xos yana bir xususiyati oxirat to‘g‘risidagi tasavvurning paydo bo‘lishi va unga ishonishdir. Ammo bu davrda bunday tasavvurlar hali to‘la shakllanmagan edi. Ular keyingi davrlarda rivojlangan. Bu davrda qurbonlik qilish keng rasm bo‘lib, hatto majburiy marosimlardan biri hisoblangan. Xudolar yo‘lida meva-cheva, noz-ne‘matlardan tortib, uy hayvonlarining barcha turlarigacha, qadim zamonlarda esa hatto odamlar ham qurbon qilinar edi. Milliy dinlar rivojlanishining so‘nggi davrlariga kelib odamlar o‘rniga hayvonlar qurbon qilina boshlangan.

Ruhoniylar yahudiylikning obro‘cini ko‘tarish maqsadida yahudiylar “mumtoz xalq”, unga dinni xudoning o‘zi ato etgan, degan fikrni ilgari suradilar. Buning isboti sifatida ular asrlar davomida jamiyatda sodir bo‘lgan ulkan ijtimoiy o‘zgarishlar yahudiylik ta‘limotiga hech qanday ta‘sir ko‘rsatmadi, u yagona milliy dinligacha qoldi, shuning uchun uning ijtimoiy va gnoseologik ildizlari ham yo‘q, deb jar solmoqdalar. Aslida esa yahudiy xalqining ijtimoiy-iqtisodiy sharoitiga muvofiq yahudiylik, boshqa dinlar kabi, shakl va mazmunini bir necha bor o‘zgartirgan.

Yahudiylik poloteizmdan monoteizmga o‘tguncha bir qancha tarixiy jarayonni boshdan kechirgan. Bu jarayon ibtidoiy jamoa tuzumidan quldorlik jamiyatiga o‘tguncha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Mana shu tarixiy davrda yahudiy qabilalari ko‘p xudolarga e‘tiqod qilganlar. Har bir qabilaning, har bir urug‘, hatto shaharning o‘z xudosi bo‘lgan; moddiy olam hodisalarining har bir guruhi alohida xudoning nomi bilan bog‘langan. “Sening shaharlaring qancha bo‘lsa, xudolarning shahri ham shunchadir”, deyiladi Tavrot yozuvlarida. Yahudiylikda mahalliy avliyolar hisoblanmish Iso(Iisus), Navin, Ibrohim(Avraam), Is‘hoq(Isaak), Yoqub (Iakov), Yusuf(Iosif) va boshqalar. Bular boshqa dinlarda ham payg‘ambar deb tan olingan.

Yahudiylikning vujudga kelishi va ta‘limoti

Yahudiylik – eramizdan avvalgi X asrdan boshlab yahudiy qabilalari o‘rtasida sinfiy tabaqalanish ro‘y berishi va quldorlik munosabatlarining paydo bo‘lishi jarayonida mavjud qabilaviy dinlar asosida shakllangan. Ammo tarixiy fenomen sifatida yahudiylikning rivojlanishi qabilalar o‘rtasidagi munosabatlar taraqqiyoti bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, qabilaviy xudolar evolyutsiyasi natijasida yagona xudoga asos solinishiga turtki bo‘lgan. Shu bilan birga, bu jarayon o‘sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ham bog‘liq bo‘lganligini alohida ta‘kidlash o‘rinlidir.

Rivojlanishning muayyan davrida eng kuchli qabilalar xudosi boshqa qabila xudolaridan yuqori turuvchi bosh xudo hisoblana boshlagan. Falastindagi Ruvim, Simon, Levin va Iuda singari eng mashhur qabilalar obro'si ko'tarilib, ularning orasida Iuda qabilasi kuchli hisoblanganligi uchun ham bu qabilaning obro'si juda oshib ketgan, natijada uning xudosi Yaxve esa barcha xudolardan yuqori turuvchi yakka hukmron xudo sifatida qabul qilingan. Bunga qadar poloteizmda Yaxve tog'-tosh, chaqmoq, momaqaldiroq va suv xudosi sifatida tasvirlangan. Quldorlik davlatining barpo etilishi va rivojlanishi yahudiy qabilalarini yaqinlashish va birlashishiga olib keldi.

Yahudiy davlati vujudga kelishi bilan yahudiy qabilalari o'zlarini yerda hukmdor deyish bilan cheklanmasdan, yagona xudoni ham osmon hukmdori sifatida ham tasvirlay boshlaganlar. Shu tariqa Yaxvedan boshqa xudolarga e'tiqod qilishga barham berilgan. Ilgarigi qabila xudolaridan biri bo'lgan Yaxve yakka deb e'tirof etilgan. Quddus(Ierusalim) shahrida markaziy ibodatxona qurilgan va yahudiy milliy-davlat dini vujudga kelgan. Yahudiylik monoteizm sinfiy munosabatlar bilan bevosita bog'liq ravishda yuzaga kelganligi uchun jamiyat hayotidagi tengsizlikni oqlagan. Shunday qilib, yahudiylikning rivojlanishi va bu din ta'limotining vujudga kelishi uzoq davrlarni o'z ichiga olgan. Shulardan dastlabkisi Bibliya davri, deyiladi. Bibliya tekstlari bir necha yuz yillar davomida yuzaga kelgan. U ikki qismdan – Qadimiy ahdnoma(Vetxiy zavet) va Yangi ahdnoma(Новый zavet)dan iborat. Yahudiylik ruhoniylari Yangi ahdnoma tannax deb ataydilar. Yahudiylik tarafdorlarining fikricha, tannaxni xudo – Yaxve “muqaddas yozuvlar” sifatida yahudiylarga yuborgan. Aslida esa Yangi ahdning mualliflari uni yozishda qadimgi Sharq xalqlarining turli diniy e'tiqod va tasavvurlari, tarixiy hikoyalar va afsonalar, mif va diniy-falsafiy qarashlar, muhabbat qissalari va boshqa shunga o'xshash manbalardan foydalanganlar.

Quldorlik tuzumi davrida yahudiylar davlati Assiriya, Vaviloniya va yunonlar tomonidan bir necha bor bosib olinishi tufayli yahudiylar Falastinni tashlab ketishga majbur bo'ldilar. Eramizning 70-yillarida rimliklar yahudiylarning diniy markazi Quddusi sharif ibodatxonasini buzib tashlaganlar. O'z ibodatxonasidan mahrum bo'lgan yahudiylar turli joylarda mahalliy yig'ilishlar – sinagogalar tashkil etadilar. Mazkur Sinagogalarda to'plangan yahudiylar bu yerda faqat diniy marosimlarni bajo keltirish bilangina shug'ullanib qolmaganlar. Balki, sinagogalar ayni paytda, yahudiy jamoasining o'z-o'zini boshqarish tashkiloti vazifasini ham o'tagan.

Yahudiy diniy yozuvlari asosan 2 qismdan: Tavrot va Talmuddan iborat. Yahudiy dinida muqaddas hisoblangan Tavrot eramizdan ilgarigi ming yillik ichida shakllangan 5 ta kitobdan iborat. Tavrotni sharhlash natijasida avvalo,

Mishna, so'ng Gemara paydo bo'lgan. Ularni qo'shishdan vujudga kelgan risolalar to'plami Talmud deb atalgan.

Talmud – yahudiylik (iudaizm) dinining Tavrotga sharhlar berilgan diniy ko'rsatmalar to'plamidir. Unda oxirat, qiyomat, marhumlarning tirilishi va u dunyodagi ajr haqida yozilgan, yahudiylik diniy marosimlarining me'yorlari aks ettirilgan. Talmudda 248 ta amri-ma'ruf (yaxshi ishlarga undash) va 365 ta nahiy munkar (yomon ishlardan qaytarish, ta'qiqlash), jami 613 ta qonun-qoidalar, targ'ibotlar, ko'rsatmalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, kitobda diniy qonunchilik me'yorlari – jinoiy, fuqarolik va oilaviy huquq me'yorlari ham yozilgan.

Yahudiy dinidagi asosiy aqida yakka xudo – Yaxvega e'tiqod qilishdir. Diniy aqidalarida yozilganidek, zamona oxir bo'lgach, Yaxve o'z elchisi Mahdiy (Messiya)ni yuborib, "mumtoz xalq"ni dunyoga hukmron qilarmish. Yahudiylikda mahdiylik g'oyalariga keng o'rin berilgan. Muso xudoning amrini yerga yetkazib turuvchi payg'ambar tariqasidagina emas, balki insonlarni yovuzlikdan, gunohdan saqlash maqsadida xudo yerga yuborgan vakil sifatida ham tasvirlangan.

Yahudiylikda murakkab urf-odat va marosimlar bo'lib, uning ta'limotini muhim aqidalaridan biri kishilarni azob-uqubatlardan qutqarish bilan yurtda adolat o'rnatib, olamni yangilovchi Maxdiyning kelishini kutishdir. Yahudiylik ta'limoti inson hayotini 600 turdan ziyod toat-ibodat, urf-odat bilan bog'laydi.

Yahudiylikning asosiy aqidalari orasidagi eng muhimlari – monoteizm – yagona xudo bo'lmish Yaxvega e'tiqod; xaloskorlik – xudo tomonidan yuboriladigan xaloskor Mahdiyga ishonch; bu xaloskor dunyoni qayta qurar va butun yahudiylarni Falastinda Sinion(Quddus yaqinidagi tepalik) atrofiga to'plashi va ularning dushmanlarini jazolashi, narigi dunyoga ishonch, oxiratda har kimning o'z qilmishiga yarasha ajrini topishi, jannat va do'zaxlarning mavjudligiga, dunyoning oxiri borligiga, muqaddas kitoblarning benuqsonligi kabilarga ishonishdir.

Ilohiyotchilar fikriga binoan, Bibliyaning birinchi besh kitobi bo'lmish Tavrot (aynan tarjimai qonun, Musoning besh kitobi) yahudiylarga yetkazish uchun Muso payg'ambarga xudo Yaxvening shaxsan o'zi Sinion tepaligida bergan. Bibliyaning boshqa qismlari esa (Kadimgi ahdga taalluqlisi) xudoning bevosita pand-nasihatlarini ta'siri natijasida yahudiylarning boshqa turli payg'ambarlariga yuborilgan deb tushuniladi. Shunday qilib Bibliyani shakllanishi uzoq davrni o'z ichiga oladi.

Markaziy Osiyoda yashayotgan yahudiy dindorlari orasida asosan, ortodoksal shakldagi yahudiylik mavjud va ular shartli ravishda etnik ko'rinishlar tartibiga muvofiq to'rt xil; yevropa, buxoro, gruzin, tog'li yoki tat yahudiylariga bo'linadi.

Bu joylardagi yahudiylarning asosiy qismi, keyinchalik ular Buxoro yahudiylari nomini olgan. Buxoro yahudiylari asosan sosoniylar davrida Marv va

Eron orqali kirib kelganlar. Bunga ularning kadimgi Fors lahjalarining tojik shevasidan biri bo‘lmish tili, shuningdek, ayrim eroniy odatlari hamda hozirgi kungacha saqlanib qolgan elatlar madaniyatining birgina obidasi bo‘lgan – yahudiylarning lug‘ati 1327 yil Urganchda yozib tugatilganligi bundan dalolat beradi. Buxoro yahudiylari o‘zlarining etnik xislatlarini hammadan ko‘proq aniq saqlab qolgan yahudiylardir. Bularga Bibliya yahudiyligining asoslari oilaviy-maishiy tartibdagi patriarxal odatlar bo‘lmish “xaliso” - “to‘rt tirsak”, “ketuba”, “kadish” o‘n kishidan kam bo‘lmagan dindoshlar ishtirokida vafot etgan ota-onaga bag‘ishlangan xotira ibodatlari kiradi. Ehtimol, ko‘p asrlar mobaynida ular yo‘qotgan asosiy narsa, faqatgina diniy ibodatlarda saqlanib qolgan va juda oz, tor darajadagi kishilar – ravvinlargina biladigan, qadimgi yahudiy tili bo‘lsa kerak.

Tat yahudiylari yuqorida aytilganidek, Dog‘iston, Shimoliy Kavkazda yashovchi “tog‘lik yahudiylar” Eron lahjalari shevasidan biri bo‘lgan tat tilida so‘zlashganliklari uchun ham eroniy tilda so‘zlashuvchi xalqlar qatoriga kiradi. Ular V-VI asrlarda Darbantga Erondan ko‘chib kelgan bo‘lib, avval zardushtiylikni, keyin esa (VIII asrdan boshlab) ikki asrlik Hazar kagonlarining hukmronlik davrida yahudiylik ta‘siriga o‘tganlar. Yahudiylikda markaziy diniy tashkilot yo‘q, Moskvadagi xoral sinagogi va shibatda(o‘quv yurti) ruhoniylar; ravvinlar, kantorlar va boshqalar tayyorlanadi.

Hinduiylik– hozirgi Hindistonda tarqalgan din shakllaridan biridir. U eramizdan oldingi dinlar – braxmanizm va vedaizmning evolyutsiyasi natijasida eramizning birinchi ming yilligi o‘rtalariga kelib shakllangan. Shu davrdan boshlab xinduiylik hukmron dinga aylana boshlagan. Xinduiylik poloteistik din bo‘lib, unda ko‘p xudolilik elementlari saqlangan. Xinduiylik dini ta‘limoti bo‘yicha dunyoni yaratguvchisi – Braxma, dunyo nizomini ushlab turuvchi Vishnu, koinotni halok qilish qudratiga ega bo‘lgan Shivadir. Xinduiylik ta‘limotida xudoning uch xil ko‘rinishda tasavvur etilishi (trimurti) eng oliy, ilohiy, yakka xudoning uch xususiyati, deb talqin qilinadi.

Hozirgi vaqtda Hindiston aholisining o‘rta hisobda 83 dan ortiqroq foizi xinduiylikka e‘tiqod qiladi. Xinduiylik sinkretik din bo‘lib, turli e‘tiqodlar, urf-odat va marosimlar, mahalliy diniy e‘tiqod va qarashlarning murakkab kompleksi sifatida voqe bo‘lib, urug‘-qabila dinlari elementlarini, braxmanizm, buddizm va jaynizmning asosiy g‘oyalarini qamrab olgan.

Hinduiylik insonning tug‘ilgandan to vafot etishigacha bo‘lgan huquq va vazifalarini belgilab va cheklab qo‘yadi. Shuning uchun unda marosimchilikka keng o‘rin berilgan. Xinduiylik kishilarning ijtimoiy tengsizligini oqlaydi va abadiylashtiradi, ruhning bo‘lmasligi va ko‘chib aylanib yurishi (sansara ta‘limoti), qayta tug‘ilishi (karma ta‘limoti), gunoh ishlar uchun javob berishi, jannat va do‘zax kabi aqidalarni o‘z ichiga oladi.

Hinduiylik ta'limoticha, olam paydo bo'lib, yemirilib, yo'q bo'lib turadi, ya'ni olamning yashashi progressiv emas, aksincha, regressiv xarakterga ega; har bir davr olamning yuksak rivojlangan cho'qqisidan boshlanib, uning inqirozga uchrashi bilan tugaydi, insonlar gunohga botib ketgach, olam yo'qoladi.

Hinduiylik jamiyatning tabaqalarga bo'linishini aks ettiruvchi savob va jazo(karma) g'oyasiga asosan, inson hayotida 4 ta asosiy maqsad bor, deb da'vo kilinadi: 1) dxarma – oila va jamiyatda diniy talablarni bajarish; 2) artxa – foydali ishlar qilish, zarur materiallarga ega bo'lish; 3) kama – muhabbat tuyg'ulariga erishish, his-tuyg'ularni qondirish; 4) moksha – qayta tug'ilish zanjiridan butunlay xalos bo'lish.

Hind xalqi uchun Ganga daryosi muqaddas hisoblanadi. Hinduiylik diniga e'tiqod qiluvchilar Banoras shahrini ham muqaddaslashtirishgan. Rivoyatlarga ko'ra, go'yo Ganga daryosi qirg'og'ida kishi hayotdan ko'z yumsa, narigi dunyodagi hayoti ancha yengillashar, jannatga yo'l olar degan diniy fikr bor.

Hinduiylikning xarakterli xususiyatlari, yuqorida qayd qilinganidek, jamiyatdagi kishilarni tabaqalarga – kastalarga ajratishdir. Bu tartibga ko'ra, hindlar quyidagi 4 kastaga bo'lingan. Braxmanlar (ruhoniylar), Kshatriylar (jangchilar), Vayshiylar (savdogar, dehqon va hunarmandlar), Shudriylar (past tabaqalar). Hozirgi paytda kishilarni tabaqalarga bo'linish ta'qiqlangan bo'lsa-da, bu bo'linish ming yillar mobaynida davom etganligi va kishilarning ongiga chuqur singib ketganligi uchun ham bu masalada muayyan qiyinchiliklar borligini e'tirof etish o'rinlidir.

Hinduiylikning “muqaddas” yozuvlariga Veda, Upanishadlar kiradi. Keyinchalik “Maxabxarata” va “Ramayana” dostoniga o'xshash, diniy marosimlar va urf-odatlar singdirilgan har xil afsona, rivoyat, hikmatli so'zlar, epik dostonlar paydo bo'la boshladi. Hozirgi vaqtda hinduizm Hindistondan tashqari Nepal, Shri Lanka, Bangladesh, Gavana va hindlar yashaydigan boshka hududlarda tarqalgan.

Jaynizm – dinning asoschisi sifatida e'tiqod qilinadigan yarim afsonaviy payg'ambar – Jina nomi bilan atalgan bo'lib, eramizdan oldingi VI asrda paydo bo'lgan. Jaynizm braxmanizmdagi kishilarni tabaqalarga ajratish sistemasiga qarshi paydo bo'lgan. Uning ta'limotida 24 payg'ambarga, ayniqsa oxirgi payg'ambar – Vardxamana Maxaviraga sig'inish talab etiladi. Jaynizmida jonning o'lmasligiga, uning bir moddiy shakldan ikkinchisiga ko'chib yurishiga ishonish markaziy o'rin egallaydi. Shuningdek, inson yer yuzida qiladigan har qanday harakat va ish ana shu jon bilan tan birligida sodir bo'ladi deb qarash ham shular jumlasidandir. Jonni gunohdan saqlash uchun hayotda to'g'ri yo'lni tutmoq, ya'ni din targ'ib qiladigan barcha ta'limotlarga, talablarga so'zsiz itoat etish va e'tiqod qilish zarur. Jaynizmida digambarlar va shvetambarlar nomli yo'nalishi ham mavjud.

Sinkxiylik– (sinkx– o‘quvchi demakdir) XV asrning oxiri va XVI asrning boshlarida Shimoliy-g‘arbiy Hindistonda xinduiylikka qarshi yo‘nalish sifatida paydo bo‘lgan. Bu dinning asoschisi Nanak ismli shaxs bo‘lib, 1469 yilda Panjob shahrida tug‘ilgan. U mayda hunarmand va savdogarlarning feodal zulm va jamiyatning tabaqalanishiga qarshiligini o‘zida aks ettirgan. Ayni paytda bu din hind jamiyatidagi bo‘linishni tugatish, shu jumladan, hinduiylik va islom diniga e‘tiqod qiluvchilarni yagona dinga birlashtirish g‘oyasini ham ilgari surgan.

XVI asrga kelib sinkxiylar jamoasiga dehqonlar ham qo‘shila boshlaganlar va bu antifeodal harakatni kuvvatlaganlar. Sinkxiylik monoteistik din hisoblanib, jamoa bo‘lib birgalikda ibodat qilishni inkor etadi, ruhoniylkni tan olmaydi. Moddiy olamdagi barcha hodisalar sinkxiylik ta‘limoticha, yagona xudo – oliy kuchning ijodi, insonlar esa xudo oldida teng, deb hisoblanadi.

Bu dinning ta‘limoti uning muqaddas kitobi bo‘lgan “Adi Grantx”(Dastlabki kitob)da (boshqa o‘rinlarda “Grantx soxib” – “Janob kitob”, deyilgan) bayon qilingan. Sinkxiylik ta‘limotiga ko‘ra, xudo yagona va abadiy. Unda yozilganidek, har bir sinkxiyning hayotidagi asosiy maqsadi xudoni to‘la anglab yetishidir. Sinkxiylikda o‘zini xudoga baxshida etish, unga xizmat qilish – dunyoviy hayotdan yuz o‘girishni anglatmaydi. Aksincha, bu dinga e‘tiqod qiladigan har bir inson dunyoda faollik bilan hayot kechirishi kerak. Bu faollik inson mehnati orqali amalga oshirilishi lozim, deb ta‘lim beradi. Sinkxiylikda “Inson taqdiri” to‘g‘risidagi ta‘limot mavjud bo‘lib, unda insondagi 5 ta qusurni: nafrat, kibr-havo, ochko‘zlik, hayot ne‘matlariga o‘chlik va unga bog‘lanib qolishlikni qoralaydi. Sinkxiylik ta‘limotiga e‘tiqod qiluvchilarning soni bugungi kunda 17 milliondan ortiqdir.

3. Konfutsiylikda ijtimoiy-axloqiy masalalar. Daosizm – falsafiy ta‘limot. Yapon milliy dini –sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari.

Konfutsiylik. Bu ta‘limot qadimgi Xitoyda eramizdan avvalgi VI-V asrlarda paydo bo‘lgan. Keyinchalik diniy-falsafiy, axloqiy mazmun kasb etgan bu ta‘limotga ma‘rifatparvar Konfutsiy (Kun-Szi, 551-479 yillar) asos solgan. Ta‘limotning manbai – Konfutsiyning izdoshlari yozgan “Lun-yuy” (Suhbatlar va mulohazalar) kitobidir.

Eramizning boshlarida konfutsiylikka diniy g‘oyalar kiritilgan va u diniy ta‘limot sifatida talqin qilina boshlangan. Konfutsiyning qabri atrofiga ko‘plab ibodatxonalar qurilgan, unga qurbonliklar qilina boshlangan. Shu tarika Konfutsiy xudo darajasiga ko‘tarilgan.

Konfutsiylik ta‘limotida dunyoqarash masalalariga emas, balki ijtimoiy axloq muammolariga ko‘proq o‘rin berilgan. Unda “axloqli kishi” bo‘lish, donishmandlardan ta‘lim olish haqidagi g‘oyalar ilgari suriladi. Bu ta‘limotga ko‘ra jamiyatda hukm surgan “Jen” insonparvarlikka rioya qilmog‘i lozim. Bu esa

kamtarlik, onglilik, vazminlik, mehribonlik, odillik, sahiylikdan iborat. Inson “jen” qonunini o‘zlashtirish uchun jamiyatda tutgan o‘rniga qarab “Li” me’yorlarini bajarishi talab etiladi. An’analar, urf-odatlar shunga muvofiq belgilanadi. Past tabaqa xalqning “axloqiy ulug‘” boshliqlarga itoat qilishi zarurligi shu bilan oqlangan.

Insonparvarlik deyilganda – odamiylik, rahm-shafqatli bo‘lish, o‘zaro bir-biriga yordam berishga tayyor turish, kamtarlik, adolatli bo‘lish, qadr-qimmatni hurmatlash, beg‘arazlik, insonlarga mehr-muhabbat kabilar tushunilgan.

Burchni his etish deyilganda – bilimga intilish, o‘tmish meroslarini, marosimlarini hurmat qilish, sadoqatli, ochiq ko‘ngilli bo‘lish kabilar tushunilgan. Shuning uchun ham burchni his etish masalasiga axloqiy majburiyat deb qaralgan.

Konfutsiylikda o‘g‘ilning ota-onasi oldidagi quyidagi 5 ta alohida vazifasi ham ko‘rsatib beriladi:

1. Har doim ota-onani so‘zsiz hurmat qilish;
2. Ularga eng suyuqli taomlarni keltirish;
3. Ular betob bo‘lib qolganlarida chuqur qayg‘urish;
4. Ular vafot etganda yurak-yurakdan achinish;
5. Ular xotirasiga tantanali ravishda qurbonliklar qilish kabilar shular jumlasidandir.

Boshqa dinlarda bo‘lgan kohinlik, g‘ayritabiiy kuchlarga ishonish bu ta’limotda uchramaydi. Mazkur dinda o‘tkaziladigan diniy marosimlarning mazmunini ajdodlar ruhiga sig‘inish asosiy o‘rin egallagan. Shuning uchun ham har bir oilaning o‘z ibodatxonasi bo‘lib, unda ajdodlar timsoli bo‘lgan lavhalar joylashtirilgan va marhumga tegishli bo‘lgan marosimlar tashkil qilingan. Shuningdek, konfutsiylikda o‘z ibodatxonasiga ega bo‘lgan har bir oila davlat tomonidan rag‘batlantirilgan va bunga erishilgan.

Konfutsiylikda koxinlar bo‘lmagan, dastlabki davrlarda hech qanday sistemali ta’limot ham bo‘lmagan. Keyinchalik bu ta’limotlar yaratilib, u hamma klassik qonunlari 13 kitobda, sharhi esa 40 jildda bayon qilingan. Bularning eng ahamiyatli qismi 9 ta kitobdan iborat. Bular: “Snshu” (To‘rt kitob) va “Ushin” (Besh kitob)dir. Bu qonunlar ham diniy “muqaddas”, ham dunyoviy donishmandlik manbai hisoblanadi.

Mazkur ta’limot asosida milodiy XI-XII asrlarda yangi konfutsiylik oqimi vujudga keladi. Bu oqim narsalarda ikki bosh ibtido: Li – oqilona ijodiy kuch va si – passiv materiya bor deb uqdiradi. Birinchi ibtido – ijobiy fazilat – yaxshilikka intilishni paydo qiladi, ikkinchi ibtido esa salbiy sifat – hissiy vasvasalarga ruju qilishni vujudga keltiradi deb ishoniladi.

Alohida ta’kidlash joizki, konfutsiylik ta’limotidagi “Insonlar o‘zgarmas tabiatga ega – ya’ni, ota otaligicha, farzand farzandligicha, podshoh

podshohligicha, qul qulligicha qoladi”, degan g‘oyasi bilan bu din Xitoyda faqatgina yuqori tabaqa orasida keng tarqalgan xolos. Quyi tabaqa orasida esa asosan buddaviylikka e‘tiqod qilinadi.

Konfutsiylik dini va uning ta‘limoti Xitoyda keng tarqalgan.

Sintoizm (sinto – xudolar yo‘li demakdir). Yaponiyada keng tarqalgan, an‘anaviy milliy xarakterdagi dinlardan biri. Bu din ilk feodalizm davrida (VI-VII asrlar) rivojlangan va urug‘chilik, qabilachilikka xos animistik va shomonlik marosimlari yig‘indisidan iborat holda vujudga kelgan. Mazkur din buddaviylik Yaponiyada tarqala boshlagan davrda hali aniq bir nom bilan atalmagan. Birinchi marta “Sinto” atamasi XVIII asrlarda buddaviylikdan farq qilish maqsadida ishlatila boshlangan. Shuningdek, sintoizmning shakllanishida buddaviylikning ta‘siri katta bo‘lgan. Sintoizm ko‘p xudolik dini bo‘lib, Amaterasu (Quyosh xudosi), Susano-vo (Bo‘ron xudosi) va Inori (dehqonchilik homiysi) asosiy xudolar hisoblangan. Sintoizm xudolari umumiy tarzda “Kami” deb atalgan va ular hatto buddaviylik dini xudolari bilan tenglashtirilgan.

Sintoizm asosida tabiatga va ajdodlar ruhiga sig‘inish yotadi. Uning ta‘limotida Yaponiyada joriy etilgan ijtimoiy-siyosiy tartibning mustahkamligi va o‘zgarmasligiga, quyosh tangrisi – Amaterasuning naslidan deb hisoblangan yapon imperatori – Mikado hokimiyatining ilohiyligiga ishonish, imperator ajdodlarini muqaddas deb tan olish, ajdodlar sharafiga tayinlangan oila-urug‘ marosimlarini bajarish kabilar asosiy o‘rin egallaydi. Sintoizmning puxta ishlangan aqidalari yo‘q. Diniy marosimlarni kannushlar deb ataladigan alohida koxinlar ijro etadi. Kannushlik vazifasi nasldan naslga o‘tadi. Hozirgi vaqtda yaponlarning yarmidan ko‘pi sintoizm bilan buddizmni teng ko‘rib, xar ikkalasiga e‘tiqod kiladilar; hayotiy marosimlar – tug‘ilish, nikoh kabilar sintoizm ibodatxonalarida bajarilsa, dafn etish va marhumni xotirlash marosimlari buddaviylik ibodatxonalarida o‘tkaziladi. Shuning uchun ham bu din ta‘limoti haligacha to‘liq ishlab chiqilmagan hisoblanadi.

1867-1868 yillarda Meydzi islohoti natijasida Yaponiyada imperatorlik qayta tiklanib, sintoizm davlat dini sifatida rasmiy tan olindi. Sintoizm dini XX asrning 40 yillarigacha Yaponiyaning davlat dini hisoblangan. 1945 yilda din davlatdan ajratilgandan so‘ng sintoizmdiniga e‘tiqod qiluvchilar soni yildan-yilga kamayib bormoqda.

Sintoizm marosimlari juda sodda ko‘rinishga ega bo‘lib, bunda duo so‘zlarini o‘qish bilan birga guruch, sabzavot, baliq kabilar qurbonlik qilinadi.

Nazorat savollari:

1. Insoniyatning dastlabki madaniyat o'choqlari tarixi haqida gapirib bering.
2. Ilk tabu (ta'qiq), totemizm, animizm, fetishizm, shamonlik, magiya (sehrgarlik) to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Nima uchun Iudaizm – yahudiylarning milliy dini hisoblanadi?
4. Yahudiylik ta'limotining kelib chiqish tarixi haqida gapirib bering.
5. Hinduiylikning kelib chiqishi va unig ta'limotlari.
6. Konfutsiylikda ijtimoiy-axloqiy masalalar qayday yoritilgan?
7. Daosizmni falsafiy ta'limot sifatida qanday tushunasiz?
8. Yapon milliy dini – sintoizm, uning asosiy aqidalari va marosimlari haqida gapirib bering.

14-mavzu: Jahon dinlari: Buddizm va xristianlik hamda ularning ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar

Reja:

1. Buddizmning vujudga kelishi, ta'limoti – to'rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm axloqiy ta'limoti – “pancha-shila”.
2. Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi.
3. Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka Xudoning uch qiyofasi. Ota-xudo, O'g'il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar: ortodoks (pravoslavie), katolizm, protestantizm. Xristianlikni O'rta Osiyoga kirib kelishi.

Tayanch iboralar: Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm, Buddizm axloqiy ta'limoti – “pancha-shila”, tripitaka, maxayana, Ota-xudo, O'g'il-xudo, Muqaddas ruh, Xristianlikdagi asosiy oqimlar: ortodoks (pravoslavie), katolizm, protestantizm.

MAVZUNING MAQSADI: Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi kabi masalalar, xristian ilohiyoti, xristianlikdagi asosiy oqimlar: ortodoks (pravoslavie), katolizm, protestantizm tushunchalarining mohiyatini ochish.

1. Buddizmning vujudga kelishi, ta'limoti – to'rt oliy haqiqat, nirvana. Buddizm axloqiy ta'limoti – “pancha-shila”.

Buddaviylik – diniy-falsafiy ta'limot, jahonda keng tarqalgan uch asosiy dinlarning biri bo'lib, uning asoschisi Buddadir. Buddha – “ziyolangan”, “oliy haqiqatga erishgan” degan ma'nolarga ega bo'lib, asl ismi Sidxasa Gautama (xushqadam) bo'lgan. Laqabi Sidxartxa – “dili ravshan” ma'nosini anglatadi.

Buddaviylik asosiy diniy manbasi muqaddas kitob – “Tripitaka” (Uch savat donolik) deb atalgan. Bu Kitobda Buddha uchta savatda ta'limot koldirgan, deyiladi: birinchi savat – Vinayapitaka (pand-nasihatlari, axloqiy me'yorlar); ikkinchi savat Suttapitaka (duolar, dostonlar); uchinchi savat Abxidxarmapitaka (diniy-falsafiy masalalar bayoni)lardan iborat bo'lgan.

Qadimgi Hindistonda buddaviylik shakllanishiga qadar murakkab sinfiy munosabatlar mavjud edi. Kishilar oliy, o'rta va quyi tabaqalarga ajratilib, oliyga braxmanlar, harbiylar, o'rta tabaqaga – dehqonlar, eng quyi tabaqaga oddiy xalq, xizmatkor, cho'rilar kiritilgan edi.

Buddaviylik quldorlik jamiyatida dastlab braxmanlik mazhablaridan biri sifatida paydo bo'lgan. Braxmanlik jamiyatning tabaqalarga bo'linishi to'g'risidagi ta'limotiga qarshi chiqib, barcha kishilar e'tiqodda teng huquqli deb e'tirof etgan. Shuningdek, bu dinning tenglik haqidagi g'oyasi odamlarning kasblarga bo'linib ketishiga qarshi kurashda ijobiy rol o'ynagan. Ayni paytda buddaviylik kishilar "azob-uqubat" chekishda va undan xalos bo'lishda ham tengdirlar deb hisoblagan.

Buddaviylik miloddan avvalgi 268-231 yillarda podshoh Ashoka davrida Hindistonning rasmiy diniga aylangan. Bugungi kunda Markaziy Osiyo, Janubiy Sharqiy Osiyo mamlakatlarida va Uzoq Sharqda tarqalgan. Hozirgi kunda Shri-Lanka, Birma, Tailand, Laos, Komboja, Vetnam, Butan va Yaponiya kabi davlatlarda va Tibetning asosiy dinidir.

Buddaviylikka e'tiqod qiluvchilar soni bugungi kunda 86 mamlakatning tahminan 700 milliondan ortiq kishisi e'tiqod qiladi. Buddaviylik tarixi 2500 yildan ortiq davrni o'z ichiga oladi. 1950 yilda Shri-Lanka davlatida buddaviylarning "Jahon buddaviylari birodarligi" tashkiloti tuzilgan.

Boshqa dinlardan farqli ravishda Buddaviylikda o'zgarimas narsaning o'zi yo'q, hatto xudolar ham o'zgarib turadi, deb uqtiradi.

Siddxartxa Gautama miloddan avvalgi 623 yilda Hindistonning shimoliy sharqiy qismida podshoh xonadonida tug'ilib, 543 yilda shimoliy Bengaliyada 80 yoshida vafot etgan.

Shaxzoda Gautama voyaga yetgach, har qanday mavjudlik, hayotazob-uqubattan iborat ekan, degan xulosaga keladi. Otasi uni 16 yoshida shu yoshdagi xolasini qizi Yashodxaraga uylantirib qo'yadi. U kishilar boshiga tushadigan kulfatlar sababini o'rganish va ularni bu tashvishlardan qutqarish maqsadida, 29 yoshida oilasini – xotini va o'g'lini qoldirib saroyni tark etadi. Uzlatga chekinib tarki dunyo qilib, o'rmonga borib yashaydi va diniy, falsafiy kitoblarni o'qiydi, braxmanlikdan yuz o'girib, yangi ta'limot yaratishga urinadi. Ko'p yillik izlanishlar va urinishlar natijasida nihoyat, 35 yoshida unga haqiqat ayon bo'ladi va bilim nuridan ziyo topadi. Shundan so'ng u xalqqa "Haqiqiy bilim" topganligini e'lon qiladi va Shak'ya-Muni Budda (uyg'ongan, nurlangan, haqiqatga – oliy maqomga erishgan) degan nomni oladi.

Buddaviylik ta'limotida har qanday borlik (moddiylik) barcha ko'rinish va shakllardagi har qanday hayot – hamma mavjudotlarga azob beruvchi yomonlikdir. Yomonlik va azob-uqubatlarning sababi – insonning va barcha tirik mavjudotlarning bu dunyoga qayta tug'ilib kelish dunyosi(sansara)ga bog'langanligi, unga ko'ngil ko'rganligidir.

Buddaviylikning ta'limoti bo'yicha har qanday insoniy tuyg'u, xissiyot, ehtiros va istak azob-uqubadni chuqurlashtiradi, shuning uchun "borliq girdobi"dan chiqib olish, g'aflatdan uyg'onish, dunyo mohiyatini to'la anglash, hayotga

chanqoqlikdan, ko'ngilxushliklarga, lazzatlarga, hokimiyatga, boylikka intilishlardan voz kechish lozim, faqat shundagina "najot topish yo'li"ga kirish mumkin. Shuningdek, Buddaviylik ta'limoti bo'lgan "Dxarma" mohiyatan barcha jonli narsalarga muhabbat bilan kurashni, aql farmoniga bo'ysunishni targ'ib qiladi. Buddha o'z ta'limotining asosiy qoidalarini quyidagi "To'rt oliy qadriyat" shaklida bayon qiladi:

1. Azob-uqubat mavjud, ya'ni turmush azob uqubatlardan iborat;
2. Azob-uqubatlarning sababi bo'lgan istak nafs mavjud;
3. Azob-uqubatlarning tugashi, ya'ni nirvana mavjud, shuning uchun kishilar azob-uqubatlardan xalos bo'lishni istasalar, o'zlarining istak, orzu va nafslarini jilovlab olishlari kerak;
4. Azob-uqubatlarning tugashiga olib keladigan sakkiz bosqichli yo'lga amal qilmoq kerak.

Buddaviylik azob-uqubat tushunchasini mutloqlashtirgan, borliqning barcha shakllarini, uning mazmunini, har qanday turmush tarzini azob-uqubat deb hisoblagan. Buddaviylik ta'limoticha, jonli mavjudotlarning o'lishi uni tashkil etgan dxarma(element, zarracha)larning ajralib ketish jarayonidir. Bularning yangidan birikishi ilgari qilingan "savob va gunoh"lar bilan bog'liq deyiladi. Dxarma (Gautama qoldirgan ta'limot) nirvana (yo'qlik) darajasiga yetgandagina qayta tug'ilishlarga barham berilib, azob-uqubattan butunlay xalos etilar ekan.

Buddaviylik ta'limotiga ko'ra, azob-uqubatlardan xalos bo'lishning eng maqbul yo'li rohiblik(monaxlik) jamiyati(sangxa)ga o'tish hisoblanadi. Sangxa jamoasiga qabul qilingan shaxs quyidagi 10 farzni ado etishga qasamyod qilishi kerak bo'ladi:

- 1) hech kimni , hech narsani hayotdan judo qilmaslik;
- 2) yolg'on so'zlamaslik, vaysaqilik qilmaslik;
- 3) o'g'rilik va birovning haqqiga xiyonat qilmaslik;
- 4) jinsiy aloqa qilmaslik va uylanmaslik;
- 5) mast qiluvchi ichimliklar ichmaslik;
- 6) kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqatlanmaslik;
- 7) uch kiyimdan ortiq hech narsa bilan bezanmaslik;
- 8) ommaviy ko'ngilxushliklarda ishtirok etmaslik va tomoshabin sifatida ham qatnashmaslik;
- 9) baland va yumshoq o'rinda yotmaslik;
- 10) pul ishlatmaslik kabilar shular jumlasidandir.

Buddaviylikda qayta tug'ilish deganda yangidan paydo bo'lish tushunilmaydi, balki ilgari o'lgan odamlarning jismidan tarqalgan dxarmalarning yangi asosda birlashib, kelajak avlodga o'tishi tushuniladi. Shuning uchun buddaviylik inson o'z qilmishlari uchungina javobgar bo'lib qolmaydi, balki kelajak avlod uchun ham

javobgar deb hisoblangan. Agar odam yaxshi bo'lsa, budda ta'limotiga to'liq rioya qilsa, boy va e'tiborli bo'lsa, uning dxarmalari asosida qayta tug'ilgan odam xam boy va badavlat, sofdil bo'ladi. Aksincha, odam yomon bo'lsa, kambag'al, qashshoq, bo'lsa, budda ta'limotiga rioya qilmasa, uning dxarmalaridan paydo bo'lgan odam ham kambag'al, qashshoq bo'lar ekan. Buning sababi avvalgi avlodlar yomon hayot kechirgani uchun berilgan jazodir, deb hisoblangan. Lekin oddiy odamlar faqat yaxshiroq bo'lib qayta tug'ilishga umid qilsalar, ular quyidagi beshta axloqiy talablarga amal qilishlari kerak:

- 1) ichkilikdan o'zini tiyishi;
- 2) yomonlik qilishdan;
- 3) his-tuyg'ularga ortiqcha berilishidan;
- 4) yolg'on gapirishdan;
- 5) o'g'rilik qilishdan saqlanishi kerak.

Har qanday dinlar kabi buddaviylikning ham kelib chiqishi sababini xalqlarning yashash sharoiti va hayotidan, muayyan davrdagi ijtimoiy munosabatlardan izlash va topish lozim. Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi tarixi va madaniyatida buddaviylik muayyan o'rin egallagan. U zardushtiylik dini ta'sirida va u bilan yonma-yon shakllangan dinlardan biri bo'lgan buddaviylik miloddan avvalgi VI-V asrlarda Hindistonning shimolida vujudga kelgan; keyinchalik Janubiy-Sharqiy va Markaziy Osiyo hamda Uzoq Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan. Uning vujudga kelishi hind jamoalarida ro'y bergan muhim ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar – urug'-qabilachilik aloqalari va tartiblarining yemirilishi, sinfiy jamiyatning vujudga kelishi va yirik quldorlik davlatlarining paydo bo'lishi bilan bog'liq edi. III asrga kelib dunyoviy jamiyat(imperator Ashoka)ning faol qo'llab-quvvatlashi natijasida mulkchilik darajasida yagona bo'lgan budda tashkiloti (monaxlik jamoasi – sangxa) va diniy aqidachilik shakllangan.

2. Buddizmdagi oqimlar: maxayana, xinayana, lamaizm. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi.

XV asrlarda Osiyo qit'asida paydo bo'lgan yevropaliklar Buddaviylik bilan tanishganlaridan so'ng, ularning ba'zilari shu dinga kirgach, Angliya, Germaniya, Amerikada o'z jamoalarini tashkil etadilar. Xitoy va yaponiyalik muhojirlar bu e'tiqodni Gavay orollari va Amerikaning g'arbiy sohillariga olib boradilar.

Hozirgi kunda ham jahon bo'ylab dunyoviy kishilarni ushbu dinga jalb etish odat tusiga kirgan. Amerikadagi "Yangi buddizm" jamoalari asosan dunyoviy kishilardan tashkil topgan.

Buddaviylik 900 yildan ortiqroq davomida Hindistonda ravnaq topdi va gullab yashnadi. 650 yildan boshlab uning nufuzi pasaya bordi va natijada buddaviylik XII asr oxiri XIII asr boshlarida Hindistondan siqib chiqarildi. Bunga

Hindistonning shimolida musulmon sulolalari hukmronligining o'rnatilishi, Hindistonning boshqa qismlarida hinduiylikning to'la qaror topganligi sabab bo'ldi. Biroq, buddaviylik to'liq yo'q bo'lib ketmadi. Aksincha u ikki oqimga bo'lingan holda o'z targ'ibotini davom ettirdi. Bu ikki oqimning biri Xinayana (najot topishning tor yo'li), ikkinchisi esa Maxayana (najot topishning keng yo'li) deb ataldi.

Buddaviylikda bir necha mazhablar paydo bo'lgan. Bulardan eng yirigi I asrda undan ajralib chiqqan **Xinayana** ("kichik arava", tor yo'l ma'nosida) Shri Lanka, Birma kabi mamlakatlarda keng tarqalgan; **Maxayana** ("katta arava", keng yo'l ma'nosida) Tibet, Xitoy, Yaponiya, Mongoliyada hamda Oltoy va Uzoq Sharqda yashovchi ba'zi xalqlar o'rtasida keng tarqalgan.

Xinayana buddaviylikning o'zgarishsiz ilk ta'limotiga amal qilishni yoqlab chiqadi. Shuningdek, Xinayana tarafdorlari hayot azob-uqubatlaridan monaxlik jamoasiga a'zo bo'lganlar xalos bo'la oladi, deb hisoblaydilar.

Maxayana oqimi esa buddaviylikning zamon ruhiga moslashtirilgan ko'rinishidir. Bu oqim tarafdorlari esa Siddxartxa o'gitlariga amal qiluvchi, xudoga iltijo qiluvchi, monaxlarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug'ullanuvchi har bir kishi ham najot topishi mumkin, deb hisoblaydilar.

Buddaviylikka xos mazhablardan biri Tibet va Mongoliyada ham tarqalgan bo'lib, u **Lamaizm** degan nom bilan yuritiladi. Buddaviylikning bu mazhabi mahalliy xalqlar o'rtasida qadimdan mavjud bo'lgan diniy tasavvur va urf-odatlarini o'zlashtirgan. Lamaizmda buddaviylikka xos tasavvurlar bilan bir qatorda, Buddaning yana kaytib kelishi va yer yuzida adolatli hokimiyat o'rnatishi to'g'risidagi rivoyatga keng o'rin berilgan. Lamaizmni ko'chmanchi, qaloq, savodsiz xalq hayotiga moslashtirishga urinish mavjud bo'lib, undagi ibodat qilish tartibi xam ancha soddalashtirilgan.

Bundan tashqari buddaviylik dinining uncha keng tarqalmagan yo'nalishlari ham mavjud bo'lib ular quyidagilardir: sintu yo'nalishi Xitoyda vujudga kelgan va keyinchalik Yaponiyaga o'tgan. Unga Xuey Yuan asos solgan. V-VII asrlarda uning shogirdlari bu yo'nalishni rivojlantirganlar. Shuningdek, Xitoy buddizmida sezilarli mavqe'ga ega bo'lgan va rasman e'tirof etilgan.

Tyantay yoki Tenday yo'nalishi shu nom bilan nomlangan bir ibodatxona nomi bilan bog'liq. Mazkur yo'nalishning ilk va ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Chji bo'lgan. Uning ta'limotiga ko'ra, bu dunyodagi hamma narsa haqiqiy emas, ular faqat bo'shliqdan iborat bo'lib, vaqtinchalik mavjuddir, deyiladi.

Tantrizm yo'nalishi Xindistonda birinchi ming yillik o'rtalarida vujudga kelib, keyinchalik Xitoyga ham o'tgan. Buddizmning ushbu yo'nalishi VIII asrga kelib, juda taraqqiy topgan. Bunga mazkur yo'nalishning uch patriarxi Hindistondan kelib faoliyat olib borishlari sabab bo'lgan.

Buddaviylik ta'limotini tartibga solish maqsadida 1871 yilda Birmada buddistlarning maxsus ibodatxonasida **Tripitakaning** turli tarjimalari va variantlarini taqqoslash natijasida yagona teksti ishlab chiqildi. Yangi tekst mazmuni 729 ta marmar plitaga tushurilgan bo'lib, bu yozuvlar saqlangan ibodatxona dunyo buddistlarining muqaddas joyiga aylantirilgan.

Buddaviylik ruhoniylari xalqaro miqyosda uning mavqeini kuchaytirishga harakat qilmokdalar. Shu maqsadda buddaviylikning turli tashkilotlarini birlashtirmoqdalar, shuningdek, buddistlarning xalqaro konferensiyalari, s'ezdlarini muntazam o'tkazib kelmoqdalar.

Markaziy Osiyoda bir necha yuz mingdan iborat koreys millatiga mansub kishilar yashaydi. Ularning oilaviy-maishiy an'analari, milliy udumlarining ayrim tarkibiy qismlari **maxayana** (shimoliy) ko'rinishdagi buddaviylik ta'sirida shakllangan. Umuman olganda, buddaviylik dini ko'pxudolik dini bo'lishiga qaramasdan jahon dinlari qatoridan o'rin olishining eng asosiy sabablari ikkita:

1. Bu din hech qachon boshqa din va boshqa xudolarni inkor qilmadi. Buddaviylikka ko'ra, inson o'zi xohlagan diniga va xohlagan xudosi e'tiqod qilishi mumkin. Lekin u buddaga e'tiqod qo'ymagunicha nirvanaga erishmaydi;

2. Buddistlar dinni targ'ib qilishda hech qachon quroldan foydalanishmadi. Dinni faqatgina targ'ibot va tashviqot yo'li bilan tarqatishdi. Buddaviylikda Sangxa jamoasi yilning ob-havo yaxshi bo'lgan to'qqiz oyida shaharma-shahar, qishloqma-qishloq yurib, odamlarni buddaviylikka da'vat qilishgan. Yog'ingarchilik bo'lgan uch oyda ibodatxonada o'tirib, ibodat bilan mashg'ul bo'lishgan.

Buddaviylikning Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkistonda tarqalishi miloddan avvalgi II asrlarda bu yerdagi Yunon-Baqtriya qabilalarining yemirilishi natijasida qaror topgan Kushon imperiyasining rivojlangan davriga to'g'ri keladi.

Kushon imperatori Kanishka (78-123) hukmronlik qilgan davr oxirlarida Kushon davlati o'z hududlarini nihoyatda kengaytiradi. Kanishka din sohasidagi siyosati natijasida, Kushon imperiyasida, jumladan, O'rta Osiyoda ham to' arab istilosigacha buddizm dini keng tarqala boshladi. Kushon imperiyasi o'zining eng gullagan davrida (milodning I-III asrlarida) hozirgi Markaziy Osiyoning bir qismini, Afg'oniston, Pokiston, Shimoliy Hindiston, Uyg'uristonni ham o'z ichiga olgan. Kushon podsholigi davrida buddaviylik Hindistondan Markaziy Osiyoga, undan esa Buyuk ipak yo'li orqali Xitoy va Uzoq Sharqqa tarqalgan.

O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda buddizm naqadar muhim o'rin egallaganligini keyingi yillarda o'tkazilgan arxeologik qazilmalar ham tasdiqlaydi. Keyingi o'n yilliklar mobaynida olib borilgan arxeologik izlanishlarning natijalari va tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirgan holda taxmin kilish mumkinki, islomgacha bo'lgan davrda buddaviylik Markaziy Osiyo g'oyaviy hayotining

muhim tarkibiy qismlaridan birini tashkil etgan. Buddaviylik faqat maxsus ibodatxonalarigagina emas, balki podsho saroylaridan boshlab, oddiy kambag'al dehqon va hunarmandlarning kulbasigacha kirib borgan dindir. Buddaviylikni qabul qilgan Markaziy Osiyo xalqlari diniy ibodatlar uchun har xil maxsus inshootlar qurganlar.

Buddaviylik dini bilan bog'liq obidalar, ibodatxonalar, haykallar, devorlarga solingan rasmlar Markaziy Osiyoda topilgan qadimgi tarixiy obidalar orasida muhim o'rin egallaydi. Ayniqsa, shimoliy Qirg'iziston, O'zbekiston va Turkmanistonning janubiy tumanlarida, Tojikiston va Qozog'iston janubidagi arxeologlar tomonidan topilgan budda ibodatxonalarining xarobalari, zo'r mahorat bilan yasalgan katta-kichik budda haykallari buning yorqin dalilidir. Bular orasida eng yirik inshoot eski Termizdagi qoratepa nomli g'or ibodatxonasidir. Bu ochiq sariq rangli katta tepalik bo'lib, unga qumtoshli g'or binolar o'yib solingan; yer ustida binolar barpo etilgan; bularning hammasi bir butun uyg'un bo'lgan buddaning 20-25 ibodatxonasini tashkil qilib, Kushon podshohligida buddaviylikning muhim ahamiyatga egaligidan dalolat beradi. Devorlarga solingan rasmlarni, haykallarni, toat-ibodat buyumlarini, tangalarga, sovg'a qilingan sopol idishlarga bitilgan har xil yozuvlarni o'rganishlar Qoratepaning milodning I asr oxiri va II asrning boshlarida bunyod qilinganligidan, arablarning O'rta Osiyoga kirib kelganlaridan keyin ular tugatilgan va keyinchalik vayronaga aylanganligidan dalolat beradi.

O'zbekistonda buddaviylikning **lamaizm** yo'nalishi tarqalgan. Lamaizm (tibet tilida «*lama*» – «eng ulug'» degan ma'noni anglatadi) Tibetda VII-XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy diniy qarashlari hamda Maxayana va Tantrizm uyg'unlashuvi asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. Buddaviylikning barcha aqidalarini qabul qilgan lamaizmda inson faqat lamalar (ruhoniylar) yordamida najot topadi. Lamalarsiz nirvanaga yetishish u yoqda tursin, kishi bu dunyoga qaytib kelishda ham hech narsaga erisha olmaydi, deb hisoblanadi.

Lamaizmning an'anaviy qonunlashgan asosi «Kanjur» (108 jildli) va «Tanjur» (225 jildli) nomli muqaddas kitoblarda bayon qilingan. Lamaizmda yo'nalishning oliy diniy rahnamosi Dalay-Lama tug'ilgan mavjudotlarning eng ulug'i, deb hisoblanadi. Dalay – tibet tilida «dengiz» ma'nosini anglatadi. Dalay-Lama «dengizdek ulug' lama» deganidir. Bu unvon 1391 yilda joriy qilingan. Birinchi Dalay-Lama Binduidub (1391 – 1475) bo'lgan. Hozirgi kunda Dalay-Lama XIV Lozondantzenjanso-Igvant hisoblanadi. Lamaizm diniy hayotining markazini monastr tashkil qiladi. U yerda Dalay-Lama, lamalar diniy uyushmasi, rohiblar, talabalar faoliyat olib boradi. 2012 yilning 1-avgustiga qadar respublikamizda buddaviylikka mansub 1 ta diniy tashkilot ro'yxatga olingan.

3. Xristianlik. Xristian ilohiyoti. Yakka Xudoning uch qiyofasi. Ota-xudo, O‘g‘il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar: ortodoks (pravoslavie), katolizm, protestantizm. Xristianlikni O‘rta Osiyoga kirib kelishi.

Xristianlik (nasroniylik) dinining asoschisi – Iso Masih (Iisus Xristos) milodning 1-33-yillarida Falastinda, hozirgi Isroilda yashagan. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, Iisus xudoning o‘g‘li, ayni paytda xudo – odamdir. Islom adabiyotlarida Iso masih deb ataladi va shu dinning payg‘ambari hisoblanadi. Milodiy yil hisobi ham Iso alayhissalom tug‘ilgan sanadan hisoblash qabul qilingan. Iso alayhissalomga o‘ttiz yoshida Tavrot va Zaburdan keyingi uchinchi ilohiy kitob – Injil nozil qilingan. U o‘zining diniy faoliyatini ana shu yoshdan boshlagan, ya’ni payg‘ambar bo‘lib uch yil faoliyat ko‘rsatgan.

Bu dinning nomlanishi borasida shuni aytish mumkinki, xristian so‘zi ruscha atama bo‘lib, nasroniylik arab tilidan olingan bo‘lib, ko‘maklashuvchilar, yordamlashuvchilar, degan ma’noni anglatadi. Bu haqida Qur’oni karimning Oli imron surasi 52-53-oyatlarida shunday deyiladi: “Qachonki, Iso ular tomonidan kufri ko‘rgach: Allohning diniga da’vat qilishimda kim menga yordamchi bo‘lur?, dedi. Xavoriylar aytdilar: Biz Allohning (diniga) yordam berguvchilarmiz. Allohga iymon keltirdik. (Ey Iso), guvoh bo‘lginki, biz Allohga bo‘ysunguvchilarmiz. Parvardigoro, nozil qilgan narsangga ishondik, payg‘ambaringga ergashdik. Bas, bizni (O‘zingni yagonaligingga, payg‘ambaring haqligiga) guvohlik beruvchilar qatoriga yozgin”.

Xristianlik Iso alayhissalom haqida o‘z qavmlariga bunday deb ta’lim beradi: “Xudo payg‘ambarlari orqali Isroil farzandlariga (qadimgi yahudiylar o‘zlarini shunday deb ataganlar) tez orada ilohiy xaloskor – messiya kelishini bashorat qilgan. U insoniyatni barcha gunohlardan xalos etishi va o‘z jonini qurbon qilish evaziga boshqalarning gunohini yuvishi kerak edi. Shuningdek, u yovuzlarni va adolatsizlarni jazolaydi. Insonlarga yangi qonunlar beradi. Yer yuzida rohat-farog‘at hamda adolat o‘rnatadi. Qudratli xaloskor isroil xalqiga bosh bo‘lib, uni tashqaridan kelgan zolimlardan abadiy ozod qiladi”.

Nihoyat, payg‘ambarlar bashorat qilgan mo‘jiza sodir bo‘ladi. Farishta Jabroil xudojo‘y qiz Maryamning oldiga kelib, Allohning iltifoti va marhamatiga sazovor bo‘lganligini, yaqin orada o‘g‘il ko‘rishini va unga Iso (Iisus) deb nom qo‘yishi haqida Parvardigor amrini yetkazadi.

Kunlardan bir kun Maryamhuzuriga muqaddas ruh tushib keladi va Maryam iffati saqlangan holda muqaddas bolaga og‘iroyoqli bo‘ladi. Uning payg‘ambarlar avlodidan bo‘lgan unashtirilgan qalig‘i Iosif (Yusuf) Jabroil tomonidan bu haqda ogohlantirilgan edi. Bu haqda Qur’oni Karimda shunday deyiladi: “Yana o‘z nomusini saqlagan ayolni (Maryamni eslang). Bas, ruhimizdan unga pufladik (u

Isoga homilador bo'ldi) va uni hamda o'g'lini barcha olamlar uchun alomat qildik”.

Iso alayhissalom o'zining targ'ibot ishlarini boshlab yuborganidan keyin, yahudiy din arboblari o'zlariga nisbatan katta xatar seza boshlaganlar. Chunki Iso alayhissalom o'ziga yangi shariat, Muso alayhissalom shariatiga ayrim o'zgartirishlar kelganini e'lon qilgan va ularning kirdikorlarini ochib, dunyoviy lazzat va havaslarga berilib ketganliklarini qoralab, ularni sharmanda qila boshlagan edi. Shunda ular, ya'ni farziy va sadduqiylar, Iso alayhissalomga qarshi kurash rejalarini tuzib, uni yolg'onchilikda ayblashga o'tishdi. Iso alayhissalomdan o'z payg'ambarligini isbot qiluvchi mo'jizalar ko'rsatishni talab qilishdi. Shunda Alloh ta'olo o'z payg'ambari Iso alayhissalomni bir necha mo'jizalar bilan quvvatladi. Jumladan, Iso alayhissalom o'liklarni tiriltirdi, ko'rlarni ko'zini ochdi, mayib-majruhlarni bir zumda davoladi, daryoda suvga cho'kmay yurdi, o'liklarni tiriltirib ular bilan gaplashdi.

Alloh ta'olo Iso alayhissalom payg'ambarligining isboti sifatida unga mo'jizalar ko'rsatish qobiliyatini ato etganiga qaramay, qalbi ko'r yahudiylar, ayniqsa farziy va sadduqiy mazhabidagilar qanday qilib bo'lmasin undan qutulish payiga tushdilar.

O'z shogirdlaridan birining sotqinligi tufayli Iso alayhissalom dushmanlar qo'lga asir tushib qoladi va o'lim jazosiga hukm qilinadi. Yahudiylar sudi – Sinedrion hukmi bilan Iso alayhissalom juma kuni 33 yoshida dahshatli tarzda chorcho'pga mixlashadi. Biroq tezda buyuk mo'jiza sodir bo'ladi. Iso alayhissalom o'limining uchinchi kuni tirilib, biroz vaqt shogirdlari bilan bo'lgach, ularning ko'z oldilarida nur sifatida osmonga ko'tarilib ketadi.

Islom ta'limotida esa Iso payg'ambar o'lmagan, balki ana shu sotqin shogirdini duoibad qilib, osmonga ko'tarilgan. Shogirdi esa Iso payg'ambar tusiga kirgan va uni Iso deb chorcho'p (Xoch)ga mixlashgan.

Masihiylik (nasroniylik) xristianlik – asosiy jahon dinlari bo'lgan, buddaviylik va Islom dinlari kabi yirik dinlardan biri. Xristianlik ham boshqa dinlar singari kishilik jamiyati taraqqiyotining ma'lum bosqichida ijtimoiy hayot sohasida ro'y bergan chuqur o'zgarishlarning natijasi edi.

Xristianlik milodiy I asrning ikkinchi yarmidan boshlab yahudiylikdan mustaqil din sifatida ajralib chiqqan. Chunki, o'sha davrda Falastin va O'rta Yer dengizi yahudiylari o'rtasida paydo bo'lgan va birinchi o'nyillikdayoq atrofdagi xalqlarga tarqala boshlagan. Keyin esa boshqa, asosan geografik jihatdan qaralganda Rim imperiyasi bilan bog'liq yoki uning siyosiy va madaniy ta'sirida bo'lgan xalqlar orasida tez tarqalgan. Yangi va eng yangi tarix davrlarida u mustamlakachilik siyosati va missionerlik natijasida Yevropadan tashqariga ham tarqalgan. Xristianlik Yevropa, Amerika, Avstraliya hamda qisman Afrika va

Osiyo qit'alariga tarqalib dunyo xalqlarining deyarli uchdan birini (2 milliarddan ortiq kishini) tashkil etadi.

Xristianlikdagi odam-xudo to'g'risidagi tushunchani ishlab chiqishda yagona imperiyaga birlashgan Rim imperatorlarining yakka Xudolik to'g'risidagi ichki siyosati ham katta ta'sir ko'rsatgan. Shu maqsadda imperatorlarga va Rim shahri xudolariga sig'inish yuzaga kelgan. Lekin shakllanayotgan xristian mafkurasi asosida birinchi galda iudaizm monoteizmining "Qadimgi axdnoma" kitobiga kirgan barcha "muqaddas g'oyalar", ya'ni Yerni Xudo yaratganligi, o'simlik va hayvonot dunyosining vujudga kelishi, insonning yaratilishi, uning tili, axloqi, huquqi, oxirat rohatlari haqidagi g'oyalar katta rol o'ynagan. Shunday qilib, xristianlik Rim imperiyasida yashagan ko'pchilik elatlarning dinlari, rivoyatlari, urf-odatlari asosida tashkil topgan. Xristianlik dastlab qullar, ezilgan kambag'allarning talablarini, "xaloskorlik" g'oyalarini o'ziga singdirgan din sifatida vujudga kelgan. Vaqtlar o'tishi bilan xristianlikdini hukmron tabaqalar diniga ham aylana borgan. Bunga imperiyaning zaiflashib borayotganligi sabab bo'lgan. Bunday sharoitda imperatorlar uchun ham imperiya xalqlarini bo'lib yuboradigan emas, aksincha, ularni birlashtiradigan, bir-biriga yaqinlashtiradigan din zarur edi.

Xristian dinini qabul qilish Rim imperiyasi mutloq hukmronligini saqlash mumkinligini anglagan. Imperator Konstantin mazkur dinni 324 yili davlat dini deb e'lon qildi. 325 yilda esa, Imperatorning ko'rsatmasiga binoan jahon xristianlarining birinchi yig'ilishi (sobori) chaqirildi. Shundan keyin imperiyaning badavlat xristianlari din nazorati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar – cherkovlar tuzdilar va bu jamoalarda pop, dyakon, yepiskop, kardinal, papa kabi quyi va oliy mansablarni joriy etdilar. Ular bu dinni saqlanishini, uning talablarini bekami-ko'st bajarilishini qattiq nazoratga oldilar, keng yoyilishida katta xissa qo'shdilar. Din ishlarini markazlashtirib, unga yakka hokim: dastlab yepiskop, keyinroq esa papa lavozimlari ta'sis etildi.

Xristianlikning muqaddas diniy yozuvi – Bibliyaning ikkinchi qismi – "Yangi axdnoma" bo'lib, u eramizning I-II asrlarida grek tilida yaratilgan.

Bibliyaning xristianlik paydo bo'lmasdan birmuncha oldin yaratilgan 1-qismi "Qadimiy ahdnoma" deb atalib, u yahudiylikning mukaddas yozuvi hisoblanadi. Bibliyaning ikkinchi qismi – "Yanga ahdnoma" deb atalib, u xristianlikning muqaddas yozuvi deb hisoblanadi.

"Yangi ahdnoma" 27 kitob(bob)dan tashkil topgan. Uning tarkibiga 4 ta "Injil"(Yevangilie, ya'ni Xushxabar), havoriylarning (Iso shogirdlari, xristianlikning dastlabki tartibotlari) amallari, 21 risola va Ioanning "Vaqiynomasi" kiritilgan.

Xristianlik boshqa jahon dinlarikabi mutlaq, abadiy, o'zgarmas karomatni, bilimni, benihoya qudratning egasi bo'lgan yakka xudo haqidagi g'oyani asoslaydi. Uuch ko'rinishdagi yakka xudo(troitsa)ni o'zida mujassamlashtirganlik aqidasini yaratgan. Uch ko'rinishdagi xudo haqidagi ta'limotga binoan, xudoning ichki hayoti sababi o'z-o'zidan mavjud bo'lgan uchlikdagi uch asos yoki "muqaddas uchlik" bo'lgan – ota-xudo, o'g'il-xudo va muqaddas ruhning o'zaro munosabatidir. O'g'il Iso bayon qilingan tarjimai holiga ko'ra ota-xudodan, muqaddas ruh ham ota-xudodan yaratilgan (provaslav yo'nalishi ta'limoti), (katolikda esa ota-xudo va o'g'il-xudo ham xudodan tug'ilgan).

Xudoning mujassamlanishi yoki Isoning ikki mohiyati – odam mohiyati, xudo mohiyati haqida, "Gunohni yuvish", ya'ni Isoning o'zini ixtiyoriy tarzda "kurbon qilishi" haqidagi ta'limot bilan mustahkamlangan. Xristianlik muqaddas ruh – ota xudo, bola xudo va muqaddas ruh – uch yuzli xudo to'g'risidagi ta'limoti, targ'iboti, tashkilotchiligi, jannat va do'zax, oxirat ya'ni dunyoning oxiri borligi, Isoning qayta tirilishi haqidagi va boshqa aqidalarni o'z ichiga oladi.

Xristianlik davlat dinideb e'lon qilingandan so'ng, 325 yili imperator Konstantin boshchiligida Nikey shahrida xristianlarning 1 jahon yig'ilishi bo'lgan. Yig'ilish xristian dinining qonun-qoidalarini ishlab chiqqan va xudoni uch shaxsning (ota xudo, o'g'il xudo) ruh xudo, birlikda ifodalanishidir deb uqtirgan. 381 yili xristianlarning Konstantinopolda bo'lib o'tgan II jahon yig'ilishida cho'qinish va tirilish haqidagi yangi aqida qabul qilingan.

Xristianlikda iymon kalimasi "yagona, muqaddas sobor va opostol cherkovi"ga ishonishni, cho'qintirish zarurligini tan olinishi, qiyomatdao'liklarning tirilishiga, shundan so'ng savob egalariga mangu rohat-farog'at ko'rish, gunohkorlarga doimiy azob-ukubat tortish davri kelishiga ishonishni buyuradi.

Diniy g'oyalar tarkib topishi bilan bir qatorda xristian ibodat marosimlari ham shakllanib borgan. Xristian marosimchiligining eng muhim elementlari sirli ibodat(tainstvolar) deb yuritiladi. Bular qatoriga cho'qintirish (suvga sho'ng'itib olish), miropomazanie (cho'qintirilgan kimsaga xushbo'y qatron-miropa surtilgach, "muqaddas ruh"ning huzur-halovati unga o'tishi); yevxaristiya yoki prichishenie (non va vinoni Isoning tanasi va qoni deb tasavvur etgan holda iste'mol qilish), tavba qilish (dindorning ruhoniy vositasida xudodan kechirim so'rashi va o'z gunohlarini unga aytib berishi), nikoh, ruhoniylikka fotiha berish, soborlashtirish, ya'ni bemorni muqaddaslashtirilgan zaytun moyi – yeliga bo'yash kabilar kiradi.

Xristianlikning bosh ibodati liturgiya (obednya, massa) bo'lib, u har xil afsungarliklar, muzika chalish, ashula aytish, "muqaddas" yozuvlarni o'qish, qadni

bukib ta'zim bajo keltirish, sham va chiroqlarni yondirish, xushbo'y narsalarni chekish bilan qo'shib olib boriladigan diniy amallardan iborat.

“Muqaddas uchlik”ning xar birini, Bibi Maryamni ulug‘lash “xudoga xush kelgan avliyolarga”, xudo yarlaqaganlarga ham sig‘inishni keltirib chiqargan. Xristianlikda budga cho‘qinish ham muhim o‘rinni egallaydi. Unda pasxa(Isoning tirilishi), tariqa(yoki pyatidesatnitsa), rojdestvo(Isoning tug‘ilishi) va boshqa bayramlarga katta o‘rin berilgan.

Xristianlikdagi yo‘nalishlar. Xristianlik shakllanib turli mamlakatlarga yoyilishi, ijtimoiy hayotda yuzaga kelgan siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy siljishlarga ham duch kela boshlagan. Boshqa jahon dinlari kabi unda ham turli yo‘nalishlar, mazhablar, sektalarga bo‘linish jarayoni sodir bo‘lgan.

Eng birinchi ajralish xristianlikda IV-V asrlarda ro‘y bergan, ya'ni Iso masihni talqin qilishda farqlanadigan ikkita diniy-aqidaviy yo‘nalishlar – monofizitlar va nestorianlar yuzaga kelgan.

Ko‘pchilik xristianlar Iso masihni ham xudo, ham odam tabiatiga ega deb bilsa, Konstantinopol arximandrati Yevtaxiya ta'limotining tarafdorlari bo‘lgan monofizitlar u faqatgana xudo mohiyatining birligidan iborat deb hisoblaganlar. Konstantinopol patriarxi Nestor qarashlari tarafdori bo‘lgan nestorianlar esa u xudo insonlar hayoti kabi yashashi uchun vujudga kelgan odamdir, deb targ‘ib qildilar.Hozirgi kunda monofizitlikka Yaqin sharqdagi Yakobitchilar, Janubiy Hindistonva Efiopiya xristian aholisining 96 foizi amal qiladi.

Xristian cherkovlari tarixi va ularning bo‘linishlari.

1054 yilga kelib xristianlikning pravoslav va katolik cherkoviga bo‘linishi rasman tan olingai. Bu bo‘linish Rim imperiyasining Sharqiy va g‘arbiy qismlari orasidagi feodal munosabatlarning tafovutlarini o‘zida aks ettirgan; Rim papasi bilan Konstantinopol patriarxi o‘rtasidagi barcha xristian cherkovlari ustidan yakka hokimlik o‘rnatish uchun shiddatli kurashlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Xristianlikning alohida va mustaqil g‘arbiy tarmog‘i Rim katolik cherkovi, ya'ni umumiy, jahon Rim cherkovi deb atala boshlagan. Dunyoviy hokimiyatga tobe bo‘lgan Sharqiy xristianlik grek-kefilik Sobitqadam(ortodoksal) xristianlik deb atala boshlangan. Pravoslav va katolik yerlarida umumiylik ham, bir-biridan farqlanadigan jihatlari ham bor.

XVI asrdagi reformatsiya jarayonida feodalizm va kapitalizmga qarshi keng quloch yozgan harakatlar Yevropadagi burjua revolyusiyalariing eng birinchi ifodalari edi. Katolikdan bir necha Yevropa cherkovlari ajralib chiqishi natijasida xristianlikda protestantlik harakatlari vujudga kelgan. Buning doirasida lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik va kalsinizm cherkovlari shakllangan.

Katolik – bu xristianlikda eng ko‘p tarqalgan yo‘nalishdir. U Yevropa, Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarida tarqalgan bo‘lib, e’tiqod

qiluvchilari taxminan 800 mln. kishini tashkil qiladi. Katolik ta'limotida jannat va do'zaxlar oralig'idagi dunyo, gunohkorlarning ruhi, joni haqidagi, Iso masihni benihoya hurmatlash, uning tanasi va jonini ko'klarga ko'tarish sohalaridagi diniy aqidalar mavjud.

Katolikda Bibliyani sharhlash huquqi faqatgina ruhoniylarga beriladi; chunki ular uylanmaslik haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdabali va sahnalashtirilgan ko'rinishga ega; diniy o'qish, duo, iltijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslavdagi kabi katolikda ham farishta, ilohiy kuch, chirimaydigan marhum jasadlariga sig'inish odatlari saqlanib qolgan.

Katolik boshqa yo'nalishlardan farqli o'laroq, markazlashgan tizimga ega. Vatikan ana shunday markaz sifatida(maydoni 44 gektar) 1924 yildan boshlab Papa Piy XIning Mussolini hukumati bilan tuzgan bitimiga muvofiq mustaqil teokratik davlat hisoblanadi. Rim Papasicherkovning yakka rahbari bo'lib, u Iso Masihning yerdagi noibi hisoblanadi. 1870 yili e'tiqod va axloq masalalarida uning benuqsonligi haqidagi aqida qabul qilindi. 1978 yilda sobiq Polsha kardinali Korol Voytila 264-Rim papasi etib tayinlanadiva Ioann Pavel II nomi bilan bu vazifani bajarishga kirishadi.

Son jihatdan unchalik katta bo'lmagan katolik jamoalari Markaziy Osiyoning ayrim hududlarida ham mavjud. Toshkentda 1990 yilda katolik markazi tuzilgan, uning qoshida jumhuriyatimizning boshqa hududlaridan ro'yxatdan o'tgan katolik diniy jamoalari ham o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar.

O'zining ahamiyatiga ko'ra, pravoslav dunyosida beshinchi bo'lgan, lekin e'tiqod qiluvchilari soni jihatidan birinchi bo'lgan rus pravoslav cherkovi X-XI asrlarda vujudga kelgan. Uning paydo bo'lishi endigina shakllanayotgan feodal munosabatlarni himoya qilish uchun, yangi g'oyaga muhtoj bo'lgan Kiev davlatiining ijtimoiy-siyosiy ehtiyojlarini qondirish uchun kerak edi. Rusning xristianlashuvi darrov amalga oshgan ijtimoiy jarayon bo'lmay, bir necha asr davom etgan ziddiyatli tarixiy hodisa edi.

Pravoslavning Markaziy Osiyo aholisi orasiga kirib kelishi XVI-XIX asrlarga to'g'ri keladi. Avval savdo-sotiq, keyin bu mintaqa xalqlarini mustamlakaga aylantirishdan iborat bo'lgan harbiy harakatlar jarayonida u kirib kelgan. 1870 yili Pokrovsk monastri qoshida missionerlik jamiyati tashkil qilingan. Jamiyat a'zolari mahalliy millatlarga mansub aholi orasida, garchi jiddiy natijalarga ega bo'lmagan bo'lsa ham, xristianlik bilan bog'liq katta targ'ibot ishlarini olib borganlar. Shu maqsadda 1844 yili "Karomat ko'rsatuvchi Nikolayning hayot yo'li" nomli risolani qirg'iz tiliga tarjima qildilar va chop etdilar, maxsus diniy maktablar ochildi. 1872 yili Rus pravoslav cherkoviga qarashli Turkiston (keyinchalik Toshkent, O'rta Osiyo) yeparxial boshqarmalari ochildi.

Pravoslav cherkovi hozirgi kunda jamiyatimizning yuksalishi bilan bog'liq tadbirlarni qo'llab-quvvatlamoda, ayniqsa dindorlarni axloqiy va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi o'zining rejalarini ishlab chiqmoqda. Bunda inson shaxsining qadr-qimmatini ulug'laydigan, oila asosini mustahkamlaydigan va mehnatga, butun jamiyatga nisbatan sofdil va vijdonlik ruhida bo'lgan munosabatlarni qaror toptirish nazarda tutilgan. Cherkovning ichki tartibini qayta qurishni amalga oshirishga, cherkov hayotini yangilashga, ruhoniylar orasida uchraydigan muhofazakorlik va sustkashliklarni bartaraf qilishlarga ham katta e'tibor berilmoqda. 1988 yilda bo'lib o'tgan rus pravoslav cherkovining ming yillik sanasini tantanavor, ulug'vor nishonlanishi, rus pravoslav cherkovining xalqaro obro'sini ko'tarilib borishiga ta'sir etdi. Muhim sanani nishonlash bilan bog'liq bo'lgan tantanalar, bayramlar va boshqa turli-tuman tadbirlar ruhoniylar uchun o'zlarining faqatgina ilohiyotchilik, cherkovning ichki hayoti va tartibi bilan bog'lanib qolmadi; balki jahonda, xususan Osiyo mintaqalarida tinchlik uchun kurash, irqiy kamsitishlarga barham berish, tabiatni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, demokratik jarayonlarni rivojlantirish, jamiyatda adolatli hayotni qaror toptirish bilan bog'liq ko'pgina masalalarni muhokama qilish uchun foydalandilar. Ulug' bayram kunlari diniy e'tiqod va marosimchilik masalalarini hal qilishga ham qaratildi.

Toshkent va O'rta Osiyo yeparxial boshqarmasi (unga 22 diniy jamoa bo'ysunadi) ham mustaqil jumxuriyatlarda vijdon erkinligi talablariga rioya qiladigan tadbirlar o'tkazmoqda, xalqlar o'rtasida osoyishtalik qaror toptirish uchun harakat qilmokda.

Protestantlik – bu ham xristianlikdagi yana bir yo'nalish bo'lib, katolik va pravoslavdan farqli o'laroq, diniy qarashlar jihatidan ham, cherkovlar orasidagi munosabatlar jihatidan ham bir xil bo'lmagan yo'nalishlarni faqatgina kelib chiqishi jihatidan bir-birlari bilan, XVI asrdagi yangilanish harakati bilan bog'liq bo'lgan ko'pgina diniy jamoalar, cherkovlar, mazhablarni yuzaga keltirilgan.

Protestantlik umumxristianlik asoslari va qarashlarini e'tirof etish bilan bir qatorda, u gunohdan xalos bo'lishning yangi usullarini ilgari surdi. Iso Masihning kishilar gunohini yuvishga qaratilgan o'zini-o'zi qurbon qilishiga ishonch, dinga ishonuvchi barcha kishilarning ruhoniylar bo'lishi mumkinligiga ishonch, Bibliyaning oliy nufuziga ishonch orqali xalos bo'lish ana shular jumlasiga kiradi. Shunday qilib protestantlik xudojo'ylikning asosiy talabini dinda odamning tashqi ko'rinishidan ichki hayotiga olib o'tdi va uni ixtiyoriy diniy ishonch bilan bog'ladi. Protestantchilik Bibliyaga sig'inishning o'ziga xos shaklini qaror toptirdi. Bu bilan protestant islohotchilari dastlabki xristianlikning oliy maqsadlarini, dindorlarni axloqiy jihatdan tarbiyalashga va jamiyatni ma'naviy jihatdan sog'lomlashtirish uchun ko'maklashishlariga alohida e'tibor bermoqda.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'pchiligini bekor qilgan (faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirishlar saqlanib qolgan). O'lganlarga bag'ishlab duo o'qish, aziz-avliyolarga sig'inish, ular sharafiga turli-tuman bayramlar o'tkazish, muqaddas murdalarga, sanamlarga topinishlar bekor qilingan. Ibodat uylari ortiqcha bezaklardan, mehrob, sanam, haykallardan xoli qilingan; monostrlar va monaxlikdan ham voz kechilgan, ruhoniylarning uylanmaslik sharti bekor qilingan. Bibliya milliy tillarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'ying eng muhim burchi bo'lib qoldi. Lyuteranlik, anabaptizm, anglikanlik, kalvinizm, svingchilik protestantlikning ilk shakllari bo'lgan. Keyinchalik "so'ngi protestantlik" umumiy nomi bilan ma'lum bo'lgan bir qancha diniy oqimlar, tashkilotlar paydo bo'lgan.

Markaziy Osiyoda ham protestantlik tarfdorlari uchraydi. Lyuteran jamoalari a'zolari Qirg'izistonda, Qozog'istonda va Tojikistonning Janubiy tomonlarida, Turkmanistonda, O'zbekistonda, chunonchi Sirdaryo, Farg'ona viloyatlarida yashaydilar. Bular asosan nemis millatiga mansub bo'lgan dindorlardir. Toshkentdagi lyuteranlarga, diniy toat-ibodatlarini bajarishlari uchun, umumiy diniy ehtiyojlarini qondirish uchun ular ixtiyoriga 30-yillarda qurilgan Kirxa berilgan. Dushanbeda ana shunday diniy maqsad uchun dindorlarning mablag'lari hisobiga va keng jamoatchilikning, jumladan, xorijiy mamlakatdagilarning ishtirokida yangi Kirxa qurilgan. Bu jamoada diniy hayot bilan bog'liq cho'qintirish, marhumga janoza o'qish, balog'at yoshiga yetganlarni dindorlar safiga qo'shish va nikoh o'qitish marosimlari o'tkaziladi. Diniy bayramlar muntazam nishonlanadi, diniy targ'ibotlar, va'zlar o'qiladi, diniy muloqotlar tashkil qilinadi.

Markaziy Osiyoda boshqa protestant yo'nalishlari ham mavjud bo'lib, ular baptistlar, adventistlar, iegovistlar, pyatidesyatniklar, menonitlar deb ataladi. Bu sektalar hozirgi sharoitdagi tarixan o'zgarishlar ta'sirini o'zida muayyan tarzda ifoda etgan diniy jamoalar va guruhlardan iborat. Ular kelib chiqishiga ko'ra quyidagi vaziyatlarga, eski rus sektantchilik shakllariga, protestantchilik harakatiga, pravoslaviyadagi eskicha marosimchilik va boshqa yo'nalishlarga, ya'ni 1917 yildan oldingi cherkovlar orasida ziddiyatlar kuchaygan sharoitlarga borib taqaladi.

O'zbekistondagi xristian sektalarining 65 foizdan ko'prog'ini baptistlar tashkil qiladi. Diniy ta'limot va marosimchilik borasida baptizm an'anaviy protestantchilik asoslariga tayanadi va o'zining yangi asoslarini ham yaratadi; chunonchi, ular faqatgina balog'at yoshiga yetganlarni yangidan cho'qintirishadi va o'z saflariga qo'shadilar. Bu marosimni tabiiy suv havzalarida bajaradilar. Cho'qintirish, non va vinoni tatib ko'rish kabi sirli marosim sifatida emas, balki ramziy marosimlar, harakatlar sifatida qabul qilinadi. Ibodat uylarini jihozlashda

xristianlikning ramziy belgilari ishlatilmaydi; ibodatlarining o‘zi Bibliyani o‘qishlar va sharhlashdan iborat bo‘lib, targ‘ibotlar va ashula aytishlar bilan qo‘shib olib boriladi.

O‘zbekistonda baptizm XIX asrning oxirlaridan beri mavjud bo‘lib, uning Toshkentdagi jamoalari, shu jumladan, “Yettinchi kun” adventistlari Islohchi-adventist, pyatidesyatniklar, menonchilik, injilchi-xristian baptistlar kengashi, iegova shohidlari kabi protestantchi jamoalari ham mavjud.

XI asrning oxirida xristianlikniig Sharqqa tomon harakati va tarqalishi ommaviy tus oldi. Bu dini mahalliy aholi orasida tarqatuvchilar Sharqning ayrim viloyatlariga ilgariroq kirib borganlar. 280 yildayoq Talos (Merke)da xristian cherkovlari qurilgan bo‘lib, Samarqandda (301 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda, Marida va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, kafedra, missiyalar, keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotda (558 yillar) 6-12 yegiskopliqdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar buddistlar, zardushtiyalar, moniyalar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qaram yerlarda ta’qib qilinganlar.

O‘rta Osiyo hududida islom tarqatilgan davrlarda bu din bilan xristianlik o‘rtasidagi kelishmovchiliklar keskinlasha boshlagan. Biroq, X asrgacha Samarqand, Xorazm, Toshkent viloyatlarida xristianlarning manzilgohlari bo‘lgan. Hatto Beruniy yashagan davrda ham (973-1050) Marvda pravoslav mitropoliyasi bo‘lgan. Ana shu davrlarda xristianlik Kavkazda ham tarqala boshlagan; Armaniston (301 yil) va Gruziyada(318 yili) davlat diniga aylangan. Kavkaz Albaniyasi hududida esa (hozirgi Ozarbayjon va Janubiy Dog‘iston xududi) IV-VIII asrlarda hukmron din hisoblangan.

Hozirgi mustaqil O‘zbekistonda 136 dan ziyod millat va elat yashaydi. Bular orasidagi dindorlar 16 konfessiyaga, ya’ni diniy uyushmaga e’tiqod qiladi. Bular doirasida islomdan so‘ng 2-o‘rinni xristianlikning pravoslav yo‘nalishi egallaydi. Uning bir necha cherkovi va markaziy uyushmasi, chunonchi baptist, iegovist, adventist kabi sektalari bor.

Nazorat savollari:

1. Buddizmning vujudga kelishi, ta'limoti – to'rt oliy haqiqat, nirvana haqida gapirib bering.
2. Buddizm axloqiy ta'limoti – “pancha-shila” to'g'risida nimalarni bilasiz?
3. Buddizmdagi oqimlari: maxayana, xinayana, lamaizm haqida o'z fikringizni bildiring.
4. O'zbekiston hududidagi buddizm yodgorliklari va ularning tadqiq etilishi. Xristianlikni O'rta Osiyoga kirib kelishi.
5. Xristianlik. Xristian ilohiyoti.
6. Yakka Xudoning uch qiyofasi. Ota-xudo, O'g'il-xudo, Muqaddas ruh. Xristianlikdagi asosiy oqimlar: ortodoks (pravoslavie), katolizm, protestantizm.

15-mavzu: Islom dini va uning ta'limoti

Reja:

1. Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo'lishi va Islom diniga asos solinishi.
2. Madinaga xijrat. Makkaning fath etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablarning paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi.
3. Qur'on – Islom dinining muqaddas kitobi. Qur'ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvat g'oyalari. Qur'ondagi axloqiy g'oyalarning umuminsoniy ahamiyati.
4. Hadis – Qur'ondan keyingi mo'tabar manba. Hadislarda ma'naviyat, axloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta'limotida oila muqaddasligi.

Tayanch iboralar: Islom, Hadis, Qur'on, Madina, Makka, vahiy, xalifalik, mazhablar, ixtiloflar, hijrat, johiliya, muhojirlar, ansorlar, ma'naviyat, ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvat, mehr-oqibat, axloq-odob, axloqiy g'oyalar,

MAVZUNING MAQSADI: Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo'lishi va Islom diniga asos solinishi, Qur'ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvat g'oyalari. Qur'ondagi axloqiy g'oyalarning umuminsoniy ahamiyati, Hadislarda ma'naviyat, axloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta'limotida oila muqaddasligi masalalarining mohiyatini ochish.

1. Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati. Vahiyning nozil bo'lishi va Islom diniga asos solinishi.

“Johiliya” – arabcha so'zdan olingan bo'lib, bilimsizlik, jaholat degan tushunchani beradi. “Johiliya” islomgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, aniqroq qilib aytganda, odamlar hayotida Iso (a.s.) bilan Muhammad (s.a.v.) oralig'idagi payg'ambarsiz o'tgan davr hisoblanadi. “Johiliya” tushunchasi Qur'onning bir necha suralarida uchraydi. Jumladan, “Moida” surasining 50 oyatida: “Johiliyat (davri) hukmini qo'msayapsizlarmi?! Chindan ishonuvchi kishilar uchun Allohdan ko'ra kim hukmda chiroyliroq ekan”, “Ahzob” surasining 33 oyatida: “O'z uylaringizda qaror topingiz, (ko'chaga chiqqaningizda) ilgarigi johiliyat (davri) yasanishdek yasanmangiz! Nomozni barkamol ado etingiz, zakotni beringiz hamda

Alloh va Uning payg‘ambariga itoat etingiz! Ey, (Payg‘ambarning) xonadon ahli! Alloh sizlardan gunohni ketgazishni va sizlarni obdon poklashni istaydi, xolos” – deb ta’kidlangan.

Islomdan oldingi arablarning ko‘pchiligi beshafqat va vahshiy bo‘lganligi, ya’ni ular go‘dak qizlarni tiriklay ko‘mish, o‘zga qabila vakillariga dushman sifatida qarash doimiy ravishda bo‘lib turgan, shuningdek, islomdan oldin Arabistonda qonunsizlik, axloqsizlik, zo‘ravonlik hukm surgan edi. Shuning uchun ham o‘sha davrni haqli ravishda keyingi avlod “Johiliya” deb ataganlar.

“Islom” – arabcha so‘z bo‘lib, bo‘ysunish, itoat etish, o‘zini Alloh irodasiga topshirish degan ma’nolarni anglatadi. Islom diniga e‘tiqod qiluvchilar arabcha “muslim” deb ataladi.

Islom dini dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biri bo‘lib, Jahonda qariyb 2 milliardga yaqini islomga e‘tiqod qiladi. Musulmonlarning 2/3 qismidan ko‘prog‘i Osiyoda yashaydi va bu qit‘a aholisining 20%idan ortiqrog‘ini tashkil etadi. 30% musulmonlar Afrika qit‘asiga to‘g‘ri keladi. Dunyoda musulmon jamoalari mavjud bo‘lgan 120 dan ortiq mamlakatdan 35 tasida musulmonlar aholining ko‘pchiligini tashkil etadi.

Shimoliy Afrika, G‘arbiy Osiyoning barcha mamlakatlari: (Kipr, Isroil mustasno) Senegal, Gambiya, Somali, Afg‘oniston, Pokiston, Bangladesh, Indoneziya kabi mamlakatlarda aholining 80% dan ortig‘i musulmonlardir. Shuningdek, Gvineya, Mali, Livan, Chad, Sudan kabi mamlakatlarda aholining yarmidan 80%igacha musulmonlarni tashkil qiladi. Malaziya va Nigeriyada musulmonlar 50% ni tashkil etadi. Bisau, Kamerun, Burkina Faso, Serra-Leone kabi mamlakatlarda musulmonlar ozchilikni tagkil etsa-da, islomning ta’sir doirasi kuchlidir.

Marokash, Jazoir, Tunis, Liviya, Misr, Somali mamlakatlarining xalqlari, Habashiston, G‘arbiy Sudanda yashovchilarning bir qismi, Osiyo qit‘asidagi Arabiston yarim oroli, Iordaniya, Suriya, Iroq, Eron, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy hamda Filippin aholisining bir qismi, Yevropa qismida bo‘lsa, Bolqon yarim orolida yashaydigan xalqlarning bir qismi islom diniga e‘tiqod qiladi. Aholining ko‘pchiligi mutloq musulmonlardan iborat bo‘lgan 10 ta mamlakat, hatto aholisining yarmini musulmonlar tashkil etgan ba’zilari ham (Misr, Malayziya) 49 % i o‘zlarini musulmon deb ataydilar. Ya’ni ularning ba’zilarida (Mavritaniya, Eron, Pokiston, Qamar orollari) mamlakatlarining nomiga islom so‘zi qo‘shib aytiladi. Rasmiy statistika bo‘yicha, bir necha mamlakatlarda aholining deyarli barchasi musulmonlardan iborat, 28 ta mamlakatda islom rasman davlat dini sifatida tan olingan. Shuningdek, islom Markaziy Osiyo, Kavkaz orti va Shimoliy Kavkaz, Volga bo‘yi, G‘arbiy Sibir va boshqa hududlarda yashovchi aholi orasida tarqalgan. Hozirda islomga e‘tiqod qiluvchilarning soni oshib bormoqda. Ayniqsa,

e'tiqod haqidagi yangi qonunning qabul qilinishi, vaqtli matbuot sahifalarida, radio eshittirishlarda va oynai jahon ko'rsatuvlarida din mavzuidagi chiqishlarning ko'payishi, bu haqida maxsus gazeta va jurnallarning keng tarqalganligi islomga bo'lgan e'tiborni oshirib yubordi.

Islom jahondagi ayniqsa Osiyo va Afrika qit'asi madaniyatining umumiy qiyofasida muhim iz qoldirgan. Bunga eng avvalo bu hududlarda arab tili va arab yozuvining keng tarqalganligi islom mafkurasi zaminida ishlab chiqilgan muayyan turmush tarzining hukmronligi musulmonlar ijtimoiy hayotining turli sohalari shariat tomonidan idora etilishiga imkon berdi. Shunga qaramay mahalliy madaniy an'analar yo'qolmay, ya'ni islom yo'nalishida rivojlangan va ko'pincha qadimiy musulmon an'analari sifatida qabul qilingan. Musulmonlar madaniy merosi milliy ozodlik harakati va rivojlanayotgan mamlakatlarning mustaqillik uchun kurashi jarayonida asosiy masalalardan biriga aylandi va ijobiy ahamiyat kasb etdi. Islomning paydo bo'lishini tahlil etish davrining xususiyatlari, arab qabilalari o'rtasida hukmron bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni va ularning diniy-g'oyaviy hayoti bilan qisqacha tanishib chiqishni taqozo etadi.

Arabiston yarim oroli noqulay iqlim sharoitiga ega bo'lgan qum sahrolardan va tog'lardan iborat bo'lib, uning aholisi V-VI asrlarda ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullangan. Yarim orolning cheksiz sahrolarida yashovchi ko'chmanchi chorvachilik bilan shug'ullanuvchi arab qabilalaribundan ham og'ir sharoitda yashaganlar. Ular taraqqiyot jihatidan ancha orqada qolgan, hali urug'chilik qabilachilik tuzimida edilar. Yarim orolning g'arbiy qismida Qizil dengiz qirg'oqlari bo'ylab cho'zilgan va qadimdan Hijoz deb nomlangan joylar bu davrlarda birmuncha iqtisodiy jihatdan rivojlangan bo'lib, asosan janubdan shimolga o'tgan qadimiy karvon yo'li bilan bog'liq edi. Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga qaraganada VI asr Yamandan shimolga Suriya, Misr, Falastinga olib boradigan karvon yo'li faqat bu davlatlarning o'zlariga emas, balki janubda Yaman orqali Habashiston va Hindiston, shimolda Suriya orqali Misr, Vizantiya va Eronni ham bir-biri bilan bog'laydigan o'z davri uchun yirik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan savdo yo'li edi. Hijozdagi ayrim aholi yashaydigan manzillar, yo'l ustida joylashgan Makka, Madina, Toif shaharlari II asrda ancha rivojlangan. Bular shuningdek, ko'chmanchi arab qabilalarining savdo munosabatlariga jalb etuvchi markazlar sifatida ham xizmat qilar edilar.

Makka diniy va savdo markazi sifatida arab qabilalari orasida e'tiborlisi bo'lgan edi. Makka markazida joylashgan Ka'ba islomda eng muqaddas hisoblanadi va "Allohning uyi" (Baytulloh) sajdagoh hisoblangan va hozir ham shunday. Undagi qoratosh (Hajar ul-asvad) va uch yuz otmish sanam arab qabilalari e'tiqod manbaiga aylangan. Ziyoratga kelish oylari muqaddas hisoblanib, bu vaqtlar ichida qabilalarda urush va janjallar to'xtatilgan.

V-VI asrlarda Makkada Quraysh nomli arab qabilasi hukmron bo'lib, qurayshlarning yuqori tabaqalari savdo-sotiq bilan ancha boyib ketgan, bu yerda pul muammolari, sudxo'rlik keng rivojlangan. Shuningdek, qul savdosi va qullarning mehnatidan foydalanish ham ancha kengaygan edi. Bu davrlarda Yamanni qo'lga kiritish uchun Vizantiya va Eron o'rtasidagi kurash avj olgan edi.

Yaman sosoniylar hukmronligiga o'tgan davrlar (572-628) Eron ko'rfazi orqali Hindistonga boradigan yo'l rivojlana boshladi va shu munosabat bilan Hijoz orqali o'tgan yo'l inqirozga uchraydi. Bu hol faqat Hijoz shaharlarigagina emas, balki barcha arab qabilalari hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatdi va umuman Arabiston bo'yicha ijtimoiy-iqtisodiy tanazzulning boshlanishiga sabab bo'ldi. Bunday vaziyatdan chiqish uchun Arabiston shaharlari va qabilalari o'rtasida mavjud bo'lgan tarqoqlik va kelishmovchiliklarga xotima berib, barcha arab qabilalarini bir davlatga birlashtirish, ularning tarqoq bo'lgan iqtisodiy va harbiy imkoniyatlarini yagona kuchga aylantirish zarur edi.

Ijtimoiy hayot taqozosi natijasida vujudga kelgan arab qabilalari o'rtasidagi markazlashishga intilish harakatlari arab jamiyatida VI asr oxiri VII asr boshlarida yuz bergan jiddiy tarixiy voqealar asosida yotar edi. Bu intilishni o'zida aks ettirgan mafkura islom dini vujudga keladi va markazlashtirilgan arab halifaligining kengayishi jarayonida bu din kuchli g'oyaviy qurol sifatida xizmat qiladi.

Arabchada "muslim", "o'zini Allohga topshirgan" degan ma'noni beradi. Qur'on vujudga kelmasdan ilgari, islom og'zaki targ'ib qilingan davrda bu so'z "Alloh ixtiyoriga topshirish" mazmunini bergan. Keyinchalik "islomni qabul qilish", "itoat etish" mazmunini kasb etgan. "Musulmon", "muslim"ning bir oz o'zgartirilgan shaklidir. Ayollarning muslima deb tavsiflanganlarning sababini shundan ham bilsa bo'ladi.

Diniy nazariyada islom Alloh yuborgan so'nggi mujassam din ekanligi, Qur'on Allohning nozil qilgan kalomi bo'lib, Muhammad payg'ambarga vahiy tarzida tushgan, tilovati ibodat hisoblangan. Ilk vahiy-diniy ta'limotga ko'ra ramazon oyining yigirma yettinchi kuniga o'tar kechasi, milodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi boshlangan va 23 yil davom etgan. Vahiy tusha boshlagan tun "Laylatul qadr" deb atala boshlagan. Bu hodisa Qur'onning 97 – "al-Qadr" surasida ifodalangan. Muhammad (s.a.v.) payg'ambar targ'ibotlarini boshlagan dastlabki yillarda juda oz kishi u zotning izidan borgan. Shu bilan birga qurayshiylarning umaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makka siyosiy hokimiyat tepasida turgan zodagonlar o'sha davrdayoq uning targ'ibotiga qarshilik ko'rsata boshlaganlar. Makkada ahvol jiddiylashgach, Muhammad (s.a.v.) Makka hukmdorlari bilan raqobatlashib kelgan qabilalarning vakillari bilan muzokaralar olib borgan va 622-yili ularning yordamida Madinaga hijrat qilingan.

Biroq islom tarixidagi ayrim masalalar, voqealarni, xususan, hijratning sabablarini izohlab berish uchun bular yetarli emas. Chunki, tarixiy manbalarga qaraganda, Makka zodagonlarining o'zlari birinchi navbatda quldorlar edilar. Payg'ambar Muhammad(s.a.v.) sahobalari, ansorlar esa, aksincha, qisman savdogarlar va o'rtahol kishilardan, ko'pchilik qismi kambag'al tabaqalarning vakillaridan iborat edi.


Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) xazrati Iso alayhissalomdan 571 yil keyin tug'ilganlar. Bu kun Rabbiul-avval oyining 12- (21-aprel) dushanba kechasi, sahar vaqtida Makkaning quraysh qabilasi Hoshimiylar avlodidan bo'lgan Abdulloh va Omina xonadonida tug'ildilar.

Muhammad(s.a.v.) yoshligida yetim qolgan, avval bobosi Abdul Mutallib so'ng amakisi Abu Tolib qo'lida tarbiya topadi. Balog'atga yetgach savdogorlar orasida xizmat qilib, 25 yoshida beva boy ayol – Hadichaga uylangach, uning mablag'lari bilan mustaqil savdogorlik qila boshlaganlar. Muhammad(s.a.v.) 610 yili qirqqa kirganlarida Makka ahlini yakka xudoga e'tiqod qilishlari to'g'risida targ'ibot olib borganlar.

Targ'ibot boshlangan dastlabki yillarda birinchilardan bo'lib, Hadicha, Ali ibn Abu Tolib hamda asrandi o'g'illari Zayd ibn Horisa e'tirof etib iymon keltirishgan. Ko'p o'tmay, Makkaning eng nufuzli savdogarlaridan Abu Bakr, Talha, Zubayr, Sa'd ibn Abu Vaqqos, Abdurahmon ibn Avf va Usmon ibn Affon Muhammad (s.a.v.)ni chin payg'ambar deb tan olishgan. Shuning bilan birga o'sha davrdayoq qurayshiylarning umaviylar xonadoniga mansub bo'lgan va Makkada siyosiy hokimiyat tepasida turgan badavlat zadagonlar bu targ'ibotga jiddiy qarshilik ko'rsata boshlaganlar. Buning natijasida Muhammad(s.a.v.) Madinadagi Avs va Hazraj qabilalarining vakillari bilan muzokara olib borib, o'z tarafdorlaridan 11 xonadon (50 ga yaqin odam)ni olib, guruh-guruh bo'lib Madina shahriga ko'chib ketadilar.

2. Madinaga xijrat. Makkaning fath etilishi. Xalifalik. Islomda mazhablarning paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi.

622 yili yuz bergan bu ko'chish (arabcha "hijra")dan musulmonlarning hijriy yil hisobi boshlanadi. Makkadan ko'chib borganlar islom tarixida



“Muhojirlar”(ko‘chib kelganlar), Madinalik qabilalardan islomni qabul qilganlar esa “ansorlar”(yordamchilar) deb nom olgan.

Madina shahrida Muhammad (s.a.v) targ‘ibotini qo‘llab-quvvatlagan va unga ergashgan muhojir va ansorlardan iborat musulmonlar jamoasi(Umma) vujudga kelgan. Bu jamoaga Madina arablarining a‘zo bo‘lib kirishi hijriydan keyingi yillarda davom etgan. Payg‘ambar Muhammad(s.a.v.) katta kuchga aylangan jamoaga rahbarlik qilar ekan, o‘z tarafdorlariga rasul – Allohning elchisi, odamlarga ilohiy yo‘l-yo‘riq va qonunlarni yetkazuvchi payg‘ambar bo‘lib tanila boshlaganlar.

Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) boshchiliklaridagi Madina shahri arablari makkaliklarni ham islomga bo‘ysundirish, bu ikki shahar o‘rtasidagi kelishmovchilikka chek qo‘yishni asosiy maqsadlaridan biri qilib qo‘ygan edilar. Shu munosabat bilan 624 yilda Badr quduqlari oldida, 625 yilda Uxud tog‘i etagida janglar bo‘lib o‘tgan.

Makkaliklar 626 yilda madinaliklarga uzil-kesil zarba berish maqsadida Madina jamoasiga qarshi yirik safarga otlanishgan. Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) Madina shahrini uzoq qamal sharoitiga tayyorlaganlar va buning natijasida shaharning atrofi chuqur handaqlar bilan o‘ralgan, u yerlarga kamonchi o‘qchilar joylashtirilgan. Ammo bosqinchilar tomonidan Madinani qamal qilish uzoqqa bormagan, chunki qishning sovug‘i, izg‘irin shamoliga qamalchilar bardosh berolmadilar, aksincha, ularning o‘zlari o‘rtasida nizo chiqqa boshlagan.

Madina qamalining bekor qilinishi, Madina jamoasini yanada jiplashtirdi va ularga yangidan-yangi badavlat qabilalar kelib qo‘shilishiga sabab bo‘ldi. Natijada musulmonlar jamoasi tez kengayib va kuchayib borgan, u yerda qabilalar birin-ketin islom dinini qabul qila boshlaganlar. Madinadagi musulmonlar jamoasi qisqa vaqt ichida kichik, lekin kuchli davlatga aylana borgan. Muhojir va ansorlar orasidan bir guruhi Muhammad payg‘ambarga yaqin turar, uning maslahatchilari hisoblanar edi. Bular islom tarixida “sahobalar” yoki “as‘hoblar” deb nom olgan.

628 yili musulmonlar jamoasi uchun ayniqsa muhim bo‘lgan bir voqea yuz bergan. Payg‘ambar Muhammad(s.a.v.) hali ham Ka‘bani muqaddas deb e’tirof etishni namoyish qilish maqsadida bir guruh musulmonlar bilan birga, barcha qabilalar hajga boradigan mavsumda Makkaga jo‘nagan. Ammo uning kelishidan shubhaga tushgan umaviylar Makkadan ancha narida – Xudaybiya vodiysida uni to‘xtatgan. Muzokaralar boshlanib, o‘rtada shartnoma tuzilgan. Shartnomaga asosan madinaliklarga kelasi yildan boshlab hajga kelishga ijozat berilgan. Shartnoma tuzilgan vaqtda Muhammad (s.a.v.) va u kishining hamrohlari orqaga qaytib ketishini, makkaliklar esa, o‘z navbatida, kelasi yildan boshlab madinaliklarning hajga kelishi uchun sharoit yaratib berishni o‘z zimmlariga olganlar. Shunday qilib, “Xudaybiya sulhi” deb nom olgan bu hujjatda Makka

zodagonlari Madina musulmonlar jamoasini mustaqil davlat sifatida birinchi marta e'tirof etishga majbur bo'lganlar.

Bundan keyingi davr mobaynida Madina davlati yanada kuchaygan, atrofdagi arab qabilalariga qarshi yurishlar qilinib, ularning ko'pchiligi bo'ysundirilgan. Bu davlatning mavqei Makkaga nisbatan jiddiy ravishda kuchaya borgan. Natijada Makka zodagonlari payg'ambar Muhammad (s.a.v.) bilan kelishish yo'llarini izlay boshlaganlar.

629 yil oxirlarida makkaliklar rahbari Abu Sufyon maxfiy ravishda Madinaga kelgan va Muhammad payg'ambar bilan muzokara olib borib, agar u Makkaning diniy markaz bo'lib qolishiga rozi bo'lsa, shaharni musulmonlarga jangsiz topshirishga rozi ekanligini bildirgan. Muhammad payg'ambar bunga rozi bo'lgan va o'rtada xufyona shartnoma tuzilgan.

630 yil bahorida Madina qo'shinlari Makkaga yaqinlashganlar va hech qanday qarshiliksiz shaharga kirib borganlar. Zodagonlar Muhammad payg'ambarni peshvoz chiqib kutib olganlar. Shu vaqtdan boshlab musulmonlar bilan Makka hukmronlari o'rtasidagi raqobat va qarama-qarshiliklar tugagan. Ular Muhammad payg'ambarning yaqin yordamchilariga aylanib, musulmonlar davlatida yuksak lavozimlarni egallay boshlaganlar.

Muhammad (s.a.v.) hijriy 11-yilning rabbi-ul-avval(632 yil iyun) oyida Madina shahrida 63 yoshda vafot etganlar. Bu davrda anchagina mustahkam musulmon davlati vujudga kelgan; u Yamanda Sino yarimoroligacha, Qizildengiz sohillaridan markaziy qum sahrolari – Sahroi Kabirgacha cho'zilgan katta hududni o'z ichiga olgan edi. Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin o'rinbosarlari – xalifalar davlatni boshqara boshlaganlar. Shu munosabat bilan musulmonlar davlati o'zining bundan keyingi tarixida “Arab xalifaligi” deb nom olgan. Ana shu arab xalifaligini 30 yil davomida boshqargan 4 xalifa – Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon va Ali ibn Abu Tolib (r.a.)lar islom tarixida “Xulofai roshidiyn – to'g'ri yo'ldagi xalifalar” sifatida tarixda qolishdi.

Abu Bakr (r.a.) hukmronligi (632-634 yillar) dastlabki yillaridanoq bir qator arab qabilalari o'rtasidagi kelishmovchilikni tartibga solish uchun harakat boshlagan. Bundan tashqari, ayrim joylarda o'zini payg'ambar deb e'lon qilgan mahalliy targ'ibotchilar rahbarligi ostida islomga qarshi diniy-g'oyaviy mustaqillik uchun kurash boshlagan. Vizantiyaning kuchsiz qo'shinlari jiddiy qarshilik ko'rsatishga o'z qo'liga qolganlar. Xalifa Umar zamonida istilolar yanada kuchaygan; 634 yili Basra, 640 yili Quddusi Sharif olingan va Falastin, Suriya yerlari to'la ravishda xalifalik qo'lga o'tgan. Shu vaqtning o'zida Mesopotamiya va Eronga ham yurishlar boshlangan. 637 yili arab qo'shinlari Sosoniylar poytaxti Ktesifonni egallaganlar, 644-645 yillar Hindiston chegaralariga yaqinlashganlar. 639 yilda Misrga qarshi hujum boshlangan, shimoliy va shimoliy-sharqiy tomonga

yurish boshlangan arab qo'shinlari 640 yilda Armanistonni fath etib, 647 yilgacha arablar Shimoliy Afrika qirg'oqlarini Tunisgacha bo'lgan yerlarni o'z tasarruflariga olganlar.

Ulardan keyingi xalifalar – Usmon (644-656) va Ali(656-661) zamonlarida ham istelolar davom etgan. Kavkaz va Markaziy Osiyo tomoniga nisbatan harbiy yurishlar kuchaygan. Qisqa vaqt ichida Gruziya, Ozarbayjon, Eronning shimoliy qismi, Xuroson, Marv yerlari arablar qo'l ostiga o'tgan va xalifalik qo'shinlari Amudaryo sohillariga chiqqan. Shunday qilib, 30 yildan ozroq muddat ichida arab xalifaligi yuqorida eslatilgan yurtlarni, o'sha zamondagi eng katta imperiya bo'lgan Vizantiyaga qarashli katta territoriyani ham bo'ysundirilgan, sosoniylar imperiyasini tomomila yiqitgan. Natijada Amudaryo sohillaridan Shimoliy Afrikagacha, Tbilisdan va Darbanddan Yaman hamda Ummongacha cho'zilgan yangi imperiya vujudga kelgan. Osonlik bilan erishilgan g'alabalarning asosiy sababi ularga jiddiy qarshilik ko'rsatadigan kuchning yo'qligida, borlarining ham tarqoqligida edi. Qadimiy imperiyalar–Vizantiya vaEron o'zaro urushlar tufayli holdan toygan edi. Shimoliy Hindiston, Markaziy Osiyo va Kavkazda ham yirik davlatlar yo'q edi; mayda feodal davlatlar o'zaro urushlar natijasida kuchsizlangan va tarqoq holda edi. Shuning uchun ham arab qo'shinlari nisbatan qisqa davr ichida ana shunday katta hududlarni egallashga muvaffaq bo'lgan edilar.

O'rta Osiyo xalqlari hayotiga islomning kirib kelishi bilan kalom, ya'ni islom falsafasini va diniy talablarni bajarishda arab tili ustuvorligi o'rnatilgan. So'ngra fan, adabiyot, falsafa va madaniyatning turlariga ham arab tili ta'siri kuchli bo'lgan. Ammo mahalliy xalqlar islomdan ancha oldinroq o'z ona tillarida yozuvni, ma'rifat va madaniyatini, ilm-fanni rivojlantirishga muvaffaq bo'lganlar. Bu jarayon keyinchalik islomning ta'sirida yanada rivojlantirilgan. Masalan, kishilarning turmush tarzi islom talabiga moslasha borgan, urf-odat va marosimlar diniy tus olgan, yoshlarga bilim berish uchun ko'plab madrasalar, qiroatxonalar tashkil etilgan. Demak, O'rta Osiyo xalqlari hayotida ilm-ma'rifat va madaniyatning rivojlanishida islomning ijobiy rol o'ynaganini e'tirof etishimiz lozim. O'rta asrlarda shakllanib ijod etgan savodli kishi, olim, shoir, ma'rifatparvar mutafakkirlarning hayoti va faoliyatida islomning ijobiy roli bor, desak xato qilmaymiz.

Islom O'rta Osiyo xalqlari turmush tarziga, madaniyatiga turli qirralariga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, me'morchilik yodgorliklari – madrasa, masjid, maqbara va boshqa islomiy obidalarni qurishda, ilm-fan, madaniyat va ma'rifatni targ'ib qilishda ayniqsa, musulmonlarni yuksak axloqiy ruhda tarbiyalashda o'z ifodasini topgan. Ganchlardan turli shakllar yasab yopishtirish kabilar ham xalq ijodiy qadriyatiga mansubdir.

Islomda, eng avvalo, din asoslari – “arkon-ad-din” hisoblanuvchi besh asosiy amaliy va marosimchilik rukn talablarini bajarishni talab etilgan. Hozir ham shunday. Bular, birinchi, kalimai shahodatni bilish; ikkinchidan, har kuni besh vaqt namoz o‘qish, uchinchidan har yili ramazon oyida bir oy ro‘za tutish; to‘rtinchidan, moli nisobga yetganlaryiliga bir marta shaxsiy molidan zakot berish; beshinchidan, imkon bo‘lsa, umrida bir marta haj qilishdan iborat. Islomga xos marosimlar va odatlar mana shu besh rukn bilan chambarchas bog‘liqdir. Islomning bu amaliy va marosimchilik talablari xalqlar turmush tarziga kiritilib, o‘ziga xos ma’naviy madaniyatning turiga, an’anaga aylantirilgan.


3. Qur’on – Islom dinining muqaddas kitobi. Qur’ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvat g‘oyalari. Qur’ondagi axloqiy g‘oyalarning umuminsoniy ahamiyati.

Diniy manba tushunchasi shundan iboratki, jahon xalqlarining tarixiy taraqqiyotida vujudga kelgan va asrlar osha avloddan-avlodga o‘tib, ularning e’tiqodiga aylangan har bir yirik dinlarning muqaddas yozuvlari (kitoblari) Alloh tomonidan in’om etilgan deb qaraladi. Ana shu muqaddas kitoblar dinlarning manbalari hisoblanadi.

Qur’on islomning muqaddas kitobi sifatida Allohning mo‘jizali kitobi bo‘lib, yer yuzi musulmonlarining dasturulamali, diniy ahkomlar manbaidir. Qur’on Muhammad (s.a.v.)ga vahiy orqali tushgan tilovati ibodat hisoblanuvchi muqaddas kitobdir.

Qur’onda boshqa ilohiy yozuvlar bir yo‘la tushgan deb hisoblansa, Qur’oni karim 23 yil mobaynida Alloh farishta Jabroil orqali Muhammad (s.a.v.)ga vahiy qilib yuborgan, so‘ngra ular to‘planib dastlab xalifa Abu Bakr Siddiq davrida so‘ngra xalifa Usmon hukmronligi davrida mus’haf qilingan. Shunday qilib, islom dini shakllangan davrdan boshlab Qur’oni Karim islom dinining asosiy manbasi bo‘lib kelayotir. Islom manbalaridan yana biri sunnatdir.

Sunna islomda Qur’ondan keyingi, uni to‘ldiruvchi islom ilohiyoti va shariatning ikkinchi asosi sifatida e’tirof etilgan.



VII-IX asrlarda islom ta’limotining tobora keng yoyilishi bilan turli diniy jamoa va davlatlar o‘rtasida diniy huquq, qonun-qoidalarni tartibga solish

zaruriyati tug'ildi. Bunda Qur'on va Hadislarga asoslangan shariat va uning manbalari – fiqh va qiyos vujudga keldi.

Shariat (arabcha to'g'ri yo'l, ilohiy yo'l, qonunchilik demakdir) – islom diniy huquq qonun qoidalari va me'yorlari majmuasidir. Ayni paytda shariat tushunchasi nafaqat islom diniy talablarini, balki diniy marosimlar, oila, nikoh va taloq masalalari, tijorat, iqtisodiy, mulkiy munosabatlar, musulmonlarning shaxsiy va ijtimoiy hayotiga xos ko'p masalalarni o'z ichiga oladi.

Fiqh – musulmon huquqi sifatida shariatning tarkibiy qismini tashkil etadi. Fiqh shariatning g'oyaviy va amaliy harakatlari, tavsifi sifatida musulmonlarning turmush qoidalari va ijtimoiy qarashlarini ifodalaydi.

Ijmo'–(arabcha yakdillik bilan qabul qilingan qaror). Qur'on va hadislarda aniq ko'rsatma bo'lmagan huquqiy masalalarni hal etishda faqih va mujtahidlarning to'planib, yagona fikrdan hukm chiqarishi (fatvo berishi).

Qiyos – Qur'on va Sunnada uchramaydigan biror huquqiy masala, ulardagi shunga o'xshash masala orqali berilgan yo'l-yo'riqqa, ko'rsatmaga mantiqiy taqqoslash, o'xshatish yo'li bilan sharh, izoh etish asosida hukm yoki fatvo chiqarish.

Islom davlat dini bo'lib kelgan mamlakatlarda shariat talablariga amal qilib kelingan, hozir ham shunday. Hozirgi davrda O'zbekiston xalqlari orasida marhumning yettisini, yigirmasini, qirqini va boshqa marosimchiliklarini o'tkazish odati bor. Xolbuki, shariat bunday marosimlarni o'tkazish yoki o'tkazmaslik haqida biron-bir ko'rsatma bermagan.

Suralarning nozil bo'lishi va "Qur'on" oyatlarining jamlanishi.

Qur'oni karim suralarining mus'haf qilinishi va ichki tuzilishi bayonida, uning nozil bo'lishiga e'tibor qaratiladi. Islom tarixiga ko'ra Qur'onning sura va oyatlari Muhammad (s.a.v.)ga parcha-parcha tarzida vahiy qilib borilgan. Bu vahiyning birinchi bayoni "Laylatul qadr" kechasi boshlanib, ularning vafotlarigacha, ya'ni 23 yil davom etgan. Islom dini, nur iymon va hidoyatining boshlanishi bo'lgan ana shu tun diniy an'ana bo'yicha hijradan 12 yil oldin ramazon oyining 27-kuniga o'tar kechasi melodiy hisob bilan 610 yilning 31 iyulidan 1 avgustiga o'tar kechasi deb hisoblanib, Qur'onni vahy qilinishning boshlanishi to'g'risida 97 – "Qadr" surasida ifodalangan. "Albatta Biz u (Qur'on)ni Qadr kechasida nozil qildik. (Ey Muhammad) Qadr kechasi nima ekanini Sizga ne ham anglatur?! Qadr kechasi ming oydan yaxshiroqdir?!" (97,1-3).

Diniy ma'lumotlarda Muhammad (s.a.v.)ga vahiy kela boshlaganidan so'ng, ularning qalblariga mustahkamlanib qolgan, Alloh ularga targ'ibot boshlashga da'vat qilganlari to'g'risida Qur'onda bor. Qur'onning 73-"Muzzammil" ("O'ralib olgan") va 74-"Muddassir" ("Burkalgan") nomli suralaridagi dastlabki oyatlarida

o‘z ifodasini topgan. Muzzammil – o‘ralib olgan, ya‘ni biron narsadan qo‘rqan kishi arablar odati bo‘yicha kiyim yoki to‘shaklariga o‘ralib olishga harakat qilar ekan. Payg‘ambarimiz (s.a.v.) ham mushriklarning bergan aziyatlaridan xafa bo‘lib yotganlarida, shu suraning oyatlari nozil bo‘lgan deyiladi. Unda Rasul (a.s.)ga Alloh taolo tungi ibodat qoidalaridan ta‘lim beradi. Tunni faqat uyqu bilan ham emas yoki faqat ibodat bilan ham emas, balki har ikkisiga ham ma‘lum vaqt ajratish to‘g‘risidagi ko‘rsatma beriladi.

Islom manbalarida rivoyat qilinishicha, Muhammad (s.a.v.) 40 yoshga yetganlarida, ya‘ni 610 yili Makka shahri yaqinidagi Hiro nomli g‘orda yolg‘iz qolib, ibodat bilan mashg‘ul paytlarida, farishta Jabroil (a.s.) ularga birinchi bor Qur‘on oyatlarini keltirganlar. Odatda Jabroil (a.s.) payg‘ambar Muhammad (s.a.v.)ga oyatlarni o‘qib berar, ular yodlab olib, o‘z izdoshlariga yetkazar edilar. Ular ham o‘z navbatida shunday qilar edilar. O‘sha davrlarda mutlaqo ko‘pchilik, shu jumladan Muhammad (s.a.v.) ham o‘qish, yozishni bilmaganliklari uchun yodlab olish u davrning birdan bir usuli bo‘lgan. Bu vahiy milodiy yil hisobida 22 yil, hijriy esa 23 yil davom etgan. Oyatlarida odamlarning savollariga javob berib, ularni to‘g‘ri yo‘lga yetaklagan, yuz bergan hodisalarni talqin qilib berilgan. Biron hukmning to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekani bayon qilinabergan. Muhammad payg‘ambar (s.a.v.) vafot etganlarida ularning safdoshlari Qur‘onni yod bilganlar. O‘sha paytda oz sonli kishilargina o‘qish-yozishni bilganlar. Savodli musulmonlar yozish imkoni bo‘lgan narsalarga Qur‘on oyatlarini aniqlik bilan yozib borganlar.

Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan so‘ng Qur‘oni karim suralarini to‘plash va mus‘haf qilish xalifalar Abu Bakr, Umar ibn al-Xattob, Usmon, ibn Affon davrlarida amaga oshirilgan. Dastlabki jamlangan Qur‘onni (Mus‘hafni) xalifa Usmon (r.a.) barcha mus‘hafnlarni to‘plab, taqqoslab chiqish va ularga bo‘lajak Qur‘onning yagona nusxasini tayyorlashga amir bergan va bu ishga bosh bo‘lgan.

Usmon (r.a.) amrini bajarish uchun to‘rt kishilik guruh belgilangan. Unga Zayd rahbarlik qilgan, uning tarkibiga Qur‘onni yaxshi bilgan sahobalardan az-Zubayr, al-Os, ibn Hishomlar kiritilgan. Bular barcha nusxalar va topilgan suralarni qaytadan tekshirib, taqqoslash asosida yagona nusxani tayyorlagan. Yangidan ko‘chirilgan yagona nusxa tarixda “Mus‘hafi Usmoniy” deb nom olgan. Mus‘haf qo‘lyozmasi tayyor bo‘lgandan keyin (651 yil) tez orada Usmon (r.a.) buyrug‘i bilan undan yana 3 ta (ba‘zi ma‘lumotlarga ko‘ra yettita nusxa) qo‘lyozma kufiy alifbosida ko‘chirilgan va o‘qishda hamda ibodatda barcha yerlarda Qur‘onning yagona matnidan foydalanishni amalga kiritish maqsadida, bu nusxalar Kufa, Basra, Damashq va boshqa shaharlarga yuborilgan.

Hozirgi kunda Islom olamida 4 ta qadimiy Mus‘haf nusxalarining borligi ma‘lum. Ulardan biri Madinada saqlanayotgan asl nusxa bo‘lib, islom manbalarida u “Imom” nomi bilan tilga olingan. Ikkinchi nusxa Ka‘bada, uchunchi nusxa

Qoxiradagi Misr milliy kutubxonasida saqlanmoqda. To‘rtinchisi Toshkentda O‘zbekiston xalqlari tarixi muzeyida saqlanib, 1989 yil boshlarida O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasiga topshirilgan.

Endi Qur‘onning ichki tuzilishi masalasiga e‘tibor qilamiz. Qur‘onda 114 ta sura, 6226 ta oyat borligi e‘tirof etilgan. Ammo Qur‘on matnlarini taqsimlanishiga asosan oyatlar soni 6204, 6232, hatto 6666 gacha belgilangan va uni kitob shakliga keltirishda muayyan usul qo‘llangan.


Suralar Qur‘onda o‘z mazmuniy izchilligiga yoki o‘qilgan vaqtiga qarab joylashtirilgan. Suralarning hajmi ham har xil: eng katta hajmiga ega bo‘lgan 2 - “Baqara” surasida 283 oyat bor, eng kichik suralar faqat 3 oyatdangina iborat.

Uzun suralar kitobning boshidan, qisqa suralar uning oxiridan o‘rin olishi, tadqiqotlarda aniqlanishicha, qadimiy arablarning va umuman old Osiyodagi somiy xalqlarning an‘anasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Xilma-xil yozuvlar, rivoyatlar yoki adabiy asarlar to‘planib kitob qilinganda, katta hajmdagi asarlar birinchi o‘rinda, kichiklari keyin joylashtirilar ekan. Zayd Ibn Sobit ham Suhufni to‘plab dasxat qilishda ana shu an‘anaga amal qilgan bo‘lishi mumkin.

Qur‘on – ilk islom g‘oyalarini o‘zida aks ettirgan yagona yozuv bo‘lgani sababli faqat islom tarixi bilan shug‘ullangan olimlarga emas, balki islom tarqalgan xalqlar adabiyoti va madaniyati bilan shug‘ullanganlarning barchasi ham bu kitobni tahlil qilishga katta e‘tibor berganliklari tabiiy bir holdir. Ammo, yuqorida aytib o‘tilganidek, uning suralari mavzulari asosida yoki tarixiy-xronologik tartibda joylashmaganligi sababli, bu kitob g‘oyat murakkab hisoblanadi. Shuning uchun XIX asr o‘rtalaridan boshlab, manbalarda uchraydigan tarixiy voqealar va shaxslarning faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar, ishoralarga, shuningdek, ishlatilgan iboralarga qarab suralarning yoki ayrim guruh oyatlarining vujudga kelgan davrini aniqlash, bilan ko‘p olimlar shug‘ullanganlar.

Nemis olimlaridan Noldeke va Grimme, rus olimlaridan I.Yu. Krachkovskiylarning bu sohadagi xizmatlarini alohida tilga olib o‘tish kerak. Ular olib borgan tekshirishlar natijasida suralar xronologiyasi faqat umumiy tarzdaгина aniqlangan.

Islomshunoslik va Qur‘onshunoslikning oxirgi xulosalari asosida suralarning xronologik tarkibini quyidagicha biroz takomillashgan shaklda tasavvur qilish mumkin:



Biz bu o‘rinda Qur’oni Karim suralarining xronologik tartibda masalasiga umumiy tarzda to‘xtalib o‘tdik. Bu g‘oyat murakkab ilmiy masalani faqat maxsus tadqiqotdagina mufassal yoritish mumkin.

Qur’oni Karim tuzilishi haqidagi gapni davom ettirsak, undagi har bir sura, oyatlar yig‘indisidan iborat. “Oyat” so‘zi faqat Qur’onning o‘ziga xos iborasi bo‘lib, “mo‘jiza”, “hikmat”, “ilohiy”, “alomat”, “belgi”, ma’nolarini anglatadi. Oyatlarning hajmi ham har xil: ayrim oyatlar bir necha tugal fikrni bildiradigan katta bir jumladan (masalan, 2,255-Oyat-al-Kursiy) iborat bo‘lgan holda, ayrim oyatlar faqat ikki so‘zdan (gapning bir qismidan)gina iborat. Masalan:

1. Osmon yorilganida,
2. Yulduzlar (har tomonga) sochilganida,

3. Dengizlar qo‘shilib to‘siqlar ochilganida,
4. Qabrlar ag‘darilganida (qiyomat qoyim bo‘lganida),
5. Jon o‘zi (har bir) (dunyoda) qilib o‘tgan va qoldirgan (barcha) narsalarni (amallarni) bilur! (82:1-5).

Qur‘on – muqaddas kitob, uning mazmunini Alloh so‘zlaridan iborat deb hisoblash ham Qur‘onning o‘zidagi ko‘rsatmalariga asoslangan: “U (Alloh) bundan ilgari yuborilgan (kitoblar)ning to‘g‘riligini tasdiqlab, senga haqiqat kitobini yubordi”, “Biz Nuhga, Ya‘qubga va uning avlodlariga, Isoga, Ayyubga, Yunusga, Horunga, Sulaymonga qanday vahiy qilgan bo‘lsak hamda Dovudga Zaburni qanday yuborgan bo‘lsak, senga ham o‘shanday vahiy yubordik”, “Sening Qur‘onni odamlarga parcha-parcha qilib o‘qib berishing uchun biz uni bo‘laklarga bo‘lib senga yubordik”.

Biz keltirgan va bundan boshqa ko‘p oyatlardan shunday xulosa kelib chiqadiki, Qur‘on o‘zidan ilgarigi diniy yozuvlarni inkor etmaydi, balki ularni tasdiqlash va o‘sha yozuvlardagi diniy yo‘llanmalarni oxiriga yetkazish uchun yuborilgan muqaddas kitob deyiladi. Islom ham o‘zidan ilgarigi diniy e‘tiqodlarning vorisi, Muhammad (s.a.v.) esa o‘zlaridan ilgari o‘tgan barcha payg‘ambarlarning ishini yakunlovchi va oxirigi yetgazuvchi rasul – elchi deb taniladilar.

Qur‘oni karim islomda muqaddas kitob, barcha bilimlar manbai, qonunlar to‘plami, mazmuni osmondan Alloh ta‘olo vahiy qilgan deb e‘tiqod qilinadi. Qur‘ondagi har bir suraning nomi bor, bu nom sura boshlanishida sarlavha qilib berilgan.

Olimlarning fikricha, suralarning nomlari dastlabki vaqtda bir necha so‘zdan tuzilgan jumladan iborat bo‘lgan, keyinchalik qisqara borib, o‘sha jumladan bironta so‘z saqlanib qolgan bo‘lishi mumkin. Shuninguchun 2-sura Baqara (Sigir), 16-sura Nahl (Asalarilar), 27-sura Naml (Chumolilar) deb nomlangan bo‘lsa, bunga hech ham ajablanish kerak emas. O‘sha suralarda tegishli rivoyatlar keltirilgan. Dastlabki shaklida “Ana shunday rivoyatlar haqida sura” tipidagi uzunroq nom bo‘lgan va keyinchalik qisqargan bo‘lsa, o‘z-o‘zidan tushunarli xoldir.

Qur‘ondagi 29 ta suraning boshlanishida bir yoki bir necha alohida harflar bor. Ilohiyot kitoblarida va tafsirlarida bu harflar “al-huruf al-muqotta‘a” (alohida, bir-biridan uzuq harflar) deb ataladi. Masalan, 3, 29, 30, 31, 32-suralarning boshlanishida – “alif”, “lom”, “mim”, 10, 11, 12, 13, 14, 15-suralar boshida “alif”, “lom”, “ro”, 19-surada – “Kaf”, “Ho” (hoy havvaz), “Yo”, “Ayn”, “Sod” va hokazo. Diniy adabiyotda asosan “bu harflarning mazmuni sir, uni faqat Payg‘ambar Muhammad (s.a.v.) o‘zlari bilganlar”, ularga “Qur‘onning siri” degan

fikr aytilgan. Faqat yirik mufassirlarning bu harflardan ba'zilarini Allohning sifatleri deb ta'riflagan hollari uchraydi.

Qur'on matni sura va oyatlardan tashqari yana 30 ta "juz" (o'zbekcha "pora")larga bo'lingan. Shuni aytish kerakki, pora sura va oyatlarga o'xshab Qur'onning ilk tuzilishi bilan bog'liq emas, balki o'qishda qulaylik tug'dirish uchun keyinchalik Qur'on matnini hajm jihatidan teng bo'laklarga bo'lishdan iborat bo'lgan. Shu sababli eng uzun 2-sura ikki yarim poradan ko'proq bo'lgani holda, oxirgi qisqa suralardan 37 tasi bir porani tashkil etadi.

Qur'on yirik tarixiy va madaniy yodgorlik sifatida axloq, insof, vijdon, halollik kabi sohalaridagi umumbashariy ahamiyatga molik yo'l-yo'riqlar, qoidalari hozirda ham g'oyat zarur ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

4. Hadis – Qur'ondan keyingi mo'tabar manba. Hadislarda ma'naviyat, axloq-odob, mehr-oqibat masalalari. Islom ta'limotida oila muqaddasligi.

Islom dinining asosiy manbasi bo'lgan Qur'oni karimdan keyin uni izohlovchi va bayon etuvchisi bo'lmish Rasululloh (s.a.v.)ning so'zlagan hikmatli gaplari o'z hayot faoliyatlarida qilgan ishlari – ul zotning hadislari hisoblanadi. Islom jamoasi Qur'oni karimning sura va oyatlarida keltirilgan ta'limotlar, amallar va huquqiy ko'rsatmalardan foydalangan holda Rasulullohning sunna (hadislar)laridan ham bohobar bo'lmish, amaliy hayotga tatbiq qilish zaruriy hol bo'lgan.

Muhammad (s.a.v.)ning hadislaridan birida: "Ey ummatlarim! Men sizlar uchun Qur'oni karim bilan o'zimning sunnatim – yo'l-yo'riqlarimni qoldirdim. Sizlar shu ikkalasini qattiq tutib, (ularga) amal qilsalaringiz, to'g'ri yo'ldan aslo adashmaysizlar" deyiladi.

Ma'lumki, islomning asosiy manbalaridan bo'lmish Qur'oni karim suralari, Muhammad (s.a.v.) sunnalari dastlabki davrlarda asosan yodlangan, og'izdan-og'izga ko'chib yurgan. Vaqt o'tishi bilan ularni yaxshi bilgan sahobalarning kamayib ketishidan qo'rqib, xar ikkalasini ham yozma matnini tayyorlashga kirishilgan. Natijada VII asrning o'rtalaridan boshlab Muhammad (s.a.v.) sunnalarini to'plash va kitob holiga keltirish qizg'in tus ola boshlagan.

Arabcha Sunna (as-sunna, ko'plikda sunna) – yo'l, yo'nalish, ya'ni "rivoyat", "naql", "xotira", "odat", "an'ana", "xatti-harakat" ma'nolarini anglatadi. Sunna islomda Qur'ondan keyingi, uni to'ldiruvchi manba, islom ilohiyoti va shariatining ikkinchi asosi sifatida e'tirof etilgan.

Hadislar Janob Rasululloh (s.a.v.)ning hayotliklarida jamlangan emas. Chunki, Janob Payg'ambarimiz sahobalarga: "Mendan Qur'oni Karimdan bo'lak hech narsani yozib olmanglar, agar kimki biror narsani yozib olgan bo'lsa, uni yo'q qilsin", – der edilar.

Ma'lumki, hadislar asosan Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) vafotlaridan keyin yozila boshlagan. Islomda Muhammad (s.a.v.)ga payg'ambarlik ukishining qirq yoshlarida nasib bo'lgan, deb hisoblanadi. Shunga ko'ra, Qur'on oyatlari payg'ambar umrlarining oxirigacha, ya'ni 23 yil davomida turli munosabatlar bilan nozil bo'lib turgan. Payg'ambar safdoshlari – sahobalar bu oyalarni maxsus sahifalarga yozib borganlar. Ularning ba'zilari payg'ambarning aytgan so'zlari va xatti-harakatlarini ham yoza boshlaganda payg'ambar bu ishni davom ettirishni ta'qiqlagan va bunga ular Qur'on bilan Sunnani ajrata olmay qolishlaridan cho'chishlarini sabab qilib ko'rsatganlar.

Ilk muhaddislardan Al-Xudriy bu borada bunday rivoyat qiladi: Rasululloh (s.a.v.) aytadilarki, "Mendan eshitganlaringizni hech narsani yozib yurmanglar. Kimki Qur'on oyatlaridan boshqa biror so'zni mandan eshitib yozib olgan bo'lsa, uni darhol yo'qotsin. *Kimki mening nomimdan so'z tarqatsa, jahannamga doxil bo'lishlikka hozirlik ko'raversin*". Darhaqiqat islom tarixidan Al-Hudriy payg'ambar hadislarini yozib borishlikka u kishidan ijozat so'raganda, rad javobini olganligi ma'lum.

Abu Xurayradan yana boshqa misol keltiriladi: "Biz hadis yozar ekanmiz, payg'ambar alayhissalom yonimizga keldilar va "Sizlar nimani yozayapsizlar?" - deb so'radilar. Bizlar: "Sizdan eshitgan hadislarini" – deb javob berdik. Shunda payg'ambar: "Allohning kitobi – Qur'ondan boshqa yana qanday kitob istaysiz? Sizdan boshqa millatlar Allohning kitobidan tashqari yana boshqa kitoblar yozganlari uchun zalolatga ketdilarku!" – degan ekan". Lekin ba'zi sahobalar qat'iy turib ijozat so'rashgani va ular o'qish-yozishni mukammal bilganliklari hamda qur'on va hadislarini o'zaro aralashtirib yubormasliklarini bilganlari uchun Abu Hurayra, Abdulloh ibn Mas'ud, Zayd ibn Sobit kabi ba'zi sahobalarga ruxsat berdilar.

Hadis – islomda Qur'ondan keyingi muqaddas manba hisoblangan. Bunda Muhammad (s.a.v.)ning hayot-faoliyatlari va ko'rsatmalari, u kishining diniy, axloqiy dasturlari ham o'z ifodasini topgan. Muhammad (s.a.v.) biror gap aytgan yoki ma'lum ishni qilib ko'rsatgan bo'lsalar, yohud boshqalarning qilayotgan ishini ko'rib, uni ma'n etmagan bo'lsalar, shu uch holatning har biri hadis deb atalavergan. Ma'lumki, hadislarda islom ahkomlari, ya'ni farz, vojib, sunnat, mustahab, halol, harom, makruh, muboh kabi amal turlaridan tashqari, axloq-odobga doir dasturlar talqin etiladi. Unda xalq orasida keng tarqalgan axloq-odobga oid maqol, qimmatli hikmatli gaplar ham qamrab olingan.

Hadislarda ibodatning tartib-qoidalari va ularni astoydil bajarishga da'vat etish bilan birga insoniy fazilatlar keng tashviq qilingan, insoniylik sha'niga dog' tushiradigan razil xatti-harakatlar keskin qoralangan. Shuning uchun ham islomning ilk tarqalish davridanoq musulmonlar orasida hadislariga juda katta

ahamiyat berilgan. Eshitgan har bir hadisni yanglishmay, asl holicha boshqalarga yetkazishga qat'iy rioya qilingan. Bu to'g'rida Muhammad (s.a.v.)ning o'zlari musulmonlarni tez-tez ogohlantirib turganlar. Hadis mazmuni va iborasini buzib yoki o'zicha yangi hadis to'qib tarqatuvchilar qattiq qoralangan. Bunday talabchanlik payg'ambar vafotlaridan ancha keyingacha ham hadislarning so'f holda saqlanib turishiga imkon bergan. Lekin keyinchalik turli sinfiy va ijtimoiy ziddiyatlar, islomdagi ichki g'oyaviy kurashlar natijasida ko'pincha soxta hadislar ham yuzaga kela boshlagan. Natijada yirik ulamolar hadislarni ishonchli manbalar asosida qayta ko'rib chiqish va ularni turli xatolardan tozalab, asl holiga qaytarish uchun ancha zahmat chekishgan. Hadislarni og'zaki holdan kitob shakliga keltirish hijriy yil hisobining ikkinchi asridan, ya'ni milodning VIII asridan avj olib ketgan.

Qur'onning ayrim ko'rsatmalariga amal qilish ham ko'pincha uning ma'lum matni bilan bog'liq bo'lgan hadis orqali belgilanar edi. Shu bilan birga tarixiy xarakterga ega bo'lgan hadislar bo'lgan; ular Muhammad (s.a.v.) yoki sahobalar tarjimai holidagi ayrim tafsilotlarni aks ettirgan edi. Shu hadislar asosida VIII-IX asrlarda Muhammad (s.a.v.) va u zotning yaqinlari, harbiy yurishlari haqida "Yurishlar kitobi" yozilgan. Bu arab tilidagi ilk tarixiy asar va Muhammad (s.a.v.)ning tarjimai hollari edi. Shu tariqa, hadislarni muayyan qismi – ilk islom tarixi bo'yicha bir manba bo'lib xizmat qilgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, hadisni to'plab chiqarishni ta'qiqlashning turli xil sabablari bo'lgan. Masalan, tarixchi ibn Qutaybaning ta'kidlashiga ko'ra, bunday sabablardan biri savodli xattotlarning kamligi bo'lsa, ikkinchisi, arab alifbosining hali yetarli darajada takomillashmaganligidadir. Shu sababdan payg'ambar (s.a.v.) musulmonlarning hammalariga ham hadis yozib borishga ijozat bermaganlar. Bundan faqat savodli va mo'tabar xattotlarga mustasno edilar.

Abu Hurayradan keyingi o'rinda turuvchi muhaddis xalifa Umar o'g'li Abdullohdir. U rivoyat qilgan 2630 hadisdan 2019 tasini ibn Hanbal o'z kitobida naql qilgan.

Uchinchi o'rinda turuvchi sahobiy ibn Molik bo'lib, 2286 hadis rivoyat qilgan. Ibn Hanbal esa o'zining "Musnad"ida 2178 hadisni keltirgan. Ibn Molik rivoyat etgan 2210 hadisni payg'ambar (s.a.v.)ning rafiqalari Oisha (r.a.) ham ta'kidlagan. Undan keyingi o'rinda ibn Abbos turadi; u 1660 hadis rivoyat etgan. Undan keyin 1540 hadis yozgan al-Xudriy turadi. Ibn Hanbal o'z kitobida Jobirdan 1206, al-Hudriydan 958 hadis keltirgan.

Hadis rivoyat qilgan sahobalar soni har xil bo'lib, mualliflar ham har xildir. Masalan, 149 sahobiyning rivoyat qilgan hadisleri al-Buxoriy va Muslimning "Sahih" nomli asarlarida mushtarak kelgan. Umuman Imom al-Buxoriyda 208 ta, Muslimda esa 213 ta sahobiydan rivoyat qilingan hadislar keltirilgan.

Ibn Molikning “Muvatto” asarida 98, Abu Dovudning “Musnad”ida 218, ibn Hanbal “Musnad”ida 700 ga yaqin sahobiy rivoyat qilgan hadislar berilgan. Yuqorida keltirilgan raqamlar hadislarini sahobalar rivoyat qilganligi tufayli bizning davrimizga yetib kelganligiga dalil bo‘la oladi.

Payg‘ambarning safdoshlari va suhbatdoshlari orasida 220 ta Abdulloh ismli sahobalar bo‘lgan. Ular orasida faqat 4 tasi Abdulloh ibn az-Zubayr, Abdulloh ibn Abbos, Abdulloh ibn Umar va Abdulloh ibn al-Amr payg‘ambar vafotlaridan keyin turli masalalarni hal qilishda jonkuyar bo‘lganlar va Abdullohlar nomi ila mashhur bo‘lganlar. Yana 6-7 sahobiylik borki, ularning har birlari turli masalalar bo‘yicha fatvo berishda juda katta obro‘ va e’tibor qozonganlar. Ular Umar bilan Alidan tashqari, Abdulloh ibn Ma’sud, Abdulloh ibn Umar, Abdulloh ibn Abbos, Zayd ibn Sobit va payg‘ambarning rafiqalari Oishadir. Ulardan keyin hadislarini saqlab, avlodlarga yetkazganlar ularning o‘quvchilari va bularning shogirdlari bo‘lganlar.

“Sahoba” so‘zi arabchadan olingan bo‘lib, “suhbat” ma’nosini anglatadi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ni ko‘rgan, u kishi bilan muloqotda bo‘lgan har bir musulmon “sahobiy” deyilgan. Imom al-Buxoriy ham shu fikrni tasdiqlagan. Ibn Xanbal ta’biricha, payg‘ambar bilan bir yil, yo bir oy, yo bir kun va yoki hatto bir soat suhbat etgan, yo bo‘lmasa hayotida bir marta bo‘lsa hamki uni ko‘rgan musulmon kishi sahobalardan hisoblangan.

Sahoba ismlari maxsus tartibga solinib, har biridan rivoyat qilingan hadislar jamlangan bo‘lsa, unday kitob “Musnad”; muallifning keksalari hurufi hijo (alifbo) tartibiga qo‘yilib, har birining yo‘li bilan muallifga yetib kelgan rivoyatlarni to‘plagan kitob “Mu’jam” deyiladi.

Bizgacha yetib kelgan shunday hadislardan nisbatan mashhurlari ikkita. Biri Molik ibn Anas (795 y. vaf.)ning “Al-Muvatto” (Tekis so‘qmoq) asaridir. To‘plamda 1700 hadis bo‘lib, bularni u ishonchli deb topgan. Ikkinchi to‘plam ibn Hanbalning “Musnad” asari bo‘lib, 3000 hadisdan iborat. Ba’zi muhaddislar faqat sahih, hadislarining o‘zini jamlashga harakat qilganlar va ularning to‘plamlari yuzaga kelgan. Birinchi bo‘lib bu ishni Ismoil Buxoriy, keyin ibn Hajjoj, so‘ng ibn-al-Ash’as, ulardan keyin Iso at-Termiziy, an-Nasoi va Ibn Moojjalar bajarishgan. Mana shu kishilar olamga mashhur bo‘lgan 6 ta sahih hadislar to‘plamining ijodkorlari hisoblanadi. Shu davrda yaratilgan, musannaf deb nomlangan hadislar keng tarqalgan va ommalashgan. Bu to‘plamda hadislar rivoyat qiluvchilar nomi bilan emas, balki fikr yuritilgan buyumlarga qarab joylashtirilgan. Ko‘proq tan olingan va nufuzli hadislar to‘plami 6 ta. Ular sunniylar orasida keng tarqalgan. Bular quyidagilar:

1. “Al-jome’ as-Sahih” (Ishonchli to‘plam) yoki qisqacha “as-Sahih al-Buxoriy” (810-870). Oldingi to‘plamlarga nisbatan bu ancha mahorat bilan

tuzilgan. Muallif bu to‘plamda faqat qonunshunoslikka va urf-odatlargagina emas, Muhammad (s.a.v.) hayotlari va sahobalar, hatto payg‘ambar (s.a.v.) davri tarixiy va etnografik tomonlariga xos hadislarni to‘plagan. Tanqidiy yondashgan holda 600 mingga yaqin hadis to‘plab, bu to‘plamga ishonchli deb bilganlaridan 7275 tasini kiritgan. Bu to‘plam katta shuhrat qozongan va ko‘p marta nashr qilingan;

2. Shunday shuhratga Muslim an-Nishopuriy (817-875 y.)ning “as-Sahih” asari ega bo‘lgan. U 300 mingga yaqin hadislarni ko‘rib chiqqan va ulardan 12 ming, ya’ni 4 foizini tanlab olgan;

3. “Sunna” (Sunnalar) Ibn Moja (886 y. vaf.);

4. Abu Dovud as-Sijistoniyy (888 y. vaf.)ning shu nomli asari;

5. Muhammad at-Termiziy (892 y. vaf.)ning “Al-jomi’ al-kabir” katta to‘plami;

6. An-Nasoiiy (915 y. vaf.) – Ashxobod yaqinidagi Naso degan joyda tug‘ilgan, Abu Dovud shogirdi. Asari – “Sunnan”.

Ma’lumki, Markaziy Osiyoda islom dini 708 yildan keyin keng tarqala boshlaganligiga qaramay, ilohiyot qatori muhaddislik ham ildam rivojlangan. Islom olamida mashhur va eng ishonchli deb e’tirof etilgan 6 muhaddislarning aksariyati Markaziy Osiyodan chiqqanlar. Masalan, Ismoil al-Buxoriy (810-870), at-Termiziy (824-892), ad-Dorimiy as-Samarqandiy (797-868) An-Nasoiiy (915 y. vaf. et.) va Kaspiybo‘yi xalqlaridan ibn Moja (824-886) va boshqalar bu sohaning taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shganlar.

Hadislar VII asr ikkinchi yarmi va IX asr oxirlarida yaratilgan hadislarning ko‘p qismi xalifalik mamlakatlarida ijtimoiy munosabatlar, tarixiy siljishlar va o‘sha davrda shakllangan huquqiy qarashlarni o‘zida aks ettirgan. Hadislar ilk o‘rta asr davrida xalifalik mamlakatlari ijtimoiy va davlat taraqqiyoti tarixi uchun manba ahamiyatiga egadir. Xulosa shuki, yurtimizning ko‘hna tarixida juda ko‘p mashhur shaxslar yashab, ijod qilib o‘tganlar. Ularning orasida dunyoviy fanlar va ilohiyot bo‘yicha dunyoda tanilgan olim va ulamolalar alohida o‘rin tutadilar. Chunonchi, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Al-G‘azzoliy, Zamahshariy, Ibn Sino, Al-Xorazmiy, Beruniy, Farobiy, Navoiy, Yassaviy, Ulug‘bek singari bobokalonlarimiz nafaqat Sharqda, balki butun jahonda mashhur bo‘lgan kishilardir.

Mustaqilligimiz sharofati bilan yuz berayotgan voqealar, tub o‘zgarishlar, demokratiyalash jaryoni bugungi kunda diniy va dunyoviy bilimlarni o‘rganishga keng imkoniyat yaratib berdi. Bular orasida ishonchli deb e’tirof etilgan muhaddis ulamolardan Imom Buxoriy va Imom at-Termiziydir.

Buyuk muhaddis Ismoil al-Buxoriy. Islom olamida eng yetuk va mashhur muhaddis Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy 810 yil 21 iyulda Buxoroda tug‘ilgan. Otalari shayx Ismoil ibn Ibrohim ahli hadislardan bo‘lib,

ozgina tijorat ishlari bilan ham shug'ullangan. Katta bobosi al-Mug'ira yamanlik Ju'fiy ibn Sa'd qabilasidan bo'lmish Buxoroda istiqomat qiluvchi al-Yaman al-Ju'fiy degan kishining ta'sirida musulmon bo'lgani uchun Imom al-Buxoriyga ham al-Ju'fiy deb nisbat bergan.

Imom Buxoriy go'dakligidanoq otadan yetim qolib, ona qo'lida katta bo'lgan. U yoshligidanoq arab tili va hadis kitoblarini o'qish va ularni yodlashga qunt bilan kirishgan. Keyin buxorolik muhaddislar Muhammad ibn Sallalol Paykoni, Abdulloh ibn al-Masnadiy al-Ju'fiylardan hadis ilmini o'rganib, ko'p hadislarni yod olgan. 16 yoshida onasi va akalari bilan birga hajga safar qilib, 4 yil Makkada yashagan. Safar asnosida qaysi shaharda to'xtalmasalar, o'sha yerdagi muhaddislardan ozmi-ko'pmi hadis o'rganmay o'tmasdilar. Shu tariqa Balx, Basra, Kufa, Bag'dod, Xums, Damashq, Misr, Makka va Madina kabi ko'plab shaharlardagi mashhur hadischi olimlardan shu ilm asrorlarini o'rgangan.

Imom Buxoriy o'ta iste'dodli, ziyrak, o'tkir zehnli, qobiliyatli ulamo edi. Rivoyat qilishlaricha, qaysi bir kitobni qo'lga olib, bir marotaba mutola qilsalar, hammasi yod bo'laverardi. Imom Buxoriyning o'z so'ziga ko'ra yuz ming sahih (ishonchli) va ikki yuz ming g'ayri sahih (ishonchsiz) hadisni yod bilar ekan. Basrada hadis darsiga qatnashgan sheriklaridan biri Xolid ibn Ismoil aytgan ekan: "Imom Buxoriy bizlar bilan birga ustozning darsini eshitardi. Ustoz rivoyat qilgan hadislarni biz yozib olar edik, ammo Buxoriy faqat quloq solibgina o'tirardi. Shu tarzda qancha kunlar o'tib, orada ustoz qariyb 15 ming hadis rivoyat qildi. Shunda biz Buxoriyga: "Sen nega hadislarni yozmaysan?", deb ta'na qilgan vaqtimizda: "Sizlar yozib borayotgan hadislarni men ustoz og'zidan yodlab olayotirman", dedi-da, ustoz rivoyat qilgan hamma hadislarni bir chekkadan yoddan o'qib berdi. Shundan keyin biz yozib olgan hadislarimizdagi xatolarni uning yodlaganidan tuzatib oladigan bo'ldik". Buxoriyning o'zi guvohlik berishicha, 100000 hadisni yod bilgan.

Ba'zi rivoyatlarga ko'ra, Imom Buxoriy 16 yoshga qadam qo'yganida al-Marvaziy (736-798), al-Jarroh (747-812)larning kitoblarini batamom yodlab olgan ekan. Imom Buxoriy o'n sakkiz-yigirma yoshlaridan boshlab kitob yoza boshlagan. Uning "al-Jome' as-sahih" asari sunniylar tomonidan e'tirof etilgan olti sahih kitobining birinchisidir. Undan tashqari yigirmaga yaqin kitoblari bo'lib, ko'plari bizgacha yetib kelmagan. Movarounnahr musulmonlari diniy boshqarmasi qaramog'idagi kutubxonada "al-Jome' as-sahih" (Ishonchli to'plam), "At-Tarix al-kabir", "At-Tarix as-sag'ir", "al-Qiroatu xalifa-l-Imom" ("Imom ortida turib namoz o'qish"), "Raf'ul-yadani fis salot" ("Namozda ikki qo'lni ko'tarish") kabi asarlarning qalamiy nusxalari mavjuddir. Imom Buxoriyning boshqa bir qancha asarlari ham bor: "Al adab al-mufrad" ("Adab durdonalari"), "Asmi-as-sahoba",

“Kitob af’ol il-ibod”, “Kitob bad i-l-maxluqot” kabi yigirmadan ortiq asarlari saqlanmoqda.

Imom Buxoriyning “Al-Jome’ as-sahih” deb nomlangan 4 jild (juz’)dan iborat hadislar to‘plami islom olamidagi boshqa muhaddislar tuzgan to‘plamlar orasida eng ishonarli va mukammalidir. Mazkur to‘plamda Muhammad (s.a.v.) va ularning sahobalari haqidagi hadislardan tashqari fiqh, islom marosimchiligi, axloq-odob, ta’lim-tarbiya hamda “Iymon”, “Tahorat”, “Namoz”, “Zakot”, “Nikoh”, “Taloq”, “Xaj”, “Jihad”, “Maloikalar haqida”, “Olamning paydo bo‘lishi” (“Dastlabki yaratish”) kabi 100 bobga bo‘lingan. Shuningdek, o‘sha davr tarixi va etnografiyasiga oid hadislar ham mavjud bo‘lib, unga 600 ming hadisdan faqat 7275 ta eng “sahih” – haqqoniy, ishonchli hadislar kiritilgan. Mazkur to‘plam Misr va boshqa bir qancha mamlakatlarda juda ko‘p marta chop etilgan, unga yirik ulamolar tomonidan sharhlar bitilgan. Bu kitob yozilganiga hijriy bo‘yicha 1200 yilcha bo‘ldi. O‘sha davrdan boshlab barcha ulamolar bu asarga Qur’ondan keyingi ikkinchi o‘rinda turadigan manba deb baho berib keladilar. Imom al-Buxoriyning ushbu kitobi ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashda, kishilarda axloq-odob, halollik, rostgo‘ylik, poklik singari umuminsoniy fazilatlarni qaror toptirish va mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir.

Hozirgi vaqtda Samarqand yaqinidagi Poyariq tumani hududida Imom al-Buxoriy nomi bilan bog‘liq ziyoratgoh mavjud bo‘lib, u Hoji Ismoil masjidi nomi bilan mashhur. Uni Buxoro amiri Abdullaxon qurdirgan. 1974 yili Imom Buxoriyning 1200 yilligiga bag‘ishlangan jahon anjumani o‘tkazilgan edi.

Mustaqillik yillarida buyuk vatandoshimiz Imom al-Buxoriyning merosini o‘rganishga, uning masjidi va qabrini ta’mirlashga alohida e’tibor berildi. 1996 yili O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Imom Buxoriyning 1998 yilda o‘tkaziladigan 1225 yillik yubeleyini munosib tayyorgarlik bilan kutib olish haqida maxsus qaror qabul qildi. Ushbu qarorga asosan Imom al-Buxoriyning Samarqanddagi masjidi va qabri qayta ta’mirlandi. 1998 yili, uning tavallud topgan kunini nishonlashga yig‘ilgan vatandoshlar, olimu, imom-hatiblar, chet eldan kelgan diniy arboblardan bu yangi tarixiy obidaning islomiy qadriyatlarining tiklanishi deb baholadilar.

Buyuk muhaddis Iso at-Termiziy. Ma’lumki, 1990 yil 14-17 sentabr Toshkent shahrida buyuk alloma, muhaddis Abu Iso Muhammad ibn at-Termiziy tavalludining 1200 yilligiga bag‘ishlangan “Imom Abu Iso Termiziyning ilmiy merosi va hozirgi zamon” degan mavzuda xalqaro Islom anjumani bo‘lib o‘tgan edi.

Imom Termiziy payg‘ambar hadislari, xatti-harakatlari to‘g‘risidagi sahih rivoyatlarni, ul zotning oila a’zolari, yaqinlari va sahobalaridan to‘plab kelajak

avlod uchun ulkan va bebaho meros qoldirgan. Islom dunyosida oltita sahifali hadis to'plovchilar tan olingan va Imom Termiziy ular orasida munosib o'rinda turadi.

Aziz vatandoshimiz buyuk muhaddisning to'la ismi shariflari Abu Iso Muhammad ibn Iso bin Savra bin Muso bin al-Zahhoh az-Zarir at-Termiziy al-Bug'iy. Ul Zot islom olamidagi mashhur muhaddislardan biri bo'lib, hadis, tarix va boshqa ko'plab ilmlar sohasida asarlar yozgan.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda, Imom Termiziy 824 yili Termiz yaqinidagi Bug' qishlog'ida tug'ilganlar. Yoshlik chog'laridan ilmga katta qiziqish va ishtiyoq ko'rsatgan. Hadis o'rganish maqsadida u 850 yildan boshlab Islom dunyosining turli shahar va diyoralriga safar qilgan. Hijoz, Xuroson va boshqa joylarda bo'lib, mashhur muhaddislar, ulamolar bilan muloqotda bo'lgan, ulardan ta'lim olgan. Imom al-Buxoriy shogirdlikdan tashqari at-Termiziy Muslim ibn Sa'id, ibn Muso, ibn Giylon, ibn Abdurahmon, ibn Bashshor, ibn Hujr, ibn Muni', ibn al-Musanno, Sufyon, ibn Vaqi' kabi yirik muhaddislarni o'ziga ustoz deb bilgan.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Imom al-Buxoriy Imom at-Termiziy to'plagan hadislarning sinchiklab o'rganishdagi nodir qobiliyati, taqvodagi ustunligini tan olgan va bunga shohidlik bergan.

Taniqli muhaddislarning ko'plari Imom at-Termiziyning hadis ilmini takomillashtirish va uni kelgusi avlodlarga sof holda yetkazishdagi xizmatlarini yuqori baholaganlar. Hadis imomlaridan al-Idrisiyning ta'biricha, u kishi "hadis bobida iqtido qilinadigan imomlardan biridir".

Termiziyning "Al-Jomi' as-sahih", "Shamoili Nabaviya", ("Payg'ambar (s.a.v.)ning shakl va sifatleri), "Kitob uz-zuhd" ("Zohidlik kitobi"), "Asmo' us-sahoba" ("Sahobalarning ismlari"), "al-Asmo' val-kunya" ("Ismlar va kun'yalar"), "Kitobul-ilal"("Illatlar kitobi") At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning to'la bo'lmagan ro'yxatidir.

At-Termiziyning fiqh boblariga moslab tasnif qilgan "Sunani Termiziy" nomli kitoblari tegishli mavzularni o'z ichiga atroflicha qamrab olganligi sababli "Al-Jome'" deb nom olgan. Bu asar 1867-68 yillarda Mirtohda toshbosmada, so'ngra 1876-77 yillar 2 jild bo'lib Qohirada nashr etilgan. At-Termiziy tayyorlagan hadislar majmuasi ham Qohirada "Sahih" deb, boshqasi "Jome'" degan nom bilan chiqqan.

Undagi hadislar uch guruhga bo'lingan: Sahih, Hasan va Zaif. Har bir hadisni zikr qilgan, uni qaysi guruhga mansub ekanligini aytib ketadi. (Masalan: "Bu hadis Sahih, bunisi esa Hasan yoki Zaif").

Imom al-Ansoriy at-Termiziyning kitobini yuqori baholagan. Zero, uning aytishicha, al-Buxoriy va Muslimning kitoblaridan ko'proq imomlargina foydalanadilar, at-Termiziyning kitobi esa har bir oddiy inson uchun foydalidir.

Imom at-Termiziy o'zining shoh asarini yozib tugatgach, uni zamonasining mashhur ulamolariga ko'rsatgan va ularning roziligini olgan. Bu haqda at-Termiziyning o'zi shunday deydi: "Bu kitobni tasnif etgandan keyin, uni Xijoz, Iroq va Xuroson ulamolariga ko'rsatdim va ularga ma'qul bo'ldi". Payg'ambar hadislarini to'plash va o'rganishda at-Termiziy ikki xil yo'ldan borgan. Birinchidan, hadislarning isnod (asl) manbalarining mazumini tanqidiy tahlil etgan. Ikkinchidan, har bir hadis atrofida borgan mazhablararo nuqtai nazarlar kurashiga e'tibor qilgan, ularga tanqidiy yondashgan. Ular Abu Xanifa, Imom Shofe'iyalar izidan borib, bir tomondan islomga Ijmo', Qiyos, Ra'y kabi oqilona tamoyillarni kiritganlar. Asarlari musulmon Sharqidagi hurfikrlik, diniy-falsafiy, diniy-axloqiy tafakkurning keng qamrovligini, umuman islomning nihoyatda zamon va shart-sharoitlarga moslasha olish qobiliyati shakllanishida muhim rol o'ynagan.

Imom Termiziy yuksak axloqiy va insoniy fazilatlarga ega, yuksak zakovat va zehn sohibi, fanning turli sohalarida atroflicha chuqur va yetuk bilimga ega bo'lgan kishi edi. Turmushda alohida ajralib turar, kam taom iste'mol qilib, ko'p mehnat va ijod qilar, axloqsizlikni qoralar edi. U zot har doim ilm-fanni targ'ib qilar, ayniqsa yoshlarni ilm olishiga da'vat etardi. Ayni paytda, muloyimlik va xushfe'llik ul zotning go'zal fazilatlaridan biri edi. Umr bo'yi qilingan uzluksiz ilmiy izlanishlar, mutolaa, asarlar yaratish mashaqqati, hayotiy uqubatlar o'z asoratini ko'rsatgan, umrining oxirgi yillariga kelib ko'zlari ojiz bo'lib qolgan va 892 yili 70 yoshida termizda vafot etganlar.

Bobokalonimiz at-Termiziyning buyukligi shundaki, u o'z kitoblarida quyidagi g'oyani tarannum etgan: "Inson insonning do'sti, birodaridir. Inson insonga zulm ham qilmasligi, muhtoj damlarda inson insonni tashlab ham qo'ymasligi kerak". Xuddi shuning uchun ham jahon xalqlari bu ma'rifatparvar zotni necha yuz yillar davomida e'zozlab kelayapti. Xulosa shuki, hadisi shariflarda aytilgan ibratomuz fikrlar asrlar osha musulmonlarni yaxshi xulq, odat, insof va vijdoniylikka chorlagan. Kishilar o'rtasidagi iliq munosabatlarning shakllanishiga xizmat qilgan.

Qur'oni karimdan keyingi manba hisoblangan hadislarning buyuk allomalari Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy va boshqalar bizning yurtdoshlarimiz bo'lganligidan haqli ravishda faxrlanamiz.

Nazorat savollari:

1. Islom dini shakllanishidagi tarixiy sharoit haqida gapirib bering.
2. Muhammad payg'ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati to'g'risida ma'lumot bering.
3. Vahiyning nozil bo'lishi va Islom diniga asos solinishi qanday ro'y bergan?
4. Madinaga xijrat. Makkaning fath etilishi. Xalifalik to'g'risida gapirib bering.
5. Islomda mazhablarning paydo bo'lishi, ilk ixtiloflar to'g'risida nimalarni bilasiz?
6. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi tarixi haqida so'zlab bering.
7. Qur'on – Islom dinining muqaddas kitobi ekanligi haqida ma'lumot bering.
8. Qur'ondagi ezgulik, tinchlik, birodarlik, mehr-muruvat g'oyalari to'g'risida fikr bildiring.
9. Qur'ondagi axloqiy g'oyalarning umuminsoniy ahamiyatga ega ekanligini tushuntirib bering.
10. Hadis – Qur'ondan keyingi mo'tabar manba sifatida.
11. Hadislarda ma'naviyat, axloq-odob, mehr-oqibat masalalari yoritilganligi to'g'risida ma'lumot bering.
12. Islom ta'limotida oila muqaddasligi qanday yoritib berilgan.

BESHINCHI MODUL

16-mavzu: O'zbekistonda vijdon erkinligi

Reja:

1. Vijdon erkinligi tushunchasi. O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

2. Missionerlik va protelitizm xavfining bartaraf etilishi. Diniy va dunyoviylik muammosi, ularning uyg'unligini ta'minlash borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar.

3. Ma'rifiy islomni targ'ib etish – yoshlarni diniy mutaasiblik, aqidaparaslik (fundamentalizm) va ekstremizm g'oyalardan muhofaza etishning oqilona yo'li.

Tayanch iboralar: fuqarolik jamiyati, erkinlik, vijdon erkinligi, diniy konfessiyalar, missionerlik, protelitizm, diniy mutaasiblik, aqidaparaslik (fundamentalizm), ekstremizm, bag'rikenlik, mehr-oqibat, samimiylilik, axloqiy poklik, insofu adolat va insonparvarlik.

MAVZUNING MAQSADI: Vijdon erkinligi tushunchasi, O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar, diniy va dunyoviylik muammosi, ularning uyg'unligini ta'minlash borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar mohiyatini yoritish.

1. Vijdon erkinligi tushunchasi. O'zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi. O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar.

Mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatining tamal toshi «vijdon erkinligi» tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir. Fuqaroviy erkinliklar ichida insonning ichki ma'naviy dunyosiga va uning ruhiyatiga bevosita aloqador bo'lgan vijdon erkinligi demokratik dunyo bo'ylab umume'tirof etilgan inson huquqlarining eng asosiylaridan biridir.

Fuqarolik jamiyati kishilar o'rtasidagi munosabatlarning yuksak madaniy saviya va teran ma'naviy zaminga asoslangani bilan ajralib turadi. Bunday jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy hayotida umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligi, ularning mo'tabar va hatto, muqaddas sanalishi barqaror bo'lmog'i shart. Muayyan insonning qadr-qimmatini, odamlar orasidagi mehr-oqibat, samimiylilik, axloqiy poklik, insofu adolat va insonparvarlik kabi eng ezgu umuminsoniy qadriyatlar

fuqarolik jamiyati hayotining haqiqiy mezonlaridir. Shuning uchun ham, O‘zbekistonda kechayotgan davlat va jamiyat qurilishi jarayonida tom ma’nodagi vijdon erkinligini ta’minlashga alohida urg‘u berilmoqda.

Davlatimizning vijdon erkinligiga munosabati – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31-moddasida mustahkamlab qo‘yilgan “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega”,– degan qoidada o‘zining aniq huquqiy-qonuniy ifodasini topgan. Demak, “vijdon erkinligi” degan tushunchaning mazmun-mohiyati xohlagan dinga e’tiqod qilish huquqidan tashqari, hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik ixtiyorini ham qamrab oladi. Har bir fuqaro haqli bo‘lgan bunday huquqning buzilmasligi uchun mazkur modda “diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” degan muhim qoida bilan to‘ldirilgan. Buning zahirida vijdon erkinligiga nisbatan har qanday tahdidni bartaraf etish istagi yotadi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida aniq-tiniq belgilab qo‘yilgan davlat va jamiyat qurilishining bosh maqsadlardan biri – inson farovonligi ta’minlangan, ijtimoiy adolat va qonuniylik ustuvorlik qiladigan, barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lgan, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat’iy nazar, qonun oldida tengligiga asoslangan jamiyatni barpo etishdir. Bu, eng avvalo, yuksak ma’naviyat va hurfiylikka asoslangan, vijdon erkinligi amalda barqaror bo‘lgan jamiyatni barpo etish demakdir. Bunday jamiyatni qurish esa, birinchi navbatda, keng ma’nodagi vijdon erkinligi, jumladan, diniy e’tiqod erkinligini ta’minlashni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida ushbu hayotiy masalaga umume’tirof etilgan demokratik tamoyillardan kelib chiqib yondashilgan.

Tom ma’nodagi vijdon erkinligi huquqini kafolatlash va amalda ta’minlash uchun O‘zbekistonda to‘laqonli huquqiy tizim yaratilgan. “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining yangi tahririga (1998 yil, 1 may) ko‘ra, «vijdon erkinligi» fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilish yoki e’tiqod qilmaslikdan iborat kafolatlangan konstitutsiyaviy huquqidir. Shu ma’noda, huquqiy kategoriya sifatida – vijdon erkinligi, bir tomondan, e’tiqod erkinligini, ikkinchi tomondan esa, hech bir dinga e’tiqod qilmaslik huquqini ifoda etadi.

Axloqiy nuqtai nazardan vijdon erkinligi – bu muayyan insonning fikrlash tarzi va shaxsiy ma’naviy e’tiqodiga mos xatti-harakat qilish huquqidir. Demak, davlat vijdon erkinligini huquqiy kafolatlash va amalda ta’minlash tadbirlarini ro‘yobga chiqarish bilan bir qatorda, ularga nisbatan har qanday tahdidning oldini olishga ham intiladi. Qonun ustuvorligi eng oliy mezon bo‘lgan fuqarolik jamiyatining har bir a’zosi ushbu qonuniy talabga to‘g‘ri munosabatda bo‘lib,

uning hayotga tatbiq etilishiga hissa qo'shishi lozim. Chunki eng muhim konstitutsiyaviy huquqlardan bo'lgan vijdon erkinligi huquqining amalda ro'yobga chiqarilishi fuqarolik jamiyatining ma'naviy-madaniy rivojlanganlik darajasining muhim ko'rsatkichidir.

“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonun 1991 yilda qabul qilingan bo'lib, 1993 yilda kiritilgan ba'zi qo'shimcha va o'zgartirishlar bilan 1998 yilga qadar amalda bo'lib keldi. 1990 yillarning boshlarida hukumatimiz tomonidan berilgan imkoniyatlarning suiste'mol qilinishi, masjid qurish kampaniyaga aylanib ketishi oqibatida ularning soni 89 tadan 5000 tagacha yetdi. Ularning aksariyati hujjatlari to'liq rasmiylashtirilmagan, malakali imomlar bilan ta'minlanmagan (95,8% diniy ma'lumotsiz) va zarur sharoitlar bo'lmagan holda faoliyat yurgizib, turli “peshvo”lar masjidlarni o'z uyalariga aylantirishga harakat qildilar.

Ba'zi diniy tashkilotlarning rahbarlari xorijiy fuqarolar bo'lib, aslida hech qanday diniy ma'lumotga ega bo'lmay, moliyaviy yordam ko'rsatish hisobiga respublika hududidagi diniy tashkilotlarga rahbarlik qilib olib, buzg'unchilik, missionerlik faoliyati bilan shug'ullanar edilar. Ularning asosiy maqsadi turli yo'l va usullar bilan o'z saflarini mahalliy millat vakillari hisobiga kengaytirishdan iborat edi.

Davr talablari asosida “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida”gi Qonunni tubdan o'zgartirish zarurati tug'ildi va 1998 yil 1 may kuni yangi tahrirda qabul qilindi. Jumladan, Qonunning 8-moddasiga asosan, diniy tashkilotlar 18 yoshga to'lgan va respublika hududida doimiy yashayotgan 100 nafardan kam bo'lmagan O'zbekiston fuqarolari tashabbusi bilan tuzilishi, muayyan konfessiyaga qarashli diniy tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va yo'naltirib borish uchun ularning respublika bo'yicha yagona markaziy boshqaruv organi tuzilishi mumkinligi haqidagi qoida mustahkamlab qo'yildi. Shuningdek, tegishli diniy ma'lumotga ega bo'lgan O'zbekiston fuqarolari diniy tashkilotlarning rahbarlari etib saylanishlari, bunday lavozimga istisno holatda xorijiy fuqarolar nomzodlari Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita bilan kelishib olinishi belgilab qo'yildi.

Qonunning 9-moddasiga muvofiq diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari ruhoniylar va o'zlariga zarur bo'lgan diniy xodimlar tayyorlash uchun diniy o'quv yurtlari tuzishga haqlidir. Qonunning 5-moddasida bir konfessiyadagi dindorlarni boshqasiga kiritishga qaratilgan xatti-harakatlar (prozelitizm), shuningdek, boshqa har qanday missionerlik faoliyati ma'n etiladi. Ushbu moddaning mazmuni va ahamiyatini tushunish uchun missionerlik va prozelitizm nima ekanini bilib olish kerak.

Missionerlik – bu boshqa diniy e'tiqodga ega bo'lgan shaxsni o'z diniga og'dirib olish bo'yicha diniy tashkilotlar vakillari tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat. Prozelit – bu o'z dinidan kechib, boshqa dinga o'tgan odam. Qonunning 16-moddasiga asosan: “Diniy tashkilotlar uchun yer ajratish hamda ibodat binolari qurish tegishli ravishda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ruxsati bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi”.

Qonunning diniy adabiyotlarga tegishli bo'lgan 19-moddasi ham bir qadar o'zgartirildi: “Diniy tashkilotlarning markaziy boshqaruv organlari diniy maqsadlarga mo'ljallangan buyumlar, diniy adabiyotlar va diniy mazmundagi boshqa axborot materiallarini O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishlab chiqarishga, eksport va import qilishga hamda tarqatishga haqlidir”. Mazkur qoida O'zbekiston hududiga diniy adabiyotlarning olib kirilishini tartibga soladi. Qonunning 3-moddasida “Dinga e'tiqod qilish yoki o'zga e'tiqodlar erkinligi milliy xavfsizlikni va jamoat tartibini, boshqa fuqarolarning hayoti, salomatligi, axloqi, huquqi va erkinliklarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan darajadagina cheklanishi mumkin”ligi belgilangan. Mazkur qonunning 23-moddasiga ko'ra vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxslar, diniy tashkilotlarning xizmatidagilar va fuqarolar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar. Bu modda qonun oldida barcha bir xil bo'lishini ta'minlaydi.

Tarixdan ma'lumki, har qanday davlatning barqarorligi undagi xalqlar, millat va elatlarning huquq va erkinliklari faqatgina qonuniy hujjatlarda belgilanishiga emas, balki ularning amalda qay darajada o'z tasdig'ini topishiga ham bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mamlakatimizda fuqarolarning vijdon erkinligi bilan bog'liq huquqlari nafaqat qonun bilan mustahkamlab qo'yilgani, balki amaliyotda uning asosiy tamoyillariga qat'iy rioya qilinayotgani hayotiy dalillar bilan tasdiqlanayotganini ta'kidlash zarur.

2. Missionerlik va protelitizm xavfining bartaraf etilishi. Diniy va dunyoviylik muammosi, ularning uyg'unligini ta'minlash borasida O'zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar.

Dunyoviylik va diniylik o'rtasidagi nisbat masalasi insoniyat tarixining barcha davrlarida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Boshqacha qilib aytganda, inson hayoti mazmunini tashkil qiluvchi ushbu ikki tarkibiy qism o'rtasida murosaga erishish har qanday jamiyatning mavjud holati va istiqbolini belgilovchi bosh mezon bo'lib kelgan.

Dinni davlatdan ajratish haqidagi g'oya azaldan hurfikrlilik va dunyoviy tafakkur rivojiga asoslanganini ta'kidlash joiz. Ushbu hayotiy masala Markaziy

Osiyo hududida mavjud bo'lgan davlatlarda ham doimo muhim o'rinni egallab kelgan. Bunda dunyoviylikka moyil siyosiy kuchlarning davlat va jamiyatni boshqarishdagi mavqei muntazam ravishda mustahkamlanib borgani diqqatga sazovordir. Movarounnahrning o'rta asrlar va undan keyingi davrlardagi tarixida boshqaruvning diniy-teokratik usullariga moyil davlatlarning yo'qligi ham ushbu xulosaning o'rinli ekanini tasdiqlaydi.

Sovet hukmronligi davrida esa dinga munosabat butunlay boshqacha tus olgan. Uning ta'sir doirasi juda ham pasaytirilgan. Buni biz xujumkor ateistik qarashlar orqali dindorlar va diniy tashkilotlarga bo'lgan munosabatda ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab uning rahbariyati oldida dinga bo'lgan munosabatini aniq va prinsipial ravishda belgilab olish zarurati tug'ildi. Va o'sha davrda davlatning dinga bo'lgan yangi munosabati O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan ishonchli tarzda belgilab berildi: "Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'ziyoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Ma'daniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat yashashga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda". Shunday qilib, din va dunyoviy davlat orasidagi munosabat haqida gap ketar ekan, eng avvalo, dinning davlatdan ajratilishi tamoyili uning asosini tashkil etishini ta'kidlash zarur. Bu haqda Konstitutsiyamizning 61-moddasida shunday deyiladi: "Diniy tashkilotlar va birlashmalar davlatdan ajratilgan hamda qonun oldida tengdirlar. Davlat diniy birlashmalarning faoliyatiga aralashmaydi".

Mazkur moddada muhim qoidalar mustahkamlab qo'yilgan. Avvalo diniy tashkilotlar qaysi konfessiyaga taalluqliligidan qat'iy nazar, bir xil huquqiy maydonda faoliyat olib boradi. Qolaversa, diniy birlashmalar faoliyatini tashkil etish ularning ichki ishi hisoblanadi va davlat nazoratidan xolidir. Shu bilan birga, diniy tashkilotlarning davlatdan ajratilgani dinning jamiyatdan ajratilganini anglatmasligini ham ta'kidlash zarur. Bu fuqarolik jamiyatida din o'z mavqeiga ega bo'lishini anglatadi. Bu ham Konstitutsiyamizning amaldagi ijrosidan kelib chiqadigan mantiqiy xulosalardan biridir. Aytish joizki, ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, bunyodkor milliy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va xalqimizning haqiqiy ma'naviy surati va siyratini belgilovchi fazilatlarni o'zida mujassamlashtirgan mehr-oqibat, hamjihatlik, o'zaro yordam, keksalarga hurmat, sharqona odob-axloq, sharmu hayo kabi eng oliy insoniy tuyg'ularning tub

mohiyatini anglash va ko‘z qorachig‘idek e‘zozlashda aynan diniy tashkilotlar va din arboblarning roli va o‘rni beqiyosligini bugun hech kim inkor etmaydi. Aksincha, bunday bunyodkor faoliyat qizg‘in qo‘llab-quvvatlanmoqda. Buning sababi esa, Konstitutsiyamizda ana shunday faoliyat uchun mustahkam huquqiy zamin yaratib berilganidadir. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2018 yil 16 aprelda qabul qilingan “Diniy-ma‘rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonida, “Jamiyatda bag‘rikenglik. O‘zaro hurmat, mehr-oqibat, tinchlik va totuvlikni, ijtimoiy-ma‘naviy muhit barqarorligini tahminlashda diniy-ma‘rifiy soha vakillarining daxldorlik hissi va ishtirokini yanada oshirish” belgilab qo‘yilgan.

Davlatning dinga bo‘lgan munosabatini ifodalovchi boshqa bir tamoyil shundan iboratki, davlat dinni xalq ma‘naviyatining uzviy qismi sifatida tan oladi. Shundan kelib chiqib, uning rivoji uchun tegishli shart-sharoit yaratishga harakat qiladi.

Davlat va din munosabatlarining yana bir asosiy xususiyati bu dinning siyosatga aralashmasligidir. Zero, har qanday din, birinchi o‘rinda ma‘naviy-axloqiy jihatni o‘z ichiga oladi. Hech qaysi din o‘zida xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotning barcha jihatlarini qamrab olishga da‘vogarlik qilmaydi.

E‘tirof etish lozimki, har qanday diniy e‘tiqod kabi islom ham barcha davrlarda, shu jumladan, dahriylik keng targ‘ib etilgan sho‘ro tuzumi zamonida ham, ijtimoiy munosabatlar va ma‘naviy-ruhiy hayotga o‘z ta‘sirini o‘tkazib turgan muhim omillardan biri bo‘lib qolavergan. Ijtimoiy munosabatlar va ma‘naviy-ruhiy hayotning uyg‘unligi esa, har qanday jamiyatning ichki siyosiy barqarorligini belgilovchi asosiy omillardan ekani sir emas. Shu nuqtai nazardan qaraganda, din va siyosat o‘rtasidagi muayyan bog‘liqlikni inkor etib bo‘lmaydi. Buning sababi esa islom xalqimizning ongu shuuri va mentalitetiga shu qadar singib ketganidadir. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek, “...uni hech qanday kuch, hech qanday tashviqot bilan chiqarib bo‘lmaydi”. Bundan kelib chiqadigan mantiqiy xulosa shuki, islom dini va musulmonchilik degan tushuncha bizning mintaqamiz uchun faqat o‘tmish va bugun tajribasigina bo‘lib qolmasdan, u kelajak voqeligi hamdir. Islomning jamiyat hayotidagi roli tom ma‘nodagi hurfikrlilik qaror topayotgan mustaqillik davrida o‘zini yanada yaqqolroq namoyon etayotgani ham shunday xulosa chiqarishga asos bo‘ladi. Chunki aytish joizki bugun mamlakatimizda olib borilayotgan diniy sohadagi islohotlar – bir necha masjidlarni rekonstruksiya qilinishi, yangilarini foydalanishga topshirilishi, “Islom fiqh maktabi”, “islom aqida maktabi”, “Islom hadis” maktablarining faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, Islom sivilizatsiya markazi hamda O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasining tashkil etilishi, mamlakatimizda ilk bora uch bosqichli Quron

musobaqasini o'tkazilganligi, diniy ta'lim muassasalari qoshida pullik o'quv kurslari joriy etilishi, televidenie orqali "So'ragan edingiz", "Hidoyat sari", "Bitiklar mutolasi" kabi diniy-ma'rifiy yo'nalishdagi ko'rsatuvlarni muntazam efirga uzatilishi, O'zbekiston musulmonlari idorasining "Hidoya" jurnali hamda "Islom nuri" gazetalari, shuningdek, bir qator diniy adabiyotlarning nashr etilayotgani xalqimizning azaliy orzulari ushlanganini amaliy isbotidir. Qolaversa yuqoridagi Farmonda "diniy-ma'rifiy tashkilotlarning moddiy-texnika ta'minotini mustahkamlash, soha vakillari mehnatini munosib rag'batlantirish va ijtimoiy himoyasini kuchaytirish;

Ko'p yillar davomida namunali faoliyat yuritayotgan, uy-joyga muhtoj imom-xatiblariga yangilangan namunaviy loyihalar bo'yicha qurilayotgan uy-joylarni sotib olib, tekinga berish to'g'risidagi taklifi qabul qilinsin", deb belgilanishi ham soha xodimlariga davlat tomonidan alohida e'tiborning bir namunasi sifatida ko'rishimiz mumkin. Biroq masalaning ikkinchi jihati ham bor: diniy omilning siyosiylashuvi jamiyat xavfsizligi va barqarorligi uchun tahdidga aylanib ketishi mumkin. Ushbu holat har qanday dinning sof e'tiqodiy masalalar chegarasidan chiqib, davlat va jamiyat qurilishi masalalariga aralashishga urinishidan boshlanadi. Darhaqiqat, milliy o'zlikni anglash bilan bog'liq turfa jarayonlarni diniy qadriyatlardan ayri holda tasavvur etish amri mahol. Bizning jamiyatimiz uchun ham tabiiy bo'lgan ushbu xususiyat, o'zining o'ta nozikligi barobarida xatarliligi bilan ham ajralib turadi. Mazkur ikki tushunchani bir deb qabul qilish, ularning o'zaro nisbatini baholashda xato qilish – dinning siyosiylashuviga yo'l ochib beradi. Shuni unutmaslik lozimki, ayrim hollarda, jamiyatdagi muayyan kuchlar o'zlarining g'arazli maqsadlariga erishish uchun ongli tarzda aynan shunday qiladilar.

Mustaqillikning ilk bosqichida misli ko'rilmagan darajada faollashgan diniy guruhlarining siyosiy va, hatto, harbiylashgan tashkilotlarni tuzishga qaratilgan amaliy harakatlarini eslash lozim. O'shanda bunday guruhlar O'zbekistonni islomiy davlat deb e'lon qilishni talab qilish darajasigacha borib yetgan edilar. Mafkuraviy markazi Farg'ona vodiysi bo'lgan ushbu harakat o'z davrida mamlakatimizning boshqa mintaqalarida ham muayyan aks-sado berib, umummilliy xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirganini inkor etib bo'lmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov asarlarida bayon etilgan ogohlantirishlarni teran idrok etish, ularda bayon etilgan va strategik mohiyatga ega vazifalarni sidqidildan va muntazam bajarib borish – tinch va farovon ertamizning kafolati demakdir. Dunyoviy-ma'rifiy davlat va jamiyat qurilayotgan har qanday mamlakatda diniy jarayonlar evolyutsiyasini o'zibo'larchilikka tashlab qo'yib bo'lmaydi.

Dunyoviy davlat va jamiyat eng avvalo, qonun ustuvorligini taqozo etadi. “Qonun – barcha uchun barobar” degan demokratik tamoyil, shubhasiz, diniy jarayonlarga ham taalluqlidir. Konstitutsiyaning 57-moddasida “... milliy va diniy ruhdagi siyosiy partiyalarning hamda jamoat birlashmalarining tuzilishi va faoliyati ta’qiqlanadi. Maxfiy jamiyatlar va uyushmalar tuzish ta’qiqlanadi”, deb belgilab qo’yilgan.

Fuqarolarga haj ibodatini ado etishlari uchun barcha sharoitlar yaratildi. Xususan, mustabid sho‘ro tuzumi davrida har yili uch, to‘rt kishiga haj ziyoratini amalga oshirishga ruxsat berilgan bo‘lsa, hozirda yiliga yetti mingdan ortiq kishi haj qilish, sakkiz mingdan ortiq kishi umra amalini bajarish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Uzoq vaqt davom etgan mafkuraviy tazyiqqa qaramay, O‘zbekiston xalqi avloddan avlodga o‘tib kelgan tarixiy qadriyatlari va o‘ziga xos an’analarini saqlab qolishga muvaffaq bo‘ldi. Buyuk istiqlol esa ularning har tomonlama rivoji uchun keng imkoniyatlar ochib berdi. Eng avvalo, asrlar davomida umummilliy qadriyat darajasiga ko‘tarilgan diniy bayramlar – Ramazon va Qurbon hayitlarining O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari (№ 221, 20.06.1991 y; № 368, 27.03.1992 y.) bilan dam olish kuni deb e’lon qilingani va ular ommaviy ravishda, emin-erkin nishonlana boshlanganini ta’kidlash zarur.

Din sohasida olamshumul ahamiyat kasb etgan ulamolarning merosini o‘rganish, ajdodlarimiz tomonidan ko‘p asrlar mobaynida yaratib kelingan g‘oyat ulkan, bebaho ma’naviy va madaniy merosni tiklash davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgani nihoyatda muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Ijtimoiy hayotni isloh qilish va yangilash jarayonida ma’naviy qadriyatlarning qudratli qatlamlari ham ochildi. Bunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining sohaga oid qator Farmon, Qaror va Farmoyishlari qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi.

Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Imom Termiziy, Imom Moturidiy, Burhoniddin Marg‘inoniy, Abdulxoliq G‘ijduvoni, Xoja Ahror Valiy kabi mutafakkirlarimizning yubileylari o‘tkazildi. Ulkan va boy madaniyatimizning uzviy qismi bo‘lmish islom nazariyasi, tarixi, falsafasi, huquqshunosligi, madaniyati va axloqi masalalarini chuqur o‘rganish ilmiy tadqiqotlarda markaziy o‘rin egallay boshladi.

Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri, musulmon olamida “muhaddislar sultoni” deya ulkan shuhrat qozongan Imom Buxoriy bobomiz merosining eng ishonchli hadislar to‘plami –“Al-jome’ as-sahih” kitobi, Sharq olamida “Din va millatning hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya”, Imom Termiziyning “Sunan at-Termiziy”, Abu Lays Samarqandiyning “Tanbehul-g‘ofilin” asarlari nashr

etilganini ham ana shunday ijobiy natijalar sirasiga qo‘shish mumkin. Ayni paytda, eski masjid, maqbara va ziyoratgohlar ta‘mirlanib, yangilari bunyod etildi, diniy bilim yurtlari tarmog‘i kengaytirilib, sifat va saviyasi takomillashtirilganini ham alohida qayd etish zarur. Bularning bari Xelsinki Yakunlovchi akti, Vena va Kopengagenda qabul qilingan hujjatlarda qayd etilgan shaxsning vijdon va din erkinligi borasidagi tamoyillarga to‘la muvofiq keladi. Lekin ming afsuski, yuqorida zikr etilgan erkinliklarni suiste‘mol qiladigan, ulardan o‘z g‘arazli maqsadlari yo‘lida foydalanadiganlar ham mavjud. O‘zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta‘kidlaganlaridek: “Biz din bundan buyon ham aholini eng oliy ruhiy, axloqiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafdorimiz. Lekin biz hech qachon diniy da‘vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunchilikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki bu holni davlatimiz xavfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy xavf-xatar deb hisoblaymiz”. Demak, davlat va din munosabatlari demokratik jamiyatda, avvalo, Konstitutsiya, so‘ng esa muayyan qonunlar orqali belgilanadi va tartibga solinadi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18, 31, 57, 61-moddalarida insonlar uchun boshqa huquq va erkinliklar qatorida vijdon erkinligi, dinga e‘tiqod qilish yoki qilmaslik erki kafolatlangan.

Dunyoviy davlatning din bilan munosabatlarini aniqlashtiruvchi asosiy tamoyillar Islom Karimovning “O‘zbekiston XXI asr bo‘lag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” kitobida belgilab berilgan bo‘lib, ularning sirasiga:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e‘tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni ta‘qib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma‘naviy tiklanish, umuminsoniy axloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zaruriyati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e‘tirof etish” kiritilgan.

Qolaversa, Prezident Sh.Mirziyoevning ko‘rsatmasi bilan bu yo‘lga adashib kirib qolgan ba‘zi yurtdoshlarimizning avf etilishi ularning yillar davomida qalblarini tirnab kelayotgan dardlariga davo bo‘ldi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Ma‘lumki, mamlakatimiz fuqarolik jamiyatini mustahkamlash yo‘lidan bormoqda. “Fuqarolik jamiyati” degani esa, birinchi navbatda, jamiyat boshqaruvining muayyan sohalarini davlat organlari va tashkilotlaridan

bosqichma-bosqich nohukumat tuzilmalarga o‘tib borishini anglatadi. Demokratik mamlakatlar tajribasi shundan dalolat bermoqdaki, fuqarolik institutlari ma’naviyat va ma’rifat, ilm-fan va madaniyat bilan bog‘liq sohalarda o‘zini ko‘proq namoyon etib boradi.

Mustahkamlanib borayotgan milliy o‘zlikni anglashga bevosita aloqador diniy qadriyatlarning to‘g‘ri va sog‘lom idrok etilishiga qaratilgan ma’rifiy-tarbiyaviy ishlarni amalga oshirishi kerak. Boshqacha aytganda, ularning asosiy vazifalaridan biri – diniy qadriyatlar, eng avvalo, insonning ma’naviy kamolotiga xizmat qilishi lozimligi haqidagi azaliy haqiqatni, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod ongiga singdirib borishdir. Bundan ham muhimi, diniy e’tiqod – siyosiy “o‘yinlar” maydoni emasligi, bu kabi “o‘yinlar”ning jamiyat xavfsizligi va barqarorligi uchun xatarli ekanini ilmiy-tarixiy va hayotiy dalillar bilan asoslagan holda keng ommaga muntazam tushuntirib borishdan iboratdir. Ushbu ishdan ko‘zlangan pirovard natija – xalqimiz uchun qadimdan an’anaviy bo‘lib kelayotgan diniy-ma’naviy merosga sadoqatni mustahkamlash, shu orqali, diniy qadriyatlarning haqiqiy o‘rnini to‘g‘ri idrok etish, diniy vaziyatning sog‘lom va tabiiy rivojlanishiga amaliy hissa qo‘shishdan iborat bo‘lgani uchun ham u quruq tashviqot bo‘lib qolmasligi kerak. Diniy qadriyatlarning sog‘lom va to‘g‘ri idrok etilishiga qaratilgan faoliyat ko‘hna va serqirra tariximiz hamda ajdodlarimiz qoldirgan ibratli ma’naviy merosga asoslanishi lozim.

Fuqarolik jamiyati institutlari mustahkamlanib borgan sari, buyuk bobokalonlarimiz qoldirgan boy ilmiy-ma’naviy meros, jumladan, ma’naviyatimizning uzviy qismi bo‘lgan milliy-diniy qadriyatlarni chuqur va yangicha yondashuv asosida o‘rganish imkoniyatlari kengayib bormoqda. Oldimizda turgan vazifa – yaratilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri, umummilliy yuksalish manfaatlariga mos ravishda foydalanishdir. Shunday qilinganda, islom va siyosat, din va davlat o‘rtasidagi munosabatlarning tabiiyligi, ularning jamiyatimiz siyosiy barqarorligi va ma’naviy barkamolligiga xizmat qiluvchi uyg‘unligi ta’minlanadi.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda diniy tashkilotlarning soni o‘sdi. Xususan, 1990 yilda respublikamizda 119 ta diniy tashkilot (89 ta islomiy va 30 ta noislomiy) mavjud bo‘lgan bo‘lsa, 2018 yilning 15- yanvar holatiga ko‘ra esa, ularning soni 2243 tani (2065 ta islomiy, 178 ta noislomiy) tashkil etdi.

Noislomiy diniy tashkilotlar qatorida Rus Pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis Yevangel-lyuteranlar cherkovi, Arman Apostollik cherkovi, yahudiylar va Bahoiylar diniy jamoalari, Buddaviylar ibodatxonasi, Bibliya kitob jamiyati kabi tashkilotlarni sanash mumkin.

Mustaqillikkacha bor-yo‘g‘i ikkita (Toshkent islom instituti va “Mir Arab” madrasasi) islomiy diniy o‘quv yurti bo‘lgan bo‘lsa, o‘tgan yillar davomida

ularning soni ko‘paydi. Boshqacha aytganda, Imom al-Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti, Buxorodagi “Mir Araboliy madrasasi”, Toshkentdagi “Ko‘kaldosh”, Qoraqalpog‘istondagi “Muhammad Beruniy”, Namangandagi “Hidoya”, Xorazmdagi “Faxriddin ar-Roziy”, Andijondagi “Sayyid Muhyiddin Maxdum”, Qashqadaryodagi “Xoja Buxoriy” hamda faqat xotin-qizlar tahsil oladigan Toshkentdagi “Xadichai Kubro” va Buxorodagi “Jo‘ybori Kalon” o‘rta maxsus islom bilim yurtlaridan iborat yaxlit diniy ta‘lim tizimi yaratildi. Bundan tashqari O‘zbekiston musulmonlari diniy idorasi tasarrufida “Islom fiqh maktabi”, “Islom aqida maktabi”, “Islom hadis maktabi”, “Islom tasavvuf maktabi”, “O‘zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi” kabi maktablar ham faoliyat olib bormoqda.

2000-2001 o‘quv yilidan boshlab ushbu ta‘lim muassasalaridagi o‘qitish jarayoni Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi Kasb-hunar ta‘lim markazining Davlat ta‘limi standartlari bo‘limi bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan ta‘lim standartlari va o‘quv rejasi asosida tashkil etildi. Sodda qilib aytganda, o‘quv yurtlarida diniy va dunyoviy ta‘limning uzviyligi ta‘minlandi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 22 avgustdagi “Din sohasidagi ma‘naviy-ma‘rifiy, ta‘lim ishlarini va faoliyatni takomillashtirishda ijtimoiy ko‘mak va imtiyozlar berish to‘g‘risida”gi Qarori alohida ahamiyatga ega bo‘lganini ta‘kidlash zarur. Ushbu Qarorga asosan Toshkent islom instituti va o‘rta maxsus islom bilim yurtlarida joriy etilgan ta‘lim standartlari, o‘quv rejaları hamda talabalarning qabul qilingan davlat me‘yorlariga muvofiq diniy va dunyoviy bilimlar olayotganini inobatga olib, mazkur o‘quv yurtlarining bitiruvchilariga beriladigan diplomlar davlat ta‘lim hujjati sifatida e‘tirof etildi. Shu bilan birga, unga ega bo‘lgan shaxslarga davlat oliy ta‘lim tizimida o‘qishni davom ettirish huquqi berildi.

“Konfessiya” so‘zi (lotincha – “confessio”) o‘zbek tiliga aynan tarjima qilinganda “e‘tiqod qilish”, degan ma‘noni anglatadi. Umuman olganda, diniy konfessiya deganda muayyan diniy ta‘limot doirasida shakllangan va o‘ziga xos xususiyatlarga ega e‘tiqod va ushbu e‘tiqodga ergashuvchilar jamoasi tushuniladi. Bir din doirasida yuzaga kelgan bo‘lsa-da, aqidalar borasida farqlanadigan jamoalar ham diniy konfessiyalar jumlasiga kiradi. Diniy konfessiyalar manzarasi rang-barangligini O‘zbekistonda rasman ro‘yxatdan o‘tib faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar misolida ham ko‘rish mumkin. Xristianlikka mansub bo‘lsa-da, yurtimizdagi 11 ta yo‘nalishning har biri o‘zini alohida diniy konfessiya, deb hisoblashi fikrimizning isboti bo‘la oladi. Shuni inobatga olgan holda, mutaxassislar hozirgi kunda dunyoda taxminan 1000 dan ortiq diniy konfessiyalar mavjud, deb hisoblaydi. Shuni alohida ta‘kidlab o‘tish lozimki, islom dinida bunday holat kuzatilmaydi. Hech qaysi mamlakatda hanafiy mazhabi alohida,

boshqa mazhablar alohida konfessiya sifatida ro'yxatdan o'tmaydi. Masalan, O'zbekistonda ham bir necha shia jamoalari bo'lishiga qaramay, ular o'zlarini alohida diniy konfessiya hisoblamaydilar.

Jamiyat hayotida tenglik, adolat g'oyalarining ustuvor bo'lishi va amaliyotda o'z ifodasini topishi ko'zlangan maqsadlarga erishishga, belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy mo'ljallarning barcha uchun birdek qadr-qimmat kasb etishiga, fuqarolar o'rtasida birdamlik va hamjihatlik, o'zaro bir-birini tushunish va hurmat ruhining qaror topishiga zamin yaratadi. "Bag'rikenglik tamoyillari Deklaratsiyasi"da ta'kidlanganidek, "Bag'rikenglik bo'lmasa tinchlik bo'lmaydi, tinchliksiz esa taraqqiyot va demokratiya bo'lmaydi".

"Bag'rikenglik" (tolerantlik) so'zi deyarli barcha tillarda bir xil yoki bir-birini to'ldiruvchi mazmunga ega. Xususan, ushbu tushuncha chidamlilik, bardoshlilik, toqatlilik, o'zgacha qarashlar va harakatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lish, muruvvatlilik, himmatlilik, kechirimlilik, mehribonlik, hamdardlik kabi ma'nolarga egaligini qayd etish lozim.

Diniy bag'rikenglik hamisha diniy zamindagi adovatga qarshi o'ziga xos qalqon vazifasini o'tagan. U turli e'tiqodlarning bir zamon va makonda birgalikda mavjud bo'lishiga, ularning tashuvchilari o'rtasidagi hamkorlik va hamjihatlikning shakllanishiga yo'l ochgan. Bu esa, o'z navbatida, yurt tinchligi va taraqqiyotiga, umuminsoniy madaniyat va ma'naviyat rivojiga xizmat qilgan.

O'rta Osiyo mintaqasi, xususan, O'zbekiston azaldan turli urf-odat, madaniyat, til, turmush tarziga ega bo'lgan, xilma-xil dinlarga e'tiqod qiluvchi bir-biriga o'xshash bo'lmagan bir necha xalqlar yashagan o'lkadir. O'zbekistonning jo'g'rofiy nuqtai nazardan muhim savdo yo'llari chorrahasida joylashgani, ko'plab davlatlar bilan iqtisodiy, madaniy aloqalar qilgani yerli xalqning diniy va madaniy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Millati va diniy qarashidan qat'iy nazar insonni ardoqlash va o'zgalarni qadrlash, kattalarga hurmat va boshqalarni izzat qilish kabi tuyg'ular O'rta Osiyo xalqlarining yuksak sifatlaridir. Aynan shu omillar xalqimizning nafaqat ma'naviy-ma'rifiy, balki dinlararo muloqotning ma'naviy asosini tashkil qiladi. Bunday do'stona aloqalardan xulosa qilib, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, – "Musulmonlar va xristianlarning O'zbekiston zaminida birgalikda hamnafas bo'lib yashashi diniy-ma'naviy totuvlikning nodir timsoli va barcha din vakillariga nisbatan bag'rikenglikning eng yaxshi namunasi deb hisoblanishiga arzigulikdir".

Istiqlol yillarida din sohasida chuqur o'zgarishlar sodir bo'ldi. O'zbekistonda turli dinlarga mansub qadriyatlarni asrab-avaylashga, barcha fuqarolarga o'z e'tiqodini amalga oshirish uchun zarur sharoitlarni yaratib berishga, dinlar va millatlararo hamjihatlikni yanada mustahkamlashga, ular o'rtasida qadimiy mushtarak an'analarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan,

1995 yilning oktabr oyida Toshkent shahrida “Bir samo ostida” shiori ostida xalqaro musulmon-xristian konferensiyasi o‘tkazilishi, 1996 yilning noyabrida Rus pravoslav cherkovi Toshkent va Markaziy Osiyo yeparxiyasining 125 yilligi tantanalari o‘tkazilishi fikrimizning isboti bo‘la oladi.

Bugungi kunda respublikamizda 2243 ta diniy tashkilot, jumladan, 16 konfessiyaga (Islom, Rus pravoslav cherkovi, Rim-katolik cherkovi, Nemis-lyuteran cherkovi, Arman-apostol cherkovi, To‘liq injil xristianlari, Yevangel-xristian baptistlar cherkovi, Novoapostol cherkovi, Yettinchi kun adventistlari, “Golos bojiy”, Iegovo shohidlari, Koreys protestant cherkovlari, Yahudiylik, Bahoiylik, Krishnani anglash jamiyati, Buddaviylik) mansub 2065 ta masjid, 2 ta markaz, Toshkent islom instituti, Mir Arab Oliy madrasasi, 9 ta o‘rta maxsus islom bilim yurti, shuningdek, jami 178 ta noislomiy diniy tashkilot, jumladan, Pravoslav va Protestant seminariyalari faoliyat ko‘rsatayotgani ham buning isboti bo‘la oladi.

Krishnachilar tomonidan missionerlik faoliyati o‘tgan asrning 70-yillarida boshlangan. Ular tomonidan amalga oshiriladigan targ‘ibotchilik harakatining o‘ziga xos xususiyatlari qatorida ko‘chalarda ibodat kiyimlarida yurib qo‘shiqalar aytish va adabiyotlarini tarqatish, «Hayot uchun ozuqa» deb nomlanadigan, bepul oziq-ovqat tarqatish aksiyalarini o‘tkazilishini ko‘rsatish mumkin. Bunday harakatlarning asosiy obyektlari sifatida odatda talabalar, maktab o‘quvchilari, qariyalar va mehribonlik uylarida istiqomat qiluvchilar tanlab olinadi.

Krishnachilar o‘z davrida yurtimizda ham missionerlik faoliyatini olib borishga intilganlarini ta’kidlash zarur. Jumladan, 1990-yillarning o‘rtalarida Toshkent shahrida joylashgan «Krishnani anglash jamiyati» vakillari shaharning turli burchaklarida ibodat kiyimlarida yurib, o‘zlarining diniy adabiyotlarini tarqatish, asosan qariyalar uylari, shifoxona kabi muassasalarda missionerlik faoliyatini olib borish bilan shug‘ullanganlar. Ular bilan olib borilgan tadbirlar natijasida krishnachilarning bu turdagi faoliyatiga barham berilgan. Bugungi kunda ular respublikamizning ayrim hududlarida yashirin ravishda faoliyat olib borishga harakat qilmoqdalar. 2012-yilning 1-avgustiga qadar respublikamizda krishnachilarning 1 ta diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

Bahoiylar ham yoshlar o‘rtasida o‘z g‘oyalarini yoyishga alohida e’tibor berayotganliklarini ko‘rsatadi. Xususan, ular o‘z ta’limotlari taqdimoti kunlarini o‘tkazish va uyma-uy yurib bunday taqdimotlarga chorlovchi taklifnomalar tarqatish amaliyotini yo‘lga qo‘yganliklarini ta’kidlash zarur.

Mamlakatimizda bahoiylar tomonidan chet tillarini o‘rganish bo‘yicha kurslar tashkil etish orqali yoshlar orasida o‘z qarashlarini tarqatishga harakat qilganlari kuzatilgan. Bunday faoliyatni asosan chet el fuqarolari amalga oshirganlar. Olib borilgan maqsadli ishlar natijasida bunday harakatlarning oldi olingan. Bahoiylarning missionerlik faoliyati haqida gap ketar ekan, ular o‘z suhbatlarida

“Alloh”, “Alhamdulillah”, “Bismillahir-rohmanir-rohiym” kabi islomiy tushunchalarni tez-tez ishlatishlarini, islom dinida tan olingan Ibrohim, Muso, Iso va Muhammad payg‘ambarlar ularning ta’limotida tan olinishi hamda “Qur’on” ular uchun ham muqaddas manba hisoblanishini bot-bot takrorlashlarini alohida qayd etish lozim. Bunday uslub bir tomondan, musulmonlarning hushyorligini yo‘qotish orqali e’tiqodiy ta’sir o‘tkazishga qaratilganini, ikkinchi tomondan, diniy bilimlari sayoz insonlar orasida targ‘ibot olib borishni anchagina yengillashtirishini ta’kidlash zarur.

O‘zbekiston hududida bahoiylarning ilk vakillari – savdo-sotiq bilan shug‘ullanuvchi tijoratchilar – XIX asr oxirlarida Samarqand shahrida paydo bo‘lgan. 2012 yilning 1-avgustiga qadar respublikamizda bahoiy jamoalarining 6 ta diniy tashkiloti ro‘yxatga olingan.

“Iegovo shohidlari” missionerlikka katta e’tibor beradi. Jamoa paydo bo‘lgan davrdan boshlab, asosan uyma-uy yurish va adabiyotlar tarqatish bilan o‘z izdoshlarini ko‘paytirishga harakat qiladi. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, hozirgi kunda iegovochi missionerlarning soni 700 mingdan ortiq kishini tashkil etadi. Jamoa rahbariyati tomonidan missionerlarni tayyorlash ishlariga katta ahamiyat beriladi. AQShning Nyu- York shahrida, jamoaning bosh ofisi bilan bir joyda “Galaad” nomli missionerlar tayyorlash markazi mavjud. Ushbu markazda tashkil etilgan 5 oylik kurslarda butun dunyodan kelgan missionerlar tahsil oladilar.

Missionerlik faoliyatini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash va adabiyotlarni nashr etish uchun “Qo‘riqchi minora, “Bibliya” va risolalar jamiyati” tuzilgan. Ushbu jamiyat korporatsiya deb atalib, bosh qarorgohi tashkilot asosiy binosi bilan bir joyda, AQShning Bruklin shahrida joylashgan. Korporatsiyani yetti direktorlardan iborat boshqaruv kengashi boshqaradi va ular korporatsiya Prezidentini saylashadi. Hozirgi kunda “Iegovo shohidlari” 230 dan ortiq mamlakatda faoliyat olib boradi va dunyo bo‘yicha 111 ta mintaqaviy vakolatxonalariga ega.

Iegovochilar missionerlikni o‘ziga xos tarzda va tizimli tarzda tashkil etganlar. Mutaxassislar fikricha, “Iegovo shohidlari” o‘z tarafdorlarini shakllantirishda jalb etishning 80 dan ortiq usulidan foydalanadilar. Jumladan, ular o‘z da’vatchilarining ovoz ohanglarida tinchlantirish va mehr tuyg‘ulari bo‘lishiga alohida e’tibor beradilar. Iegovochilar missionerlikni:

- o‘z qarashlariga zarracha bo‘lsa ham qiziqish bildirgan odamlarni qidirib topish va so‘ng ularni ta’limotni qabul qilishga tayyorlash;
- da’vat qilinayotgan odamning ongiga «Bibliya» kurslari va uning matnini o‘rganish orqali diniy ta’limotni singdirish;
- prozelitlarni suv bilan cho‘qintirish;
- ularni missionerlik faoliyatiga tayyorlashni to‘rt bosqichda amalga oshiradilar.

Iegovochilikning o'ziga xos jihatlaridan yana biri shuki, unda har bir a'zo missionerlik faoliyatida qatnashishi shart. Jumladan, jamoa rahbariyati tomonidan har bir a'zo oyiga 10 soatdan 150 soatgacha vaqtlarini missionerlik faoliyatiga sarflashlari talab qilinadi. Jamoa a'zolari qancha ko'p vaqtlarini missionerlikka sarflaganlariga qarab tashkilot ierarxiyasida ko'tarilib boradi. So'nggi paytlarda iegovochilar maktab o'quvchilari va yoshlar orasida targ'ibot ishlarini olib borishga intilish kuchli namoyon bo'layotganini ta'kidlash zarur. Ana shunday maqsadli faoliyat natijasida iegovochilar soni yildan yilga ortib bormoqda.

3. Diniy mutaasiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparaslik (fundamentalizm), halqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksion mohiyati.

Diniy fundamentalizm va ekstremizm XX asrning birinchi yarmida vujudga kelgan diniy tashkilotlar va harakatlarga borib taqaladi. Shulardan biri "Ixivonul-muslimiyn" ("Musulmon birodarlar") diniy oqimi bo'lib XX asrdagi islomiy harakatlar ichida eng kuchli mafkuraviy bazaga ega bo'lgan diniy tashkilot hisoblanadi. Uning asoschisi dindor oilada dunyoga kelgan maktab o'qituvchisi Shayx Xasan al-Banno (1906-1949) hisoblanadi. U o'z faoliyatini 1928 yilda boshlab, asosiy e'tiborini dinni targ'ib qilish, Qur'on va hadis ko'rsatmalariga og'ishmay amal qilish hamda masjid va diniy maktablar qurish zarur deb bilgan. 1933 yilda harakatning "Ixivonul muslimiyn" nomli haftalik gazetasi tashkil etildi. "Ixivonul muslimiyn" o'ta radikal, ekstremistik tashkilot bo'lib, o'z g'arazli niyatlarini amalga oshirish uchun mavjud davlat va hukumatlarga qarshi, jihad e'lon qildi. Bu maqsad yo'lida o'zini-o'zi o'ldirish masalasini ham dastlab Al-Banno "Fanul-mout" ("O'lim san'ati") kitobida asoslab berdi. Al-Banno ta'limoti asosida jangarilik amaliyotini tayyorlash va amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan barcha ekstremistik harakatlar, hatto zarur bo'lsa o'zini-o'zi qurbon qilish bo'yicha fatvo ham berilgan edi.

"Musulmon birodorlar" tashkilotining asosiy vazifasi terrorchilik hujumlari bo'lgani uchun uni boshqaruvchi "Mahfiy apparat"ni tuzdi. Bu tashkilot a'zolarining kuchli terroristik faoliyati shu asosda davom etdi va 1948 yili o'z kulminatsiyasiga yetib, Misr bosh vaziri Mahmud Fahmiy An-Naqroshiyni vahshiyona o'ldirishda kuzatiladi. Bu jinoyat ijrochilari deb, "Ixivonul-muslimiyn" vakillari gumon qilinadi va bosh vazir yordamchilari uning qatli evaziga Hasan al-Bannoning qatl etilishini talab qiladilar. 1949 yil 12 fevralda rahnamosi Hasan al-Banno qatl etiladi. Ushbu harakat kabi mutaassib diniy oqimlardan biri bo'lgan "Jihad" harakati vakillari tarafidan Misr Prezidenti Anvar Sodat joniga qasd qilindi. Bugungi kunda harakat faoliyati Misrda rasman to'xtatib qo'yilgan. Hozir bu tashkilotning a'zolari qanchaligi noma'lum, ammo 1952 yildagi ma'lumotlarga asosan 4 mln. a'zolari bor edi.

Misrda yana shunday o‘ta radikal ekstremistik guruhlar va tashkilotlar borki, jumladan “Al-jamoa al-Islomiya” (1970); “Al-jihod al-Islomiya” (1970-1979); “Taqdir val Xijra” (1967), “Jihod” va boshqalarni faoliyatining asosiy yo‘nalishi “islom”ni targ‘ibot qilish mamlakat ichidagi dindan chekingan xudosizlik elementlariga qarshi kurashish islom davlatini tiklashda jihod yo‘li yoki turli zo‘ravonlik va qo‘paruvchilik vositalari orqali o‘z maqsadlariga erishishdan iborat. Ayni zamonda boshqa musulmon xalqlari bo‘lgan davlatlarda ham shunday tartib o‘rnatishga harakat qilishdir.

1953 yilda “Musulmon birodarlar” uyushmasining bir guruh a‘zolari Iordaniyada “Xizbut tahrir al-islomiy” nomli yangi partiyanı tuzdi. Hozirgi vaqtdagi g‘ayri islomiy diniy tashkilotlardan biri “Xizbut-tahrir al-islomiy” diniy ekstremistik partiyasi bo‘lib, bu yo‘nalish mazmuni va harakati jihatidan o‘z qamroviga “Islom uyg‘onish partiyasi”, “Adolat”, “Islom lashkarlari”, “Tavba”, “Hizbulloh”, “Tablig‘”, “Uzun soqol”, “Akromiyalar”, “Nur” kabilarni oladi.

“Xizbut-tahrir al-islomiy” partiyasining asoschisi falastinlik ilohiyotchi Taqiy ad-din an-Nabahoniy (1909-1979) hisoblanadi. U “Islom nizomi”, “Xizbut-tahrir” va boshqa kitoblar yozgan. Partiyaning dasturi 187 bobdan iborat bo‘lib, asosiy maqsadi hokimiyatga erishish. Ya‘ni barcha musulmon davlatlari huzurida yagona islom davlati – “Xalifalik” tuzishni maqsad qilib olgan. Uning ta‘limoti uch bosqichdan iborat:

1. G‘oyaviy fikriy kurash.
2. Jamiyatda g‘oyaviy inqilobni amalga oshirish.
3. Hokimiyatga faqatgina umma jamoasining to‘liq roziligidan so‘ng kelish.

“Xizbut-tahrir al-islomiy” tarafdorlari Tunis, Iroq, Jozoir, Sudan, Yaman va boshqalarda o‘z faoliyatini yashirin olib bormoqdalar. Uning hozirgi kundagi rahbari Abd al-Qadim az-Zallumdir. “Xizbut-tahrir” tuzilishi jihatidan piramida shaklida ya‘ni xalqa tartibida har bir guruh 5-6 kishidan iborat. Uning o‘quv ishiga Mushrif rahbarlik qiladi, Amir Mushrifga mashg‘ulotlarni o‘tkazishda yordam beradi. Qarorgohi – Angliya – London.

“Hizbut-tahrir” jamoasi g‘oyalarining Markaziy Osiyoga kirib kelishi 1980-yillarning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Bu davrda jamoa ta‘limotlariga oid chet davlatlarda nashr etilgan turli xildagi kitob, risola va jurnallar noqonuniy yo‘llar bilan mintaqaga olib kirildi. Mazkur tashkilot 1992 yildan boshlab, O‘zbekiston hududida o‘zining o‘ta zararli faoliyatini olib borishga harakat qilib kelgan.«Hizbut-tahrir»ning faoliyati O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Livan, Misr, Iordaniya, Germaniya, Rossiya, Pokiston va Suriya kabi bir qator davlatlarda qonun bilan ta‘qiqlangan.

MDH davlatlarida 1990 yillardan boshlab kirib kelgan turli ekstremistik guruhlarini “al-Qoida” va shunga o‘xshash ekstremistik, terroristik tashkilotlar

moliyaviy ta'minlab kelganlar. "Al-Qoida" bu vazifani bajarish uchun qo'poruvchilik operatsiyalarini surunkali o'tkazib kelmoqda, uning yo'llari turlicha. Masalan, narkobiznes, kidnepping (tovon olish maqsadida kishilarni garovga olish), boy musulmon oilalaridan qo'rqitish orqali pul undirish kabi usullar orqali mablag' to'playdi.

Endi terrorizm tushunchasi va unga qarshi kurashish yo'llari haqida fikr yuritamiz. Terror lotincha so'z bo'lib, "qo'rquv", "daxshat" ma'nolarini anglatib, jamiyatda berqarorlikni keltirib chiqarishga, xalq ko'ngliga vahima solishga qaratilgan siyosiy kurashdir. Terrorizm eng xavfli va oldindan ko'ra bilish murakkab bo'lgan jinoyatlar sirasiga kiradi. Uning ko'lamini kengayib borayotganligi va aql bovar qilmas shakllarni olayotganligi jahon hamjamiyatini eng xavotirli muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Terrorizmning asosiy maqsadi tinch, osoyishta yashayotgan davlatlarda qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirib, xalqlar ko'nglida vahima, qo'rquv xissiyotlarini kuchaytirib jamiyatda beqarorlikni yuzaga keltirishdir. Ular bu harakatlarini keng omma nomidan qilib ko'rsatishga intiladilar. Bu hech qachon ommaviy xarakterga ega bo'lmaydi, aksincha ayrim shaxslar va guruhlar tomonidan amalga oshiriladi. Yana terrorizmning asl maqsadi ko'p sonli qurbonlar yoki katta moddiy zarar yetkazish emas, balki ular maqsadga erishish vositasi xolos. Binobarin, terroristik xurujlar orqali millionlab insonlarda va oxir oqibat jamiyatda parokandalik tug'dirishdir.

Terrorizm bugungi kunda paydo bo'lgan hodisa emas. O'tmishda sodir etilgan terroristik harakat biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan bo'lsa bugungi kunda uni ko'lami kengayib borayotganligini tushunib olishimiz lozim.

Xalqaro terrorizm – bu davlatlar, xalqlar munosabatlarini, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatidir. Xalqaro terrorchilik harakatlari mazmuniga ko'ra:

-xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi mustaqil davlatlar chegaralarini buzish;

-qo'poruvchilik ishlari ikki yoki undan ortiq kishilar, shuningdek, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruhlar tomondan sodir etish;

-ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar xududiga tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorlash;

-xalqaro terrorizmi ekstremistik guruhlarini tayyorlashda xalqaro tus olgan noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanish kabilar kiradi.

Bunday terrorchilik, qo'poruvchilik ishlarini amalga oshirish uchun katta moliyaviy mablag' talab qilinadi. Bunday mablag'ni chet eldagi terroristik yo'nalishdagi norasmiy va rasmiy ekstremistik tashkilotlar turli yo'llar orqali

topishga harakat qilmoqdalar. Jumladan, “al-Qoida” tashkiloti Yaqin Sharq va Shimoliy Afrika mamlakatlarida transport, qimmatbaho metal qazib olish, soxta pul ishlab chiqish, narkobiznes, bosqinchilik, tovon to‘latish kabi ko‘pgina g‘ayriinsoniy harakatlar orqali moliyaviy bazalarini mustahkamlamoqdalar. Shuning uchun ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarining doimiy e‘tiborida bo‘lgan muammodir. O‘zbekiston Respublikasini bu borada Markaziy Osiyo va chet eldagi mavjud terrorizm, narkobiznes, noqonuniy qurol savdosi kabi qator tahdidlar mavjudligini hisobga olib, o‘z ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqqan va shunga amal qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston butun dunyoda xavfsizlikni ta‘minlashga qaratilgan barcha xalqaro dasturlarda ishtirok etish bilan ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishda faol qatnashib kelmoqda.

Nazorat savollari:

1. Vijdon erkinligi tushunchasi deganda nimani tushunasiz?
2. O‘zbekistonda vijdon erkinligining Asosiy Qonun bilan kafolatlanishi qanday amalga oshirilmoqda?
3. O‘zbekistonda faoliyat ko‘rsatayotgan diniy konfessiya va tashkilotlar faoliyatlari to‘g‘risida ma‘lumot bering.
4. Missionerlik va protelitizm xavfining bartaraf etilishi qanday amalga oshiriladi?
5. Diniy va dunyoviylik muammosi, ularning uyg‘unligini ta‘minlash borasida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadbirlar.
6. Ma‘rifiy islomni targ‘ib etish – yoshlarni diniy mutaasiblik, aqidaparaslik (fundamentalizm) va ekstremizm g‘oyalardan muhofaza etishning oqilona yo‘li.

17-mavzu: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash.

O‘zbekiston tajribasi

Reja:

1. Diniy mutaasiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparaslik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiyon mohiyati.
2. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash.
3. O‘zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O‘zbekiston tajribasi.

Tayanch iboralar: ma’naviyat, tinchlik, millatlararo munosabatlar, diniy bag‘rikenglik, ekstremizm, diniy mutaasiblik (fanatizm), aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm, “Musulmon birodarlari”, “Hizbulloh”, “Vahhobiylik”, “Hizbut tahrir al-islomiy”.

MAVZUNING MAQSADI: Diniy mutaasiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiyon mohiyati, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash, O‘zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari mohiyatini yoritish.

1. Diniy mutaasiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparaslik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiyon mohiyati.

Diniy fundamentalizmning kelib chiqishi o‘zining uzoq tarixiga ega bo‘lsa-da, bu jarayonning jonlanishi XX asrning oxirgi choragida yuz bera boshlagan. Professor X.Karomatov ta’kidlaganidek, – Fundamentalizm tushunchasi XX asrda xristian “modernizmi”ning rivojiga qarshi vujudga kelgan o‘ziga xos xristian oqimiga berilgan nomdir. Mazkur modernizm turli sohalarda aks ta’sir tug‘dirib, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ayniqsa shiddatli tus oldi”.

Misr, Jazoir, Tunis, Liviya, Turkiya, Eron, Pokiston, Saudiya Arabistoni, Suriya, Iroq kabi islom mamlakatlari jahon mustamlakachilik sistemasi parchalangandan so‘ng mustaqil rivojlanish yo‘liga o‘tdilar. Natijada XX asrning 80-90 yillarida ularda yuz bergan ijtimoiy-iqtisodiy siljishlar negizida butun dunyoda diniy omil, ayniqsa islom omili faollashdi. Bu davrda ikki bir-biriga zid mayl dunyoga keldi. Bir tomondan, butun dunyoda diniy e’tiqodning ijtimoiy-

iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotdagi mavqei tiklana boshlagan edi; ikkinchi tomondan bu maylga qarshi mafkuralarga moyillik shakllangan edi: bu ikki mayl orasida ziddiyatlar yuzaga kela boshladi. Mazkur ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy ziddiyatlar asosida "islom omili", "islom uyg'onishi", "islom fenomeni", islom fundamentalizmi degan atamalar, "islomlashtirish", "siyosiylashtirilgan islom" kabi tushunchalar va ular bayrog'i ostida turli oqimlar paydo bo'ldi. Bular qatoriga "Musulmon birodarlari", "Hizbulloh", "Vahhobiylik", "Hizbut tahrir al-islomiy" kabi o'nlab tashkilot, partiya, uyushmalar kiradi. Bular o'zlarida ekstremistik, terroristik xususiyat kasb etgan.

Vahhobiylar fundamentalizmda, binobarin, aqidaparastlikda Ibn Hanbal ta'limotidan ham qo'llashib, maqsad va ta'limotlari o'tmagan xududlarda kuch, hatto qilich ishlatishga jiddu-jahd qilganlar. Ularning ta'limoticha payg'ambar, musulmon olamining azizlari qabrlarini ziyorat qilish bid'at hisoblangan, faqat Allohga sig'inish farzdir deb targ'ib qilingan. Ular sufiylar ta'limotini islomga zid deb da'vo qilganlar. Haj safarini to'xtatganlar, unga hohishi bo'lgan talabgorlar faqat katta to'lovlar evaziga amalga oshirganlar.

Fundamentalistlar va ularning izdoshlari islom ma'naviyati va madaniyatiga katta shikast yetkazganlar. Ular tamaki chekish, ipak kiyim-bosh kiyish, tasbeh o'girib yurishni ma'n qilganlar, erkaklardan soqol oldirmaslikni, ayollardan hijobga bosh-oyoq o'ralib yurishni talab etganlar. "Vahhobiylar,—deb yozgan A.Begmatov,—ijmo'ni—shariatdagi asosiy usullardan birini ham inkor qilishadi. Ijmo' musulmon jamoasining yakdillik bilan chiqargan fikri, hukmi asosida ish ko'rilishidir".

Aqidaparast vahhobiylar, umuman fundamentalistlar nisbatan uyushgan, jangovar, siyosatda ham, dinda ham ekstremist bo'lganlari uchun o'zga mazhab va harakatlar ustidan harbiy va mafkuraviy jihatlardan tez, oson g'alaba qilib, butun Arabiston yarim oroliga tarqalganlar, hokimiyatni qo'lga olganlar. Oybek Hamdamovning "Ezgulikka chog'lanmagan musulmon emas" degan maqolasida qayd qilganidek, "vahhobiylar o'tgan asrda hokimiyat tepasiga kelish uchun 3000 odamni Ka'baning oldida shahid qilganlar". Bunday yovuzliklar haqida tarix tajribasidan ko'plab misollar keltirish mumkin.

Islom fundamentalizmi va uning izdoshlarining asosiy g'oyasi ilk islomning "sof", ilmiy tilda ortodoksal tamoyillariga qaytish yoki ularni tiklashdir, maqsadi esa butun insoniyat jamiyatiga "islom omili", "islomiy taraqqiyot yo'li"ni majburan joriy etishdir. Ammo O'zbekistonda istiqomat qiluvchi musulmonlar tarixan islomning sunniy yo'nalishdagi eng mo'tadil, insonparvar hanafiya mazhabiga e'tiqod qilib kelganlar. Islom bizning xududimiz xalqlari turmush tarziga, axloq-odobiga, urf-odat va marosimlariga, bir so'z bilan aytganda, madaniyatiga katta hissa qo'shgan.

Bu haqda O'zbekistonning Birinchi Prezidenti shunday deb yozgan edi: "Din, shu jumladan islom dini ham ming yillar davomida barqaror mavjud bo'lib kelganligining o'zidayoq u inson tabiatida chuqur ildiz otganligidan, uning o'ziga xos bo'lgan bir qancha vazifalarni ado etishidan dalolat beradi. Eng avvalo, jamiyat, guruh, alohida shaxs ma'naviy hayotining muayyan sohasi bo'lgan din umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalariga aylantirgan. Madaniyatga katta ta'sir ko'rsatgan. Insonning odamlar bilan bahamjihat bo'lib yashashiga ko'maklashgan va ko'maklashmoqda". Buni hozirgi paytda mutlaq (aksariyat) musulmonlarimiz ham, mamlakatimizdagi ko'zga ko'ringan islom ilohiyotchilari, ulamolar ham, umuman respublikamizning aksariyat ko'pchilik aholisi tushunib yetdilar.

Islomning 14 asrlik tarixi tajribasi shuni ko'rsatadiki, unda har qanday yangi bir mazhabni targ'ib qilib, toifachilikka berilish yoki biror oqim yaratishga intilish doimo siyosiy va g'arazgo'ylik maqsadlariga xizmat qilgan. Hatto musulmon dunyosining muayyan bir qismida rasmiy islom oqimi deb e'tirof qilingan shialik ham dastlabki shakllanishida ma'lum siyosiy maqsadlar tufayli vujudga kelgan. Vahhobiylar sunniylarning faqat 1,5 foizini tashkil etuvchi hanbaliylar mazhabiga mansub bo'lib, ular asosan Saudiya Arabistonida yashaydi. Ular dunyoviy qadriyatlarga nisbatan o'ta murosasiz diniy mafkuraga asoslangan.

Vahhobiylik harakati hozirgi Saudiya Arabistoni xududida, XVIII asrda vujudga kelgan. Uning g'oyaviy asosini islomning dastlabki holatiga qaytishni maqsad qilib olgan aqidaparastlik tashkil qiladi, siyosiy sifatini jamiyatning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, huquqiy hayotini shu aqidaparastlik asosiga qurilgan siyosiy tuzumni barpo qilish g'oyasi tashkil qiladi. Shuningdek, Islom tarixida vahhobiylikdan tashqari bir qancha radikal diniy guruhlar, harakatlar bo'lganki, ularning xatti-harakatlari jaholatparastlik, aqidaparastlikni jonlantirib, o'z mazmuni ekstremizm va terrorizm bilan yaqin aloqada bo'ldi.

XX asrning boshlarida tashkil topgan xorijiy musulmon davlatlarida yuzaga kelgan diniy oqim, tashkilot, partiyalar o'z oldiga asosan imperializmga qarshi kurash, milliy mustaqillikka erishish vazifasini qo'yganlar. Ammo islomdagi bunday oqimlarning deyarli barchasi ham bu harakatlarga vosita deb qaramasdan, oxirgi maqsad deb qaraganlari uchun yo muvaffaqiyatsizlikka uchraganlar, yo muayyan bir darajadagi salbiy oqibatlariga olib kelganlar.

O'rta asrlar tarixi shuni ko'rsatadiki, bu harakatlarning aksariyati faqat xayoldagina (utopiya) bo'lib qolgan, ayrim hollarda esa butun bir mamlakatlar va xalqlar o'rtasida dahshatli, beqiyos bo'lgan qonli urushlarga olib kelgan. Masalan, XVI asrda boshlangan shia (safaviylik) va sunniylik (shayboniylar) o'rtasidagi go'yo haqiqiy din uchun kurash niqobidagi urushlar butun bir Xuroson va

Movarounnahr o'lkalarini bir necha asr davomida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan tanazzulga tushishining asosiy sabablaridan biri bo'lgan edi. XX asrda vujudga kelib, islomni vosita deb emas, maqsad qilib olgan turli oqimlar esa oqibatda islom fundamentalizmiga olib keldi. Buning isboti uchun uzoqqa borishning hojati yo'q. Ko'pchilik xorijiy musulmon mamlakatlaridagi terroristik harakatlar, yaqin qo'shni o'lkalardagi qonli to'qnashuvlar bunga misol bo'la oladi.

O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, –“Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo'lgan odamlardagi e'tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o'taketgan mutaassiblik) sifatida foydalanganligini ko'rsatuvchi misollar ko'p”. Bu fikrning g'oyat to'g'riligini Namangan shahrida vahhobiylar uyushtirgan din niqobi ostidagi mash'um jinoyatchilik misolida ham ko'rish mumkin.

Vahhobiylar harakati XVIII asrning boshlarida vujudga kelgan bo'lib, u XIX asrda yana ham kuchaydi. XX asrning birinchi, xususan ikkinchi yarmida turli musulmon mamlakatlarida (Tojikiston, Afg'oniston, Checheniston, Dog'iston, Jazoir va boshqalarda) yuzaga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatdan foydalanib vahhobiylar o'z ta'sirlarini kuchaytirdilar va natijada salbiy oqibatlarning kelib chiqishiga, hattoki, qonli to'qnashuvlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ldilar.

Keyingi o'n yilliklar davrida, jumladan, XX asrning oxirlarida vahhobiylik harakatining namoyandalari O'zbekistondagi musulmonlarga ham o'z ta'sirini o'tkazish uchun turli yo'llardan foydalandilar. Matbuot bergan xabarlariga ko'ra: “Xizbi” harakati, “Jihad”, “Da'vat ul irshod” va “Pokiston islom ulamolari jamiyati” kabi tashkilotlar yordamida O'zbekistonlik, aksariyati Farg'ona vodiysi yoshlarini Peshovor tumanida joylashgan diniy o'quv yurtlarida o'qitishib, o'zlarining jirkanch ishlarida ulardan foydalandilar. Ba'zi e'tiqodi sust musulmonlarda ularning ta'siriga berilish hollari bor. Chet eldagi toifalardan biri “Dor-ul Arkam”dir. Uning markazi Malayziyada. Bu toifa a'zolaridan erkaklar to'pig'idan sal yuqori turadigan uzun ko'ylak va kichik salla bilan, ayollar esa qora libos, yuzlariga faqat ko'zi ochilib turadigan niqob kiyishlari bilan ajralib turadilar. Oxirgi yillarda bu toifaning ta'siri oz bo'lsa-da, O'zbekistonda sezilmoqda. Bu toifaning aksariyati sarmoyadorlar va tijoratchilardir. Ular bizdagi talaygina shaxslar bilan aloqa o'rnatganlar. Mazkur toifa Indoneziya, Tailand, Pokiston va boshqa mamlakatlarda ham o'ziga tarafdorlarini topdi.

Islomshunos olimlarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, vahhobiylar davstavval Rasuli Akram (s.a.v.) sahobalaridan birining Jubayilidagi qabrini vayron qildilar. 1802-1803 yillarda Muhammad (s.a.v.)ning nabiralari – Imom Hasan va Imom Husaynlarning qabrlarini vayron qildilar. Qabr maqbaralaridagi

qimmatbaho bezaklarni, oltin suvi yuritilgan g'ishtlarni tuyalarga ortib o'lja sifatida olib ketdilar. Bu vahshiyliklarga qarshi chiqqan mo'ysafidlar, ayollar, hatto bolalar shafqatsizlarcha qirib tashlangan. Qabrlardagi talon-taroj 8 soat davom etgan. Shu vaqt ichida qarshilik ko'rsatganlardan to'rt ming odam qilichdan o'tkazilgan. Tarixiy voqealar shuni ko'rsatadiki, vahhobiylar islom dinini "asl holatiga keltirish" da'vati ostida bosqinchilik, talonchilik bilan shug'ullanishgan.

1803 yili vahhobiylar Makkani, keyin Madina shahrini bosib olishdi. U yerdagi barcha qabrtoshlarni, hatto Bibi Fotima va sahobalar sag'anasidagi qabr toshlarni buzib tashlashdi. 1810 yilga kelib Muhammad (s.a.v.)ning masjidlarini ham talon-taroj qilishdi. Bunday xunrezliklarga chiday olmagan Misr hukmdori Muhammad Ali 1811 yili bu yovuzlikka qarshi chiqib, o'z qo'shinlari bilan avval Xijozni, so'ng 1818 yili Dir'ani vahhobiylardan tozaladi. Shundan so'ng hokimiyat misrliklar qo'liga o'tsa ham, baribir, vahhobiylar vaqti bilan o'sha davlatni tiklashdi. Uning poytaxti Ar-Riyod bo'ldi.

Vahhobiylik g'oyalari o'tmishda O'rta Osiyoda, shu jumladan, O'zbekistonda yashaydigan musulmonlar o'rtasida bo'lmagan. Bizdagi musulmonlar, asosan, hanafiya mazhabiga e'tiqod qiluvchilardir. Hozirgi davrda bizning diniy, milliy qadriyatlarimiz mezonlariga qarama-qarshi bo'lgan vahhobiylar g'oyalari katta mablag'larga ega bo'lgan ajnabiy kuchlar va ularga ergashgan kishilar tomonidan targ'ib qilinmoqda.

1999 yil 16 fevral kuni Toshkent shahrida qabih va razil niyatli kimsalar terrorchilik hurujlari sodir etdilar. Birinchi Prezidentimizning "Toshkent shahridagi fojeali hodisalar munosabati bilan motam kuni e'lon qilish to'g'risida"gi Farmonida qayd qilinganidek, "Mustaqilligimizga, xalqimizning osoyishta hayotiga, yurtimiz xavfsizligiga tajovuz qilishga qaratilgan bu yovuz urinish oqibatida begunoh odamlar halok bo'ldi". Portlash oqibatida 15 kishi halok bo'lgan, yuzdan ziyod odam jarohatlangan, jabrlanganlarning deyarli barchasi tinch aholi vakillari edi.

Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib, bosh ko'tarayotgan, o'ta makkor va yovuz uslublarni qo'llayotgan bugungi kunda hayotning o'zi xalqaro hamjamiyat, jumladan mintaqamizdagi davlatlardan bu xavfli baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlamoq lozim. Diniy ekstremizm harakatlarini oldini olish faqat bizning mintaqamizdagina emas, balki Sharqdagi islom mamlakatlarida ham jiddiy ahamiyatga molik masala bo'lib qoldi. Masalan, arab Sharqini turli davlatlarida ekstremizmiga barham berishga oid quyidagi jiddiy choralar ko'rilgan:

-1977 yil 2 iyuldan e'tiboran Misr Arab Respublikasida barcha diniy-siyosiy partiyalar ta'qiqlangan;

-1980 yil 7 iyulda Suriya Arab Respublikasida “Musulmon birodarlari” partiyasi a’zolarini qatl etish to’g’risida qonun qabul qilingan;

- 1981 yil 31 martda Iroqda “Islom da’vati” partiyasi a’zolarini qatl etish to’g’risidagi qonun qabul qilinib, diniy tashkilotlar faoliyati “uy va masjid” doirasida cheklangan;

-1981 yil Tunisda mamlakatda islom aqidaparstligi g’oyalarini targ’ib etmaslik hamda maktab va jamoa yerlarida dinga xos liboslarni kiyib yurmaslik to’g’risida qonun qabul qilingan;

- Jazoirida “Siyosat bilan faqat siyosiy arboblarni shug’ullanadi” shiori e’lon qilingan.

2. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag’rikenglikka tahdidi. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash.

XX asr oxiriga kelib dunyoda, ayniqsa, uning jo’g’rofiy-siyosiy xaritasida katta o’zgarishlar bo’ldi, yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo’lib, jahon hamjamiyatiga kelib qo’shildilar. Shu bilan birga, bu asrning oxiri o’ziga xos tarzda diniy qadriyatlarga qaytish davri ham bo’ldi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning ma’naviy va madaniy merosiga, tarixiga munosabat tubdan ijobiy tomonga o’zgardi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo hududidagi mustaqillikka erishgan mamlakatlarida islom ta’limoti nomidan ish ko’rish, o’z davlati siyosatini islom vositasida “tahlil” qilishga urinish, shu yo’lda turli xil fitnalar uyushtirish, buzg’unchilik harakatlari ham kuchaydi. Mazkur mamlakatlarda turli ekstremistik oqimlarning maqsadlari va kirdikorlarini ommaga tushuntirish, bunday oqimlar faoliyatini cheklash va ta’qiqlashga e’tibor kuchaytirildi. Jumladan, 2005-yil boshlarida Qozog’istonda “Xizbut tahrir” tashkiloti faoliyati ta’qiqlab qo’yildi.

2000-yilda “Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashni kuchaytirish to’g’risida” Davlat dasturi qabul qilindi. Uning asosida o’sha yilning dekabr oyida O’zbekiston Respublikasining “Terrorizmga qarshi kurash to’g’risida”gi Qonuni qabul qilindi. Nyu York va Vashingtonda 2001 yil 11 sentabrda sodir etilgan terrorchilik harakatlaridan so’ng AQSh boshchiligida tuzilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibiga O’zbekiston Respublikasi ham kirdi.

O’zbekiston Respublikasi va Amerika Qo’shma Shtatlari hukumatlarining 2001-yil 7-oktabrdagi Qo’shma Bayonoti va ikki mamlakat hukumatlari o’rtasidagi xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida imzolangan bitim o’zaro majburiyat va kafolatlarning huquqiy asosi, umumiy manfaatlarining amaliy ifodasidir. Ayniqsa, Shanxay hamkorligi davlatlari sammiti doirasida Toshkentda aksiterror markazning ijroiya qo’mitasining ish boshlashi yana bir bor O’zbekistonning xalqaro miqyosidagi obro’-e’tibori ortib borayotganligini, jahon siyosatining faol ishtirokchisiga aylanganligini, u tanlagan siyosiy yo’lning to’g’riligini hamda o’z

xalqi manfaatlaridan kelib chiqib sa'y-harakatlar olib borayotganligining yorqin dalili bo'ldi.

Islom Karimov BMTda so'zlagan nutqida (1993), YeXHTning Istanbul sammitida (1999) davlat rahbarlari bilan uchrashganida terrorizm va uning manbalari, bazalari, faoliyatini bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar bilan chiqdi va "Terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz" tuzish taklifini o'rta tashladi.

2000 yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasi "Ming yillik sammiti"da O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tiborni qaratdi.

Bugungi kunda terrorizm xavf solishi mumkin bo'lmagan davlatning o'zi yo'q. Shunday ekan, dunyoning barcha davlatlari bir-birlariga yordam berib, bir-birlarining yordamlariga suyanan holda terrorizmga qarshi kurashishlari lozim.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000-2004 yillar davomida ko'p marta uchrashdilar va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000-yil aprel oyida Toshkentda, 2000-yil avgust oyida Bishkekda, 2001-yil Ostonada, 2004-yil oktabr oyida Dushanbeda bo'lib o'tgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi. Xususan, "Terrorchi guruhlar faoliyatini to'xtatish, ularning rahbarlari ro'yxatini tuzish, rahbarlarni tutib jazolash" haqida muhim hujjatlar qabul qilindi.

2005-yil 13-mayda Andijonda sodir bo'lgan voqealar diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning O'zbekiston mustaqilligi va yurtimiz tinchligiga jiddiy havf tug'dirayotganini ko'rsatdi. Jahonning ko'pchilik ommaviy axborot vositalarida ta'kidlanganidek, Andijondagi yuz bergan fojiani bartaraf etish uchun ko'rilgan chora tadbirlar O'zbekiston rahbariyatining diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilik muammosiga nisbatan kurashi qat'iy ekanligining isbotidir.

Ma'lumki, uzoq tarix davomida xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanish, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati e'zozlanib kelingan. Ushbu qadriyatlarning qaror topishida islom dinining asoslari Qur'on va hadislarda olg'a surilgan, real, dunyoviy qarashlar, fikrlar ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli o'zbek xalqining ilm fan xazinasi, milliy ma'naviyati, ma'naviy qadriyatlarning qaysi tomonga nazar tashlamaylik, ularning zamirida chuqur ijtimoiy, axloqiy ahamiyat kasb etadigan insonparvarlik g'oyalar mavjudligini ko'ramiz. Shuningdek, Turon zaminida shaxs umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan. Ushbu jarayonda din inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan. Agar islom dini misolida olib ko'radigan

bo'lsak, Qur'on, hadislardagi g'oyalarda va shariat ahkomlarida shakllangan musulmonlarning taqdiri huquqlari deb tan olingan fikrlari orqali kishilarda iymon, e'tiqod orqali dunyoviy muammolarni hal etish kerak, degan da'vati islom ta'limotida katta o'rin olgan. Afsuski, bugungi diniy ekstremizm bundan 40-50 yil ilgari diniy ekstremizm va fundamentalizmdan bir necha barobar xavflidir. Chunki, din niqobi ostida aqidaparastlik g'oyalar bilan qurollangan ekstremizm giyohvand moddalar tarqatish, qurol-yarog' savdosi, xalqaro terrorizm bilan qo'shilib ketdi. Eng yomoni, ekstremistlar va aqidaparastlar maqsadlarini qorishtirmoqchi bo'layapti va bunday g'oyalar bilan yoshlarni ongini zaharlashga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda insoniyat terrorizm mamlakatlar xalqlari uchun katta tahdid solayotganini tushunib yetdi. Shuningdek, uning islom diniga hech qanday aloqasi yo'qligini, islom tinchlik va mehribonlik dini bo'lgan, odamlarga rahm-shafqatli va adolatli bo'lishni, muhabbat va birodarlikni buyuradigan din ekanligi to'g'risidagi haqiqatni butun dunyo tushunib yetdi. Islom dinini niqob qilib qabih ishlarni amalga oshirayotgan bir guruh mutaassiblar yer yuzidagi qariyb ikki milliardga yaqin musulmonlarning dunyoqarashini belgilay olmaydi. Diniy ekstremizm qanday ko'rinishda bo'lmasin, qanday nom bilan atalmasin uning asosiy maqsadi hokimiyat tepasiga chiqish ekanligini, diniy ekstremizm haqiqiy islom diniga zarracha aloqasi yo'qligini yoshlar tushunib olishlari ham bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Islomning chinakam axloqiy asoslarini anglab yetgan kishining shafqatsizlik, vahshiylik, kuch ishlatish tarafdori bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Xuddi shuning uchun ham Islom ta'limoti ekstremizm va terrorchilik balosini tag-tomiri bilan tugatish yo'li hisoblanadi. Islom dini jaholatning har qanday ko'rinishiga qarshi bo'lib, odamlar qalbiga tartibsizlik, dushmanlik, buzg'unchilik, yovuzlik va nafrat urug'ini sohadigan kimsalarning hatti-harakatlarini hech qachon qo'llab quvvatlamaydi. Butun dunyoda terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash yo'lida zudlik bilan qo'yilishi kerak bo'lgan birinchi qadam bu jamiyatda ma'rifat, ma'naviy, axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ma'rifiy islomdan foydalanishdir.

Islom ma'rifati – ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, u e'tiqod erkinligi sifatida daxlsizdir. Ammo diniy ekstremizm mazhabparastlik, aqidabozlik – o'ta xavfli hodisa. Bizni oqil va orif etadigan, fazilatimizga fazilat qo'shadigan ta'limotlarni olishimiz, jaholat va tubanlikka, ayirmachilik va madaniyatsizlikka tortadigan oqimlar, illatlardan uzoq turushimiz, jamiyatimiz yakdilligiga rahna soladigan guruhlar ta'siriga berilmasligimiz va yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Islom hech qachon qirg'inga, birodarkushlikka, qon to'kishga da'vat etmaydi. Odam o'ldirma, nohaq qon to'kma, birovning haqini yema, zino qilma

singari muqaddas tushunchalar islom axloqining asosiy ustunlaridan sanaladi. Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.): “Islomning eng ishonchli narsasi iymondur”. Va shu bilan barobar: “Musulmonni so‘kmoq – gunohdir, unga qurol ko‘tarmoq – kufrdir, uni g‘iybat qilmoq – ulug‘ yozuqdur (gunohdir) mo‘minning qoni haromdur”– deganlar.

Bizning yo‘limiz aniq– ravshan: din inson ruhiyati, qalbini poklaydi. Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilganidek, har kim istagan diniga e‘tiqod qilish yoki hech bir dinga e‘tiqod qilmasligi mumkin. Ammo endi milliy qadriyatlarimizni “dinni tozalash”, “sof dinga qaytish” niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo‘yganlardan asrab-avaylashimiz lozim. Ularning bu kirdikorlari va qilayotgan noma‘qul ishlariga aslo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi. Bu mustaqil davlatimizga ochiqdan-ochiq tajovuzi xavf ostiga qoldiradi.

Shuni ham anglab yetish kerakki, O‘zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o‘ziga xos va mos yo‘li bo‘lgani kabi madaniy-ma‘naviy rivojlanishda ham o‘z yo‘limiz bor. Bu o‘ziga xoslikni dinga bo‘lgan munosabatda ham ko‘ramiz. Ya‘ni, mo‘tadil dindorlik, islom ma‘rifatini rivojlantirish, hazrat naqshband vasiyatlariga rioya qilish, kishilarimizning ichki-botiniy olamini poklab, Allohni dilda saqlab aqlu tafakkur, ilmu irfon bilan kamolot kasb etish, o‘z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam olg‘a borishga erishish ezgu maqsadimizdir. Bu maqsad bizni chinakam ma‘rifat sari yetaklaydi. Haqiqiy ma‘rifat dini sifatida islom ma‘naviyati bizni shunga da‘vat etadi. Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida “Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosankuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma‘rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat‘iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila

olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarini asrab-avaylashga da'vat etadi”.

3. O'zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari. O'zbekiston tajribasi.

Xalqaro terrorchi kuchlar qaytadan birlashib, bosh ko'tarayotgan, o'ta makkor va yovuz uslublarni qo'llayotgan bugungi kunda hayotning o'zi xalqaro hamjamiyat, jumladan mintaqamizdagi davlatlardan bu xavfli baloga qarshi kurashda hamkorlikni kuchaytirish zarurligini alohida ta'kidlamoq lozim. Diniy ekstremizm harakatlarini oldini olish faqat bizning mintaqamizdagina emas, balki Sharqdagi islom mamlakatlarida ham jiddiy ahamiyatga molik masala bo'lib qoldi. Masalan, arab Sharqini turli davlatlarida ekstremizmga barham berishga oid quyidagi jiddiy choralar ko'rilgan:

-1977 yil 2 iyuldan e'tiboran Misr Arab Respublikasida barcha diniy-siyosiy partiyalar ta'qiqlangan;

-1980 yil 7 iyulda Suriya Arab Respublikasida “Musulmon birodarlari” partiyasi a'zolarini qatl etish to'g'risida qonun qabul qilingan;

- 1981 yil 31 martda Iroqda “Islom da'vati” partiyasi a'zolarini qatl etish to'g'risidagi qonun qabul qilinib, diniy tashkilotlar faoliyati “uy va masjid” doirasida cheklangan;

-1981 yil Tunisda mamlakatda islom aqidaparstligi g'oyalarini targ'ib etmaslik hamda maktab va jamoa yerlarida dinga xos liboslarni kiyib yurmaslik to'g'risida qonun qabul qilingan;

- Jazoirida “Siyosat bilan faqat siyosiy arboblarni shug'ullanadi” shiori e'lon qilingan.

XX asr oxiriga kelib dunyoda, ayniqsa, uning jo'g'rofiy-siyosiy xaritasida katta o'zgarishlar bo'ldi, yangi-yangi mustaqil davlatlar paydo bo'lib, jahon hamjamiyatiga kelib qo'shildilar. Shu bilan birga, bu asrning oxiri o'ziga xos tarzda diniy qadriyatlarga qaytish davri ham bo'ldi. Respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin xalqimizning ma'naviy va madaniy merosiga, tarixiga munosabat tubdan ijobiy tomonga o'zgardi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo hududidagi mustaqillikka erishgan mamlakatlarida islom ta'limoti nomidan ish ko'rish, o'z davlati siyosatini islom vositasida “tahlil” qilishga urinish, shu yo'lda turli xil fitnalar uyushtirish, buzg'unchilik harakatlari ham kuchaydi. Mazkur mamlakatlarda turli ekstremistik oqimlarning maqsadlari va kirdikorlarini ommaga tushuntirish, bunday oqimlar faoliyatini cheklash va ta'qiqlashga e'tibor kuchaytirildi. Jumladan, 2005 yil boshlarida Qozog'istonda “Xizbut tahrir” tashkiloti faoliyati ta'qiqlab qo'yildi.

2000-yilda “Terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashni kuchaytirish to'g'risida” Davlat dasturi qabul qilindi. Uning asosida o'sha yilning dekabr oyida

O'zbekiston Respublikasining "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi. Nyu York va Vashingtonda 2001 yil 11 sentabrda sodir etilgan terrorchilik harakatlaridan so'ng AQSh boshchiligida tuzilgan xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibiga O'zbekiston Respublikasi ham kirdi.

O'zbekiston Respublikasi va Amerika Qo'shma Shtatlari hukumatlarining 2001-yil 7-oktabrdagi Qo'shma Bayonoti va ikki mamlakat hukumatlari o'rtasidagi xalqaro terrorizmga qarshi kurash borasida imzolangan bitim o'zaro majburiyat va kafolatlarning huquqiy asosi, umumiy manfaatlarining amaliy ifodasidir. Ayniqsa, Shanxay hamkorligi davlatlari sammiti doirasida Toshkentda aksilterror markazning ijroiya qo'mitasining ish boshlashi yana bir bor O'zbekistonning xalqaro miqyosidagi obro'-e'tibori ortib borayotganligini, jahon siyosatining faol ishtirokchisiga aylanganligini, u tanlagan siyosiy yo'lning to'g'riligini hamda o'z xalqi manfaatlaridan kelib chiqib sa'y-harakatlar olib borayotganligining yorqin dalili bo'ldi.

Islom Karimov BMTda so'zlagan nutqida (1993), YeXHTning Istanbul sammitida (1999) davlat rahbarlari bilan uchrashganida terrorizm va uning manbalari, bazalari, faoliyatini bartaraf etish bo'yicha amaliy takliflar bilan chiqdi va "Terrorchilikka qarshi kurash bo'yicha xalqaro markaz" tuzish taklifini o'rta tashladi.

2000-yilning sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasi "Ming yillik sammiti"da O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov mintaqamiz xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xalqaro terrorizmga qarshi kurashish, Markaziy Osiyo mintaqasidagi barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash va jahon xavfsizlik tizimini takomillashtirish muammolariga e'tiborni qaratdi.

Bugungi kunda terrorizm xavf solishi mumkin bo'lmagan davlatning o'zi yo'q. Shunday ekan, dunyoning barcha davlatlari bir-birlariga yordam berib, bir-birlarining yordamlariga suyanan holda terrorizmga qarshi kurashishlari lozim.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining rahbarlari faqat 2000-2004 yillar davomida ko'p marta uchrashdilar va xavfsizlikni ta'minlash masalalarini muhokama qildilar. Jumladan, 2000-yil aprel oyida Toshkentda, 2000-yil avgust oyida Bishkekda, 2001-yil Ostonada, 2004-yil oktabr oyida Dushanbeda bo'lib o'tgan uchrashuvlarda mintaqada xavfsizlikni ta'minlashga asosiy e'tibor qaratildi. Xususan, "Terrorchi guruhlar faoliyatini to'xtatish, ularning rahbarlari ro'yxatini tuzish, rahbarlarni tutib jazolash" haqida muhim hujjatlar qabul qilindi.

2005-yil 13-mayda Andijonda sodir bo'lgan voqealar diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning O'zbekiston mustaqilligi va yurtimiz tinchligiga jiddiy havf tug'dirayotganini ko'rsatdi. Jahonning ko'pchilik ommaviy axborot vositalarida ta'kidlanganidek, Andijondagi yuz bergan fojiani bartaraf etish uchun ko'rilgan

chora-tadbirlar O'zbekiston rahbariyatining diniy ekstremizm va xalqaro terrorchilik muammosiga nisbatan kurashi qat'iy ekanligining isbotidir.

Ma'lumki, uzoq tarix davomida xalqimizning turmush tarzi, mehnat faoliyati, o'zaro munosabatlari, hamkorlik, hamdardlik, vafodorlik, bir-biriga suyanish, yaxshi qo'shnichilik, bolajonlik, ota-onaning bolaga, bolaning ota-onaga hurmati, sadoqati e'zozlanib kelingan. Ushbu qadriyatlarning qaror topishida islom dinining asoslari Qur'on va hadislarda olg'a surilgan, real, dunyoviy qarashlar, fikrlar ham muhim o'rin tutadi. Shu sababli o'zbek xalqining ilm-fan xazinasi, milliy ma'naviyati, ma'naviy qadriyatlarning qaysi tomonga nazar tashlamaylik, ularning zamirida chuqur ijtimoiy, axloqiy ahamiyat kasb etadigan insonparvarlik g'oyalar mavjudligini ko'ramiz. Shuningdek, Turon zaminida shaxs umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan. Ushbu jarayonda din inson ma'naviyatini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan. Agar islom dini misolida olib ko'radigan bo'lsak, Qur'on, hadislardagi g'oyalarda va shariat ahkomlarida shakllangan musulmonlarning taqdiri huquqlari deb tan olingan fikrlari orqali kishilarda iymon, e'tiqod orqali dunyoviy muammolarni hal etish kerak, degan da'vati islom ta'limotida katta o'rin olgan. Afsuski, bugungi diniy ekstremizm bundan 40-50 yil ilgari diniy ekstremizm va fundamentalizmdan bir necha barobar xavflidir. Chunki, din niqobi ostida aqidaparastlik g'oyalar bilan qurollangan ekstremizm giyohvand moddalar tarqatish, qurol-yarog' savdosi, xalqaro terrorizm bilan qo'shib ketdi. Eng yomoni, ekstremistlar va aqidaparastlar maqsadlarini qorishtirmoqchi bo'layapti va bunday g'oyalar bilan yoshlarni ongini zaharlashga harakat qilmoqdalar.

Bugungi kunda insoniyat terrorizm mamlakatlar xalqlari uchun katta tahdid solayotganini tushunib yetdi. Shuningdek, uning islom diniga hech qanday aloqasi yo'qligini, islom tinchlik va mehribonlik dini bo'lgan, odamlarga rahm-shafqatli va adolatli bo'lishni, muhabbat va birodarlikni buyuradigan din ekanligi to'g'risidagi haqiqatni butun dunyo tushunib yetdi. Islom dinini niqob qilib qabih ishlarni amalga oshirayotgan bir guruh mutaassiblar yer yuzidagi qariyb ikki milliardga yaqin musulmonlarning dunyoqarashini belgilay olmaydi. Diniy ekstremizm qanday ko'rinishda bo'lmasin, qanday nom bilan atalmasin uning asosiy maqsadi hokimiyat tepasiga chiqish ekanligini, diniy ekstremizm haqiqiy islom diniga zarracha aloqasi yo'qligini yoshlar tushunib olishlari ham bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Islomning chinakam axloqiy asoslarini anglab yetgan kishining shafqatsizlik, vahshiylik, kuch ishlatish tarafdori bo'lishini tasavvur qilish qiyin. Xuddi shuning uchun ham Islom ta'limoti ekstremizm va terrorchilik balosini tag-tomiri bilan tugatish yo'li hisoblanadi. Islom dini jaholatning har qanday ko'rinishiga qarshi bo'lib, odamlar qalbiga tartibsizlik, dushmanlik, buzg'unchilik, yovuzlik va nafrat

urug'ini sohadigan kimsalarning xatti-harakatlarini hech qachon qo'llab quvvatlamaydi. Butun dunyoda terrorchilik va ekstremizmga qarshi kurash yo'lida zudlik bilan qo'yilishi kerak bo'lgan birinchi qadam bu jamiyatda ma'rifat, ma'naviy, axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish, ma'rifiy islomdan foydalanishdir.

Islom ma'rifati – ma'naviyatimizning tarkibiy qismi bo'lib, u e'tiqod erkinligi sifatida daxlsizdir. Ammo diniy ekstremizm mazhabparastlik, aqidabozlik – o'ta xavfli hodisa. Bizni oqil va orif etadigan, fazilatimizga fazilat qo'shadigan ta'limotlarni olishimiz, jaholat va tubanlikka, ayirmachilik va madaniyatsizlikka tortadigan oqimlar, illatlardan uzoq turushimiz, jamiyatimiz yakdilligiga rahna soladigan guruhlar ta'siriga berilmasligimiz va yoshlarni ham shu ruhda tarbiyalashimiz zarur.

Islom hech qachon qirg'inga, birodarkushlikka, qon to'kishga da'vat etmaydi. Odam o'ldirma, nohaq qon to'kma, birovning haqini yema, zino qilma singari muqaddas tushunchalar islom axloqining asosiy ustunlaridan sanaladi. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.): "Islomning eng ishonchli narsasi iymondur". Va shu bilan barobar: "Musulmonni so'kmoq – gunohdir, unga qurol ko'tarmoq – kufrdur, uni g'iybat qilmoq – ulug' yozuqdur (gunohdir) mo'minning qoni haromdur" – deganlar.

Bizning yo'limiz aniq–ravshan: din inson ruhiyati, qalbini poklaydi. Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilganidek, har kim istagan diniga e'tiqod qilish yoki hech bir dinga e'tiqod qilmasligi mumkin. Ammo endi milliy qadriyatlarimizni "dinni tozalash", "sof dinga qaytish" niqobi ostida tashviqot olib borib, odamlarni tahlikaga solish, qonli jinoyatlar sodir etish, otani bolaga, akani ukaga dushman qilib, jamiyatimizni xavf ostiga qo'yganlardan asrab-avaylashimiz lozim. Ularning bu kirdikorlari va qilayotgan noma'qul ishlariga aslo yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bu yosh mustaqil davlatimizga ochiqdan-ochiq tajovuzi mustaqilligimizni ham xavf ostiga qoldiradi.

Shuni ham anglab yetish kerakki, O'zbekistonning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida o'ziga xos va mos yo'li bo'lgani kabi madaniy-ma'naviy rivojlanishda ham o'z yo'limiz bor. Bu o'ziga xoslikni dinga bo'lgan munosabatda ham ko'ramiz. Ya'ni, mo'tadil dindorlik, islom ma'rifatini rivojlantirish, hazrat naqshband vasiyatlariga rioya qilish, kishilarimizning ichki-botiniy olamini poklab, Allohni dilda saqlab aqlu tafakkur, ilmu irfon bilan kamolot kasb etish, o'z merosiy qadriyatlarimiz va dunyo ilmini egallab, zamon bilan hamqadam olg'a borishga erishish ezgu maqsadimizdir. Bu maqsad bizni chinakam ma'rifat sari yetaklaydi. Haqiqiy ma'rifat dini sifatida islom ma'naviyati bizni shunga da'vat etadi.

Zero, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19 sentabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqida

“Dunyoda terrorizm tahdidlari ayniqsa, so‘nggi yillarda kuchayib borayotgani ularga qarshi asosankuch ishlatish yo‘li bilan kurashish usuli o‘zini oqlamayotganidan dalolat beradi.

Bu borada ko‘p hollarda tahdidlarni keltirib chiqarayotgan asosiy sabablar bilan emas, balki ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilangina cheklanib qolinmoqda. Xalqaro terrorizm va ekstremizmning ildizini boshqa omillar bilan birga, jaholat va murosasizlik tashkil etadi, shu munosabat bilan odamlar, birinchi navbatda, yoshlarning ongu tafakkurini ma’rifat asosida shakllantirish va tarbiyalash eng muhim vazifadir. Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi”.

Nazorat savollari:

1. Diniy mutaassiblik (fanatizm), ekstremizm, aqidaparastlik (fundamentalizm), xalqaro terrorizm tushunchalarining mazmuni va reaksiyon mohiyati nimadan iborat?

2. Terrorizmning tinchlik va taraqqiyotga, millatlararo munosabatlar va diniy bag‘rikenglikka tahdidi gapirib bering.

3. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning o‘ziga xos yo‘llari to‘g‘risida nimalar deya olasiz?

4. O‘zbekiston Respublikasida ekstremizm va terrorizm xavfini oldini olishning huquqiy va tashkiliy asoslari haqida fikringiz.

5. Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda O‘zbekiston tajribasi.

GLOSSARIY

Ayniyat tushunchasi - narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshash tomonlarni ifodalaydi. Shu bilan birga narsa-hodisalar bir-biridan farq qiladigan tomonlar, xususiyatlar, belgilarga ham egadir. Aynan bir xil bo'lgan narsaning o'zi yo'q.

Antik falsafa - qadimgi davrda eramizdan avvalgi 8 asrda Yunonistonda, eramizdan avvalgi II asrda Rim jamiyatlarida shakllanib, eramizning VI asriga qadar rivojlanib kelgan falsafiy ta'limotlar umumlashmasi.

Apologetika - yunoncha apologetikos - himoya qilish ma'nosini anglatadi. Ilohiyotda tafakkur dalillari yordamida diniy ta'limotni himoya qilish va oqlash bilan bog'liq bulgan soxa. Dinning mohiyatini aqidalar tizimi xususiyatlari, axloqiy prinsiplari, ijtimoiy hayotdagi roli va ahamiyatini taxlil qilish asosida uni falsafiy materialistik va genetik tanqiddan himoya qilishni o'z oldiga asosiy vazifa qilib quyadi.

Antissientizm - ya'ni fan taraqqiyoti jamiyat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatishini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Bunday dunyoqarash ekzistensializm, frankfurt ijtimoiy-falsafiy maktabi, Rim Klubining bir qator tarmoqlarini, ba'zi diniy-falsafiy oqimlarning fanga munosabatini ifodalaydi

Borliq –bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson xayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha obyektiv va subyektiv sharoitlari, hatto jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma realliklarni o'z ichiga oladi. Falsafiy kategoriyalar ichida boshlang'ich kategoriyadir.

Bilish - insonning o'zining qurshagan dunyoga bo'lgan munosabatlaridan biridir.

Vedalar - diniy mazmunga ega adabiyotlar. Ba'zi taxminlarga ko'ra, deyarli to'qqiz asr davomida Hindiston yarim orolida yashab kelgan qadimiy xalq va elatlar tomonidan yaratilgan.

Voqelik - real mavjud bo'lgan, yashab turgan narsa va hodisalardir.

Gnoseologiya - (gnosis - bilish, logos - ta'limot) falsafada dunyoni anglash, uning umumiy qonuniyatlarini bilish bilan shug'ullanadi.

Gnostiklar -bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150 yillarida o'zining yuksak ravnaqiga erishadi. Ular shunday falsafiy ta'limot yaratdilar, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatinnig ruhiy jihati bilan xudoga moslashgan.

Germenevtika - qadimgi yunon afsonalaridagi xudolarning xohish va irodasini insoniyatga tushuntirib berish uchun yerga yuborilgan elchisi — Germes nomi bilan ataladi. Demak, germenevtika — tushunish, tushuntirish, tahlil etish g'oyalari asosiy diqqatini qaratadi.

Gipoteza - tekshirilayotgan predmet yoki hodisa to'g'risida ilgari surilgan ilmiy jihatdan asoslangan, ilmiy fakt va ma'lumotlarga zid bo'lmagan, lekin haqiqatligi hali isbotlanmagan ilmiy bilish shaklidir.

Dualizm - (lotin tilida dua, ya'ni ikki degan ma'noni ifodalaydi) - olamning asosida ikkita asos, ya'ni modda va materiya bilan birga ruh va g'oya, ya'ni ideya yotadi deyuvchi qarash.

Dialektika - grek tilida bahs va suhbatlashish san'ati degan ma'noni anglatadi. Antik dunyo faylasuflari uni haqiqatga erishish yo'li va usuli sifatida talqin etganlar.

Dunyoqarash tushunchasi - Inson uzini va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, unga baho berishi, xulosa chiqarishi bulib, dunyoni inson ongidagi uziga xos in'ikosidir. Insonning o'ziga va uni qurshab turgan borliqqa bulgan munosabatlarini ifodalaydigan kunikmalari, malakalari, bilimlari xamda dunyoni amaliy va nazariy uzlashtirish hamdir.

Din - arabcha ishonch, ishonmoq demakdir. Borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni Xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Diniy dunyoqarash - Olamdagi voqea va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

Dogmatika - yunoncha kotib kolgan ma'nosini anglatib, konkret shart-sharoitlarni hisobga olmay qo'llaniladigan qoida, prinsip, fikrdir.

Zardo'shtiylik ta'limoti - Eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo'lgan davr mahsuli bo'lgan diniy-falsafiy ta'limotlardan biri zardo'shtiylikdir. Bu ta'limotga Zardo'sht asos solgan bo'lib, Sharq va Farbdagi Zaratushtra, Zoroastr nomlari bilan mashhurdir. Manbalarga ko'ra, Zardo'sht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan.

Zaruriyat - narsa va hodisalarning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydigan shart-sharoitlar, munosabatlar majmuasidir. Tasodif esa - zaruriyatning namoyon bo'lish shaklidir. Zaruriyat va tasodif kategoriyasi olamni falsafiy bilishning mushtarakligini va samaradorligini ta'minlaydi.

Idealizm - olamning asosida ruh yoki g'oyalar (ideyalar) yotadi, dunyo voqeligi va rivojida ideyalarni ustuvor deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limot.

Ijtimoiy harakat - bizga ma'lum bo'lgan harakat shakllari ichida eng murakkabi bo'lib, unda insonning ongli faoliyati, inson tafakkuri, ijtimoiy guruhlarning faoliyati, o'zaro munosabatlari, jamiyat miqyosidagi ijtimoiy fikr birgalikda harakatga keladi.

Imkoniyat - narsa va hodisalarning makon va zamondagi rivojlanish tendensiyasini ta'minlaydigan, muayyan qonuniyatlarga asoslanadi. Voqelik esa, shu qonuniyatlarga asoslangan rivojlanishning namoyon bo'lishidir.

Induksiya - tadqiqotchi o'z tafakkuridan tekshirayotgan predmet yoki hodisalar to'g'risidagi bir qancha juz'iy faktlardan, ular haqidagi ayrim bilimlardan umumiyroq bilimni hosil qiladi.

Ijtimoiy ong - tabiiy va ijtimoiy voqelikning in'ikosi, jamiyatning muayyan davriga yoki qismiga tegishli bo'lgan umumiy his-tuyg'ular, kayfiyatlar, qarashlar, g'oyalar, nazariyalar majmuidir.

Individual ong- muayyan, guruh, elat, millatga mansub bo'lgan ayrim kishining ongi bo'lib, jamiyatdagi voqelik va real borliqning alohida olingan shaxsning ongida aks etishdir.

Imkoniyat - yuzaga chiqmagan voqelikdir.

Kategoriya - qadimgi yunon tilidan olingan bo'lib: «izohlash», «tushuntirish», «ko'rsatish», degan ma'nolarni anglatadi. Uning mazmunidagi bunday xilma-xillik qadimgi davrlardan oq ilmiy tadqiqot yo'nalishiga aylangan

Sistema — narsa va hodisalarning bog'lanishlari, aloqadorligi va munosabatining tartibli tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi.

Konfutsiy – qadimgi Xitoy faylasufi (551-479) yashab ijod qilgan. Uning «Hikmatlari», ya'ni aforizmlari hozirgi kungacha juda mashhur hisoblanadi.. Konfutsiy ta'limotida umuminsoniy qadriyatlarining xitoy xalqi turmush tarzida o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi, bu xalqqa xos ma'naviy mezonlar aks etgan. Konfutsiyning ta'kidlashicha, shaxs faqat o'zi uchun emas balki jamiyat uchun ham yashashi kerak.

Kuzatish - harakat o'zgarish va rivojlanishdagi ma'lum obyektning tabiiy sharoitda u qanday bo'lsa, shu xolisa diqqat bilan, belgilangan vaqt ichida, ma'lum maqsad asosida ko'zdan kechirib borishdir.

Konkretlashtirish - oldingi butun belgi va xususiyatlarni yana predmet yoki hodisalar bilan bog'lab shu predmet yoki hodisa haqida aniq bir fikr hosil qilishdir.

Lao-Szi - (VI-V asrlar) qadimgi Xitoyning ko'zga ko'ringan faylasuflaridan biri. Uning ta'limotiga ko'ra, olam, jamiyat va inson hayoti Dao qonuniga bo'ysunmog'i lozim. Daosizm ta'limoti ana shu tariqa shakllangan. Dao qonuni - tabiatning yashash qonunidir, undagi rang-baranglik kurashi va uyg'unligi abadiylikning e'tirof etilishidir.

Mazdak ta'limoti -U eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529 yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida halq ommasiga suyangan. Xalqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo'lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning

maslakdoshlari, izdoshlari ko'payib ketgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida kurashga da'vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan.

Materiya - Moddiy obyektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzda ifodalash uchun qullaniladigan falsafiy tushuncha bulib, obyektiv borliqni real shaklini ifodalaydi.

Materializm- olamning asosida materiya, ya'ni moddiy narsalar yotishini e'tirof etadigan, moddiylikni ustuvor deb biladigan ta'limot.

Monizm (yunoncha - monos, ya'ni yakka ma'nosini anglatadi) - olamning asosi yakayu-yagona sababga, bitta asosga ega deb ta'lim beradigan falsafiy ta'limotdir.

Moniy - Moniy Ibn Fatak monizm ta'limotining asoschisi. Naqqosh va rassom. Markaziy Osiyo, Eron, Hindiston buylab safar qilib, zardushtiylik, buddaviylik, braxmanlik kabi turli diniy ta'limotlar bilan tanishadi. Dunyo ziyo va zulmatning abadiy kurash maydoni, insonning vazifasi esa, yovuzlikni uzil-kesil yo'q qilish uchun ezgulikka kumaklashishdir. Bu g'oya Moniy axloqiy ta'limotining asosini tashkil etadi.

Moniy ta'limoti - yurtimizda buddaviylikdan keyin keng tarqalgan edi. u zardo'shtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Lekin ular bizgacha yetib kelmagan.

Metafizika - grekcha so'z bo'lib, lug'aviy ma'noda «fizikadan keyin» degan mazmunni ifodalaydi. bu tushuncha, falsafa tarixida birinchi marta, qadimgi yunonistonning buyuk faylasufi aristotelning «ilk falsafa» deb atalgan asarlariga nisbatan ishlatilgan.

Metod - yunoncha bilishning yo'li - ilmiy bilish, ilmiy tadqiqotning usulidir.

Metodologiya - biron fanda tadbiiq etiladigan tadqiqot usullarining majmui. Ilmiy bilim va dunyoni o'zgartirish metodi haqidagi ta'limot.

Mif - yunoncha mifhos so'zidan olingan bo'lib, afsona, rivoyat, hikoyat kabi ma'nolarini anglatadi. Ibtidoiy davr kishilari ongi va tushunchasida inson, tabiat, jamiyat va koinotning paydo bo'lishi bilan bog'lik voqealar, shuningdek, tabiat va jamiyat hodisalarining aks etishidir.

Milet maktabi - Yunonistonda dastlabki falsafiy ta'limotlar eramizdan avvalgi VII-VI asrlar o'rtasida Milet shahrida yuzaga kelgan va rivojlangan. **Milet maktabi** vakillari Fales, Anaksimandr, Anaksimenlardir. Uning asoschisi Fales (eramizdan avvalgi 624 — 547 yillarda yashagan).

Miqdor - predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi va shu kabilar bilan tavsiflanadi. Tabiat hodisalari kabi ijtimoiy hodisalar ham miqdoriy tomonga ega. Chunonchi, suv o'z solishtirma og'irligiga, qaynash va muzlash darajasiga ega. Bir ijtimoiy tuzum boshqasidan xususiyati jihatidagina emas, balki ishlab chiqaruvchi kuchlar taraqqiyoti, mehnat unumdorligi, madaniyati va hokazolar bilan ham farq qiladi.

Mazmun- narsa va hodisalarning rivojlanish jarayonidagi sistemani tashkil qilgan elementlarning strukturaviy bog‘lanishi bo‘lib, uni boshqa sistemalardan farqini belgilaydigan aloqadorliklar va munosabatlarini ifodalaydi.

Mutlaq haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar haqidagi to‘liq aniq mukammal bilimlardir.

Mohiyat - narsa va hodisalarning ichki, eng muhim o‘zaro bog‘lanishlari, shu bog‘lanishlarning qonuniy aloqadorliklarini ifodalaydi.

Mazmun - narsa yoki hodisani aynan shu narsa yoki hodisa sifatida ifodalovchi jarayonlar, muhim elementlar va o‘zgarishlarning majmuidir.

Mazdakiylik - diniy falsafiy ta‘limot. Asoschisi Mazdak (470-529). Mazdak xalq ommasining zardushtiylik qoxinlari va zodagonlariga qarshi kurashini boshqargan. Mazdak ta‘limotiga binoan, olamda buladigan jarayonlar ongli va biror maqsadni kuzlab harakat qiluvchi ezgulik, yorug‘lik manbai bilan kur-kurona va tasodifiy harakatlanuvchi qorong‘ilik manbai o‘rtasidagi kurashdan iborat. Bu kurash «yaxshilik»ning «yomonlik» ustidan muqarrar g‘alabasi bilan tugallanadi.

Neotomizm - XX asrdagi eng yirik diniy-falsafiy oqim bo‘lib, u o‘rta asrlardagi (XIII asr) Foma Akvinskiyning ta‘limotini qaytadan tikladi. U (neo — yangi, tomizm — «foma», transkripsiyada «toma» bo‘lib o‘zgargan) Foma Akvinskiyning yangi, zamonaviy ta‘limoti demakdir. Bu ta‘limotga ko‘ra, ilm va e‘tiqod o‘rtasida to‘la muvofiqlik, uyg‘unlik bor. Ular bir-birini to‘ldirib turadi, har ikkisi ham xudo tomonidan berilgan haqiqat.

Neokantchilik - XIX asr o‘rtalarida shakllangan va XX asr boshlarida rivojlangan edi. Uning vakillari I. Kant o‘z davrida qo‘ygan ilmiy bilishning umumiyligi va zaruriyati haqidagi hamda tajribaviy aql haqidagi muammolarni tahlil etadilar

Neopozitivizm - oqimining yirik namoyandalari Karnap, Ayer, Rassel, Vitgenshteyn va boshqalardir. Neo — yangi; pozitiv — ijobiy degan ma‘noni anglatadi. Neopozitivizm Farbda XIX asrning 20 — yillarida paydo bo‘lgan, asoschisi XIX asrda yashagan Ogyust Kontdir. Uning fikricha, falsafa aniq fanlar taraqqiyotisiz mavjud bo‘la olmaydi.

Postpozitivizm - (ya‘ni keyingi pozitivizm) vakili K. Popper **falsifikatsiyalash metodini** ilgari surdi. Bunga ko‘ra, inson ba‘zi nazariy bilimlarning haqiqatligini emas, xato ekanligini isbotlashi kerak. Oxir-oqibatda neopozitivizm vakillari falsafa bilimlarning xaqiqiyiligini mantiqiy — lingvistik usul orqali isbotlashi va sistemalashtirishi kerak, degan xulosaga keldilar.

Nisbiy haqiqat - borliqdagi narsa va hodisalar to‘g‘risidagi taxminan to‘g‘ri, lekin to‘liq bo‘lmagan, bilish jarayonimizda tuzatilib, to‘ldirilib borilishi bilimlardir.

Nominalizm - lotincha nomina - ism, nom ma‘nosini anglatadi. Sxolastik falsafa. Nominalistlar fikricha, universaliiylar haqiqatda emas, balki faqat tafakkurda mavjud. O‘rta asrlarda nominalizm sxolastikaning realizm bilan munozarasi

natijasida kelib chiqqan edi. Lekin nominalizmning asosiy tezisi qadimgi yunon faylasuflari Antisfen va Stoiklar tomonidan ilgari surilgan bo'lib, ular Platon g'oyalarini tanqid qilgan edilar.

Ong - yuksak darajada tashkil topgan materiyaning ya'ni inson miyasining mahsuli bo'lib, uning xususiyati voqelikni aks ettirishdan iboratdir. Ong - aql, tafakkur, falsafadagi markaziy kategoriyalardan biri.

Ongsizlik - ongning genetik jihatidan talqini. Ongsizlik birlamchiligini bildirib u o'ziga xos xususiyatga ega ekanligini, inson faoliyati va hatti-harakatida muayyan darajada rol uynashini tan olishni taqozo etadi.

Ontologiya - borliq haqidagi ta'limot. Falsafaning borliq to'g'risidagi fundamental tamoyillarini o'rganuvchi sohasi.

Oqibat - sababning bevosita yoki bivosita ta'siri bilan yuz beradigan hodisadir

Patristika - so'zi «ota» («padre») so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda Farbda yepiskoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlatoust (347-407) edi. Uning 640 ta da'vatlaridan ko'pchiligi avliyo Pavel nomalarining sharhi edi. Uning asarlarida injilni amaliy qo'llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan.

Plyuralizm - (lotin tilida plyural, ya'ni ko'plik degan ma'noni anglatadi) — olamning asosida ko'p narsa va ideyalar yotadi deb e'tirof etadigan ta'limotdir.

Pifagor- (eramizdan avvalgi 580-500 yillar) Yunonistonning Samos orolida yashab o'tgan. u qadimgi Yunonistonda diniy-mafkuraviy falsafiy maktab, ya'ni pifagorchilikka asos solgan.

Pragmatizm -yunoncha progmatos so'zidan olingan bo'lib «ish, hatti-harakat» degan ma'noni anglatadi. Asoschisi - Charlz Sanders Pirs, undan sung U.Jeyms, J.D'yun, Fyu Shiller tomonidan rivojlantirilgan.Tushuncha va e'tiqodning ma'nosini aniqlashga yordam beradi, goya va tushunchalar faqat tadqiqotchi tomonidan tekshiruvdan o'tganda keyingina muayyan ahamiyatga ega bo'ladi.

Progress - lotincha ilgarilanma harakat, muvaffaqiyat demakdir. Quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga tomon rivojlanish taraqqiyotni ifodalaydi. Progress tushunchasi regress tushunchasining ziddidir.

Realizm - Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberyskiy (1038-1109) dir. U Shimoliy Italiyada tug'ilgan, 1093 yilda Ketterberysk shahrining arxiepiskopi etib tayinlanadi. Angelm o'zining ikki asari bilan mashhur.

Rodjer Bekon - (1214-1292) ham Okkam mansub bo'lgan oqim vakillaridandir. U o'z hayotini ilmiy tajribalarga bag'ishlagan. Ular yordamida u tajribaviy fanga asos soldi. Bunday metodni XYII asrda Frensis Bekon ishlab chiqdi. Haqiqatni topishda tabiatni tajribaviy o'rganish metodini qo'llash nominalistlar qarashlariga to'liq mos kelardi.

Ratsionalizm - lotincha rationalis, ratio - aql degan ma'noni anglatib, aqlga odamlarning bilish va xulqining asosi, deb qaraydigan falsafiy yo'nalish. Ratsionalizm atamasi XIX asrning o'rtalarida falsafaga kirib keldi. O'rta asr sxolastikasi va diniy dogmatizmga zid ravishda butun olamning sababiy bog'langanligi g'oyasini ilgari surdi.

Rivojlanish - bu muayyan sistemaning muayyan vaqt va fazodagi yaxlit, kompleks, orqaga qaytmaydigan, ilgarilanma yo'nalishga ega bo'lgan, miqdoriy va sifatiy o'zgarishidir.

Regress - lotincha orqaga qaytish degan ma'noda. Rivojlanishda orqaga ketish, eski shakllarga qaytish, taraqqiyotning quyi darajasiga tushib qolishni anglatuvchi tushuncha.

Ruh - ma'naviy - ruhiy, nomoddiy ibtidoni ifodalovchi falsafiy tushuncha.

Sabab - bir hodisadan oldin kelib, uni vujudga keltirgan hodisa yoki hodisalar guruhidir.

Substansiya - deganda olam va dunyodagi narsalarning mohiyati to'g'risidagi fikr tushunilgan.

Sofistika - qadimgi Yunoniston falsafasida vujudga kelgan tafakkur usulidir. Ko'pgina darslik va qo'llanmalarda bu ibora yunon tilidagi «sopism» so'zi asosida, ya'ni ataylab xilma-xil ma'noga ega bo'lgan tushunchalarni ishlatish orqali kerakli, ammo haqiqatga to'g'ri kelmaydigan, ko'chma ma'no-mazmunga erishish usuli, deb ta'kidlanadi.

Sinergetika - olamning o'z-o'zini tashkil etishi, makon va zamonda narsa va voqealarning azaliy ketma-ketligi, o'zaro aloqadorligi, ularning muayyan tizimlardan iborat sababiy bog'lanishlar asosida mavjudligini e'tirof etishga asoslangan ilmiy qarashlar majmuidir. U asosan, XX asrning ikkinchi yarmida shakllangan ta'limot bo'lib, asoschisi Nobel mukofoti sovrindori N. Prigojindir.

Suqrot - (eramizdan oldingi 469-399 yillar.) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afinaning ijtimoiy hayotida faol ishtirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurfikrli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuvchining o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'lgan.

Sxolastika - diniy falsafaning asosiy yunalishlaridan biri. Mazkur ta'limot iloxiyotga asoslanib, diniy aqidalarga falsafiy yondashgan. Sxolastika aslida, o'rta asrlarda g'arbiy Yevropada rivojlangan. Biroq keyinchalik, mazkur termin Sharq falsafasiga nisbatan ham ishlatila boshlandi.

Stsientizm - (lot scientia — fan) ya'ni fan mavjud barcha ijtimoiy muammolarni hal etishi mumkinligini ilm-fan taraqqiyotining doimiy ijobiyligini asoslovchi falsafiy dunyoqarash. Stsientizm g'oyalari, neopozitivizm, texnologik determinizm kabi ta'limotlarning asosini tashkil etadi..

Strukturalizm- (asosiy vakillari Levi — Stross va Fuko) bilishda strukturaviy usulning ahamiyatini mutlaqlashtiradi. Bu oqim tarafdorlari narsa va hodisaning strukturasi bilish uning obyektiv mohiyatini bilish demakdir, deb hisoblaydilar.

Substansiya - lotincha mohiyat ma'nosini anglatadi. Falsafada narsalarning mohiyati to'g'risidagi tushuncha.

Sifat - narsalarning ichki va tashqi muayyanligi bo'lib, uning qator xossa, belgi, xususiyatlari birligini ifodalaydi. Sifat narsa qanday bo'lsa, uni shundayligicha ko'rsatib beradi, jismning barcha tashqi xossalarini bog'liqlikda namoyon qiladi.

Sofistika - yunoncha - ataylab xato asoslar asosida ko'p ma'noli so'zlarga asoslanib fikr yuritish - bilib turib, xato asoslardan yolg'on xulosa chiqarishdir.

Sintez - analiz tufayli ajratilgan bo'laklar tomonlar, qismlar, elementlarni o'zaro birlashtirib, ularni bir butun holiga keltirishdir.

Sistema - borliqdagi o'zaro bog'liq, muayyan tartibdagi bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turuvchi narsalar, hodisalar va jarayonlarning qonuniyatli birligidir.

Struktura - sistemani tashkil etgan narsalar, hodisalar va jarayonlarning tartibi, tuzilish, tarkibi, joylashishi va ifodalanishidir.

Tasodif - ayni sharoitda yuz berishi ham, yuz bermasligi ham mumkin bo'lgan hodisa yoki voqeadir.

Tarixiylik - o'rganilayotgan predmet yoki hodisaning paydo bo'lish, rivojlanish va yemirilish jarayonlari birligini uning tarixiy taraqqiyot jarayonida boshqa voqealar bilan aloqadorligini nazariy bilishga oid usuldir.

Upanishadalar - sirli bilimlar deb atalib, vedalarning falsafiy qismidir. U ma'lum bir kitob yoki falsafiy risolalar shaklida bo'lmay, balki turli mavzularda, turli davrlarda asosan noma'lum mualliflar tomonidan yaratilgan matnlar to'plami. Har bir matn u yoki bu muallifning falsafiy mushohadalarining qisqacha bayonidan iborat.

Uyg'onish davri falsafasi - bu insoniyat tarixida yuz bergan eng buyuk ilg'or taraqqiyot davrlaridan biri edi. Uyg'onish davrida hayotning hamma tarmog'ida muhim, ilg'or, hatto aytish mumkinki, inqilobiy o'zgarishlar yuz berayotgan edi.

Umumlashtirish - tadqiqot olib borilayotgan bir qancha predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan tomonlari, xususiyatlari va xossalarini fikrda e'tibordan soqt qilib, tadqiqot uchun zarur bo'lgan birorta belgi yoki xususiyatni mavhum holatga keltirishdir.

Falsafa - yunoncha phileo - sevaman, sophia -donolik degan ma'noni anglatadi. Insoniyat tarixidagi eng qadimiy ilmlardan biri. Olam va uning yashashi, rivojlanishi va taraqqiyoti, hayot va inson, umrning mohiyati, borliq va yo'qlik kabi ko'plab muammolar haqida bahs yuritadigan fan.

Falsafiy dunyoqarash - bu tushunchaning mazmuni insonning olamga, voqea va hodisalarga, o'zgaralarga va ularning faoliyatiga, o'z umri va uning mazmuni kabi

ko‘pdan-ko‘p tushunchalarga munosabati, ularni anglashi, tushunishi, qadrlashida namoyon bo‘ladi.

Foma Akvinskiy - (1224-1292) mo‘tadil realizmning yana bir yirik vakili bo‘lib hisoblanadi. Foma o‘sha davr uchun Arastu natur falsafasini ilohiyot bilan birlashtirishga harakat qilgan. Bunda u mo‘tadil realizm pozitsiyasida turgan va sxolastikaning eng yirik namoyandasi bo‘lgan.

Fenomenologiya - hozirgi zamon falsafasidagi va madaniyatidagi asosiy oqimlardan biri.

Xulosa - aqliy bilishning muhim vositalaridan biri, yangi bilimlar hosil qilish usulidir. Xulosa chiqarish induktiv va deduktiv bo‘lishi, ya‘ni ayrim olingan narsalarni bilishdan umumiy xulosalar chiqarishga yoki umumiylikdan alohidalikka borish orqali bo‘lishi ham mumkin.

Hissiy bilish - inson bilishining dastlabki bosqichi bo‘lib, miyada predmet va hodisalarning belgilari, signallari va hissiy obrazlarining hosil bo‘lishidir.

Hodisa - narsa va jarayonlarni tashkil etuvchi tomonlar, xususiyatlar va bog‘lanishlarning namoyon bo‘lish shaklidir

Hukm - aqliy bilish narsa va hodisalarga xos bo‘lgan belgi va xususiyatlarni tasdiqlash yoki inkor etishni taqozo etadi..

Haqiqat - inson bilimlarida borliqning to‘g‘ri in‘ikos etishi, predmet va hodisalar asli qanday bo‘lsa ularni inson o‘z miyasida huddi shunday in‘ikos ettirgan bilimlaridir.

Shakl - mazmunning mavjudlik usulini, uning strukturasi ifodalovchi, narsa va hodisalarning ichki va tashki tomonlarining birligidir.

Eley maktabi - pifagorchilarning ittifoqi kabi Elladning Eley shaxrida yuzaga kelgan. Bu maktabning asosiy namoyondalari Ksenofan, Parmenid, Zenon va Melisslardir. Eley maktabi ta‘limoti qadimgi Yunon falsafasining shakllanishida, uning kategoriyalari, jumladan, borliq kategoriyasining rivojida yangi qadam hisoblanadi. Ioniyaliklarda borliq jismiy, pifagorchilarniki esa matematik bulsa, Eley maktabida u falsafiydir. Eleyliklar birinchilar qatorida borliq va tafakkur o‘rtasidagi munosabat masalasini quydilar. Antik falsafa shakllanishining yakuni Eley maktabi bilan tugallanadi.

Epikur - (341-270 yillar) — qadimgi Yunon mutafakkiri. Demokrit ilgari surgan atomchilik ta‘limotini yanada takomillashtirib, uni yuqori pog‘onaga ko‘targan va tegishli qarashlar bilan boyitgan faylasuf. Epikur ta‘limoticha, olam- moddiy, abadiy va cheksiz. Atomlar - bo‘linmas, olam -jism va bo‘shliqdan iborat, deb yozgan edi u. Barcha jismlarni Epikur ikki guruhga bo‘lgan. Birinchi guruhga jismlarni tashkil etuvchi atomlarni kiritgan bo‘lsa, ikkinchi guruhga atomlarning birlashishidan tashkil topgan jismlarni kiritgan.

Ekzistensializm - lotincha «ekzistensiya» yoki intizcha «ekzistense» soʻzidan olingan boʻlib, «mavjudlik», «mavjud boʻlmoq», degan maʼnoni anglatadi. Dastlab vatani Rossiya boʻlgan (Berdyayev, Shestov) keyinchalik Germaniyada keng rivojlandi (Xaydegger, Yaspers, Buber). Asl maʼnoda XX asr maʼnaviy hayotining ehtiyojlariga javob sifatida yuzaga keldi va rivojlandi.

Eklektika - yunoncha tanlayman. Turli qarama-qarshi nazariyalarni, qarashlarni aralash-quralash qilib yuboruvchi tafakkur usuli.

Element -sistema strukturasi tashkil qilgan, nisbiy mustaqillikka ega boʻlgan tuzilmadir.

Eksperiment - oʻrganilayotgan predmet yoki hodisani oʻz holida, lekin sunʼiy yaratilgan sharoitda kuzatishdir.

Qurʼoni Karim - muqaddas kitob. Unda islom qonun-qoidalari, imon-eʼtiqod talablari, huquqiy va axloqiy meʼyorlar oʻz ifodasini topgan. U 114 sura va ular tarkibidagi oyatlardan tashkil topgan.

Qonun tushunchasi - Dunyoning mavjudligi ana shunday botiniy va zohiriy oʻzgarishlarning abadiy takrorlanib turishidan iboratdir. Bu takrorlanishlar esa oʻz mohiyati va xususiyatlarini saqlab qolganliklaridan qonun va qonuniyat tusini olgan.

Qarama-qarshilik - deb esa, narsa, voqea-hodisalarning bir-birini taqozo etuvchi va shu bilan birga bir-birini inkor etuvchi tomonlari, kuchlarining oʻzaro munosabatiga aytiladi.

Gʻoya - tadqiqot maqsadini, uning yoʻnalishi va mohiyatini ifodalaydigan ilmiy bilish shaklidir.

Yakkalik - alohida narsa va hodisagagina xos boʻlib, bu narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan farq qiluvchi, takrorlanmaydigan, individual belgi va xususiyatlar birligidir.

Aristotel (*er.av.* 384-322 y.) - “Mantiq”ni mustaqil fan sifatida asoslab bergan yunon mutafakkiri.

Al-Forobiy (873- 950 y.) – oʻz asarlarida mantiq masalalarini keng ravishda izchil tadqiq etgan Markaziy Osiyolik mutafakkir.

Ayniyat qonuni – maʼlum bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan ayni bir fikr, ayni bir muhokama doirasida ayni bir vaqtda oʻz-oʻziga tengligini ifodalaydi .

Analiz – tadqiq etiluvchi obyektning fikran tarkibiy qismlarga ajratish usuli.

Analogik xulosa chiqarish – ehtimoliy xulosa chiqarish, bir xususiy holatdan boshqa xususiy holatga qarab fikran harakatlanish.

Argumentlar - tezisning chinligini asoslash uchun keltirilgan hukmlar.

Gipoteza – oʻrganilayotgan hodisaning sabablari va xususiyatlarini tushuntiradigan asosli taxmin tarzidagi bilim shakli.

Deduktiv xulosa chiqarish – umumiy predmetlarning mohiyatini oʻrganish orqali uning yakka, xususiy jihati haqida xulosa chiqarish.

Diz'yunktiv hukm – ayiruvchi hukmlar.

Definitsiya - tushunchalarni ta'riflash.

Javob – predmet haqidagi avvalgi bilimni qo'yilgan savolga muvofiq holda aniqlashtiradigan, to'ldiradigan yangi hukm (mulohazadan) iborat.

Yetarli asos qonuni – fikrlashning isbotli, ishonarli bo'lishini talab etuvchi mantiqiy qonun.

Implikativ hukm – shartli hukmlar.

Induktiv xulosa chiqarish - yakka, xususiy predmetlar mohiyatini o'rganish orqali umumiy xulosa chiqarish.

Isbotlash usuli (*demonstratsiya*)– tezis bilan argumentlar o'rtasidagi mantiqiy aloqa.

“Logika” – grekcha “logike” so'zidan olingan bo'lib “so'z”, “fikir”, “qonuniyat” ma'nolarini anglatadi. Arabcha “mantiq” so'ziga mazmunan mos keladi.

Mantiq - tafakkur qonunlari, shakllari va usularini o'rganuvchi fan.

Mantiqiy isbotlash – biror fikr, mulohazaning chinligini, chinligi avvaldan tasdiqlangan boshqa mulohazalar orqali asoslash.

Mantiqiy kvadrat – mulohazalar (hukmlar) o'rtasidagi munosabatlarning sxematik ifodasi.

Mantiqiy usul – uning yordamida bayon etilayotgan mulohazalarga asoslanib tafakkur shakli muayyan tipdagi buyumlar munosabatini aks ettiradi.

Mantiqiy qonunlar – inson tafakkuriga xos bo'lgan, inson tafakkurida turli fikr, mulohaza, muhokamalar munosabatidagina amal qiladigan qonuniyatlardir.

Muammo – javobi bevosita mavjud bilimda bo'lmagan va yechish usuli noma'lum bo'lgan savol.

Nazariya - ma'lum predmet sohasiga oid tushunchalar, qonunlar, gipotezalar, g'oyalarni sistemaga solib, u haqida yaxlit tasavvur hosil qiladigan, yangi fundamental umumlashmalar yaratishga olib keladigan, shu sohadagi hodisalarni tushuntirish, oldindan ko'rish imkonini beradigan ishonchli bilim.

Nozidlik qonuni – ayni bir predmet yoki hodisa haqida aytilgan, ikki o'zaro bir-birini istisno qiluvchi (qarama-qarshi yoki zid) fikr bir vaqtda va bir xil nisbatda birdaniga chin bo'lishi mumkin emasligini, hech bo'lmaganda ulardan biri albatta xato bo'lishini ifodalaydi.

Norma (me'yoriy qoida) – amalga oshirilish zarur bo'lgan yoki istisno qilinadigan xatti-harakatlarni bildiradi.

Normativ hukmlar – boshqa hukmlar singari mantiqiy qiymatga ega, ya'ni chin yoki xato fikrni ifodalovchi hukmdardir.

Kategoriya – tushunchaning maxsus turi. Kategoriya buyumlar munosabati va bog'lanishlarini inson ongida eng umumiy tarzda in'ikos ettiradigan ilmiy tushuncha.

Klassifikatsiya – tasniflash, turkumlash. Bu tushunchalarni bo'lishning eng mukammal shaklidir.

Kon'yunktiv hukm – birlashtiruvchi hukmlar.

Predikat (P) – hukmning kesimi va ikkinchi tushunchasi.

Polisillogizm – murakkab sillogizm, bunda ayrim sohadagi ilmiy xulosalar, ikkinchi bir xulosaning asosi bo‘lishi mumkin.

Raddiya - isbotni buzishga qaratilgan mantiqiy amal.

Savol – bilimlarimizdagi noaniqliklarni, shubhalarni yo‘qotish hamda aniqroq va to‘laroq bilimlar hosil qilishga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladigan fikrlash vositasidir.

Sillogizm – ikki yoki undan ortiq asoslardan yangi xulosa chiqarish.

Sillogizm aksiomasi – sillogizm mohiyatining ichki qonuniyatini ochib berib, xulosalashning mantiqiy asoslanganligini ifodalaydi.

Sintez – narsa va hodisalarni yaxlit, butun holda olib, ularning tarkibiy qismlarini o‘zaro bir-biri bilan bog‘lab tekshirish usuli.

“Stoya” maktabi - qadimgi Yunonistonda er. av. IV asrdan – eramizning II asriga qadar faoliyat yuritadi. “Stoya” maktabi vakillari tafakkurning shakl va qonunlarini o‘rganuvchi fanni birinchi bo‘lib “Logika” deb atadilar.

Subyekt (S) – hukmning egasi va birinchi tushunchasi.

Tafakkur – aqliy bilish bosqichi bo‘lib, tafakkur jarayonida narsa va hodisalarning o‘zaro aloqadorligi, rivojlanish qonuniyatlari, istiqboli haqida bilimlar, g‘oyalar, gipotezalar hosil bo‘ladi. *Tafakkur* – mantiq ilmining o‘rganish obyekti hisoblanadi.

Tafakkur shakllari – tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarishdan iborat. Bular hammasi obyektiv borliqning, predmet, hodisalarning mavhum tafakkurda ifodalanish shaklidir.

Tafakkur qonunlari – chin bilimga erishish maqsadiga xizmat qiladigan to‘g‘ri fikrlashning aniq normalaridir.

Tezis – chinligi asoslanishi lozim bo‘lgan hukm, u isbotlanishning markaziy figurasi hisoblanadi.

Termin – qat‘iy bitta tushunchani ifoda qiluvchi so‘z bo‘lib, muayyan ilmiy bilish sohasida bir xil ma‘noda ishlatiladi.

Tushuncha - buyumlarning umumiy va muhim belgilarni inson ongida yaxlit aks ettiruvchi tafakkur shakli.

Tushuncha mazmuni – tushunchada fikr qilinayotgan predmetning muhim belgilari yig‘indisi.

Tushuncha hajmi – tushunchada fikr qilinayotgan predmetlar yig‘indisi.

Tushunchaning mazmuni va hajmi o‘rtasidagi teskari nisbat qonuni – tushunchaning hajmi kengaytirilsa, mazmuni torayadi va aksincha hajmi toraytirilsa, mazmuni kengayadi.

Tushunchalarni umumlashtirish – hajmi tor tushunchadan hajmi keng tushunchaga fikran o‘tish.

Tushunchalarni chegaralash - hajmi keng tushunchadan hajmi tor tushunchaga fikran o‘tish.

Tushunchani bo‘lish – tushunchaning hajmini unda aks etgan predmetlarni ayrim guruhlariga ajratish yo‘li bilan aniqlash usuli.

Uchinchi istisno qonuni – nozidlik qonunining mantiqiy davomi bo‘lib, fikrning to‘liq mazmunini qamrab olib bayon qilingan ikki zid fikrdan biri chin, boshqasi xato, uchinchisiga o‘rin yo‘q ekaligini ifodalaydi

Xulosa chiqarish - bir va undan ortiq chin mulohazalardan ma‘lum qoidalar yordamida yangi bilimlarni keltirib chiqarishdan iborat bo‘lgan tafakkur shakli .

Hukm – predmetga ma‘lum bir xossaning, munosabatning xosligi yoki xos emasligini ifodalovchi tafakkur shakli.

Hukmlarning modalligi – hukmlarda predikatning subyektga tegishli yoki tegishli emasligi haqidagi fikr qat‘iy, kuchli (zaruriy) yoki qat‘iy bo‘lmagan, kuchsiz (ehtimol) tasdiq yoki inkor shaklda ifodalanuvchi fikr.

Entimema - asoslardan biri yoki xulosasi qoldirilib ifoda etilgan sillogizm.

Epixeyrema, Sorit - **qisqartirilgan murakkab sillogizm**.

Axloq - ruscha – moral, lotincha «mores», «moralis» so‘zlaridan olingan bo‘lib, ma‘nosi xulq, odat demakdir. Axloq so‘zi arabcha bo‘lib, xulq so‘zining ko‘pligidir.

Etika - yunoncha «ethos» so‘zidan olingan bo‘lib, buning ma‘nosi xulq-odat demakdir.

Xulq, odob - odamlarning xatti-harakatlari, kishilar o‘rtasidagi amaliy-axloqiy munosabatlardir

Ta‘lim-tarbiya - ong mahsuli, lekin ayni vaqtda ong darajasi va uning rivojini ham belgilaydigan omildir.

Axloq va iqtisod - iqtisod fani mehnatga bo‘lgan moddiy ko‘rsatkichlarni ifodalasa, axloq ma‘naviy ehtiyojlarni ifodalaydi.

Axloq va siyosat - guruhlar, millatlar, xalqlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlarni aks ettiradi, kishilarning barcha g‘oyaviy tasavvur va mafkuraviy tushunchalariga singib boradi, kishilar amal qiladigan axloqiy sifat, norma va qoidalarning ta‘sirchanligini orttiradi.

Axloqiy ong- axloqiy talablarni, normalarni qoidalarni, adolat haqidagi tasavvurlarni shakllantiradigan qarashlar, g‘oyalar, fikrlar, nazariyalardir. Axloqiy ongda voqelik qonunlar sifatida emas, balki insoniy xatti-harakatlarga qo‘yilgan ijtimoiy tartib, talablar, normalar shaklida qayd etiladi.

Axloqiy ishonch - o‘zida ratsional va emotsional tomonlarni ifodalab, xarakterga turg‘unlik beradi, shaxsning axloqan «zanglamasligiga» kafolat yaratadi, kishi har qanday qiyin sharoitlarda ham o‘z prinsiplaridan qaytmasligini anglatadi.

Axloqiy sifatlar - ijobiy va salbiy bo‘ladi. Ijobiy axloqiy sifatlarga, biz buni fazilatlar deb ham yuritimiz, masalan, mehnatsevarlik, kamtarlik, hushmuomalalik, ezgulik, samimiyat, insof, andisha, hayo singarilar kiradi. Bu bizning axloqiy qadriyatlarimizdir. Salbiy sifatlarga, buni illatlar deyishimiz ham mumkin, masalan, xoinlik, poraxo‘rlik, ikkiyuzlamachilik, laganbardorlik, hasad, dag‘allik, irodasizlik, munofiqlik, shaxsiyatparastlik, xudbinlik, mansabparastlik kabilar kiradi.

Axloqiy amaliyot - amalda namoyon bo'ladigan axloqdir. Unda shaxsning jamiyatga munosabatigina emas, balki jamiyatning shaxsga, shuningdek, tabiatga va o'z-o'ziga munosabati ham o'z ifodasini topadi.

Xulq - kishining ongi va irodasi bilan belgilanadigan axloqiy xatti-harakatlarning yig'indisi, sistemasidir.

Axloqiy munosabatlar - bu faqat aloqalar, bog'lanishlardangina iborat bo'lmay, ayni paytda normativ asosga ega bo'lgan o'zaro ta'sirni kishining boshqa odamlar, jamiyat oldidagi burchlarini ham o'z ichiga oladi.

Boshqaruvchi axloqiy munosabatlar - muayyan jamiyatning normalari talablariga muvofiq holda yuzaga keladi, ular majburiylik vazifalariga dahldordir.

Qo'riqlovchi axloqiy munosabatlar - shu normalarni buzuvchi xatti-harakatlar yuz berishi natijasida paydo bo'ladi va ijtimoiy ta'sir choralari amalga oshirishni ta'minlaydi.

Axloqning umumiy funksiyalari - tartibga solish (boshqaruv), stimuly, baholash, tarbiyalash funksiyalaridan iborat.

Axloqning boshqaruv (tartibga solish) funksiyasi - boshqa funksiyalarni eng ko'p darajada o'ziga bo'ysindiriladi va uyushtiradi. Axloq faqatgina yo'l-yo'riq, ko'rsatma berib qolmaydi, u shaxsni ma'lum xatti-harakatga yo'llaydi, ayrim hollarda qat'iy buyruq beradi. Shu bilan axloqni tartibga solish funksiyasi axloqiy talablar, xulq namunalarini ishlab chiqadi.

Axloqni baholov funksiyasi - birinchi navbatda ana shu taqdim etilgan namunalarga kishilarni rioya qilishi uchun ijtimoiy nazoratga yo'naltiriladi. Baholash – axloqni ta'sirchanligini oshiradi. Baholash bo'lmasa, axloqli bo'lishi mumkin emas. Agar estetik, baholovning asosi go'zallik va hunuklik, huquqiy baholovning asosi - qonuniy yoki qonunsizlik bo'lsa, axloqiy baholov esa hamisha yaxshilik va yomonlik negizida ko'riladi.

Axloqning bilish funksiyasi - ijtimoiy munosabatlarni qonuniy tarzda emas, balki jamiyatni talablari va shaxs manfaatlari aks etgan muayyan maqsadlar, g'oyalar, tasavvurlar, orzu-umidlar, xohishlar tarzida aks ettiradi.

Axloq va ma'naviy hayotning boshqa shakllariga - siyosat, huquq, san'at, din va fan kiradi.

Axloqiy erkinlik – birinchi navbatda kishining mustaqil, ijodiy shaxs bo'la olish imkoniyati va qobiliyatini tushunmoq lozimki, u chinakam insoniy mohiyatni axloqiy faoliyatda namoyon qiladi.

Axloqiy zaruriyat – bu tarixan zaruriy, obyektiv xarakterga ega bo'lib, ijtimoiy munosabatlarga muvofiq bo'lgan axloqiy talablarning sistemasidir.

Iroda erkinligi - shaxsning, umuman, o'z xatti-harakatlari, faoliyati, xulqini tanlashda obyektiv mavjud bo'lgan axloqiy talablarni bilishi va ulardan oqilona foydalanishidir, bu shaxsning o'z fikrlari, xislari, mayllari ustida nazorat qilish

qobiliyatidir. Iroda erkinligi hamisha birinchi tomondan tanlash uchun real imkoniyatlar borligini tushunish, ya'ni tanlash erkinligini, ikkinchi tomondan qabul qilingan qarorga erishishga qaratilgan muayyan intilishni, irodani o'z ichiga oladi.

Fatalizm – lotincha «fatum» so'zidan olingan bo'lib, ma'nosi taqdir demakdir.

Volyuntarizm – lotincha «volyuntas» iroda so'zidan olingan.

Tanlash erkinligi - o'z nuqtai nazarini boshqalarning qarashi bilan solishtiradi, o'ylaydi, munozara qiladi, o'z qarashlarini himoya qiladi. Tanlash afzal deb bilishda foydalanadi. Imkoniyatlar kengligi – erkinlik darajasidir. Agar kishida tanlash imkoniyati bo'lmasa axloqiy faoliyat ham bo'lmaydi.

Tabiiy iroda – inson erkinligi taraqqiyotidagi boshlang'ich bosqichidir.

O'zboshimchalik bosqichida turli tuman tashqi sharoitlarda va o'zining bir necha istak-qiziqishlaridan birontasini erkin tanlaydi.

Ongli holatida faqat shakli bilangina emas, balki mazmuni erkin bo'ladi, zaruriyatni anglaydi.

Ijobiy o'lchov – u shaxsning jamiyat oldidagi vazifalarini ongli va ixtiyoriy e'tirof etishdir.

Salbiy o'lchov – u qilingan qilmishlari uchun berilgan jazoning adolatli ekanligini anglashini ko'rsatadi.

Axloqiy mas'uliyat - bu irodadan foydalana bilish mahoratidir. Axloqiy mas'uliyat o'zida burch talablari va ichki mayllarni jamlab, faqatgina xatti-harakat va uning oqibatlariga emas, balki uning motivlariga ham tadbiiq etiladi. Xuddi shu motivlar kishi axloqi qiyofasining muhim xarakteristikasini tashkil etadi.

Axloqiy baho - ijtimoiy hayotdagi turli hodisalarni ma'qullash yoki qoralash, ularning axloqiy talablariga, konkret ijtimoiy jamoaning axloqiy ruhiga mos kelishi yoki kelmasligini belgilash tushuniladi.

Motiv - kishining axloqiy ong darajasi ko'rsatkichi va u boshqa kishilarga munosabat amal qiladigan prinsiplar xarakterining ifodasi bo'lib xizmat qiladi.

Axloqiy baholov mezoni – kishilarga har tomonlama, barcha xususiyatlarni nazarga olib yondashuvni talab qiladi.

Gedonizm – yunoncha so'z bo'lib, huzur-halovat, lazzat ma'nosini anglatadi. U falsafiy-axloqiy ta'limot sifatida insonga tabiat tomonidan berilgan va uning butun amaliy faoliyatini belgilaydigan, harakatga keltiradigan kuch huzur-halovotdir.

Evdemonizm – yunoncha rohat-farog'at, baxt-saodat ma'nosini bildiradi. Bu ta'limot baxt-saodatga intilish axloqning asosi deb talqin etadi.

Utilitarizm – yunoncha foyda, manfaat ma'nosini anglatadi. U ham etikada bir yo'nalish bo'lib, u xatti-harakatning foydaliligi, uning axloq-odob mezoni deb biladi, baxt-saodat, yaxshilikni foyda, manfaat bilan bog'laydi.

Demokrit – axloqiy g‘oyalarining asosida inson ruhining osoyishtalikda bo‘lishi, tabiat hodisalarini o‘rganish asosida hayotdan lazzatlanish, tinch va osoyishta umr kechirish o‘z burchini bajargan holda jasur, o‘tkir, aqlli bo‘lish, do‘stlik, o‘rtoqlikni kabi fikrlar yotadi.

Suqrot – birinchi marta bilim bilan axloqning uzviy birligi haqida fikr yuritadi.

Aflotun - o‘zining etik sistemasini ustozu Suqrotga ergashib yaratdi. Aflotun etikasining asosiy tayanch nuqtasi – inson ongidan tashqarida, xudoning doimiy nazorati ostida bo‘ladigan yagona o‘zgarmas «yaxshilik» g‘oyasidir.

Arastu – «Nikomax etikasi» va «Siyosat» asarlarida axloq haqidagi fikrlarni sistemalashtirib unga etika deb nom berdi. Arastu etikasining asosida baxtga intilish yotadi.

«**Avesto**» ta‘limotiga ko‘ra, ikkita kuch: yaxshilik va yomonlik kuchlari mavjud bo‘lib, ular bir-birlariga dushmanlik qilib keladilar. Yaxshilik kuchlariga Axura Mazda, yomonlik kuchlariga Axri Manyu boshchilik qiladi, insonning hayotini, uning baxti yoki baxtsizligini ana shu kurashning natijasi belgilab beradi.

Qur‘oni Karim – axloq masalasiga alohida e‘tibor bergan. Chunki axloq oxirat ne‘matlariga yetkazuvchi asosiy narsalardan biridir.

Tasavvuf – falsafasi, dastavval VII-VIII asrlarda Arabistonda ijtimoiy adolatsizlikka qarshi norozilik kayfiyati sifatida shakllandi.

Forobiy – axloqiy norma va qoidalarni insonning kundalik ijtimoiy turmush tajribasidan keltirib chiqaradi. Shuning uchun ham axloqiy tushunchalar uningcha, avvaldan ma‘lum bo‘lmay, balki konkret kishilarning, konkret munosabatlariga asoslanadi.

Sa‘diy – axloqiy fazilatlar o‘z-o‘zidan vujudga kelmaydi, aksincha, kishilar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatdan kelib chiqadi va rivojlanadi.

Jomiy ta‘kidlashicha, inson o‘z tabiati bilan sof va pokdir. U o‘zida har qanday yaxshi va yomon xislatlarni tarbiyalashi mumkin.

Navoiyning fikricha, inson uchun toj – davlat va boshqalar emas, balki eng yaxshi fazilatlar ziynatdir. Eng yaxshi fazilatlar har qanday boylikdan afzaldir.

O‘rta asrda axloqiy ta‘limotlar feodal manfaatlariga bo‘ysindirilgan edi.

Yangi davr etikasi - o‘rta asr etikasini inkor qiladi. Axloqiy qadriyatlarga transsendental axloq nuqtai nazaridan emas, balki real, amaliy axloq, hayotiy nuqtai nazardan qaraladigan bo‘ldi.

Fransuz faylasuflari – etika taraqqiyotiga katta xissa qo‘shdilar, axloq muammolarini ilmiy asosga qo‘yishga intildilar.

I.Kant – nemis klassik falsafasining, etikasining asoschisi bo‘lib, falsafiy va etik taraqqiyotni yangi bosqichga ko‘targan mutafakkirdir. Kant etika tarixida birinchi bo‘lib yurish-turish va xatti-harakatni tartibga solib turadigan axloqiy talablarning umumiylikiga e‘tibor berdi.

V.Gegel – Kant izidan borib axloqni umumiylik tushunchasidan chiqarishga urinadi. U axloq shaxsning xususiy ishi emas, balki hamma uchun umumiy qonun bo‘lmog‘ kerak deydi.

L.Feyerbax – axloqning manbaini kishi tabiatida, kishining kishiga munosabatida deb ta’kidlaydi. Uning fikricha, kishilarning moddiy sharoitlaridagi tafavutlar axloqiy prinsiplardagi farqlarni vujudga keltiradi.

XX asrdagi axloqiy yo‘nalishlar va etik ta’limotlar g‘arb mamlakatlarida keng tarqalgan pozitivizm, «hayot falsafasi», pragmatizm, ekzistensializm ichidagi turli oqimlardir. Shuningdek, «abadiy, o‘zgarma axloq normalarini» asoslovchi neotomizm, personalizm kabi teologik-diniy (ilohiyotga ishonishga asoslangan) etik maktablar ham mavjud.

Estetika – bu nafosat olami, san‘at va badiiy ijod jarayonlari qonuniyatlarini his-tuyg‘u, sezish-idrok qilish vositalari orqali o‘rganadigan va o‘rgatadigan fan.

Estetik ong – ma’naviy-ruhiy voqea hodisalar majmui bo‘lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, estetik did, estetik fikr, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariya tizimini anglatadi.

San’atda idrok etish – adabiyot, teatr, kino, tasviriy san’at asarining tomoshabin yoki o‘quvchi ongida aks etishi.

Estetik tushunchalar – go‘zallik, ulug‘vorlik, fojialilik, kulgulilik.

San’at turlari – badiiy adabiyot, tasviriy san’at, tomosha qorishma san’at, ifodali san’at.

Estetika – so‘zi yunoncha “estetikos” so‘zidan olingan bo‘lib “sezish”, “his qilish qobiliyati” ma’nosini bildiradi. Bu fan insonning estetik munosabatlari va insoniyat badiiy rivojining umumiy qonun-qoidalarini haqidagi fandır.

Estetik ehtiyoj – ezigulikka, go‘zallikka intilishdir. Bu ehtiyoj mehnat, san’at, axloqiy munosabatlardagi go‘zallikni taqozo etadi. Insonning jamiki faoliyat qirralari borliqqa estetik munosabati orqali namoyon bo‘ladi.

Go‘zallik – estetikaning asosiy tushunchasi. Aslida estetikaning barcha muammolari go‘zallik muammosi bilan u yoki bu darajada bog‘liqdir. Go‘zallik nafosat olamining mag‘zi, asosiy belgisi, bosh xossasi, asosiy mohiyatini tashkil qiladi. Shu bois estetikasi go‘zallik haqidagi fan, go‘zallik falsafasi deb ham ataydilar.

Ulug‘vorlik – estetik va ahloqiy sifatlar kasb etib, amaliyotda ko‘p qo‘llaniladigan estetik tushunchadir. Qadimgi estetikada “ulug‘vorlik” iborasi tantanaliligi va ahamiyatliliigi bilan ajralib turadigan nutqning alohida uslubini tavsiflash uchun ishlatilgan atamadir.

Fojialilik va kulgulilik - estetik tushunchalari yordamida hayot ziddiyatlari va to‘qnashuvlari baholanadi va mushohada qilinadi. Ular orqali insonning ijtimoiy hayot hodisalariga nisbatan estetik munosabati ifodalanadi va mustahkamlanadi.

Kulgulilik – xunuklik va go‘zallik o‘rtasidagi ziddiyat ifodasi (Arastu), kutilayotgan voqelikning ahamiyatliligi va natijaning arzimasligi (Kant), mohiyati jihatidan pastkash, soxta, ahamiyatli va shakli jihatidan ahamiyatli (Gegel), timsol va g‘oya (Fisher), bexosdan sodir bo‘lgan va jonli muloqot natijasi (Bergson) kabi ta’riflar ana shunday bir tomonlama xususiyatlarga ega bo‘lsa-da, ularning oqil tomoni kulgulilikni qarama-qarshilik bilan bog‘lab mushohada etishga intilishidadir.

Estetik tarbiya – ta’lim-tarbiyaning boshqa shakllari kabi estetik tarbiya ham o‘z diqqat-e’tiborini yakka odamga va ijtimoiy guruhga qaratadi. Estetik tarbiya ham umuminsoniy va milliy qadriyatlarni qaror toptirishga xizmat qiladi. Ayonki, tarbiya inson ongiga, his-tuyg‘ulariga, tasavvuriga, e’tiqodiga, dunyoqarashiga, xatti-harakatlariga, xulq-atvoriga ta’sir o‘tkazishni o‘z oldiga maqsad va vazifa qilib qo‘yadi.

Estetik tarbiya omillari – shaxsning estetik kamolotiga ta’sir o‘tkazadigan tashqi va ichki shart-sharoitlarga aytiladi. Estetik tarbiya vositalari deb shaxsning voqelikka estetik munosabatini rivojlantirishga xizmat qiladigan tarbiyaviy faoliyat shakllariga aytamiz. Estetik tarbiya omillari va vositalari o‘rtasidagi chegara nisbiy shartlidir.

“Korrupsiya” – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o‘zga shaxslarning manfaatlarini ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek, bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishidir.

Korrupsiya (Lotincha “sorrupcio” – poraga sotilish, aynish, tanazzul) – shaxsni mansab mavqeidan shaxsiy maqsadlarda foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jinoyat turidir.

Antropologik omillar– insonning ziddiyatlitabiati, ezigulik vayovuzlikning doimiykurashi, insonning kamkuch sarflab ko‘proq foydaolishga intilishi va sh.k.

Iqtisodiy omillar – tadbirkorlik faoliyatining yuqori darajadagi transaksiyaviy xarajatlari (“qonunga bo‘ysunish bahosi”), bozor xo‘jaligi doirasidagi raqobat, iqtisodiyotning turli sektorlarining notekis rivojlanishi va boshqalar.

Ijtimoiy omillar – jamiyatning ijtimoiy tabaqalashuvi, “xavf guruhlari”ning mavjudligi, mehnat qonunchiligining buzilishi, muhojir ishchilar, ayollar va o‘smirlar mehnatidan foydalanishda ijtimoiy adolat prinsiplariga rioya etilmasligi va h.k.

Huquqiy omillar – tadbirkorlikning huquqiy asosi nomukammalligi, bozor xo‘jaligining o‘zgarib boruvchi shart-sharoitlari bilan mavjud qonunchilik bazasi o‘rtasida ziddiyat mavjudligi, uy xo‘jaligining tartibga solinmasligi va sh.k.

Axloqiy omillar - qonunchilik hamda tadbirkorlikning axloqiy asoslari o'rtasidagi ziddiyatlar, davlat va jamiyat, davlat va individ manfaatlari o'rtasidagi ziddiyatlar; milliy an'analarning hisobga olinmasligi, diniy qoidalarning ta'siri va boshqalar.

Siyosiy omillar - hokimiyat va yirik kapital o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oligarxiyaning shakllanishi, hokimiyat kuchi hamda iqtisodiy faoliyatga ta'sir ko'rsatishning kuchga asoslangan usullari o'rtasidagi nisbat.

Korrupsiyaning sabablari - Iqtisodiy – davlat xizmatchilarining past oylik maoshi, ularning tadbirkorlar va fuqarolar faoliyatiga ta'sir fuqarolar faoliyatiga ta'sir ko'rsatishda yuqori vakolati.

Institutsional – davlat idoralari ishidagi yopiqlik, hisobotlar tizimidagi qo'shib yozishlar, qonunchilik tizimida shaffoflikning yo'qligi, davlatning kuchsiz kadrlar siyosati.

Ijtimoiy-madaniy – jamiyatning intizomsizligi, fuqarolar tartibsizligi va axborotga ega emasligi, jamoatchilik passivligi.

Dinshunoslik - dinshunoslik kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyotining muayyan bosqichida paydo bo'lgan barcha din shakllarining ma'naviy, ijtimoiy, gnoseologik va psixologik ildizlarini, ularning ta'limoti va marosimchiligi, ijtimoiy hayotdagi mavqei va ijtimoiy funksiyalarini ilmiy jihatdan o'rganuvchi fandır.

Din (arabcha – ishonch, ishonmoq) – borliqni yaratuvchi va boshqaruvchi, adolatning yuksak namunasi, moddiy olamga xos bo'lmagan va ayni vaqtda barkamollikning oliy ko'rinishi sifatida tushuniluvchi oliy mavjudotga, ya'ni xudoga nisbatan munosabat, tasavvur, urf-odat va marosimlar majmuidir.

Din falsafasi - din falsafasi dinni borliq, uning mohiyati, asosiy shakllari va atributlari, inson, uning mohiyati va tabiati, jamiyat, tabiat va munosabati kabi masalalar munosabati bilan, falsafaga xos bo'lgan tanqidiylik (Pirron skeptik metodi), dialektika va boshqa metodlar asosida o'rganadi.

Diniy bag'rikenglik - (tolerantlik) - xilma-xil diniy e'tiqodda bo'lgan kishilarning olijanob g'oya va niyatlar yo'lida hamkor va hamjihat bo'lib yashashi, kishilik jamiyati ravnaqi yo'lida xizmat qilishini anglatadi. hozirda bu g'oya ezgulik yo'lida nafaqat dindorlar, balki jamiyatning barcha a'zolari hamkorligini nazarda tutadi. Diniy bag'rikenglik tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, ozod, va obod Vatan qurishning muhim shartidir.

Diniy sekta (lotincha – ta'lim, yo'nalish, maktab) - ibodat qiluvchilar guruhi sifatida diniy tashkilotlarning bir turi. Sekta odatda ilgari hukmron bo'lib turgan diniy oqimga muxolifat tarzida, uning bo'linishga yuz tutishi natijasida vujudga keladi. Natijada ushbu dinning ta'limotiga, tashkiliy tuzilishi va boshqa jihatlariga qarshi chiqa boshlaydi. Ularni dinlarning dastlabki holatidan, asl aqidalaridan qaytganlikda ayblaydi.

Diniy g'oyalar- diniy da'vatlar, aqidalar, ilohiy qadriyat va maqsadlar ifodalangan qarashlar majmui. Ular turli dinlarning amal qilish yo'lini belgilab olishda namoyon bo'ladi. Diniy g'oyalar muayyan dinning mavjudligini ta'minlab beruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Diniy ekstremizm – ekstremizmning diniy sohada nomayon bo'lish shakli. Ekstremizm lotincha «extremus» muammolarni hal etishda o'ta keskin chora-tadbirlarni, fikr-harashlarni yohlovchi nazariya va amaliyotni anglatadi. Diniy sohadagi ekstremizm ham ana shu tamoyillarga asoslanadi.

Diniy ekstrimizm namoyon bo'lishiga ko'ra hududiy, mintaqaviy, xalqaro shakllarga bo'linadi. Bunday qarashlar juda qadimiy ildizlarga ega bo'lib, hech qachon chegara bilmagan, din, millat, hududni tan olmagan, diniy ekstrimizm barcha dinlar doirasida rivojlangan. Diniy ekstrimistik ruhdagi qarashlarni buddizm, xristianlik, islom, katoliklar, protestantlar, provoslavlar orasida birday uchratish mumkin. Diniy ekstrimistlar qayerda faoliyat ko'rsatmasin, asosiy maqsadi diniy davlatni barpo qilish bo'lib, bu maqsadga o'zaro nizolar, ixtiloflar, qurolli to'qnashuvlar orqali ya'ni, qon to'kish va zo'rlik bilan erishishni ko'zlaydilar.

Bu esa, mustaqillikka ham, jamiyat taraqqiyotiga ham katta g'ov bo'ladi. Ekstremistik guruhlarining yagona maqsadi hokimiyatni qo'lga olish bo'lib, bu yo'lda ular eng jirkanch usullarni qo'llashdan ham tap tortmaydilar. Bugungi kunga kelib nafaqat islom dunyosi, balki butun jahonda diniy ekstrimizmning asl qiyofasi to'la-to'kis namoyon bo'lib qolmoqda.

Dunyoda inson huquqlari va demokratik tamoyillar ustuvor bo'lib borayotgan, qonun hamda xalqaro huquq qoidalari mamlakatlar, xalqlar, davlatlar orasidagi munosbatlarning asosiy tamoyiliga aylanayotgan hozirgi davrda diniy ekstrimizmga o'rin qolmayapti. Ammo bu unga qarshi kurashmaslik, xushyorlikni oshirmaslikni bildirmaydi. Mazkur sohada ham Prezidentimiz uqtirganlari kabi ogohlik, ezgu g'oyalar yo'lida kurash olib borish hayot va faoliyatning asosiy mezoni bo'lib qolmoqda.

Dogmatizm- grekcha so'z bo'lib, lug'aviy jihatdan «fikir», «ta'limot», qaror ma'nolarini anglatadi; biror bir fikr, ta'limotni o'zgarishiga shubha bilan qarovchi oqim tarafdorlari, aniqrog'i aqidalarga ko'r-ko'rona ishonish, unga yopishib olish, har qanday sharoitda ham uning o'zgarishiga yo'l qo'ymaslikka harakat qilish.

Dualizm(lotincha dualis – ikki) - olamning vujudga kelishi, mavjudlik qonuniyatlari ham ruhiy–ilohiy, ham moddiy asosga egaligini e'tirof etuvchi ta'limot.

Demokratiya konsepsiyalari (rus.-konsepsiya demokratiya; ing.-the concept of democracy) - “O'zbek modeli”ning mashhur besh tamoyili hamda jamiyat hayotining barcha sohalarini erkinlashtirish bilan

bog‘liq mumtoz strategiyasi yetti ustuvor maqsad vazifalar konsepsiyasi.

Demokratiya (rus.- demokratiya; ing.-democracy) - “xalq hokimiyati” ma’nosini anglatadi.

Mentalitet(rus.-umonastroenie; ing.-mentality) - aql idrok. Milliy yoki shaxsning mentaliteti, ularning o‘ziga xos an’analari, rasm-rusumlari, urf-odatlar, diniy e’tiqodlar.

Senat (rus.-senat; ing.-senate) - parlament palatasi huquqiy vakillik palatasi.

Fuqarolik jamiyati (rus.-grajdanskoe obshchestvo; ing.- civil society) - davlat jamiyat, ijtimoiy taraqqiyotning oliy demokratik shakli.

Iqtisodiy plyuralizm (rus.-ekonomicheskii plyuralizm; ing.- economic pluralism) - mulk shakllari va xo‘jalik yuritish usullarining turli tumanligi.

“O‘zbek modeli” (rus.- “Uzbekskaya model”; ing.- the uzbek model) - Prezident Islom Karimov tomonidan ishlab chiqilgan O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyotini besh tamoyili.

Menedjer (rus.- menedjer; ing. - manager) - firma, kompaniya va bankning boshqaruv rahbari, yollanma boshqaruv rahbari.

Ma’naviyat (rus.- duxovnost; ing.- spirituality) - insonlarning ichki, ruhiy olami, iroda va e’tiqodlari bilan bog‘liq bo‘lgan insoniy fazilatlar majmui.

Vijdon erkinligi-bu fuqarolarning har qanday dinga e’tiqod qilishi yoki hech qanday dinga e’tiqod qilmaslik huquqidir. “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” - BMT tomonidan 1948 yilda qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjatdir. Bu hujjatda insonlarning huquq va erkinliklari, hayot kechirishini ta’minlaydigan huquq va erkinliklari belgilangan.

Geosiyosat - (yunoncha “geo”-er va “politike”-davlatni boshqarish san’ati.) - davlatlar tashqi siyosatini amalga oshirishga geografik omillar (davlat egallab turgan hududning qulayligi yoki noqulayligi, katta yoki kichik ekanligi, tuprog‘ining serhosilligi, tog‘ va dashtu-cho‘llarning ko‘p-kamligi va h.k.)ga alohida urg‘u berish geopolitika nazariyasiga binoan millatlarning va davlatning tabiati, geografik joylashganligiga bog‘liq.

Globalashuv - lotincha “glob” so‘zidan olingan bo‘lib, ayni uni “Dumaloqlashuv” deb tarjima qilish mumkin. Yer sharining, yer kurrasining fan-texnika yutuqlari tufayli insoniyat ixtiyoridagi xuddi bir butun sharga, kurraga aylanishini tushuntirish uchun ishlatiladi.

Globalashuvning ijobiy tomoni shundan iboratki, u xalqlaring, davlatlarning, milliy madaniyat va iqtisodiyotning yaratilgan tajribalarini o‘zlashtiradi, ularning rivojlanishi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Uning salbiy tomoni shundan iboratki, mayda, qoloq guruhlar va mamlakatlarning madaniyati, tili, urf-odati kuchayib

borayotgan globallashuv jarayonlarida mayda millatlar, yirik minglab madaniyatlar, boy tillar bilan raqobatlashmay o'z - o'zidan ijtimoiy - iqtisodiy, insoniy - zaboniy hayotdan chetga chiqib keladi. Bunday sharoitda har bir ongli fuqaroning vazifasi - o'z millatining raqobatbardoshligini ko'rsatish, buning uchun uning faol siyosati, tadbirkorlik iqtisodiyoti, madaniyatida salmoqli salmoqli yutuqlari uchun kurashadi.

Global muammolar - ushbu muammolar o'zining dahshatli oqibatlarini, jinoyatga keltiradigan zarari bilan boshqa har qanday muammolardan qisman farq qiladi. Bu muammolarni jamiyat hayotida ro'y beradigan birdan - bir muammoga qiyoslab bo'lmaydi. Ular o'zining ko'lami va miqyoslariga ko'ra dunyoning juda katta qismiga yoyilgan bo'lib, ko'pchilik mamlakatlar va xalqlar xayotiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Global muammolar quyidagi turlarga bo'linadi: yadro halokatidan saqlash; yalpi va umumiy tinchlikni ta'minlash; xalqaro terrorizm muammosi, shu jumladan mintaqalardagi terroristik harakatlarga birgalikda kurashish; giyohvandlikka qarshi birgalikda kurashish; jamiyat muammosi; energetika muammosi; qashshoqlik muammosi; ocharchilikka qarshi kurash; hayvonot va o'simliklar dunyosini saqlash; ekologiya; spid va h k.

MAVZULAR BO'YICHA TESTLAR

1. Falsafa“ atamasining lug‘aviy ma‘nosi

- A) bilimdonlik;
- B) donishmandlikni sevish;
- V) dunyoqarash;
- G) dunyoni bilish.

2. “Dunyoqarash” tushunchasiga berilgan to‘g‘ri javob:

- A) odamning tasavvurlari;
- B) tabiat va jamiyat to‘g‘risidagi kundalik fikrlar;
- V) olam to‘g‘risida umumlashtirilgan bilimlar majmui;
- G) inson tomonidan xayolda yaratilgan obrazlar.

3. Dunyoqarashning tarixiy jihatdan asosiy shakllari:

- A) axloqiy, diniy, huquqiy;
- B) ilmiy, falsafiy, badiiy, estetik;
- V) afsonaviy, diniy, falsafiy;
- G) falsafiy, siyosiy, kundalik.

4. Falsafaning dunyoqarashni shakllantirishdagi asosiy vazifalari:

- A) inson qarashlari imkoniyatlari, milliy dunyoqarash tarkibida turli fanlarning o‘rni, dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlarga mos kelishini aniqlash;
- B) fanlarning o‘rni, dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlarga mos kelishini aniqlash;
- V) diniy va mifologik dunyoqarashga asosiy e‘tiborni berish;
- G) texnikaviy fanlarga ustivor ahamiyat berish.

5. Ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimi:

- A) inson falsafasi, jamiyat falsafasi, madaniyat falsafasi;
- B) mafkura falsafasi, din falsafasi, siyosat falsafasi;
- V) huquq falsafasi, tabiat falsafasi, ma‘naviyat falsafasi
- G) yuqoridagilarning jami.

6. Falsafaning asosiy sohalari:

- A) ontologiya, praksiologiya, metodologiya;
- B) gnoseologiya, aksiologiya, mantiq;
- V) etika, estetika;

G) yuqoridagilarni barchasi.

7. “Monizm “ tushunchasi nimani bildiradi...

A) olamning negizida bitta asos yotadi;

B) olamdagi o‘zgarishlar to‘g‘risidagi fikr;

V) bilish jarayonining murakkabligi;

G) moniylik to‘g‘risidagi ta’limot.

8. “Dualizm” atamasi qanday javobda to‘g‘ri berilgan?

A) olamning negizida ko‘p narsa yotadi;

B) olamning asosida yagona narsa yotadi;

V) olamning negizida ikkita asos yotadi;

G) olamning asosida materiya yotadi.

9. Barcha fanlar uchun xos bo‘lgan metodlar, bu...

A) xususiy ilmiy metodlar;

B) umumiy ilmiy metodlar;

V) eng umumiy ilmiy metodlar;

G) fanlarni o‘qitish metodikasi.

10. Falsafaning metodologik vazifalari?

A) tabiatshunoslikning xulosalarini umumlashtirish;

B) gumanitar fanlarning tadqiqot obyektlarini belgilash;

V) tabiatshunoslik va gumanitar fanlarning umumiy masalalari;

G) umumiy ta’limot va inson tomonidan voqelikni bilish hamda o‘zlashtirishning eng umumiy tamoyillarini ochib beradi.

11. Falsafaning gnoseologik vazifalari?

A) olamning mavjudligini tan olish;

B) olamning negizida muayyan mohiyat yotishini tan olish;

V) olamni bilish uchun umumiy metodlar tizimini yaratish;

G) inson ongini o‘rganish.

12. Falsafaning evristik funksiyasi?

A) falsafaning praktik ahamiyati;

B) tabiat, jamiyat va inson tafakkuri rivojlanishi qonuniyatlarini kashf etish;

V) olamning mavjudligini e’tirof etish;

G) to‘g‘ri javob yo‘q.

13. Falsafaning tarbiyaviy funksiyasi?

- A) tabiat hodisalarini tadqiq etish;
- B) jamiyat hodisalarini ilmiy o‘rganish;
- V) **insonning ma’naviy barkamolligini ta’minlash;**
- G) tafakkur hodisalarini o‘rganish.

14. Falsafaning praksiologik funksiyasi?

- A) moddiy manfaatdorlikni ifodalashda;
- B) bilimlarni hosil qilishda;
- V) kundalik ehtiyojlarni qondirishda;
- G) **nazariyani amaliyotga joriy etish uslublari va vositalarini aniqlash.**

15. Mustaqillik sharoitida o‘zbek falsafasi yangilanishining zaruriy asoslari?

- A) moddiy – iqtisodiy asoslar;
- B) ijtimoiy – siyosiy asoslar;
- V) ma’naviy asoslar;
- G) **yuqoridagilarning birligi.**

16. Qaysi qatorda “gnoseologiya”ga to‘g‘ri javob berilgan?

- A) olamning asosida nima yotadi, degan savolga javob;
- B) olamning o‘zgarishini tan oladi;
- V) **olamni bilish mumkinligini tan oladi;**
- G) olamni bilib bo‘lmaydi, deb hisoblaydi.

17. O‘zbek milliy falsafasini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi:

- A) milliy an’analarga va qadriyatlarga sodiqlik;
- B) buyuk kelajakka ishonch;
- V) xalq mehnatsevarligi, intellektual salohiyati;
- G) **yuqoridagilarning barchasi.**

18. Ijtimoiy-falsafiy fanlar tizimi:

- A) inson falsafasi, jamiyat falsafasi, madaniyat falsafasi;
- B) mafkura falsafasi, din falsafasi, siyosat falsafasi;
- V) huquq falsafasi, tabiat falsafasi, ma’naviyat falsafasi
- G) **yuqoridagilarni jami.**

19. Ijtimoiy falsafa nimani o‘rganadi?

- A) jamiyat taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchlari va qonuniyatlarini;
- B) sotsial tuzumning funksiyasi va rivojlanish qonuniyatlarini;
- V) jamiyatdagi muhim ijtimoiy hodisalarning o‘zaro aloqalarini;
- G) a, b va v hollarda.

20. O‘zbek milliy falsafasi genezisi (kelib chiqishi)ni tashkil etadi:

- A) qadimgi zardo‘shiylik, uning muqaddas qitobi - “Avesto”;
- B) islom dinining bosh asosi – Qur‘on va Hadislar;
- V) dunyoviy bilimlarning majmui;
- G) yuqoridagilarning jami.

21. Falsafaning dunyoqarashni shakllantirishdagi asosiy vazifalari:

- A) inson qarashlari imkoniyatlari, milliy dunyoqarash tarkibida turli;
- B) fanlarning o‘rni, dunyoqarashning milliy va umuminsoniy manfaatlariga mos kelishini aniqlash;
- V) diniy va mifologik dunyoqarashga asosiy e‘tibor berish;
- G) texnikaviy fanlarga ustuvor ahamiyat berish.

22. O‘zbek milliy falsafasini rivojlantirishda alohida o‘rin tutadi:

- A) milliy an‘analarga sodiqlik, qadriyatlarga sodiqlik;
- B) buyuk kelajakka ishonch;
- V) xalq mehnatsevarligi, intellektual salohiyati;
- G) yuqoridagilarning barchasi.

23. O‘zbekistonda milliy mustaqillikni mustahkamlashning ma‘naviy-axloqiy negizlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- A) umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, milliy madaniyatni rivojlantirish;
- B) vatanparvarlik, inson erkinligining namoyon qilinishi;
- V) vatanparvarlik, yer osti boyliklaridan foydalanish, diniy e‘tiqodga ustuvorlik berish, dunyoviy bilimlarni rivojlantirish;
- G) ma‘naviy merosni mustahkamlash, davlat hokimiyatini mustahkamlash, davlat chegaralarini mustahkamlash.

24. O‘zbekistonda qanday jamiyat qurish uchun kurash olib borilmoqda?

- A) shaxs erkinligini har tomonlama ta‘minlovchi fuqarolar jamiyati;
- B) milliy an‘analarga tayangan o‘ziga xos adolatli jamiyat qurish;
- V) ijtimoiy tenglikni hayotga tatbiq etish orqali umumxalq davlatini qurish;
- G) a va b hollarda.

25. Jamiyatning o'zbekona modeli tamoyillariga nimalar kiradi:

- A) iqtisodning siyosatdan ustunligi, davlat bosh islohotchi;
- B) qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy himoya, bosqichma-bosqich rivojlanish;
- V) milliy manfaatlarni umuminsoniy manfaatlaridan ustun qo'yish;
- G) 1 va 2 javoblar.

26. Qadimgi Hind falsafasining asosiy yodgorliklari?

- A) "Arfist qo'shig'i", "Avesto";
- B) "Tavrot", "Vedalar";
- V) "Avesto", "Upanishadalar";
- G) "Vedalar", "Upanishadalar".

27. Qadimgi Xitoy falsafasining asosiy oqimlari?

- A) konfutsiylik, zardo'shtiyli;
- B) daosizm, monizm;
- V) konfutsiylik, daosizm;
- G) konfutsiylik, moniylik.

28. Qadimgi yunon falsafasida "g'oyalar dunyosi va narsalar dunyosi" ta'limotining asoschisi?

- A) Fales;
- B) Anaksimandr;
- V) Aflotun;
- G) Arastu.

29. "Oqib turgan daryoga ikki marta tushib bo'lmaydi" degan fikr asoschisi:

- A) Arastu;
- B) Geraklit;
- V) Aflotun;
- G) Epikur.

30. Atomistik nazariyaga asos solgan qadimgi yunon faylasufi?

- A) Anaksimenes;
- B) Pifagor;
- V) Demokrit;
- G) Lukresiy.

31. Olamdagi barcha narsa-hodisalarning sababi o‘t (olov) deb hisoblagan faylasuf?

- A) Sokrat;
- B) Levklipp;
- V) Anaksimenes;
- G) Geraklit.

32. Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan “Muallimi as-soniy” (Ikkinchi muallim) unvoniga sazovor bo‘lgan?

- A) Ibn Sino;
- B) Beruniy;
- V) Farg‘oniy;
- G) Forobiy.

33. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan tasavvuf tariqatlarining asoschilari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A) Farg‘oniy, Marg‘inoniy, Naqshband;
- B) Moturudiy, Xos Hojib, Yassaviy;
- V) Yassaviy, Naqshband, Kubro;
- G) Zamahshariy, Firdavsiy, Kubro.

34. “Dil ba yoru dast ba kor” iborasi kimga tegishli?

- A) Ahmad Yugnakiy;
- B) Abduholiq G‘ijduvoni;
- V) Bahovuddin Naqshband;
- G) Yusuf Xos Xojib.

35. Ibn Sinoning asarlari qaysi qatorda to‘g‘ri belgilangan?

- A) “Hayratul-Abror”, Saddi Iskandariy”, “Donishnoma”;
- B) “Kitob ash-Shifo”, “Irfon”, “Avesto”;
- V) “Najot”, “Kitob ash-Shifo”, “Donishnoma”;
- G) “Al-Hidoya”, “Kimyoi saodat”, “Najot”.

36. “Fozil odamlar shahri” asarining muallifi?

- A) Yusuf Xos Xojib;
- B) Ibn Sino;
- V) Abu Nasr Forobiy;

G) Mahmud Zamahshariy.

37. “To‘rt ulus tarixi” (“Tarixlarba’ ulus”) asarini yozgan muallif?

A) Amir Temur;

B) Xondamir;

V) **Mirzo Ulug‘bek;**

G) Davlatshoh Samarqandiy.

38. Alisher Navoiyning asarlari bo‘yicha to‘g‘ri berilgan javob?

A) “Majosilunnafois”, “Qobusnoma”, “Najot”

B) “Hibatul haqoyiq”, “Siyosatnoma”, “Irfon”;

V) **“Lisonut-tayr”, “Mahbubul qulub”, “Majosilunnafois”;**

G) “Mantiqut-tayr”, “Taskirat ush-Shifo”, “Chor unsur”.

39. “Hindlarning tasavvuricha, ruh butunlay mustaqil holatda mavjuddir va har bir narsaga, jismlarga o‘tish - ko‘chish qobiliyatiga ega”. Mazkur fikrning muallifi?

A) **Al-Beruniy;**

B) Ibn Sino;

V) Mirza Bedil;

G) Abdurauf Fitrat.

40. Mirza Bedilning asarlari qaysi qatorda to‘g‘ri berilgan?

A) “Chor unsur”, “Kimyo saodat”, “Siyosatnoma”;

B) “Irfon”, “Navodirul vaqoe”, “Qutadg‘u bilik”;

V) **“Nuqot”, “Irfon”, “Chor unsur”;**

G) “Siyosatnoma”, “Navodirul vaqoe”, “Nuqot”.

41. “Agar biz boshqa millatlarga yutkazib qo‘ymaslikni maqsad qilib olar ekanmiz, bilimli davlat rahbarlarini, injenerlar, kommertsantlarni tayyorlab yetishtirishimiz lozim”. Bu so‘zlar kimga tegishli?

A) Munavvar Qori;

B) **Mahmudxo‘ja Behbudiy;**

V) Abdulla Avloniy;

G) Fitrat.

42. Yevropa o‘rta asrlar falsafasining yirik namoyandalari?

A) **Avreliy Avgustin, Foma Akvinskiy;**

B) Foma Akvinskiy, Spinoza;

- V) Leybnis, Avreliy Avgustin;
- G) Galiley, Lametri.

43. Tomizm falsafasining asoschisi kim?

- A) Prer Abelyar;
- B) Jak Mariten;
- V) Foma Akvinskiy;
- G) Gobbs.

44. Muqaddas “Avesto” kitobining muallifi?

- A) Moniy;
- B) Mazdak;
- V) Zardo’sht;
- G) Budda.

45. Ijtimoiy taraqqiyot va uning mezoni deganda Zardusht ta’limotida nima asos qilib olingan?

- A) diniy ibodatga amal qilish darajasi;
- B) ezgulik va qabohat kuchlari o’rtasidagi ziddiyat;
- V) dunyoni anglash darajasi;
- G) axloq normalariga amal qilish darajasi.

46. “Ishq mahobatiga taqvoyu toat chidayolmas, Tasbehu sano, zuhdu ibodat chidayolmas” misralarining muallifi kim?

- A) Mahtumquli-Firog’iy;
- B) Nodira;
- V) Boborahim Mashrab;
- G) Anbar otin.

47. Fan mavjud barcha muammolarni hal etishi mumkinligini, ilmiy taraqqiyotning ijobiyligini asoslovchi hozirgi zamon falsafiy oqimi?

- A) neotomizm;
- B) ekzistensializm;
- V) stsiientizm;
- G) pragmatizm.

48. Ilm yetmagan joyda e’tiqodni qo’llash kerak. Bu g’oyani ifodalovchi hozirgi zamon falsafiy oqim:

- A) neotomizm;

- B) neokantchilik;
- V) neopozitivizm;
- G) germinevtika.

49. Faqat tajribada o‘z tasdig‘ini topgan bilimgina haqiqiy, deb hisoblovchi falsafiy dunyoqarash?

- A) strukturalizm;
- B) pragmatizm;
- V) neopozitivizm;
- G) ekzistensializm.

50. Erkinlik - insonning yakka o‘zi tomonidan yaratiladigan ichki ruhiy holat, deb hisoblaydi?

- A) mantiqiy pozitivizm;
- B) ruhiy tahlil falsafasi;
- V) ekzistensializm;
- G) freydizm.

51. Yevropa falsafasida empirizm oqimi asoschisi, “kuch – bilimdadir” iborasining muallifi?

- A) Golbax;
- B) Gelvesiy;
- V) Frensis Bekon;
- G) Deni Didro.

52. “Narsa o‘zida” va “narsa biz uchun” g‘oyasining muallifi?

- A) Fixte;
- B) Golbax;
- V) Kant;
- G) Feyerbax.

53. “Aqlga muvofiq narsalarning barchasi mavjud, mavjud narsalarning barchasi aqlga muvofiq” g‘oyasining muallifi?

- A) Shelling;
- B) Kant;
- V) Gegel;
- G) Dekart.

54. Ruhii dunyo inson borlig'ining muhim jihati ekinligidan kelib chiqib, uning o'ziga xos modeli - "u", "men", "mendan yuqori"ni yaratgan faylasuf":

- A) Nisshe;
- B) Freyd;**
- V) Bergson;
- G) Xaydegger.

55. U yoki bu obyektlar haqidagi tushunchalarning ma'nosi va ahamiyati ular keltirib chiqaradigan amaliy natijalar bilan belgilanadi, degan g'oyani ilgari suruvchi falsafiy dunyoqarash:

- A) ruhiy tahlil falsafasi;
- B) ekzistensializm;
- V) pragmatizm;**
- G) pozitivizm.

56. Buyuk nemis klassik faylasufi L.Feyerbax ta'limoti bo'yicha ijtimoiy taraqqiyot mezonii deb nima tushunilgan?

- A) falsafiy ong;
- B) diniy ong;**
- V) ilmiy ong;
- G) siyosiy ong.

57. Falsafada "borliq" tushunchasi keng ma'noda ishlatilganda nimani nazarda tutiladi?

- A) inson atrofini o'rab olgan moddiy narsalarni, jismlarni;**
- B) mavjudlik to'g'risidagi eng umumiy tushunchani;
- V) narsa-hodisalarning xossalarini;
- G) ma'naviy hodisalarni.

58. Borliq muammosini o'rganadigan falsafaning sohasi?

- A) ontologiya;**
- B) gnoseologiya;
- V) metodologiya;
- G) praksiologiya.

59. Borliqning muhim falsafiy jihatlari, bular:

- A) yaxlit olamning doimiyliigi va ayrim narsalar hayotining o'tkinchiligi;**
- B) narsa-hodisaning chidamliligi;

- V) narsa-hodisaning tashqi ko‘rinishi;
- G) narsa-hodisaning pishiq ishlanganligi.

60. “Borliq” tushunchasi bilan mavjudlik va reallik tushunchalari o‘rtasidagi munosabatni belgilang:

- A) borliq – reallik ifodasi;
- B) borliqning hozirgi paytda namoyon bo‘ladigan qismi – mavjudlik;**
- V) reallik mavjudlikning hammaga ayon, ular tan olgan qismi;
- G) borliq – mavjudlik va reallikning majmui.

61. Borliqning atributlari: bu-

- A) mavjudligi, realligi;
- B) harakat, fazo, vaqt;**
- V) in’ikos, ong;
- G) harakat, fazo, vaqt, in’ikos, ong.

62. Shakl jihatidan ma’naviy borliq, bu –

- A) individuallashgan ma’naviy borliq, inson ongi, ruhiyati;
- B) obyektivlashgan ma’naviy borliq;
- V) inson fikrlari majmui;
- G) individuallashgan va obyektivlashgan ma’naviy borliq.**

63. Individuallashgan ma’naviy borliq xususiyatlari, bu.....

- A) unda sodir bo‘layotgan jarayonlarni tashqaridan kuzatib bo‘lmasligi;
- B) uning xususiyatlari individ dunyoga kelishi bilan shakllanishi;
- V) olamdan o‘tishi bilan barham topishi;
- G) yuqoridagi ikkala holatning birligi;insonning olamdan o‘tishi va barham topishi.**

64. Bilish bosqichlari qaysi qatorda berilgan?

- A) sezgi, tushuncha, hissiy idrok;
- B) hissiy bilish, aqliy bilish;**
- V) aqliy bilish, tasavvur, xayol;
- G) xulosa, tushuncha, tasavvur.

65. Bilish jarayoni quyidagilarni ochishga qaratilgan:

- A) praktikani;
- B) haqiqatni;**

- V) voqealar tartibini;
- G) tarixiy hodisalarni.

66. Ilmiy bilishning asosiy shakllari, bu -

- A) ilmiy g'oya, muammo, gipoteza, fakt, nazariya;
- B) ilmiy muammo, amaliyot, xulosa, hukm, nazariya;
- V) ilmiy gipoteza, tasavvur, xayol, badiiy haqiqat;
- G) ilmiy fakt, idrok, haqiqat, amaliyot.

67. Inson borliqining asosiy o'lchov-meyorlari:

- A) odam – fikrlovchi va his etuvchi jism;
- B) inson – aqlli zot;
- V) inson – ijtimoiy – tarixiy mavjudot;
- G) yuqoridagilarning jami.

68. Bilishning “obyekti” deganda...

- A) subyekt ongidan tashqaridagi mavjud bo'lgan predmet va hodisalar yig'indisi tushuniladi;
- B) obyektiv va subyektiv reallikning subyektning bilish faoliyati doirasiga kiruvchi predmet va hodisalar majmuasi tushuniladi;
- V) biluvchi subyektga qarama-qarshi turgan barcha predmet va hodisalar yig'indisi tushuniladi;
- G) b va v hollarda.

69. Agar bilish obyekti tabiiy hodisalar bo'lganda, biluvchi “subyekt”...

- A) umuminsoniyat manfaatlarini ifoda etadi;
- B) milliy-mintaqaviy manfaatlarini ifoda etadi;
- V) sinfiy yoki davlat manfaatlarini ifoda etadi;
- G) diniy va irqiy manfaatlarini ifoda etadi.

70. Agar subyekt faoliyati ijtimoiy hodisalarni bilishga qaratilsa unda tadqiqotchi subyekt kimlarning manfaatlarini ifoda etadi?

- A) umuminsoniyat manfaatlarini;
- B) milliy-mintaqaviy manfaatlarini;
- V) sinfiy yoki davlat va boshqa siyosiy kuchlar manfaatlarini;
- G) diniy, irqiy yoki boshqa ijtimoiy kuchlar manfaatlarini.

71. Ilmiy bilishning tub mohiyatini o'zida mujassamlashtiruvchi asosiy belgi nima?

- A) manfaat;
- B) tajriba;
- V) e'tiqod;
- G) mantiq.

72. Ilmiy bilimlar oddiy bilimlardan nimasi bilan farq qiladi?

- A) muayyan manfaatlarni ifoda etish bilan;
- B) muayyan mantiqqa asoslanishi bilan;
- V) bilimlarning muayyan mantiq va tajribalar asosida to'plangan bilimlarning sistemalashtirilishi bilan;
- G) olamning ilmiy manzarasini chizib berishlari bilan.

73. Agnostitsizm nima?

- A) dunyoni bilishni inkor etuvchi ta'limot;
- B) insonning kelib chiqishida tabiiy omilning hal qiluvchi ahamiyatini inkor etuvchi ta'limot;
- V) insonning kelib chiqishida ijtimoiy omilning hal etuvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;
- G) b va boshqa hollarda.

74. Ratsionalizm ta'limotining tub mohiyati nima?

- A) bilishda aqlning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi ta'limot;
- B) bilishda sezgi a'zolarini hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;
- V) dunyoni bilish mumkin deb hisoblaydigan ta'limot;
- G) umuminsoniy manfaatlarning ustivorligini tan oluvchi ta'limot.

75. Sensualizm va uning mohiyati nima?

- A) bilishda aqlning roli hal qiluvchi ahamiyatga ega deb hisoblovchi ta'limot;
- B) bilishda sezgi a'zolarining hal qiluvchi ahamiyatini e'tirof etuvchi ta'limot;
- V) dunyoni bilish mumkinligini inkor etuvchi ta'limot;
- G) milliy va umuminsoniy manfaatlarning mushtarakligi hamda ularning ustivorligini tan oluvchi ta'limot.

76. Falsafada insonni qanday tavsiflaydi:

- A) inson – jonli biologik hodisa;

- B) inson – tarixiy hodisa;
- V) inson – o‘zida biologik, ijtimoiy va psixologik xususiyatlarni mujassamlashtiruvchi ongili mavjudot;
- G) ongili mavjudot.

77. Antropologiya fani nimani o‘rganadi?

- A) jonli mavjudotlarning barchasini o‘rganadi;
- B) insonni o‘rganadi;
- V) tabiat hodisalarini o‘rganadi;
- G) jonsiz tabiatni o‘rganadi.

78. Insonning faoliyat olib borish doirasini qanday ilmiy-falsafiy tushuncha orqali ifoda etiladi?

- A) noosfera;
- B) gidrosfera;
- V) biosfera;
- G) atmosfera.

79. Haqiqat, bu:

- A) narsa – hodisa to‘g‘risidagi bilimning ularga mos kelishi;
- B) adolat to‘g‘risidagi fikr;
- V) narsa – hodisalarning realligini his etish;
- G) narsa – hodisalar to‘g‘risidagi ma’lumot.

80. Nisbiy haqiqat, bu –

- A) bilish jarayonida to‘ldirilishi mumkin bo‘lgan bilim;
- B) davr o‘tishi bilan o‘zgarmaydigan bilim;
- V) nazariy bilim;
- G) vaqtinchalik tasavvurlar.

81. Obyektiv haqiqat, bu:

- A) mazmuni inson va insoniyatga bog‘liq bo‘lmagan bilim;
- B) mazmuni inson va insoniyatga bog‘liq bo‘lgan bilim;
- V) mazmuni tabiatni aks ettiradigan bilim;
- G) mazmuni insonlarning hayotini aks ettiradigan bilim.

82. Mutloq haqiqat, bu –

- A) diniy haqiqat;

- B) har tomonlama to'liq, aniq, mukammal, rad etib bo'lmaydigan bilim;
- V) mavhum fikrlar;
- G) to'g'ri javob berilmagan.

83. Metodologiya, bu –

- A) ilmiy bilish metodlarini o'rganadi;
- B) amaliyotni o'rganadi;
- V) nazariya masalalarini o'rganadi;
- G) tarixiy muammolar bilan shug'ullanadi.

84. Falsafaning metodologik vazifalari?

- A) tabiatshunoslikning xulosalarini umumlashtirish;
- B) gumanitar fanlarning tadqiqot obyektlarini belgilash;
- V) tabiatshunoslik va gumanitar fanlarning umumiy masalalari;
- G) o'rganiladigan obyektning tadqiq etishdagi eng umumiy tamoyillar, usullar, vositalar tizimi.

85. Barcha fanlar uchun xos bo'lgan metodlar, bu –

- A) hususiy ilmiy metodlar;
- B) umumiy ilmiy metodlar;
- V) eng umumiy ilmiy metodlar;
- G) fanlarni o'qitish metodikasi.

86. Falsafiy kategoriyalar, bular-

- A) narsa-hodisalar bog'lanishi va aloqadorligini umumlashtiruvchi bilish usuli;
- B) narsa-hodisalar rivojlanishi bilan o'zgarib turuvchi tushuncha;
- V) borliqni tarixiy-mantiqiy bilish darajasi;
- G) yuqoridagilarning majmui.

87. "Dialektika" iborasining ma'nosini aniqlang?

- A) ikki kishining suhbat;
- B) bahs va suhbatlashish san'ati;
- V) haqiqat va yolg'onning kelisha olmasligi;
- G) tabiat va jamiyatning rang-barangligi.

88. Dialektik inkorning ma'nosi:

- A) so'zda "yo'q" deyish degani;
- B) o'zgalarni tan olmaslik;

- V) yangining eski bag'rida vujudga kelishi, eskiga ijodiy munosabat;
G) ziddiyatlarni faqat so'zda tan olish.

89. Harakatning falsafiy ma'nosi, bu-

- A) jismning bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga qarab yo'nalishi;
B) har qanday o'zgarish;
V) tafakkurning o'ziga xos bo'lgan rivoji;
G) to'g'ri javob berilmagan.

90. Sakrash tushunchasi falsafada qanday ma'noga ega?

- A) sakrash – harakat tezligini ifodalaydi;
B) sakrash – narsa-hodisada yuz beradigan tub sifat o'zgarishi;
V) sakrash – faqat tabiat hodisalariga xos;
G) to'satdan bo'ladigan o'zgarish.

91. Harakatning manbalari, bular:

- A) muayyan tizimdagi ichki o'zaro ta'sirlar;
B) tashqaridan bo'ladigan ta'sirlar;
V) fikrdagi mantiqiy ziddiyatlar;
G) "tashqi turtki".

92. Harakatning falsafiy jihatdan asosiy turlari, bular –

- A) mexanik, issiqlik, biologik, elektr;
B) fizikaviy, ximiyaviy, mexanik, geologik;
V) ijtimoiy, biologik, fizikaviy, yorug'lik;
G) mexanik, fizikaviy, ximiyaviy, biologik, ijtimoiy.

93. Rivojlanishning falsafiy ma'nosi, bu:

- A) har qanday o'zgarish - rivojlanishdir;
B) rivojlanish tashqi o'zgarishlar mahsuli;
V) rivojlanish – muayyan tizimda ro'y beradigan miqdoriy va sifatiiy o'zgarishdir;
G) rivojlanish faqat to'g'ri chiziq bo'ylab amal qiladigan harakatdir.

94. Metafizika olamni qanday tushuntiradi?

- A) narsa-hodisalar o'zgarmaydi, konkret holatda turadi;
B) olam azaliy o'zgarishlarni boshidan kechirib turadi;
V) ruhiyatda bo'ladigan o'zgarishlarni tan olish;
G) olamning rivojlanishi tasodifiy hodisa.

95. Fazo tushunchasi quyidagilarni ifodalaydi:

- A) narsalarning katta-kichikligini;
- B) narsalarning uzunligini;
- V) narsalarning ko'lami, hajmi, o'zaro joylashish tartibi;
- G) yuqoridagilarning hammasi.

96. Miqdor nima? bu -

- A) predmetning hajmi, o'lchovi, og'irligi, harakat tezligi;
- B) narsa-hodisaning og'irligini ifodalaydi;
- V) narsa-hodisaning sonini ifodalaydi;
- G) narsa-hodisaning belgisi emas.

97. Me'yor kategoriyasining falsafiy mazmuni.

- A) qarama-qarshi sifatlarni muayyan maqsad yo'nalishida muvozanatlashtirish;
- B) muayyan sifatlarning doirasidagi miqdoriy o'zgarishlar chegarasi;
- V) muayyan miqdor doirasidagi sifatiy o'zgarishlar chegarasi;
- G) b va v hollarda.

98. Jamiyatning moddiy hayoti tushunchasi tarkibiga nimalar kiradi?

- A) iqtisodiy shart-sharoitlar, moddiy ne'matlar yaratish;
- B) kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar;
- V) moddiy boyliklar, tabiiy zahiralari;
- G) yuqoridagilarning jami.

99. Jamiyatning ijtimoiy strukturasi qanday?

- A) sotsial sinflar, ijtimoiy guruhlar;
- B) siyosiy partiyalar, ijtimoiy tashkilotlar;
- V) kishilarning tarixiy birliklari: urug', qabila, elat, millat;
- G) davlat va siyosat hamda iqtisodiy sistemalar.

100. Jamiyatning tabiatdan farq qilishiga sabab bo'luvchi eng asosiy omil nimada?

- A) ijtimoiy taraqqiyotning o'ta noyobligida;
- B) ijtimoiy qonunlar asosida rivojlanishida;
- V) tabiiy qonunlardan mustaqil bo'lganligida;
- G) tabiatdan tashqari kuchlarning irodasi bilan rivojlanishida.

101. Jamiyat – doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli...

- A) jamiyat – doimiy ravishda taraqqiy etib turadigan jonli sotsial organizm;
- B) taraqqiy etib turadigan jarayon;
- V) jamiyat – ijtimoiy hodisa;
- G) jamiyat – o‘zgarib turuvchi sotsial hodisa.

102. Shaxs deb nimaga aytiladi?

- A) shaxs – bu har qanday alohida olingan kishi;
- B) shaxs – bu boshqalarni o‘ziga bo‘ysundira oladigan kishi;
- V) shaxs – barcha ijtimoiy munosabatlar majmuasi;
- G) shaxs – bu o‘ta qobiliyatli, bilimli va ziyoli odam.

103. Shaxs erkinligi nimada?

- A) o‘zining konstitutsion huquqlarini anglash;
- B) kishining ichki dunyosi;
- V) kishi faoliyati uchun cheklanmagan imkoniyat;
- G) kishilar tomonidan anglab olingan zarurat.

104. Etnik birliklarning ilk shaklini aniqlang.

- A) qabila;
- B) elat;
- V) urug‘;
- G) millat.

105. Mantiq fanini o‘qitishdan maqsad nima?

- A) talabalarni to‘g‘ri fikrlashning mantiqiy shakllari va qonun- qoidalari bilan tanishtirish;
- B) murakkab mantiqiy masalalar va muammolarni yechish malakasini shakllantirish;
- V) mustaqil va erkin fikr yuritish qobiliyatini takomillashtirish;
- G) barcha javoblar to‘g‘ri.

106. Mantiq so‘zi qaysi tildan olingan?

- A) lotin;
- B) arab;
- V) grek;
- G) fors.

107. Mantiq so‘zining ma’nosi nima?

A) fikr, soʻz, aql, qonuniyat;

B) murakkab jumla;

V) mazmun;

G) natija, oqibat.

108. Mantiq fani nimani oʻrganadi?

A) maʼnaviy madaniyatni;

B) bilish jarayonini;

V) inson tafakkurining qonun va shakllarini;

G) bilimlarning shakllanishini.

109. Idrok nima?

A) predmetning birorta tashqi xususiyatini aks ettiruvchi yaqqol obrazi;

B.) predmetning yaxlit yaqqol obrazi boʻlib, mazkur predmet haqidagi sezgilar sintezidan paydo boʻladi;

V) predmetning obrazini maʼlum bir signallar taʼsirida miyada qayta hosil qilish;

G) fikrlar orasidagi aloqadorlik.

110. Tafakkurning nechta asosiy xususiyati mavjud?

A) 3 ta;

B) 4 ta;

V) 5 ta;

G) 6 ta.

111. Tafakkur qaysi shakllarda namoyon boʻladi?

A) abstraklashgan va umumlashgan holda;

B) moddiy reallashgan holda;

V) ideal shaklda;

G) tushuncha, hukm (mulohaza), xulosa chiqarish shaklida.

112. Mantiq taraqqiyotining asosiy bosqichlari ayting.

A) klassik va noklassik;

B) ilk, oʻrta, soʻnggi;

V) dastlabki va rivojlangan;

G) klassik.

113. Matematik mantiqning asoschisi kim?

- A) Gegel;
- B) Kant;
- V) **Leybnis;**
- G) Feerbax.

114. Qachondan matematik mantiq fansifatidashakllana boshladi?

- A) XVII asrda;
- B) XVIII asrda;
- V) **XIX asrda;**
- G) XX asrda.

115. Etika atamasini birinchi marta qo‘llagan faylasuf ...

- A) Ar-Roziy;
- B) **Arastu;**
- V) Pedro Alfanso;
- G) Aflotun.

116. Axloq nima?

A) inson haqida yoqimli taassurot uyg‘otadigan ijobiy xatti-harakatlar majmui;

B) **inson, jamiyat uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yigindisi;**

V) inson hayotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmaydigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi;

G) inson va jamiyat hayotida hech qanday ozgarishga olib kelmaydigan xatti-harakatlar yig‘indisi.

117. “Ilmi axloq”, “Axloq ilmi”, “Ilmi Ravish” kabi nomlar bilan yuritilgan fan qaysi javobda ko‘rsatilgan?

- A) **Etika;**
- B) Mantiq;
- V) Falsafa;
- G) Odobnoma.

118. Etiket tushunchasiga to‘g‘ri ta’rif berilgan qatorni toping.

A) **Muayyan vaziyat sharoitida qo‘llaniladigan qoida-tartib, amal qilinishi shart bo‘lgan axloqiy xatti-harakatlar;**

B) Bu – insoniy qarash, nigoh, so‘zsiz-noverbal harakatlar;

V) Kishilarning tarixan tarkib topgan xulq-atvori, yurish-turishi, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarini tartibga solib turuvchi barqaror qoidalar yig‘indisi;

G) Inson, jamiyat uchun namuna bo‘la oladigan ijobiy xatti-harakatlar yig‘indisi.

119. Etiket bo‘yicha birinchi bo‘lib qaysi davlatda o‘quv qo‘llanmalar nashr qilindi?

A) Fransiya;

B) Gollandiya;

V) Rossiya;

G) Gretsiya.

120. Kasbiy odob –

A) Jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq qoidalarini kishilarning ixtisoslariga nisbatan amalda tatbiq qiluvchi aniq burch;

B) Jamiyatda e’tirof etilgan xulq normasi;

V) Barcha uchun birdek hisoblangan xulq normasi;

G) Odamlarning turmushda, xizmatda, jamoat joylarida, ko‘chada, mehmonchilikda va rasmiy tadbirlarda o‘zini tutish va harakat qilish qoidalari.

121. Odob bu –..... tilidan olingan bo‘lib, adab so‘zining ko‘pligi. Nuqtalar o‘rnini to‘ldiring.

A) fors;

B) so‘g‘d;

V) arab;

G) yunon.

122. “Axloq--barcha uchun birdek taalluqli hisoblangan ... ma’naviy hodisa” gapi muallifini toping.

A) Yusuf Xos Hojib;

B) Tohir Malik;

V) Abdulla Sher;

G) Erkin Umarov.

123. Kaykovusning qaysi asarida “Fuqaroning holidan xabardor bo‘lg‘ilki, podshohlar – cho‘pon, fuqarolari qo‘y ramasi manzarasida bo‘lur” jumlasini keltirilgan?

A) Bahoriston;

B) Qobusnoma;

- V) Tuhfatul-axror;
- G) Turkiy Guluston.

124. Kasbiy etiket bu – ...

- A) o‘z kasbiy burchiga nisbatan o‘zini tutish va hatti-harakat qilish qoidalari;
- B) boshqalarda zavq uyg‘ota oladigan ijtimoiy hodisa;
- V) inson hayotining zaruriy qismi, boshqa kishilar bilan bo‘lgan munosabatdagi muhim turidir;
- G) insonning o‘z kasbiga vijdonan yondashuvi.

125. Kim estetika so‘zini ilk marta fanning nomi sifatida “Poetik” asarning ba’zi bir masalalari to‘g‘risida falsafiy mulohazalar kitobida ishlatgan?

- A) A.Baumgarten;
- B) I.Kant;
- V) Umar Xayyom;
- G) Lukresiy Kar.

126. Dastlabki estetik ta’limotlar Qadimgi Rimda asosan kimlarning asarlarida rivojlantirildi?

- A) Aflotun, Arastu;
- B) Lukresiy Kar, Goratsiy;
- V) Suqrot, Goratsiy;
- G) Aflotun, Lukresiy Kar.

127. Quyida keltirilgan fanlardan qaysi biri Go‘zallik falsafasi deb ta’riflab kelingan?

- A) Etika;
- B) Estetika;
- V) Mantiq;
- G) Dialektika.

128. Manaviy ruhiy voqea-hodisalar majmui bolib, ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his, idrok, estetik did, estetik orzu, estetik qarash, estetik nazariyalar tizimi nima deb ataladi?

- A) estetik ong;

- B) axloqiy madaniyat;
- V) estetik tuygu;
- G) badiiy ijod.

129. Musulmon olamida go‘zallikka tamasiz yondashish, unga nisbatan manfaatsiz bo‘lishning ahamiyati borasidagi qarashlar quyida qaysi shaxs tomonidan ilgari surilgan?

- A) Umar Hayyom;
- B) Abu Nasr Forobiy;
- V) Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy;
- G) Abu Ali Ibn Sino.

130. Insonning narsa, hodisalarga nafosatli va axloqiy mezonlar bilan yondashishi va ulardan yuksak hayratlanish tuyg‘usini hosil qiluvchi estetik tushunchani aniqlang?

- A) Go‘zallik;
- B) Ulugvorlik;
- V) Barkamollik;
- G) Oliyjanoblik.

131. Quyidagi faylasuflardan qay biri ulug‘vorlikni go‘zallikning bir ko‘rinishi, ulug‘vorlik – zohiriy go‘zallikning botiniy go‘zallikka aylanishi, deb biladi?

- A) E.Byork;
- B) Gegel;
- V) I.Kant;
- G) A.Leybnis.

132. San‘atning qaysi turlarida ulug‘vorlik fojialilik bilan yonma-yon turadi?

- A) Teatr;
- B) Badiiy adabiyot;
- V) Kino;
- G) Barcha javoblar to‘g‘ri;

133. Quyida keltirilgan shaxslardan qay biri tasavvuf estetikasiga doir tadqiqot olib borgan?

- A) Abu Homid Muhammad al-G‘azzoliy;
- B) Abu Ali Ibn Sino;

V) A.Qurbonmamadov;

G) Umar Hayyom.

134. Qaysi ingliz nafosatshunosi go‘zallikni ulug‘vorlik bilan solishtirar ekan, go‘zallikni ulug‘vorlikka qarshi qo‘yadi?

A) E.Byork;

B) Gegel;

V) I.Kant;

G) A. Leybnis.

135. Korrupsiya so‘zi qaysi tildan olingan?

A) grek;

B) lotin;

V) ingliz;

G) arab.

136. “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi qonun qachon qabul qilingan?

A)2017 yil 3 yanvar;

B) 2017 yil 18 mart;

V) 2018 yil 5 may;

G) 2019 yil 13 iyun.

137. BMT tomonidan “Huquqiy tartibotni saqlash bo‘yicha mansabdor shaxslarning xulq- atvor Kodeksi” qachon qabul qilingan?

A)1979 yil 17 dekabr;

B) 1989 yil 24 may;

V) 1996 yil 12 dekabr;

G) 1996 yil 16 dekabr.

138. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5618 sonli Farmoni qachon qabul qilingan?

A) 2019 yil 19 sentyabr;

B) 2019 yil 29 oktyabr;

V) 2019 yil 25 noyabr;

G) 2019 yil 9 yanvar.

139. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasi qachon qabul qilingan?

- A) 2000 yil 30 mart;
- B) 2001 yil 3 iyun;
- V) 2003 yil 31 oktabr;
- G) 2004 yil 2 aprel.

140. BMTning Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Konvensiyasiga "O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida"gi Qonuni qachon qabul qilingan?

- A) 2006 yil 7 may;
- B) 2008 yil 24 iyun;
- V) 2005 yil 21 avgust;
- G) 2004 yil 15 fevral.

141. Quyidagilardan qaysi biri korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari sirasiga kirmaydi?

- A) Bosh prokuratura;
- B) Davlat xavfsizlik xizmati;
- V) Ichki ishlar vazirligi, Adliya vazirligi;
- G) Barchasi kiradi.

142. BMT ma'lumotiga ko'ra hozir dunyoda har yili qancha hajmda pora beriladi?

- A) 1 trillion AQSH dollari;
- B) 2 trillion AQSH dollari;
- V) 5 trillion AQSH dollari;
- G) 10 trillion AQSH dollari.

143. Dunyodagi eng kam korrupsiyalashgan mamlakatlarni toping.

- A) AQSH, Buyuk Britaniya;
- B) Janubiy Koreya, Fransiya;
- V) Daniya, Yangi Zelandiya;
- G) Norvegiya, Shvetsariya.

144. O'zbekistonda korrupsiya omillariga chek qo'yishga qaratilgan qancha normativ- huquqiy hujjat qabul qilindi?

- A) 100 dan ortiq;
- B) 70 dan ortiq;

- V) 50 dan ortiq;
- G) 120 ga yaqin.

145. O'zbekiston Respublikasi BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasiga qachon qo'shilgan?

- A. 2006 yil;
- B. 2008 yil;**
- V. 1992yil;
- G. 1993 yil.

146. O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning qaysi farmoyishi bilan tasdiqlangan?

- A. PF-6303;
- B. PF-4471;
- V. PF-4947;**
- G. PF-1464.

147. "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risidagi Qonun" qachon qabul qilingan?

- A. 2008 yil 5 may;
- B. 2018 yil 17 yanvar;
- V. 2017 yil 4 yanvar;**
- G. 2016 yil 21 mart.

148. 2020 yildan boshlab hokimlarning qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni olib qo'yish vakolati kimlarga berildi?

- A. xalq deputatlariga;**
- B. mahalla oqsoqollariga;
- V. hokim yordamchilariga;
- G. hokimlarning o'ziga.

149. "Korrupsiyasiz soha" loyihasi dastlab qaysi sohalarda amalga oshirildi?

- A. tibbiyot va qurilish;
- B. bank va oliy ta'lim;
- V. adliya va sud-huquq organlari;
- G. kapital qurilish va oliy ta'lim.**

150. Finlyandiya korrupsiyaga qarshi kurashish ishi bilan kim shug'ullanadi?

- A. Adliya ombudsmani;**

- B. Finlyandiya Prezidenti;
- V. Maxsus prokuratura organlari;
- G. Mahalliy federal vazirlik.

151. O'zbekistonda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi bevosita kimga bo'ysunadi?

- A. Adliya vazirligiga;
- B. Prezidentga;**
- V. Ombudsmanga;
- G. Mahalliy idora organlariga.

152. "O'zbekistonda samarali hisobdor va shaffof boshqaruv institutlari orqali korrupsiyaning oldini olish" (PSEAT) loyihasi qachondan boshlab ishlab kelmoqda?

- A. 2018 yil;**
- B. 2019 yil;
- V. 2020 yil;
- G. 2021 yil.

153. "Yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish" mavzusidagi seminar-trening qachon bo'lib o'tdi?

- A. 2020 yil 12 dekabr;**
- B. 2021 yil 12 dekabr;
- V. 2018 yil 12 yanvar;
- G. 2019 yil 12 yanvar.

154. Har yili AQSh jahon miqyosida korrupsiya tufayli qancha miqdordagi mablag'larni yo'qotadi?

- A. 2,6 trillion dollar;**
- B. 500 milliard dollar;
- V. 1,5 trillion dollar;
- G. 3,6 trillion dollar.

155. Mehnatsevarlik, adolat, halollik, yaxshilik, kishilar o'rtasidagi mehr-oqibat masalalari qaysi kitobning asosini tashkil qiladi?

- A) "Avesto" kitobining;**
- B) "Ramayana" kitobining;
- V) "Mahobhorat" kitobining;
- G) "Bxagavagita" kitobining.

156. Toshkent shahri Islom madaniyati poytaxti deb qaysi tashkilot tomonidan e'lon qilindi?

- A) BMTning YuNESKO bo'limi tomonidan;

- B) Xalqaro Islom konferensiyasi tashkiloti tomonidan;
V) Xalqaro Islom konferensiyasi tashkiloti Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha AYSESKO tomonidan;
G) Birlashgan millatlar tashkiloti tomonidan.

157. Ahmad Yassaviy ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy qarashlarini qaysi asarida ko'rish mumkin

- A) "Uch savolga javob" asarlarida;
B) "Devoni Hikmat" asarida;
V) "Risolai jabr" asarida;
G) "Ahloq haqidagi risola" asarida.

158. Naqshband tariqati qaysi ta'limotni o'ziga qoida qilib olgan?

- A) Haq-huquqlarni;
B) Imon-e'tiqodni;
V) ilohiy qoidalarni;
G) "Dil ba yoru dast ba kor"ni.

159. Nechanchi yilda Toshkent islom universiteti ochildi?

- A) 1998 yilda;
B) 1999 yilda;
V) 2000 yilda;
G) 2001 yilda.

160. Bahovuddin Naqshbandning ijtimoiy-siyosiy va ahloqiy-ma'naviy qarashlari qaysi kitoblarida bayon qilingan?

- A) "Maqomati shohi Naqshband", "Hayotnoma" va boshqa kitoblarida bayon qilingan;
B) "Hayotnoma" va boshqa kitoblarida bayon qilingan;
V) "Maqomati shohi Naqshband" va boshqa kitoblarida bayon qilingan;
G) "Haq yo'lida" va boshqa kitoblarida bayon qilingan.

161. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarini kim yozgan?

- A) Al-Xorazmiy;
B) Abu Ali ibn Sino;
V) Abu Rayxon Beruniy;
G) Abu Nasr Forobiy.

162. Hindistonning ijtimoiy-siyosiy qarashlari hind xalqining qaysi dostonlarida mujassamlashgan?

- A) “Ramayana”, “Bxagavagita”, “Veda”larda mujassamlashgan;
- B) “Mahobhorat”, “Ramayana”, “Veda”larda mujassamlashgan;
- V) “Mahobhorat”, “Bxagavagita”, “Veda”larda mujassamlashgan;
- G) **“Mahobhorat”, “Ramayana”, “Bxagavagita”, “Veda”larda mujassamlashgan.**

163. Shayx Najmiddin Kubro o‘zining “Al-usul-ul-ashara” nomli risolasida tasavvufning nechta asl qoidasini joriy qildi

- A) **10 ta asl qoidasini joriy qildi;**
- B) 9 ta asl qoidasini joriy qildi;
- V) 12 ta asl qoidasini joriy qildi;
- G) 11 ta asl qoidasini joriy qildi.

164. Tasavvuf ta’limotining asosiy g‘oyalaridan biri...

- A) Yetuklikka intilish
- B) **Komillikka intilish**
- V) Barkamollikka intilish
- G) Insonparvarlikka intilish

165. Marg‘inoniyning qaysi asari sakkiz asrdan buyon mukammal huquqiy manba sifatida o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan?

- A) “Sabbai sayyor”;
- B) “Volidiya”;
- V) **“Hidoya”;**
- G) “Boburnoma”.

166. Sharqda qaysi alloma “Burhoniddin va milla”, ya’ni “Din va millat hujjati” degan yuksak unvonga sazovor bo‘lgan?

- A) **Burhoniddin Marg‘inoniy;**
- B) Alisher Navoiy;
- V) Bahovuddin Naqshband;
- G) At –Termiziy.

167. Buddaviylikning muqaddas kitobi qanday nomlanadi?

- A) **Tripitaka;**
- B) Tavrot;
- V) Injil;
- G) Zabur.

168. Buddaviylik dini nechanchi asrda vujudga kelgan?

- A) Mil. av. V asrda;
- B) Mil. av. IV asrda;
- V) Mil. av. VI-V asrlarda;
- G) Mil. av. III asrda.

169. Buddaviylikning asosiy yoʻnalishidan biri Lamaizm nechanchi asrda vujudga kelgan?

- A) XII asr oxiri XIII asr boshlarida;
- B) X asr oxiri XI asr boshlarida;
- V) X asr oxiri XI asr oxirlarida;
- G) XI asr oxiri XII asr boshlarida.

170. Dinning ibtidoiy shakllari:.....

- A) totemizm, animizm, fetishizm, magiya;
- B) totemizm, animizm, shamanizm, fetishizm, magiya;
- V) totemizm, animizm, shamanizm;
- G) shamanizm, fetishizm, magiya.

171. Tavrot qaysi dinning muqaddas kitobi

- A) Yahudiylik dinining;
- B) Xristianlik dinining;
- V) Buddaviylik dinining;
- G) Hinduilik dinining.

172. Injil qaysi dinning muqaddas kitobi

- A) Buddaviylik dinining;
- B) Hinduilik dinining;
- V) Xristianlik dinining;
- G) Sintoizm dinining.

173. Qurʼon qaysi dinning muqaddas kitobi

- A) Buddaviylik dinining;
- B) Islom dinining;
- V) Sintoizm dinining;
- G) Hinduilik dinining.

174. Milliy dinlar qanday nomlanadi?

A) Yahudolik, Xinduiylik, konfutsiylik, sintoizm;

B) Buddaviylik konfutsiylik, sintoizm;

V) Hinduilik konfutsiylik, sintoizm;

G) Konfutsiylik, sintoizm, islom.

175. Konfutsiylik dinining asoschisi kim?

A) Gautama;

B) Lao szi;

V) Konfutsiy;

G) Dharmakirti.

176. Sharq falsafasi ijtimoiy-siyosiy qarashlarining mazmun-mohiyatini qanday omillar tashkil etadi

A) insoniylik, mehr-shafqat, adolat, axloq normalari kabi omillar;

B) insoniylik, adolat, axloq normalari kabi omillar;

V) insoniylik, mehr-shafqat, kabi omillar;

G) mehr-shafqat, adolat, axloq normalari kabi omillar.

177. Iso masih qaysi dinning payg'ambari?

A) Buddaviylik dinining;

B) Konfutsiylik dinining;

V) Xristianlik dinining;

G) Sintoizm dinining.

178. O'zbekistondagi xristian sektalari necha foizining baptistlar tashkil kiladi?

A) 65 foizdan ozrog'ini;

B) 65 foizdan ko'prog'ini;

V) 55 foizdan ko'prog'ini;

G) 60 foizdan ko'prog'ini.

179. Islom dinining payg'ambari

A) Muhammad (S.A.V.);

B) Iso Masih;

V) Muso;

G) Dovud.

180. Musulmonlarning qur'ondan keyingi ikkinchi kitobi nomi

A) Mavludi sharif;

B) Tafsiri hilol;

V) Zabur;

G) Hadis.

181. Payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V.) ning nechta choryorlari bo‘lgan?

A) uchta;

B) oltita;

V) to‘rtta;

G) beshta.

182. Islom dinining asosiy manbalari

A) Qur‘oni karim, Hadisi sharif;

B) Qur‘oni karim, Avesto;

V) Mavludi sharif, Hadisi sharif;

G) Qur‘oni karim, Mavludi sharif.

183. Toshkentdagi Qur‘onning “Mus‘hafi Usmoniy” nus‘hasi nechanchi yilda musulmonlarga qaytarib berildi?

A) 1925 yilda;

B) 1926yilda;

V) 1923 yilda;

G) 1928yilda.

184. Payg‘ambarimiz Muhammad (S.A.V.) choryorlarining nomlarini ayting.

A) Abu Bakr, Usmon, Umar, Ali;

B) Abu Sufyon, Ali, Umar;

V) Abu Bakr, Abu Sufyon;

G) Usmon, Abu Sufyon, U.mar

185. Islomdagi siyosiy oqimlar qanday nomlanadi?

A) Molikiya, Shialik, Xorijiylar;

B) Sunniylik, Molikiya, Xorijiylar;

V) Sunniylik, Shialik, Xorijiylar;

G) Sunniylik, Xorijiylar, Molikiya.

186. Ahli sunna val jamoa nechta mazhablarga bo‘linadi?

A) to‘rtta;

B) beshta;

- V) ikkita;
- G) uchta.

187. So'fiylikda inson ma'naviy kamolotiga erishishning asosiy bosqichlari bu...

- A) haqiqat, shariat;
- B) ma'rifat, haqiqat;
- V) shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat;
- G) tariqat, ma'rifat.

188. Hanafiya mazhabining asoschisi kim?

- A) Abu Hanifa taxallusi Imomi A'zam;
- B) imom Shofi'iy;
- V) Molik ibn Onas;
- G) Ahmad ibn Hanbal.

189. Payg'ambarimiz Muhammad (S.A.V.) nechanchi yilda tug'ilgan?

- A) Melodiy 572 yilda;
- B) Melodiy 570 yilda;
- V) Melodiy 571 yilda;
- G) Melodiy 569 yilda.

190. Muhammad (S.A.V.) ning payg'ambarlik faoliyati nechanchi yildan boshlangan?

- A) Melodiy 610 yildan;
- B) Melodiy 612 yildan;
- V) Melodiy 605 yildan;
- G) Melodiy 615 yildan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Prezident asarlari:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. –T.: O'zbekiston, 2017 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston. 2017. 484 bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –T.: O'zbekiston, 2016. 53 bet.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston. 2017. 484 bet.
6. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza.//Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. –T.: O'zbekiston. NMIU. 2017. –B.110.
7. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. –T.: O'zbekiston. 2017. –B. 508.
8. Mirziyoyev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon xalqning, do'stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 26 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza 2018 yil 7 dekabr.

II. Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekistonda ijimoiy-falsafiy fikrlar tarixidan. O'quv qo'llanma. - T.: O'zbekiston. 1995. –B. 19
2. Iskandarov B. Tasavvuf falsafasi. –T.: 1995. –B. 21
3. Rahimov I. Falsafa. –T.: 1998 –B. 70-71
4. Falsafa tarixi. Gunar Skirbek, Nils Gile. O'quv qo'llanma. –T.: Sharq. 2002
5. Sher A. Axloqshunoslik. –T.: Yangi asr avlodi. 2003. –B. 10
6. Falsafa qomusiy lug'at. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti". –T.: Sharq. 2004
7. Sharipov M., Fayzixo'jaeva D. Mantiq. O'quv qo'llanma. –T.: 2004
8. Falsafa asoslari. Darslik. –T.: O'zbekiston. 2005
9. Xudayshukurov T. Kasbiy etika va etiket. Ma'ruzalar matni. –Samarqand. 2005. –B. 8

10. “Falsafa” fani bo‘yicha ta’lim texnologiyasi: Uslubiy qo‘llanma/ “Iqtisoiy ta’limdagi o‘qitish texnologiyasi” seriyasidan. –T.: TDIU. 2006
11. “Falsafa” fani bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua (bakalavriat bosqichi talabalari uchun): O‘quv-uslubiy qo‘llanma. –T.: TDIU. 2006
12. Umarov E., Karimov R., Mirsaidova M., Oyxo‘jaeva G. Estetika asoslari. O‘quv qo‘llanma. –T.: Cho‘lpon. 2006
13. Erkaev A. Tafakkur erkinligi. –T.: 2007. –B. 13
14. Sharipov M., Fayzixo‘jaeva D., Safarboyev M. Mantiq. O‘quv qo‘llanma. –T.: 2009.
15. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. Darslik. –T.: O‘FMJ. 2010
16. Ismoilov B.I. “Korrupsiyaga qarshi kurashning xalqaro huquqiy asoslari” maxsus kursi bo‘yicha ma’ruza matni. –T.: 2013. –B. 8-9
17. Abdulla Sher, Bahodir Xusanov. Estetika. 2-nashr. Uslubiy qo‘llanma. – T.: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati. 2014
18. Abduhamidov M. Yahudiy va nasroniy jamoalarining islom tarixida tutgan mavqei. Ilmiy ommabop risola. - Farg‘ona. 2015. – B. 14.
19. Fayzixo‘jaeva D. Mantiq. Izohli lug‘at. –T.: Tamaddun. 2015.
20. Falsafa asoslari. O‘quv qo‘llanma. Q.Nazarov va boshqalar. –T.: O‘FMJ. 2018

III. Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Frolov I.T. Perspektıy cheloveka. – M.: 1979. –S. 17
2. Slovar po etike. – M.: Politizdat.1981.
3. Al-Farabi. Yestestvenno-nauchnye traktaty. Alma-Ata. 1987. 435-bet.
4. Axloq odobga oid hadis namunalari. –T.: Fan. 1990.–B. 57-63.
5. Hadis.–T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1991. 1-tom. –B. 3
6. Kaykovus. Qobusnoma. –T.: Istiqlol. 1994. –B. 148
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T.: O‘zbekiston.1995. – B. 176
8. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T. 1997. –B. 37.
9. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Tarixi Muhammadiy. – T.: Movarounnahr. 1997. – B. 11
10. Abu Abdulloh Muhammad Ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis (Al jomi’ as-sahih). 4 tomlik. –T.: Qomuslar Bosh tahririyati. 1997. 4-tom. –B. 53.
11. Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari.–T.: O‘zbekiston. 1998. –B. 441.

12. Jo‘rayev U.T., Saidjonov Y.S. Dunyo dinlar tarixi. O‘quv qo‘llanma. – T.: Toshkent islom universiteti nashriyoti. 2001.
13. Kuzmin K.V., Sutyrin B.A. istoriya sotsialnoy raboty za rubejom i v Rossii(sdrevnosti do nachalaXX veka). – M.: Akademicheskiy proekt; Yekaterinburg: Delovaya kniga. 2002. –S.: 11.
14. Karimov I.A. Biz tanlagan, yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li. –T.: O‘zbekiston. 2003.
15. Islom ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. –B. 174
16. Abdulaziz Mansur. Qur‘oni karim ma‘nolariningtarjimasi va tafsiri. –T.: 2004. –B. 574
17. Islom ensiklopediyasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2004. –B. 303
18. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma‘naviy-ma‘rifiy asoslari.–T.: 2004. –B. 73-74.
19. Quronov M. Milliy tarbiya. – T.: Ma‘naviyat. 2007. –B. 16
20. Jaborov I. O‘zbeklar. –T.: Sharq nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati. 2008.
21. Maqsud Oqjariy. Yaponiya – mo‘jizalar o‘lkasi. –T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2010. –B. 121-122
22. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – engilmas kuch. 2-nashr –T.: Ma‘naviyat. 2016.

Qur‘oni Karim oyatlari:

1. Qur‘oni Karim. 21-“Anbiyo” surasi, 91- oyat.
2. Qur‘oni Karim. 5- “Moida” surasi. 50-oyat.
3. Qur‘oni Karim. 33- “Ahzob” surasi. 33-oyat.

Gazeta va jurnal ma‘lumotlari:

1. Fayzullayev O. Dialektik tafakkur mahsuli. – T.: Tafakkur. 1998. № 2-son. – B. 12.
2. Begmatov A. Aqidaparstlik: tarix ogohlantiradi O‘zbekiston ovozi. 1998 yil, 20-soni
3. Hamdamov O. “Ezgulikka chog‘lanmagan musulmon emas”. Vatan. 1998 yil. 15 may soni.

4. I.A.Karimov. Toshkent shahridagi fojeali hodisalar munosabati bilan motam kuni e'lon qilish to'g'risida O'zbekiston ovozi. 1999 y. 18-fevral soni.

5. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2017 yil 7 fevral "Xalq so'zi" gazetasi, 2017 yil 8 fevral.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 aprelda qabul qilingan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. // Qishloq hayoti gazetasi. 2018 yil 17 aprel. 39 (8902) soni.

7. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2019 yil 27 maydagi PF-5729-son Farmoni Xalq so'zi gazetasi. 2019 yil 28 may.

8. 2018 yil 16 aprelda qabul qilingan "Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. // Qishloq hayoti gazetasi. 2018 yil 17 aprel. 39 (8902) soni.

9. Mirziyoev Sh.M. Konstitutsiya va qonun ustuvorligi – huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatining eng muhim mezonidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 27 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi Xalq so'zi gazetasi. 2019 yil 9 dekabr.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 29.06.2020 PQ-4761-sonli qarori Xalq so'zi gazetasi. 2020 yil 30 iyun.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi, 2020 yil 30 dekabr

12. Asrorov U. Korrupsiyaga qarshi kurashishda yangi tizim va yangi mexanizm yaratiladi. Respublika Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A. Burxonov bilan suhbat. Yangi O'zbekiston gazetasi. 2020 yil 7 oktabr.

13. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston gazetasi bosh muharriri S.Doniyorovga bergan intervyusi. Toshkent.: 2021 yil.

14. O'zbekiston Respublikasining "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonuni. 4 yanvar 2017 y.// <http://parlament.gov.uz/uz/labs/adopted/253/19165/>.

Eslatmalar:

1. Sinagoga (grekcha *yig'ilish*) yahudiylar ibodatxonasi rolini o'ynovchi diniy tashkilot va ibodat uyiga anlantirilgan.

2. Iso nomiga qo'shilgan "Masih" so'zi qadimiy yaxudiy tili – ivritdagi meshnax so'zidan olingan bo'lib, "silangan" yoki "siylangan" ma'nolarini bildiradi.

3. Bibliya (yunoncha – kitoblar demakdir). Iudizm va xristianliklar muqaddas yozuvlar to'plami bo'lmish bu kitob o'n besh asr mobaynida (miloddan avvalgi XIII asr vamilodning II asrlari) vujudga kelgan.

4. Hindistonda kishilarni bir-biriga aralashmaydigan tabaqalarga; braxman(kohin)lar, kshatriy (harbiy)lar, vayshiy (savdogar, hunarmand, o'rta tabaqalar), shudriylarga, ya'ni boshqa tabaqalarga xizmat qiluvchi eng past tabaqa hisoblangan xizmatkorga bo'lishdan iborat qat'iy diniy talimotga asoslangan.

5. Vedalar eramizdan ilgarigi 11 ming yillik o'rtalaridan boshlab paydo bo'lgan. "Veda" – qadimgi hind tili – sankskritchada "bilim" demakdir. Ular 4 to'plamdan iborat: 1) gimnlar va duolar; 2) marosimchilikda ijro etiladigan gimnlar; 3) qurbonlikka oid qoidalar va duolar; 4) yovuz kuchlarga karshi duo va afsonalar.

6. Upanishadlar eramizdan oldingi ming yilliklar boshlarida paydo bo'lgan. Upanishadlar – sankskritcha, "sirli ta'limot" degan ma'noni anglatuvchi, vedalarni sharhlash jarayonida yuzaga kelgan axloqni va boshqa xarakterdaga risolalar bo'lib 250 ga yaqindir.

MUNDARIJA

So'zboshi.....	3-5
1-MODUL	
1-mavzu: Falsafa fanining asosiy maqsadi va bo'lg'usi pedagoglarda o'qitishning nazariy va amaliy ahamiyati.....	5-13
2-mavzu: Falsafaning taraqqiyot bosqichlari.....	14-36
3-mavzu: O'rta asrlar falsafasi va Ovroqadagi falsafiy fikrlar.....	37-55
4-mavzu: Ontologiya, gnoseologiya va ong falsafasi.....	56-67
5-mavzu: Falsafaning metod, qonun va kategoriyalari.....	68-80
6-mavzu: Jamiyat falsafasi. Hozirgi zamon jamiyatining global muammolari va jamiyatni rivojlantirish istiqbollari.....	81-93
2-MODUL	
7-mavzu: Pedagogik amaliyotda mantiqiy fikrlashning ahamiyati.....	94-116
8-mavzu: Etika fanining predmeti, asosiy muammolari va kasbiy axloq.....	117-133
9-mavzu: Pedagog faoliyatida estetika.....	134-161
3-MODUL	
10-Mavzu: Korrupsiya va uning asosiy ko'rinishlari.....	162-180
11-mavzu: Korrupsiya va ijtimoiy hayot. Korrupsiyani bartaraf etishning asosiy yo'nalishlari.....	181-196
4-MODUL:	
12-mavzu: Dinshunoslik faniga kirish. Dinning mohiyati, tuzilishi, funksiyalari.....	197-207
13-mavzu: Urug'-qabila va milliy dinlar.....	208-221
14-mavzu: Jahon dinlari: Buddizm va xristianlik hamda ulardagi ta'limiy-tarbiyaviy qarashlar.....	222-238
15-mavzu: Islom dini va uning ta'limoti.....	239-262
5-MODUL:	
16-mavzu: O'zbekistonda vijdon erkinligi.....	263-280
17-mavzu: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash. O'zbekiston tajribasi.....	281-294
Glossariy.....	295-316
Mavzular bo'yicha testlar.....	317-349
Foydalanilgan adabiyotlar.....	350-354